

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

№ 4, 2025

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 4, 2025

http://buxpxti.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 4, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ilmiy-amaliy jurnal 4-son Buxoro - 2025. - 396 b. **Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков** научно-практический журнал Выпуск 4. Бухара - 2025. - 396 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 20.05.2025 Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 24.75. Buyurtma № 121. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor
Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
EDITORIAL BOARD MEMBERS
Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor
FOREIGN SCIENTISTS
Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)
SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES
Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
PEDAGOGICAL SCIENCES
Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
PHILOLOGY SCIENCES
Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD
EDITORS:
Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Alimova Umida Raxmatillayevna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogka universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

AYOLLARDA STRESS DAVRIDA DISTRUKTIV KECHINMALARNING YUZAGA KELISHI

Annotatsiya. *Mamlakatimizda ayollarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ularni hech kimdan kam bo'lmagan, mustaqil fikrli, har tomonlama barkamol shaxs etib voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy jamiyatni rivojlanish an'analari ayolning psixik jarohatlanish xavfini yuzaga keltiruvchi omillar sonining kundan kunga ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu oila, ichkilikka ruju qo'yish, yuqumli kasalliklar, o'lim xavfi va boshqa muammolardir. Bular shubhasiz himoyasiz ayol psixikasiga psixologik jarohat yetkazadi va ayolning butun hayotida salbiy iz qoldiradi.*

Kalit so'zi: *Stress, reabilitatsiya, destruktiv kechinmalar, emotsional, psixosomatika jarohat, zo'riqish, shaxs, depressiya, mexanizm, reaksiya, hissiyot, stressogen.*

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ДЕСТРУКТИВНЫХ ПЕРИОДОВ ВО ВРЕМЯ СТРЕССА У ЖЕНЩИН

Аннотация. *В нашей стране особое внимание уделяется вопросу защиты прав и интересов женщин, воспитанию из них независимых, всесторонне развитых личностей, не равных никому другому. Традиции развития современного общества обуславливают то, что число факторов, вызывающих риск психологической травмы женщины, увеличивается с каждым днем. Это семейные, алкогольная зависимость, инфекционные заболевания, риск смерти и другие проблемы. Они, несомненно, наносят психологическую травму ранимой женской психике и оставляют негативный след на всей жизни женщины.*

Ключевые слова: *Стресс, реабилитация, деструктивные переживания, эмоциональность, психосоматика, травма, перенапряжение, личность, депрессия, механизм, реакция, эмоция, стрессоген.*

THE EMERGENCE OF DESTRUCTIVE PERIODS DURING STRESS IN WOMEN

Abstract. *In our country, special attention is paid to the issue of protecting the rights and interests of women, raising them to be independent, comprehensively developed individuals, unmatched by anyone else. The traditions of the development of modern society determine that the number of factors causing the risk of psychological trauma to women, increases every day. These are family, alcohol addiction, infectious diseases, risk of death and other problems. They undoubtedly cause psychological trauma to the vulnerable female psyche and leave a negative mark on the woman's entire life.*

Key words: *Stress, rehabilitation, destructive experiences, emotionality, psychosomatics, trauma, overexertion, personality, depression, mechanism, reaction, emotion, stressor.*

Kirish. Hozirgi kunga kelib davlatimizda juda ko'plab ishlar olib borilmoqda, jumladan muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan Suriya davlati hududidan 156 nafar ayollar va bolalar qaytarildi, ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi amalga oshirilmoqda. Bu ayollarning aksariyat qismi psixologik jarohatdan keyingi stressga tushgan ayollar sirasiga kiradi. Bunday ayollarga psixologik yordam ko'rsatish va ular bilan psixologik reablitatsiyani olib borish ancha mehnat talab qilinadi, shu sababli biz tanlagan mavzu hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Surunkali emotsional zo'riqish jismoniy salomatlikning ham yomonlashuviga olib keladi. Psixosomatik buzilish yuzaga keladi. Destruktiv kechinmalar, psixologik himoya mexanizmlari mushaklardagi tortishish va zo'riqish kabi shaxs tanasida ifodalanadi. Stressli vaziyat yoki psixologik jarohat "mushak broni"ni yuzaga keltiradi. V.Rayx ta'kidlashicha, psixologik himoya mexanizmlaridan "aktual emotsional kechinmalar"ni yashirishda foydalaniladi va turli guruhga oid mushaklar zo'riqishi, tortinchoqlik bilan nafas olish kabi belgilar bilan ifodalanadigan "mushak broni"ni shakllantiradi. Xarakter va "mushak broni" shakllanishi o'zaro aloqador bo'lib, tana va psixika bu jarayonda uzluksiz

ravishda birgalikda harakatlanadi. Shuning uchun psixologik jarohatni boshidan kechirgan shaxslarning ko‘pchiligida jismoniy salomatligida muammolar paydo bo‘ladi.

Destruktiv kechinmalar — bu shaxsning ichki holatini buzuvchi, salbiy ruhiy holatlar bo‘lib, ular o‘ziga, boshqalarga yoki jamiyatga qarshi yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Ayollarda bu kechinmalar ko‘proq:

- depressiya,
- tashvish (anksiyete),
- ayb yoki pushaymonlik hissi,
- o‘zini qadrsiz his qilish,
- hissiy zo‘riqish (stress),
- agressiya yoki passivlik kabi shakllarda namoyon bo‘ladi.

Shaxs bir yoki bir necha jarohatlovchi voqea-hodisalarni boshdan kechirgach, uning psixikasi chuqur zarar ko‘radi. Bu voqea-hodisalar uning hayotiy tajribasidan tubdan farq qilgani uchun kuchli azob chekadi va shaxs salbiy reaksiyalar bilan javob qaytaradi. Bunday vaziyatda normal psixika tabiiyki, diskomfortni yumshatishga harakat qiladi: shaxs hayotini ozgina bo‘lsada yengillashtirish uchun atrof-olamga munosabatini tubdan o‘zgartiradi, bu esa o‘z navbatida psixologik zo‘riqishni chaqiradi va psixologik himoya mexanizmlarini shakllanishiga sharoit yaratadi. Bu holatda psixologik himoya shaxsning stressli vaziyatni boshdan kechirishiga javoban rivojlanadi, shu sababli jarohatlangan shaxs bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa, hissiyotlarni qabul qila olmaydi va anglay olmaydi.

Ayollarning muhim xususiyatlaridan biri – bu uning emotsionalligidir. U o‘z atrofidagi har qanday o‘zgarishga sergaklik bilan javob qaytaradi – xoh u ijobiy bo‘lsin, xoh u salbiy. Aynan ayollarda stressli vaziyatlar ta’siriga nisbatan zaif va beqaror kategoriyaga mansub hisoblanadi.

D.N. Isaev dezadaptatsiya reaksiyasini yuzaga keltiruvchi psixologik travmatizatsiya xavfi yuqori bo‘lgan vaziyatlarni ajratib ko‘rsatadi. Ular quyidagicha:

Xavfsizlik va himoyalanganlik hissini yo‘qotish yoki umuman yo‘qligi:
-Dushmanlik kayfiyati yuqori qattiqqo‘l oila;
-Hissiyotlarni inkor etuvchi oila;
-Nazorat va e’tiborni ta’minlamaydigan oila;
-Yaqinini yo‘qotish yoki uning kasal bo‘lishi;
-Barkamol bo‘lmagan oila (inqirozga yoqasidagi, inqirozga yuz tutgan, rigid, yuzaki g‘amxo‘rlik);
-Oiladagi begona muhit (til, madaniyat);

Ayollarda yana bir psixologik travmatizatsiyaning salbiy faktorlaridan biri psixologik deprivatsiya hisoblanadi. V.A.Gureva klassifikatsiyasiga ko‘ra psixologik deprivatsiyaning paydo bo‘lishi surunkali psixologik jarohat bilan bog‘liq.

Ayollarda destruktiv kechinmalarning sabablari:

Ilmiy manbalarda bu holatlarning kelib chiqish sabablari turli omillar bilan bog‘lanadi:

A) Biologik omillar
- Gormonal o‘zgarishlar (masalan, hayz davri, homiladorlik, tug‘ruqdan keyingi davr, menopauza)
- Neyrobiologik o‘zgarishlar

B) Ijtimoiy-psixologik omillar
- Ijtimoiy tengsizlik yoki jinsiy diskriminatsiya
- Oilaviy muammolar, zo‘ravonlik
- Ijtimoiy bosim (ideal ayol qiyofasi, majburiyatlar)
- Ish va uy ishlarining kombinatsiyasi

C) Shxsiy omillar
- Past o‘zini baholash
- Ichki konfliktlar
- Travmatik tajribalar (bolalikdagi psixologik jarohatlar)

Psixologik deprivatsiya — bu psixologik holat bo‘lib, yetarli miqdorda va yetarli vaqt oralig‘ida subyektda hayot uchun bir qator muhim psixologik ehtiyojlarni qondirishning imkoni bo‘lmagan hayotiy vaziyatlar natijasida yuzaga keladi.

Shaxsda psixologik deprivatsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy hayotiy ehtiyojlarni Y. Langmeer va Z. Mateychek quyidagicha ataydi:

-ma'lum bir miqdordagi, o'zgaruvchanlikdagi va tur(modallik)dagi stimullarga bo'lgan ehtiyoj;

-harakatli o'rganishda asosiy shart-sharoitga bo'lgan ehtiyoj;

-harakatli asosiy shaxs integratsiyasini ta'minlovchi birlamchi jamoaviy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj;

-ajratilgan jamoaviy rollar va qimmatli maqsadlarga ega bo'lish imkonini beruvchi jamoaviy o'z-o'zini realizatsiya etishga bo'lgan ehtiyoj.

Og'ir va uzoq davom etgan deprivatsiya kuchli stressogen faktor bo'lib, ayolning psixologik strukturasida chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ayollarda qanchalik stress bo'lsa, shuncha uzoq davom etadi va asoratlar bo'lmasligiga umid shuncha kam qoladi. Hatto ko'zga tashlanmas o'zgarishlar bilan o'tgan qisqa deprivatsion tajriba ham yashirin iz qoldiradi va shunga o'xshash voqeaning takrorlanishi yoki boshqa yoqimsiz hayotiy vaziyat tufayli kuchayadi.

Stress atamasiga birinchi navbatda ta'rif bergan olimlardan biri bu Gans Sele xisoblanadi. Shaxsning inqirozli vaziyatlarga moslashish muammosi ilgaridan odamlarni qiziqtirib kelgan. So'nggi yillarda esa zamonaviy fanning bu muammoni o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Hech bir shaxs muvaffaqiyatsizliklar, to'siqlar, hayajonlanishlardan kafolatlangan emas. Ko'pchilik shaxslar janjallar, o'zaro munosabatlardagi nizolar va munozaralarni chetlab o'ta olmaydilar. Natijada psixik va jismoniy salomatlikni izdan chiqaruvchi emotsional stress yuzaga keladi.

Ingliz tilidan tarjima qilinganda "stress" so'zi zo'riqish, kuchlanish, urg'u berish, bosim o'tkazish ma'nolarini anglatadi. Disstress so'zi esa qayg'u, muhtojlik, charchash ma'nolarida qo'llaniladi.

Hozirgi davrda stress deganda organizmning qandaydir qo'zg'atuvchi - stressor ta'siri ostida yuqori zo'riqish holati tushuniladi. Stress so'zi individning ekstremal holatlardagi holatini ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Bugungi kunimizda stress nima ekanligini bilmaydigan odamning o'zi yo'q. Hayot murakkab, unda hamma jarayonlar ham bir tekisda ketmaydi, shundan stresslar kelib chiqadiki, ularning haddan ziyod ortib ketishi salomatlikning buzilishi, ruhiy mutanosiblikning izdan chiqishiga olib keladi. Mazkur termin birinchi bo'lib kanadalik fiziolog Gans Sele (1907-1982) tomonidan kiritilgan. Sele fikricha, stress bu hayot. Shaxs suvsiz, havosiz, ovqatsiz yashay olmaganidek, stresssiz ham yashay olmaydi. Lekin stress to'planishi va shunday kuchga ega bo'lishi mumkinki, natijada odam u bilan kurashishga qodir bo'lmay qoladi va kasallikka chalinadi. Shu narsa juda muhimki, emotsional stress darajasi avvalambor, konkret odamning stress holatiga munosabati, uni qanday talqin etishi va kechinishiga bog'liq. Kuchli emotsional stress organizmning kasalliklarga beriluvchanligini oshirishi mumkin.

Metodlar: G.Sele nazariyasida stress fiziologik, kimyoviy, organik omillarga fiziologik ta'sir nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Nazariyaning asosiy mazmunini to'rtta pozitsiyada umumlashtirish mumkin.

1. Barcha biologik organizmlarda ichki muvozanat holatini yoki ularning tizimlarining ishlash muvozanatini saqlash uchun tug'ma mexanizmlar mavjud. Ichki muvozanatni saqlash gomeostaz jarayonlari bilan ta'minlanadi. Gomeostazni saqlash organizm uchun muhim vazifadir.

2. Stresslar, ya'ni kuchli tashqi stimullar ichki muvozanatni buzadi. Organizm har qanday stressga yoqimli yoki yoqimsiz, o'ziga xos bo'lmagan fiziologik qo'zg'alish bilan ta'sir ko'rsatadi. Ushbu reaksiya himoya va moslashuvchan.

3. Stressning rivojlanishi va unga moslashish bir necha bosqichlardan o'tadi. Kurs va har bir bosqichga o'tish vaqti organizmning qarshilik darajasi (qarshilik, barqarorlik), stress omiliga ta'sir qilish intensivligi va davomiyligiga bog'liq.

4. Organizmda stressni oldini olish va nazorat qilish (yengillashtirish) uchun moslashuvchanlik qobiliyatining cheklangan zaxiralari mavjud - ularning yetishmasligi kasallik va o'limga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining umumlashtirilishi G.Selega jarayonning uch bosqichi mavjudligini asoslab berishga imkon berdi, uni umumiy adaptatsiya sindromi deb atadi. Anksiete bosqichi birinchi marta stress paydo bo'lganda paydo bo'ladi. Qisqa vaqt ichida organizmning qarshilik darajasi pasayadi, ba'zi somatik va vegetativ funksiyalar buziladi. Keyin tanasi zaxiralarni safarbar qiladi va himoya jarayonlarini o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini yoqadi. Himoyalar samarali bo'lsa, tashvish susayadi va tana normal faoliyatiga qaytadi. Ko'pgina stresslar ushbu bosqichda hal qilinadi. Bunday qisqa muddatli stresslarni o'tkir stress reaksiyalari deb atash mumkin.

G.Sele "yuzaki" va "chuqur" moslashuvchan energiyani ajratib olishni taklif qildi. Birinchisi "talab bo‘yicha" mavjud va boshqasi hisobiga to‘ldiriladi - "chuqur". Ikkinchisi organizmning gomeostatik mexanizmlarini adaptiv ravishda qayta qurish orqali safarbar qilinadi. G.Sele’ning fikricha, qaytarilmas va o‘limga yoki qarishga olib keladi.

Zamonaviy psixologiyada quyidagi psixologik modellar va stress nazariyalari ajralib turadi.

1. Genetik-konstitutsiyaviy nazariya, uning mohiyati tanadagi stressga qarshi turish qobiliyati mavjud sharoitlardan qat’iy nazar, oldindan belgilangan ish strategiyalariga bog‘liq degan pozitsiyaga kelib chiqadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar genetik makiyaj (genotip) va jismoniy shaxsning stressga qarshi turish qobiliyatini pasaytirishi mumkin bo‘lgan ba’zi jismoniy xususiyatlar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatishga harakat qilmoqda.

2. Stressga moyillik (diatez) modeli - irsiy va tashqi muhit omillarining o‘zaro ta’siri ta’siriga asoslangan. Bu predispozitsiya qiluvchi omillarning o‘zaro ta’siriga va stress reaksiyalarining rivojlanishidagi kutilmagan, kuchli ta’sirlarga imkon beradi.

3. Z.Freyd nazariyasiga asoslangan psixodinamik model. U o‘z nazariyasida tashvish, xavotirning kelib chiqishi va namoyon bo‘lishining ikki turini tavsifladi:

a) signal xavotiri haqiqiy tashqi xavfni kutish reaksiyasi sifatida paydo bo‘ladi;

b) shikastlanish xavotiri ongsiz, ichki manba ta’sirida rivojlanadi.

Ushbu turdagi tashvishlanishning eng yorqin namunasi - bu jinsiy istaklarni va tajovuzkor instinktlarni jilovlash. Natijada paydo bo‘lgan ushbu holatning alomatlarini tavsiflash uchun Z.Freyd "kundalik hayot psixopatiyasi" atamasini kiritdi.

4. Model N.G.Wolff, unga ko‘ra muallif stressni ijtimoiy va psixologik ogohlantirishlarga fiziologik reaksiya deb hisoblagan va ushbu reaksiyalarning munosabat (pozitsiyalar, munosabatlar) tabiatiga, shaxs xulq-atvorining motivlariga, vaziyat va unga munosabat ishonchliligiga bog‘liqligini o‘rnatgan.

5. Dissiplinar (intizomiy) stress modeli. Mualliflarning fikriga ko‘ra, stress ko‘pchilik odamlarda yoki ularning ayrim vakillarida tashvish uyg‘otadigan stimullarning ta’siri ostida paydo bo‘ladi va bir qator fiziologik, psixologik va xulq-atvor reaksiyalariga olib keladi, ba’zi hollarda patologik, ammo, ehtimol, yuqori darajadagi ish faoliyatini va tartibga solishning yangi imkoniyatlari.

6. Konfliktlar nazariyalari. Stressning bir nechta modellari jamiyatdagi sub’ektlarning xatti-harakatlari va guruhdagi jarayonlarga hamroh bo‘lgan munosabatlardagi keskinlik holati o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Tanglikning asosiy sabablari jamiyat a’zolarining uning ijtimoiy me’yorlariga bo‘ysunishi zarurati bilan bog‘liq.

Natijalar va munozara: stressni oldini olish jamiyat a’zolariga rivojlanish uchun qulay sharoit va munosabat va qarashlarni tanlashda katta erkinlikni ta’minlashga asoslangan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Konflikt nazariyalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi, jamiyatdagi iqtisodiy tovarlar va xizmatlarning taqsimlanishi va kuch tuzilmalaridagi shaxslararo o‘zaro ta’sirlarni stress sabablari sifatida ko‘rib chiqadi. Ijtimoiy jihatlar, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishining evolyutsion nazariyasi, ekologik nazariya (ijtimoiy hodisalarning jamiyatdagi o‘rni), hayot o‘zgarishi nazariyasi (oilada, ishda va boshqalar) kabi stress nazariyalarining asosini tashkil etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абитов И.Р., Акбирова Р.Р. Психология стресса. Учебнометодическое пособие. – Казань: НОУ ДПО “Центрсоциальногуманитарного образования”, 2022.2.
2. Бодров В.А. Информационный стресс: Учебное пособие для вузов. – М.: ПЕР СЭ, 20003.
3. Яковлев Е.В., Леонтьев О.В., Гневышев Е.Н. Психология стресса. Учебное пособие. – Университет при МПА ЕврАзЭС, 2020.
4. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценка и копинг. – СПб.: Питер, 2021.
5. Селье Ганс. Стресс без дистресса. – М.: Прогресс, 19796. КитаевСмык Л.А. Психология стресса. – М.: Наука, 1983.
6. Коркина М.В. Психофизиология адаптации человека к стрессу. – М.: Медицина, 1998.
7. Василюк Ф.Е. Психология переживания. – М.:Издво МГУ, 1999.
8. Шерман К.В. Социальные аспекты стресса. – СПб.: Наука, 2018.
9. Бехтерева Н.Н. Нейрофизиологические основы адаптации к стрессу. – Л.: Наука, 1974.

Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna
Andijon davlat Pedagogika instituti Pedagogika va Psixologiya kafedrasi doktoranti va o'qituvchisi

O‘SMIRLARNING O‘ZARO MUNOSABATLARIDAGI MUAMMOLI VAZIYATLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarning o‘zaro munosabatlaridagi muammoli vaziyatlarda emotsional intellektning o‘rni mavzusida ilmiy izlanishlar tahlil qilinib tadqiqotchi fikrlari, qarashlari keltirildi. Emotsional intellekt (EI) yoki his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish qobiliyati, shuningdek, boshqalar bilan munosabatlarni samarali yuritish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar to‘plamidir.*

Kalit so‘zlar: *Emotsional intellekt, o‘smirlik, ijtimoiylashuv, o‘zini tushuna olish, boshqalarni tushuna olish, muammoli vaziyatlar, vaziyatlarni baholay olish va vaziyatlardan chiqa olish.*

РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЯХ В ПОДРОСТКОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль эмоционального интеллекта (ЭИ) в решении проблемных ситуаций в межличностных отношениях подростков. Приведен анализ научных исследований по данной теме и мнения авторов. Эмоциональный интеллект (ЭИ) или способность понимать и управлять своими эмоциями, а также навыки, необходимые для эффективного взаимодействия с другими людьми, являются важным аспектом социального взаимодействия.*

Ключевые слова: *Эмоциональный интеллект, подростковый возраст, социализация, самопонимание, понимание других, проблемные ситуации, оценка ситуаций*

THE ROLE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PROBLEM SITUATIONS IN ADOLESCENT RELATIONSHIPS

Annotation. *This article discusses the role of emotional intelligence (EI) in resolving problematic situations in the interpersonal relationships of adolescents. It presents an analysis of scientific research on this topic and the authors' views and opinions. Emotional intelligence (EI), or the ability to understand and manage one's emotions, as well as the skills necessary for effective interaction with others, is an essential aspect of social interaction.*

Keywords: *Emotional intelligence, adolescence, socialization, self-understanding, understanding others, problematic situations, assessing situations, and finding solutions.*

Kirish. O‘smirlarda guruhiy munosabatlar va emotsional intellekt (EI) o‘rtasidagi bog‘lanish juda muhim, chunki bu davrda yoshlarda emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar juda kuchli bo'ladi. Emotsional intellekt, ya'ni insonning o'z his-tuyg'ularini tushunishi, boshqarishi va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini anglay olish qobiliyati, o'smirlar uchun ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'smirlarda emotsional intellektning rivojlanishi guruhiy munosabatlar va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jihatlar o'smirlarning guruhiy munosabatlarida emotsional intellektning qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi: O'zini anglash va o'zini nazorat qilish: O'smirlar, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish orqali guruhda qanday muomala qilishni o'rganadilar. O'zini nazorat qilish va ijobiy hissiyotlarni boshqarish orqali, ular atrofdagilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishlari mumkin. Empatiya: EI ning muhim jihatlaridan biri empatiya — boshqalar his-tuyg'ularini tushunish va ularga yordam berish qobiliyatidir. O'smirlar bu ko'nikmalarni rivojlantirib, guruhdagi boshqa a'zolar bilan yanada kuchli va ishonchli munosabatlar o'rnatadilar. Ijtimoiy ko'nikmalar: Emotsional intellekt ijtimoiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, masalan, munosabatlarni yaxshilash, to'g'ri muloqot qilish, konfliktlarni hal qilish. O'smirlar emotsional intellektni rivojlantirish orqali

guruhda o'zaro hurmat, hamjihatlik va muammolarni samarali hal qilishni o'rganadilar.Ijtimoiy stress va konfliktlarni boshqarish: O'smirlar o'zlarining emotsional reaktsiyalarini boshqarish orqali guruhdagi stress va konfliktlarni samarali hal qilishadi. emotsional intellektni kuchaytirish o'smirlarga guruhdagi muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirish o'smirlarning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi, ular guruhda o'z o'rnini topish va boshqalar bilan ijobiy aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'smirlar uchun bu ko'nikmalar hayotning keyingi bosqichlariga tayyorlanish va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng dinamik va murakkab bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda yoshlarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishi faol kechadi. Ularning shaxsiy tajribalari va ijtimoiy munosabatlari ko‘pincha muammoli vaziyatlarga duch keladi. Shu nuqtai nazardan, emotsional intellekt o‘smirlarning o‘zaro munosabatlaridagi nizolarni boshqarish va to‘g‘ri qaror qabul qilishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “…yuqori emotsional intellektga ega bo‘lgan o‘smirlar nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga moyil bo‘lishadi.”[3.]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘smirlarning emotsional intellektini rivojlantirish va ularning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan bo‘lib bularga, 2022-yil 20-yanvardagi Prezident qarorini misol qilamiz. Unda "Zakovot" intellektual klubi uchun alohida bino va intellektual o‘yinlar shaharchasi barpo etilganligi, ushbu tashabbus doirasida "Zakovot" intellektual o‘yini, kubik-rubik, mental arifmetika, mnemonika kabi o‘yinlar tashkil etilib, 2 million yosh jalb qilindi.[1]. Ushbu qaror va uning amaldagi ko’rinishi yoshlar intellektual salohiyati davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligining yorqin misoli desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

"Yoshlar uchun ming kitob"[2.] loyihasi 2023-yil 28-noyabrdagi qarorga muvofiq, eng sara ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish va chop etish bo‘yicha "1000 kitob" loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu yoshlarning bilim va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu farmon va qarorlar yoshlarning intellektual rivojlanishi, o‘zaro munosabatlarini yaxshilash va emotsional intellektini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardir.

Adabiyotlar tahlil qilinganda, emotsional intellekt tushunchasi Daniel Goleman tomonidan keng ommaga tanishtirilgan bo‘lib, u emotsional intellektni insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalarning his-tuyg‘ulariga moslashish qobiliyati[4] sifatida ta’riflaydi. Mayer va Salovey esa emotsional intellektni kognitiv qobiliyatlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqib, uni to‘rt tarkibiy qismga ajratgan: o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar. O‘smirlarning o‘zaro munosabatlaridagi muammoli vaziyatlar ko‘pincha empatiya yetishmovchiligi, stressni boshqarishdagi qiyinchiliklar va noto‘g‘ri muloqot natijasida yuzaga keladi,”- degan ta’rifni Brackett, M. A., Rivers, S. E., & Salovey, P. o’zlarining emotsional intellekt asarlarida keltirganlar. “Emotsional intellektning yuqori darajasi esa ushbu vaziyatlarni samarali boshqarishda yordam beradi, chunki u insonlarga o‘zini va boshqalarni tushunishga imkon yaratadi”.[7]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda Andijon shahar 20-umumta’lim maktab 60-nafar, Izboskan tumani 37-umumta’lim maktabida 90-nafar 8-sinf o‘smir ishtirok etdi. So‘rovnoma 8-sinf o ‘quvchilarida, Intervyu – Psixologlar va pedagoglar bilan suhbat o‘tkazilib, o‘smirlarning emotsional intellekt darajasi va munosabatlaridagi muammoli vaziyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Eksperiment – O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, biri emotsional intellekt rivojlantirishga qaratilgan treninglardan o‘tgan, ikkinchi guruh esa odatiy ta’lim jarayonida ishtirok etdi.

Natijalar va tahlil. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori emotsional intellekt darajasiga ega o‘smirlar o‘zaro nizolarni konstruktiv(rivojlanish va muommolarni ijobiy hal qilish) hal qilishga moyil bo‘lishadi. So‘rovnoma natijalari shuni aniqladi: 76% yuqori EI darajasiga ega o‘smirlar nizolarni muhokama va muzokaralar orqali hal qilishga intiladi. 62% EI past bo‘lgan o‘smirlar esa agressiv yoki chekinish yo‘li bilan muammoli vaziyatlarga munosabat bildiradi. Eksperiment natijalariga ko‘ra, EI bo‘yicha treninglardan o‘tgan o‘smirlar muammoli vaziyatlarni 35% samaraliroq boshqargan.

Bu natijalar emotsional intellektni rivojlantirish o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Goleman ta’kidlaganidek, "Emotsional intellekt shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatning kalitidir"[4].

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning o‘zaro munosabatlaridagi muammoli vaziyatlarni samarali hal etishda emotsional intellekt muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, maktab va kollej o‘quv dasturlariga emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglarni kiritish lozim.

Tavsiyalar: Emotsional intellekt bo‘yicha o‘quv dasturlarini joriy etish – o‘quvchilarga his-tuyg‘ularni boshqarish va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazish. Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun EI bo‘yicha seminarlar tashkil etish – farzandlari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Psixologik xizmatlarni kuchaytirish – o‘smirlarga emotsional intellekt darajasini oshirishga yordam beradigan psixologik maslahatlarni taqdim etish. Umuman olganda, emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat o‘smirlarning shaxsiy rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy munosabatlarining barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. "Zakovot" intellektual klubi va intellektual o‘yinlar shaharchasini tashkil etish to’g’risida Prezident qarori 2022-yil 20-yanvar.

2. “Yoshlar uchun ming kitob” Prezident qaror loyihasi 2023-yil 28-noyabr

3. Brackett, M. A., Rivers, S. E., & Salovey, P. (2011). "Emotional intelligence: Implications for personal, social, academic, and workplace success." Social and Personality Psychology Compass, 5(1), 88–103.

4. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.

5. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). "What is emotional intelligence?" In Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications. Basic Books.

6. M.D. Abdulmadjidova (2024). Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarni psixotiplariga qarab kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish nazariy va amaliy jihatlari. inter education & global study, (10), 412-418.

7. Zeidner, M., Matthews, G., & Roberts, R. D. (2009). What We Know About Emotional Intelligence: How It Affects Learning, Work, Relationships, and Our Mental Health. MIT Press.

8. Alisherova, Z. (2024). Emotsional intellekt–o‘smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini psixologik omillari. *News of the NUUz*, *1*(1.10. 1), 35-37.

UO‘K: 159.316.454.54.68

Axmedova Dildora Olimjonovna
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti,
“International school of finance technology and science”
instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti,
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ahmedovadildora4@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-7981-8600

MEHNAT MIGRANTI BO‘LGAN XOTIN-QIZLARDA HAYOT YO‘NALGANLIGI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Migratsiya oqimlarining feminizatsiyasi, ya’ni migrantlarning umumiy sonida ayollar ulushining oshishi ekspertlar tomonidan xalqaro mehnat migratsiyasi rivojlanishining eng yangi bosqichining o‘ziga xos xususiyati sifatida e’tirof etilmoqda. Bu ko‘p jihatdan globallashuv jarayonlari bilan birga keladigan jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bandlik tuzilmasida xizmat ko‘rsatish sohasining ortib borayotgan ustunligi rivojlangan davlatlarning xizmat ko‘rsatish sohasida malakasiz mehnatda band bo‘lgan migrant ayollarga bo‘lgan ehtiyojini shakllantiradi. Bugungi kunda xalqaro migratsiyada ayollar va erkaklar ulushining tenglashayotgani jamiyat hayotining ma’naviy-axloqiy sohalariga hamda oilalarning rollar va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda.*

Tayanch so‘zlar: *migratsiya, femininlik, hayotdan qoniqish, shaxslararo munosabatlar, mehnat resursi, motivatsiya, ehtiyoj, mustaqillik, iyerarxiya.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF LIFE DIRECTION DEVELOPMENT IN WOMEN’S LABOR MIGRANTION

Abstract. *The feminization of migration flows, that is, an increase in the share of women in the total number of migrants, is recognized by experts as a characteristic feature of the latest stage in the development of international labor migration. This is largely due to structural changes in the world economy, which are accompanied by globalization processes. The growing dominance of the service sector in the employment structure shapes the need for migrant women in developed countries to work in unskilled labor in the service sector. Today, the equalization of the share of women and men in international migration has a significant impact on the spiritual and moral spheres of society and the system of roles and values of families.*

Key words: *migration, femininity, life satisfaction, interpersonal relationships, labor resource, motivation, need, independence, hierarchy.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИНВАЛИДНОСТИ ЖИЗНЕННОГО НАПРАВЛЕНИЯ У ЖЕНЩИН-ДЕВУШЕК-ТРУДОВЫХ МИГРАНТОК

Аннотация. *Феминизация миграционных потоков, то есть увеличение доли женщин в общей численности мигрантов, признается специалистами характерной чертой новейшего этапа развития международной трудовой миграции. Во многом это обусловлено структурными изменениями в мировой экономике, сопровождающими процессы глобализации Растущее доминирование сферы услуг в структуре занятости формирует потребность развитых стран в женщинах-мигрантах, занятых неквалифицированным трудом в сфере услуг. Сегодня выравнивание доли женщин и мужчин в международной миграции оказывает существенное влияние на духовно-нравственную сферу общества, систему ролей и ценностей семьи.*

Ключевые слова: *миграция, женственность, удовлетворенность жизнью, межличностные отношения, трудовой ресурс, мотивация, потребность, независимость, иерархия.*

Kirish. Migratsiya bugungi kunda geometrik progressiyada o‘sib borayotgan giperdinamik jarayonga aylandi. Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotlariga muvofiq ushbu jarayon xuddi shunday intensivlikda davom etsa 2050 yilda migrantlar dunyo aholisining 405 mln.ni tashkil etish ehtimoli baland [1]. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi davlatlar funksiyalariga ko‘ra, migrantlarni chiqaruvchi (donor mamlakatlar), tranzit qiluvchi, qabul qiluvchilar (retsipiyent davlatlar) kategoriyalariga ajralmoqda [2]. Ayniqsa, mehnat migratsiyasining ko‘lami uchala turdagi davlatlar uchun ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni shakllantirmoqda. Shunday bo‘lsa-da, qabul qiluvchi mamlakatlar uchun mehnat migratsiyasi ishchi kuchining yosharishi, ayrim sohalarni intensiv rivojlanishi (qishloq xo‘jaligi, qurilish, shaxsiy xizmatlar, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, kadrlar tanqisligi)ga turtki bo‘lmoqda. O‘z o‘rnida, migrantlarni yetkazib berayotgan davlatlar esa valyuta transferlari ulushidan katta moliyaviy manfaat ko‘rmoqdalar. Rivojlangan davlatlarga ko‘chib borgan kishilar esa, o‘z yurtiga investitsiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion mehnat ko‘nikmalari va tajribani olib kirmoqdalar. Bugungi kunda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya savdosi o‘smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan ojiz qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

Ayollar migratsiyasi oila institutini an’anaviy shaklini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. An’anaviy oilalar bir uyda istiqomat qilishi, moddiy, ma’naviy, ruhiy tarafdan o‘zaro qo‘llab-quvvatlasa, migrant oilalarda oila a’zolari boshqa mamlakatlarda yashashiga to‘g‘ri kelmoqda. Ayniqsa oilada ayol kishining migratsiyada bo‘lishi oila a’zolarining tarqalib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki turmush o‘rtog‘i migratsiya ketgan ayol farzandlarini tarbiya qilib, uy yumushlari va oilada erkak bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni ham o‘z zimmasiga oladi. Ammo ayollarning migratsiyaga ketishi farzandlarning vasiylar, qarindoshlar qaramog‘ida qolishga olib keladi. Bu oilalarning ma’naviy, psixologik, ijtimoiy, akseologik muammolarning kelib chiqishiga va oilaviy ajrimlar oshishiga olib keladi.

M.Bo‘riyeva 2023-yilda migratsiyaning er-xotin emotsional munosabatlariga ta’sirini o‘rgandi. Tadqiqot Surxondaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridagi migrant er va xotinlarda o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra migrant oilalarda nikohdan qoniqish darajasi migrant bo‘lmagan oilalarga nisbatan past ekanligi aniqlangan. Shuningdek oilada er mehnat migrant bo‘lishi ayolga ikki hissa vazifalarni oshishiga sabab bo‘lar ekan. Bu o‘z navbatida psixologik zo‘riqishga olib kelishi bilan bir qatorda o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish omillarining pasayishiga ham sabab bo‘lishi aniqlangan. Migratsiya muddati ortgani sayin qo‘rquv, vahima, o‘ziga ishonchsizlik ortib borishi va bu holat oilaviy nizolarga sabab bo‘lishi tadqiqotda o‘z isbotini topgan. Turmush muddatining ortishi an’anaviy oilalarda sevgi, ishonch, o‘zaro hurmat tuyg‘ularini kuchaytirsa migrant oilalarda aksincha ta’sirga ega bo‘lar ekan. Demak olib borilgan tadqiqotdan ham ma’lumki moddiy ehtiyojni qondirish maqsadida migratsiya qilish ba’zan eng oliy ne’mat bo‘lgan jismoniy va ruhiy sog‘liqqa va oilaviy munosabatlarni yo‘qotish sabab bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. So‘nggi tadqiqotlarda ayollar migratsiyasi qashshoqlik, gender tengsizlik, moliyaviy farovonlik xohishi kabi sabablar bilan bir qatorda ijtimoiy frustratsiya (hozirgi holatidan qoniqmaslik) ayollarga imkoniyatlarni ortishi, gender rollarni tenglashishi, karieraga intilishi kabilar ayollarning erkinlikka, mustaqillikka intilishishini ortib borishiga motiv vazifasini bajarmoqda. Ayollar migratsiyasini rivojlanishi ijtimoiy jamiyat hayotida qarovsiz farzandlar, qariya ota-onalar, ajrimlar, yod qadriyatlarni o‘zlashtirish, xulq-atvorini o‘zgarishi va nizoli oilalar sonini ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu kabi muammolar ayollar migratsiyasini ijtimoiy-psixologik tadqiq etilish zaruratini hosil qilmoqda. Nikoh migratsiyasi rivojlangan mamlakatlarga, iqtisodiy rivojlanmagan, moliyaviy yashash darajasi past ko‘rsatgichga ega bo‘lgan davlatlardagi migrantlarning borishi va oila qurishi hisobiga kundan kunga o‘sib bormoqda. Ayollar uchun eng katta motiv moliyaviy barqarorlik bo‘lsa, erkaklar uchun boshqa omillar ustunlik qiladi. Masalan, boshqa davlatda yashash huquqini qo‘lga kiritish kabi. Migratsiyaning qanday ko‘rinishi bo‘lishidan qati nazar ijtimoiy psixologik muammolar mavjud bo‘ladi. Jumladan, adaptatsiya jarayoni, til bilan bog‘liq muammolar, qadriyatlar tizimi kabi insonga begona jarayonlarni o‘zlashtirishda individual psixologik stressni boshdan kechiradi. Migratsiyaning eng asosiy qismini mehnat migratsiyasi egallaydi. Mehnat

jarayonidagi eng katta insonga xavf beruvchi omil bu jismoniy va psixologik stressni haddan oshib ketishi hisoblanadi.

Ayollar migratsiyasi migratsiyani hamma ko‘rinishlarida tezlik bilan rivojlanmoqda. Shulardan biri bu majburiy migratsiyadir. Majburiy migratsiya sodir bo‘lishiga bir qancha sabablar mavjud. Masalan, siyosiy mamlakatdagi notinchlik, mintaqaviy muammolar (suv taqchilligi,yashash uchun sharoitni yo‘qolib borishi) qashshoqlik. Qashshoqlik sabab migratsiya jarayoni ortib borishi tabiiy jarayon hisoblanadi, ammo o‘ta qashshoqlikda yashovchi mamlakatdagi ayollar ham migratsiya qila olishmaydi, chunki transport muammosi, boshqa davlatga borgungacha bo‘lgan xarajatlar, shu bilan bir qatorda o‘ta qashshoq hududlarda yashaydigan ayollarning ma’lumot darajasi ham muammoli holat hisoblanadi. Ayollar migratsiya asosan rivojlanish bosqichidagi mamlakatlarda ko‘p sodir bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim ham kasblar ham yashash sharoiti va chetga chiqish imkoniyatlari ham rivojlanib boradi. Fuqarolar ta’lim olish uchun, yaxshi mablag‘ topish uchun, eng oldi hunarlarni o‘rganish uchun ham migratsiya qilishadi. Ayollar hozirda erkaklardan mustaqil migratsiya qilishi ko‘paymoqda. Bunga sabab gender tenglik va ayollar uchun imkoniyatning oshib borayotganligi hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da ayollar hamon migratsiya jarayonida orqa ikkinchi darajali bo‘lib ko‘rinmoqda va migratsiya qurbonlari orasida ayollar yetakchilik qilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar shaxsiy manfaat va ko‘proq avtonomiyaga intilishlari va o‘zlarini patriarxal muhitdan, jumladan, zo‘ravonlik keng tarqalgan sharoitlardan chetlatish istagida bo‘lishlari uchun ham migratsiya qilishmoqda. Ayollar migratsiyasi turlari bo‘yicha oxirgi o‘rinlarda turuvchi ta’lim migratsiyasi ham ayollarni o‘ziga jalb qilmoqda.Ta’lim migratsiyasi asosini yosh ayollar tashkil qiladi. E’tibor tortadigan tomoni shundaki ayollarga zulm, zo‘ravonlik ko‘p bo‘lgan hamda huquqi ta’minlanmagan davlatlardan ketishning eng ma’qul yo‘li ta’lim migratsiyasi hisoblanadi. Chunki ta’lim migratsiyasi vaqtinchalik bo‘lsa ham, uzoq vaqtli migratsiyaga aylantirish imkoniyati yuqori.Ta’lim olgan joyida doimiy ishlash uchun qolishi yoki oila qurib rivojlangan davlat fuqaroligiga erishish mumkin.

Ayollar tarixan olib qaralsa juda ko‘p davlatlarda erkaklardan oldin doimiy ichki va tashqi migratsiya ishtirokchisi bo‘lgan. Masalan Hindiston, O‘rta Osiyo hududlarida ayollar turmush o‘rtog‘ini uyiga nikohdan so‘ng ko‘chib o‘tgan. Tashqi migratsiya esa keyinchalik boshqa davlatlarga turmushga chiqish orqali rivojlanib borgan.YYevropa va AQSH, Rossiya kabi davlatlar ayollar nikoh migratsiyasi uchun mezbon erkaklar mamlakatlari bo‘lib qolmoqda. Bu xalqaro migratsiya siyosatining og‘riqli muammolaridan biri hisoblanadi. Hozirda “soxta nikohlar”ko‘payib bormoqda, shu bilan birga ayollarni “odam savdosi”qurboni bo‘lishiga olib kelishi ehtimolini kuchaytirmoqda. Ayollar migratsiyasi va “odam savdosi o‘rtasida juda nozik chiziq mavjud. Ayollarni qul qilib yoki fohishalikka sotish ayollar migratsiyasidagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Hozirda juda ko‘plab tashkilotlar ayol migrantlar huquqi uchun kurashib kelmoqda . Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha migratsiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi migratsiyadan oldingi migratsiyaga undovchi motivga bog‘liq. Motivlarning ayollar va erkaklarda turlicha bo‘lishini jinsga bog‘liq deb tushuntirish mumkin. Bundan tashqari, erkak va ayolda dunyoni, voqea hodisalarni qabul qilishdagi psixik holat ham tubdan farq qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Migratsiya motivi moddiy ehtiyoj bo‘lgan ayollar ham madaniy stressni boshdan kechiradilar. Qabul qilishi qiyin bo‘lgan munosabatlar, qadriyatlar, kommunikativ qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramay muhitga moslashishga harakat qilayotgan ayol o‘zini rol o‘ynayotgandek his qilishi tadqiqotlarda aniqlangan .

Migratsiyaga tayyorgarlik ko‘rayotgan ayol albatta ko‘chib o‘tayotgan davlatini urf-odatini, an’analarini, qadriyatlar tizimini, tilini o‘rganishga harakat qiladi. Ko‘chib o‘tish maqsadiga ko‘ra rejalar tuzadi. Natijada ayol migratsiyadagi ideal o‘zini ongida yaratadi. Migratsiya jarayonida esa shunchalik tafovut katta bo‘lishi mumkinki ongidagi “Ideal men va haqiqiy meni” o‘rtasida chalkashlik yolg‘izlik hissi paydo bo‘ladi. Kelajagi haqida salbiy tasavvurlar paydo bo‘ladi. Hozirgi kun haqida o‘ylay olmaydi. O‘ziga ishonchni va haqiqiy o‘zligini yo‘qota boshlaydi. Bu jarayon har bir migrantda yuz bermasligi mumkin. Asosan birinchi bor migratsiyaga borayotgan va melanxoliyaga moyil shaxslarda ko‘proq va kuchliroq kuzatiladi. Stressli vaziyatlarda inson imkoniyatlarni yoki erishilayotgan natijalarni past baholashga moyilligi oshadi. Ko‘ngilsizliklarni esa katta deb hisoblaydi. Bu insonning shaxsiyati bilan bog‘liq jarayon bo‘lgani bois psixologik xizmat doirasida ishlash samara beradi.

Ayollar migratsiyasida psixologik muammolar bilan bir qatorda quyidagilarni ham keltirib o‘tish joizdir. Ayollarning odam savdosi, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka uchrashi ayollar migratsiyasining eng xavfli muammolaridan biri sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Yashirin, noqonuniy migratsiya esa bu omillarni kuchaytirib yubormoqda. Ayniqsa bugungi kundagi dunyodagi vaziyat urushlar, siyosiy va ekologik beqarorlik ayollarni majburiy migratsiyaga undamoqda. Bu kabi muammolar global hisoblanib, dunyo hamjihatligi orqali bu muammolar o‘z yechimini topishi mumkin. Migratsiya xohishini kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasida ortishi migratsiya uchun yaratilgan huquqiy va institutsional infratuzilmalar hammaning ham xohishini amalga oshirishni ta’minlay olmaydi. Natijada nazoratsiz noqonuniy migratsiya yo‘nalishi rivojlanishi ortib boraveradi. Xotin-qizlarning tashqi mehnat migratsiyasi (Turkiya davlati misolida) o‘rganilganda jami 400 nafar respondent ishtirok etdi (100 nafar Turkiyda ishlovchi ayollar, 50 nafar Samarqand, 50 nafar Toshkent viloyati, 50 nafar Surxondaryo viloyati, 50 nafar Farg‘ona viloyatidan, 50 nafar Andijon viloyati, 50 nafar Namangan viloyatidan borib ishlovchi ayollar shular jumlasidandir). Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchi xotin-qizlarning 70% Istanbul shahrida, 20% Anqara shahrida hamda 10% Bursa shahrida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar tashkil etdi.

Mehnat migratsiyasiga chiqishga sabab bo‘lgan omillar ham tahlil qilinganda o‘qishdan so‘ng yaxshi ish va maosh taklifi uchun ketganlar 34,8%, moddiy yetishmovchilik uchun ketganlar 13,3%, ish yo‘qligi uchun ketganlar 47,5% hamda oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikdan qochish uchun ketganlar 4,5% ni tashkil etdi. Tahlillardan xotin-qizlarda tashqi mehnat migratsiyasi motivi asosan moddiy yetishmovchilik emas, balki ko‘nglidagidek ish mavjud emasligi bo‘lib chiqmoqda. Shuningdek, o‘qishni tugatgandan keyin mo‘may daromad olish ilinji ham migratsiya motivini yuzaga keltiruvchi omil bo‘lishi kuzatildi. Turkiyada ishni qanday topish borasida sinaluvchilardan so‘ralganda internat va ijtimoiy tarmoq orqali ish topganlar 34,8% ni, mehnat migratsiyasi agentligi orqali ishga ketganlar 17,7%ni, qarindosh yoki tanishlari orqali tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirganlar 47,9% ni tashkil etdi. Internet hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali ish topib tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirayotgan ayollar salmog‘ining balandligi ham ba’zida xotin-qizlarning begona yurtda qiyinchiliklarga duch kelib aldanib qolishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ayollarning 47,5% Turkiyaga qarindosh yoki tanishlarining chaqiruvlari orqali borgani oydinlashadi.

E.B.Tyuryukova Markaziy Osiyodan kelgan migrant ayollar muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra Markaziy Osiyo ayollari ikki xil ko‘rinishda migratsiya qilishadi “mustaqil va qaram”, mustaqil migratsiyada ayollar o‘zlari yolg‘iz boshqa davlatga ish, o‘qish uchun jo‘nab ketsa, qaram xususiyatiga ega ko‘rinishida ayollar turmush o‘rtog‘i, akasi, otasi kabi hamrohlari bilan birgalikda migratsiya qilishadi. Ayollar topgan daromadini katta qismini uyiga yuborishadi.Vatanida qolgan farzandlari yoki ota-onasi qarindoshlari uchun. Chunki migrant ayollarning ko‘pchiligi hozirda oilada yagona boquvchi bo‘lib qolmoqda. Migrant ayollarning eng katta muammolaridan biri migratsiya jarayonida tug‘ilgan farzandlar hisoblanadi. Bugungi kunda farzandlarini tashlab ketayotgan migrant ayollar orasida Qirg‘iziston ayollari 1-o‘rinda turadi keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston va Tojikiston migrant ayollari turishi tadqiqot davomida aniqlangan. Bolalarni tashlab ketishga sabablar ko‘p bo‘lib asosiylari quyidagilar.

Migrant ayollar migratsiya jarayonida farzandli bo‘lishni rejalashtirmasligi, farzand bilan yashashga joy va sharoitni yo‘qligi, bola bilan ish topa olmasligi yoki ish joyini yo‘qotish mumkinligi, migratsiya jarayonida tug‘ilgan farzandni o‘z yurtidagi qarindoshlari tan olmasligi kabi sabablar tufayli ayollar farzandlaridan voz kechadi. Bu migratsiyadagi eng katta muammolardan biri bo‘lib ayollar uchun ham tashlab ketilgan bolalar uchun ham fojiaviy xususiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ayollar migratsiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, gender tengligi bilan bog‘liq muammolar bo‘lishiga qaramay ayollar migratsiyasi o‘sishi bilan birgalikda qadriyatlar, an’analar tizimi ham o‘zgarayotganini kuzatish mumkin.

Migratsiyaning rivojlanishi va immigrantlarning sonini ortishi katta muammo hisoblanadi. Chunki tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo’yicha 30-45 yosh oralig’idagi migrantlar soni yuqori. Ba’zi migrantlarning migratsiya qilishdan niyati emigratsiyadir. Ko‘chib borgan davlatida doimiy qolish, fuqaroligini olish kabi. S.L.Kandybovich va M.F.Sekach bu jarayonga qo‘ydagicha ta’rif bergan. “Shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash har bir inson ruhiy hayotining ajralmas qismidir”. Boshqa davlatda

doimiy yashash uchun ketish bir qarashda muammoli jarayon hisoblanmasa-da, o‘zbek xalqining an’analariga ko‘ra erta oila quriladi. Bu yosh davrida ayollarning ham erkaklarning ham ko‘pchiligini oilasi bo‘lishi tabiiy holdir. Ularning boshqa davlatda qolib ketishi qarovsiz bolalarning ko‘payishi demakdir. Bugungi kungacha migratsiyaning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy migratsiya bu shaxsning psixologik holati natijasidir. Ayollar migratsiyasi hissiy va xulq-atvor komponentlari asosida individual holatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy vaziyat va kelajak haqidagi niyatlari bilan chambarchas holda bog‘lanadi.

Shaxsning xarakter xususiyatlari shakllanishida qadriyatlar tizimining o‘rni beqiyosdir. Qadriyatlar oiladan shakllansa jamiyat orqali to‘ldirib boriladi. Shaxsni qaror qabul qilishida ijtimoiy muhitning ta’siri juda katta rol o‘ynaydi. Qanday ijtimoiy muhitda yashasa, atrofidagi insonlarni qanday ekanligi, ularning hayotiy tajribasi shaxsning kelajak rejalarini shakllantiruvchi omillardan biridir. Aynan ayollar migratsiyasiga sabab bo‘luvchi omillardan biri sifatida chet elda yashab farovon hayotga erishayotgan insonlarni ijtimoiy tarmoqlar kuzatish, qarindosh, tanishlarni chet-el haqidagi iliq fikrlarini eshitish orqali o‘z kelajagini migratsiya bilan bog‘lash kabi holatlarni ko‘rsatish mumkin. Ba’zi oilalarda chet elda ishlabgina biror narsaga erishish mumkin degan stereotip ham mavjud. Bu kabi qarashlar oiladagi o‘sib kelayotgan yosh avlodni oliy ma’lumotli bo‘lish yoki kasb-hunar o‘rganish kabi faoliyat bilan shug‘ullanishni oldiga maqsad qilib qo‘ymasdan chet elda omadini sinab ko‘rish xohishini ko‘payayotganini achinarli deb hisoblash mumkin.

Chet davlatda ishlashning qanday ijobiy tomonlari borligi so‘ralganda moddiy ehtiyojlarni qoplash javobini 86%, erkinlikni 7%, tadbirkorlik va mutaxassislik bo‘yicha tajriba orttirishni 5%, orzu-havaslarga erishishda 2% ni tanlagan. Xotin-qizlarning aksariyati (86%) xorijda mehnat qilishning ijobiy va foydali tomoni sifatida moddiy ehtiyojlarni qoplash deb bildirishgan. Tashqi mehnat migratsiyasida duch kelingan huquqiy muammolar haqida sinaluvchilarning fikri quyidagicha tus oldi: hujjat rasmiylashtirishdagi to‘siqlar 82%, oylik maoshi kamligi 9,5%, oylik maoshni to‘liq ololmaslik 3%, ish beruvchi tomonidan vazifalar qatoriga kirmaydigan ishlarni qilishga majburlash 3%, ish beruvchi tomonidan tahqirlash 2,6% ni tashkil etdi. Huquqiy muammolarning 82% ko‘pincha hujjat rasmiylashtirish bilan bog‘liq muammolar ekani aniqlandi. Chet elga ketganlikning shaxsiy moddiy ahvoliga ta’siri o‘rganilganda xotin-qizlarning 90% moddiy ahvol yaxshilanganini, 2% ancha yaxshilanganligini hamda yana migratsiya qilish motivi borligini, 4,5% ahvol o‘zgarmaganligini, 2,5% juda ham qiynalganligini ta’kidlagan. Turkiyaga migratsiya motivi ijtimoiy ustanovka hamda kutuvlarni oqlaganligini 90% xotin-qizlar ta’kidlab, moddiy ahvol ancha yaxshilanib olganini bildirgan.

1-jadval

Farzandingizni o‘zingiz bilan chet elga olib ketganmisiz savoliga berilgan javoblar

Mulohazalar	Soni (nafar)	Foiz (%)
Ha	45 nafar	11,3%
Yo‘q	308 nafar	77,0%
Javob berishim qiyin	47 nafar	11,8%
Jami:	400 nafar	100,0%

Xotin-qizlardan farzandlarini o’zi bilan chet elga birga olib ketganliklari haqida so’ralganda 11,3% o’zi bilan birga olib kelganini, 77% o’zi bilan birga olib kelmaganini hamda 11,8% ushbu savolga javob berishlari qiyin ekanligini aytgan. Natijalardan 77% xotin-qizlar mehnat migratsiyasiga yolg’iz o’zi farzandlarsiz borgani oydinlashadi. O’zi bilan birga olib ketganda qanday qiyinchiliklar bo’lishi haqidagi savollar xotin-qizlardan so’ralganda, 29% farzandi tez moslashishini, 38,8% tilni bilmagani uchun maktab hamda bog’chada qiynalishini, 28,8% maktab va bog’chaga joylashda qiyinchiliklar bo’lishini hamda 3% farzandi yurtiga qaytib ketishini xohlashi mumkinligini ta’kidlab o’tgan. Olingan empirik tadqiqotlar natijalariga ko’ra, xotin-qizlarning o’zlari bilan farzandlarni olib kelishni istamasliklariga asosiy sabab sifatida til omili hamda maktab va bog’chaga farzandini joylashtira olmaslik borasidagi stereotiplar va ustanovkalar sabab bo’ladi. Xotin-qizlardan farzandi bilan qanchalik darajada muloqot qilishi borasidagi savollar so’ralganda 71,5% har kuni telefon orqali gaplashishini, 20% ijtimoiy tarmoqlar orqali yozishib, xabarlashib turishini, 3,5% 3 kunda bir muloqotni telefon orqali qilishini, 5% umuman muloqot qilmasligini aytgan. Xotin-qizlarning o’z farzandlari taqdiri, yumushlari

hamda emotsional holati bilan qiziqishlari ko'proq ekani hamda telefon orqali muloqot qilish bilan bolaga nisbatan mehr ehtiyojlarini qondirishi oydinlashadi.

2-jadval

Migrant xotin-qizlarda intilish darajasi va hayot mazmunini yo'nalganligini bog'liqlik darajasi (N=250)

Aloqadorliklar	Vazifaning qiyinligi	O'z imkoniyatlarini baholash	Quvvatni safarbarlik darajasi	Kutilayotgan natijalar darajasi	Tashabbuskorlik
Hayotdagi maqsadlar	-0,280	-0,293	-0,304	-0,239	-0,314
Hayot jarayoni	0,265	0,255	0,224	0,238	0,332*
Hayotning natijadorligi	0,504**	0,372*	0,392*	0,507**	0,444**
Nazorat lokusi men	0,301	0,209	0,366*	0,131	0,226
Nazorat lokusi hayot	0,084	0,235	0,237	0,213	0,331*

Izoh: p<0,05; p<0,01

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki ichki migratsiyadagi ayollarda erishgan natijalaridan qoniqish, o'zini anglash, o'zini yaqinlariga oilasiga kerakli ekaniga ishonishi natijasida ayollarda ichki motiv oshib boradi. Bu o'z navbatida ichki migratsiyadagi ayollarda muvaffaqiyatga intilishiga sabab bo'ladi. (r=0,335; p<0,05). Ichki motivni inson muvaffaqiyatida asosiy omil ekanligini tadqiqotimiz natijalarida ko'rish mumkin. Xotin-qizlarda ichki motivni ortishi maqsadlarga intilishni ortishiga, o'z qarorlariga yanada qat'iyat bilan harakat qilishga bo'lgan intilishni yuqori bo'lishiga sabab bo'lar ekan. (r=0,508; p<0,01). Shuningdek, ayollarda ichki motivni ortishi hayotini qiziqarli, emotsiyalarga boy tarzda qabul qilish, o'z hayotini, sog'lig'ini qadriga yetishni ortib borishiga olib kelar ekan. (r=0,478; p<0,01). Navbatdagi korrelyatsiyaga ko'ra, o'tgan hayotining sarhisob qilib, hayotni, vaqtni qadriga yetib borishi, o'zini anglash darajasini oshib borishiga olib kelar ekan. (r=0,499; p<0,01). Nazorat lokusi "men" o'z hayotini nazorat qilish, mustaqil qaror chiqarish (r=0358; p<0,05).Nazorat lokusi "hayot" mustaqil qarorlarini hayotga tatbiq qilishga ishonch (r=0,475; p<0,01) ham migrant ayollarda ichki motiv oshishi bilan oshib borar ekan. Ichki migratsiyaga qaror qilish ayollar uchun katta tavakkal hisoblanadi. Migratsiyaga qaror qilishda tashqi motivlar moddiy ehtiyoj birlamchi o'rinda bo'ladi, ammo migratsiya jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishda ichki motiv darajasining ahamiyat katta hisoblanadi. Tashqi migratsiya jarayonida ayollar o'z faoliyati natijasiga e'tibor qaratish ya'ni kognitiv motivni ayollarda oshib borishi hayotdagi maqsadlarini kelajak bilan bog'lash va hayotidan emotsional qoniqish hissini ortib borishiga (r=0,370; p<0,05) sabab bo'lishi aniqlandi. Shuningdek kognitiv motivni o'sib borishi hayotning natijadorligi yoki o'zini o'zi anglaganligidan qoniqqanlikni (r=0,396; p<0,05) o'z hayotini ongli boshqarish (r=0,440; p<0,01) darajasini ortib borishiga olib kelishi tadqiqotimiz natijalarida kuzatildi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkin raqobat jamiyatni rivojlantiruvchi omil vazifasini bajarib kelmoqda. Bizning tadqiqotimizda ham bu o'z isbotini topdi. Tashqi migrant ayollarda raqobat motivini ortishi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasiga sabab bo'lishi aniqlandi (r=0,323;p<0,05). Tashqi migratsiyadagi ayollar adaptatsiya jarayonida stressni, yolg'izlikni, his qilishi sabab "shok" holati kuzatilishi tadqiqotlarda isbotlangan. Yangi muhitga moslashish o'z imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish va hayotini ongli boshqarishni oshishi bilan uzviy bog'liqlik borligini jadvaldan ko'rish mumkin. (r=0,332; p<0,05). Ayollar tashqi migratsiyasini motivlari turli xildir. Bular oilaviy sharoitiga ko'ra, rivojlanish, erkinlik, moddiy ta'minotini yaxshilash xohishi kabi omillarni keltirib o'tish mumkin. Migrant ayollar shu kabi maqsadlarga erishish uchun bor kuchini, quvvatini safarbar etgani sari hayotiy maqsadlari (r=0,504; p<0,01), hayotdan emotsional qoniqish darajasi (r=0,372; p<0,05), hayotiy natijalaridan qoniqish darajasi (r=0,392; p<0,05), va nazorat lokusi "men" (r=0,507; p<0,01), nazorat lokusi "hayot" ko'rsatkichlari ortib borishi tadqiqotimizda aniqlandi. Ayollar migratsiya jarayonida eng asosiy motivlari moddiy, ma'naviy, ruhiy ehtiyojlari qondirilishi o'tgan umrini mahsuldorligini sarhisob qilish jarayoni boshlanishiga olib kelar ekan. Bu esa hayotdan kutilayotgan natijalar darajasini oshishiga sabab bo'lishi aniqlandi(r=0,366; p<0,05). Ehtiyojlar insonni harakatga undovchi motivlarni hosil qilishi tadqiqotlardan ma'lum. Tadqiqotimizdagi ichki migratsiyadagi ayollar muvaffaqiyatga intilib, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqqani sari ularda

tashabbuskorlik motivi ortib borishiga (r=0,478; p<0,01), ongli qarorlarini hayotga tatbiq qilishga intilish oshib borishi bo‘yicha aloqadorlik aniqlandi.

Xulosa. Xotin-qizlar migratsiyasi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shmoqda, biroq uning ijtimoiy va psixologik oqibatlari ularning hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Xotin-qizlar migratsiyasidagi feminizatsiya jarayoni global xizmat ko‘rsatish sohasida talabni qondirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uni samarali boshqarish uchun ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Ijtimoiy adolatni ta’minlash, qonuniy himoya mexanizmlarini kuchaytirish va xotin-qizlarni ruhiy qo‘llab-quvvatlash orqali migratsiya jarayonini xavfsiz va samarali qilish mumkin. Bu nafaqat migrant ayollarning shaxsiy hayoti va sog‘ligiga, balki umumiy jamiyatning barqaror rivojiga xizmat qiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, migratsiya oqimlari intensivligining oshishi va migratsiya tadqiqotlarining rivojlanishi bilan mamlakatimiz zamonaviy migratsiya jarayonlari masalalari bo‘yicha xalqaro munozaraning ishtirokchisiga aylandi. Biroq, migratsiya jarayonlarining tuzilishi, yo‘nalishi va mohiyatini o‘zgartirish ushbu hodisani o‘rganishga yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qildi. Bu ehtiyoj, shuningdek, zamonaviy ilmiy bilimlarda migratsiya tadqiqotlarining intizomiy bo‘linishi sharoitida alohida fanlarning yutuqlarini to‘playdigan yagona kompleks yondashuv mavjud emasligi bilan ham dolzarb bo‘ldi. Intizomiy cheklovlarni yengib o‘tish imkoniyatlaridan biri qiyosiy va qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar o‘tkazish orqali ta’minlanadi, bu bizga migratsiya oqimlarining iqtisodiy va etnik tarkibi, migratsiya jarayonlarining tarixiy dinamikasida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi o‘xshashlik va farqlarning ta’sirini hisobga olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mahonen T.A. Acculturation expectations and experiences as predictors of ethnic migrants’ psychological well-being / T.A. Mähönen, I. Jasinskaja-Lahti // Journal of Cross-Cultural Psychology. – 2013. – Vol. 44. – № 56. – P. 786806. 178.

2. Graeme H. “Migration and Women’s Empowerment” in Presser, Harriet/Sen, Gita (ed), Women’s Empowerment and Demographic Processes, Moving beyond Cairo, Oxford, 2000, p.288.

3. Hania Z. Female migrants: bridging the gaps throughout the life cycle selected papers of the unfpa-iom expert group meeting New York, 2-3 may 2006.

4. Yang F. Breadwinning: Migrant workers’ family motivation in facing life-threatening events and its performance implications. Journal of Business Research, 2022, no. 150, pp. 491–502.

5. Алексанова О.Е. Семейные и индивидуально-психологические характеристики жизне-способности эмигрантов. Человек в условиях неопределенности. Сборник научных трудов научно-практической конференции с международным участием. В 2-х т. Т. 1. Бакшутова Е.В.,

6. Баднер С. Нетерпимость к неопределенности как переменная личности. Журнал лично-сти. 1962. вып. 3(1). стр. 29–50

7. Барсукова М.Е. Женщины и миграция: причины, проблемы и последствия // Женщина в российском обществе. 2012. № 2. С. 78□82.

8. Илимбетова А.А. Факторы и экономические последствия женской трудовой миграции в России // Вестник Московского университета. Сэр. 6. 2013. № 4. С. 89-100.

9. Пескова Д.Р., Абреу Бастос О.П. Причины, риск и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне // Фундаментальные исследования. 2014. № 11, гл. 3. С. 596-600.

Babajanov Maqsadbek Ulug‘bekovich
Ma‘mun universiteti NTM psixologiya va
tibbiyot kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: maqsadbekbobojonov2@gmail.com

TALABALARDA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH DASTURLARINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Maqola talabalarda diqqatni rivojlantirish dasturlarining ta’lim samaradorligi va psixologik salomatlikka ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda kognitiv mashqlar, ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash va stressni boshqarish usullari orqali diqqat darajasini yaxshilash imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Natijalar, ushbu yondashuvlar yordamida talabalar diqqatini oshirish va akademik natijalarni yaxshilash mumkinligini tasdiqlaydi. Maqola ijtimoiy-emotsional treninglar va stressni kamaytirish usullarining talabalar o‘rtasidagi munosabatlar va hissiy farovonlikka ijobiy ta’sirini ham muhokama qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Diqqatni rivojlantirish dasturlari, ta’lim samaradorligi, psixologik salomatlik, kognitiv mashqlar, ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash, stressni boshqarish, akademik natijalar, talabalar o‘rtasidagi munosabatlar, hissiy farovonlik.*

ПРОГРАММЫ ПО РАЗВИТИЮ ВНИМАНИЯ У СТУДЕНТОВ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. *Статья анализирует влияние программ развития внимания студентов на учебную эффективность и психологическое здоровье. Исследование показывает возможности улучшения уровня внимания с помощью когнитивных упражнений, социально-эмоциональной поддержки и методов управления стрессом. Результаты подтверждают, что с помощью этих подходов можно повысить внимание студентов и улучшить академические результаты. Статья также обсуждает положительное влияние программ социально-эмоционального тренинга и снижения стресса на межличностные отношения и эмоциональное благополучие студентов.*

Ключевые слова: *Программы развития внимания, учебная эффективность, психологическое здоровье, когнитивные упражнения, социально-эмоциональная поддержка, управление стрессом, академические результаты, межличностные отношения, эмоциональное благополучие.*

EFFECTIVENESS OF PROGRAMS TO DEVELOP ATTENTION IN STUDENTS

.

Annotation.: *The article analyzes the impact of student attention development programs on educational effectiveness and psychological health. The study demonstrates the possibilities of improving attention levels through cognitive exercises, socio-emotional support, and stress management methods. The results confirm that these approaches can enhance students' attention and improve academic outcomes. The article also discusses the positive effects of socio-emotional training and stress reduction programs on interpersonal relationships and emotional well-being.*

Keywords: *Attention development programs, educational effectiveness, psychological health, cognitive exercises, socio-emotional support, stress management, academic outcomes, interpersonal relationships, emotional well-being.*

Kirish. Hozirgi ta’lim jarayonida talabalarning diqqatini rivojlantirish masalasi faqat yordamchi omil bo‘lib qolmay, balki o‘quv muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik jarayon sifatida qaralmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar diqqatni kuchaytirish akademik natijalarni yaxshilash bilan birga, talabalarning hissiy va ijtimoiy barqarorligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi [4]. Shu munosabat bilan, zamonaviy oliy ta’lim tizimlarida diqqatni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qator tadqiqotlar diqqatni rivojlantirish orqali talabalar ijtimoiy va hissiy jihatdan barqaror bo‘lishini, shuningdek, o‘quv

jarayonida yuqori natijalarga erishishini ta'kidlashadi[10],[11]. Diqqat statik jarayon emasligi, aksincha, maxsus psixologik metodlar va pedagogik strategiyalar yordamida rivojlantirilishi mumkinligi ilmiy manbalarda ko'p bora ta'kidlangan[1]. Bunda o'quv jarayonining turli bosqichlarida har bir talabaga moslashuvchan yondashuvni qo'llash, shuningdek, ijtimoiy-emotsional rivojlanishga e'tibor qaratish eng yaxshi natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Diqqatni mustahkamlash jarayonida xotira, fikrlash, hissiy barqarorlik va ijro funktsiyalari kabi boshqa kognitiv omillar ham mustahkamlanishi tufayli, diqqatni rivojlantirish dasturlari ta'lim samarasini keng ko'lamda oshirishga xizmat qiladi [5],[7]. Bunday dasturlarni amalda joriy etish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin, chunki ular diqqatni nazorat qilish bilan birga, talabalararo muloqot va hamkorlik kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi[8]. Shu bilan bir qatorda, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, masalan, ko'z harakatlarini o'lchash yoki onlayn ta'lim platformalarini qo'shish, diqqat jarayonini yaxshiroq tushunishga va rivojlantirish metodlarini takomillashtirishga yordam beradi[6]. Ammo bu jarayon ko'p qirrali bo'lib, talabalarning yosh xususiyatlari, oldingi tajribasi va hissiy barqarorligi singari individual omillarni ham hisobga olishni talab etadi [4]. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi talabalar diqqatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligini baholash va ularning psixologik ijobiy ta'sirlarini chuqur tahlil qilishdan iborat. Bunda dastur tuzilishi, davomiyligi va uni turli formatlarda (an'anaviy yoki masofaviy) qo'llash usullari qanday natijalar berishi, shuningdek, individual farqlar diqqat rivoji va o'quv muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlikka qanday ta'sir etishi o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida dastur joriy etilishidan oldin va keyin qo'llaniladigan baholash usullari, talabalarning hissiy holati va motivatsiyasi kabi omillar ham hisobga olinadi [10],[3]. Shunday qilib, diqqatni rivojlantirishga qaratilgan puxta o'ylangan dasturlarni tavsiya etish va kelgusida bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, zamonaviy ta'lim jarayonidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot metodologiyasi, avvalo, diqqatni rivojlantirish bo'yicha nazariy asoslarni chuqur anglab olishga qaratilib, bir qator olimlarning uslubiy tavsiyalari va amaliy tajribalaridan foydalaniladi. Bell va hamkorlari (2006) tarqatilgan ta'lim tizimi dizayni doirasida ta'limni rejalashtirishda o'quvchi faol ishtirokiga asoslangan bo'lishi lozimligini ta'kidlashgan. Ushbu yondashuv talabalarning diqqat jarayonini optimallashtirish uchun alohida imkon yaratadi, chunki mashg'ulotlar individual va guruhli faoliyatni uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladi. Bunday o'quv muhiti, Kimber va boshqa (2013) ko'rsatganidek, nafaqat kognitiv, balki hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular ijtimoiy-emotsional o'qitish (SEL) dasturlarida o'qituvchilarning o'zgarishi va malaka oshirishiga e'tibor qaratish orqali diqqatni boshqarish strategiyalarining samaradorligi ortishini qayd etishgan. Diqqatni rivojlantirish bo'yicha metodik tadbirlarni amalga oshirishda Nicoll (2014) tomonidan tavsiya etilgan "transformatsion maktablar" konsepsiyasi ham g'oyat muhim sanaladi. Chunki mazkur yondashuvda sinf va ta'lim muassasasi darajasida ijtimoiy-emotsional muhitni mustahkamlash, talabalarni qo'llab-quvvatlash hamda turli chalg'ituvchi omillarni minimallashtirish orqali diqqatni yaxshilash nazarda tutiladi. Bu borada shuning uchun ham va hamkorlari (2014) ishlab chiqqan "PRACTICE" modeli ham e'tiborga molik bo'lib, unda hissiy barqarorlik va moslashuvchan fikrlash ko'nikmalarini kengaytirish diqqatni mustahkamlashda asosiy o'rin tutishi ko'rsatilgan. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, ijtimoiy-emotsional malakalar faqat ta'lim jarayonining to'laqonli ishtirokchisiga aylangandagina diqqat boshqaruvining sifatli o'zgarishi kuzatiladi. Gabora va boshqa (2014) ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlanmalarida diqqat jarayonining ijro funksiyalari bilan qanday uzviy bog'liq ekanini o'rganib, ijodiy topshiriqlarni mashg'ulotlarga kiritish diqqatni jamlash ko'nikmalarini yaxshilashini tasdiqlashgan. Mazkur xulosalar metodologiyada "bir yo'la bir necha kognitiv jarayonlarni faollashtirish" prinsipiga asoslanib mashg'ulotlarni loyihalash kerakligini ko'rsatadi. Bu yerda Castro va hamkorlari (2005) tomonidan keltirilgan strategiyalar ham o'rinli bo'lib, ular mashg'ulotlarga o'z-o'zini parvarish qilish (self-care) tushunchasini kiritish orqali stressni boshqarish va hissiy charchoqni kamaytirish diqqatni yaxshilashda samara berishini qayd etganlar. Yana bir muhim jihat shuki, Cooke va hamkorlari (2017) diqqatni tahlil qilishda texnologik vositalardan, xususan, ko'z harakati va boshqaruv signallarini qayd etuvchi tizimlardan foydalanish mumkinligini ta'kidlab, bunday instrumental yondashuv mashg'ulotlarni aniq rejalashtirish va talabalarning diqqat darajasidagi real o'zgarishlarni aniq ko'rsatib berishiga urg'u berishgan. Shu tariqa, ushbu tadqiqotning metodologik poydevori kognitiv

jarayonlar, ijtimoiy-emotsional dasturlar va texnologik tahlil vositalari uyg‘unligidan iboratdir. Tadbirlarni rejalashtirishda, avvalo, kognitiv nazariyalarda diqqat bilan bog‘liq belgilangan prinsiplar qo‘llaniladi, so‘ngra ijtimoiy-emotsional treninglar orqali stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni mustahkamlash choralari ko‘riladi, zarur bo‘lsa, texnologiyalardan foydalangan holda diqqat jarayoniga aniq diagnostika o‘tkaziladi. Bunda, Castro va boshq. (2005) qayd etganidek, o‘z-o‘zini parvarish qilish usullarini o‘rgatish nafaqat diqqatni kuchaytiradi, balki umumiy psixologik farovonlikni ham yaxshilaydi. Demak, mazkur metodologik yondashuv yakkama-yakka kognitiv mashqlar bilan cheklanmay, talabaning hissiy, ijtimoiy va fiziologik holatlarini e’tiborga olishni, shu bilan birga texnologiyalardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Natijada diqqatni rivojlantirish jarayoni faqat nazariy konsepsiya bo‘lmay, balki malakali usullar, interaktiv mashqlar va individual ehtiyojlarga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash orqali amaliyotda real samara berishi kutiladi.

Natijalar. Quyidagi tadqiqot O‘zbekistonning Xorazm, Samarqand va Andijon viloyatlarida joylashgan oliy ta’lim muassasalari (OTM) talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan bo‘lib, unda Xorazm viloyatidan Ma’mun-Universiteti va Urganch davlat universiteti, Samarqand viloyatidan O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti va Andijon viloyatidan Andijon davlat pedagogika instituti talabalaridan jami 381 nafar respondent jalb etilgan. Ushbu tadqiqot diqqatning turli xususiyatlarini va talabalar o‘z-o‘zini boshqarish darajalarini o‘rganishga qaratilgan. Bu ishning asosiy maqsadi - diqqat xususiyatlarini o‘rganish natijalariga asoslangan holda, talabalar diqqatini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida diqqatning turli ko‘rinishlari hamda ularning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar va farqlar chuqur tahlil qilinadi, bu esa kelgusida ushbu sohadagi ilmiy yondashuvlarni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

1-jadval

Talabalarda diqqat xususiyatlari va o‘z-o‘zini boshqarish darajasi o‘rtasidagi aloqadorlik (N=381)
(Spirman korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

Komponentlar	Konsentratsiya	Topshiriqni bajarish tezligi	Barqarorlik	Ko‘chuv chanlik
Konsentratsiya	1	**0,471****	**0,640****	**-0,260****
Topshiriqni bajarish tezligi	**0,471****	1	0,017	0,046
Barqarorlik	**0,640****	0,017	1	**-0,338****
Ko‘chuvchanlik	**-0,260****	0,046	**-0,338****	1
Rejalashtirish	-0,019	0,02	-0,025	0,017
Modellashtirish	0,073	**0,104***	0,016	-0,069
Dasturlash	-0,043	-0,011	-0,061	0,033
Baholash	0,037	0,071	0,04	-0,011
Moslashuvchanlik	-0,06	0,028	-0,088	**0,105***
Ishonchlilik	0,071	**0,107***	0,045	-0,066
Barqarorlik	-0,016	0,006	-0,072	0,028
O‘z-o‘zini boshqarish	-0,003	0,072	-0,026	-0,006

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

Ushbu tahlilda Burdonning “Korrektura sinovi” metodikasi orqali diqqatning konsentratsiya, topshiriqni bajarish tezligi, barqarorlik va ko‘chuvchanlik kabi asosiy xususiyatlari hamda V.I.Morosanovaning «Xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubi – SSPM 2020» metodikasi natjasida aniqlanadigan o‘z-o‘zini boshqarish darajasi shkalalari – rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash, baholash, moslashuvchanlik, ishonchlilik, barqarorlik va o‘z-o‘zini boshqarish bilan qanday aloqada bo‘lishi ham ko‘rib chiqildi. Spirman korrelyatsiyasi asosida olingan natijalar ushbu komponentlarning o‘zaro qanday tarzda integratsiyalashganini va ularning individual xususiyatlar bilan bog‘liqligini aniqlashga imkon berdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, konsentratsiya va topshiriqni bajarish tezligi o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlik mavjud ($r = 0.471$; $p < 0.01$), bu esa diqqatni jamlash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar

topshiriqlarni tezroq va samaraliroq bajarishlarini anglatadi. Bundan tashqari, konsentratsiya va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchli va ijobiy ($r = 0.640$; $p < 0.01$), bu esa doimiy diqqatni saqlab tura oladigan talabalarning bir maromda, uzluksiz ishlashga qodir ekanini ko‘rsatadi. Aksincha, konsentratsiya va ko‘chuvchanlik o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud ($r = –0.260$; $p < 0.01$), bu esa diqqatni jamlay oladigan talabalar ko‘p yo‘nalishli yoki doimiy o‘zgaruvchan faoliyatga kamroq moslashishini bildiradi.

Topshiriqni bajarish tezligi esa, yuqorida aytib o‘tilganidek, konsentratsiya bilan ijobiy bog‘liq bo‘lishi bilan birga, modellashtirish ($r = 0.104$; $p < 0.05$) va ishonchlilik ($r = 0.107$; $p < 0.05$) ko‘rsatkichlari bilan ham statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlikka ega. Bu esa, tez va samarali ishlovchi talabalar odatda model asosida fikrlash hamda faoliyatda ishonchlilikni namoyon qilishga moyil ekanini anglatadi. Boshqa o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari bilan esa bu komponent sezilarli bog‘liqlikka ega emas.

Barqarorlikning boshqa o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsiyasi statistik jihatdan ahamiyatli emasligi (masalan, rejalashtirish: $r = –0.025$; dasturlash: $r = –0.061$; o‘z-o‘zini boshqarish: $r = –0.026$) bu komponentning nisbatan mustaqil psixologik funksiyani aks ettirishini bildiradi.

Ko‘chuvchanlik esa tahlil natijalarida o‘ziga xos mustaqil komponent sifatida namoyon bo‘lib, konsentratsiya ($r = –0.260$; $p < 0.01$) va barqarorlik ($r = –0.338$; $p < 0.01$) bilan salbiy bog‘liq bo‘lishiga qaramay, moslashuvchanlik bilan past darajadagi, ammo statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlikka ega ($r = 0.105$; $p < 0.05$). Bu esa shuni anglatadiki, tez yo‘nalish o‘zgartira oladigan, bir faoliyatdan boshqasiga osongina o‘tuvchi talabalar, ayni paytda, yangi vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishadi. Boshqa o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari bilan ko‘chuvchanlikning bog‘liqligi esa statistik jihatdan ahamiyatli emas (masalan, modellashtirish: $r = –0.069$; baholash: $r = –0.011$; dasturlash: $r = 0.033$).

Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, konsentratsiya va barqarorlik o‘zaro kuchli bog‘liq bo‘lgan, asosiy kognitiv jarayonlar sifatida qaraladi. Ular o‘z-o‘zini boshqarish funksiyalarini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy poydevor rolini bajaradi. Topshiriqni bajarish tezligi esa ba’zi o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lib, modellashtirish va ishonchlilik jihatlarida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘chuvchanlik esa tahlilda nisbatan mustaqil harakatchan komponent sifatida ajralib turadi. Bu esa har bir kognitiv komponentning o‘z funksional vazifasiga ega bo‘lgan psixologik tizimdagi o‘zaro aloqalarini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

2-jadval

Talabalarda diqqat xususiyatlari va o‘z-o‘zini boshqarish darajasi bo‘yicha yosh tafovutlari (n=381) (Kruskal-Uollis mezoni asosida)

Shkalalar	Talabalar yoshi			H	p
	17-22 yosh (n=223)	23-28 yosh (n=61)	29-55 yosh (n=97)		
Konsentratsiya	182,67	231,14	184,91	9,682	**0,008****
Topshiriqni bajarish tezligi	184,32	208,7	195,22	2,538	0,281
Barqarorlik	192,08	204,38	180,1	1,872	0,392
Ko‘chuvchanlik	192,57	182,25	192,9	0,46	0,795
Rejalashtirish	198,17	199,12	169,4	5,097	0,078
Modellashtirish	197,79	189,99	176,03	2,674	0,263
Dasturlash	186,27	202,93	194,37	1,384	0,5
Baholash	181,93	179,88	218,84	8,426	**0,015***
Moslashuvchanlik	182,1	174,63	221,75	10,573	**0,005****
Ishonchlilik	199,27	176,59	181,06	3,138	0,208

Barqarorlik	185,83	193,11	201,55	1,458	0,482
O‘z-o‘zini boshqarish	189,58	185,49	197,73	0,552	0,759

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

Konsentratsiya ko‘rsatkichi bo‘yicha yosh guruhlari o‘rtasida sezilarli farq aniqlandi ($H = 9.682$, $p = 0.008 < 0.01$). Ayniqsa, 23–28 yoshdagi talabalar diqqatni jamlashda yuqori natija ko‘rsatib, bu yoshda mas’uliyat hissi va o‘quv faoliyatiga ongli yondashuv kuchliroq ekanini tasdiqlaydi.

Baholash indikatorida ham statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud ($H = 8.426$, $p = 0.015 < 0.05$). Katta yoshdagi talabalar bu ko‘nikmada ustunlik qilgan bo‘lib, bu ularning hayotiy tajribasi va analitik fikrlashiga bog‘liq.

Moslashuvchanlik eng kuchli farq chiqqan ko‘rsatkich bo‘lib, 29–55 yosh guruhida sezilarli darajada yuqori ($H = 10.573$, $p = 0.005 < 0.01$). Bu natija katta yoshdagilarni o‘zgaruvchan muhitga yaxshi moslasha olishini ko‘rsatadi.

Topshiriqni bajarish tezligi, barqarorlik, ko‘chuvchanlik, rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash, ishonchlilik va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlarida esa yosh guruhlari o‘rtasida statistik farq aniqlanmadi ($p > 0.05$). Bu ko‘nikmalar yoshdan mustaqil shakllanishi yoki boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar yoshi konsentratsiya, baholash, va moslashuvchanlik kabi muhim psixologik ko‘nikmalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘rta va katta yoshdagi talabalar bu kompetensiyalarda ustunlik qiladi. Boshqa ko‘rsatkichlar esa yoshdan mustaqil shakllangan bo‘lib, ularning rivojlanishi individual yoki tashqi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu esa diqqatni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda yosh omilini hisobga olish bilan birga, boshqa individual xususiyatlarga ham e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Talabalarda diqatni rivojlantirishni bir tomondan, diqqatni mustahkamlashga qaratilgan metodik mashqlar, ikkinchi tomondan esa, qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit va stressni kamaytirishga qaratilgan usullarning birgalikdagi ta’siri natijasi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday integrativ yondashuvning samaradorligi Kimber va boshq. (2013) tomonidan ijtimoiy-emotsional o‘qitish dasturlari haqida bildirilgan fikrlarda diqqatni rivojlantirishni ijtimoiy va hissiy barkamollikni shakllantirishdan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlashgan. Ushbu tadqiqot jarayonida ham hissiy barqarorlikni kuchaytirish bo‘yicha mashg‘ulotlar diqqat bosqichlarini yaxshilashda qo‘shimcha omil bo‘lib xizmat qilgani ma’lum bo‘ldi. Natijalarning Nicoll (2014) ilgari surgan qo‘llab-quvvatlovchi muhit konsepsiyasi bilan ham mos kelishi, talabalarga yuqori diqqat jamlash imkonini beruvchi ta’lim muhitini yaratish kerakligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv nafaqat kognitiv elementlarni, balki xavfsiz, ijtimoiy hamkorlikka asoslangan muhitni ham ta’minlaydi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish jarayonida diqqat qanday boshqarilishini aniqlashda elektron nazorat usullari (masalan, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar) yetarli yordam ko‘rsatgani Cooke va boshq. (2017) dalillariga uyg‘un keladi. Ammo ayrim talabalar texnik qiyinchiliklar yoki onlayn mashg‘ulotlardagi muloqotning cheklanganligi sababli diqqatni doimiy saqlashda muammolarga duch kelishi mumkinligi ham kuzatildi. Bu esa texnologik usullar va an’anaviy ta’lim shakllarining muvozanatli uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Natijalar Qiu va boshq. (2019) keltirgan motivatsiya va diqqat o‘rtasidagi ijobiy aloqadorlikni ham tasdiqlab, talabalarning hissiy xavfsizligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovi diqqat jarayonini kuchaytirishda yetakchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi[12].

Demak, diqqatni rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun turli metodlarni uyg‘unlashtirgan holda, talabalarning hissiy, kognitiv va texnik ehtiyojlarini hisobga olish kerak. Shu bois tadqiqotchilarning tadqiqotlari doirasida olingan dalillar diqqatni rivojlantirishning nafaqat kognitiv, balki hissiy va ijtimoiy jihatlariga e’tibor qaratadigan kompleks yondashuv samarali ekanini ko‘rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, kognitiv mashqlar, ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash va stressni boshqarish texnikalarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv talabalarning diqqatini va o‘quv samaradorligini yaxshilaydi. Eksperimental guruhda diqqatni jamlash, chalg‘ituvchi omillarga bardoshlilik va hissiy barqarorlikda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan.

Korrelyatsion tahlillar, diqqat darajasining yuqori bo‘lishi bilan topshiriqni bajarish tezligi va aniqligining oshishi o‘rtasida ijobiy aloqadorlikni tasdiqlaydi. Shuningdek, diqqat barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlik talabalarning uzoq muddatli diqqatini jamlash qobiliyatini oshirishini ko‘rsatadi. Ko‘chuvchanlik esa diqqatni saqlash va barqaror faoliyat bilan salbiy bog‘liq bo‘lib, bu vaziyatlar diqqat barqarorligiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Yosh guruhlarining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan 23-28 yoshdagi talabalarda konsentratsiya qobiliyati yuqori bo‘lishi, bu yoshda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. 29-55 yoshdagilarda esa baholash va moslashuvchanlik ko‘rsatkichlari yuqori, bu ularda hayotiy tajriba va mas'uliyat hissi ta’sir qilishi mumkinligini bildiradi.

Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalariga diqqatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Bu dasturlar ijtimoiy-emotsional treninglar va stressni boshqarish usullarini o‘z ichiga olib, yosh xususiyatlari hamda talabalar individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Interaktiv texnologik vositalardan foydalanish diqqatni yanada chuqurroq tahlil qilish va uni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa talabalarning o‘quv jarayonidagi motivatsiyasi va hissiy barqarorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu xulosalar o‘qituvchilar, psixologlar va ta’lim tashkilotchilariga diqqatni rivojlantirish dasturlarini ilmiy asoslangan holda joriy etish va yanada takomillashtirish bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Aber J, Lawrence, Darling, Matthew, Gennetian, Lisa. (2017). Behavioral Economics and Developmental Science: A New Framework to Support Early Childhood Interventions. *DigitalCommons@TMC*.

2. Bell, Bradford S, Kozlowski, Steve W J. (2006). Distributed Learning System Design: A New Approach and an Agenda for Future Research. *DigitalCommons@ILR*.

3. Biswas RR. (2006). A Supporting Role: How Accreditors Can Help Promote the Success of Community College Students. *Jobs for the Future*.

4. Britton W, Fisher N, Gold J, Lepp N, Niles H F, Rocha, Tomas. (2014). A randomized controlled pilot trial of classroom-based mindfulness meditation compared to an active control condition in sixth-grade children.

5. Castro, Jennifer R, Edwards, Lisa, Eicken, Iverson M, Haggins, Kristee L, Tran N-T, Amber, Turner, Joseph A, Yokoyama, Kayoko. (2005). Intern Self-Care: An Exploratory Study Into Strategy Use and Effectiveness. *e-Publications@Marquette*.

6. Cooke A, Gallicchio G, Ring C. (2017). Eye quietness and quiet eye in expert and novice golf performance: an electrooculographic analysis. *International Society of Sport Psychology*.

7. Cunningham W, Guerra N, Modecki KL. (2014). Developing Social-Emotional Skills for the Labor Market: The PRACTICE Model. *Social Protection and Labor Global Practice Group, World Bank Group*.

8. Dean S T, Jones, Pitch J, Govind N, Orr F. (2019). SC43 Simulation for developing healthcare graduates empathy skills: virtual empathy museum. *BMJ Simulation and Technology Enhanced Learning*, 5, A44 - A45.

9. Gabora, Liane, Morin, Sophie, Robert, Jean-Marc. (2014). A New Course on Creativity in an Engineering Program: Foundations and Issues. *Institute of Electrical and Electronics Engineers (IEEE)*.

10. Kimber, Birgitta, Sandell, Rolf, Skoog, Therése. (2013). Teacher change and development during training in social and emotional learning programs in Sweden. *Centre for Resilence & Socio-Emotional Health*.

11. Nicoll, William G. (2014). Developing transformative schools : a resilience-focused paradigm for education. *Centre for Resilience & Socio-Emotional Health*,

12. Qiu L, Yi C, Massaro, Virginia R, Parkhouse, Hillary. (2019). Multicultural education professional development: A review of the literature. *VCU Scholars Compass*.

Babayeva Nazira Asatullayevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi o‘qituvchisi
E-mail: nbabaeva987@gmail.com

NIZOLARNI HAL QILISHDA MODERATORNING XARAKTERISTIKASI

Annotatsiya. *Konfliktlar – insonlarning o'zaro munosabatlarida paydo bo'ladigan ziddiyatli vaziyatlardir. Konfliktlar tabiiy hodisa. Moderator nima qiladi? Moderator — bu nizolarni hal qilish jarayonida ishtirokchilarning fikrlarini boshqaruvchi va muvozanatni ta'minlovchi shaxsdir. Moderatorning asosiy vazifasi — suhbatni samimiy va konstruktiv tarzda olib borish, ishtirokchilarning fikrlarini birlashtirish va muammolarning ijobiy yechimini topishdir.*

Kalit so’zlar: *Konflikt, konfliktli vaziyat, moderator, moderator nima qiladi, vositachilik, moderatorning xarakterologiyasi, empatiya, sabr-toqat va qat'iyat, obro‘ va ishonch, vositachilik strategiyasi va taktikasi.*

ХАРАКТЕРИСТИКИ МОДЕРАТОРА ПРИ РАЗРЕШЕНИИ СПОРОВ

Аннотация. *Конфликты – это конфликтные ситуации, возникающие в человеческих отношениях. Конфликты – это естественное явление. Что делает модератор? Модератор — человек, который управляет мнениями участников и обеспечивает баланс в процессе разрешения споров. Основная задача модератора – вести беседу искренне и конструктивно, объединить мнения участников и найти положительное решение возникших проблем.*

Ключевые слова: *Конфликт, конфликтная ситуация, модератор, что делает модератор, медиация, характеристика модератора, сочувствие, терпение и настойчивость, репутация и доверие, стратегия и тактика медиации.*

CHARACTERISTICS OF A MODERATOR IN CONFLICT RESOLUTION

Abstract. *Conflicts are conflict situations that arise in human relationships. Conflicts are a natural phenomenon. What does a moderator do? A moderator is a person who manages the opinions of the participants and ensures balance in the process of resolving these conflicts. The main task of the moderator is to conduct the conversation in a sincere and constructive manner, to unite the opinions of the participants and find positive solutions to the problems.*

Key words: *Conflict, conflict situation, moderator, what a moderator does, mediation, moderator characterology, empathy, patience and determination, authority and trust, mediation strategy and tactics.*

Kirish. Konfliktlar – insonlarning o'zaro munosabatlarida paydo bo'ladigan ziddiyatli vaziyatlardir. Ular ish joylarida, oila a'zolari o'rtasida, davlatlar orasida yoki boshqa ko'plab kontekstlarda yuzaga kelishi mumkin. Konfliktlarni xal etishda muhim rolni moderator (yoki vositachi) o'ynaydi. Moderatorning vazifasi – tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ularning fikrlarini tinglash va nizolarni samarali hal qilishda yordam berishdir. Moderatorning xarakterologiyasi esa, uning vazifalarni qanday bajarishini, muloqotda qanday yo'l tutishini, ishonchni qanday o'rnatishini va konfliktni qanday hal qilishini belgilovchi asosiy faktor hisoblanadi.

Inson o’z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo’ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo’lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo’lgan o’ziga xos jarayon bo’lib, hech bir inson o’zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o’z hayoti davomida konfliktlar bilan to’qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo’lib, konflikt bilan to’g’ri munosabat o’rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. So’nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlard-

agi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi.

Bolalik davrida o'yinchoqlarni talashish, birovlarga hasad qilish, yoki o'g'il bolalarning janjal qilib urishganini ko'p kuzatamiz. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, er-u xotin, qaynona-kelin, aka-opalar, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, shuningdek mehnat faoliyatida ham vujudga kelishi mumkin.

O'zbeklarning milliy qadriyatlari tizimida janjalkashlik, ichi qoralik, boshqa odamlar tinchini buzish, oiladagi zo'ravonlik, bolalarga nisbatan zo'ravonlik qoralanadi. Nizo kelib chiqishi bilan uni hal qilish yo'llarini qidirish oqlanadi. Ammo hayotda odamlarning o'zini tutishi va harakatlari azaliy qadriyatlar asosida emas, balki ularga zid bo'lgan xususiyatlar asosida rivojlanganligini ko'ramiz. Bir oilada yashab, unib o'sgan qarindoshlar orasida meros talashib, pul va qarz mojarolari bilan, yerdan ulush so'rab, hovli joylarni adolatli bo'lisha olmagan hamda mana shu sabab yuz ko'rmas bo'lib ketgan yaqin qarindoshlar uchrab turadi. Shu nuqtai nazardan, umuman konfliktni yechib bo'ladimi, uning hammani qoniqtirgan xulosasi mavjudmi degan masala qiziqish uyg'otadi.

Adabiyotlarda konfliktlarni hal qilishning maqsadga muvofiq asoslariga quyidagilar kirishi haqida fikr beriladi, ya'ni: konflikt sabablari; taraflar xulq-atvor motivlarini o'z ichiga olgan qarama-qarshi kurash diagnostikasi; vaziyatli va pozitsiyaviy tahlilni amalga oshirish (vujudga kelgan vaziyat va taraflar nuqtai nazarlarini aniqlashtirish); konfliktlar borishini va oqibatlarini bashorat qilish (shu jumladan, konflikt u yoki bu tarzda tugaganda har bir taraf uchun foyda yoki zararni aniqlash). Bu harakatlarning barchasi faqat uchinchi taraf (vositachi) tomonidangina emas, shuningdek, sub'yektlarning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi foydalidir, bunda taraflar o'tkazilgan tahlildan so'ng umumiy qarorlarni ishlab chiqish zaruriyatini tushunishga yaqinlashadilar. Konfliktli vaziyat mohiyatini aniqlash, uni obyektiv tushunish, konflikt ishtirokchilari tomonidan adekvat anglash kelishuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ba'zi hollarda vaziyat taraflar tomonidan buzib qabul qilinsa, konfliktni umuman tugatish mumkin. Kelishmovchiliklar predmeti qanchalik aniqroq va qat'iy belgilansa, konfliktni hal qilishning samarasi uchun shuncha imkoniyatlar tug'iladi. Konfliktni hal etish asoslaridan foydalanish, uni hal qilish mexanizmlariga olib keladi: a) konfliktni ishtirokchilarning o'zlari tomonidan hal qilinishi ; b) uchinchi tarafning aralashuvi.

Asosiy qism. Moderator nima qiladi? Moderator barcha umumiy kontentning mos kelishini va hamjamiyat qoidalariga rioya qilishini ta'minlash uchun munozara yoki munozara va tegishli o'zaro aloqalarni osonlashtiradi, ko'rib chiqadi va boshqaradi. Moderatorlarni turli sohalarda va kontekstlarda onlayn yoki tadbirlarda topishingiz mumkin. Ijtimoiy media moderatorlari, hamjamiyat moderatorlari, munozaralar/munozaralar moderatorlari va sog'liqni saqlash bo'yicha moderatorlarning barchasi ijobiy va xavfsiz o'zaro ta'sir o'tkazish uchun makon yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Moderator sifatida sizning vazifalaringiz muhokama mavzularini taqdim etish, ishtirokchilarni baham ko'rishga undash, bir-biriga bog'liq bo'lmagan yoki nomaqbul tarkibni olib tashlash, savollarga javob berish, guruh chegaralari va qoidalarini belgilash va platformani yangilashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, siz qaysi ma'lumotlarning ma'qullanishi yoki olib tashlanishi haqida qaror qabul qilish huquqiga egasiz.

Qanday qilib moderator bo'lish mumkin. Moderator bo'lish uchun rasmiy ta'lim talablari yo'q. Buning o'rniga siz onlayn guruhlar, chat xonalari va xabarlar taxtalarida ko'ngillilik tajribasiga ega bo'lishingiz va keyin pullik lavozimlarni taklif qiluvchi kompaniyalarga murojaat qilishingiz mumkin. Muvaffaqiyatli moderator bo'lish uchun siz mavzularni oldindan o'rganishingiz, tegishli savollarni tayyorlashingiz va neytral bo'lishingiz kerak. Qo'shimcha malakalarga barcha o'zaro munosabatlarga diqqat bilan e'tibor berish qobiliyati, to'g'ri fikr yuritish va mukammal yozma til ko'nikmalari kiradi. Ba'zi moderator ishlari masofaviy lavozimlar bo'lib, sizdan ishonchli internet va yangilangan kompyuter uskunalariga kirishni talab qiladi.

Konfliktlar ham konstruktiv, ham buzg'unchi bo'lishi mumkin va ularni to'liq hal qilishdan ko'ra samarali boshqarish kerak, bu jamoalar salbiy ta'sirlarni minimallashtirish va manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va umidlarini qondirish kabi ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish uchun mojarolarni ma'lum darajada ushlab turishini taklif qiladi. Tashkiliy kontekstda ikki o'lchovli shaxslararo nizolarni hal qilishning beshta uslubi mavjud: (a) integratsiya (o'ziga va boshqasiga yuqori darajada tashvish); (b) hukmronlik

qilish (o'ziga ko'p tashvishlanish va boshqasiga nisbatan kam e'tibor); (c) majburiyatli (o'ziga kam e'tibor va boshqasiga katta e'tibor); (d) qochish (har ikki o'lchov uchun kam tashvish); va (e) murosaga kelish (ikkala o'lchovda o'rta). Bundan tashqari, o'z-o'zini tashvishga soladigan strategiyalar qat'iydir; boshqasi uchun tashvishlarni ko'rsatadigan strategiyalar hamkorlikdir.

Konfliktlarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlar shuni tan oladiki, tashkilotlardagi nizolar muqarrar va konstruktiv yoki buzg'unchi yo'nalishga ega bo'lishi mumkin (Tjosvold va boshq., 2014). Shuning uchun nizolarni boshqarish tashkilot amaliyotining asosiy qismidir, ayniqsa rahbarlar va menejerlar har xil turdagi nizolarning oldini olish va ularga aralashish uchun ko'p vaqt sarflashadi. Mojarolarni boshqarish usuli tashkilot madaniyatining asosiy elementlarini yoki ijtimoiy umumiy me'yorlarni aks ettiradi va tashkilot nizo madaniyati deb ataladi (Gelfand va boshq., 2012). Gelfand va boshqalar. (2012) konflikt madaniyatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkinligini aniqladi: a) jamoaviy konstruktiv muloqot, muzokaralar va muammolarni birgalikda hal qilish mavjud bo'lgan "hamkorlik" nizo madaniyatlari; b) tashkilot a'zolari birgalikda raqobat va g'alaba qozonish va boshqalarni aldashga harakat qiladigan "hukmronlik" mojaro madaniyatlari; yoki c) tashkilot a'zolari birgalikda nizolarni bostiradigan va nizodan voz kechadigan "qochuvchi" nizo madaniyatlari. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, hamkorlikdagi mojaro madaniyatlari sog'lom, samaraliroq va innovatsion tashkilotlarga hissa qo'shadi. Bunday madaniyatlarda nizolar muqarrar deb e'tirof etiladi va potentsial konstruktiv va integrativ muammolarni hal qilish rag'batlantiriladi.

Bu konfliktlarning ijodiy salohiyatidan optimal foydalaniladi, shu bilan birga konfliktning halokatli oqibatlarining oldi olinadi (Katz & Flynn, 2013). Bunday madaniyatlar, shuningdek, mojaroda uchinchi tomonning yordami, shu jumladan vositachilik uchun unumdor tuproqni taklif qiladi. Vositachilik har xil turdagi nizolarda qo'llaniladi: tashkilot ichida, ham lateral va ierarxik munosabatlarda, balki yetkazib beruvchilar, mijozlar, hukumatlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ziddiyatlarda. Vositachilar rahbariyat va ishchilar o'rtasidagi keskinlashgan jamoaviy qarama-qarshiliklarda, balki ikki xodim o'rtasidagi kundalik nizolarda ham harakat qilishlari mumkin.

Mojarolar ko'pincha tashkilotga ham, ishtirok etayotgan odamlarga ham halokatli ta'sir ko'rsatadi (De Dreu, 2008; Giebels va Janssen, 2005), asosiy muammo bu mojarolarni konstruktiv tarzda boshqarishdir (De Dreu va Van de Vliert, 1997), chunki kuchaygan mojaroning oqibatlari tashkilot va ishtirok etgan odamlar uchun juda salbiy bo'lishi mumkin. Buyuk Britaniyada yaqinda o'tkazilgan tahlil iqtisodga mojaroning zararini 28,5 milliard funt sterlingga baholadi, bu har bir xodim uchun yiliga 1000 funt sterlingga teng (Saundry & Urwin, 2021). Xuddi shunday, shaxsiy oqibatlarni hisobga olgan holda, ziddiyat xodimlarga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishchilarning yarmidan ko'pi (56%) stress, tashvish va/yoki depressiyani his qilgan, 40% kamroq motivatsiyani bildirgan va nizolarni boshdan kechirgan xodimlarning taxminan 5% tashkilotni tark etgan (Saundry & Urwin, 2021).

Vositachilik mojaroning intensivligi yoki mojaroning kuchayishi darajasiga bog'liq ekanligi isbotlangan (Coleman va boshq., 2016; Euwema va boshq., 2019). Eskalatsiya - bu tomonlarning yanada qattiqroq taktikasini qo'llagan holda nizoning kuchayish jarayoni, muammolar va tomonlarning ko'payishi va tomonlarning motivlarini o'z manfaatlarini amalga oshirishdan boshqasiga zarar yetkazishga o'zgartirish o'zining taniqli konflikt kuchayish modelida vositachilik mojaro avj olishining o'rtacha darajasida qo'llanilganda funktsional bo'lishini taklif qiladi. Euvema va boshqalarning (2019) kollektiv mojarolarda vositachilik bo‘yicha tadqiqoti nizo rivojlanishining besh bosqichda modelini taklif qiladi: 1) yashirin tarkib, 2) dastlabki bosqich, 3) qarama-qarshilik, 4) qizg‘in mojaro va 5) munosabatlarni tiklash. Dalillar shuni ko'rsatadiki, vositachilik asosan tashkiliy nizolarda 3 va 4 bosqichlarda qo'llaniladi. Euwema va boshqalar tomonidan tadqiqot. (2019) mojaroning dastlabki bosqichida mojaroning samaradorligini oshirish uchun vositachilikning oldini olishdan ijobiy foydalanish haqida ma'lumot beradi (masalan, muzokaralar jarayonini osonlashtirish). Shu bilan birga, mojaro epizodidan so'ng, tomonlarni yarashtirish uchun vositachilikdan foydalanish katta qiyinchilik tug'diradi, chunki mojarodan keyingi nizolar keyingi siklni kuchaytiradi. Mojaro epizodidan keyin tomonlarni qanday yarashtirish va ijobiy tashkiliy muhitni yaratish, ayniqsa, tomonlar o'rtasidagi munosabatlar yomonlashgan nizolar yuqori intensivlikdagi holatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Vositachilik strategiyasi va taktikasi. Mediatsiyaning favqulodda yondashuvi bilan bog'liq holda, vositachining strategiyalari, uslublari va xatti-harakatlarini hisobga olish muhimdir. Shu ma'noda,

Kessell tipologiyasi (1990 Lim va Carnevale tomonidan ishlab chiqilgan) refleksiv (ya'ni ishonchni rag'batlantirish), kontekstli (ya'ni jarayonni boshqarish) va mazmunli strategiyalarni (ya'ni, tomonlarni kelishuvga faol ravishda undash) ajratadi.

Kontekstli strategiyalar vositachilik sodir bo'ladigan sharoitlarni o'zgartirish orqali nizolarni hal qilish jarayonini osonlashtirishga harakat qiladi. Vositachi nizoli masalalarni bevosita hal qilishga intilmaydi, balki tomonlarning o'zlari yechim topishlari uchun jarayonni osonlashtiradi. Ushbu turdagi aralashuvlarga misollar kun tartibini soddalashtirish, masalalarni birinchi o'ringa qo'yish va hokazo.

Substantiv strategiyalar kelishuvni izlashda to'g'ridan-to'g'ri ziddiyatli mavzularni qamrab oladigan aralashuvlarni anglatadi. Ushbu turdagi aralashuvning ba'zi misollari har qanday tomonning pozitsiyasini o'zgartirishga urinish, kelishuv taklifini kiritish va hk.

Nihoyat, refleksiv strategiyalar uchinchi tomonni mojaro tomon yo'naltirishga, tomonlarning roziligini qozonishga, uchinchi tomon va vositachilik jarayoniga ishonchni o'rnatishga harakat qiladi va kelajakdagi faoliyatni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Ushbu turdagi aralashuvning ba'zi misollari tomonlarga ishonchni rivojlantirish va atmosferani dam olish uchun hazildan foydalanishdir.

Mediatorlar ham vositachilik jarayonidan shartli ravishda foydalaniladi. Mediatorlar butun jarayon davomida tomonlarni bir xonada saqlashni yoki ularni alohida xonalarga (kokus) ajratishni tanlashi mumkin. Qo'shma sessiyalar tomonlarga xavfsiz muhitda tinglanganini his qilishlari, vositachilarga vaziyatni tushunishlariga imkon berishlari va jarayonni xolisligi va nazoratini namoyish etishlari uchun foydalidir. Xususiy sessiyalar tomonlarning haqiqiy manfaatlarini tushunish, qo'shma yig'ilishlarda paydo bo'ladigan kelishuv variantlarini sinab ko'rish yoki tomonlarning o'z haqiqatiga qarshi pozitsiyasini sinab ko'rish uchun foydalidir. Xususiy yoki qo‘shma majlislardan qachon foydalanishni hal qilish mediatorlar uchun zaruriy kompetensiya bo‘lib, agar ular ushbu uchrashuvlardan ierarxik mojarolarda protsessual adolatni oshirish, salbiy his-tuyg‘ularni boshqarish va mediator bilan ishonchni mustahkamlash uchun foydalansalar, nizolarni hal qilish ehtimolini oshirishi mumkin.

Yana bir imkoniyat - bu vositachilikning o'zidan oldin tomonlar bilan alohida uchrashish, bu precaucus deb ataladi. Aloqalar juda buzilgan bo'lsa, har bir tomon bilan oldindan uchrashuv o'tkazishga yordam beradi; ushbu uchrashuvlar mediatorlar uchun tomonlarning vositachilikka tayyorligi, ularning dastlabki pozitsiyalari yoki BATNA bilan tanishishda foydali bo'lishi mumkin. Biroq, bu prekokus uchrashuvlari, agar ular mojaroning mohiyatini mazmunli muhokama qilish uchun foydalanilgandan ko'ra, tomonlarni vositachilikka undash yoki ularning salbiy his-tuyg'ularini boshqarish kabi hissiy jihatlarga e'tibor qaratishsa samaraliroq bo'ladi. Biroq, murakkab to'qnashuvlarda prekokusni qo'llash bo'yicha empirik dalillar kam va kelajakda o'rganilishi kerak bo'lgan tadqiqot liniyasidir.

Moderatorning xarakterologiyasi va uning rolini tahlil qilish. Moderatorning xarakteri va shaxsiy sifati konfliktni hal etishda katta ahamiyatga ega. Moderatorning obro'si, sabr-toqati, empatiya va hissiy intellekti, ijtimoiy ko'nikmalari, xulq-atvori va qaror qabul qilishdagi adolati — bularning barchasi uning samarali ishlashiga yordam beradi.

Empatiya - konfliktli tomonlar o'rtasida ishonchni o'rnatish uchun moderatorda yuqori darajada empatiya bo'lishi zarur. U tomonlarning hissiyotlarini tushunib, ularga munosabat bildirish orqali samarali yordam bera oladi. Empatiya, moderatorga tomonni to'g'ri tushunish va ular bilan ishlashda muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Sabr-toqat va qat'iyat - Konfliktlar ko'pincha o'ziga xos haroratda rivojlanadi va moderator, bu vaziyatda sabr-toqat bilan ishlashni bilishi kerak. U har bir tomonning fikrini teng ravishda eshitish va ularni to'g'ri yo'naltirishda sabr-toqat ko'rsatishi lozim.

Obro‘ va ishonch - Moderatorning shaxsiy obro'si va axloqiy qiymatlari ham muhimdir. Agar moderator ishonchli va obro'li bo'lsa, tomonlar o'zaro kelishuvga erishishda osonroq bo'ladi. Moderatorning obro'si, uning neytrallikni saqlash, adolatli va xolis fikrlar bildirishiga yordam beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalar va kommunikatsiya - Samarali kommunikatsiya – moderatorning muvaffaqiyatiga asos bo'ladi. Uning ijtimoiy ko'nikmalari va muloqot qilishdagi mahorati, tomonlarni tinglash, o'z fikrlarini to'g'ri va ravshan ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Moderatorning ijtimoiy ko'nikmalari, ularning konfliktni hal qilishda qanday yondashuvni tanlashini, qaysi usullarni qo'llashini belgilaydi.

Xulosa. Konfliktlarni hal etishda moderatorning xarakteri katta ahamiyatga ega. U muvozanatni saqlash, tomonlar o'rtasida ishonchni o'rnatish va konstruktiv muloqotga yo'naltirish uchun o'zining empatiyasi, sabr-toqati, obro'si va ijtimoiy ko'nikmalarini samarali ishlatishi zarur. Moderatorning bu sifatlari konfliktni muvaffaqiyatli hal qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shaxsiy sifatlar va xulq-atvorning uyg'unligi bilan moderator, konfliktlarni tez va samarali tarzda hal qilishga yordam beradi, tomonlar o'rtasida do'stona va produktiv muloqotni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Lourdes Munduate, Francisco J. Medina, Martin C. Euwema. "Mediation: Understanding a Constructive Conflict Management Tool in the Workplace". Revista de Psicología del Trabajo y de las Organizaciones, vol. 38, no. 3, pp. 165-173, 2022. Colegio Oficial de la Psicología de Madrid\\ DOI: https://doi.org/10.5093/jwop2022a20

2. Coleman, P. T., Kugler, K., Gozzi, C., Mazzaro, K., El Zokm, N., & Kressel, K. (2014). Putting the peaces together: Introducing a situated model of mediation. *International Journal of Conflict Management, 26*(2), 145-171. https://doi.org/10.1108/IJCMA-02-2014-0012

3. Coleman, P. T., Kugler, K. G., & Mazzaro, K. (2016). Getting beyond win-lose and win-win: A situated model of adaptive mediation. In K. Bollen, M. C. Euwema, & L. Munduate: *Advancing workplace mediation through integration of theory and practice* (pp. 21-38). Springer Verlag. https://doi.org/10.1108/ijcma-02-2014-0012

4. De Dreu, C. K. W. (2008). The virtue and vice of workplace conflict: Food for (pessimistic) thought. *Journal of Organizational Behavior*, *29*(1), 5-18. https://doi.org/10.1002/job.474

5. De Dreu, C. K. W., & Van de Vliert, E. (Eds.). (1997). *Using conflict in organizations*. Sage.

6. Euwema, M. C., Medina, F. J., Garcia, A. B., & Pender, E. R. (Eds.) (2019). *Mediation in collective labor conflicts*. Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-319-92531-8

7. Gelfand, M. J., Leslie, L. M., Keller, K., & De Dreu, C. K. W. (2012). Conflict cultures in organizations: How leaders shape conflict cultures and their organizational-level consequences. *Journal of Applied Psychology, 97*(6), 1131-1147. https://doi.org/10.1037/a0029993

8. Katz, N. H., & Flynn, L. T. (2013). Understanding conflict management systems and strategies in the workplace. A pilot study. *Conflict Resolution Quarterly, 30*(4), 393-410. https://doi.org/10.1002/crq.21070

9. Tjosvold, D., Wong, A. S. H., & Chen, N. Y. F. (2014). Constructively managing conflicts in organizations. *The Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior, 1*, 545-568. https://doi.org/10.1146/annurev-orgpsych-031413-091306

10. Saundry, R., Bennett, T., & Wibberley, G. (2018). Inside the mediation room-efficiency, voice and equity in workplace mediation. *The International Journal of Human Resource Management, 29*(6), 1157-1177. https://doi.org/10.1080/09585192.2016.1180314

11. "What Is a Moderator and How to Become One" By ZipRecruiter Marketplace Research Team. 2025

12. Understanding Moderators' Conflict and Conflict Management Strategies with Streamers in Live Streaming Communities. Jie Cai, College of Information Sciences and Technology, Pennsylvania State University, USA, jie.cai@psu.edu Donghee Yvette Wohn, New Jersey Institute of Technology, USA, yvettewohn@gmail.com. DOI: https://doi.org/10.1145/3544548.3580982

Baykunusova Gulmira Yuldibayevna
Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Amaliy psixologiya” kafedrasi professori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Email: g.n.baykunusova@gmail.com

HASAD SALBIY XUSUSIYAT SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hasad hissi inson psixikasida salbiy xususiyat sifatida qanday namoyon bo‘lishi, uning shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faoliyat va ruhiy salomatlikka ko‘rsatadigan salbiy ta’siri tahlil qilinadi. Psixologik yondashuvlar asosida hasadning shakllanish sabablari, u bilan bog‘liq individual va ijtimoiy omillar, hamda uni boshqarishning psixokorreksion usullari bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *hasad, salbiy hissiyot, psixologik himoya, ijtimoiy taqqoslash, shaxslararo munosabatlar, emotsional zo‘riqish, psixokorreksiya.*

ЗАВИСТЬ КАК ОТРИЦАТЕЛЬНАЯ ЧЕРТА

Аннотация. *В данной статье рассматривается проявление зависти как негативного психологического качества. Проанализированы её влияние на межличностные отношения, социальную активность и психическое здоровье. На основе психологических подходов раскрываются причины формирования зависти, индивидуальные и социальные факторы, а также методы психокоррекции.*

Ключевые слова: *зависть, негативные эмоции, психологическая защита, социальное сравнение, межличностные отношения, эмоциональное напряжение, психокоррекция.*

ENVY AS A NEGATIVE TRAIT

Abstract. *This article explores envy as a manifestation of a negative psychological trait. It analyzes its impact on interpersonal relationships, social engagement, and mental well-being. Based on psychological theories, the study discusses the causes of envy, the individual and social factors associated with it, and the psychocorrectional techniques used to manage it.*

Keywords: *envy, negative emotions, psychological defense, social comparison, interpersonal relations, emotional tension, psychocorrection.*

Kirish. Hasad muammosi insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan boshlab mavjuddir. Qadimgi qo‘lyozmalarda bu haqida ma’lumotlar qoldirilgan. Islom dini hasad hissini qoralagan. Olamdagi birinchi jinoyatga aynan hasad sababchi bo‘lgan, deb ko‘rsatilgan. Momo Havo va Odam Atoning farzandlari Qobil va Hobil o‘rtasidagi nifoq urug‘ining tushushiga hasad sabab bo‘lgan. Alloh Hobilning qilgan qurbonlik hadyasini qabul qilgan. Qobilning qurbonligida samimiylik yo‘q bo‘lgani uchun qabul qilmagan. Qobil Hobilga hasad qila boshlagan. Natijada uka akasini o‘ldiradi.

Hasad norozilik va boshqalarga egalik qilish istagini anglatadi. G. Sallivanning ta’kidlashicha, hasadgo‘ynig o‘ziga achinishi boshqa odamlar bilan taqqoslashga olib keladi, bu jarayon o‘zini past baholagan odamlarda sodir bo‘ladi. O‘z navbatida, rashk murakkab va og‘riqli jarayon bo‘lib, uch yoki undan ortiq kishidan iborat guruhni qamrab oladi, ulardan biri yoki bir nechtasi xayoliy bo‘lishi mumkin. Hasad - bu shaxslararo munosabatlarning keng maydoniga ta’sir qiluvchi yanada o‘tkir va halokatli tuyg‘udir[2].

Hasad rashkdan farqli o‘laroq ikki tomonlama munosabatlarni o‘z ichiga oladi (subyekt o‘zida yo‘q narsaga hasad qiladi). Rashk insonning boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga oladi. Rashk ob’yekti odatda ikki kishidan iborat: asosiy hissiy ob’yekt - bu sevgilisi (yoki sub’yektga yaqin bo‘lgan boshqa shaxs): ikkinchi darajali ob’yekt-raqib. Rashk va hasad-bu bir nechta boshqa tuyg‘ularni o‘z ichiga olgan murakkab emotsiyalardir. Hasad salbiy axloqiy ma’nolarga ega. Hasad bo‘lsa, o‘z ahamiyatini anglash hasadgo‘y odam tomonidan qilingan ijtimoiy taqqoslashlardan kelib chiqadi.

Ko‘pgina olimlar dushmanlik hasad bilan kuchli bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Dushmanlik munosabati shaxs adolatsizlikka duch kelganini anglaganda paydo bo‘lishi mumkin. Adolatsizlikni

idrok etish jarayoning dushmanlik tomoni zararli hasadning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Hasadni haddan tashqari va insoniy illat sifatida talqin qilgan Aristotel hasadni raqobat hissi bilan taqqoslagan. U hasadni o‘zgaga yaxshilik istamasdan, faqat o‘zini foydasini o‘ylash deya baholaydi.

Hasadgo‘y shaxs unga o‘xshagan har qanday odamning muvaffaqiyatidan xafa bo‘ladi. Odatda passiv tabiatiga qaramay, hasad odamlarning faol harakatlarga ilhomlantirishi mumkin. M. Shelerning fikricha, biror narsaga erishish uchun intilish va unga yetishishdagi kuchsizlik hasad qilishga olib keladi. Hasad hissi adolatsizlik hissi bilan boshqa mezonga ko‘ra farq qiladi. Adolat - bu hayotiy farovonlikni ta’minlovchi, shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi prinsiplar va protseduralar to‘plamidir. U mehnat va mukofot, jinoyat va jazo o‘rtasidagi munosabatlarni nazarda tutadi[3].

Hasad biz hohlagan narsalarga o‘zgalarning egaligi va bundan ularning ustunligiga nisbatan yoqimsiz va org‘riqli tuyg‘u bo‘lib tavsiflanadi. Xorijlik psixologlar V.G.Parrot va R.X.Smitlarning fikricha, hasad o‘zgalarning ustunligi, yutuqlari va muvaffaqiyatlarini yetmasligi va ularni o‘zida mavjud bo‘lishi yoki o‘zgalarga burmaslik xohishini bilan asoslanuvchi emotsional holat sifatida ta’rif etishgan. Bu davrlardagi tadqiqotlarda havas va hasad hissini ajratilmagan holda psixologik-empirik izohlashga urunishgan. Lekin xorij psixologiyasining keyingi yillarida yaxshi va yomon hasad deb farqlash imkoniyatlarini kuzatishimiz mumkin. Aynan E. Chan. J. Sengupta, N. Van de Ven, V. Zeyelenberg va R. Peterslarning ilmiy tadqiqotlarida havas va hasad hissi namoyon bo‘lishini nazariy-empirik farqlangan. Ularning fikricha har ikkala hasad turini boshdan kechirayotgan shaxs umidsizlik va jirkanchlik holatida bo‘ladi. Faqatgina hasad hissi paydo bo‘lish sabablari voqeani noto‘g‘ri idrok qilish va adolatsizlik natijasi deb bilishgan. Bunda hasad ob’yektini yo‘qotish uni hasad predmetidan mahrum qilish istagi shaxsini boshqaradi. Havas hissini boshdan kechirayotgan shaxsda asosan o‘zi ham havas ob’yektidan ham yuqori cho‘qqiga chiqish istagi uni xulq-atvorida namoyon bo‘ladi[1].

Leon Festinger ijtimoiy taqqoslash nazariyasida ta’kidlashicha, inson o‘zini baholashda va o‘z shaxsiy qadriyatlarini aniqlashda boshqalar bilan taqqoslashni asosiy mezon sifatida qo‘llaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘z qobiliyati va muvaffaqiyatlarini tushunish uchun atrofidagi insonlar bilan solishtirishga majbur bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy vizual ta’sir — boshqalarning sayohatlari, xaridlari, shaxsiy muvaffaqiyatlari va turmush tarzi haqidagi postlar — foydalanuvchini o‘z hayotini ularniki bilan taqqoslashga undaydi. Agar bu taqqoslash natijasida shaxs o‘zini kam ko‘ra boshlasa, hasad paydo bo‘ladi. Bu hasad hissi ko‘pincha passiv foydalanuvchilar orasida kuzatiladi, chunki ular faqat kuzatishga, boshqalarni baholashga moyil bo‘ladi va bu ularda yetishmovchilik tuyg‘usini kuchaytiradi.

Henri Tajfel tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko‘ra, har bir shaxs o‘zini muayyan ijtimoiy guruhning a’zosi sifatida qabul qiladi va shu guruh orqali o‘zini baholaydi. Bu jarayon “ingroup” (o‘z guruhi) va “outgroup” (boshqa guruhlar) o‘rtasidagi psixologik chegaralarni yaratadi.

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining faoliyati aynan shu nazariya bilan izohlanadi. Masalan, inson Instagram'da faol modalarchi yoki muvaffaqiyatli tadbirkorlar qatorida bo‘lishni istab, ularning guruhiga mansublik hissini rivojlantirishga harakat qiladi. Bu holat “men ham shunday bo‘lishim kerak” degan ichki motivni shakllantiradi. Agar shaxs o‘zini ushbu guruh a’zosi sifatida qabul qilolmasa, xasad tuyg‘usi paydo bo‘lishi mumkin. Bu xasad ko‘pincha o‘ziga ishonmaslik, past ahamiyat tuyg‘usi va ijtimoiy izolyasiya bilan bog‘liq holatlarda kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Hasad destruktiv holatlar manbai sifatida qaralmog‘i lozim. Hasad tushunchasi, albatta, yaqinda paydo bo‘lmagan, uning odamzod paydo bo‘lgandan buyon yovuzlik, yomonlik belgisi sifatida salbiy illat sifatida tushunilishiga guvoh bo‘lamiz. Muqaddas Injil kitobida, mashhur misr afsonasi Setda tasvirlangan. Dunyoda har doim hasadchilar bo‘lishgan, lekin hech qachon asosiy harakatlantiruvchi omili, undovchisi bo‘lmagan. Hozirgi kunda esa hasad muammosi anchayin dolzarb muhokama etilishga muhtoj masala bo‘lib turibdi[4].

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab hasad fenomeni tadqiq etishning ikki yo‘nalish bo‘yicha ajrala boshlandi. Birinchidan, hasadning ichki determinantlarini (shaxsning individual-psixologik xususiyatlari) tadqiq etish. Ikkinchidan, jamiyatda hasad shakllanishiga ta’sir qiluvchi mikro va makro omillarni tadqiq etish;

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida unda adolat hissi oliy tuyg‘u sifatida ta’lim va tarbiya natijasida shakllanadi. Adolat hissi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lib, shaxsning qadriyat tizimida ustuvor xususiyatlardan biri sifatida shakllanishi mumkin. Shaxsdagi adolat tuyg‘usi oilada ota-ona munosabatlari orqali tarkib topadi. Ota-ona o‘zining xatti-harakatlari bilan jamiyatda ma’qullangan adolat me’yorlari bilan bolaga o‘rnak bo‘ladi. Bu shaxsning ijtimoiylashishdagi muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi. Sababi, bu ijtimoiy institutda olgan tarbiya elementlarini keyingi davrlarda namoyon etadi. Shaxsda shaklangan adolat tuyg‘usi ijtimoiy bilish ob’yektlariga (odam va adamlar guruhi) nisbatan namoyon etadigan xatti-harakatlar tizimi bilan belgilanadi.

Metodlar. Tadqiqot davomida yuzaga keltirgan adolatsizlik muhitiga nisbatan bildirilgan emotsional reaksiyalar ham ijtimoiy emotsiya tarkibiga kiradi. Aslida, bu emotsiyalar ijtimioylashish jarayonida yuzaga kelgan ko‘nikmalar sirasiga kiradi.

Yuqoridagi gistogrammada shaxsning adolatsizlik vaziyatiga ko‘rsatgan umumiy emotsional reaksiyalarining turlari aks etgan bo‘lib, navbatdagi jadvalda ijtimoiy bilish ob’yektining sub’yektiga nisbatan faolligi mezoni bo‘yicha shkalalarga ajratilgan tahlilini taqdim etamiz.

1-jadval

Respondentlarning ijtimoiy bilish ob’yektining sub’yektiga nisbatan faolligi mezoni bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlari (n =360)

	Ijtimoiy mazmundagi hissiy kechinmalar							**Individual asosdagi hissiy kechinmalar**							
	Jahli chiqish	**Uyalish**	**Dushmanlik**	**Raqobat**	**Qarshi norozilik**	**G‘azab**	**Hasad**	**Xafa bo‘lish**	**Achinish**	**Qayg‘urish**	**Depressiya**	**Jirkanish**	**G‘ashiga tegish**	**Xayron qolish**	**Ko‘ngil qolishi**
Statistik ko‘rsatkich M	5,2	1,3	0,2	1,2	2,3	2,7	2,7	7,5	2,5	1,4	1,9	0.5	4,4	5	5
∑	15,6							28,2							
M	2,2							3,5							

Natija. Yuqoridagi jadvalda tadqiqot davomida hosil qilingan emotsional reaksiyalarni shaxsning ijtimoiy bilish ob’yektining sub’yektiga nisbatan faolligi mezoni bo‘yicha ularni ijtimoiy mazmundagi va individual asosdagi hissiy kechinma turlariga ajaratib oldik. Ijtimoiy mazmundagi hissiy kechinma turlariga kiruvchi emotsiyalar guruhdagi o‘zga sub’yekt bilan o‘zaro faol aloqadagi hissiy kechinma turlari bo‘lib hisoblanadi. Shaxsda namoyon bo‘lgan bu emotsional reaksiyalar nafaqat uning o‘ziga, balki hasad ob’yektiga ta’sir etish darajasi xavfining yuqoriligi bilan farqlanadi. Shaxsning ijtimoiy mazmundagi hissiy kechinmalarining o‘rta arifmetik qiymati 2,2 ga teng. Individual asosdagi hissiy kechinmaning o‘rta arifmetik qiymati 3,5 miqdorga teng bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot davomida hosil bo‘lgan yuqoridagi natijalar ijtimoiy psixologiya fani katta ilmiy ma’lumotlarni beradi deb hisoblaymiz. Sababi, hasad hissi nafaqat ijtimoiy-psixologik fenomen balki, bu his bilan birga keladigan hissiy kechinmalar ijtimoiy bilish ob’yektlariga ziyon yetkazishi bilan birga shaxsning o‘ziga ham ta’sir doirasining kengligini isbotlaydi. Hasad hissini boshdan kechirayotgan shaxsda ko‘proq o‘zini vayron qilish bilan bog‘liq hissiy kechinmalar ustun bo‘lishi aniqlandi. Bu tadqiqotimizning dolzarbligini ilmiy-empirik jihatdan isbotlaydi. Shaxsdagi individual asosdagi hissiy kechinmalar natijasida unda turli psixosomatik kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Bu kasalliklarning mexanizmi bo‘lib yuqoridagi individual asosdagi hissiy kechinmalar hisoblanadi. Bu hislarni uzoq vaqt davomida boshdan kechirish shasxning psixik salomatligini yemirishini isbotlaydi. Hasad bir guruh ichida va hasadgo‘y bilan bir xil darajada bo‘lgan odamlarga va kamdan-kam hollarda undan ancha yuqori bo‘lganlarga qaratilgan. Hasad bir xil muhitda o‘zini namoyon qiladi. Masalan, bastakor faylasufga emas, balki bastakorga hasad qiladi. Hasadgo‘y odam hasad ob’yektini hech qanday ustunlikka ega bo‘lmasligi uchun har doim o‘z qarashlarini shunday o‘zgartirishga qodir bo‘ladi.

V.Parrotning fikricha, hasadning dushmanlik munosabati komponentiga quyidagilar kiradi: nomukammallik, alamli sog‘inch, sub’yektiv adolatsizlik va boshqalar. Chet ellik olimlar hasadning asosiy komponenti sifatida dushmanlikni ajratib ko‘rsatishadi.

Xulosa. Ijtimoiy mazmundagi hissiy kechinmalar ham jamiyat uchun xavfli bo‘lib hisoblanadi. Jamiyatimizda kunda sodir bo‘layotgan huquqbuzarlik va jinoyatchilik ishlari hasad ob’yektiga qaratilgan kuchli hissiy kechinmalar orqali sodir bo‘ladi. Ya’ni, bu kechinmalar bu kabi salbiy oqibatlarning motivi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 34 % i aynan hasad, ko‘ra olmaslik va rashk oqibatida sodir etilayotganligi aniqlangan. Hasad hissi kuchli affekt holati hisoblanib, shaxsda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini ongli boshqara olmaslikkka olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Бондаренко О.Р., Лукан У., Сосиология. Психология. Философия. // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2008, № 2
2. Илин Е. П. Эмосии и чувства. — СПб: «Питер», 2001;
3. Психология зависти//www.niirus.ru, 2008;
4. Илин Е. П., Факторы, облегчающие возникновение зависти // www.book.ru, 2008.

Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li
Guliston davlat universiteti doktoranti

TALABALARDA IJTIMOIY USTANOVKALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish va talabalar bilimini, iste'dodini, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirish va bo'layotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. "Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish" vazifalariga asoslanib, talabalar o'quv faoliyatida ijtimoiy utanovkalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun asos yaratildi. Talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish va psixologik xususiyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu mavjud barcha resurslarni yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruratini talab qiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy ustanovkalar, iqtidor, iste'dod, psixologik xususiyatlar,rivojlanish,shakillanish.*

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ У СТУДЕНТОВ И ЭМПИРИЧЕСКАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В последние годы в нашей стране были определены приоритетные направления реформ в области образования, направленные на повышение качества образования, развитие знаний, талантов и социальных навыков студентов, а также создание необходимых правовых и нормативных основ для их реализации. Основываясь на задачах создания открытой и качественной системы образования для молодежи, обеспечения высокого уровня знаний на всех этапах образования, поддержки и стимулирования одаренных и талантливых учащихся, была создана основа для научных исследований, направленных на формирование, развитие и совершенствование социальных навыков студентов в их учебной деятельности. Одной из важных задач остается формирование социальных навыков у студентов и развитие их психологических особенностей. Это требует направить все имеющиеся ресурсы и углубить научные исследования в этой области.*

Ключевые слова: *социальные навыки, талант, дарование, психологические особенности, развитие, формирование.*

EMPIRICAL BASIS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SOCIAL NORMATIVES IN STUDENTS

Annotation. *In recent years, priority areas for reforms in education have been identified in our country, aimed at improving the quality of education, developing the knowledge, talent, and social skills of students, as well as creating the necessary legal and regulatory frameworks for their implementation. Based on the tasks of creating an open and quality education system for youth, ensuring a high level of knowledge at all stages of education, and supporting and encouraging gifted and talented students, a foundation has been created for scientific research aimed at the formation, development, and improvement of social skills in students' academic activities. One of the important tasks remains the formation of social skills in students and the development of their psychological characteristics. This requires directing all available resources and deepening scientific research in this area.*

Keywords: *social skills, talent, giftedness, psychological characteristics, development, formation.*

Kirish. Talaba ijtimoiy ustanovkalarini shakllantirishda undagi qabul qilish va idrok jarayoni muhim rol o`ynaydi - bu insonning tashqi muhitdan kelayotgan ma'lumotlarni olishi va ularni anglash jarayoni bo`lib,bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: sensory reception ya`ni tashqi muhitdan kelayotgan stimullar (ko'rish, eshitish, hidlash, ta'mlash, tegish) bular sensor organlar tomonidan

qabul qilinadi. Konsolidatsiya: Qabul qilingan sensory ma'lumotlar miyaning tegishli qismlarida qayta ishlanadi va xotirada saqlanadi. Fokuslanish: Inson bir vaqtning o‘zida ko‘p stimullarga duch keladi, shuning uchun muhim bo‘lgan ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi. Idrok etish jarayoni esa qabul qilingan ma'lumotlarni anglash va tushunish jarayonidir. Bu jarayon quyidagi qadamlarni o‘z ichiga oladi va talqin qiladi va sensory ma'lumotlar asosida foydali hamda mazmunli fikrlar hosil qiladi. Taqqoslashda esa yangi ma'lumotlar mavjud bilim va tajribalar bilan solishtiriladi, qabul qilishda olingan ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinadi va xulosa chiqariladi. Idrok etilgan ma'lumotlarga nisbatan emotsional reaktsiyalar (qiziqish, qo‘rquv, hayrat) paydo bo‘lishi mumkin. Qabul qilish va idrok etish jarayonlari psixologiya va pedagogika sohalarida muhim ahamiyatga ega, chunki ular o‘quv jarayonida talabalar tomonidan ma'lumotlarni qanday qabul qilishi va anglashini tushunishga yordam beradi, turli xil muhitlarda shaxsning qaror qabul qilish jarayonlarini tushunishga imkon beradi. Bu jarayonlarni chuqur o‘rganish, inson xulq-atvorini va uning muhit bilan o‘zaro aloqasini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.Biz tadqiqotimizda sensor organlar haqida qisqacha ma`lumot berishni lozim topdik. Sensor organlar: ko‘zlar: vizual ma'lumotlarni qabul qiladi. 100 yil oldin ko‘z bilan qabul qilinadigan axborot so‘z va matn orqali yetkaziladigan axborotga qaraganda tez va samarali o‘zlashtirilishini olimlar tajribada aniqlashgan edi. Bu «tasvir ustunligi effekti» deb nom olgan. Ma'lum bo‘lishicha, inson bosh miyasi tasvirni matnga qaraganda 60 000 barobar (!) tezroq o‘zlashtiradi. Ko‘plab tajribalarda o‘z isbotini topgan bu effekt inson xotirasining tasvirga nisbatan o‘ta ta'sirchanligi bilan izohlanadi. Ya'ni, miya ko‘z bilan ilg‘anadigan ramzlarni o‘ta tez tahlil qilar ekan. Mazkur hodisani olimlar tasvirlar miyada oson kodlanishi va kerak bo‘lganda oson koddan chiqarilishi bilan, matn orqali qabul qilingan axborot esa ikki martalik kodlanish evaziga xotirada qiyin kodlanishi va qiyin koddan chiqarilishi bilan izohlashadi. Boshqacha qilib aytganda, bosh miya o‘z quvvatining yarmini ko‘zlar qabul qiladigan axborotni tahlil qilishga sarflasa, qolgan quvvatini tananing boshqa qismlariga taqsimlar ekan.Bu muhim tabiiy jihatni axborotni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda qo‘llash ayni muddao.Quloqlar:eshitish ma'lumotlarini qabul qiladi. Odamning eshitish organi bir sekundda 16 martadan 20000 martagacha tebranishli tovushlarni qabul qiladi.Teri:tezlik, harorat, bosim kabi fizik stimullarni qabul qiladi. Teri sezgilari tarkibi tuyish va harorat turlaridan iborat bo‘lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili bu retseptorlarning tarkibi va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidadir.Hid va ta'm retseptorlari: kimyoviy stimullarni qabul qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarga tinglovchilar oldida nutq so‘zlash, o‘z loyihalari yoki tadqiqotlarini taqdim etish imkoniyati beriladi. Ushbu amaliyot o‘quvchilarga omma oldida gapirishni, o‘z fikrlarini ishonchli ifoda etishni va o‘z nuqtai nazarini oqilona himoya qilishni o‘rganishga yordam beradi.Ushbu usullarning barchasi talabalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular nafaqat samarali muloqot qilishda yordam berishadi, balki muloqotga ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantiradilar, boshqa odamlarning fikrlarini tinglash va hurmat qilishga o‘rgatadilar.

K.K.Platonovning psixik holatlarni aniqlash uslubiga ko‘ra esa ijtimoiy ustanovkalar shakllanish omili bo‘lgan psixik faollikning aktiv yoki passivligi, tetiklik yoki so‘lg‘inligi muvaqqat yoki barqarorligi shaxsning ijtimoiy-psixologik faolligini belgilab beradi [133].Binobarin, psixologik adabiyotlarda insonning “funksional holati” tushunchasi L.G.Dikoy, A.B.Leonova,V.I.Medvedev, K.K.Platonov, Yu.Strelkov, L.D.Shaynova kabilar tomonidan insonning funksional holatiga “faoliyatni bevosita yoki bilvosita belgilaydigan irodaviy harakatlar hosilasi sifatida qaraladi” [67; 96; 133; 197].

V.P.Zinchenko, B.G.Meshcheryakov tomonidan tahrirlangan psixologik lug‘atda organizmning funksional holatini “faoliyatni amalga oshirish xususiyatlarini (ularning ijobiy yoki salbiy ta’siri jihatidan) belgilaydigan turli xil fiziologik tizimlarning faoliyat darajalarining birlashishi” deya e’tirof etiladi [144].

Psixologiyada funksional holatlar har qanday faoliyatdan oldinroq bo‘lgan ijtimoiy ustanovkalar shakllanishi tushunchasi bilan juda ko‘p o‘xshashliklarga ega. Ko‘rinib turibdiki, bir tomondan, funksional holat qo‘zg‘alish majmuasi (Sudakov K.V.), boshqa tomondan, tajriba shakli sifatida, shuningdek, faoliyatni amalga oshirishni ta’minlaydigan funksiyalar va fazilatlar xususiyatlarining kompleksi sifatida aniqlanganligini ko‘ramiz [176].

Zamonaviy yoshlarning barcha ijtimoiy munosabatlariga xos bo‘lgan ushbu xususiyatlar zamonaviy yoshlar uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarda namoyon bo‘ladi.Ehtiyoj tushunchasini

aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud, ammo Arbraham Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi eng rivojlangan va umume'tirof etilgan bo‘lib qolmoqda. Maslou ehtiyojlarni besh darajaga ajratdi:

1. Hayotiy (fiziologik ehtiyojlar) - oziq-ovqat, uyqu va boshqalarga bo‘lgan ehtiyoj.
2. Xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj – barqarorlik, tartib, himoya, qo‘rquv, xavotir va betartiblikdan xalos bo‘lish.
3. Sevgi va mansublikka bo‘lgan ehtiyoj-oila, do‘stlik, o‘z doirasi, ma'lumotnoma guruhi.
4. Hurmat va e'tirofga bo‘lgan ehtiyoj-o‘z-o‘zini hurmat qilish, boshqalarni hurmat qilish, obro 'va obro‘, maqom, shon-sharaf.
5. O‘z-o‘zini anglash zarurati-qobiliyatlarni rivojlantirish. Ierarxik tizim shunday tuzilganki, quyi ehtiyojlar qondirilmaguncha yuqori ehtiyojlarni qondirish mumkin emas.

A.Maslouning ehtiyojlar piramidasiga asoslanib, biz ijtimoiy tarmoqlar uchinchi va to‘rtinchi darajadagi ehtiyojlarni qondiradi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Birinchi va ikkinchi darajalar foydalanuvchi tomonidan haqiqatda qondiriladi va agar ular yetarli darajada qondirilmasa, virtuallikka ehtiyoj qolmaydi. O‘z-o‘zini amalga oshirish zarurati virtual ijtimoiy tarmoqlardan ham tashqariga chiqadi, chunki o‘z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar virtuallikni ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida ishlatmaydilar,chunki ierarxiyada ehtiyojlarning barcha to`rt darajasi allaqachon qondirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta`lim jarayonida talabalarning ijtimoiy ustanovkalarini shakllantirish va aniqlash uchun turli xil usul va vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, so‘rovnomalar va anketalar talabalarning o‘z qobiliyatlari va o‘rtoqlarining qobiliyatlari haqidagi fikrlarini ochib beradi. Ijtimoiy ustanovkalar ta'lim jarayonida talabalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni va samarali o‘qishni ta'minlaydi. Ushbu jarayonda ijobiy ustanovkalarni shakllantirish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

1.Ijobiy muhit yaratish: qulay va qo‘llab-quvvatlovchi atmosfera: Guruhda talabalar o‘zlarini erkin his qilishlari va fikrlarini ifoda etishlari uchun ijobiy muhit yaratish , ijtimoiy aloqalar o`rnatish va talabalar o‘rtasida do‘stona hamda qo‘llab-quvvatlovchi aloqalarni rivojlantirish. Bu, ularning o‘zaro hurmat va hamjihatlik hissini oshiradi. Yana shuni ta`kidlash lozimki, o‘zaro ta'sirli o‘qitish usullarini qo`llash ham samaralidir.

2.Guruh bilan ishlash usuli- talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda muammolarni hal qilishga rag'batlantirish. Bu, ularning o‘zaro aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi. Rolli o‘yinlar: talabalarga turli rollarni o‘ynash orqali boshqa odamlarning nuqtai nazarini tushunishga yordam beradi.Ijtimoiy loyihalar: talabalarni ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etish.Bu,ularning ijtimoiy mas'uliyatini va hayotiy ahamiyatini anglashlariga yordam beradi.

3.Volontyorlik faoliyatlari: talabalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini taqdim etish. Emotsional intellektni rivojlantirish, o‘z his-tuyg'ularini anglash: talabalarga o‘z his-tuyg'ularini aniqlash va boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Empatiyani rivojlantirish: boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan empatiya ko‘rsatish ko‘nikmalarini oshirish.Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, savollar orqali fikr yuritish: talabalarga savollar berish va ularni o‘z fikrlarini izchil ifoda etishga undash.Muhokama va bahslar: sinfda muhokama va bahslar o‘tkazish, bu orqali talabalar o‘z fikrlarini himoya qilish va boshqalar bilan baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.Biz tadqiqotimiz davomida talabalarning ijtimoiy fazilatlariga e`tiborimizni qaratib,ularni baholash turli mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkinligiga amin bo`ldik. Bular boshqalar bilan o‘zaro munosabatlar, jamoada ishlash qobiliyati, hissiy rivojlanish, o‘z fikrlari va g'oyalarini ifoda etish qobiliyati, boshqalarning fikrlarini tinglash va hurmat qilish qobiliyati kabi parametrlar bo‘lishi mumkin.Talabalarning ijtimoiy fazilatlarini o‘rganish natijalari talabalar bilan ishlash rejalarini ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin, bu ularning ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar o‘qituvchilar va ota-onalarga o‘quvchilarni ijtimoiy maqsadlariga erishishda qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘proq hamkorlik qilishga imkon beradi.Umuman olganda, talabalarning ijtimoiy fazilatlarini o‘rganish ular qanday ko‘nikmalarni o‘rganganligini va qaysi ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish kerakligini tushunishga imkon beradi. Bu talabalarni shaxs sifatida shakllantirishga va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishga tayyorlashga yordam beradi.Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari- talabalarning

shaxsiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular talabaga boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni va samarali muloqot qilishni o‘rganishga yordam beradi. Texnologiya talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda foydali vosita bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanishning ba'zi usullari:

1. Virtual aloqa platformalari. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar kabi turli xil onlayn platformalar talabalarga virtual muhitda bir-birlari bilan muloqot qilish va muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bunday o‘zaro ta'sir ularga tinglash va o‘z fikrlarini ifoda etish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Hamkorlik loyihalari. Texnologiya talabalarga onlayn hamkorlik vositalaridan foydalangan holda umumiy loyihalar ustida ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ular jamoada hamkorlik qilishni, fikr almashishni va qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Bu ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Ta'lim dasturlari. Talabalarga bag'rikenglik, hamdardlik va nizolarni hal qilish qobiliyati kabi turli xil ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan ko‘plab ta'lim dasturlari mavjud. Ushbu ilovalar o‘quvchilarga boshqariladigan muhitda ijtimoiy ko‘nikmalarni mashq qilish imkonini beruvchi turli o‘yinlar va topshiriqlarni taklif etadi.

4. Media loyihalari. Videolar yoki podkastlar kabi media loyihalarni yaratish talabalarga omma oldida nutq so‘zlash ko‘nikmalarini va o‘z g'oyalarini tinglovchilar oldida taqdim etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Texnologiya bunday loyihalarni tayyorlash va nashr etish uchun foydali vosita bo‘lishi mumkin.Ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishning an'anaviy usullarini sezilarli darajada to‘ldirishi mumkin. Ular sizga ijtimoiy ko‘nikmalarni mashq qilish va rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga imkon beradi, shuningdek interaktiv topshiriqlar va o‘yinlar orqali aniq ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Barcha ijtimoiy munosabatlar faoliyatda, ayniqsa professional munosabatlarda va ijtimoiy aloqalarda amalga oshiriladi.

Muhokama va natijalar. Y.E.Sosnovikova olib borgan tadqiqotlarda shaxsda ijtimoiy ustanovkalar shakllanishi bilan bog‘liq ruhiy holatlarga ma’lum bir davrda inson uchun yaratilgan sub`yektiv va ob`yektiv sharoitlar hosilasidan kelib chiquvchi munosabatlar motivatsiyasi ekanligi e’tirof etiladi. Bizning fikrimizcha,ruhiy holatlarning psixik jarayonlar va psixik xususiyatlari bilan aloqasi shundan iboratki, insonning jamiyatda rivojlanishi ruhiy holat bosqichi orqali amalga oshiriladi va o‘ziga xos irodaviy individual xususiyatlarni rivojlantirish jarayoni bilan aloqador yangi holatlarni keltirib chiqaradi.

Ko‘rib turganimizdek, keltirilgan jadvaldagi mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, insonning ruhiy holati va aniq tanlangan vaziyatlarga hamda atrof-muhitga moslashish orqali idora qilinadi. Turli darajalarda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik vaziyatlar buni boshqaradi.

Ustanovka bu - ma`lum munosabatlarga oldindan chog`lanish, shaylanish yoki tayyorlanish bo`lib, shaxsning yangi, ma`lum bir munosabatlarga moslashishida, ijobiy munosabatlarni shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz davomida aynan shu jihatlarni o`rganish maqsadida o`zimiz tomonimizdan “Talabalarning ijobiy ijtimoiy ustanovkalarini aniqlash va tahlil qilish” nomli, 10 ta savoldan iborat anketa ishlab chiqdik. Anketa o‘tkazishdan maqsad har ikkala OTM talabalarining ijobiy ijtimoiy ustanovkalarini aniqlashdan iborat. Anketa metodimizga Guliston davlat pedagogika institutida tahsil olayotgan 210 nafar talabalar (shundan o‘g‘il bolalar - 90 nafar, qiz bolalar - 120 nafar), Qo’qon davlat pedagogika institutining 100 nafar, jami 310 nafar talaba respondentlar ishtirok etdilar. Anketa murakkab savollar bilan emas, balki oddiy savollar bilan boshlandi. Undan keyin anketaning markaziy qismida ma’nosiga ko‘ra asosiy bo‘lgan savollarni joylashtirdik. Psixologik tadqiqot praktikasining ko‘rsatishicha, anketa savollarining katta qismini to‘ldirgach, respondent ishni oxiriga etkazishga psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi.

Biz guruhlarga kelib, anketa savollarini tarqatdik va birmuncha vaqtdan keyin uni yig‘ib oldik. Bunda respondentlarni 100% so‘rovga jalb etish mumkinligi kutildi.

Anketamizdagi savollar quyidagicha:

1. Guruhdoshlaringiz bilan o‘zaro munosabatlaringiz ijobiymi?
2. O‘qituvchining ijtimoiy munosabatlari sizga ta’sir qiladimi?
3.Ta`lim jarayonida ijobiy iqlim yaratish uchun qandaydir usullar qo‘llanilmoqdami?

4. O‘z-o‘zini motivatsiya qilishda qiyinchiliklar bormi?
5. Sizning fikringizcha, o‘qituvchilar motivatsiya usullarini qo‘llashlari kerakmi?
6. Ta’lim jarayonida qandaydir muammolarga uchraysizmi?
7. O‘qituvchilarga o‘z ijobiy fikrlaringizni bildirishda qiyinchiliklar bormi?
8. Sizning ta’lim muassasangizda ijobiy atmosferani yaratish uchun qandaydir o‘zgarishlar kerakmi?
9. Ijobiy ustanovkalarni shakllantirishda qo‘shimcha yordam kerakmi?
10. Guruhdoshlaringizda ijobiy ustanovkalarni shakllantirish kerakmi?

Jadval 1.

Talabalarning anketa savollariga javoblari (N=310)

№	Savollar	A Ha	B Yo‘q	S bilmadim
1	Guruhdoshlaringiz bilan o‘zaro munosabatlaringiz ijobiymi?	71 %	19%	10 %
2	O‘qituvchining ijtimoiy munosabatlari sizga ta’sir qiladimi?	74,5%	19,5%	6%
3	Ta`lim jarayonida ijobiy iqlim yaratish uchun qanday-dir usullar qo‘llanilmoqdami?	65,4%	22,4%	12,2%
4	O‘z-o‘zini motivatsiya qilishda qiyinchiliklar bormi?	54%	25 %	21%
5	Sizning fikringizcha, o‘qituvchilar motivatsiya usullarini qo‘llashlari kerakmi?	43,5%	45,5%	11%
6	Ta’lim jarayonida qandaydir muammolarga uchraysizmi?	28,2%	44,8%	27%
7	O‘qituvchilarga o‘z ijobiy fikrlaringizni bildirishda qiyinchiliklar bormi?	60,7%	31,3%	8%
8	Sizning ta’lim muassasangizda ijobiy atmosferani yaratish uchun qandaydir o‘zgarishlar kerakmi?	41,9%	51,1%	3%
9	Ijobiy ustanovkalarni shakllantirishda qo‘shimcha yordam kerakmi?	59,9%	29,5%	10,6%
10	Guruhdoshlaringizda ijobiy ustanovkalarni shakllantirish kerakmi?	89,1%	38,3%	31%

Anketa bo‘yicha olingan javoblarni tahlil qilganimizdagi **“**Guruhdoshlaringiz bilan o‘zaro munosabatlaringiz ijobiymi?” degan savolimizga (220 nafar) 71 % talabalar “ha ijobiy”deb,19% (59 nafar) talabalar “yoq” deb, 10% (31 nafar) talabalar “bilmadim” deb javob berganlar. “O‘qituvchining ijtimoiy munosabatlari sizga ta’sir qiladimi?” degan savolimizga 74,5% (231nafar)talabalar “ha, albatta ta`sir qiladi” deb, 19,5% (60 nafar) talabalar “yo‘q, ta`sirini sezmadim” deb, 6% (19 nafar) talabalar bilmadim deb javob berganlar. “Ta`lim jarayonida ijobiy iqlim yaratish uchun qandaydir usullar qo‘llanilmoqdami?” degan savolimizga 65,4% (199 nafar) talabalar “ha,lekin unchalikmas ” deb aytgan bo‘lsa, 22,4% (69 nafar) talabalar “yo‘q” deb, 12,2% (42 nafar) talabalar javob bermaganlar.

“O‘z-o‘zini motivatsiya qilishda qiyinchiliklar bormi?”degan savolimizga 54 % (167 nafar) talabalar “ha” to‘g‘ri qo‘lab quvvatlashlarini, 25 % (77nafar) talabalar “yo‘q” deb, 21% (66 nafar) talabalar bilmadim deb fikr bildirganlar.

“Sizning fikringizcha, o‘qituvchilar motivatsiya usullarini qo‘llashlari kerakmi?” degan savolimizga 43,5% (135 nafar) talabalar “ha” boshqara olaman deb, 45,5% (141 nafar) talabalar “yo‘q” deb, 11% (34 nafar) talabalar bilmadim deb javob berganlar.


“Ta’lim jarayonida qandaydir muammolarga uchraysizmi?” degan savolimizga 28,2% (87nafar) talabalar “ha” motivatsiya bera olishligini, 44,8% (139nafar) talabalar “yo‘q” bera olmasliklarini, 27% (84 nafar) talabalar “bilmadim” deb javob bermaganlar.

“O‘qituvchilarga o‘z ijobiy fikrlaringizni bildirishda qiyinchiliklar bormi?” degan savolimizga 54,3% (168 nafar) talabalar “ha” deb, 37,1% (115 nafar) “yo‘q” deb, 8,4% (27 nafar) talabalar “bilmadim” javob bermaganlar.

"Sizning ta'lim muassasangizda ijobiy atmosferani yaratish uchun qandaydir o'zgarishlar kerakmi?"degan savolimizga 41,9% (130 nafar) talabalar "ha" deb, 55,1% (171 nafar) talabalar yo'q deb, 3% (9 nafar) talabalar javob bermaganlar.

"Ijobiy ustanovkalarni shakllantirishda qo'shimcha yordam kerakmi?" degan savolimizga 59,9% (185 nafar) talabalar "ha" deb, 29,5% (91 nafar) talabalar yo'q deb, 10,6% (34 nafar) talabalar "bilmadim" deb javob berganlar.

"Guruhdoshlaringizda ijobiy ustanovkalarni shakllantirish kerakmi?" degan savolimizga 89,1% (276 nafar) talabalarimiz "ha" to'g'ri deb, 2% (6 nafar) talabalarimiz "yo'q" hali aniq rejam yoq deb, 8,9 % (28 nafar) talabalarimiz "bilmadim" deb javob berganlar.



1-rasm "Talabalarning ijobiy ijtimoiy ustanovkalarini aniqlash va tahlil qilish" nomli anketaning qiyosiy tahlili (OTM lar yigit-qizlari bo'yicha n=310)

Ilmiy tadqiqot ishimiz davomida olingan mualliflik anketa javoblaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ijobiy ustanovkalar GulDPI yigitlarida qizlarga qaraganda past ko`rsatgichga ega ekanligi, QDPI yigitlarida esa ijobiy ustanovkalar tahlili qizlardan yuqori ekanligini ko`rsatti. Bizning fikrimiz-cha, ushbu ko`rsatkichga mental va individual xususiyatlar sabab bo`lsa kerak degan taxminga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ансиферова Л.Х. Психологии личности как развивающейся системы // Л.Х. Ансиферова. Психология формирования и развития личности. – М.: МГУ, 2000. – С.3-18.
2. Аристотель. О душе. Собр. соч. Б 4 -х т, т, // Аристотель - М.: АН СССР. Ин-т философии. Философское наследие, 2002. – Т.1. – 550 с.
3. Арличев А.Х. Саморегуляция, деятельность, сознание // А.Н. Арличев. – СПб., 2005. – С.16-20.
4. Асеев В.Г. Преодоление монотонности труда в промышленности. – М.: Экономика, 2006. – 191 с.
5. Асмоковес Э.С. Психотехники развития эмоциональной гибкости учителя // Журнал прикладной психологии. – 2001. – № 6. – С.60-68.
6. Асмолов А.Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. – М.: Смысл, 2001.
7. Akramova F.A.. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanmasi. –T., 2007. -166 b.
8. Андреева, Г. М. Социальная психология : учебник для высших учебных заведений / Г. М. Андреева. – 5-е изд., испр. и доп. – Москва : Аспект Пресс, 2017. – 366 с.
9. Baratov Sh.R. O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari: Psix. fan. dok. ... dis. - T., 1997. – 104 б.

Botirova Yorqinoy Dilshod qizi

Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti doktoranti

MAMLAKATIMIZ OLIMLARI IZLANISHLARIDA PSIXOLOGIK MADANIYAT MASALASINING YORITILISHI

Annotatsiya. *Dunyodagi ko'plab davlatlari o'z yoshlarining kelajak hayotini rejalashtirishga oid g'oyalar va usullarni ilgari surishga katta e'tibor bermoqdalar. Bu jarayon yoshlar orasida ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, ularning ijtimoiy ishonchini oshirish va ijtimoiy-psixologik muammolarni hal qilish uchun psixo-ijtimoiy ishlar olib borishga e'tibor qaratish imkoniyatlarini yaratadi. Yoshlarning kelajakka oid xavotirlari, stresslari va o'z o'rinlarini topishdagi qiyinchiliklari ko'pincha ijtimoiy va psixologik muammolar bilan bog'liq bo'lib, bu omillar yoshlarni to'g'ri shakllantirishda, ularning psixologik holatlarini yaxshilashda va kelajakdagi rejalari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.*

O'zbekistonda ham psixologik madaniyatni shakllantirish va ularning kelajakka bo'lgan qarashlarini rivojlantirish uchun bir qancha amaliy dasturlar va usullar ishlab chiqilgan. O'zbekistonning turli hududlarida talabalar uchun psixologik maslahatlar, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shaxsiyatni rivojlantirish va kelajakni rejalashtirishga qaratilgan dasturlar faol amalga oshirilmoqda.

Talaba-yoshlarda psixologik madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi hozirgi kunda ularning hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar, ijtimoiy muhitdagi tahlikalar va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq. Yoshlar orasida kelajakka ishonchni oshirish, ularning shaxsiy rivojlanishini yaxshilash va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Bugungi kunda yoshlar orasida psixologik madaniyatni shakllantirish ularning kelajak hayotini rejalashtirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon yoshlarning o'z maqsadlariga erishishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatlarini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikka intilishlariga yordam beradi. Talaba-yoshlarda psixologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va dolzarbligi, shubhasiz, jamiyatning kelajagi uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: *psixo-emotsional holat, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, psixologik xususiyatlar,rivojlanish,shakllanish.*

ОСВЕЩЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ИССЛЕДОВАНИЯХ УЧЕНЫХ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация. *Многие страны мира уделяют большое внимание разработке идей и методов планирования будущей жизни своих молодежных поколений. Этот процесс создает возможности для обеспечения социально-нравственной стабильности среди молодежи, повышения их социальной уверенности и решения социально-психологических проблем путем проведения психосоциальных работ. Озабоченность молодежи относительно будущего, стресс и трудности в поиске своего места часто связаны с социальными и психологическими проблемами, которые играют важную роль в правильном формировании молодежи, улучшении их психологического состояния и развитии необходимых навыков для будущих планов. В Узбекистане разработаны различные практические программы и методы для формирования психологической культуры и развития взглядов молодежи на будущее. В разных регионах Узбекистана активно реализуются программы психологического консультирования, пропаганды здорового образа жизни, развития личности и планирования будущего. Актуальность формирования психологической культуры среди студентов и молодежи сегодня тесно связана с изменениями во всех сферах их жизни, с тревогами в социальном окружении и семейных отношениях. Повышение уверенности молодежи в будущем, улучшение их личностного развития и способность адаптироваться к социальным условиям способствует обеспечению социальной стабильности общества. Формирование психологической культуры среди молодежи сегодня играет важную роль в планировании их будущей жизни. Этот процесс помогает укрепить их стремление к достижению целей, улучшить*

отношение к социальным отношениям и способствует стремлению к социальной стабильности. Социально-психологические характеристики и актуальность формирования психологической культуры среди студентов и молодежи безусловно имеют важное значение для будущего общества. Правильные подходы помогают улучшить психо-эмоциональное состояние молодежи, развить их личностный рост, социальную стабильность и создать необходимые условия для достижения успеха в будущем.

Ключевые слова: *психо-эмоциональное состояние, личностное развитие, социальная стабильность, психологические особенности, развитие, формирование.*

COVERAGE OF THE ISSUE OF PSYCHOLOGICAL CULTURE IN THE RESEARCH OF SCIENTISTS OF OUR COUNTRY

Annotation. *Many countries around the world are paying significant attention to promoting ideas and methods for planning the future life of their youth. This process creates opportunities for ensuring social and moral stability among youth, increasing their social confidence, and addressing social-psychological problems through psycho-social activities. Young people's concerns about the future, stress, and difficulties in finding their place are often linked to social and psychological issues, which play an important role in properly shaping youth, improving their psychological well-being, and developing the necessary skills for future plans. In Uzbekistan, several practical programs and methods have been developed to form psychological culture and develop the youth's perspectives on the future. Psychological counseling, promoting healthy lifestyles, personality development, and future planning programs are actively being implemented in various regions of Uzbekistan. The relevance of forming psychological culture among students and youth today is closely related to changes in all areas of their lives, social environment challenges, and family relationships. Increasing youth's confidence in the future, improving their personal development, and enhancing their ability to adapt to social conditions helps ensure social stability. Today, forming psychological culture among youth plays a significant role in planning their future life. This process helps to strengthen their desire to achieve goals, improve their attitudes toward social relationships, and supports their striving for social stability.*

Keywords: *psycho-emotional state, personal development, social stability, psychological characteristics, development, formation.*

Kirish. Psixologik madaniyat insonning shaxsiy jihatlaridan biridir, shuning uchun biz birinchi navbatda shaxs mohiyatini tushunishga yondashuvimizni qisqacha bayon qilamiz. Shaxs - bu psixikaning boshqaruv markazi, uning buyruq qismi bo'lib, u ehtiyojlar va maqsadlarni amalga oshirish uchun xatti-harakatlarni qo'zg'atadi, boshqaradi, tashkil qiladi va tartibga soladi. Bu shaxsning va umuman organizmning o'z-o'zini rivojlanishini tashkil etishga qodir bo'lgan hayot va rivojlanishni nazorat qilish dasturidir. Shaxsning psixologik madaniyati xulq-atvorning asosiy jarayonlarini qurish va ularni boshqarishning uyg'unligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, harakatlar va his-tuyg'ularning o'zini o'zi boshqarishda, muloqotning konstruktivligida va turli ishlarni konstruktiv boshqarishda, o'zini o'zi belgilash, ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari mavjudligida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda shaxs psixologik salomatligini tadqiq etish va bu muammoning zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonlik olimlar V.Axrorov, R.Abdurasulov, Sh.Barotov, Z.Ibodullayev, M.Isakova, A.Jabborov, V.Karimova, M.Karamyan, M.Mamatov, Z.Nishonova, D.Qarshiyeva, A.Sobirov R.Samarov va boshqalar tomonidan psixologik salomatlik va unga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish borasida muayyan darajada tadqiqot ishlari olib borilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakati olimlari B.Ananev, D.Bromli, A.Dmitriyev, I.Dubrovina, I.Kon, B.Lisovskiy, N.Smirnov, O.V.Xuxlayeva, V.A.Slastenina, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyukina va boshqalarning olib borgan tadqiqotlarida shaxs bilan bog‘liq psixologik salomatlik omillarining pedagogik-psixologik tamoyillari ochib berilgan. Xorij olimlaridan A.Freyd, Z.Freyd, E.Krechmer, G.Lindsey, A.Maslou, D.Mayers, G.Ollport, P.Rudik, K.Tomas, K.Xol, Y.Xanin va boshqalar o‘z izlanishlarida psixologik salomatlikni tashkil qiluvchi psixologik omillar hamda komponentlarni ilmiy asoslashgan. Tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi

kunda shaxsda psixologik salomatlikni shakllantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilishiga qaramay, aynan, bo‘lajak muhandislarda psixologik salomatlik omillarining pedagogik-psixologik asoslari va uning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixologik madaniyat masalasining yoritilishi va uni talaba-yoshlar orasida shakllantirish jarayonlarini o'rganish uchun turli metodologik yondashuvlar, nazariy va amaliy tadqiqot usullari qo'llanildi. Ushbu tadqiqotda asosiy metodologik yondashuvlar sifatida tizimli, psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar tanlangan bo'lib, bu usullarning birlashtirilishi psixologik madaniyatni shakllantirishning kompleks tahlilini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tizimli yondashuv – Tadqiqot psixologik madaniyatni shakllantirish jarayonining kompleksligini hisobga olib, tizimli yondashuvni qo'llaydi. Tizimli yondashuvda psixologik madaniyatni shakllantirish jarayoni ijtimoiy, psixologik, ta'limiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy va metodologik jihatlarini tahlil qilishga imkon beradi.

Ijtimoiy-psixologik tahlil – Psixologik madaniyatning shakllanishi faqat individual xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy muhitning ta'siri, oilaviy, do'stlik, maktab va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar bilan ham bog'liqdir. Tadqiqot davomida yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarning o'rni, shuningdek, ularning o'zaro aloqalari va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonch, stressni boshqarish, ijtimoiy ma'naviy barqarorlikni ta'minlash va psixologik holatni yaxshilashdagi ijtimoiy-psixologik muammolar o'rganildi.

Pedagogik yondashuv – Tadqiqotda yoshlarni ta'lim jarayonida psixologik madaniyatni shakllantirish uchun pedagogik yondashuvlar qo'llanildi. Bu usul o'quvchilarni psixologik madaniyatga oid tushunchalar, ko'nikmalar va qadriyatlar bilan tanishtirish, ularning ijtimoiy va psixologik qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minladi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida o'qituvchilar va psixologlarning o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, motivatsiya berish va ma'naviy rivojlanishlarini ta'minlash usullari ham tahlil qilindi.

Eksperimental metod – Tadqiqotning eksperimental qismi yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirish jarayonida amalga oshirilgan. Bu jarayonda yoshlar orasida psixologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha maxsus dasturlar, treninglar, psixologik maslahatlar va interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilgan. Eksperimentlar davomida yoshlarning psixologik madaniyatga bo'lgan munosabati, psixologik ko'nikmalari, stressni boshqarish va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar o'rganildi.

So'rovnoma va intervyu usullari – Tadqiqotda yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirish jarayonidagi fikrlarini bilish maqsadida so'rovnomalar va intervyular o‘tkazildi. Ushbu usul yoshlarning psixologik madaniyatga bo'lgan yondashuvlarini, shuningdek, ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishda qanchalik muvaffaqiyatli ekanliklarini aniqlashda qo'llanildi. So'rovnomalar va intervyular orqali olingan natijalar yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirishda foydalaniladigan metodlarni yaxshilashga yordam berdi.

Tahliliy-metodologik tahlil – Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar, ilmiy asarlar va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil yoshlar psixologik madaniyatini shakllantirishda qanday usullar, texnologiyalar va metodologiyalarning samarali ekanligini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqotda mavjud ilmiy-psixologik metodologiyalar, psixologik madaniyatga oid nazariy yondashuvlar va ijtimoiy-psixologik metodlar tahlil qilindi.

Lokal va global amaliyotlarni tahlil qilish – Tadqiqot davomida, shuningdek, psixologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha dunyoning turli mamlakatlaridagi tajribalar o'rganildi. Bu o'rganish yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirishdagi yondashuvlarning global va lokal o'zgarishlarini ko'rsatdi. O'zbekiston tajribasini dunyo tajribasi bilan solishtirish yoshlar ta'limidagi muammolarni hal qilish va ularni kelajakka tayyorlash uchun eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy maqsadi psixologik madaniyatni shakllantirish jarayonini tahlil qilish, uni yoshlar ta'limida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodlarni aniqlash va joriy etishdan iborat bo'ldi. Tadqiqot metodlarining kompleks yondashuvi yoshlarning psixologik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy, pedagogik va psixologik jihatlarning o'zaro bog'liqligini chuqur o'rganishga imkon berdi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekistonda psixolog olimlarning ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlarida shaxsning psixologik salomatligi bilan bog‘liq jarayonlarni shakllantirish, faoliyat samaradorligida psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati masalalariga keng e’tibor berilgan. Xususan, R.A.Abdurasulov, D.Orziqulov, Z.Ibodullayev, Sh.Barotov, V.Karimova, Z.Nishonova, F.Akramova, Z.Gapparov, M.Isakova, B.Qodirov rahbarliklarida tayyorlangan dissertatsiya ishlarini alohida ta’kidlash mumkin. M.Isakova o‘z ilmiy ishlarida inson psixologik salomatligini «stressga bardoshlilik», «stressdan xalos bo‘lish», «stressni boshqarish» xususiyatlarini barqarorlashtirish orqali shakllantirish mumkinligini tashkiliy-psixologik jihatdan asoslab bergan. V.Ahrorov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida talabalar psixologik salomatligini ta’minlashda sanogen tafakkurning emotsional barqarorlik va sog‘lom turmush tarziga oid tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan integrativ yondashuvlar asoslab berilgan. A.Sobirov ilmiy izlanishlarida sportchilar faoliyatida psixologik salomatlikni shakllanishiga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillari batafsil yoritib berilgan. Tibbiyot psixologiyasida psixologik salomatlikka ta’sir qiluvchi psixologik omillar Z.Ibodullayev, M.Karamyan, G.Tulaganova, Y.Narmetova kabilarning tadqiqotlarida o‘rganilgan, Z.Ibodullayev va uning shogirdlarini ilmiy izlanishlarida, jamiyatda inson shaxsi rolining ortib borishi kuzatilayotgan bir paytda, shaxsning psixologik salomatligini mustahkamlash masalasi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb masala ekanligini ta’kidlaydi. O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda bo‘lajak muhandislar faoliyati bilan bog‘liq psixologik salomatlikni shakllanishiga bevosita ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tizimini empirik jihatdan o‘rganish, mazkur o‘rganish natijalari asosida ilmiy xulosalarni shakllantirish hamda kelajakda psixologiya fani uchun muhim bo‘lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muqarrarligini ko‘rsatdi

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, shaxsning psixologik madaniyati boshqa madaniyat turlari orasida alohida o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, u insoniyat madaniyatining barcha elementlarini o'z ichiga oladi, ya'ni insonga qaratilgan.

1. Psixologik madaniyat – bu shaxsning o‘zini anglashi ya‘ni chuqur tushunishi va qabul qilishi, hayotdan, o‘zidan va atrofdagilardan mamnun bo‘lishi, o‘zini o‘zi har qanday salbiy va ijobiy vaziyat-holatlarda boshqarishi hamda yaxshi his qilishini ta‘minlovchi hayotiy kerakli psixologik bilim-ko‘nikmalar, tajribalar jamlanmasidir.

2. Psixologik madaniyat insonga yashash ko‘nikmasini beradi, yashaganda ham hayotga ijobiy qarash, muammolarni aql-farosat bilan hal etish, o‘zi va atrofidagilari uchun har tomonlama mas‘uliyatli bo‘lish, murakkab vaziyatlarga oqilona iloji boricha nekbin (optimistik) yondoshish, o‘z xatti-harakatlarining mohiyat maqsadlarini aniq bilish bilan yashash bilim-ko‘nikmalarini, tajribalarini beradi.

3. Qisqa qilib aytganda psixologik madaniyat bu pozitivlik (ijobiylik va hamma narsaga ijobiy munosabat bildira olish), bunyodkor dunyoqarashga egalik, mas‘uliyatlilik, doimo aql bilan ish qilish, maqsadli harakat qilish, hissiyot, emotsiyalarni boshqara olish va sog‘lom ruhiyat kabi sifatlarga egalik qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Иванова С.П. Современное образование и психологическая культура педагога. – Псков, 1999.

2. Колмогорова Л.С. Возрастные возможности и особенности становления психологической культуры учащихся. Автореф. дисс. … докт. психол. наук. –
M., 2001.

3. Навбаҳор Шокировна Умарова Шарқ мутафаккирларининг иқтисодий ижтимоийлашув ҳақидаги қарашлари // Academic research in educational sciences. 2021. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/shar-mutafakkirlarining-i-tisodiy-izhtimoiylashuv-aidagi-arashlari (дата обращения: 17.01.2022).

4. Ҳайитов, О. Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари (шажаралар негизи мисолида) О Ҳайитов, Н Умарова - Т.:—TURON-IQBOL, 2001

5. Умарова Н. Ш. Экономическая социализация личности в контексте возрастных периодов //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 22-3 (76). – С. 60-64.

6. Каримова В. М. Ижтимоий психология //Т.:—Фан ва техналогия. – 2012.

Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

TOJIK OILALARDA OILAVIY UYUSHGANLIKNI O‘RGANISH NATIJALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tojik oilalar muhitida ona shaxsi ta’sirida o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshidagi bolalarning hayotiy qadriyatlarga munosabatlari, istiqbol to‘g‘risidagi tasavvur va mo‘ljallarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asoslash va empirik jihatdan tadqiq etilgan.*
Kalit so‘zlar: *nikoh, oila, respondent, qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, hissiy yaqinlik, nikoh ustanovkalari, mas’uliyat.*

РЕЗУЛЬТАТЫ ИЗУЧЕНИЯ СЕМЕЙНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В ТАДЖИКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье научно обоснованы и эмпирически исследованы социально-психологические особенности отношения детей подросткового и раннего юношеского возраста к жизненным ценностям, представлениям о перспективах и целям под влиянием личности матери в среде таджикских семей.*
Ключевые слова*: брак, семья, респондент, ценности, семейные отношения, эмоциональная близость, брачные установки, ответственность*

RESULTS OF THE STUDY OF FAMILY UNITY IN TAJIK FAMILIES

Abstract. *This article scientifically substantiates and empirically studies the socio-psychological characteristics of the attitude of adolescents and early adolescents to life values, their ideas about the future, and their goals under the influence of the mother's personality in the environment of Tajik families.*
Keywords: *marriage, family, respondent, values, family relationships, emotional closeness, marital attitudes, responsibility.*

Oila deb atalmish ijtimoiy institut va unda hayot kechirayotgan insonlar o‘rtasidagi muloqot har doim ham samimiy, ijobiy bo‘lavermaydi. Oila o‘z hayot siklida hamisha to‘liq, tekis davom etmaydi. Oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qanday kechishiga qarab, oilani mustahkam yoki ziddiyatli, to‘liq yoki noto‘liq kategoriyalarga bo‘lish mumkin. Mentalitetimizda noto‘liq oila modeliga nisbatan turfa xil fikrlar borki, ularning aksariyati bunday oila modelining farzandlar tarbiyasiga ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ikkinchi tomondan, bunday oiladagi onaning ijtimoiy psixologik maqomida ko‘plab shaxslararo ziddiyatlar mavjudligi e’tirof etiladi. Lekin globallashuv va har bir shaxsning hayotiy mavqelarida o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, ta’lim olish, malakali kasb egasi bo‘lishga intilish erkak va ayollarda deyarli bir xil ahamiyat kasb etuvchi qadriyatga aylanayotgan bir sharoitda noto‘liq yoki boquvchisini yo‘qotgan oila atamasi muayyan ma’noda nisbiy ma’no va mohiyat kasb etadi. Turli sabablarga ko‘ra noto‘liq maqomini olgan oilaning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini o‘rganish orqali uni muhofaza qilishning oqilona yo‘llarini izlab topish va amaliyotga joriy etish muhim va dolzarb masaladir.

Tojik oilasi hayotida ota-onalar ishtiroki alohida o‘rin tutadi va ular boshqaruvchilik vazifasini bajarib, yosh oilaning musta qil hayoti uchun o‘zlarini mas’ul deb biladilar. Bu mas’ullik hissi ko‘proq qaynona shaxsida ifodalangan bo‘lib, gohida oilada nizoning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yosh kelin kuyov bo‘sh vaqtini o‘tkazishni rejalashtirish, uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajarish, uy jihozlarini xarid qilish, mehmon qabul qilish va kuzatish kabi masalalar bevosita qaynonaning rahnamoligi asosida bajariladi. Tojik oilasida qaynota oilaning bosh ustuni sifa tida idrok etilib, oilaning iqtisodiy va ijtimoiy ta’minoti uning zimmasida bo‘ladi va oilaning ichki masalalariga ko‘p ham aralash maydi, shuning uchun gohida ayrim oilaviy vaziyatlardan xabardor bo‘lmasligi tabiiy holat hisoblanadi. Shunga qaramasdan, qaynota oiladagi kelinni o‘zining qizi sifatida ko‘radi, qaynona esa, keliniga o‘g‘lining rafiqasi sifatida munosabatda bo‘ladi.

Tojik oilasidagi ota rolini to‘liq idrok etish uchun «otang uyda bo‘lganda tomga chiqma» degan xalq maqolining onalar tomonidan ko‘p marotaba bolalariga qarata takrorlanishini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Oiladagi muhim ishlar bevosita otaning rahbarligida amalga oshiriladi, katta xaridlar qilish, uy jihozlarini sotib olish, usta ishlatish kabi masalalar albatta uning roziligi asosida amalga oshiriladi. Agar bu ishlar otaning roziligi yoki ishtirokisiz bajarilsa, ota to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki ona orqali farzandlariga ta’sir o‘tkazadi. Shu sababli, tojik oilasida ona, qaynona tartibga chaqiruvchi, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Yosh tojik oilasining hayoti kichik (20 kun) va katta chilla (40) chiqqunga qadar to‘liq otaonalarning nazorati asosida o‘tib, oilada farzand dunyoga kelmagunga qadar bu nazorat tarzi davom etadi. Yosh oila farzand ko‘rib, ma’lum vaqt o‘tishi bilan nazorat tarzi sekin-sekin o‘zgarib, munosabatlar ham demokratlashib boradi. Agarda dunyoga kelgan farzand o‘g‘il bo‘lsa, kelinga ehtirom yanada oshadi. Kelinga murojaat qilishda uning ma’lumotiga ham e’tibor qaratiladi, masalan, respublikamizning Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi tojik oilalarda kelin oliy ma’lumotli bo‘lsa kelinmullo, o‘rta ma’lumotli bo‘lsa kelin deb murojaat qilinadi. Ayrim tojik oilalarida kelinni ismi bilan ham chaqirishadi, ayrim tog‘li hududlarda yashaydigan tojik oilalarida kelinga «Sen» deb ham murojaat qilishadi. Ammo bu kelin-kuyovlik, qaynona-kelinlik, quda-andachilik munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Oilada yoshi ulug‘lari bor oilalarda kelinga murojaat etishda an’anaviy tarzda yondashish tartibiga qat’iy amal qilinadi. Bunda kelin ismini tilga olmasdan, oila a’zolaridan kichiklari, qayinsingil yoki qayinukalarning ismi tilga olinib murojaat etiladiki, bundan maqsad kelinning ismini birovlar bilib olmasligi bo‘ladi. Bu ham bo‘lsa, oilaviy hayot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan milliy xususiyat hisoblanadi. Dunyoga farzand kelgandan keyin esa, er-xotinlar farzandlarining ismi orqali bir-birlariga murojaat etadilar va buni qaynona yoki buvilar nazorat qilib boradilar.

Bolalarning istiqbol to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlari shakllanishida asosan jamiyatdagi o‘zgarishlar, oiladagi o‘zaro munosabatlar, tarbiyalash jarayonidagi muhit va unda qabul qilingan qadriyatlar, ota-onaning ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi hamda ularning ma’lumot darajasi muhim ahamiyatga egadir. Bundan ko‘rinadiki, ijtimoiy tasavvurlar shaxs faoliyati davomida o‘zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradigan dinamik tuzilma. Demak, bizning misolimizda oila dastlab to‘liq bo‘lib, so‘ngra o‘smir ko‘z o‘ngida o‘zgarib, noto‘liq holatga kelishi, tabiiy, uning ijtimoiy tasavvurlarida aks etadi. Ijtimoiy tasavvurlarning o‘zgarib borishi haqida Moskovisi shunday yozgan: “... o‘zgarish ro‘y beradi, lekin yangi ma’lumotga qarshi turadigan eski tasavvurlar sxemasining qayta tiklanishi tariqasida daryodagi oqimga o‘xshash o‘zgarish ro‘y beradi. Ya’ni har bir odamning o‘zi o‘rganib qolgan, barqaror kognitiv tizimi bo‘ladiki, u har qanday yangi, “kutilmagan” ma’lumotlarga o‘ziga xos munosabatda bo‘ladi. Uni qabul qilish uchun esa ijtimoiy tasavvurlarini qayta qurish zarur. Lekin bu jarayondagi qayta qurish oxirigacha yoki tubdan bo‘lmaydi, balki tizim biroz yangilanadi, xolos. Tasavvurlariga mos kelmaydigan ma’lumotga nisbatan esa unda “himoya” kuchlari paydo bo‘ladi. Yangini tashlab yubormagan hamda o‘z mavqeini o‘zgartirmagan holda subyekt o‘zida ilgaridan bor bo‘lgan bilimlari bilan yangi qabul qilingan ma’lumot o‘rtasida ekvivalent o‘rnatishga harakat qiladi” [29; 562-563].

V.M.Karimovaning doktorlik dissertatsiyasida ham yoshlarning oila to‘g‘risidagi tasavvurlari aynan ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi asosida o‘rganilgan. U ijtimoiy tasavvurlarga quyidagicha ta’rif bergan: ijtimoiy tasavvurlar- har bir shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni o‘ziga xos tarzda qayd etish vositasi bo‘lib, subyektiv reallikni obyektivlik bilan bog‘lovchi psixologik mexanizmlardir (25; 27). Masalan, bizningcha, o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik yoshidagi bolaning o‘z oilasi, undagi ona maqomini idrok qilishining psixologik mexanizmi – bu undagi tasavvurlar tizimi orqali ro‘y beradi.

Yuqoridagi ta’rif orqali tadqiqotchi ijtimoiy tasavvurlarning bir necha xususiyatlarini ajratadi. Birinchidan, ijtimoiy tasavvurlar faol ijtimoiy muloqot mahsuli; ikkinchidan, ular shaxs uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy obyektlarga nisbatan uning ongli munosabatlarini ta’minlaydi; uchinchidan, ijtimoiy tasavvurlar- bilish vositasi; to‘rtinchidan, jamiyatda qabul qilingan turli ijtimoiy meəyorlar, xatti-harakat shakllari, qadriyatlar va baholarning interiorizatsiyasini ta’minlaydi, va, nihoyat, ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy tajribasining asosidir (25;27)

Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi tarafdorlarining fikricha, shaxsning ijtimoiy tasavvurlari birdaniga, osongina shakllanib qolmaydi, balki, ular hayot davomida muttasil o‘zgarib turadigan dinamik tuzilma bo‘lib, ularning shakllanish va o‘zgarish mexanizmlarida tasavvur egasining ijtimoiy

borliqni qanday idrok qilishidan tortib shaxsiy ma'no kasb etgan obyektlarning bilimlar tizimida o'rnashishi hamda xulq-atvorda namoyon bo'lib, shaxsiy tajribaga aylanishi jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tasavvurlar shaxs va guruh psixologiyasida turli stereotiplarning o'rnini o'rganishda ham vosita bo'lishi mumkin. Chunki shaxs o'z hayoti mobaynida turli bilimlar qarashlar, tushunchalarni "tayyor", "o'zgarmas"ma'nolar sifatida qabul qiladi. Masalan, oila, ota-ona, ona- bola va boshqa munosabatlar, turli toifali kishilar haqidagi fikrlar ko'plab marta qaytarilishi natijasida va avloddan-avlodga o'tishi tufayli stereotip tasavvurlar hosil bo'ladiki, ular oxir-oqibat milliy, irqiy, professional, madaniy, oila borasidagi stereotiplarning saqlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, fikrimizcha, bola uchun oila – bu ota va ona, ulardan keyin yaqin qarindoshlar, aka-uka, opa-singil kabilarning bo'lishidir. Agar bu tizim o'zgarsa, masalan, yaqin qarindoshlardan birining o'limi yoki otaning oilani tashlab ketishi shunday stereotiplar mazmuniga ta'sir ko'rsatadi va ayni shu holat ichki ruhiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, mavjud ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi o'zgarishlar bolalarning hayotiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy mo'ljallari hamda istiqbolda oila kabi tasavvurlarda ham o'z aksini topadi, deb hisoblaymiz. Ularni qanday o'rganish mumkin. Bu savolga javob berish uchun mutaxassislar ijtimoiy tasavvurlar tizimidagi uchta muhim sohani ajratadi va ular empirik izlanish, ya'ni valid metodikalar tanlash uchun asos bo'ladi, deb ta'kidlashadi .

Jadval 1

Ijtimoiy tasavvurlarning tizimi

Ijtimoiy tasavvurlar tizimi	**Alopida sohalarning xususiyatlari**
Tasavvurlar maydoni	Ijtimoiy obekt to'g'risidagi bilimlar yig'indisi bo'lib, ayni shu obyekt to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ijtimoiy tasavvur shakllanganligi-ning sharti hisoblanadi.
Baholar tizimi	Tasavvurlarning sifat xarakteristikasi bo'lib, shaxsiy ma'no va mazmun kasb etgan ma'lumotga nisbatan subyektiv munosabat bildirish mezoni (masalan, salbiy yoki ijobiy)
Ijtimoiy ustanovka	Turli hayotiy vaziyatlarda subyektning real xatti-harakatlari mezoni, baholar asosida ijtimoiy xulqni namoyon etishga hozirlik.

Yuqoridagi metodikadan foydalanib o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshdagi bolalarning istiqbol to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarini o'rganishning psixologik mexanizmi sifatida onalarning o'z farzandlari, oilasidagi o'zaro munosabatlarga bergan baholaridan tashqari, har bir o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi farzandlarning onasi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari ta'sirida shakllanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy tasavvurlarini baholar tizimi shaklida o'rgandik.

Biz oila a'zolari o'rtasidagi hissiy-emotsional yaqinlikning mavjudligini oilaviy uyushganlikning muhim ko'rsatkichi bo'lgan hissiy yaqinlik mezoni bo'yicha aniqlashga harakat qildik. Chunki oilada ma'naviy muhitning barqaror bo'lishi, a'zolarning bir-birlarini tushunishlari, qo'llab-quvvatlashlari oila hamjihatligi va uyushqoqligining asosiy mezonlaridan biridir. Bunda oila a'zolarining har biri, birinchi navbatda kattalar – ota va ona muhim rol o'ynaydi. Oiladagi shu kabi munosabatlarning real mavjudligi o'smirlik va ilk o'spirin yoshidagi bolalarda kelajakda o'zi istagan oilani qanday tasavvur qilishiga bevosita bog'liq bo'ladi, deb o'ylaymiz. Lekin qaysi ko'rsatkichi ustunligiga bog'liq ravishda bolada umuman istiqbol to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Bunda oilaning o'rni beqiyos.

Jadval 2.

O'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi bolalarning istiqbolda ular xohlagan oiladagi hissiy yaqinlik to'g'risidagi tasavvurlari
(Tojik oilalar misolida)

Variantlar	**Tojik oila farzandlari**	
	Qizlar (N= 86)	**O'g'il bolalar (N= 49)**

1.Oilamda hamma bir-biriga yordam so‘rab murojaat qilgan bo‘lar edi	4,39	4,5
11.Oilamiz a’zolari o‘zaro juda yaqin ekanligini hamisha his qilishimiz kerak	4,56	*4,9*
19.Oilamiz uchun birlik, hamjihatlik o‘ta muhim bo‘lishi kerak	*5*	4,8

Demak, yoshlar kelgusida oilasida, eng avvalo er-xotin va farzandlar o‘rtasida yaqin hissiy-emotsional munosabatlar bo‘lishi, har qanday sharoitda oila a’zolari bir-birlariga suyanishi va ko‘makdosh bo‘lishining tarafdoridirlar. Bu o‘g‘il bolalar va qizlar to‘plagan ballarning nisbatan yuqori ekanligidan ko‘rinadi. Chunki ular aksariyat holatlarda anketani to‘ldirayotganda “hamisha”, “tez-tez” javoblarini tanlaganlar. Biz tadqiqot maqsadini belgilab, ushbu metodika bilan ishlaganda ustun raqamlarni ball sifatida qabul qildik. Agar respondent “hamisha” javobini belgilagan bo‘lsa, o‘sha javobi uchun “5” ball, “tez-tez” javobini belgilagan bo‘lsa, “4” ball va shunday tarzda 1-chi grafadagi javobni belgilagan bo‘lsalar, mos ravishda “1 ball” oldi. Tadqiqot natijalari empirik tahlil qilinganda shu kabi har bir mezon bo‘yicha olingan ma’lumotlarni har bir toifa respondentlar misolida avval jami ballari qo‘shib chiqildi, so‘ngra nisbiy miqdorini foizlarda o‘rganib chiqdik.

“Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish” (yoki qisqacha nomi FACES III) metodikasi orqali olingan ma’lumotlar noto‘liq oiladagi farzandlar ijtimoiy tasavvurlarida kelajakdagi oilasini demokratik, uyushgan va fikrlarni hamisha hurmat qilish ustuvor bo‘lishini orzu qilgan holda tasavvur qilishini ko‘rsatdi;

- noto‘liq oilada ona obrazi bola uchun tabiiy avtoritet, xatti-harakatlar uchun andoza rolini o‘ynaydi zero, bola o‘z otasi yoki onasi obrazida hamisha mukammallikni, yaxshi fazilatlar sohibini izlaydi; bu holat qizlarda muayyan ma’noda kamroq ziddiyatlarni keltirib chiqarsa-da, otasiz o‘sayotgan qizlarda oilada otaning o‘rni va roli, umuman, erkaklar to‘g‘risidagi noadekvat tasavvurlar shakllanishiga olib kelishi mumkin;- yoshlar kelgusida oilasida, eng avvalo, er-xotin va farzandlar o‘rtasida yaqin hissiy-emotsional munosabatlar bo‘lishi, har qanday sharoitda oila a’zolari bir-birlariga suyanishi va ko‘makdosh bo‘lishining tarafdori ekanligini tasdiqladi, ushbu holat ijtimoiy- psixologik nuqtai nazardan muhim bo‘lib, bu kabi fikrlarni noto‘liq oilaga psixologik yordam ko‘rsatish shahobchalarida inobatga olish zarur.

Xulosa qilib aytish lozimki tojik oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar istiqbol to‘g‘risidagi tasavvurlarning ijobiy shakllanishiga bolani o‘rab turgan boshqa referent guruh qadriyatlari va ustanovkalari bevosita ta’sir etadi, shuning uchun ham bu toifa oila a’zolariga profilaktik, psixokorreksion va diagnostik yordam tashkil etishda, albatta, referent guruhni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adaboyotlar ro‘yxati.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 13-fevraldagi “2019-2025-yillarda O’zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PK-4190-son qarori /http;/lex.uz
2. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild. – T: “O’zbekiston”, 2019. – 592b
3. Mirziyoyev.Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild – T: “O’zbekiston” 2019. -508b
4. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiyot risolalar.T:Fan, 1987 – 78b
5. Ayol huquqi va erkinliklari/TD Yul. Toshkent Adolat, 2002-234b
6. Akramova F.A, Abdullayeva R.M Sharq mutafakkirlarining oila hususidagi qarashlari. T: “Shams ASA”, 2002.25b
7. Abdusattorova O.A. Oila muhitida o’smirlarda shakllanadigan identifikatsiyaning gender xususiyatlari //Psixol.f.nilmiy.daraja. olish uchun yozilgan diss.aftoref. – T, 2007 – 22b
8. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. Toshkent:2006, 137b
9. https://psixologiyabuxdu.uz –psixologiya ilmiy jurnali

Elmuratova Aysulu Usaxovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nukus filiali tadqiqotchisi
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor

YUQORI XAVFLI SPORT TURLARIDA O‘ZINI-O‘ZI MUHOFAZA QILISH REFLEKSLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yuqori xavfli sport turlarida (parashyut sporti, alpinizm, motokross, bokschilik, dzyudo va boshqa ekstremal yo‘nalishlar) ishtirok etuvchi sportchilarda o‘zini-o‘zi muhofaza qilish reflekslarini shakllantirish jarayonining psixologik va pedagogik mexanizmlari tahlil etiladi. Tadqiqotda xavfli vaziyatlarga javob qaytarish reflekslarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, emotsional boshqaruv, stressga chidamlilik, reflektiv tafakkur va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajalari ko‘rib chiqiladi. O‘zini muhofaza qilish reflekslari sportchining onglilik darajasi, kognitiv holati va holatga tezkor moslashuv qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.*

Kalit so‘zlar: *Yuqori xavfli sport, o‘zini-o‘zi muhofaza qilish, reflektor harakat, psixologik tayyorgarlik, refleksiya, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ekstremal sport, psixopedagogik yondashuv, xavfsizlik strategiyalari.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСОВ САМОЗАЩИТЫ В ОПАСНЫХ ВИДАХ СПОРТА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические и педагогические механизмы формирования рефлексов самозащиты у спортсменов, участвующих в высокоопасных видах спорта (прыжки с парашютом, альпинизм, мотокросс, бокс, дзюдо и другие экстремальные направления). В исследовании анализируются личностные и социально-психологические факторы, влияющие на развитие защитных рефлексов в опасных ситуациях, включая эмоциональную саморегуляцию, устойчивость к стрессу, рефлексивное мышление и уровень социальной поддержки. Рефлексы самозащиты напрямую связаны с уровнем осознанности спортсмена, его когнитивным состоянием и способностью к быстрой адаптации к экстремальным условиям.*

Ключевые слова: *Высокоопасный спорт, самозащита, рефлекторные действия, психологическая подготовка, рефлексия, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, экстремальный спорт, психопедагогический подход, стратегии безопасности.*

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL MECHANISMS OF FORMING SELF-PROTECTION REFLEXES IN HIGH-RISK SPORTS

Abstract. *This article examines the psychological and pedagogical mechanisms of developing self-protection reflexes among athletes participating in high-risk sports (such as parachuting, mountaineering, motocross, boxing, judo, and other extreme disciplines). The study explores personal and socio-psychological factors that influence the development of reflexive responses to dangerous situations, including emotional regulation, stress resilience, reflective thinking, and levels of social support. Self-protection reflexes are directly linked to an athlete’s level of consciousness, cognitive state, and ability to rapidly adapt to critical conditions.*

Keywords: *High-risk sports, self-protection, reflexive actions, psychological preparedness, reflection, emotional stability, stress resilience, extreme sports, psychopedagogical approach, safety strategies.*

Kirish. Zamonaviy sport sohasida ekstremal va yuqori xavfli sport turlarining ommalashib borayotgani sportchilardan nafaqat yuqori jismoniy tayyorgarlik, balki murakkab psixologik va reflektor tayyorgarlikni ham talab qilmoqda. Parashyut sporti, sport alpinizmi, motokross, dzyudo, boks, jangovar

san'atlar kabi sport yo'nalishlari sportchining o'z jonini real xavfdan himoya qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishni zarur qiladi. Aynan shunday sharoitlarda o'zini-o'zi muhofaza qilish reflekslarining shakllanganlik darajasi sportchining xavfsizligi, barqarorligi va samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida maydonga chiqadi. O'zini muhofaza qilish reflekslari – bu faqat instinktiv harakatlar emas, balki sportchi shaxsining psixologik barqarorligi, emotsional muvozanati va ekstremal sharoitda holatni tezkor baholay olish salohiyati bilan chambarchas bog'liq ongli jarayondir.

Bugungi kunda yuqori xavfli sport turlarida faoliyat yurituvchi sportchilarda o'zini muhofaza qilish mexanizmlarini shakllantirishga doir ilmiy izlanishlar asosan psixofiziologik yondashuv bilan cheklanib qolmoqda. Ammo bu jarayonni chuqurroq tahlil qilish psixologik, pedagogik va sotsial-psixologik omillarni integratsiyalashni taqozo etadi. Zero, xavfli sharoitda reflektor harakatni faollashtirishga faqatgina avtomatik reaksiyalar emas, balki ilgari o'zlashtirilgan kognitiv modellar, stressga nisbatan barqarorlik va murabbiy bilan kommunikatsiya sifati ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xavfsizlik strategiyalarini shakllantirish jarayonida sportchining individual psixotipi, motivatsion tuzilmasi va refleksiya darajasi ham hisobga olinishi lozim. Shu sababli ushbu maqolada o'zini-o'zi muhofaza qilish reflekslarini shakllantirishning psixologik va pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularni o'quv-mashg'ulot tizimiga ilmiy asosda integratsiya qilish masalasi yoritiladi.

O'rganilganlik darajasi. Yuqori xavfli sport turlarida sportchilarning psixologik tayyorgarligi, xavfsizlik madaniyati va o'zini-o'zi muhofaza qilish reflekslarini shakllantirish muammosi sport psixologiyasi, pedagogik psixologiya va ekstremal holatlar psixologiyasi doirasida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, G. Selie stress nazariyasi orqali tashqi tahdidlarga organizmning moslashuv reaksiyalarini ochib bergan bo'lsa, A. Bandura o'ziga bo'lgan ishonch va o'z-o'zini boshqarish konsepsiyasi asosida xavfli vaziyatlardagi qaror qabul qilish mexanizmlarini tahlil qilgan. R. Lazarus va S. Folkman esa stressga javoban kognitiv baholash va individual strategiyalarning moslashuvchanligini o'rganib, sportchilarda xavfga nisbatan ongli munosabatning shakllanishini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Shuningdek, ekstremal sport turlarida reflektor harakatlar va psixomotor tezlikka oid tadqiqotlar ham G. Oldham, N. Vodopyanova, X. Heckhausen kabi olimlar tomonidan keng yoritilgan. Ularning ishlari psixofiziologik moslashuv, motivatsiya, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik kabi omillar sportchining xavfli sharoitda o'zini tutishi va xavfni bartaraf etish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Sport pedagogikasi sohasida esa M.A. Choshanov, A.K. Markova, G.K. Selevko va boshqalar xavfsizlik kompetensiyasi, reflektiv o'qitish va sportchilarda psixologik barqarorlikni rivojlantirish usullarini ishlab chiqqan.

Milliy olimlar tomonidan ham ushbu masalaga e'tibor qaratilgan bo'lib, L.B. Shneyder, V.M. Karimova, G'.B. Shoumarov va E.G'. G'oziyevlarning asarlarida sportchilarning emotsional zo'riqish holatlari, o'zini anglash darajasi va psixologik moslashuv xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Ammo yuqori xavfli sport turlarida reflekslar va o'zini-o'zi muhofaza qilish ko'nikmalarining aynan psixopedagogik mexanizmlari, ularning ongli shakllanishi, trening jarayoniga integratsiyalashuvi va shaxsiy refleksiya bilan bog'liqligi hanuzgacha yetarli darajada tizimli ravishda o'rganilmagan.

Mazkur holat ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi hamda sportchilarning xavfli vaziyatlardagi psixologik tayyorgarligini chuqur, empirik va nazariy asosda tahlil qilishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Muhokama. Yuqori xavfli sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilar faoliyati ekstremal sharoitlarda yuzaga keladigan xavflarni oldindan ko'ra bilish, ularga javob qaytara olish va o'zini anglab boshqarish reflekslariga tayanadi. Mazkur reflekslar oddiy instinktiv javoblardan farqli ravishda, ongli psixologik tayyorgarlik va murakkab kognitiv-emotsional jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular shaxsiy psixologik resurslar, ijtimoiy muhit va trening tizimi orqali shakllanadi. Ayni paytda sportchilarning ekstremal vaziyatlarda o'zini muhofaza qiluvchi reflektor harakatlarini faollashtiruvchi asosiy mexanizmlar - bu emotsional barqarorlik, refleksiya, stressga chidamlilik va xavfga nisbatan ongli yondashuv sifatida talqin etilishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, o‘zini-o‘zi muhofaza qilish reflekslarini shakllantirish jarayoni faqatgina tabiiylik yoki avtomatizmga emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan psixopedagogik yondashuvlarga asoslanishi kerak. Treninglarda doimiy ravishda real sharoitga yaqin vaziyatli simulyatsiyalar, hissiy muvozanatni tiklovchi mashqlar, reflektiv tahlillar va ijtimoiy rol o‘yinlari orqali sportchilarning holatga adaptatsiyasi kuchaytiriladi. Muhokama jarayonida muhim bir xulosa shuki, o‘zini muhofaza qilish reflekslari mustahkam irodaviy tayyorgarlik, o‘z-o‘zini idrok qilish darajasi va psixologik moslashuvning uyg‘unligini talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir sportchining individualligini hisobga olgan holda metodik yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuningdek, sportchilar o‘rtasida emotsional barqarorlikni ta’minlaydigan omillardan biri sifatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va jamoaviy ishonch ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ekstremal sharoitda murabbiy bilan tezkor va aniq kommunikatsiya, jamoa a’zolari o‘rtasidagi psixologik uyg‘unlik, xavfni baholashda o‘zaro reflektiv fikr almashish o‘zini muhofaza qilish reflekslarining tez faollashuviga xizmat qiladi. Muhim jihat shundaki, sportchining xavfga nisbatan shaxsiy yondashuvi faqat emotsional javob emas, balki ongli qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch orqali shakllanadi.

Shunday qilib, yuqori xavfli sport turlarida o‘zini-o‘zi muhofaza qilish reflekslarini shakllantirish strategiyasi murakkab psixologik-pedagogik muvofiqlikni talab etadi. Bu strategiya shaxsiy resurslarni safarbar etish, tashqi xavflarni ichki nazorat vositalariga aylantirish, shuningdek, emotsional muvozanatni saqlash orqali sportchining nafaqat xavfsizligini, balki faoliyatdagi maksimal natijadorligini ham ta’minlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, yuqori xavfli sport turlarida ishtirok etuvchi sportchilar uchun o‘zini-o‘zi muhofaza qilish reflekslari nafaqat tabiiy psixomotor javoblar majmuasi, balki ongli, reflektiv va ijtimoiy kontekstda shakllanuvchi murakkab psixologik tizimdir. Bunday reflekslar sportchining stressga chidamliligi, emotsional boshqaruv darajasi, o‘z-o‘zini anglash qobiliyati, shaxsiy refleksiya ko‘nikmasi va psixologik tayyorgarlik bosqichlaridan o‘z vaqtida o‘tganlik holatiga bog‘liq. Shuningdek, reflekslar faqat individual tayyorgarlik mahsuli bo‘lib qolmay, balki psixopedagogik yondashuvlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit va sportchi-murabbiy o‘rtasidagi ijobiy psixologik aloqalarning natijasidir.

Tavsiyalar

1. Sportchilar psixologik tayyorgarlik tizimiga reflektiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlarini muntazam kiritish tavsiya etiladi. Bunga simulyatsion vaziyatlar, stressga qarshi mashqlar va muqobil qaror qabul qilish usullari kiradi.
2. Murabbiylar va psixologlar tomonidan individual emotsional boshqaruvni rivojlantiruvchi metodikalar (vizualizatsiya, nafasni boshqarish, emotsional razryad)ni qo‘llash sportchilarning reflektor barqarorligini oshiradi.
3. Yuqori xavfli sport turlarida ishtirok etuvchi sportchilarda xavfsizlik reflekslarini shakllantirishda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (jamoadoshlar, murabbiy, ota-onalar) tizimini mustahkamlash ijobiy psixologik fonni ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi.
4. Pedagogik mashg‘ulotlarda ekstremal vaziyatlarda muvozanatni saqlash bo‘yicha psixopedagogik yondashuvlarni — ya’ni, stressga chidamlilik va holatga javob qaytarish mashqlarini kompleks tarzda tatbiq etish zarur.
5. Sport ta’limi muassasalarida xavfli sport turlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlar uchun reflektiv trening va xavfsizlikni ongli idrok etish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Селье Г. Стресс без дистресса. – М.: Прогресс, 1982. – 123 с.
2. Лазарус Р., Фолкман С. Стресс, оценка и преодоление: как справляться с жизненными трудностями. – СПб.: Питер, 2000. – 296 с.
3. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997. – 604 p.

4. Vodopyanova N.E. Psixologiya stressa i metody ego preodoleniya. – SPb.: Rech', 2009. – 224 s.
5. Heckhausen H. Motivation und Handeln. – Berlin: Springer, 2006. – 511 S.
6. Choshanov M.A. Pedagogicheskie texnologii: innovatsionniy podxod. – Moskva: Akademiya, 2002. – 280 s.
7. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2006. – 256 s.
8. Goziyev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 368 b.
9. Shoumarov G'.B. Ekstremal holatlarda psixologik bardoshlilik. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. – 172 b.
10. Martens R. Coaches Guide to Sport Psychology. – Champaign, IL: Human Kinetics, 1987. – 310 p.
11. Hardy L., Jones G., Gould D. Understanding Psychological Preparation for Sport. – London: Wiley-Blackwell, 1996. – 254 p.

Ergasheva Sayyora
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASASI RAHBARIDA BOSHQARUV MALAKALARI NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasasini rahbarida boshqaruv malakalari namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Shuningdek, maqolada ta’lim muassasasi rahbarlarining bugungi kundagi faoliyati mazmun-mohiyati, uni samarali tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma’lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, umumiy o‘rta ta’lim, maktab, rahbar, lavozim, jamoa, boshqaruv, faoliyat, samaradorlik.*

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У РУКОВОДИТЕЛЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассмотрены особенности проявления управленческих компетенций у руководителя общеобразовательного учреждения среднего профессионального образования. В нем говорилось о теоретических и практических аспектах данной проблемы, научно-исследовательской работе, проведенной учеными нашей страны. Также в статье подробно описывается содержание сегодняшней деятельности руководителей образовательного учреждения, особенности ее эффективной организации.*

Ключевые слова: *общество, общее среднее образование, школа, руководитель, должность, коллектив, управление, деятельность, эффективность.*

THE PECULIARITIES OF THE MANIFESTATION OF MANAGERIAL COMPETENCE IN THE HEAD OF A GENERAL EDUCATION INSTITUTION

Annotation. *The article examines the peculiarities of the manifestation of managerial competencies in the head of a general education institution of secondary vocational education. It talked about the theoretical and practical aspects of this problem, as well as the research work carried out by scientists from our country. The article also describes in detail the content of the current activities of the heads of the educational institution, the features of its effective organization.*

Key words: *society, general secondary education, school, supervisor, position, team, management, activity, efficiency.*

Kirish. Jonajon Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng uning siyosiy maqomi o‘zgarib, mamlakat uchun o‘ziga xos taraqqiyot va rivojlanish yo‘li tanlandi. Tabiiyki, bu jarayonda ko‘p hollarda jamiyatni boshqarishda kadrlarga bo‘lgan eskicha yondashuv tamoyillari, ma’muriy boshqaruv usullari yangi jamiyat qurish talablariga javob berolmay qoldi. Mana shuning uchun ham o‘tgan davrda davlatimizning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi barcha bo‘g‘inlari, davlat boshqaruvining tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Eng asosiysi, mamlakat Prezidenti va hukumatining bugungi kun talablariga javob bera oladigan rahbarlarni tayyorlash masalasiga katta e’tibor berayotganligi natijasida boshqaruv mahkamalari yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimli va yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan rahbar xodimlar bilan ta’minlanib borilayotganligi quvonarli holdir.

Tabiiyki, bugungi globallashuv, kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir vaqtda, biz ham mustaqil vatanimiz uchun shunga munosib, yuksak salohiyatga ega bo‘lgan rahbarlar tayyorlash choralarini ko‘rib borishimiz, yangicha fikrlaydigan, har jihatdan yetuk,

tashabbuskor, el-yurt kelajagiga befarq bo‘lmagan boshqaruv xodimlari zaxirasini yaratishga jiddiy e’tibor berishimizni davrning o‘zi talab qilmoqda. Zero, yurtimiz ravnaqi, uning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va xalqimiz turmush darajasining yuqori bo‘lishi ko‘p jihatdan ana shu rahbar kadrlarga bog‘liq bo‘lib, qachonki ular har jihatdan namuna bo‘lsa, odamlarni ishontira olsa, qiyin damlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilsa, harakatchan va shijoatli, bilimdon, hayot bilan hamqadam yuradigan bo‘lsa, jamiyatimiz yanada yaxshiroq rivojlanadi.

Mavzuning o‘rganilganligi. Pedagogik jamoalarda liderlik va boshqaruv masalalarini psixologik jihatdan o‘rganish rus psixologlari YE.M.Dubovskaya, A.A.Rusalinova, T.M.Sheglova, T.L.Kryukova, N.M.Komarova, T.V.Bendas, S.V.Solovyov, mamlakatimizda esa E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, O.E.Hayitov, D.G.Muxamedova, L.S.Beknazarova, Sh.Azizova, S.Bobojonova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Mualliflar tomonidan boshqaruv faoliyatining psixologik tavsifi, rahbar kadrlarni tanlash, ularni tarbiyalash va lavozimlarga joylashtirish, inson psixikasiga lavozim taqozo qiluvchi talablar, kasbga yo‘naltirish va kasb motivatsiyasining psixologik jabhalari, jamoaviy psixikani shakllantirish yo‘llari, jamoadagi ijtimoiy psixologik muhit va uni ta’minlash, ahil, jips va ishchan ijtimoiy ruhiy jamoani yaratish va boshqa masalalar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Mamlakatimiz psixologlari Sh.Azizova va S.Bobojonovalar o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida ta’lim muassasasi rahbarining faoliyati va uning oldiga qo‘yiladigan talablarni o‘rganganlar. Mualliflar rahbar faoliyatida tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatlarining ahamiyatini ko‘rsatib, amal kursisiga o‘tiradigan har qanday shaxs birinchi galda o‘zida tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishi zarur ekanligini ta’kidlaydi[2; 66]. Bunday sifatlarga ega bo‘lgan har bir rahbar jamoani o‘z ortidan samarali ergashtira olishi, aksincha tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatlariga ega bo‘lmagan rahbarlar muassasa ravnaqiga muayyan darajada zarar keltirishi, jamoada rahbarning nufuzi pasayib va qadr-qiymatining yo‘qolishiga olib kelishini bildiradilar. Rahbar pedagogik jamoaning o‘z shaxsiga bo‘lgan talablarini qondirishi uchun, avvalo, o‘zining ijobiy va salbiy xususiyatlarini tahlil eta olishi lozim. Mualliflar tomonidan rahbar o‘z xodimlariga yaqinlashishi, empatik bo‘lishi, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilarning kayfiyatlari, shaxsiy holatlarini inobatga olishi, psixoanalitik bo‘lishi, ya’ni o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy nuqtai-nazardan yondasha olishi, turli xil stress holatlarga bardoshli bo‘lishi va o‘z hissiyotlarini boshqara bilishi, notiqlik san’atidan xabardor va, eng avvalo, istarali, samimiy bo‘lishi zarur ekanligi e’tirof etiladi.

A.M.Shonazarov tadqiqotlarida «Maktab direktorlarini lavozimga tayinlashda e’tibor qaratiladigan ijtimoiy-psixologik kompetentlikning komponentlari ichida kognitiv va ijtimoiy komponent ustuvor xarakterga egaligi, rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi ko‘proq hollarda shaxslararo munosabatlarda shaxsga ta’sir eta olish malakasida namoyon bo‘lishi, rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasini namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarning aksariyati tashqi ta’sirlar bilan bog‘lab izohlanganligi aniqlandi. Ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi rahbarlarning ijtimoiy psixologik kompetentligini rivojlantirishda uning affektiv, refleksiv, ijtimoiy-kognitiv komponentlarini rivojlantirishga psixotexnologiyalar asosida kompleks hamda uzluksiz yondashuv samarali hisoblanadi» [6; 152], – degan ilmiy xulosaga keladi.

K.S.Aliyeva «umumta’lim muassasalari rahbar xodimlari menejerlik sifatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berish hamda mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish» maqsadida olib borilgan tadqiqot ishida quyidagi ilmiy yangiliklar qo‘lga kiritilgan. Jumladan, «umumta’lim muassasalari rahbar xodimlari faoliyatida «hamkorlik» pozitsiyasining differensial namoyon bo‘lishi real «Men»da «agressiya», «yuqori konformlik»ni o‘ziga beradigan bahosiga bog‘liq ravishda transformatsiyalashuvi tufayli menejerlikning interpersonal shaxs xususiyati sifatida rivojlanishiga to‘g‘ri proporsional yekanligi dalillangan; umumta’lim muassasalari rahbar xodimlarida «intuitivlik» va «anglanganlik» sifatlarining rivojlaniganlik darajasi «funksional-rolli» va «rapport» muloqotda ijtimoiy-kognitiv xususiyatlarni integrativ namoyon bo‘lishi tufayli menejerning individual boshqaruv uslubini shakllanishiga identiv ekanligi asoslangan; umumta’lim muassasalari rahbar xodimlarida «demonstrativ» tipni differensial namoyon bo‘lishi muloqotda shaxsiy kutilmalarga asoslangan ustanovkalarning «Yego-subyektivizm»ga uyg‘un holda xulqga proyeksiyalanishi tufayli shaxsdagi nizolashuvchanlikning darajaviy ifodalanishiga bog‘liq

ekanligi isbotlangan; rahbar o‘rinbosarlarida menejerlik sifatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy persepsiya, motivatsion-emotsional, kognitiv-ijodiy sifatlarni real «Men»da namoyon bo‘lishini ta’minlash muhimligiga ko‘ra NLD (neyrolingvistik dasturlash)ning audio-vizual kontenti art-terapevtik ta’sir usullarini kiritish asosida takomillashtirilgan»[1; 121].

Natija va tahlillar: Biz ilmiy izlanishlarimizda umumiy o‘rta ta’lim maktabi rahbarlarining shaxs xususiyatlari va ularda boshqaruvchilik malakasining namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish maqsadida Liri–Sobchiklarning «Shaxslararo munosabatlar interpersonal diagnostikasi metodikasi» bilan respondentlarga murojaat qildik. UO‘TM lari boshqaruv kadrlarida interpersonal shaxs xususiyati sifatida boshqaruvchilik namoyon bo‘lish darajasining ayrim individual-tipologik xususiyatlarga bog‘liqligini (1-jadvalga qarang) tahlil qilganimizda ishonchli tafovutlar mavjudligini, ya’ni «hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan» oktant ko‘rsatkichi va boshqaruv darajasi ko‘rsatgichlari o‘rtasida ishonch darajasidagi farq mavjudligini kuzatish mumkin (H=21,88; p<0,001). Jadvaldagi raqamlarga qaraganda, respondentlarning yetakchiligi, hukmronligi qanchalik yuqori bo‘lsa, boshqaruv darajasini his qilish shunchalik pasayishi kuzatilar ekan.

1-jadval

UO‘TM lari boshqaruv kadrlari o‘rtasida lavozimni his qilish darajasining interpersonal shaxs xususiyati ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi

(Kruskal-Uollis N-mezoni)

№	Oktantlar qutblanishi	O‘rtacha ranglar			N	p
		1-daraja BK lar (n=81)	2-daraja BK lar (n=173)	3-daraja BK lar (n=289)		
1	Hukmini yurgizadigan –yetak-chilik (peshqadam) qiladigan	1517,11	1187,40	1532,79	21,88	0.000**
2	Erki o‘zida (mustaqil) bo‘lgan – ustun bo‘lgan	1452,12	1322,19	1349,03	3,63	0,040*
3	Dangal (rostgo‘y) – tajovuz-kor	1484,42	1187,53	1681,18	57,06	0.000**
4	Badgumon (birovga ishon-maydigan) – harnarsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan	1339,57	1353,51	1352,66	3,33	0,042*
5	Ko‘ngilchan – tortinchoq	1550,52	1363,08	1383,14	3,82	0,215
6	Tobe – itoatkor mo‘minqobil)	1424,28	1157,83	1608,18	56,07	0.000**
7	Hamkor – kelishuvchan	1522,41	1229,31	1493,31	6,33	0,994
8	Ma’suliyatli – olijanob (fe’li keng)	1397,35	1530,35	1526,36	0,47	0,778

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01

Boshqaruvning yuqori va o‘ta yuqori darajasi taxminan 2-darajali boshqaruv lavozimlari (direktorning «o‘quv ishlari», «o‘quv-tarbiyaviy ishlar», «ma’naviy-ma’rifiy ishlar», «xo‘jalik ishlar» bo‘yicha o‘rinbosari, uslubiy birlashma rahbari, yoshlar yetakchisi)ga tayinlangan va (yoki) saylanganda ko‘proq sodir bo‘lishi mumkin. Quyi va yuqori darajalarda, ya’ni 3-darajali boshqaruv lavozimlari (o‘qituvchi, sinf rahbari va (yoki) tarbiyachi)da faoliyat yuritganda hamda 1-darajali boshqaruv lavozimlari (pedagogik kengash raisi, jamoat birlashmalari raisi)ga tayinlangan va (yoki) saylanganda boshqaruvni his etish darajalari kamroq foizni tashkil etishini shohidi bo‘lish mumkin. Respondentlarning o‘ziga nisbatan munosabatini tahlil qilish metodikasi asosida olingan natijalarga ko‘ra har uchala darajali boshqaruv kadrlari o‘rtasida «hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam)

qiladigan» (H=21,88; p<0,001), «dangal (rostgo‘y) – tajovuzkor» (H=57,06; p<0,001) va «tobe – itoatkor (mo‘minqobil)» (H=57,06; p<0,001) oktantlarida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi.

Aniqlanilishicha «hukmini yurgizadigan – yetakchilik (peshqadam) qiladigan» oktanti bo‘yicha aynan 2-darajali boshqaruv kadr (masalan, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosar)larida ustunlikni yaqqol ko‘rish mumkin. Bu ulardagi o‘ziga ishonch, yaxshi maslahatchilik, peshqadam va tashkilotchi bo‘la olish malakasi, hamda yetakchilik sifatlarini aniqlaydi. Shuningdek, ularda tanqidga toqatsizlik, o‘z imkoniyatlarini ortiqcha baholash, fikrlashning diktat usulli, boshqalarga buyruq berishga imperativ ehtiyoj mavjudligi ham kuzatiladi. 3-darajali boshqaruv kadrlari sanalgan «o‘qituvchilar»da esa aksincha mazkur oktant bo‘yicha quyi natijani guvohi bo‘lish mumkin.

«Erki o‘zida (mustaqil) bo‘lgan – ustun bo‘lgan» (H=3,63; p<0,005) va «badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan» (H=3,33; p<0,005) oktantlarida ham sezilarli ijobiy tafovutlarni kuzatishimiz mumkin. Bunda yana «o‘quv ishlari» bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarida har ikkala oktant bo‘yicha ustunlikni ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni «erki o‘zida (mustaqil) bo‘lgan – ustun bo‘lgan» oktantida ulardagi shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidagi o‘zboshimchalik, atrofdagilardan ustunlik hissi ifodalangan, ko‘pchilik fikrlardan farqli ravishda o‘z fikriga egalik an’anasi va guruhda ajratilgan pozitsiyaga egalik uslublargacha bo‘lgan jarayonni ifoda etadi.

Shuningdek, navbatdagi «badgumon (birovga ishonmaydigan) – har narsaga shubha (ishonchsizlik) bilan qaraydigan» oktantda ham biroz farq borligi aniqlangan va bunda ustunlik yana bir bor «o‘quv ishlari» bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari tomonida ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, fikrlash, faoliyat ko‘lamiga ko‘ra 2-darajali boshqaruv kadrlari o‘ta realist, shubhalanuvchan va oqimga qarshi turuvchi «nonkonformist», ginachi va 1-, 3-darajali boshqaruv kadrlarga nisbatan ishonchsiz munosabatni ko‘rsatishadi hamda noo‘rin tanqidchi sanalishadi.

«Hamkor – kelishuvchan» oktantidagi tafovutda aynan 3-darajadagi boshqaruv kadrlar, ya’ni «o‘qituvchilar», «sinf rahbarlari va (yoki) tarbiyachilar»dagi ustunlikni kuzatishimiz mumkin. Mazkur oktantga ko‘ra yuqori bo‘g‘in boshqaruv kadrlarning qo‘llab-quvvatlovi va ishonchiga bo‘lgan yuqori darajadagi ichki ehtiyoj oqim bo‘ylab yurishni xush ko‘rish («konformlik»), rahbar va boshqaruv kadrlar fikriga to‘la bog‘liqlik borligini tavsiflaydi.

«Tobe – itoatkor (mo‘minqobil)», «ma’suliyatli – olijanob (fe’li keng)» oktantlarida tafovutlar kuzatilmadi. Bu har uchala boshqaruv kadrlarning mazkur oktantlar doirasida o‘xshashlik xususiyatlari borligini namoyon etadi. Masalan «tobe – itoatkor (mo‘minqobil)» oktanti bo‘yicha shaxslararo munosabatlardagi kamtarlik, tortinchoqlik, o‘zgalar mas’uliyatini o‘z zimmasiga olish, shuningdek, o‘ta itoatkorlik va aybdorlik tuyg‘usini aks ettiradi. Mazkur shaxs sifati boshqaruv kadrlar shaxsiga xos sanalmaydi. Ayniqsa, 2-darajali boshqaruv kadrlar (direktor o‘rinbosarlari)da mazkur sifatning namoyon bo‘lishi UO‘TM larning boshqaruv tizimiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlash zarur (5-jadvalga qarang).

Umuman olganda, UO‘TM lari o‘qituvchilari va sinf rahbarlaridan tashkil topgan 3-darajadagi boshqaruv kadrlari faoliyatida «hamkorlik» pozitsiyasining differensial namoyon bo‘lishi, ularda «tashkilotchilik», «jamoada ishlash», «vaqtni boshqarish», «tanqidiy fikrlash», «ijodkorlik» kabi komponentlarni o‘zida mujassamlagan «self – development» formulasidagi shaxsiy yuksalishni kechiktiradi hamda «moslashuvchanlik»ni oshib ketishiga sabab bo‘ladi. UO‘TM larida faoliyat ko‘rsatatgan 1-darajali boshqaruvdagi erkak kadrlar (direktorlar)da o‘ziga yo‘nalganlikning 3-darajali boshqaruv kadrlar (o‘qituvchilar)ga nisbatan yuqoriligi, ulardagi o‘z ustida ishlash orqali professional muvaffaqiyatga erishish motivining balandligi, doimiy mehnat faoliyatiga bandlik natijasida faqat yuqoriga intilish istagining qadriyatlar sohasida «samaradorlik»ning ustunlik kasb etayotganligi bilan ham izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Aliyeva K.S. Umumta’lim muassasalari rahbar xodimlari menejerlik sifatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDPU, 2023. – 121 b.

2. Yoziyev E.S. Boshqaruv psixologiyasi // O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: “Fan va ta’lim”, 2021. – 388 b.
3. Karimova V., va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. –T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y. -208 b.
4. Hayitov O.Ye. Oliq ta’lim muassasasi o‘rta bo‘g‘in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: Psixol. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDPU, 2020. – 250 b.
5. G‘oziyev E.,Toshimov R. Menejment psixologiyasi. -T: O‘zMU,2001.- 144 b.
6. Shonazarov A.M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirish: Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDPU, 2022. – 142 b.

UDK: (UO‘K 301.085:15(021)

Fayziyeva Mavluda Xudayarovna
Qarshi davlat universiteti professori,
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

PSIXOLOGIK HIMOYANING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya *Maqolada shaxsda psixologik ximoya mexanzmi shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari xususidagi fikrlar bayon etilgan. Unda eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining turli yo‘nalishlarda o‘zgarishiga olib kelishi tahlillar orqali ifodalangan.*

Kalit so‘zlar *: psixologik himoya, diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklari, himoya tizimining umumiy kuchlanishi, psixologik himoya, koping xulq-atvor.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация*. В статье представлены взгляды на анализ программной эффективности формирования конструктивного механизма психологической защиты. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты, побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.*

Ключевые слова*: конструктивная психология, диагностические, теоретические и организованные экспериментальные блоки, анкета Плутчика - Келермана-Конте, общая напряженность защитной системы, психологическая защита, компенсаторное поведение.*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION

Abstract *This article presents the views on the analysis of software effectiveness of the formation of a constructive psychological defense mechanism. In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.*

Key words *and concepts: constructive psychology, diagnostic, theoretical and organized experimental blocks, Plutchik-Kelerman-Conte survey, overall voltage of the protective system, psychological protection, coping behavior.*

Kirish Psixologik himoya hodisasi psixologiya fanida eng munozarali hodisalardan biridir. Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishini belgilaydigan psixologik himoyaning roli haqida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bir qator mualliflar psixologik himoya tushunchasini moslashishning yetarli bo‘lmagan usullarini, shaxsning atrof-muhit bilan real aloqasini susaytiruvchi, uning rivojlanishini qashshoqlashtiruvchi va deviant xulq-atvor shakllanishiga yordam beruvchi patologik kommunikatsiyalar sifatida baholaydilar. Boshqalar “Men” -shaxsining ijobiy tasvirini saqlab qolish uchun himoyani qo‘llash zaruriyatini, asabiylashish vaziyatini boshdan kechirish, dezorganizatsion xulq-atvorning oldini olish uchun zarur imkoniyatlar sifatida baholaganlar.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi va buning natijasida ma’lum bir ziddiyatlarning yuzaga kelishi ham sir emas.Bunday ziddiyatlarning mavjudligi shaxsni psixologik himoya qilishning turli yo‘nalishlarini yuzaga keltiradi. Ulardan biri psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv faoliyatini ta’minlash shart-sharoitlari, mezonlari va xususiyatlarini

aniqlashni maqsad qiladi. Bu ulardan foydalanish samaradorligi muammosini oydinlashtirishga yordam beradi bu esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir..

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki,psixolog olimlarimiz tomonidan talabalarda psixologik himoya mexanizmining ijtimoiy jixatlari yetarli o‘rganilmagan.

Shaxsni psixologik himoya qilish faoliyati uning maxsus mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Psixologik himoya mexanizmlari ostida "kelib tushadigan axborotlarni ongli ravishda qayta ishlash hisobidan shaxsning intrapsixik moslashuv jarayonlari" yuzaga keladi, deb tushunish mumkin. Bu operatsiyalarda barcha ruhiy jarayonlar va funksiyalar ishtirok etadi: his-tuyg‘ular, fikrlash, tasavvur, diqqat, xotira, idrok. Psixik shikastlanish vaziyatida himoya mexanizmlari axborot filtrlari sifatida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi; axborotni tartibsizlashtirish yoki rad etish yoki buzib tashlash yoki boshqa bir ma’qulrog‘i bilan almashtirish tarzida ifodalanadi. Holatning bunday ichki o‘zgarishi atrofdagi voqelikka moslashuvning maxsus shakliga (himoya mexanizmiga) sabab bo‘ladi.

Eksperimental tadqiqotlar, psixologik himoya tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari turli shaxslar uchun bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ba’zilarda himoya zaif bo‘ladi va kerakli narsalardan himoya qilmaydi, boshqalarda esa shaxsni rivoj topishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni idrok etmaydigan darajada shunchalik intensiv himoya shakllanadi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.

Yuqorida aytib o‘tilganlar profilaktik funksiyalarni va jamiyatda shaxsning buzilishiga olib keladigan patologik himoyani bajaradigan normal, doimiy harakatlanadigan zaruriyatni farqlash talab qilinadi. Himoya mexanizmlarini normal va patologik tasniflashga urinishlar zamonaviy psixologiyada tasvirlangan (I.M. Granovskaya, G.V. Grachev, L.R. Grebennikov, YE.L. Dotsenko, B.V. Zeygarnik, V.G. Kamenskaya, F. Kramer, V.F. Morgun, I.M. Nikolskaya, YE.S. Romanova, R. Plutchik, A. Freud, T.S.). Ushbu tadqiqotlarda psixologik himoyani tasniflash uchun turli yondashuvlar qo‘llaniladi: 1. Klinik-neyropsixik buzilishlarning yetakchi belgilariga asoslangan; 2. Ontogenetik-alohida himoya turlari shakllanishining vaqtiga asoslangan; 3. Evolutsion-emotsional- moslashuv tabiatiga ega bo‘lgan alohida asosiy his-tuyg‘ularni nazorat qilish tamoyiliga asoslangan. Birinchi yondashuv patopsixologiyada, tibbiyotda va psixiatriyada keng qo‘llaniladi. Ikkinchisi 4dan 36gacha bo‘lgan ibtidoiy (bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida birinchi bo‘lib shakllangan va namoyon bo‘lgan) va undan yuqori (rivojlanish jarayonida ibtidoiy o‘zgartiriladi)ga ajratiladi. Uchinchi yondashuv R. Plutchik tomonidan ilgari surilgan hissiyotlarning psixoevolutsion nazariyasiga asoslangan. Birinchi marta himoya mexanizmlarining tasnifi A. Freydning monografiyasida berilgan

Muallif quyidagi mezonlarni taklif qiladi: "men" tahdidining lokalizatsiyasi, ontogenezda shakllanish vaqti. Bundan tashqari, A. Freyd rivojlanish jarayonlarining normalligi muayyan himoya jarayonlari va tendensiyalarning hukmronligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. Agar shaxs bir himoya usulini qunt bilan qo‘llasa va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlar ham shu himoyaga asoslansa, bu hodisani meyoriymi yoki patologik, qay darajada ko‘rib chiqilishini aniqlash qiyin. Keyinchalik, so‘ngi mezon psixologik himoya mexanizmlarining zamonaviy bo‘linmalarida birlamchi va ikkilamchi, ibtidoiy va rivojlangan, adaptiv va moslanmaydigan, yetarli va kam, samarali va samarasiz bo‘lgan holda ishlatilgan.

Psixologik himoya mexanizmlarining asabiylashish sharoitida namoyon bo‘lishini M.A. Mkrtchyan ko‘rib chiqqan Shaxs bunday vaziyatlarda hech qanday yagona ajratilgan mexanizm bilan emas, balki ulardan biri yetakchi va strukturaviy rol o‘ynaydigan himoya reaksiyalari butun majmuasi bilan reaksiyaga kirishadi. Himoya majmualarining shakllanishiga shaxsning o‘tmish tajribasi, uning qadriyatlari va munosabatlari ta’sir etadi. Muallif himoya mexanizmlarini ikki asosiy guruhga ajratadi: faol va sust ko‘rinishlarga. Faol himoyalar frustratorni, nizoli vaziyatni bevosita hujumni bartaraf etish orqali nizolarni bartaraf etishga olib keladi. Sust himoya reaksiyalari to‘siqlarni bartaraf etish orqali ziddiyatni bartaraf etishga olib keladi. Shaxsning yoshga oid rivojlanish bosqichida intrapersonal himoya mexanizmlarining tobeligiga asoslanib, bilim jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini R. Plutchik primitivlik-yetuklik mezoniga ko‘ra himoya tasnifini tuzadi. Ontogenetik jihatdan dastlabki himoyalar perseptual jarayonlarga asoslangan holda paydo bo‘ladi: diqqat, sezgilar, idrok, ularni faoliyatda ko‘rmaslik, axborotni rad etish bilan bog‘liq. Bu guruhga R. Plutchik rad etishni, loyihalashni,

orqaga qaytishni va ularning analoglarini tegishli, deb hisoblaydi. Mazkur himoyalar eng ibtidoiy, va ulardan foydalanadigan odam esa hissiy va chala shakllangan shaxs sifatida ifodalanadi. Keyinchalik, xotira jarayonlariga asoslangan himoyalar paydo bo‘ladi: o‘rnini egallash va o‘rnini almashtirish. Ushbu mexanizmlarning ta’siri axborotni unutishga asoslangan. Eng murakkab va yetuk himoyalarga o‘rnini almashtirish, kompensatsiya va ratsionalizatorlik kiradi. Ular tasavvur va fikrlashning rivojlanishi hajmiga ko‘ra shakllanadi va axborotni himoyali qayta ishlash va qayta baholashga yordam beradi. Biz sakkizta asosiy himoya mexanizmlarining konstruktivlik darajasini belgilaydigan va ularning ishlash xususiyatlarini ko‘rsatadigan holda tasvirlaymiz.

Inkor etish - dastlabki ontogenetik va eng ibtidoiy himoya mexanizmidir. Voqelikdagi narsa va hodisalar idrok qilinayotgan vaqtda axborot filtri faoliyat ko‘rsatadi. Shaxsning tasavvur mazmuni va dunyoqarashiga qarama-qarshilik qiladigan ma’lumotlar qabul qilinmaydi. Inkor etish mavjud voqelikni infantil almashtirishni nazarda tutadi va har qanday salbiy jihatlar bloklanadi va ijobiy tizimga ruxsat etiladi. Natijada, shaxs travmatik vaziyatni bosqichma-bosqich boshdan kechirish imkoniga ega bo‘ladi. Yangi sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo‘lib, konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Jadval 1

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari	Inkor etish	Loyihalashtirish	Orqaga qaytish	O‘rin almashtirish	Siqib chiqarish	Ratsionalizatsiya	Kompensatsiya	Giperkompensatsiya
Yetakchi bilim jarayoni	O‘zlashtirish	O‘zlashtirish	Xotira	Fikrlash	Xotira	Fikrlash	Fikrlash	Fikrlash
Kechirgan his-tuyg‘ular	Rad etish	Yoqimsizlik	Jur’atsizlik	G‘azab	Qo‘rquv	Xavfsizlik	G‘am, qayg‘u, xorlik	G‘am, qayg‘u, xorlik
Moslashish tabiati	Sust	Faol	Faol	Aralash	Sust	Sust	Tobe emas	Tobe emas
Konstruk-tivlik darajasi	Quyi	Sust	Quyi	O‘rta	O‘rta	Yuqori	Yuqori	Yuqori

Loyihalashtirish - psixologik himoya shakli bo‘lib, bu tushuncha dastlab Z.Freyd tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Loyihalashtirishning funksiyasi subyekt tomonidan uning shaxsiy fikrlari, kechinmalari, siqib chiqarilgan motivlari va xarakter xislatlarini o‘zi anglagan va anglamagan holda boshqa odamlarga ko‘chirilishida namoyon bo‘ladi. Ba’zan o‘z qilmishlari uchun javobgarlikni o‘tkazish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda atributiv loyihalashni ham farqlaydilar (o‘z salbiy sifatlarini ongsiz rad etish va ularni atrofdagilarga tarqatish); ratsionalistik o‘ziga tegishli fazilatlarni anglash va ("hamma shunday qiladi" formulasiga ko‘ra loyihalash); xushomadgo‘y (o‘zgalarning haqiqiy yoki xayoliy kamchiliklarini yaxshi fazilatlar sifatida talqin qilish); similyativ (kamchiliklarni o‘xshashlik bilan moslashtirish, masalan, ota – bola). Ushbu mexanizm ijtimoiy moslashishning faol turiga ega bo‘lgan shaxslar uchun xosdir. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Orqaga qaytish – Zigmund Freyd nazariyasi bo‘yicha psixologik himoya mexanizmlaridan biri bo‘lib, inson tahlikali holatlarda odatda bolaligida o‘zlashtirgan xulq-atvor shakllariga murojaat etadi. Orqaga qaytish inqiroz, tanazzul, chekinish ma’nolarini ham ifodalaydi, rivojlanishning ancha oldingi darajalariga qaytish. Har bir katta yoshdagi kishi hatto juda yaxshi moslashib olgan bo‘lsada, “yengil tortib olish” uchun vaqti-vaqti bilan himoyalanishning bu usuliga qaytib turadi (bolaligida odatlangan

ish-harakatlarini takrorlaydi). Orqaga qaytish ko‘proq xulq-atvorning va qoniqishning yetilmagan usullariga qaytishni taxmin qiladi. Regressiv xulq odatda bolaning infantilizatsiyasi va hissiy simbioziga munosabatda bo‘lgan kattalar tomonidan rag‘batlantiriladi. Orqaga qaytish- ijobiy o‘z-o‘zini his qilish uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan va tajovuzkorga bevosita tobelikka tushib qolish xavfi bo‘lgan qo‘rquv hissini jilovlash uchun ishlatiladi. Qo‘rquv haqiqiy rag‘batni, shuningdek, u bilan bog‘liq barcha narsalar, faktlar va holatlarni unutish bilan bloklanadi. Mexanizm moslashuvning sust turiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘llaniladi. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

O‘rin almashtirish - g‘azab tuyg‘usini jilovlash uchun amal qiladi. Shaxs ko‘proq zaifroq jonli yoki jonsiz obyektga yoki o‘ziga tajovuz qilinganligiga e’tibor bergan holda keskinlikni yo‘qotadi. O‘rin almashtirish ham faol va ham sust shakllarga ega bo‘lib, shaxslar tomonidan ularning ziddiyatli munosabat turlaridan va ijtimoiy moslashishidan qat’iy nazar shaxs munosabatlarida foydalaniladi. Mazkur mexanizm faol moslashish turiga ega bo‘lgan shaxslar uchun xosdir. Bu holatda konstruktivlikning o‘rtacha darajasi namoyon bo‘ladi.

O‘rnini egallash (siqib chiqarish) – bu psixologik himoya mexanizmini dastlab Zigmund Freyd o‘rganib chiqqan (uning analoglari "bostirish"). Vahima yoki vasvasaga qarshi tura olmaydigan har bir kishida siqib chiqarish "o‘zini" himoya qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda," repressiya " - bu shaxs uchun qabul qilinadigan impulslar: istak, fikr, tashvish uyg‘otadigan his-tuyg‘ular ongsiz namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmi hisoblanadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu mexanizm shaxsning boshqa himoya mexanizmlarining harakati ta’sirida ham namoyon bo‘ladi. Xulq-atvorda hali shakllanmay, repressiya qilingan (tushkunlikka tushgan) impulslar, ularning hissiy va psixovegetativ qismlarini saqlab qolishadi. Misol uchun, psixotravmatik vaziyatning mazmunli tomoni tushunilmaydigan odatiy holat bo‘lib, inson har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlarning amalga oshishini bekor qiladi, ammo intrapsixikada mojaro davom etadi va uning oqibatida paydo bo‘lgan hissiy tanglik subyektiv ravishda tashqi ko‘rinishdagi tashvish sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun yuzaga kelgan istaklar nevrologik va psixofiziologik alomatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Yuzaga kelgan sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo‘lib, konstruktivlikning o‘rta darajasi ifodalanadi.

Ratsionalizatorlik - stressli holatlarda yuzaga keladigan psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda yaqinlashib kelayotgan salbiy hodisa har tomonlama tahlil qilinadi, uning noaniqlik darajasi pasaytiriladi, hodisaning ichiga kirib, unga oldindan moslashib boriladi, kutilmaganlik (to‘satdanlik) effekti bartaraf qilinadi. Muammoning yechimiga erishish oqilona tashkil etiladi. Bu mexanizm, moslashuvning sust turiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘llaniladi. Konstruktivlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Kompensatsiya - psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda, ruhiy yoki jismoniy funksiyalarni maqsadga muvofiq rivojlantirish hisobiga adekvatlik hissining kechinilishi ro‘y beradi. Kompensatsiya insonning muayyan sohadagi biror bir kamchiligi, nuqsoni yoki ojiz tomonini boshqa sohalarda o‘zini namoyon qilish orqali berkitishga harakat qilishidir. Ushbu psixologik himoya mexanizmi ontogenetik jihatdan eng so‘nggi va kognitiv jihatdan murakkab mudofaa mexanizmidir. Haqiqiy yoki xayoliy yo‘qotish, yetishmovchilik va xorlik sababli g‘am va qayg‘u kabi his-tuyg‘ularni jilovlash uchun mo‘ljallangan. Kompensatsiya-o‘rnini qoplamoq, o‘rnini to‘ldirmoq ma’nolarida kelib, bu kamchiliklarni tuzatish yoki yaxshi sifatlarga o‘rnini almashtirishga urinishni o‘z ichiga oladi.

Kompensatsiya klasteriga ideal darajadagi kompensatsiya deb tushunish mumkin bo‘lgan **giperkompensatsiya** mexanizmi ham kiradi. Giperkompensatsiya-haddan tashqari, oqilona yoki mahorat bilan o‘rnini qoplamoq, o‘rnini to‘ldirmoq ma’nolarini ifodalaydi. Mexanizmdan foydalanish ijtimoiy moslashuvning individual turiga bog‘liq emas. Konstruktivlikning yuqori darajasi amal qiladi.

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo‘yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi.

Psixologik tadqiqotimizning diagnostik natijalarini muhokama qilishning navbatdagi bosqichiga o‘tamiz. Ikkinchi jadvalda taqdim etilgan psixologik himoya mexanizmlarining talabalar guruhlaridagi sezilarli farqlarini tahlil qilish Styudent mezoni yordamida amalga oshirildi.

Jadval 2


1-kurs talabalarini psixologik himoya qilish mexanizmlarining keskinligini taqqoslash Tg-1 va Ng-1 o‘zaro ta’sirdan keyin

Psixologik himoya mexanizmlari	Tg-1kursda psi-xo-logik himoya mexaniz-mlarining kuchlanishi (%)	Ng-1kursda psix-ologik himoya mex-anizmlarining kuchlanishi(%)	t< P
O‘rnini egallash	38	50	2,12
Orqaga qaytish	43	54	2,55
O‘rin almashtirish	41	46	2,01
Rad etish	44	60	2,15
Loyihalashtirish	56	60	2,02
Kompensatsiya	69	60	2,80*
Giperkompensatsiya	42	33	2,78*
Ratsionalizatsiya	54	51	1,99
Psixologik himoya usullarining keskinligi	48	50	1,83

Izoh: 1,11-0,05 (2.04) darajasida muhim ahamiyatga ega.
1,11* - muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 0,01 (2.75).
t< P. - Styudent mezonining ahamiyatli ko‘rsatkichi.

Ibtidoiy himoya guruhida mexanizmlarning keskinligi statistik jihatdan sezilarli darajada kamayib bordi: "o‘rnini egallash" (farq-12%;), "orqaga qaytish "(farq-11%)," “rad etish" (farq-16%). Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari guruhida "kompensatsiya" (farq-9%), "giperkompensatsiya" (farq-9%) dan foydalanish chastotasining oshishi qayd etildi.

Ta’kidlash joizki, Tg-1 va Ng-1 talabalarida himoya mexanizmlarining umumiy keskinligi (PHUK) ning ko‘rsatkichlari statistik jihatdan sezilarli farq qilmaydi, ammo hosil qiluvchi o‘zaro ta’sir natijasida har ikki guruh subyektlarining qiyinchiliklarni bartaraf etishlari uchun sifat jihatidan turli mexanizmlar ko‘rsatkichlari farqlandi (1-rasm).




1-rasm. 1-kurs psixologiya yo‘nalishi talabalarining tajriba guruhida koping xulq-atvor strategiyasini taqsimlanishi.

Talabalarning koping xulq-atvor xatti-harakatlaridagi o‘rta guruh o‘zgarishi faqat "muammoni yechish" strategiyasini qo‘llashda (tajribagacha-73%, keyin-88%; farq-15%). Talabalarning qiyinchiliklarni yengib o‘tish yo‘llarini mustaqil izlashga bo‘lgan intilishlari kuchayib borgan.

"Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash" strategiyasiga amal qilish intensivligi (tajribagacha -60%, keyin-60%), "qochish" mexanizmidan foydalanish (tajribagacha -58%, keyin-58%) o‘zgargani yo‘q.

O‘z-o‘zini anglashning xususiyatlari va psixologik himoya tizimining samaradorligi mezonlari sifatida ifodalangan "baholash", "kuch", "faoliyat" omillari o‘rganilganda, tajriba-tadqiqot ishlari natijalarida o‘zgarishlar yuz berdi (2-rasm).



2-rasm. Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalarida (Tg-1da) o‘z-o‘zini anglash xususiyatlarining ifodalanish ko‘rsatkichlari.

"Baho" omilining guruhiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari (tajribagacha-43%, keyin-57%; farq-14%) sezilarli ortganligi kuzatildi (3-rasm), bu o‘z-o‘zidan ularning qobiliyatlari ijobiy namoyon bo‘lishiga ko‘ra, imkoniyatlari oshib borayotganligini ko‘rsatdi.

"Kuch" omilining qiymatlari ham sezilarli ortganligi aniqlandi (tajribagacha- 33%, keyin-43%, farq-10%), bu talabalar shaxsining irodaviy sifatlarini kuchayib borish nazoratini oshirishni, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga moyilligini ko‘rsatadi.

"Faollik" omili birinchi kurs talabalarida (tajribagacha- 10% gacha; keyin-24%; farq-14%) ancha yuqori baholanganligini ko‘rish mumkin, bu muammolarni hal qilishda qat’iylik, dadillik, jur’atlilik va tadbirkorlik sifatlari shakllanayotganligini ko‘rsatadi (3-rasm).

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarimizga tayanib quyidagi xulosalarga kelindi

- konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish bo‘yicha tajriba-eksperiment ishlari davomida birinchi kurs talabalarida psixologik himoya mexanizmlari va o‘zligini anglash strategiyalari munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

- psixologik himoyaning funksional jihatlarida umumiy zo‘riqish ko‘rsatkichi saqlanib qolsa-da, ibtidoiy himoya qiymatlarining pasayishi kuzatildi (o‘rnini egallash, orqaga qaytish, rad etish) va yuksak himoya mexanizmlari (kompensatsiya, giperkompensatsiya) kuchayganligi aniqlandi.

- Yuqoridagi o‘zgarish talabalarning maqsadga erishishlarida faol bo‘lishga, shaxs xususiyatlarining namunali va meyoriy namoyon bo‘lishini ta’minlashga imkon berdi.

- aniqlangan o‘zgarishlar talabalarni psixologik himoya tizimining samaradorligini oshirishga va ularning yangi faoliyat darajasiga osonlik bilan o‘tishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Мктрчян М.А. Проблема фрустрации и защитные механизмы личности: автореф. дис. … канд. психол. наук. – Ереван, 1975. – 26 с.
3. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. 448 с
4.Файзиева М. Шахснинг психологик ҳимоя механзмлари. Монография. – Қарши: “Насаф”, НМИУ. 2021. - 143 бет.

G‘aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: ganiyevakhalima@gmail.com

TALABALARNING O‘QUV JARAYONIDA MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH TEZLIGI PSIXOFIZIOLOGIYASI

Annotatsiya. *Intellektual hayot bosh miyada ro‘y beradigan turli-tuman nerv jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Bunday nevrologik jarayonlar tufayli intellektual holatlar va mahsullar vujudga keladi. Nerv jarayonlari bosh miyada qonuniy tarzda ketma-ket o‘zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turadi va bu jarayonlarning natijasida subyektiv ma’lumotlarni turli xil shakllari xosil bo‘ladi. Maqolada inson bosh miyasi yarim sharlari po‘stlog‘ida ro‘y beradigan nerv jarayonlariga va u yerdagi olingan ma’lumotlarni qayta ishlash tezligiga oddiy operant reflekslar latent davri tezligi ta’sir ko‘rsata olishi nazariy va amaliy tahlil etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *Bosh miyasi yarim sharlari po‘stlog‘i, oddiy operant harakat reaksiyasi, qo‘zg‘alish nerv jarayonlari kuchi, axborotni qayta ishlash tezligi, operant reflekslar, latent davri, korreliotsion taxlil, dispertsion tahlil.*

ПСИХОФИЗИОЛОГИЯ СКОРОСТИ ОБРАБОТКИ ДАННЫХ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Интеллектуальная жизнь проявляется в различных нервных процессах, происходящих в головном мозге. Благодаря таким неврологическим процессам возникают интеллектуальные состояния и продукты. Нервные процессы в головном мозге изменяются последовательно, переходя из одного состояния в другое, что приводит к различным формам субъективной информации. В статье приводится теоретический и практический анализ того, как простые оперативные рефлексы могут влиять на нервные процессы, происходящие в полушариях головного мозга, и на скорость обработки полученной информации.*

Ключевые слова и фразы: *Полушария головного мозга, реакция простого оперантного движения, сила нервных процессов возбуждения, скорость обработки информации, оперантные рефлексы, латентный период, корреляционный анализ, дисперсионный анализ.*

PSYCHOPHYSIOLOGY OF THE SPEED OF DATA PROCESSING IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF STUDENTS

Annotation. *Intellectual life manifests itself in various nervous processes taking place in the brain. Thanks to such neurological processes, intellectual states and products arise. Neural processes in the brain change sequentially, moving from one state to another, leading to different forms of subjective information. The article provides a theoretical and practical analysis of how simple operational reflexes can affect the nervous processes occurring in the cerebral hemispheres and the speed of processing the information received.*

Keywords and phrases: *Cerebral hemispheres, simple operant movement response, strength of neural excitation processes, information processing speed, operant reflexes, latent period, correlation analysis, analysis of variance.*

“Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliarddan ortiq kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir”[1].

[1]O‘zbekiston Respublikasi Presidi Shavkat Mirziyoyev September 19 kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assembling 72-session sizlan nuti.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib biz bugungi kun yoshlari olayotgan axborotlarni qayta ishlash tezligi bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘idagi nerv jarayonlariga qanday bog‘liqligini psixofiziologik o‘rganishni dolzarb vazifalardan biri deb belgiladik.

Intellektual hayot bosh miyada ro‘y beradigan turli-tuman nerv jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Bunday nevrologik jarayonlar tufayli intellektual holatlar va mahsullar vujudga keladi. Nerv jarayonlari bosh miyada qonuniy tarzda ketma-ket o‘zgarib, bir holatdan ikkinchi holatlarga o‘tib turadi va bu jarayonlarning natijasida sub’yektiv ma’lumotlarni turli xil shakllari hosil bo‘ladi. Bularga aql-farosat, yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ular, tinchlik, xayajonlanish va ma’yuslanish, uyg‘oqlik va uyqu xolatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish kiradi. Aqliy, intellektual jarayonlarni, boshqacha qilib aytganda psixologiyada bilish deb ham ataladi. Bilish - psixik hodisa bo‘lib, uning asosida kognitiv neyrofiziologik jarayonlar, xususan, sezgilar, idrok, patternlarni ajrata olish, xotira, tasavvur va xayol, tafakkur va tushunchalarning shakllanishi, nutq va sun’iy intellekt kabi oddiy jarayonlar yotadi. Sezgilar - muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko‘rish, eshitish, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta’sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Idrok - tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit xolda aks etishidir. Sezgi va idrok - tevarak-atrofimizdagi narsa va xodisalar hamda ulardagi xilma-xil xossalarning miyamizdagi obrazlaridir. Xotira- narsa va xodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo‘lgan obrazlari bo’lib nom - nishonsiz yo‘qolib ketmaydi, balki ular miyamizda o‘rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko‘nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o‘rnashib, saqlanib qoladi va yana kerakli vaziyatlarda esimizga tushadi. Xayol - narsa va xodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo‘ladigan obrazlaridan tashqari, o‘zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar (fantaziyalar) ham miyamizdan katta joy oladi. Tafakkur - idrok va tasavvurlarimizda aks etadigan voqe’likning umumlashtirilgan bevosita va eng to‘liq hamda eng aniq in’ikosidir. Tafakkur jarayonlarida fikrlar, muhokama va tushunchalar vujudga keladi. Fikrlarimiz nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Yuqorida ko‘rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo‘lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat - ongimizning o‘zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to‘plashdir. Yuqorida keltirilgan bilishning asoslari psixologik emperizm asosida o‘rganilgan. Lekin bilish bizning miyamizda qanday qonuniyatlar asosida ro‘y beradi? Bu qonuniyatlarni o‘rganish kognitiv neyrofiziologiyani asosiy vazifalaridan biridir.

11-sentyabr 1956-yil AQSHning Massachuset texnologiya institutida bir guruh elektron injenerligi va axborot nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi Djordj Miller, Gerbert Saymon, Nyuell Allen, Noam Xomski, Devid Grin va Djon Svitslar kognitiv axborotlar mavzusidagi o‘z ishlarini muhokama qilishgan va kognitiv psixofiziologiya va axborot texnologiyalarini tarixi shu sanadan boshlangan. Karl Pribram Amerika fiziologi Karl Spenser Leshli bilan birgalikda hayvonlarni bosh miyasini turli qismlarini kesib olib tashlashganda hayvonlarda ilgari hosil bo‘lgan malakalarning ko‘pchiligi xotirada saqlanib qolganligini aniqlashgan. Ushbu gologrаfik nazariyaning ayrim holatlarini eksperimental A. Luriya, B.Velichkovskiy va V. Kucherenkolar tomonidan isbotlanishiga qaramasdan yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlar ko‘pchilik tomonidan e’tiborga olinmadi. AQSH olimi Mauntkasl bosh miya yarim sharlar po‘stolog‘idagi proektsion tolalar polishoxlangan ustunlardan tuzilganligini aniqladi. U 1981-yili esa bu yo‘llar modullardan iborat ekanligini, 1 modul 110 neyrondan tashkil topganligini asosladi.

Odamning bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida esa 600 mln. ta mikromodul bo‘lib, ular 50 mlrd. neyrondan tashkil topgan. Ular guruh-guruhlarga bo‘lingan makromodullardan iboratdir. Makromodullar soni 600 mingta bo‘lib, ular interneyronlardan, afferent(sezuvchi) va efferent (bajaruvchi) neyronlardan tashkil topgan. Bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘dan boshlanuvchi efferent kortikospinal va kortikorubrospinal yo‘llar esa piramida hujayralaridan tuzilgan. Hamma makro va mikromodullarda qayta aloqalar ham mavjud. 1-4- qavatlardan affektor yo‘llar, 5-6- qavatlardan esa effektor yo‘llar boshlanadi. K.Brodman asab hujayralarini shakli, soniga qarab yarim sharlar po‘stlog‘ini 50ta tektopik maydonlarga bo‘ldi. 1,2,3 maydonlar dastlabki somatosensor va somotomotor maydonlar bo‘lib, AQSH olimlari Pentild, Rassmussen, Jasperlar samotosensor zonani (pretsentral va posttsentral

maydonda) odam gavdasini barcha a'zolarini markazlari bosh barmoq, kaft, yuz, lablar boshqa markazlarga nisbatan ko‘proq maydonni egallagan.Yarim sharlar po‘stlog‘ini, 4-6- maydonlarida samotomator markazlar, 17-da birlamchi ko‘ruv markazi, 18-19-larda ikkilamchi va uchlamchi ko‘ruv markazlari, 41-42-da chakkani posttsentral egatlarini pushtalarida ta'm bilish, og‘riq va haroratni sezish markazlari bor. SHu markazga yaqin joyda qo‘lda ushlab turib predmetlarni bilish sezgi markazi mavjud, 9-14-da motivatsiyalar markazi, peshona qismida o‘rta pushta o‘rtasida xat yozish markazi, ko‘zni va boshni bir tomonga qaratish markazlari joylashgan. Peshonaning pastki egatlarini orqa bo‘limida nutq-motor markazi joylashgan. SHu markazga yaqin joyda qo‘lda ushlab turib, predmetlarni bilish sezgi markazi egallagan. Ichki tepa pushtada mehnat va sport markazlari bor. Burchak pushtada esa o‘qish markazi bor. O‘ng qo‘lni odamlardagi markazi chapda, chap qo‘llilarniki esa o‘ngda bo‘ladi. Ustki chakka pushtalarning chap tomonida nutqni eshitish markazi alohida joylashgan. O‘rta pushtadagi katta maydonda eshitish markazi bor. Oldingi pushtaning yuqori qismida hid va ta'm bilish markazlari joy-lashgan.

So‘nggi yillarda Petersen shogirdlari bilan neyrokartografda o‘tkazgan tadqiqotlarida sinaluvchi odam so‘zni ko‘rganda bosh miyani ensa qismi, eshitganda chakka qismi, gapirganda birlamchi harakat qismi, o‘ylaganda peshona va chakka qismlari bosh miyani bir necha kuchsiz faollashgan qismlariga nisbatan kuchli faollashganliklarini aniqlaganlar.

Yuqoridagi neyrofizologiya fanini so‘nggi yutuqlari K.Pribram va K.S.Leshlilarni gologrаfik nazariyasini bosh miyadagi funksiyalarning lokalizatsiyasi turli gologrаfik aniqlikda tarqalgan ekanligini yanada tushunarli bo‘lishiga olib keldi. A.R.Luriya bosh miya faoliyatining normal holda ishlashi uchun uchta asosiy funtsional nerv markazlari to‘plamlari mavjud ekanligini ko‘rsatdi:

Birinchi to‘plam -bosh miyani uyg‘oq va ishchan holatda ushlab turuvchi nerv markazlari to‘plami. Bu markaz miya sopidan to po‘stloq osti miyasigacha borib joylashgan to‘rsimon miyadan iborat. Ushbu miya bosh miyani turli qismlaridan o‘tib yarim sharlar po‘stlog‘igacha boradigan va undan qaytib yana to‘rsimon miyaga keladigan bosh miya yarim sharlari faoliyatini stimullovchi (kuchaytiru-vchi) yoki tormozlovchi (susaytiruvchi hatto ishlamaydigan) holatgacha olib keluvchi yo‘llardan ibo-rat.[6. 457]

Ikkinchi to‘plam - axborotlarni qabul qiluvchi, qayta ishlovchi va saqlovchi markazlardir. Bu markazlar bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida joylashgan. Bu yerda sezgidan to fikrlashgacha bo‘lgan tahlil va muhokama jarayonlari sodir bo‘ladi.

Uchinchi to‘plam - murakkab shakllardagi faoliyatlar va harakatlarni dasturlash, boshqarish hamda nazorat qilish markazlaridir. Bu markazlar bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘ini peshona qismida joylashgan Brodman xaritasini 4-harakat markazi, birlamchi markaz u yerdan nerv impulslari markaziy egatni oldingi qismlarida joylashgan ikkilamchi markazida bo‘lg‘usi harakat dasturi tayyorlanib mushaklarga po‘stloq ostidagi bazal yadrolar orqali Bets hujayralarining piramidal yo‘llaridan alfa–motoneyronlariga o‘tib mushaklarga borib ularni harakatlantiradi.[7. 345].

Axborotlar sensor tizimlardan impulslar yarim sharlarining chakka po‘stlog‘iga kelib, u yerdan limbik miyadagi bodomsimon bezga va gipokampga boradi. Buerda ular qayta ishlanadi va qaytib miyachaga hamda bosh miyaning peshona qismidagi xotira markaziga boradi. Neyrologik xotira sensor, qisqa va uzoq muddatli xotiralardan iborat. Sensor xotira bir necha sekund davomida saqlanib turadi xolos. Nerv hujayralarida hosil bo‘lgan moddalar tarkibining buzilishi natijasida sensor xotira yo‘qoladi. Qisqa xotira nerv xujayralaridagi makromolekulalarni o‘zgarishi natijasida, ionlarning sinapslardagi o‘zgarishlari hamda neyron impulslarining reverberatsiyasi natijasida paydo bo‘ladi. [7. 501]

Uzoq muddatli xotira uch davrdan iborat bo‘ladi: a) engrammaning hosil bo‘lishi; b) saralash va yangi axborotlarni topish; v) uzoq muddatga saqlash.

Material va uslublar. Ko‘ruv axborotlarining hajmini va uni bosh miyada qayta ishlash tezligini bit/s. da aniqlash uchun Landolt xalqalaridan foydalanildi. Landolt xalqasi 22 gorizontal qatorda joylashgan 30 tadan, hammasi bo‘lib 660 ta xalqadan iborat. Landolt xalqalarini uzuq joylari soatning 1,2,4,5,7,8,10,11raqamlar soat millarini ko‘rsatib turadi. Sinaluvchi ma'lum bir soat millariga to‘g‘ri keladigan xalqalarni sanashni qanchalik tez va to‘g‘ri bajarsa undan yaxshi natijalarni kutish mumkin.

Ko‘ruv axborotlarining hajmi quyidagi formula orqali topiladi.

A=0,5936-N

bu yerda:

- 0,5936 bitta belgiga to‘g‘ri keluvchi axborotlarni o‘rtacha hajmi;
- N-sanalgan halqalar soni.

Bitta belgiga to‘g‘ri keluvchi halqalar sonini sanalgan xalqalar soniga ko‘paytirsak ko‘ruv axborotining hajmi (A)topiladi.

Axborotlarni bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida qayta ishlash tezligini quyidagi formula orqali ishlab chiqiladi:

S=A- 2,807 • n t

Bu yerda:

- S-axborotlarni qayta ishlash tezligi, bit/s.
- 2,807 sanalmay qolgan halqalar tufayli axborotlarni yo‘qolishi,
- n - sanalmay qolgan halqalar soni,
- t -vaqt, sekund hisobida.

Tadqiqot tartibi: Misol uchun, sinaluvchi 5 minut ichida berilgan 87 ta halqadan 78 tasini sanadi. 9 ta halqani diqqatni bir joyga jamlay olmaganligi uchun sanamay ketgan. Sinaluvchini ko‘ruv axborotlarini qayta ishlash tezligi quyidagicha topiladi:

A=0,5936-660=391,77

$$S = \frac{391,77-2,807\bullet 9.}{300} = \frac{391,77-25,26.}{300} = 1,22 \text{bit/c.}$$

Odamning bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘ida ro‘y beradigan oliy nerv faoliyati nerv jarayonlarini, xususan qo‘zg‘alish va tormozlanish kuchini sinaluvchilarda o‘rganish uchun Strelyau testi, Ayzenk testi yoki AQSHning Minasot universiteti professori Koppro Filli xodimlari bilan Minosot shaxs testlari (MMPI) ichidan tanlab tuzgan va u “Shaxsning xarakter va temperamentini o‘rganish” testi deb nomlagan. Biz ushbu testdan foydalandik.

Tadqiqotlar Farg‘ona davlat universiteti jismoniy tarbiya yo’nalishi 1- bosqichning 40 nafar talabalarida o‘tkazildi.

Talabalarni oddiy operant xarakat reaktsiyasini latent vaqti, bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish va tormozlanish nerv jarayonlarini kuchi, bosh miyani Brodman bo‘yicha 17, 18 va19 ko‘ruv maydonlarida axborotni qayta ishlash tezligini chastotali tahlil natijalari quyidagi jadvalda berilgan.

Jadval 1

Oddiy operant xarakat reak-tsiyasi latent vaqti, ms.	Qo‘zg‘alish nerv ja-rayoni kuchi,ball.	Tormozlanish nerv ja-rayoni kuchi,ball.	Bosh miyada axborotlarni qayta
0.13	6	6	0.57
0.14	6	4	0.30
0.15	8	3	0.82
0.17	7	4	0.94
0.18	8	3	1.10
0.19	7	3	1.36
0.20	9	2	2.09
0.22	9	2	1.54

Yuqoridagi jadvalda talabalarning oddiy operant harakat reaksiyasi latent vaqti, bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida ro‘y beradigan qo‘zg‘alish va tormozlanish nerv jarayonlari kuchi hamda axborotni qayta ishlash tezligini o‘rganish natijalari keltirilgan.Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar korrelyatsion taxlil qilindi.

Oddiy operant harakat reaksiyasi latent davri talabalarning bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida ro‘y beradigan qo‘zg‘alish nerv jarayonini kuchi bilan to‘g‘ridan -to‘g‘ri bog‘langan:

g=0,73, x=0,17,u=7,71, Dx=0,0007, Dy=l ,23, t_{fakt}=8,7, t_{st}=l,91, P=0,05

Ushbu oddiy operant harakat reaksiyalarining latent vaqti tormozlanish nerv jarayoni kuchi bilan teskari bog‘langan. Ya’ni latent (yashirin) davrni vaqti ortib borishi yarim sharlar po‘stlog‘idagi tormozlanish nerv jarayoni kuchining kamayishiga olib keladi.Demak, tormozlanish nerv jarayoni kuchi oddiy operant xarakat reaktsiyasining yashirin davri bilan teskari bog‘langan:

g=-0,80, x=0.17, u=3,0, Dx= 0,0007, Dy=0,66, t_{fakt}=5,62, t_{st}=l ,94, Ishonchliligi R= 0,05

Oddiy operant xarakat reaktsiyasining yashirin latent davri vaqti talabani bosh miyasida ro‘y beradigan ko‘ruv axborotlarini qayta ishlashda ishtirok etadigan nerv jarayonlariga ham ta’sir etadi.

Qanchalik operant xarakat reaktsiyasining latent vaqti tezlashsa ko‘ruv axborotlarini qayta ishlash tezligi shunchalik pasayib boradi:

r =0,86 x=0,1795, u=1,16, Dx= 0,0007,Dy=0,32 , t_{fakt}=4,76, tst=l,94,P=0,05

Axborotni bosh miyada qayta ishlash tezligi qo‘zg‘alish nerv jarayonining kuchi bilan to‘g‘ridan —to‘g‘ri bog‘langan:

r=0,80, x=1.16, u=7,71, Dx= 0, 32, Dy=l,25, t_{fakt}=1,96
t_{st}=l,94, P=0,05

Ko‘ruv axborotiningqayta ishlash tezligi tormozlanish nerv jarayoni bilan teskari bog‘langan:

g=-0,85 x=1.16, u=3,0, Dx= 0, 32, Dy=0,66, 1fa1ST=3,6, vtst=l,94 , P=0,05.

Oddiy operant harakat reaksiyasini latent davri tezligi omili talabalar bosh miyasi yarim sharlar po‘stlog‘ida ro‘y beradigan qo‘zg‘alish, tormozlanish jarayonlari hamda bosh miyada axborotni qayta ishlash tezligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirlarning sur’ati quyidagi dispertsion taxlil natijalarida keltirilgan.

Oddiy operant xarakat reaktsiyasi latent davri tezligi omilining qo‘zg‘alish nerv jarayoniga ta’siri dispertsion taxlili natijalari.

Ko‘rsatkichlar	SS	DF	MS	F	P	F_{kr}
Guruhlararo	198,75	1	198,75	320,86	5,03E-10	4,74
Guruh ichida	7,43	12	0,6194			

Oddiy operant xarakat reaktsiyasi latent davri tezligi omilining tormozlanish nerv jarayoniga ta’siri bo‘yicha dispertsion taxlili natijalari.

Ko‘rsatkichlar	SS	DF	MS	F	P	F_{kr}
Guruhlararo	27,86	1	27,86	83,48	9,4097E-07	4,74
Guruh ichida	4,00	12	0,33			

Oddiy operant xarakat reaktsiyasi tezligi omilining axborotni qayta ishlash tezligiga ta’siri bo‘yicha dispertsion taxlili natijalari.

Ko‘rsatkichlar	SS	DF	MS	F	P	F_{kr}
Guruhlararo	3,40	1	3,40	20,80	0,0006	4,74
Guruh ichida	1,96	12	0,16			

Yuqoridagi dispertsion tahlil shuni ko‘rsatadiki, oddiy operant reflekslar vaqtini tezligi bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘ida ro‘y beradigan qo‘zg‘alish tormozlanish nerv jarayonlarining borishiga ishonchli ravishda faol ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarni oddiy operant xarakat reaktsiyasi latent vaqti (ml/s) bosh miyani yarim sharlari po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish va tormozlanish nerv jarayonlarining kuchi, bosh miyani Brodman bo‘yicha 17,

18 va19 - ko‘ruv maydonlarida axborotni qayta ishlash tezligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Oddiy operant harakat reaktsiyasi latent davri talabalarning bosh miya yarimsharlari po‘stlog‘ida ro‘y beradigan qo‘zg‘alish nerv jarayonlarining kuchi bilan to‘g‘ridan —to‘g‘ri bog‘langan, tormozlanish nerv jarayonlarining kuchi bilan esa teskari bog‘langan.

2. Ko‘ruv axborotining bosh miyada qayta ishlash tezligi ham bu nerv markazlaridagi ro‘y berayotgan qo‘zg‘alish nerv jarayonlarini kuchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan, axborotni qayta ishlash tezligi bilan esa tormozlanish nerv jarayonlari teskari bog‘langan.

3. Oddiy operant xarakat reaktsiyalar latent davri tezligi omili inson bosh miyasi yarim sharlar po‘stlog‘ida ro‘y beradigan barcha jarayonlarga, shu jumladan, qo‘zg‘alish, tormozlanish hamda axborotlarni qayta ishlash tezligiga ham ta’sir ko‘rsatib, bu jarayonlarni ishlash sur’atini belgilaydi.

Inson bosh miyasi yarim sharlari po‘stlog‘ida ro‘y beradigan nerv jarayonlariga va u yerdagi olingan ma’lumotlarni qayta ishlash tezligiga oddiy operant reflekslar latent davri tezligi ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, berilgan ma’lumotlarni bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida qayta ishlash tezligi har bir shaxsning individual hamda psixofiziologik xususiyatlariga bog’liq tarzda taraqqiy etib borar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

2. Mirziyoev SH.Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab – quvvatlash to‘g‘risida "Xalq so‘zi", 2017 yil 6 iyul.

3. Когнитивная психология. Учебник для Вузов. М: МГУ, 2000

4. Холодная М.А. Когнитивные стили. М.: 2001г.С.367.

5.Сысоев В.Н.Тест Э. Ландольта. Диагностика работоспособности. СПб.,2000г.С. 276.

6. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. М.: 2003г.С.457.

7. Хомская Е.Д. Нейропсихология / Питер, 2003. 495-501 С.

8. Тупиев И.Дж. Влияние кратковременной гипоксии на эффективность обработки зрительной информации спортсменами тема диссертации и автореферата по ВАК 03.00.13 УФА. 2002 г.

Hashimova Sayyora Xolmuradovna
Samarqand davlat Chet tillar institute pedagogika,
psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional zo‘riqishlari va ularning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘smirlarning o‘z qarashlarini himoya qilish, tajovuzkorlik va toqatsizlik kabi emotsional reaksiyalari ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi bilan bog‘liq. Tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional holatini tushunish va ularni qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Imkoniyati cheklangan o‘smirlar, emotsional zo‘riqish, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy moslashuv, emotsional qo‘zg‘aluvchanlik, tajovuzkorlik va toqatsizlik, stress omillari, psixologik qo‘llab-quvvatlash.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У ПОДРОСТКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. *В данной статье анализируются эмоциональные напряжения и их психологические особенности у подростков с ограниченными возможностями. Такие эмоциональные реакции, как защита своих взглядов, агрессивность и нетерпимость, связаны с личностным развитием и социальной адаптацией подростков. Результаты исследования имеют важное значение для понимания эмоционального состояния подростков с ограниченными возможностями и разработки стратегий их поддержки.*

Ключевые слова: *Подростки с ограниченными возможностями, эмоциональное напряжение, психологические особенности, социальная адаптация, эмоциональная возбудимость, агрессивность и нетерпимость, факторы стресса, психологическая поддержка.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF EMOTIONAL STRESS IN ADOLESCENTS WITH DISABILITIES

Annotation. *This article analyzes the emotional stress and psychological characteristics of adolescents with disabilities. Emotional reactions such as defending personal views, aggression, and intolerance are associated with personal development and social adaptation. The research results are crucial for understanding the emotional state of adolescents with disabilities and developing strategies for their support.*

Keywords: *Adolescents with disabilities, emotional stress, psychological characteristics, social adaptation, emotional excitability, aggression and intolerance, stress factors, psychological support.*

Kirish. Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida emotsional soha juda murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, uni baholash o‘ziga xos tadqiqotlarni talab qiladi. Angliyalik tadqiqotchi N.Steinbesning yozishicha, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning o‘smirlik davrida emotsional qo‘zg‘aluvchanlik juda kuchli ko‘rinishda bo‘ladi, shu boisdan o‘smirlar o‘zlarining jahldorligi, tajovuzkor xatti-harakatlari, o‘ziga xos ishtiyoqi, o‘z qarashlarini himoya qilishga intilishi, o‘zlariga nisbatan “kichik” adolatsizliklarga ham toqatsizligi bilan ajralib turadilar.

N. Steinbesning fikrlari ilmiy asosga ega bo‘lib, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional qo‘zg‘aluvchanligi yuqori bo‘lishini psixologik va ijtimoiy omillar bilan tushuntirish mumkin. Ularning his-tuyg‘ulari beqaror bo‘lishi nafaqat ichki psixologik rivojlanish bilan, balki tashqi muhit ta’siri bilan ham bog‘liq. Shu bois, ushbu o‘smirlar bilan ishlashda ularning emotsional ehtiyojlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini rivojlantirish va mos sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review). Tadqiqotchilar J.Red va J.Klemets imkoniyati cheklanganlarning o‘smirlik davrida emotsional sohaning o‘ziga xos xususiyatlardan biri sifatda emotsional kechinmalarning barqarorligini ta’kidlashadi. Shu boisdan ham o‘smirlar uzoq

vaqtgacha ularga ko‘rsatilgan nohaqliklarni yoki haqoratlarni unutishlari oson kechmaydi. Ta’kidlash joizki, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda bu kabi emotsional ta’sirlanish sog‘lom bolalarga qaraganda bir necha barobar kuchli ro‘y beradi. Bu esa ularning rivojlanishi, jamiyatga qo‘shilishiga yoki uzoqlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

L.V.Tabarakinaning yozishicha, katta yoshdagi o‘smirlik davrida tashvish va xavotirning kuchayishi kuzatiladi. Bunga sabab sifatida muallif quyidagilarni keltiradi:

turli xil his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan odam bilan yaqin shaxsiy munosabatlarning paydo bo‘lishi;


kulgili ko‘rinishdan qo‘rqish hissi.

Aytish joizki, aynan imkoniyati cheklangan o‘smirlarda mana shu holat kuchli bo‘ladi, o‘z holatidan uyalish ularda kuchli emotsional zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Reserech Methodology). Tadqiqotimizning nazariy–metodologik asoslari xorij olimlari va rus psixolog olimlari tadqiqotlaridagi emotsional zo‘riqishlar masalasiga oid sof psixologik tadqiqotlar mazmuni bilan asoslanilgan. Bundan tashqari I.D.Ladanov, V.A.Urazaevalarning “Shaxs faoliyatida zo‘riqish omillarining ekspress diagnostikasi” metodikasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotchi S.V.Korostovaning fikricha, emotsiyaning aks ettirish funksiyasi hodisalarni umumlashtirib baholashda ifodalanadi. Emotsiyalar butun organizmni qamrab oladi va shu bilan deyarli bir lahzada integratsiyani, u bajaradigan barcha turdagi faoliyatni umumlashtirishni keltirib chiqaradi, bu birinchi navbatda, unga ta’sir qiluvchi omillarning foydali va zararli ekanligini aniqlashga va ularni lokalizatsiya qilishdan oldin reaksiyaga kirishishga imkon beradi, shuningdek, zararli ta’sirlari aniqlanadi[1]. Oyoq-qo‘li shikastlangan odamning hatti-harakati bunga misol bo‘la oladi. Og‘riqqa e’tibor qaratib, odam darhol og‘riqni kamaytiradigan pozitsiyani qidiradi.

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan, eshitish nuqsoni bor o‘smir o‘quvchilarda emotsional zo‘riqish va stressogen holatlar bo‘yicha so‘rovnomalardan olingan ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.



2.1-rasm. Shaxs faoliyatida stress omillarining ekspress diagnostikasi so‘rovnomasi ko‘rsatkichlari

Shaxs faoliyatida stress omillarining ekspress diagnostikasi so‘rovnomasi bo‘yicha olib borilgan izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra, imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarning nizolashuvchanlik va o‘quv faoliyati doirasida zo‘riqish shkalalari o‘rta darajada, haddan tashqari zo‘riqish va o‘qituvchi bilan bog‘liq munosabatlardagi zo‘riqish quyi darajada, nizolashuvchanlik va o‘quv faoliyati doirasida zo‘riqish shkalalari yuqori nisbatlarni namoyon qilgan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional zo‘riqishlari ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tadqiqotda N. Steinbes, J. Reed, J. Clements va L.V. Tarabakinaning ilmiy ishlari asosida imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsional qo‘zg‘aluvchanligi va stressga bo‘lgan ta’sirchanligi tasdiqlandi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishi, adolatsizlikka toqatsizlik va tajovuzkorlik kabi xatti-harakatlar namoyon qilishi kuzatildi. Ushbu holatlar ularning tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlarida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bunday o‘smirlar bilan ishlashda ularning emotsional ehtiyojlarini inobatga olish, stressni kamaytirish va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga qaratilgan individual yondashuvlar zarur.

Shuningdek, tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan o‘smirlarning stressga chidamliligini oshirish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish muhimligini tasdiqlaydi. Bu esa ularning hayot sifati va jamiyatga integratsiyasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Коростова С. В. Эмотивность как функционально-семантическая категория: к вопросу о терминологии //Известия Российского государственного педагогического университета им. АИ Герцена. – 2009. – №. 103. – С. 85-93.

2. Steinbeis N. The role of self–other distinction in understanding others' mental and emotional states: neurocognitive mechanisms in children and adults //Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences. – 2016. – Т. 371. – №. 1686. – С. 201-109.

3. Reed J., Clements J. Assessing the understanding of emotional states in a population of adolescents and young adults with mental handicaps //Journal of Intellectual Disability Research. – 1989. – Т. 33. – №. 3. – С. 229-233.

4. Тарабакина Л.В. Учебное пособие. Эмоциональное развитие подростков: Рекомендовано УМО по специальностям педагогического образования. – Изд-во МПГУ; «Прометей». – М., 2011. – С. 93.

Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g‘li
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

O’ZIGA XOS PSIXOLOGIK MUAMMOLARI MAVJUD BO’LGAN YOSHLAR GURUHIDA SHAXSLILIK XUSUSIYATLARINI NAMOYON ETILISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o’ziga xos psixologik muammolari mavjud bo’lgan yoshlar guruhida shaxslilik xususiyatlarini namoyon etilishi va rivojlanishi va uning ilmiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, uning mazmun-mohiyati ilmiy asoslab berilgan. Ayni paytda, ushbu muammoning mahallalarda va oilalarda o’rganishning empirik tahlillari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Psixologik xizmat, shaxslilik xususiyatlari, o’z-o’zini hissiy baholash, motivatsiya, ijtimoiy-psixologik omillar, individual-psixologik imkoniyatlar, empirik natijalar, muloqotchanlik, diplomatlilik, ekstroversiya , introversiya, jiddiylik, tavakkalchilik, mas’uliyat, mas’uliyatsizlik.*

ДЕМОНСТРАЦИЯ И РАЗВИТИЕ ХАРАКТЕРИСТИК ЛИЧНОСТИ В ГРУППЕ МОЛОДЕЖИ С ИНДИВИДУАЛЬНЫМИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОБЛЕМАМИ

Аннотация. *В данной статье раскрывается проявление и развитие особенностей личности и ее научная основа в группе молодых людей с конкретными психологическими проблемами. Также ее содержание научно обосновано. В то же время представлены эмпирические анализы изучения этой проблемы в микрорайонах и семьях.*

Ключевые слова: *Психологическая служба, личностные качества, самоэмоциональная оценка, мотивация, социально-психологические факторы, индивидуально-психологический потенциал, эмпирические результаты, коммуникабельность, дипломатичность, экстраверсия, интроверсия, серьезность, готовность к риску, ответственность, безответственность.*

DEMONSTRATION AND DEVELOPMENT OF PERSONALITY CHARACTERISTICS IN A GROUP OF YOUTH WITH INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS

Annotation. *This article describes the manifestation and development of personality traits in a group of young people with specific psychological problems, as well as its scientific basis. Its content and essence are also scientifically substantiated. At the same time, empirical analyses of the study of this problem in neighborhoods and families are presented.*

Keywords: *Psychological service, personality traits, emotional self-assessment, motivation, socio-psychological factors, individual psychological capabilities, empirical results, sociability, diplomacy, extroversion, introversion, seriousness, risk-taking, responsibility, irresponsibility.*

Mavzuning dolzarbligi. O’ziga xos psixologik muammolari mavjud bo’lgan yoshlar guruhiga psixologik xizmat ko’rsatish muammosini ijtimoiy psixologik muammo sifatida o’rganilishi O’zbekistonda muayyan darajadagi psixologik bilimlarining bevosita amaliyotda qo’llanilishi va mahallada istiqomat qiluvchi har bir shaxsning o’ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollari ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, insonni bilish va uning tashqi (real) hamda ichki (ideal) olamiga adekvat ta’sir ko’rsatish va shu ta’sirlar orqali uni boshqarish mumkinligi aniq bo’lsada, bu darajada turli xil ijtimoiy, iqdisodiy, ma’naviy va individual psixologik manfaatlar mushtarakligiga ham alohida e’tibor berishga to’g’ri keladi. Ayni paytda har bir insonning shakllanishi unga xizmat ko’rsatuvchi tizimlarning to’laqonli ilmiy-amaliy salohiyatiga bevosita bog’liqdir. Shu ma’noda psixologik xizmat metodologiyasi o’zining shakllanishi va tuzilishiga ko’ra faqat insonga va uning betakror shaxs sifatidagi ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan psixologik xizmatga bo’lgan ehtiyoj tobora ortib muayyan darajadagi dolzarblik kasb etmoqda.

Psixologik xizmat yo'nalishining nazariy-ilmiy va metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat jarayoni dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (er.o.VII-VI asrlar), Aflotun (er.o.V-IV asrlar), Anaksimon (er.o. V asr), Geraklit (er.o. VI-V asrlar), Demokrit (er.o. V-IV asrlar), Epikur (er.o.V-IV asrlar) Galen (er.o. II asr) kabilar nazarida o'sha davr uchun muayyan ma'noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy psixologiyada uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko'rsatishni psixologik muammo sifatida nazariy-metodologik jihatdan tadqiq qilish bilan birga uning amaliy asoslariga daxldor tadqiqot metodikalari hamda ushbu metodikalarning amaliyotda qo'llash bilan bog'liq tahlillarni bayon etmoqchimiz.

Metodologiya. Tabiiyki bunda aholining turli qatlamlarida tarkib topayotgan shaxslilik xususiyatlariga, o'z-o'zini hissiy baholash ko'rsatkichlariga, hamda mavjud bo'lib turgan ziddiyatli holatlardan chiqish motivatsiya ko'rsatkichlarining namoyon etilishi bilan bog'liq muayyan ijtimoiy-psixologik omillarga alohida urg'u beriladi. Shu ma'noda bugungi kunda turli salbiy guruhlarga moyil yoshlarni turli xil ijtimoiy-psixologik muammolar yechimidan ilib chiqib mahallada istiqomat qilayotgan har bir shaxsdagi o'ziga xos individual-psixologik imkoniyatlar ko'lamiga baho berish uchun ilg'or psixologiyada ma'lum va mashhur metodikalardan foydalangan holda tegishli ilmiy-amaliy izlanishlar olib borildi. Binobarin, taniqli psixologlar nomi bilan bog'liq, "Kettell", "Riks-Uessmon" hamda "Tomas" uslublari imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalangan holda o'rganilgan har bir mahalladagi aholining turli qatlamlariga mansub shaxslar uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy-psixologi omillar tadqiq qilinib tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.


Barcha ilmiy manbalardan ma'lumki, "Kettell" uslubi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan 16 ta shaxslilik omilini o'z ichiga oladi. Har bir omil ko'rsatkichlari shaxsning u yoki bu xususiyatlarining namoyon etilishi bilan bog'liq motivatsiya ko'rsatkichlarini belgilashga xizmat qiladi. Shunga muvofiq, mahallalarda istiqomat qiluvchi aholining 3 ta qatlami (yoshlar, oilalar, nogironlar) bo'yicha tadqiqot obyektlari tanlandi va mazkur qatlamlarga mansub shaxslarning belgilangan 16 omilga daxldor xususiyatlari tahlil qilinadi. Endi, har bir omilning imkoniyatlari haqida yana bir bor qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Jadval-1

Kettell uslubi bo'yicha o'ziga xos psixologik muammolari mavjud bo'lgan yoshlar guruhida shaxs xususiyatlari namoyon etilishining o'rtacha- umumiy va qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari

Faktor	№	Omillar		n1=210 Yoshli		n2=220 Oilaviy		n3=188 Nogironlar	
				n	%	n	%	n	%
A Kirishimlilik		Ekstroversiya (Muloqotchanlik)	A	80	38	90	40	100	53
		Introversiya (odamovilik)	B	130	62	130	60	88	47
B Intelektuallik		Yuqori Intellekt	A	90	43	110	50	105	56
		Quyi Intellekt	B	120	57	110	50	83	44
C Hissiy barqaror-lik		Hissiy barqaror	A	80	38	80	36	90	48
		Hissiy beqaror	B	130	62	140	64	98	52
E Yetakchilikka in-tilish		Yetakchilik	A	100	48	125	56	103	55
		Itoatkorlik	B	110	52	95	44	85	45
F Beg'amlik		Jiddiylik	A	70	33	70	32	100	53
		Tavakkalchilik	B	140	67	150	68	88	47

								Б
G Ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish	Masuliyat	A	95	45	90	40	120	
	Masuliyatsizlik	B	115	55	130	60	68	37
H Ijtimoiy dadillik	Dadillik	A	130	62	150	68	105	56
	Tortinchoqlik	B	80	38	70	32	83	44
I Ta'sirchanlik	Qat'iylik	A	90	42	130	60	107	56
	Ko'ngilchanlik	B	120	58	90	40	81	44
J Ishonuvchanlik	Ishonuvchanlik	A	70	33	70	32	108	57
	Shubxalanuvchilik	B	140	67	150	68	80	43



Shartli belgilar:
– "A" adekvat
– "B" noadekvat.

Demak, 1-omil, bu – "muloqotchanlik" bo'lib bu omil o'rtachadan yuqori bo'lgan ballarni to'plagan respondentlar uchun xarakterli (yoki adekvat) hisoblansa, o'rtachadan past darajadagi ballar miqdorini to'plagan respondentlar uchun esa muloqotchanlikka teskari yoki noadekvat bo'lgan "odamovilik" omili ko'rsatkichlarini qayd etish mumkin. Aniqrog'i, ushbu omil ko'rsatkichlari bo'yicha qilingan tahlillar "a" (adekvat) yoki "b" (noadekvat) ko'rsatkichlari diapazonida tahlil qilinadi.Shunga ko'ra keltirilgan jadvaldagi 1-omil ko'rsatkichlarini talqin qiladigan bo'lsak, tadqiqotda ishtirok etgan 210 nafar muammoli yoshlarning 38%; 220 nafar oilali shaxslarning 40%, 180 nafar nogironlarning 53% da "muloqotchanlik" ko'rsatkichlari ("a" variant), shuningdek 62% yoshlarda, 60% oilalilarda, 47% nogironlarda "odamovilik" ko'rsatkichlarining nisbatan xarakterli ekanligi ma'lum bo'ldi. (1-jadvalga qaralsin) Bu o'rinda yana shuni aytish kerakki, ushbu toifaga taalluqli bo'lgan shaxslar bilan bevosita muloqotchanlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mashqlar, mashg'ulotlar va treninglar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi

Endi, Kettell uslubi bo'yicha 2-omil bo'lgan intellekt mezoni ko'rsatkichlari tahliliga o'tamiz. Mazkur mezon bo'yicha olingan ma'lumotlar shundan darak beradiki, (1-jadvalga, rasmga qaralsin) bunda muammoli yoshlarning 43 foizida (n1=90), oilalilarning 50 foizida (n2=110), nogironligi bor shaxslarning 56 foizida (n2=105) intellektning nisbatan yuqori darajalari kuzatilsa, ayni paytda

yoshlarning 57 foizida (n1=120), oilalilarning 50 foizida (n2=110), nogironlarning esa 44 foizida (n2=83), quyi darajadagi intellekt natijalarini kuzatish mumkin. Demak, mahallada istiqomat qiluvchi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq muammolarning namoyon etilishida intellektning "yuqori" yoki "quyi" darajada bo'lishi unchalik ham katta rol o'ynamas ekan.

"F" mezoni (5-omil) ko'rsatkichlari tahlilida esa butunlay boshqacha empirik manzarani ko'rishimiz mumkin. Bu holatni albatta mahalladagi psixologik xizmat jarayonida inobatga olish kerak bo'ladi.

"G" mezoni (6 omil) bo'yicha olingan natijalarda muammoli yoshlar misolida (n1=210), masuliyatlikni 45% shaxslarda, masuliyatsizlikni esa 55% shaxslarda, oiladorlar misolida mas'uliyatlilik - 40%, mas'uliyatsizlik – 60% shaxslarda kuzatildi. Bu jarayon yoshlar va oiladorlar orasida o'z vazifasi va burchlariga nisbatan aksariyat hollarda yuqori darajadagi masuliyatlilikning yo'qolib borayotganligini kuzatish mumkin.

"N" mezoni (7 omil) ko'rsatkichlarida aholining barcha qatlamlarida "dadillik" (62%; 68%; 56%;) ko'rsatkichlari "tortinchoqlik"ka (38%; 32%; 44%;) nisbatan ustunroq darajada namoyon etilayotganligi ma'lum bo'ldi. Zero, qo'shimcha ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, har qalay, bugungi muammoli yoshlarda ham, oiladorlarda ham, nogironlarda ham o'z faolliklarini muayyan darajadagi "dadillik" motivatsiyasi asosida tashkil etishga harakat qilishar ekan.

"I"mezoni (8 omil) bo'yicha qat'iylikning o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlari yoshlarda 42% ni, oiladorlarda 60% ni, nogironlarda esa 56% ni tashkil etgan bo'lsa, mazkur mezon bo'yicha o'rtachadan past ko'rsatkichlar ko'lami mos ravishda 58%, 40% hamda 44%ga to'g'ri keldi. Demak mazkur mezon bo'yicha aholining turli qatlamlari orasida oilador shaxslarda nisbatan ko'proq miqdor xarakterli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Mazkur omillar mahallalardagi o'ziga xos psixologik muammolari mavjud bo'lgan yoshlar bilan suhbatlashganda ulardagi hissiy zo'riqishlar, shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, hayotga ko'proq emotsional munosabatda bo'lish kabilar o'zini -o'zi adekvat nazorat qilish jarayoniga bevosita salbiy tasir etishi mumkinligi aniqlandi.

Xulosa. Aholining turli qatlamlariga xususan, uyushmagan yoshlar guruhiga psixologik xizmat ko'rsatish muammosi jahonning turli davlatlarida turli hil ko'rinishlarda tashkil etilayotganlini kuzatish mumkin. Xorij tajribasi Rossiya olimlari va O'zbekistonlik tadqiqotchilar rahbarligida olib borilgan tadqiqot natijalarini hisobga olib muayyam maqsadlar asosida tashkil etiladigan psixologik xizmat tizimi o'zining alohida maqsadi, vazifalari va tadqiqot dasturiga ega bo'lishi lozim. Ushbu dastur orqali psixologik xizmatning bugungi holati va kelajakdagi istiqbollari haqida tegishli tasavvurlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Psixologik xizmat haqida olib borilgan barcha umumnazariy taxlillar uyushmagan yoshlar guruhiga psixologik xizmat tizimi haqidagi umumiy tasavvurlarni kengaytirishda hamda mazkur tadqiqotning ob'ekti, vazifalari hamda o'ziga xos metodik apparatinini yaratishda muhim kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. (DSc) Muallif. - Toshkent, 2019 yil. – 61 b.

2. Ayzenk G.Yu. Intellekt tushunchasi va ta'rifi // Psixologiya savollari № 1. - M., 1995. – S. 111-131.

3. Barotov Sh.R va boshq. Eksperimental psixologiya. - Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. – T.: Fan nashriyoti, 2008. - 108 b.

4. Ganjiyev F.F. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachilari sotsial psixologik kompetentligining psixologik xususiyatlari // Psixologiya. Ilmiy jurnal - Buxoro 2020. № 2 (maxsus son). – B. 78–82. (19.00.00. №5).

5. Sobirova D.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari sotsial intellekti bilan sotsial kompetentligi o`rtasidagi munosabatlarni o`rganish natijalari //Psixologiya ilmiy jurnali. № 2. – Buxoro, 2014.. – B. 71-77.

Ibragimov Alisher Karomatovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi professori

YOSH GANDBOLCHILARNI DIQQATINI KUZATISH VA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada yosh qo`l to`pichilarda kuzatuvchanlik va diqqat-e`tiborlilikni rivojlantirish qo`l to`pichi shaxsining shakllanishida hosil qilingan qiziqishlar, sportchiga xos xususiyatlar kabi kuzatuvchanlik nafaqat sport faoliyatida,o`z sport turiga qiziqishi doimo sportchining muntazam mashg'ulotlarga qiziqishini kuchaytirishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Sport , qo`l to`pi, shaxs, Psixologiya, Jismoniy tarbiya, chidamlilik, fiziologiya, ta'lim.*

МОНИТОРИНГ И РАЗВИТИЕ ВНИМАНИЯ ЮНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация. *В стате обсуждается развитие наблюдателности и внимания у юных гандболистов интерес к формированию личности гандболиста предполагается, что это может повысит интерес к утробе матери.*

Ключевые слова: *Спорт, гандбол, личност, психология, физическая култура, выносливост, физиология, воспитание.*

MONITORING AND DEVELOPING ATTENTION OF YOUNG HANDBALL PLAY-ERS

Annotation. *The article discusses the development of observation and attention in young handball players. Interests in the formation of the personality of the handball player. it has been suggested that it may increase interest in utero.*

Key words: *Sports, handball, personality, Psychology, Physical training, endurance, physiology, education.*

In psychology, there are the terms observation and observation.

Observation is a simple perception. For example, players come to the competition and watch the match. It shows what combinations and methods athletes use and who wins.

Observation is a characteristic of this person, which is manifested in the perception of serious signs of less noticeable objects and events. Attention is an integral part of observation. Observations, such as personality traits, are manifested not only in sports, but also in other areas of activity: life, study, marriage, etc.

To improve the observation, it is possible to re-show the matches played, which are followed by a special questionnaire developed by the coach. now the athlete must be able to distinguish the less noticeable aspects of the game without being overlooked. Keeping track of the details found during the observation will help the player to enhance their personal experience and gather a variety of information. Such trainings should be conducted frequently, according to a specific plan, in a single system, as this is part of the overall training.

The interests formed in the formation of the personality of the handball player are of great importance. His interest in his sport always increases the athlete's interest in regular training, sports skills, the growth of sports results.

How to increase interest in your sport? There are many ways to do this, for example:

-creative conduct of lessons in the same way and without the same pattern;

- Training should be conducted in such a way that players fully understand the tasks assigned by the coach, whether it is technical training, tactical or physical training; - Creating an environment of creative approach in athletes in the study of training materials;

-training athletes to improve their sports skills, ie technical, tactical and physical qualities, independently, without a coach, leaving part of the training time;

holding competitions and training games with teams with more equal sports skills;

-discuss the results of the game with the players;

- Conducting competitions and quizzes with athletes to know the winners of world championships, winners of international competitions;

-interest in the personal life of players, their living and financial conditions, study, work.

In the process of arousing interest in handball, the interest in other disciplines, such as biomechanics, physiology, psychology, food hygiene, etc., expands. The trainer should provide opportunities for this, for example: conversations and discussions on scientific topics, inviting experts to give lectures, interest in reading a lot, various types of art.

One of the main tasks of psychological training is the formation of the personality of the handball player. As long as the coach develops in the athlete a sense of self-improvement and encourages him to solve problems in training and competitions independently, these actions will be successful.

The basis of self-improvement is self-knowledge and the ability to evaluate their strengths, capabilities and actions. In order to influence oneself in a certain direction, one must critically evaluate one's own behavior based on social interests. Self-knowledge is realized in the following ways:

1. Observation of the actions and methods, tactical features and willpower of the athlete (the value of the coach, teammates, psychologist, etc.), the athlete.

1. Monitor your mental and physical condition.

2. Analyze the athlete's activities, actions, determine the reasons for victories and defeats.

3. Assess their physical, volitional, mental and other qualities; keep a diary to express your feelings and thoughts.

All of the above should always be monitored and monitored by the coach, and if necessary, it is advisable to talk to the athlete about the pitfalls he encounters at home.

One of the most important personal qualities of a handball player is the ability to determine the level of his aspiration. The level of aspiration depends on whether the goal is set for the athlete or not. If the goal of the handball player does not match his capabilities, then the player will have a negative emotional state, his interest in training and competitions will decrease.

The level of aspiration is based on self-assessment. High self-esteem leads to high aspirations, low self-esteem leads to low aspirations. If the self-assessment is optimal and appropriate to the athlete's abilities, then the level of aspiration is adequate. This is determined by comparing the subjective assessment of the athlete with the objective results. The level of aspiration is not innate in a person, but it is formed and changes in the process of activity. Therefore, the coach should conduct tests in training, and in the competition process to determine the level of aspiration and, if necessary, correct mistakes.

The age of the players, their interests, motivations and opportunities for sports should be taken into account during the training. Motive is an inner force that drives a person to action. If the goal of the activity is what the person wants, the motive is what he or she wants to do.

The study of motives in sports shows that they are multifaceted. These are: the motive to join a sports team, to have or improve a good level of physical fitness, a conscious desire to engage in socially useful activities, the desire to be recognized by the team, and so on.

Motives are unstable, that is, they can change under the influence of various factors. For example, these include: personal, vital, social, communication, and so on. Therefore, the constant management of the motives of athletes is an important part of the coach's work related to the psychological training of their students.

As skills increase, new aspirations (motives) emerge. It is important for coaches to know the motives of sports, because it allows them to improve the moral and volitional qualities of athletes, increase their activity, and, most importantly, to achieve high results in competitions.

Motives in sports are divided into 4 groups:

Group 1 - "soloists" (solo motives), which are athletes in which the narrow personal interests prevail in the context of the motive.

Group 2 - "community members" (collective motives). In such athletes, the motives associated with the interests of the team, the group prevails, the motives of solitude are manifested as subordinates.

The practice of sports shows that when an athlete combines the two motives, a positive environment is created.

Group 3 - "process motives". In this case, the priority is not for the athlete to achieve sports results, but for the training process: wearing a sports uniform, being in a team, and so on.

Group 4 is called the “resultant motive”. At the same time, athletes are interested in high results.

It is important that the coach understands the role of the athlete in the dynamics of motivation. The coach should monitor the development of players' motivation for the ball. It should be adjusted if necessary. To do this, the coach:

- Always watch your students and what they like
must determine whether or not to like it;

- In order to get information about the motives of the student, it is necessary to communicate with people who know him well, teachers, friends, family members;

- From time to time, invite participants to think about why they are doing sports.

The team plays an important role in the psychological training and formation of the individual. Therefore, one of the main tasks of the coach is to form a cohesive team of athletes. For a group of athletes to be a team, this association must combine the functions of socially useful activities. For example, the team has the following goals: to improve health, to win medals in international competitions, to raise the prestige of the sports community and to instill a sense of patriotism, and so on.

Sports practice shows that well-educated, hard-working, high-class athletes often come out of strong teams with strong traditions, strict discipline and high consciousness.

How does the team affect the formation of the athlete's personality?

First, through community relations. When team relationships are strengthened, the interactions of athletes within the team cover all aspects of their lives, and their behavior improves. When character traits are demonstrated during training and competitions, it is easier to overcome difficulties within the team.

Secondly, in the process of developing a friendly relationship is carried out in the form of counseling, support, correction of errors during training, psychological application during the competition.

Thirdly, it is done through mutual adherence to the established agenda, discipline, hygienic rules and the implementation of the tasks and instructions given by the coach. When the demands on peers are matched by the high demands on team members, mutual demands are valued in the team.

Fourth, by achieving team cohesion. In order to achieve this, discipline, interest in the game, sports, training is increased. It is very important to create useful traditions in uniting the team: to congratulate the winners of the competition, to invite the audience to the exhibition, to organize training sessions, to congratulate the athletes on an important date, photo-montage about collective life and activities, etc.

Fifth, through the organization of self-government. At the same time, it is necessary to improve relations with all members of the team, to avoid rudeness, obscenity, to ensure that each player takes into account the views of the team.

One of the conditions for cultivating respect for the sports team, to appear on the field with active intentions, to promote the success of its other members, to develop and strengthen the sense of patriotism in athletes. Thus, high success in major competitions is a patriotic duty of every athlete.

References.

1. Abduraxmanov F.A., Lemeshkov V.A., Livistkiy A.N., Pavlov Sh.K. Yarostkiy A.I. Podgotovka gandbolistov. Uchebnoe posobie T., 1992.

2. Azizova R.I. Gandbolchining texnik tayyorgarligi. N., 2006

3. Gandbol: Pourochnaya programma dlya DYUSH.-M., 1984.

4. Gorbalyauskas Ch.L. Igraem v ruchnoy myach.-M., 1988.

5. Gapparov Z.G Psixologicheskaya podgotovka futbolistov. Uchebnik “Futbol”, gl.6, pod obshey red. R.I.Nurimova, Tashkent,2005, 238-269s.

6. Gapparov Z.G. Sportivnaya psixologiya OOO «Mexridaryo» T.2009s.

7. Karomatovich I. A. et al. Features of Development of Movement Coordination in Young Athletics //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 56-59.

8. Karomatovich I. A. Methods of teaching children for movement activities in the process of physical education. – 2022.

9. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training specialen durance of yonggrilh and boll players //Academical. An International Multidisciplenary Research Journal2.

10. Karomatovich I. A. et al. Stage of Selection and Orientation of Young Athletes in Athletics //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 52-55.

11. Ibragimov A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlantirish asoslari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

12. Ibragimov A. K. Yengil atletika sport turiga talabalarning munosabati //Inter education & global study. – 2024. – №. 9 (1). – С. 102-107.

13. Karamatovich I. A. Methodology for qualifying young athletes for the sport of kayaking and canoeing //Proximus Journal of Sports Science and Physical Education. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 41-44.

UO‘K:159.922.7:373.2

Ibragimova Odina Kamoldinovna
Andijon davlat universiteti Umumiy
psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)

BOLALARNI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI MUHITIGA MOSLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkiloti muhitiga ijtimoiy moslashishini ta’minlashda asosiy rolni albatta, ota-ona va tarbiyachi-pedagoglar egallaydi. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotida nisbatan oson moslashib, guruhdagi boshqa tengdoshlari bilan kunini o‘tkazishidan tortib to ovqat, uyqu rejimiga o‘rganish holatlarigacha barchasi ota-ona va pedagoglarning kompleks ravishda hamkorligini talab qiladigan tizimli jarayon ekanligi ham moslashish sharti sifatida ota-ona va pedagoglarni hamkorlikda ishlashning ahamiyati yuqori ekanigi haqida so‘z yuritadi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim tashkiloti, muhit, ijtimoiylashuv, samarali moslashuv, moslashuv darajalari, pedagogik kompetentlik, muloqot, simbioz, ijtimoiy, qo‘llab-quvvatlash.*

АДАПТАЦИЯ ДЕТЕЙ К СРЕДЕ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. *Основную роль в обеспечении социальной адаптации детей к среде дошкольной образовательной организации играют родители и воспитатели. Это системный процесс, требующий всестороннего сотрудничества родителей и педагогов, от того, что дети сравнительно легко адаптируются в организации дошкольного образования, от проведения дня с другими сверстниками в группе до обучения есть и спать. говорит о его высокой важности.*

Ключевые слова: *организация дошкольного образования, среда, социализация, эффективная адаптация, уровни адаптации, педагогическая компетентность, общение, симбиоз, социальное, поддержка.*

ADAPTATION OF CHILDREN TO THE ENVIRONMENT OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Abstract. *Parents and educators play the main role in ensuring social adaptation of children to the environment of the preschool educational organization. This is a systemic process that requires comprehensive cooperation of parents and teachers, from the fact that children adapt relatively easily to the organization of preschool education, from spending the day with other peers in a group to learning to eat and sleep. speaks of its high importance.*

Key words: *organization of preschool education, environment, socialization, effective adaptation, levels of adaptation, pedagogical competence, communication, symbiosis, social, support.*

Kirish. Ma’lumki, yuksak ma’naviyatli shaxs deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan, moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan, mustahkam milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulariga ega ma’naviy jasorat egasi tushuniladi. Bunday insonning ulg’ayishi va kuch-qudrati manbaini ma’naviyat tashkil etadi. Ma’naviy barkamollik shakllanishi yoshlik davridan boshlanadi. Shu o‘rinda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ma’naviy barkamollikni shakllantirish ularning ijtimoiy muhit va ijtimoiy munosabatlar asosidagi ta’sirlar natijasida amalga oshiriladi. Bu ta’sirlar natijasida bolalarda ijtimoiy adaptatsiya rivojlanadi. Jamiyatdagi axloqiy normalarni o‘zlashtirish orqali ma’naviyat haqidagi tasavvurlari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitlariga moslashtirishni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash muammosining dolzarbligi nafaqat intellektual, psixologik va ijtimoiy-madaniy salohiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashning shoshilinch zarurati bilan belgilanadi. Shuningdek, zamonaviy real, dinamik o‘zgaruvchan muhitga muvaffaqiyatli moslasha oladigan shaxsni kamol toptirish zaruratini ham o‘rtaga qo‘ygani bilan xarakterlidir. Bolani

maktabgacha ta'lim tashkilotining sharoitlariga moslashtirish muammosi maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjudligining boshidanoq paydo bo'lgan va hozirgi kunda bizning zamonaviy dunyomizda dolzarb bo'lib qolmoqda. Bolani bolalar bog'chasiga yuborish vaqti kelganda deyarli har bir oila bu muammoga duch keladi. Bu davrda bolalar yaqinlaridan ajralishga ayniqsa sezgir bo'lib, ular yangilikdan juda qo'rqishadi. Bolalar bog'chasi sharoitlariga moslashish ko'pincha juda og'riqli kechishi haqida ijtimoiy tasavvurlarning o'ziyoq ota-ona va bola munosabatlarida "inqirozli" holatlarni yuzaga keltirishi bilan ham tavsiflanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagog-tarbiyachining vazifasi moslashish davrini bolaga kamroq shikast yetkazadigan tarzda tashkil etishdir. Bolaning bolalar bog'chasiga kelishi, notanish bolalar, kattalar, atrofdagi barcha vaziyat bolada og'ir stressni keltirib chiqarishda ko'nikmalarini shakllantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzu doirasida boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha taxlili. Moslashuv mexanizmining dastlabki tadqiqotlari J. Buffon va X. Obert (XVII asr) nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular moslashishga ishonishgan. muhit berilgan muhit sharoitlarining mos ravishda o'zgarib turadigan organizmlarga bevosita ta'siri bilan belgilanadi. Keyinchalik (19-asr boshlari) J.Buffon asarlari tufayli. Lamark, X.Spenser, Ch.Darvin, moslashish muammosi evolutsion nazariya va umumiy biologiya doirasidan chiqib, psixologiya, tibbiyot, sotsiologiya, ekologiya va boshqa fanlarga singib keta boshladi. Insonning uni tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitga moslashishi masalasi ham falsafiy tafakkur bag'rida to'xtalib o'tadi. Demak, insonning tabiati haqidagi falsafa nuqtai nazaridan odamlar har doim uning mohiyatini tashkil etuvchi narsaning mavjudligini taxmin qilganlar. Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uning hayotining muhim davrlaridan biri bo'lib, barcha tana tizimlari tomonidan sezilarli stress bilan birga keladi. Yosh bolalarning ta'lim maydoniga moslashish muammosini o'rganish N.M.Aksarina, R.V.Tonkova-Yampolskaya, L.V.Belkina, L.N.Galiguzova, T.A.Doronova, I.N.Serova, E.I.Morozova, S.V.Kryukova, N.P.Slobodyak, N.V.Kiryuxina, V.N.Gurova, V.P.Kostina va boshqalarning ishlarida yoritilgan Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bolalarning ular uchun yangi hayot sharoitlariga ko'nikish tezligi va sifatiga ta'sir qiluvchi ikkita asosiy omilni aniqlashga imkon beradi: birinchisi, bolaning oilasi va ota-onalarning xatti-harakatlari uning bolalar bog'chasiga moslashishiga yordam berish kafolati sifatida; ikkinchisi - maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagogik xodimlarning maxsus ishi, bu bolalar guruhiga birinchi marta kiradigan bolalarning muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi.

Moslashish jarayoni ijtimoiy tabiatga bog'liq bo'lib, atrof-muhitning o'zgarishiga olib keladi, shuningdek, inson ongi va psixika, insonning moslashuvchan faoliyati samaradorligiga ta'sir qiladi, unga individual hissiy rang berish. Ushbu xorijiy psixologik maktablar bilan bog'liq holda, psixologik va ijtimoiy moslashuvni umumiy birlikda ko'rib chiqish va shu bilan psixologik va ijtimoiy ajralmaslik haqida gapirish. Demak, shaxsning ijtimoiy sharoitga moslashishi sof ijtimoiy-psixologik jarayondir. Shunday qilib, xorijiy psixologik fikrda muhim ahamiyatga ega moslashuvning neobixevioristik ta'rifi keng tarqaldi bu masalan, G.Ayzenk va uning izdoshlari (J.J.Uotson, N.Miller, D.Xomans, Torndike, R.Xonka).

Empirik tadqiqot natijalari. Oiladagi bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurishga tayyorligiga qarab, moslashish davrining borishi va uning keyingi rivojlanishi bog'liq. Bolaning moslashish davrini yengillashtirish uchun oilaga professional yordam kerak, bu rolda bolalar bog'chasi keladi. Bolalar bog'chasi rivojlanish va ta'limning barcha paydo bo'lgan masalalari bo'yicha "erkin" bo'lishi lozim. Muvaffaqiyatli moslashish ko'plab omillarga - inson salomatligi holati, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, uning asab tizimining xususiyatlari, shuningdek, ota-onalar va bolalar bog'chasi xodimlarining vakolatli harakatlariga ham bog'liq.

Ota-onalar munosabati bolaga nisbatan har xil his-tuyg'ularning tizimi sifatida, u bilan muomalada xulq-atvorning o'zgarmasligi (stereotipligi) bola shaxsi, uning xatti-harakatlari, xarakteri, idrok qilish xususiyatlarini tushunish sifatida qaraladi. Shuningdek, ilk bolalik davridagi emotsional beqarorlik, qo'zg'aluvchanlik xususiyatlariga barham berishga erishish hamda ularda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish situatsion vaziyatlarga bog'liq bo'lgan bolalarning dezadaptatsiyasining oldini olishda muhim hisoblanadi. Bunda ota-ona nazoratni katta farzandlariga yuklaydi, bola bilan kundalik mashg'ulotlarga o'zidan katta aka yoki opasini birgalikda

hamroh tarzda yuboradi, Bu o‘z navbatida, sibling munosabatlar dinamikasining barqarorlashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin.

1-jadval

“Ota-ona va bola munosabatlari diagnostikasi” metodikasining pedagog va ota-onalar tafovutlari


Shkalalar	O‘rtacha rang ko‘rsatkichlari		Statistik ko‘rsatkich	
	Tarbiyachi-pedagoglar (n=85)	Ota-onalar (n=115)	U	P
Qabul qilingan xo‘rlangan	110,82	92,87	4010,500	**0,030***
Simbioz	110,01	93,47	4079,500	**0,043***
Kichik omadsiz	89,18	108,87	3925,500	**0,017***

Izoh: * - *p<0,05*

Ota-ona va pedagoglarning bolaga nisbatan munosabatlari diagnostika qilinganda qabul qilingan-xo‘rlangan shkalasida tarbiyachi-pedagoglar 110,82, ota-onalar 92,87 qayd etib, ishonchli farqlar kuzatildi (U=4010,500, p<0,05). Tarbiyachilarning bolani bor imkoniyatlari, individual-psixologik xususiyatlari, rivojlanish darajasidagi farqlarni inobatga olgan holda munosabatda bo‘lishi balandligi bolaning ijtimoiy moslashishini ta’minlashda muhim o‘rin tutar ekan. Ota-onalarda nisbatan pastroq ko‘rsatkichlar kuzatilganini esa, ko‘proq ularda farzandini “ideallashtirish” motivining yuqori bo‘lishi bilan izohlashimiz mumkin. Shuningdek, ota-onalar farzandiga ish, ro‘zg‘or tashvishlari bilan ko‘p e’tibor qaratmagani natijasida farzandning bor imkoniyatlari, qiziqishlarini to‘g‘ri baholash holatlari kamroq sodir bo‘ladi.

Kooperatsiya, ya’ni hamkorlik ko‘rsatkichida ishonchli tafovutlar aniqlanmasdan, ota-ona va pedagog-tarbiyachilar bolaga yondashuvda hamkorlik, birgalikda faoliyat olib borish, qiziqishlarni hisobga olish, bolaning rejalarini, qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish pozitsiyasini birdek afzal ko‘rishlari ma’lum bo‘ladi (U=4406,500, p<0,230).

Jadval 2



“Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotifa moslashish darajasini aniqlash” metodikasining yosh tafovuti bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichlari

Shu bilan bir qatorda, ota-onalarda farzandlarining ijodiy va aqliy qobiliyatlarini yuqori baholash, u bilan faxrlanish, bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligi uchun uni taqdirlash, u bilan teng bo‘lishga intilish. bolaga ishonch bildirish, munozarali masalalarda uning fikrini ma’qullash kabilar tarbiyachilarga qaraganda balandroq bo‘ladi. Natijalar tahliliga muvofiq, ushbu holatning normadan

yuqori ko‘rinish olishi bolada “tanholik” instinktining rivojlanishida qo‘l keladi hamda bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga borishdan bosh tortadi, xohishlarini ro‘yobga chiqarishmaguncha tinchimaydi. Bu shkala bo‘yicha past ballarda ota-onalar-farzandlariga nisbatan teskari munosabatda bo‘ladilar.

Har bir yosh davrida bolaning xatti-harakati, shuningdek, aqliy rivojlanishi va qiziqishlari alohida psixologik xususiyatlarga ega. Rivojlanish jarayonida bolaning bilimlari va aqliy qobiliyatlari asta-sekin chuqurlashadi, atrofdagi dunyoga munosabati shakllanadi, bolaning shaxsiyati shakllanadi. To‘rt yoshli bolaning asosiy va yetakchi faoliyati - bu uning rivojlanishi, kattalarning turli me’yorlari va xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ruhda reaksiya bildirishi bilan xarakterlanadi. Mazkur yoshda bola otasi, onasi va yaqinlarining harakatlariga “shaxslararo o‘yin” nuqtai nazaridan baho beradi. Ko‘pgina ota-onalar bolaning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatib boradilar. Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ilk muvaffaqiyatlardagi qator quvonch o‘rnini bir qator achchiq muvaffaqiyatsizliklar egallaydi. Afsuski, ota-onalar har doim ham bolaning xatti-harakatlaridagi mavjud vaziyatni yetarli darajada baholay olmaydilar. Har kim ham xuddi shunday yoshda o‘zini eslay olmaydi va boladan kattalar nuqtai nazaridan mantiqiy bo‘lgan harakatlarni talab qiladi. Shuni tushunish kerakki, 4 yoshli bolaning psixologiyasi va uning rivojlanish darajasi faqat hayot yo‘lining eng daslabki pallasidadir. Bola faqat ota-onasi va atrofidagi kattalarning xatti-harakatlarini nusxa ko‘chiradi, taqlid qilish jarayonini to‘liq anglamaydi. Tushkunlik jihatidan 3 yoshli bolaga qaraganda 4 yoshli bolalarda yuqori ko‘rsatkichlarni kuzatilishi ko‘pincha ulardagi nomukammallik kompleksining beqaror rivojlanish bosqichi “talofatlar” bilan kechayotganligida deb aytish mumkin. Yangi madaniy-ijtimoiy muhitga qadam qo‘ygan bola moslashish jarayonini boshdan kechirar ekan dastlab atrofdagilar bilan uzilish holatini “hazm qilishga” to‘g‘ri keladi, so‘ngra muhitga asta-sekin moslashib yangi tajribalar orttirishga urinish boshlanadi.

Bu yoshda bola hali ham kattalarga taqlid qiladi, u ularning harakatlaridan nusxa ko‘chiradi, so‘zlarni va iboralarni, hatto nutqda intonatsiyani takrorlaydi. Shuning uchun nafaqat bola bilan, balki boshqalar bilan qanday muloqot qilishini diqqat bilan kuzatib borish kerak. To‘rt yosh bo‘lgan davrda bolada axloqiy his-tuyg‘ular - do‘stlik va burch hissi, sezgirlik, mehribonlik rivojlanadi. Oldingi his-tuyg‘ular chuqurlashadi - o‘zgalar bilan muloqotda bo‘lgan quvonchli tuyg‘u hamdardlik, mehr-oqibat tuyg‘ulariga aylanadi - hissiy munosabatlar tizimi shakllanadi.

Yosh davriga qarab maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashishning qiyosiy tahlili amalga oshirilganda barcha moslashuvning darajalari bo‘yicha farqlar kuzatilmadi. Bu bolaning moslashish davri ma’lum o‘ziga xosliklar bilan o‘tishi hamda zamon-makon omilining ta’siri sifatida qaralishiga imkoniyat beradi. Ba’zi oilalar bunda ota-ona nazoratni katta farzandlariga yuklaydi, bola bilan kundalik mashg‘ulotlarga o‘zidan katta aka yoki opasini birgalikda hamroh tarzda yuboradi. Bu o‘z navbatida, oiladagi sibling munosabatlar dinamikasining barqarorlashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Jadval-3

“Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilot va moslashish darajasini aniqlash” metodikasining yosh bo‘yicha tahlili (n=235)

Shkalalar	Yosh	O‘rt. rang	Ranglar summasi	u	p
Yengil moslashuv	3 yoshlilar	116,30	15584,50	6539,500	0,658
	4 yoshlilar	120,25	12145,50		
O‘rta moslashuv	3 yoshlilar	119,66	16034,00	6545,000	0,666
	4 yoshlilar	115,80	11696,00		
Qiyin moslashuv	3 yoshlilar	112,59	15086,50	6041,500	0,159
	4 yoshlilar	125,18	12643,50		

Izoh: *p>0,05*

Yuqorida berilgan metodikaning barcha moslashuv darajalarida (yengil (U=6539,500, p>0,05), o‘rta (U=6545,000, p>0,05) hamda qiyin (U=6041,500, p>0,05) moslashuv ishonchli farqlar aniqlanmadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, moslashishning sikli 3 hamda 4 yoshdagi bolalarda unchalik katta tafovutli farqlar qilmas ekan. Bunday ko‘rinish tus olishiga sabab qilib esa, taxminimizcha,

bolalarning bir xil ontogenez bosqichidagi davrda ekanliklari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risidagi ijtimoiy ustanovka va tasavvurlarining o'xshashlik kasb etishlari natijasi sifatida ta'kidlab o'tishimizga turtki beradi.

Maktabgacha yoshi yoshdagi bolada moslashish qobiliyati cheklangan. Kattalar unga yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishga yordam berishlari kerak. Ko'pgina ota-onalar farzandini bolalar bog'chasiga yuborishda o'zlari tashvishga tushishadi yoki aksincha, bu qanchalik jiddiy ekanligini tushunishmaydi. Bolalar bog'chasi jamoasi bu davrning muhimligini tushunib, muammoga alohida e'tibor beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning moslashuvi davrida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga psixologik yordam ko'rsatadi. Barcha mutaxassislarning yaqin o'zaro hamkorligi ushbu jarayonni sifatli amalga oshirish imkonini beradi. Uni tashkil etish masalasi moslashish jarayonining borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar.

1. Tarbiyachi bolalarning rivojlanish darajasini kuzatishi va tahlil qilishi hamda pedagogik ta'sirlarni tashkil etishda uni hisobga olishi, bolalar tashkilot sharoitlariga ko'nikishi uchun qiyin davrda bolalarning xulq-atvorini nazorat qila olishi kerak.
2. MTT psixologi bolalarning ota-onalari bilan maslahat va suhbatlar o'tkazishi, ularni kundalik tartib, bolaga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirishi zarur.
3. MTMga bolalarni tayyorlash potensial tarbiyalanuvchilar haqida ma'lumot to'plashdan boshlanishi kerak bo'ladi.
4. MTM ota-onalar yig'ilishlarini tashkil etishi, ota-onalar uchun bolalarning bog'chadagi hayotini tashkil etish, ovqatlanish, kundalik tartib, ta'lim dasturi, bolalarni tarbiyalash, moslashuv davrining xususiyatlari, moslashish ko'rsatkichlari, madaniy-gigiyena va o'z-o'zini parvarish qilish ko'nikmalari haqida yaqindan ma'lumot berishi, tarbiyachi-pedagog va bolalar psixologi orqali profilaktik ishlarni olib borishi kerak.
5. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashtirishda «ota-onaga bo'lgan ijobiy munosabat», «aka-opaning bolaga pozitiv bahosi» hamda «bobo-buvining ma'naviy-kollegial qo'llab-quvvatlashi»ni samarali tashkil etishga yordam berish zarur.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Лапина И.В. Адаптация детей при поступлении в детский сад: программа, психолого-педагогическое сопровождение. Волгоград: Учитель, 2015. 128 с.
2. Социальная адаптация детей в дошкольных учреждениях // Под ред. Р.В.Тонковой-Ямпольской, Е.Шмидт-Кольмер, А.Атанасовой-Буковой. М., 2008. 320 с.
3. Морозова Е.И.2002. Группа кратковременного пребывания: мой первый опыт сотрудничества с родителями // Дошкольное воспитание. № 11.С.10-14.
4. Остроухова А. Успешная адаптация // Обруч. № 3. С. 16-18. 2000.
5. Балл Г.А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности [Текст] / Г.А.Балл // Вопросы психологии. – 1989. – № 1. – С. 92-100.
6. Барышникова Е.В. Изучение психологической адаптации детей раннего возраста к дошкольному образовательному учреждению // Концепт. - 2015. - № 03 (март). - ART 15066. - 0,3 п. л. - URL: http://e-koncept.ru/2015/15066.htm. - Гос. рег. Эл № ФС 7749965. - ISSN 2304-120X.
7. Долгова В.И., Капитанец Е.Г., Кондратьева О.А., Шумакова О.А. Психолого-педагогическое сопровождение детско-родительских отношений: монография. - М.: Буки Веди, 2012. - 152 с.
8. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. СПб.: Питер, 2016. 400 с.

Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi doktoranti

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) vositalarining yosh avlod psixologik barqarorligiga ta'siri ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganiladi. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi yoshlar orasida uchraydigan emotsional muvozanat buzilishi, stressga chidamlilik darajasi, shaxslararo munosabatlarga ta'siri va ijtimoiy moslashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Mualliflar SI vositalarining ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlab, psixologik barqarorlikni saqlab qolish uchun taklif va tavsiyalarni beradi. Shuningdek, maqolada SI vositalarining o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi psixologik resurslarga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, psixologik barqarorlik, yoshlar, ijtimoiy-psixologik ta'sir, stressga chidamlilik, emotsional muvozanat, raqamli texnologiyalar, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy moslashuv.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ СРЕДСТВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПСИХОЛОГИЧЕСКУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье изучается влияние средств искусственного интеллекта (ИИ) на психологическую устойчивость молодого поколения с социально-психологической точки зрения. В исследовании анализируются эмоциональная неуравновешенность, стрессоустойчивость, влияние на межличностные отношения и процессы социальной адаптации у молодых людей с использованием технологий искусственного интеллекта. Авторы выявляют положительные и отрицательные стороны средств искусственного интеллекта и дают предложения и рекомендации по поддержанию психологической устойчивости. В статье также рассматривается влияние средств искусственного интеллекта на такие психологические ресурсы, как самосознание, самоуправление и социальная поддержка. Результаты исследования имеют практическое значение для специалистов, работающих с молодежью, учителей и родителей.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, психологическая устойчивость, молодежь, социально-психологическое воздействие, стрессоустойчивость, эмоциональное равновесие, цифровые технологии, межличностные отношения, социальная адаптация.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE INFLUENCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS ON THE PSYCHOLOGICAL STABILITY OF YOUTH

Annotation. *This article studies the impact of artificial intelligence (AI) tools on the psychological stability of the younger generation from a socio-psychological perspective. The study analyzes the emotional imbalance, stress tolerance, impact on interpersonal relationships, and social adaptation processes among young people using artificial intelligence technologies. The authors identify the positive and negative aspects of AI tools and provide suggestions and recommendations for maintaining psychological stability. The article also examines the impact of AI tools on psychological resources such as self-awareness, self-management, and social support. The results of the study are of practical importance for specialists working with young people, teachers, and parents.*

Keywords: *artificial intelligence, psychological stability, youth, socio-psychological impact, stress resistance, emotional balance, digital technologies, interpersonal relationships, social adaptation.*

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ish bilan ta’minlash, kommunikatsiya va hatto shaxsiy hayotda ham SI vositalarining roli ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar – raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan avlod sifatida – ushbu vositalardan faol foydalanmoqdalar. Biroq bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ayrim salbiy psixologik oqibatlari ham kuzatilmoqda.

Yoshlarning psixologik barqarorligi, ularning emotsional holati, stressga qarshi chidamliligi va ijtimoiy moslashuv darajasi SI vositalaridan foydalanish fonida o‘zgarib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektning yoshlar psixikasiga, ularning shaxslararo munosabatlariga va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur o‘rganish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Sun’iy intellekt vositalarining yoshlar psixologik barqarorligiga ta’siri ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Shu orqali biz zamonaviy texnologiyalar sharoitida yoshlarning ruhiy holatini sog’lom ta’minlashda qanday strategiyalar va yondashuvlar samarali bo‘lishini aniqlashni maqsad qilganmiz.

Sun’iy intellekt vositalarining yoshlarning psixologik barqarorligiga ko‘rsatayotgan ijtimoiy-psixologik ta’sirini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan psixologik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt texnologiyalarining asosiy turlari va ularning yoshlar hayotidagi o‘rnini tahlil qilish, yoshlarning psixologik barqarorligi tushunchasini aniqlashtirish hamda uning asosiy tarkibiy qismlarini ochib berish, sun’iy intellekt vositalarining yoshlar emotsional holati, stressga chidamliligi va ijtimoiy munosabatlariga ta’sirini aniqlash, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar orqali yoshlar orasida sun’iy intellektdan foydalanishning psixik holatga ta’sirini empirik jihatdan asoslash hamda yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar (psixologlar, pedagoglar, ota-onalar) uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur ishni ilmiy tadqiqot metodologiyasi sun’iy intellekt vositalarining yoshlarning psixologik barqarorligiga ta’sirini o‘rganishda kompleks yondashuv asosida quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

1. Nazariy tahlil metodi:

Tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida psixologiya, sotsiologiya va axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy adabiyotlar, ilg‘or xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, maqolalar hamda statistik hisobotlar o‘rganildi. Bu orqali sun’iy intellekt vositalarining inson psixikasiga ko‘rsatadigan ta’siri bilan bog‘liq nazariy qarashlar tahlil qilindi.

2. Empirik tadqiqot usullari:

So‘rovnoma (anketa): Turli oliy o‘quv yurtlari talabalari va maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilib, sun’iy intellektdan foydalanish darajasi, emotsional holat, ijtimoiy faollik, stressga chidamlilik kabi jihatlar o‘rganiladi.

Psixologik testlar: Psixologik barqarorlik va emotsional muvozanatni baholash uchun “Psixologik barqarorlik indeksi”, “Stressga chidamlilik testi” kabi standartlashtirilgan psixometrik vositalar qo‘llaniladi.

Suhbat va kuzatuv: Yoshlarning sun’iy intellekt vositalaridan qanday va qanchalik foydalanishini bevosita kuzatish hamda chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali individual holatlarni o‘rganish amalga oshiriladi.

Xorijda olib borilgan tadqiqotlarchilardan AQSh va YYevropa davlatlaridan
Kembrij, Stenford, MIT kabi universitetlarda yoshlarning sun’iy intellekt vositalariga qaramligi, ularning emotsional salomatligi, stressga chidamliligi va shaxsiy rivojlanishiga ta’siri chuqur o‘rganilgan. 2019 yilda “Twenge & Campbell”[1] tamonidan ijtimoiy tarmoqlardagi sun’iy algoritmlarning yoshlar orasida yolg‘izlik va depressiya holatlarining oshishiga olib kelishini aniqlagan. 2021 yilda esa “UNESCO”[2]ning yoshlar va bolalarga ta’sir qiluvchi raqamli texnologiyalarni tahlil qilib, psixologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro tavsiyalar ishlab chiqqan. Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlarida sun’iy intellekt vositalarining ta’lim va ijtimoiy hayotdagi roli bilan bir qatorda, ularning psixologik ta’sirini o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda. Hikikomori fenomeni (ijtimoiy chekinish) sun’iy muhitga haddan ortiq bog‘lanish natijasida yoshlar real hayotdan chetlashishi holatlari tahlil qilingan[4].

MDH davlatlarida olib borilgan tadqiqotlaridan Rossiyada sun'iy intellekt va raqamli vositalarning ta'siri psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan o'rganilgan. 2020 yillarda L.F.Obukhova va I.A.Baenkolar maktab va kollej o'quvchilari orasida smartfon va SI asosidagi dasturlardan haddan ziyod foydalanish natijasida stress, emotsional charchoq va e'tibor muammolari yuzaga kelishini ta'kidlagan[3]. Moskva Davlat Universiteti tadqiqotchilari psixologik barqarorlikni saqlashda raqamli gigiyena va oila bilan sog'lom kommunikatsiyaning ahamiyatini ko'rsatgan. Shuningdek Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlarida raqamli transformatsiya doirasida yoshlarning sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish madaniyati va uning ta'siri haqida monitoring ishlari olib borilgan, biroq chuqur empirik tadqiqotlar hali cheklangan.

O'zbekistonda bu mavzu hali to'liq o'rganilgan emas, ammo ba'zi ilmiy ishlar mavjud. Masalan: Toshkent davlat pedagogika universiteti va Nizomiy nomidagi TDPUda raqamli texnologiyalar, internet qaramligi va yoshlarning psixik salomatligi haqida bakalavr va magistrlik dissertatsiyalari yozilmoqda. Psixologiya fanlari doktori S.Mamatqulov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarning raqamli muhitda ijtimoiy-emotsional rivojlanishi va psixologik barqarorligi tahlil qilingan[5]. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida 2022-yildan boshlab "Raqamli maktab" loyihasi[6] doirasida raqamli vositalarning bolalar psixikasiga ta'siri ustida monitoring ishlari olib borilmoqda.

Sun'iy intellekt vositalarining yoshlar psixikasiga ta'siri haqida aniq tushuncha shakllanadi – Tadqiqot natijasida sun'iy intellekt vositalarining yoshlarning emotsional holati, stressga chidamliligi, motivatsiyasi va ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir qilayotgani haqida aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar olish, yoshlar orasida SI vositalaridan foydalanish darajasi va psixologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi – O'tkazilgan empirik tadqiqotlar orqali yoshlarning SIga qaramlik darajasi va ularning psixologik barqarorlik indeksi o'rtasidagi statistik munosabatlar ochib berish, psixologik barqarorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi – Oila, maktab va oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar (psixologlar, pedagoglar) uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, raqamli gigiyena va axborot madaniyati to'g'risida yoshlar ongida muhim fikrlar shakllantiriladi – sun'iy intellekt vositalaridan foydalanganda o'zini himoya qilish, hissiy muvozanatni saqlash va ijtimoiy ongni barqarorlashtirish bo'yicha tushunchalar kengaytirish hamda O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt va psixologik barqarorlik masalasini o'rganish bo'yicha ilmiy baza yaratilib, mahalliy empirik dalillarga asoslangan holda bu masalaga oid dastlabki ilmiy tavsiyalar shakllanadi va keyingi izlanishlarga zamin yaratilishdan iborat[7].

"Psixologik barqarorlik" metodikasi (S. Maddi adaptatsiyasi) statistik ma'lumotlar (3 viloyat bo'yicha) n-157

Viloyat	Respondentlar soni	Jins (Erkak/Ayol)	Yosh oralig'i	SI vositalaridan foydalanish darajasi (%)	Psixologik barqarorlik darajasi (o'rtacha ball)	Korrelyatsiya (r)
Toshkent	55	30/25	18-25	78%	4.1	0.62
Farg'ona	50	27/23	18-25	71%	3.8	0.58
Samarqand	52	28/24	18-25	75%	3.9	0.60

Tadqiqotimizda 157 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan natijalariga ko'ra, yoshlar orasida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan sari, ularning psixologik barqarorlik darajasi ham nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Tadqiqot 3 ta viloyat – Toshkent, Farg'ona va Samarqand hududlarida olib borildi. Toshkent viloyatida respondentlarning 78% sun'iy intellekt vositalaridan faol foydalangan bo'lsa, ularning psixologik barqarorlik o'rtacha darajasi 4,1 ballni tashkil etdi. Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich 71% va 3,8 ballni tashkil etdi. Samarqandda 75% AI vositalari bilan faol muloqot qiluvchi yoshlar 3,9 ballga teng psixologik barqarorlikni ko'rsatdi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti r = 0,62 ni tashkil etdi, bu esa sun'iy intellektdan foydalanish darajasi bilan psixologik barqarorlik o'rtasida o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Boshqacha

aytganda, texnologik savodxonlik va AI vositalarini ongli foydalanish yoshlarning stressga chidamliligini oshirish, ichki resurslarni safarbar qilish, kelajakka ijobiy qarash singari psixologik holatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan yoshlar, odatda: yangi bilimlarga ochiq, muammoli vaziyatlarni tez tahlil qilishga qodir, o'z-o'zini boshqarish va moslashuvchanlik ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa ularning psixologik barqarorligini oshirishga yordam beradi. Aksincha, AI texnologiyalaridan chetda qolgan yoshlar tez-tez psixologik notinchlik, o'ziga ishonchsizlik va kelajakdan xavotir holatlariga duch kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt vositalari yoshlarning psixologik holatiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: Ular bir tomondan ta'lim, rivojlanish va ijodiy imkoniyatlarni kengaytirsa, boshqa tomondan emotsional zo'riqish, stress va yolg'izlik hissini kuchaytirishi mumkin.

1. Psixologik barqarorlik darajasi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish uslubi bilan bevosita bog'liq bo'lib, me'yorda va maqsadli foydalanish ijobiy natija berishi mumkin bo'lsa-da, sun'iy intellektga haddan ortiq bog'lanish ruhiy holatni izdan chiqarishi ehtimoli yuqori.

2. Oila va ijtimoiy muhitning nazorati psixologik barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi va yoshlar uchun psixologik tayanch bo'lish, texnologiyadan foydalanish madaniyatini shakllantirish SIning salbiy ta'sirini kamaytiradi.

3. Raqamli gigiyena va axborot madaniyati yoshlar orasida psixologik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashi orqali yoshlarni sun'iy intellekt vositalaridan ongli, maqsadli va xavfsiz foydalanishga o'rgatish ularning emotsional salomatligini qo'llab-quvvatlaydi.

4. O'zbekiston sharoitida bu boradagi ilmiy izlanishlar endi rivojlanmoqda, ammo dolzarbligi juda yuqori bo'lishi mahalliy ijtimoiy-psixologik kontekstda SI vositalarining ta'sirini o'rganish, yoshlarning psixik salomatligini himoya qilishga qaratilgan milliy dasturlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Twenge, J.M., & Campbell, W.K. (2019). The Narcissism Epidemic: Living in the Age of Entitlement. New York: Atria Books.
2. UNESCO. (2021). Guidelines for the Governance of Digital Platforms for Children and Youth.
3. Obukhova, L.F., & Baenko, I.A. (2020). Vliyanie tsifrovoy sredy na psikhologicheskuyu ustoychivost detey i podrostkov. MGU Publishing.
4. Hikikomori Studies. (2020). Social withdrawal in Japan: Causes and Prevention. Tokyo University Press.
5. Mamatqulov, S. (2022). Yoshlarning raqamli psixologik barqarorligini shakllantirishda psixoprofilaktikaning o'rni. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). Raqamli maktab loyihasi hisobotlari.
7. TDPU magistrlik dissertatsiyalari to'plami (2021–2023 yillar).

UDK 301.085:15 (045)

Jabborov Ismoil
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:ismoiljabborov19@mail.ru

OILAVIY QADRIYATLARNING KUNDALIK TURMUSHDA NAMOYON BO’LISH JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi zamon oilalarida er-xotin munosabatlariga oid ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mazmuni haqida so‘z yuritilgan. Xususan, o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning maqsadga muvofiq kechishi uning a’zolari, xususan er-xotinlarning oilaviy qadriyatlarni qanday darajada kundalik turmushda namoyon qilishlariga bog‘liq muhim jihatlar ekanligi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, er-xotin, inqiroz, shubhalanish, rashk, jizzakilik, rol, ojizlik, norozilik, qadriyat, barqarorlik, shaxslararo munosabat.*

ASPECTS OF MANIFESTING FAMILY VALUES IN DAILY LIFE

Abstract. *This article discusses the content of the socio-psychological characteristics of marital relations in modern families. In particular, it is shown that the successful coordination of marital relations in Uzbek families depends on the extent to which its members, especially spouses, demonstrate family values in everyday life.*

Key words: *Family, couple, crisis, suspicion, jealousy, lust, role, powerlessness, dissatisfaction, value, stability, interpersonal relationships.*

АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В статье рассматривается содержание социально-психологических особенностей супружеских отношений в современных семьях. В частности, показано, что успешность координации супружеских отношений в узбекских семьях зависит от того, в какой степени ее члены, особенно супруги, демонстрируют семейные ценности в своей повседневной жизни.*

Ключевые слова: *Семья, пара, кризис, подозрение, ревность, похоть, роль, бессилие, неудовлетворенность, ценность, стабильность, межличностные отношения.*

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevori o‘zbek xalqining qadriyatlari va ma’naviy merosi ravnaqini ta’minlovchi tarbiya maskanidir. Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – bu o‘z orzusidagi jufti bilan baxtli bo‘lish, farzand ko‘rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta’minlashdan iboratdir.

Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg‘or vakillari diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamoloti uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Afsuski, oila-nikoh munosabatlarining bugungi kunga kelib zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli ko‘pchilik mamlakatlarida: Amerika Qo‘shma shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiq bo‘yi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. [4,35].

Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik o‘zgarishlar, shu barobarida shaxs kamoloti o‘tgan yuz yillik davomida oilaviy munosabatlar tizimida keskin o‘zgarishlarga olib keldi. Bu esa zamonaviy oilaning tarkibiy tuzilmasi, undagi shaxslararo munosabatlarda ancha chigal muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mabodo oila psixologiyasining muammolari bilan (masalan, qarang. [3;253] tanishib chiqqanda ham tadqiqotchi psixologlar va amaliyotchi psixologlar e’tiborini tortgan ikkita markazni ko‘rish mumkin: oila ijtimoiy tizim tarzida va oila ta’lim beruvchi institut sifatida. Boshqacha aytganda, har holda, hozirgi paytda oila muammolari bilan shug‘ullanadigan psixologlar asosan, quyidagi ikkita talab-ehtiyojga xizmat qilishyapti: jamiyatning bazaviy unsuri bo‘lgan oila saqlanib qolishini ta’minlash va oilaning jamiyat madaniyatini insonlarning bir avlodidan boshqa avlodiga yetkazishini tekshirish. Shu bilan birga tadqiqotlarda va amaliyotda aynan shu ikkita ehtiyojga urg‘u berilishi zamonaviy oila o‘zining bu ikki eng muhim vazifasini bajara olmay qolayotganligidan guvohlik bermoqda.

Ushbu holatni xalqaro miqyosida ko‘rish imkoniyati tug‘iladigan bo‘lsa, quyidagicha tasvirlashning o‘zi kifoya qiladi. Bir qator izlanishlarning ko‘rsatishicha, xususan Rossiyada quyidagi sabablar oilalar notinchligining bevosita va bilvosita ko‘rsatkichlari hisoblanadi: tug‘ilish sonini kamayib borayotganligi, abortlar soni jihatidan dunyoda eng yuqori ko‘rsatkich, nikohsiz tug‘ilishlarning ortib borayotganligi, bolalar va onalar o‘limining g‘oyat yuqoriligi, umrning qisqaligi, buzilayotgan oilalar sonining ko‘pligi, muqobil nikoh va oila turlarining o‘zgaruvchanligi (onalar oilalari, birga yashash, er-xotinning alohida yashashiga asoslangan oilalar, o‘z jinsidagilar bilan qurilgan oilalar, asrandi farzandli oilalar va hokazo), oilalarda bolalar bilan shavqatsiz munosabatda bo‘lish hollarining ko‘payishi [2; 13-25, 31, 36, 114 b.].

Zamonaviy oilani o‘rganuvchi mutaxassislar (faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, iqtisodchilar va boshqa ixtisoslar)ning aksariyat ko‘pchiligi “hozir oila haqiqiy tanazzulni boshidan kechirmoqda” degan xulosaga kelishyapti. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy (o‘rtacha) darajasi yuksalgan, kishilarning turmush va moddiy farovonlik darajasi oshgan sari bu tanazzul yanada yorqinroq namoyon bo‘lmoqda.

Biroq, bu o‘rinda muhim bir izoh berib o‘tish zarur: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi (ayniqsa, xususan hozirgi Rossiya ham shular jumlasiga kiradigan o‘tish davri deb ataluvchi bosqichni boshidan kechirayotgan jamiyatlardagi uning yuksak sur’ati) butun jamiyatga, binobarin, uning eng muhim kichik tuzilmasi bo‘lgan oilaga baqarorlikni haddan ziyod buzuvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bunday ta’sir oilaviy muammolar sonining ko‘payishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy darajasi bilan ko‘proq umumiy bog‘liqlikni har jihatdan niqoblab turadi.

Hozirgi oilaning tanazzuli, ko‘pincha umuman ijtimoiy hayotdagi katta o‘zgarishlar taqozosidir. Sotsiologiya va psixologiya oralig‘ida olib borilayotgan tadqiqotlar insonning oila bilan va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalari tizimidagi o‘zaro munosabatlari tubdan o‘zgarishi ko‘p jihatdan jamiyat ijtimoiy-guruhiy tuzilishining murakkablashuvi natijasi ekanligini g‘oyat ishonchli ravishda ko‘rsatib turibdi. G.G.Diligenskiyning ta’kidlashicha, “jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishiga asoslangan katta va kichik guruhlar insonlar o‘rtasidagi bevosita munosabatlari tutashadigan, ularning mayllari, tasavvurlari, qadriyatlari shakllanadigan maydon sifatidagi roli tobora boy berilmoqda. Ana shunday guruhlardan har biri, uning “quyi”, boshlang‘ich yacheykalari bilan shaxs o‘rtasidagi aloqalar zaiflashmoqda. Bu madaniyatni moddiy va madaniy iste’mol turlarini, ijtimoiy axborot manbalari va mazmunini, turmush tarzi va bo‘sh vaqtni o‘tkazish usullarini “ommaviylashtirish”, “o‘rtacha holga keltirish” singari yaxshi ma’lum jarayonlar yo‘qqa chiqaradi. Individ bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda siljishlar inson ijtimoiy aloqalarining ko‘proq qayishqoq, har tomonlama keskinlikni yumshatish tomon bormoqda va demakki, uning shaxsiyati namoyon bo‘lishi uchun kengroq maydon yaratadi” [1; 119-120].

An’anaviy jamiyatlarda va an’anaviy oilalarda vujudga kelayotgan vaziyatlardan farqli o‘laroq, hozirgi dunyoda, inson, odatda “Men o‘zim kimman va kimga yo‘ldoshman?”, “Mening uchun nima ahamiyatliroq va nima ahamiyatsizroq, nimaga intilishim kerak va nimaga ahamiyat bermasligim lozim?” degan savollarga tayyor javob ola bilmaydi. Bu savollarga javobni uning o‘zi topishi darkor. Zamonaviy insonning ijtimoiy tajribasi, uning dunyo haqidagi bilimlari tobora xilma-xil, ziddiyatli, “uzuq-yuluq” bo‘lib borar ekan, shaxsning o‘z o‘rnini erkin topish maydoni, binobarin, uning hayotiy muammolari maydoni ham kengaya boradi [1; 121-122].

Shunday qilib, jamiyatning va uning “quyi yacheyka”laridan bo‘lgan oilaning rivojlanishi har xil oilaviy muammolar ko‘payishiga va oqibat natijada zamonaviy oilaning umumiy tanazzuliga olib keladi.

O‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning maqsadga muvofiq kechishi uning a’zolari, xususan er-xotinlarning oilaviy qadriyatlarni qanday darajada kundalik turmushda namoyon qilishlariga bog‘liq. Shu bois, tadqiqot natijalariga murojaat qilaylik. Er-xotinlarning oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlari yuzasidan olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval-1

Er-xotinlarning oilaviy qadriyatlari ko‘rsatkichlari

Qadriyatlar	Shkalalar	X	σ	t	p
Ota-ona tarbiyachilik funksiyasi	EOQSH	7,55	1,07	0,762	0,450
	XOQSH	7,39	1,22		
	EXOQM	1,02	0,98		
Ijtimoiy faollik	EOQSH	7,58	1,07	-1,035	0,307
	XOQSH	7,82	1,05		
	EXOQM	1,23	0,84		
Hissiy-psixoterapevtik	EOQSH	7,38	1,03	-0,124	0,902
	XOQSH	7,40	0,88		
	EXOQM	0,95	0,79		
Tashqi jozibadorlik	EOQSH	6,67	1,06	-1,481	0,146
	XOQSH	7,05	1,25		
	EXOQM	1,39	0,94		

1. Ota-ona tarbiyachilik funksiyasi. Bu shkala er-xotinlarning ota-onalik majburiyatlariga munosabati, farzandlar shakllanishidagi shaxsiy pozitsiyalari, ota-onalik funksiyalariga taalluqli tasavvurlarini ifodalaydi.

Er-xotinlarning ota-onalik hamda tarbiyachilik funksiyalari to‘g‘risidagi tasavvurlari, ularning shaxslilik pozitsiyalari, ijtimoiy talablarga mas’uliyat, jamiyat va oila munosabatlaridagi o‘rinlarini belgilaydi. Bu shkala bo‘yicha er-xotinlar nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarni, ya’ni 7,55(1,07 ball. (erlar) va 7,39(1,22 ball (xotinlar) bilan qanoatlanganliklari ifodalangan. Ota-onalik va tarbiyachilik funksiyasiga ularning ijobiy tasavvurga egaligi o‘zbek xalqining azaldan “bolajon”ligi natijasidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar er-xotinlarning bu boradagi funksiyalariga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Er-xotinlarning farzandlariga nisbatan ota-onalik mehri tabiiy asoslansada, ammo tarbiyaviy faoliyatida anchagina tanazzul ko‘zga tashlanmoqda. Ota-onalar ko‘proq farzandlarning moddiy ta’minoti bilan mashg‘ul bo‘lishlari, oilaviy tarbiya jarayonida muayyan darajada bo‘shliq hosil bo‘layotganligi kuzatiladi. Bu esa zamonaviy oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitda inqirozni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, er tomonidan oilaning maishiy-xo‘jalik sohasiga asosiy e’tibor qaratayotganligi, unda ota tarbiyasining o‘rni bo‘shab qolayotgani, onaning uy yumushlari bilan muttasil mashg‘ulligi o‘g‘il-qizlar ota-onaning doimiy nazoratidan chetga qolishiga olib kelmoqda.

Natijalar er-xotinlarning ota-onalik, tarbiyachilik ustanovkalari bo‘yicha tasavvurlari ijobiy bo‘lsa-da, lekin real muhitda bu majburiyatlar “begonalashayotganga o‘xshab qolmoqda”.

Er-xotinlarning ushbu doiradagi tasavvurlari dastlabki uchala shkala bilan navbatdagi uchta shkalani birlashtiruvchi bo‘lib hisoblanadi. Shu bois, shkala er-xotinlarning ota-onalik rollari oilaning bir butun jips tizim sifatida o‘z atrofida birlashtiruvchi qadriyat ekanligini unutmaslik kerak. Oilaning tanazzuli va undagi shaxslararo munosabatlar ham mazkur rollarning buzilishi zamirida yuz beradi.

2. Ijtimoiy faollik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi ijtimoiy faolligini, ya’ni kasbiy va jamiyat hayotidagi oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilovchi ustanovkalarni aks ettiradi.

Ijtimoiy faollik shkalasi er-xotinlarning maishiy-xo‘jalik va tarbiyachilik funksiyalarini sifat ko‘rsatkichi ham hisoblanadi. Albatta, oilaviy munosabatlarning barqarorligi er-xotinning savodxonlik darajasi, kasbiy faoliyati va mahalla-ko‘y orasidagi mavqelariga bog‘liq.

Er-xotinning oilaviy munosabatlarda e'zozlanishi, muammolarning joy-joyida hal qilinganligi ijtimoiy munosabatlar (er yoki xotinning mehnat qilayotgan jamoasidagi, yashayotgan mahallasidagi, qon-qarindoshlar orasidagi shaxsiy mavqei)dagi rolini belgilaydi.

Erkak kishi oilani moddiy ta'minlash uchun qandaydir ishning boshini tutgan bo'lishi kerak.

Er-xotinning oiladan tashqari qiziqishlari shaxslararo ta'sirlashuv jarayonining asosiy qadriyati hisoblanadi.

Natijalarda esa quyidagicha manzara kuzatildi, ya'ni erlar 7,58(1,07 ball, ayollar 7,82(1,05 ball to'pladi. Bu esa ayollarda turmush o'rtoqlarining kasb-kori, mavqei, ularning qiziqishlari muayyan ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Erkaklarga ayollarini qanday faoliyat mazmuniga ega bo'lishi (so'zsiz o'zgarishlarga olib keladi) unchalik ahamiyat kasb etmas ekan. Insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasida ham er oilani moddiy jihatdan ta'minlashning asosiy kuchi hisoblanadi. Yangi oila qurilayotgan vaqtda, nikohda kuyov yigitdan islom dini qoidalariga ko'ra bir qator shart-talablar qo'yilishini aniq bilamiz. Ammo, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy muhitning o'zgarishi er bilan xotinning oiladagi moddiy ta'minotdagi funksiyasini o'zgarib borishiga olib kelayotganligi uning tuzilishida ba'zan buzilishlarni keltirib chiqarmoqda.

3. Hissiy-psixoterapevtik. Bu shkala er-xotinlarning oiladagi emotsional-psixoterapevtik funksiyalari ahamiyatini belgilovchi hisoblanadi. Shkala-mazmuniga ko'ra, ikki xil jihatli ma'noga ega. Birinchidan, er-xotinlarning oiladagi hissiy liderlikni, psixologik muhitni, axloqiy va hissiy qo'llab-quvvatlash hamda "psixoterapevtik muhitni" shakllantirish masalasini aks ettirsa, ikkinchidan, er-xotinlarning oila "psixoterapevti" rolini bajarishga intilishini belgilaydi. Natijalarning umumiy mazmuni er-xotinlarning o'zaro axloqiy va hissiy jihatdan oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashi, uni ardoqlashi, unda psixologik xotirjamlik va barqarorlikni muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Bizning tadqiqotimizda "hissiy–psixoterapevtik" shkalasi bo'yicha tekshiriluvchilar quyidagi ko'rinishdagi ma'lumotlarni namoyon qildilar. Erkaklar 7,38(1,03 ball, ayollar 7,40(0,88 ball (r-farqlar ishonchliligi kuzatilamadi). Natijalarimiz bir tomondan ajoyib ma'lumotlar berishga, ikkinchidan, ancha taajjubli holatga olib kelmoqda. Chunki erkaklarda natijaning o'rtacha miqdorini namoyon qilganligi, oiladagi liderlik funksiyasini ayollarga berib qo'ymayotganmikanlar degan mulohazaga olib kelmoqda. "Ijtimoiy-faollik" shkalasidagi natijalar ham buni tasdiqlamoqda. Bugungi oilalardagi inqirozli holatlarda erkaklarning undagi yetakchilik funksiyasi o'zgarganligi ancha sezilib qolmoqda. Ba'zan xalq orasida "erkak ko'cha odami" degan odatiy jumlalarni eshitamiz. Ammo oilaning mustahkamligi, ijobiy-psixologik muhit, er-xotinning hamda undagi ma'naviy-hissiy qo'llab-quvvatlashda erkakning rolini oshirish bugungi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Natijalar bo'yicha korrelyatsion tahlil ham buni yana bir bora haqchil xulosa ekanligini ko'rsatmoqda. (2.2.1-jadval)

Ayollarning natijalari o'rtachadan ancha yuqori 6,10(ball. Bu ayolning oiladagi liderlikni, hissiy-psixologik muhitni stabillashtiruvchi unda psixoterapevtik rol bajarayotganligidan dalolat bermoqda. Oila a'zolarining ma'naviy va hissiy qo'llab-quvvatlashda ayolning o'rni yuqori ekanligini tasdiqlasakda, ammo jiddiy hayotiy masalalarda va nizoli vaziyatlarda ayolning hissiy xulosalarga kelishini e'tibordan chetda qoldirmaslik ma'qul. Mabodo, ota va onaning farzandlariga nisbatan mehr-muhabbatlari ham oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning belgilovchi omillaridan biri deb qaraydigan bo'lsak, klassik psixologiya vakili E.Frommning quyidagi fikriga e'tibor qaratish joiz: "Otaning farzandlariga muhabbati majburiyat doirasidan, onaning bolalariga sevgisi esa tabiiydir". E.Fromm fikrining o'ziga xos (jihati) tomoni bor. Agar ushbu mulohazani ayolning faoliyati bilan bog'laydigan bo'lsak, uning oilada "psixoterapevtik" funksiyani amalga oshirish uchun mas'ul shaxs sifatida sanash mumkin. Farzandlar kamoloti, oiladagi ozodalik-sarishtalik, erga e'tibor qaratish, oila a'zolari o'rtasida mehr-muhabbatni tarkib toptirishda ayolning rolini oshirish tabiiy holdir. Ammo oiladagi ayol bilan erkakning funksiyalarini keskin ravishda taqsimlab qo'yish maqsadga muvofiq bo'lmasa kerak. Funksiyalar tengligiga erishishga qaraganda vazifalar uyg'unligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

4. Tashqi jozibadorlik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi qiyofalari va ularning kiyinishlarini zamon talablari darajasiga mosligi ahamiyatini belgilovchi ustanovka hisoblanadi. Shkaladan ko'rinib turganidek er-xotinlarning eng yoqimtoy juftlik bo'lishi tashqi jozibadorlikka egalik, bejirim va zamonaviy kiyinishga intilishi masalasi oilaviy munosabatlarning muhim shartidir.

“Onangni otangga pardozsiz ko‘rsatma” degan maqolning o‘zi shkalaning to‘liq mazmunini ochib beradi. Umumiy psixologiya va ijtimoiy psixologiyada insonni inson tomonidan idrok qilishda tashqi qiyofaning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar talaygina.

Ular insonni inson tomonidan idrok qilishda tashqi ko‘rinish, kiyinish, gavda tuzilishi va xatti-harakatlar ifodasi muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslashgan. Yigit qizni yoki aksincha bir-birlarini yoqtirishlarida tashqi qiyofa va joziba yetakchi o‘ringa egaligi kundalik hayotda ham ko‘p kuzatilmoqda. Chunki, shaxs to‘g‘risidagi dastlabki taassurotlarni idrok orqali va nazar tashlash tufayli olinganligi bois bunday holatni tan olmasdan ilojimiz yo‘q.

Oilaviy munosabatlarda er-xotinning bir-birlariga nisbatan yoqtirish va yoqtirmasliklarida didga mos kiyinish, go‘zal qiyofaga va husnga egalik, o‘zaro ta’blarini hisobga olgan holda kiyim tanlashlari, kiyimlarning orastaligini e’tiborga olishlari ham muhimdir. Erkak ham, ayol ham tabiatan tashqi jozibadorlik, go‘zallikka da’vogar. Ammo bu da’vogarlikni kim qanchalik darajada amalga oshirishi shaxs kamolotiga bog‘liq. “Tashqi” jozibadorlik shkalasiga ko‘ra erlar ham, ayollar ham shaxsiy yoqimtoylik, zamonaviy va orasta kiyinishga intilishlaridan dalolat bermoqda.

Deyarli, har ikki jins vakillari shkala bo‘yicha ancha yuqori natijani namoyon qilishgan, chunonchi, erlar 6,67(1,06 ball, ayollar esa 7,05(1,25 ball to‘plashgan. Natijalarning bunday yuqori darajada bo‘lishi tekshiriluvchilarning tasavvur timsollari mahsuli hamdir. Tasavvur va xohish istaklarni ro’yobga chiqarish esa ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, madaniy muhit, shaxsning dunyoqarashi va his-tuyg‘ulariga bog‘liqdir. Ammo qanday bo‘lishidan qat’i nazar er-xotinlar "tashqi jozibadorlikka" da’vogar ekanlar.

Er-xotinlarning oilaviy qadriyatlar shkalalari bo‘yicha ko‘rsatkichlari quyidagi xulosani keltirib chiqardi:

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, er-xotinlar juftligining oilaviy qadriyatlar bo‘yicha muvofiqligi ma’lum darajada farqlanar ekan. Er-xotinlarning oilaviy turmush faoliyatining muhim sohalari bo‘yicha farqlari belgilangan meyordan oshib ketganligi kuzatildi (belgilangan meyor-3 balldan oshmasligi kerak). Er-xotinning oilaviy munosabatlarida ota-onaning tarbiyachi sifati, ehtiyojlar, tasavvurlar, ularning turmush maqsadlari muhim o‘rin tutar ekan.

Yana shuni aytish joizki, oilaviy munosabatlardagi beqarorlik ota-onalik majburiyatlariga yetarlicha tayyor emaslik, e’tiborsizlik, g‘amxo‘rlik va iliq o‘zaro munosabatning yo‘qligi, jozibadorlik va zamonaviy tashqi qiyofaning meyorida emasligi hamda maishiy muammolarni hal etishga imkoniyatiniig kamligi oqibatida yuz berishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Дорно И.В. Современный брак: проблемы и гармония. –М.: Педагогика. 1990. -272 с.
2. Положении семей в Российской Федерации: // Доклад Национального Совета по подготовке и проведению Международ¬ного года семьи в Российской Федерации. -М., 1994.
3. Rizouddin ibn Fahruddin. Oila. -T.:Mehnat. 1991. -64 b
4. Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений. –Киев: изд-во Ун-та. 1990. -192 с.
5. Jabborov I.A. “Oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari: Psixolog. fan. bo‘y. fal. dok. ...dis. avtoref. -Toshkent.: O‘zMU, 2021. -57 b

Ixtiyorov Shavkat
Xalqaro innovatsion universitet magistranti
E-mail:shavkatixtiyorov@mail.ru

ANALYSIS OF SUICIDAL BEHAVIOR IN FOREIGN COUNTRIES

Abstract. *This article discusses the analysis of suicidal behavior in foreign countries. In particular, suicidal behavior, unlike suicide, is a broader concept and includes suicidal behavior and suicide. In addition, adolescents prone to suicidal behavior are one of the important socio-psychological problems, and its study and prevention are important aspects of ensuring the spiritual health of society.*

Key words: *suicidal, behavior, teenager, suicide, instinct, existential demography, crisis.*

АНАЛИЗ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Аннотация. *В статье рассматривается анализ суицидального поведения в зарубежных странах. В частности, суицидальное поведение, в отличие от самоубийства, является более широким понятием, охватывающим суицидальное поведение и случаи самоубийства. Кроме того, склонность подростков к суицидальному поведению является одной из важных социально-психологических проблем, а ее исследование и профилактика являются важными аспектами обеспечения духовного здоровья общества.*

Ключевые слова: *суицидальный, поведение, подросток, самоубийство, инстинкт, экзистенциальная демография, кризис.*

SUITSIDAL XULQ-ATVORNING XORIJIY MAMLAKATLARDAGI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada suitsidal xulq-atvorning xorijiy mamlakatlardagi tahlili haqida so‘z yuritilgan. Xususan, suitsidal xulq-atvor suitsiddan farqli o‘laroq, kengroq tushuncha bo‘lib, o‘zida suitsidal xatti-harakat, o‘z joniga qasd qilish hodisalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, suitsidal xulq-atvorga moyil o‘smirlar muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biri bo‘lib, uni tadqiq qilish va oldini olish jamiyatning ma’naviy sog‘lomligini ta’minlash oid muhim jihatlar ko‘rsatib o`tilgan.*

Kalit so‘zlar: *suitsidal, xulq-atvor, o‘smir, suitsid, instinkt, ekzistensiya demografiya, inqiroz.*

Bugungi kunda yana bir ilmiy suitsidologiya yo‘nalishi rivojlangan bo‘lib, sotsiologiya, psixologiya, demografiya, tibbiyot, psixiatriya bilan bog‘liq holda insonlarning shu ishni qilishga bo‘lgan qiziqish sabablarini, uning shaxsiy xususiyatlarini va ularda hayot kechirishga, ya’ni yashashga to‘sqinlik qilayotgan omillarini o‘rganadi. Suitsidal harakat insonning ongli ravishda o‘zini qurbon qilish istagi bilan xarakterlanadi.

Suitsid – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, sui caedere - o‘z joniga qasd qilish ma’nosini bildiradi. O‘z joniga qasd qilish – bu ongli ravishda o‘zini hayotdan mahrum qilishdir. Suitsidal xulq-atvor suitsiddan farqli o‘laroq, kengroq tushuncha bo‘lib, o‘zida suitsidal xatti-harakat, o‘z joniga qasd qilish hodisalarini qamrab oladi [4-86].

Suitsidal xulq-atvorni tahlil qilishda asosan jiddiy e’tibor alkogol, giyohvand va toksik vositalarga qaratilishi hech kimga sir emas. Suitsidal xavfni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan bittasini alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish, giyohvand moddalarni hamda psixotrop vositalarni qo‘llash tashkil etadi.

Dunyo miqyosida Gollandiya, Norvegiya, Irlandiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Albaniya, Buyuk Britaniya davlatlarida, shuningdek ko‘pchilik Afrika mamlakatlarida suitsidal holatlar kam uchraydi. Bu boradagi eng yaxshi ko‘rsatkich esa arab va musulmon mamlakatlaridadir (Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Bahrayn va h.k.). Ularda bu holat deyarli ko‘zga tashlanmaydi [5-146].

Suitsiddek mudhish hodisaning yuzaga kelishi va profilaktikasi ko‘proq psixologik omillarga, ya’ni shu suitsidentning o‘ziga, uning individual psixologik xususiyatlariga, psixologik tayyorligiga bog‘liq ekan, bu muammoni kichik bir maqola, risola, ilmiy anjuman doirasida yoki yirik ilmiy asar bitish bilan hal etib bo‘lmaydi. Albatta, bu borada ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar ish olib

bormoqda. Ularda, suitsidentlarning asosiy muammosi - oilaviy hayot va mehnat faoliyati bilan ko‘proq bog‘liqligi aniqlangan.

O‘z joniga qasd qilish inson tomonidan o‘limga ongli ravishda, erkin, maqsadga muvofiq va o‘z-o‘zidan amalga oshirilishiga erishish sifatida oldindan belgilanishi mumkin. Shunday ekan, o‘z joniga qasd qilish (agar biz ushbu ta’rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak) maqsadi o‘lim bo‘lgan harakatdir. Shuning uchun o‘lim natijasi ekaniga emas, balki o‘z joniga qasd qilishning maqsadi ekanligiga aniqlik kiritish kerak. Bir tomondan, o‘lim har qanday harakatning natijasi bo‘lishi mumkin, boshqa tomondan, o‘lim o‘z joniga qasd qilish harakati natijasida ham sodir bo‘ladi. O‘lim o‘z joniga qasd qilishda irodaning asosiy dvigatelidir va shu bilan uning “maqsadli sababi” vazifasini bajaradi [6-122].

Psixologik inqiroz tashqi sharoitlar natijasida kelib chiqadigan xavf ta’sirida paydo bo‘luvchi (inson psixikasida) emotsional turg‘unlikning ichki buzilishi sifatida qaraladi. A.G.Ambrumovaning ta’kidlashicha, psixologik inqiroz individning zaruriy ehtiyojlaridan bo‘lgan frustratsiya keltirib chiqaradi va frustratsiyaga nisbatan o‘ziga xos shaxsiy ta’sirini ko‘rsatadi (reaksiya beradi). Uning fikricha, “suiqasdga moyillik kelajakni konstruktiv rejalashtirishning birdaniga tushib ketishi, ya’ni umidsizlik darajasi bilan belgilanadi” [1-14].

Psixoanaliz asoschisi Z.Freydning suitsid borasidagi tasavvurlari odamdagi mavjud ikkita asosiy mayl konsepsiyasiga asoslanadi: Eros – hayot instinkti va Tanatos – o‘lim instinkti. Inson hayoti ular o‘rtasidagi jang maydoni hisoblanadi. Inson nafaqat yashashni, suyukli bo‘lishni va o‘zining davomini farzandlarida ko‘rishni istaydi – shunday davrlar yoki ruhiy holatlar bo‘ladiki, bunda u o‘limni istab qoladi. Yosh o‘tishi bilan Eros o‘lib boradi, Tanatos kuchli, qat’iyatli bo‘lib boradi va odamni o‘limga olib borib, o‘zini to‘liq ro‘yobga chiqaradi. Freydning fikriga ko‘ra, suitsid va o‘ldirish Tanatosning buzg‘unchi ta’sirining namoyon bo‘lishidir, ya’ni agressiyaning ifodalanishidir[2].

Taniqli olim A.Adlerning fikricha, odam bo‘lish, avvalo, o‘zining nomukammalligini his etishdir. Hayot anglanmasligi mumkin bo‘lgan maqsadga intilishdan iborat, biroq u individning barcha harakatlarini yo‘naltiradi va yashash uslubini shakllantiradi. Nomukammallik hissi ilk bolalik davrida paydo bo‘ladi va turli yetishmovchiliklar bilan yomonlashadigan jismoniy va psixologik zaiflikka asoslanadi. Inson uchun boshqa odamlar bilan mushtaraklikni ekzistensial (hayotiy) his etish muhimdir. Ekzistensiya – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, existre – ajratib turish, paydo bo‘lish, mavjud bo‘lmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun inson butun hayoti davomida nomukammallikni yengish yoki o‘rnini to‘ldirish harakatida bo‘ladi. Ushbu harakat odam xulq-atvorining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadigan va hayotini mazmunli qiladigan o‘zini ko‘rsatishda, hokimiyatga intilishda amalga oshadi [2-99].

Suitsidni tadqiq etishning sotsiologik nazariyalarida o‘z joniga qasd qilish holatlarini kelib chiqishining sabablari ijtimoiy rivojlanish sharoitlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tushuntiriladi. Ushbu nazariyaning asoschisi E.Dyurkgeymning “Suitsid jamiyatning meyoriy qadriyatlar tizimidagi buzilishidir” degan fikri yuqoridagi mulohazalarimizni isbotlaydi, deb o‘ylaymiz. Amaliy tadqiqotlar tahlilida jamiyatda o‘zaro jipslik, yaqin jamoaviy aloqa mavjud bo‘lsa, o‘z joniga qasd qilishlikning soni kamayganligi, agar o‘zaro jipslik va yaqin aloqalar susaysa, inson o‘z maqsadlarini, jamiyatga intilishdan afzal ko‘radi, bu bilan esa hayotdan ketish tanlovining ehtimoli ortishi ta’kidlanadi [3-88].

N. Farberou “bilvosita o‘z-o‘zini buzuvchi xatti-harakatlar” turlari bo‘yicha tasniflash tizimini ishlab chiqdi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita o‘zini o‘zi yo‘q qiladigan xatti-harakatlar ko‘p jihatdan farq qiladi, deb hisoblagan. Bilvosita o‘zini o‘zi yo‘q qiladigan xatti-harakatlarning ta’siri ko‘pincha uzoq muddatli va doimiydir, shu sababli ham natijalar aniq sodir bo‘ladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z joniga qasd qilish harakatlaridan farqli o‘laroq, bilvosita o‘zini o‘zi yo‘q qiladigan xatti-harakatlar o‘ziga xos stress bilan bog‘liq emas, shuning uchun bu to‘satdan yoki impulsiv holatda bo‘lmaydi. Bajarilgan o‘z joniga qasd qilish va o‘z joniga qasd qilishga urinishdan farqli o‘laroq, bilvosita o‘zini o‘zi yo‘q qilish harakati o‘lim tahdidiga olib kelmaydi va o‘lim tilagini ko‘rsatadigan aniq signallarni bermaydi. Bunday xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar o‘zlarini anglashga moyil bo‘lib, muqim odamlar bilan

[2]Моховиков А.Н. Введение в клинико – психологический раздел.//Суицидология: прошлое и настоящее. Проблема самоубийства в трудах философов, социологов, психотерапевтов и художественных текстах. // Сост. А.Н. Моховиков. М.:Когнито – центр, 2001.

munosabatlarga katta e'tibor berishni istamaydilar. Ular ko'pincha yolg'iz va cheklangan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlariga ega. Aksincha, o'z-o'zini yo'q qilishga qaratilgan o'z joniga qasd qilish urinishlari ko'pincha boshqasini yo'qotish bilan bog'liq bo'ladi [7-121].

Xulosa qilib aytganda, suitsidal xulq-atvorga moyil o'smirlar muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biri bo'lib, uni tadqiq qilish va oldini olish jamiyatning ma'naviy sog'lomligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini-o`zi o'ldirish barcha tadqiqotchilar tomonidan shaxsning nizolarni kechirish sharoitidagi ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyasi oqibati sifatida qaralgan. Bunda suitsid o'zida shaxsning favqulodda vaziyatlardagi xulq-atvorining variantlaridan birini namoyon etadi, shu bilan birga vaziyatning suiqasdga mosligi bilan emas, balki subyektning o'ziga xosliklari, uning hayotiy tajribasi, intellekti, shaxsiy aloqalarining mustahkamligi bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Амбрумова А.Г. Психология самоубийства. // Социальная и клиническая психиатрия. Москва, 1996. Т.6.-вып.4.14-20 с.
2. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. // -Москва.: Фонд «За экон. грамотность». 1995 – 291 с.
3. Дюркгейм Э. Самоубийство. // СПб.: «Союз», 1998.-496 с.
4. Кондрашенко В.Т. Девиантное поведение у подростков: Социально-психологические и психиатрические аспекты. // Минск, 1988.-202 с.
5. Моховиков А.Н. Введение в клинико – психологический раздел.//Суицидология: прошлое и настоящее. Проблема самоубийства в трудах философов, социологов, психотерапевтов и художественных текстах. // Сост. А.Н. Моховиков. М.:Когнито – центр, 2001.
6. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. // -Москва.: Фонд «За экон. грамотность». 1995 – 291 с.
7. Ибодуллаев З. Асаб ва руҳият. // Илмий-оммабоп рисола.-Тошкент. 2019. – 312 б.
8. Аванесов С. Философская суицидология. // Курс лекций. -Томск. 2000. –172 с.
9. Farberow Norman L. The Many Faces of Suicide: Indirect Self-Destructive Behavior.N.Y.:McGraw-Hill,1980.

Komilov Xusniddin Xalimjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti magistranti
E-mail: husniddinkomilov89@gmail.com

OILADA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARIDAGI KUTUVLAR MUAMMOSI

"Agar bolalar bizning kutganimizdek o'sgan bo'lsa,
biz faqat daholarni chiqargan bo'lardik."
J.V.Gyote.

Annotatsiya. *Oilaviy munosabatlar inson hayotidagi eng muhim va ta'sirchan munosabatlardan biridir. Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar bolaning ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ba'zi hollarda ota-onalar va farzandlar o'rtasida "kutuvlar muammosi" deb ataladigan holat yuzaga keladi. Bu muammo ota-onalarning farzandlaridan haddan tashqari yuqori kutuvlari va farzandlarning bu kutuvlarga javob bera olmasligi natijasida paydo bo'ladi. Ushbu maqolada ota-ona va farzand munosabatlaridagi kutuvlar muammosi, uning sabablari, oqibatlari va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilinadi.*

Tayanch so'z va iboralar: *Oila, farzand, shaxs, munosabat, ijtimoiy kutuvlar, tarbiya, depressiya, befarqlik, ruhiy tazyiq.*

THE PROBLEM OF EXPECTATIONS IN PARENT-CHILD RELATIONSHIPS IN THE FAMILY

Annotation. *Family relationships are among the most important and influential relationships in a person's life. The relationship between parents and children deeply affects a child's psychological, social, and intellectual development. However, in some cases, a situation called the "expectations problem" arises between parents and children. This problem occurs when parents have excessively high expectations of their children, and the children are unable to meet these expectations. This article analyzes the expectations problem in parent-child relationships, its causes, consequences, and methods of resolution.*

Key words and phrases: *Family, child, personality, relationship, social expectations, upbringing, depression, indifference, psychological pressure.*

ПРОБЛЕМА ОЖИДАНИЙ В ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В СЕМЬЕ

Аннотация. *Семейные отношения являются одними из самых важных и влиятельных отношений в жизни человека. Отношения между родителями и детьми глубоко влияют на психологическое, социальное и интеллектуальное развитие ребенка. Однако в некоторых случаях между родителями и детьми возникает ситуация, называемая "проблемой ожиданий". Эта проблема возникает, когда у родителей чрезмерно высокие ожидания от детей, а дети не могут оправдать эти ожидания. В данной статье анализируется проблема ожиданий в отношениях между родителями и детьми, ее причины, последствия и методы решения.*

Ключевые слова и фразы: *Семья, ребенок, личность, отношения, социальные ожидания, воспитание, депрессия, безразличие, психологическое давление.*

Hozirgi raqamlashgan dunyoda jamiyat taraqqiyotining hozirgi holati oila oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni qo'ymoqda. Vaqt o'tgan sayin jamiyatda oilaning roli va ahamiyati , oiladagi munosabatlarning jamiyatga ta'siri ham ortib bormoqda. Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va uning jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda uni mustahkamlovchi omillarning rolini o'rganish , ayniqsa, ota-ona munosabatlari, ularni farzand ko'rishga psixologik tayyorlash, farzandga nisbatan to'g'ri kutuvlarni shakillantirish, farzandlarni yurt kelajagi uchun to'g'ri tarbiyalash mas'uliyati hislarini shakillantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir.

Kutuvlar muammosi deganda, ota-onalarning farzandlaridan haddan tashqari yuqori kutuvlari va farzandlarning bu kutuvlarga javob bera olmasligi tushuniladi. Bu muammo ko'pincha quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi:

- ota-onalarning ortiqcha talablari: Ba'zi ota-onalar farzandlaridan akademik yutuqlar, sport yoki san'at sohasida yuqori natijalarga erishishni talab qiladi. Bu talablar farzandlarning qobiliyatlaridan yuqori bo'lsa, ular stress va tashvishga duch kelishadi.

- ijtimoiy bosim: Ota-onalar ko'pincha jamiyatdagi raqobat va ijtimoiy standartlar ta'sirida farzandlaridan yuqori natijalarga erishishni talab qiladi. Bu bosim farzandlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- ota-onalarning o'zlarining orzu va maqsadlari: Ba'zi ota-onalar o'zlarining orzu va maqsadlarini farzandlariga o'tkazishga harakat qiladi. Bu holatda farzandlar o'zlarining shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini ifoda eta olmaydi.

Kutuvlar muammosi ota-ona va farzand munosabatlariga, shuningdek, farzandlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida bu muammoning asosiy oqibatlari mavjud:

Farzandlar ota-onalarning yuqori kutuvlariga javob bera olmasliklari tufayli stress, tashvish va depressiyaga duch kelishlari mumkin. Bu holat ularning ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Ota-onalarning ortiqcha talablari farzandlarning o'zini hurmat qilishini pasaytirishi mumkin. Farzandlar o'zlarini yetarli darajada qadrlamaslik va o'zlarining qobiliyatlariga ishonmaslik holatiga tushib qolishlari mumkin.

Kutuvlar muammosi ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni buzishi mumkin. Farzandlar ota-onalariga nisbatan norozilik va g'azab his qilishlari mumkin.

Ota-onalarning ortiqcha talablari farzandlarning akademik yutuqlariga va ijtimoiy munosabatlari

Har bir ota-ona o’z farzandining hozir va kelajakda qanday bo’lishini xohlashini tasavvur qiladi. U tug’ilishidan oldin ham biz uning qanday ko’rinishini, kimga ko’proq o’xshashini tasavvur qilamiz, ism tanlaymiz. Biz uning bolaligi qanday o’tishi va o’g’limiz yoki qizimiz qanday ulg’ayishi, hayotda qanday muvaffaqiyatlarga erishishi haqida kutuv va orzular qilamiz. Bularning barchasi ota-onalarning umidalarini va kengroq aytganda sizning bolaligingizdan va ota-onangiz bilan bo’lgan munosabatlaringizdan kelib chiqqan shaxsiy reproduktiv tarixingizning bir qismini tashkil qiladi. Siz buni ko’pincha sezmagan holda bolani tarbiyalashda ushbu kutuvlarga amal qilasiz, balki ularni bolaga faol ravishda yetkazasiz.

Ota-onalarning kutuvlari ikki tomonga ega. Bir tomondan, kichik, ular bola rivojlanishining divigatelidir. Ularsiz ko’p bolalar o’z holiga tashlab qo’yiladi va o’z imkoniyatlarini amalga oshira olmaydi. Ammo bola o’z imkoniyatlari chegarasiga yetgandan so’ng ota-onaning kutuvlari unga qarama-qarshi ulkan muammoga aylanadi. Ular endi bola uchun imkoniyatlarga ishonish emas , balki doimiy stress manbai bo’lib chiqadi. Farzandingiz bilan doimo “xatolik” borligi, u boshqa bolalarga o’xshamaydi degan fikr bilan yashayotganingiz uchun siz uni hamma narsada “yaxshiroq” bo’lgan boshqalar bilan solishtirasiz, siz ham aslida unchalik yoqimli emassiz. Yoki bu masalaga ongli ravishda yondashishingiz ham mumkin. Masalan: Ha, mening bolam shunday. U shunday tug’ilgan, shunday temperament, xarakter va shunday xususiyatlarga ega. U noyob va butun sayyoradagi millionlab bolalar orasida unga o’xshagan boshqa bola yo’q.

O’g’lingiz yoki qizingiz sizning kutuvlaringizni amalga oshirishini kutmang. Qabul qiling, ular sizning nusxangiz yoki kutuvlaringizni amalga oshiruvchi vosita emas, balki umuman boshqa odamlar ekanligini anglang. Ularga o’z hayotlarida yashashga imkoniyat bering. Qanchalik ko’p erkinlik bersangiz va shaxsiy chegaralarini hurmat qilsangiz, ularga ruhiy yaqin bo’lasiz. Shunchaki ota-onasi sifatida ularning hayotida mavjud bo’ling, o’z hayotini o’zi boshqara oladigan va buning javobgarligini o’z zimmasiga oladigan shaxsni tarbiyalaganingizdan mamnun bo’lasiz. Farzandingizning tilini toping - u nafaqat rivojlanadi, balki eng katta kutuvlaringizni ham ortig’i bilan oqlaydi.

Ota-onalarning farzandga bo’lgan ishonchi va kutuvlari qanday ishlaydi?

Ota-onalar farzandlaridan qanday orzu va intilishlar kutadilar?

-bola bo’ysinuvchan bo’lishi kerak;

-yaxshi, sifatli o’qishi kerak;

-qo’shimcha mashg’ulotlarga (to’garaklar, til kurslari va boshqalar) borishi kerak;

-uyda ota-onaga yordam berishi, o'z xonasini ozoda saqlashi kerak;
-zimmasiga yuklangan vazifani o'z vaqtida bajaradigan bo'lishi kerak.

Ota-onalar o'z kutuvlari natijasida keyinchalik farzandlarda yuqori darajadagi tashvishlanishni rivojlantiradilar va saqlab qoladilar. Natijada esa farzand o'z xatti-harakatlarini darhol savol ostiga qo'yadi: "Men hozir kimningdir kutuvlarini oqlayabmanmi yoki yo'qmi?" Agar farzandlarning xatti-harakati ota-onalarning kutuvlariga to'g'ri kelmasa, ota-onalarda quyidagilar yuzaga keladi: umidsizlik, huquqbuzarlik, g'azab, nochorlik. Bu salbiy his-tuyg'ular farzand bilan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ota-onalar ushbu salbiy his-tug'ularni ochiq yoki yashirin tarzda namoyon qilishi mumkin (bola buni sezadi va tushunadi):

-tanbeh berish, qattiq gapirish, dakki berish;
-inkor etish, e'tiborsizlik qilish, e'trof etmaslik;
-ayblash, nuqsonlarini ta'kidlash, doimiy kamchilik izlash.

Bu ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Biz farzandlarimizdan ota-onamiz bizdan kutgan narsalarni kutamiz. O'z kutuvlaringiz ustida ishlaganingizdan keyn, siz o'zingizga va farzandingizga ishonch hosil qilasiz. Shuning uchun, agar farzandingizdan nimanidir kuta-yotgan bo'lsangiz, o'zingizga quyidagi savolni bering:

Ota-onam mendan nimalarni umid qilishgan?
Men o'zimdan nimani kutaman?

Ota-onalarning farzandiga bo'lgan kutuvlari, biz ushbu tizimda ko'rib turganimizdek, to'g'ridan-to'g'ri o'rganilgan ijtimoiy nochorlikka olib keladi. Olingan yoki o'rganilgan nochorlik – bu odamning holati, unda o'z holatini yaxshilash imkoniyati mavjud bo'lsa ham, u o'z holatini yaxshilashga harakat qilmaydi. Nochorlik – bu o'zi xohlagan natijaga olib kelmaydigan muvaffaqiyatsiz urinishlar tufayli harakat qilishdan vos kechish.

Nima uchun ota-onalarning kutuvlari nochorlikka olib keladi? Kutishlar ham faoliyatni to'xtatadi va boshqa yo'l bilan harakat qilishga ruxsat bermaydi. Farzand qanday harakat qilishni tanlash huquqi-dan mahrum. Kutuvlarning yana bir salbiy tomoni - ota-onaning bolaning muvaffaqiyatiga ishonchini yo'qqa chiqaradi va farzand ham o'ziga bo'lgan ishonchini to'xtatadi. Ijtimoiy nochorlikning bir necha ko'rinishlari mavjud:

-zerikish, qiziqmaslik, bezor bo'lish;
-dangasalik, sustkashlik;
-e'tiborsizlik;
-depressiya

Amaliy qism. Ushbu amaliy tadqiqotning maqsadi ota-ona va farzand munosabatlaridagi kutuvlar muammosini o'rganish, uning sabablari, oqibatlari va ularni bartaraf etish usullarini aniqlashdir. Tadqiqot orqali ota-onalarning farzandlariga nisbatan kutuvlari va farzandlarning bu kutuvlarga munosabati tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda **savolnomali so'rov** usuli qo'llanildi. So'rovnoma ikki qismdan iborat: birinchi qism ota-onalar uchun, ikkinchi qism esa farzandlar uchun mo'ljallangan. So'rovnomada quyidagi asosiy sohalar bo'yicha savollar kiritilgan:

1. Ota-onalarning farzandlariga nisbatan kutuvlari.
2. Farzandlarning ota-onalarning kutuvlariga munosabati.
3. Kutuvlar muammosining ruhiy salomatlikka ta'siri.
4. Muammoni bartaraf etish bo'yicha takliflar.

Quyida tadqiqot natijalari 1-jadval shaklida keltirilgan. Jadvalda ota-onalar va farzandlarning javoblari foizlar bo'yicha taqsimlangan.

Jadval-1

Savollar	**Ota-onalar javoblari (%)**	**Farzandlar javoblari (%)**
1. Farzandlaringizdan yuqori akademik yutuqlar kutishingiz qanchalik muhim?	85%	70% (bunga bosim his qiladi)
2. Farzandlaringiz sport yoki san'at sohasida yutuqlarga erishishini xohlaysizmi?	78%	65% (bunga bosim his qiladi)

3. Farzandlaringizning kelajagi haqida o'z orzularingizni amalga oshirishni xohlaysizmi?	60%	50% (bunga norozi)
4. Farzandlaringizning qobiliyatlarini to'liq baholayapsizmi?	45%	30% (o'zlarini yetarli deb his qilmaydi)
5. Farzandlaringizning ruhiy salomatligiga qanchalik e'tibor berasiz?	55%	40% (e'tibor yetarli emas)
6. Kutuvlaringizga javob bera olmagan farzandlaringizni tanqid qilasizmi?	70%	80% (tanqid ularni ruhiy jihatdan ezadi)
7. Farzandlaringiz bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelasizmi?	50%	60% (muloqot yetarli emas)
8. Kutuvlar muammosi oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keladimi?	40%	65% (ha, buzilish kuzatiladi)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning 85% farzandlaridan yuqori akademik yutuqlar kutadi. Bu farzandlarning 70% uchun bosim manbai hisoblanadi. Shuningdek, 78% ota-ona farzandlarining sport yoki san'at sohasida yutuqlarga erishishini istaydi, bu esa farzandlarning 65% uchun qo'shimcha stress manbai hisoblanadi.

Ota-onalarning 55% farzandlarining ruhiy salomatligiga e'tibor berishini aytgan bo'lsa-da, farzandlarning 40% bu e'tibor yetarli emasligini ta'kidladi. Bundan tashqari, ota-onalarning 70% farzandlarini tanqid qilishi farzandlarning 80% uchun ruhiy jihatdan ezishga olib keladi, kutuvlar muammosi oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Farzandlarning 65% bu muammo tufayli ota-onalari bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch kelishini aytdi.

Tadqiqotdan xulosa qilib ushbu tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Ota-onalar farzandlarining qobiliyatlarini to'liq baholashi va ularga nisbatan real kutuvlar qo'yishi kerak.
- Farzandlar bilan muloqotni mustahkamlash va ularning ruhiy salomatligiga ko'proq e'tibor berish kerak.
- Ota-onalar farzandlarining shaxsiy qiziqishlari va orzularini qo'llab-quvvatlashi kerak.

Ushbu amaliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-ona va farzand munosabatlaridagi kutuvlar muammosi farzandlarning ruhiy salomatligiga va oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun ota-onalar farzandlariga nisbatan real kutuvlar qo'yishi, ularning ruhiy salomatligiga e'tibor berishi va muloqotni mustahkamlashi kerak. Tadqiqot natijalari oilaviy munosabatlarni yaxshilash va farzandlarning ruhiy salomatligini himoya qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni unutmasligingiz kerakki, har bir ota-onaning kutuvlari bor, ular buni tushunadimi yo’qmi, sizda ularning borligi normal holat. Siz farzandni u haqidagi fikrlaringizga cheksiz “tortib olishingiz” va uni ma’lum bi doiraga siqib qo’yishingiz mumkin. Buning natijasida farzand doimo biror narsa noto’g’ri ekanligini va ota onasi undan mannun emasligini his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.-T., 2006,-142b.
2. Erkin A'zam. "Ota-ona va farzand munosabatlari psixologiyasi"
3. Rahimjonova D. "Oilaviy psixologiya: nazariya va amaliyot". Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

Mamajonova Shoxista Kamoldinovna
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: sh.mamajonova@gmail.com

EMOTSIONAL XAYRIXOHLIKNING ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHIGA TA’SIRINI EMPIRIK TADQIQ ETISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlik, o‘spirinlik davridagi emotsional holat va bu holat addiktiv xulqqa ta’siri masalalari A. Mehrabyan, N. Epshteynning «Emotsional xayrixohlik shkalasi» metodikasi yordamida o‘tkazilgan, respondentlarning yoshi, jinsi va hududi bo‘yicha farqlari o‘rganilib, natijalar psixologik tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘spirinlik davri, o‘smirlik davri, addiktiv xulq, emotsional xayrixohlik, yolg‘izlik hissi, hududlararo farq, xulqiy og‘ish.*

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ МЯГКОСТИ НА ФОРМИРОВАНИЕ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматривается эмоциональное состояние подросткового и юношеского возраста и его влияние на аддиктивное поведение с использованием методики «Шкала эмоциональной доброжелательности» А. Меграбяна и Н. Эпштейна. Были изучены различия в возрасте, поле и регионе проживания респондентов, а результаты были проанализированы с психологической точки зрения.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, подростковый возраст, аддиктивное поведение, эмоциональное благополучие, одиночество, региональные различия, поведенческие отклонения.*

EMPIRICAL STUDY OF THE IMPACT OF EMOTIONAL GENTLENESS ON THE FORMATION OF ADDICTIVE BEHAVIOR

Abstract. *In this article, the issues of emotional state in adolescence and adolescence and the impact of this state on addictive behavior were examined using the methodology of A. Mehrabyan, N. Epstein's "Emotional Benevolence Scale", differences in age, gender and region of respondents were studied, and the results were psychologically analyzed.*

Keywords: *adolescence, adolescence, addictive behavior, emotional benevolence, feeling of loneliness, interregional differences, behavioral deviation.*

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari o‘smirlarga dunyoqarashini keng rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etsa-da, shu bilan birga, ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatni olib borishni ham talab qiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization) tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, «Dunyo bo‘yicha har yili 10-17-yoshdagilar orasida 200 mingga yaqin qotillik, talonchilik jinoyati sodir etiladi va ushbu xulq sabablarini aniqlash butun dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o‘rganiladi». JSST 2021-yilgi hisobotiga ko‘ra, o‘smir va o‘spirinlarning o‘limi 1,5 millionga yetgan. Ushbu statistik ma’lumotga asosan, o‘lim holatining asosiy sababi yo‘l halokati tufayli jarohatlanish bo‘lsa, keyingi o‘rinda psixik jarohatlar, hissiy zo‘riqish holati bo‘lgan.

Addiktiv xulq muammosi uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqot ob’ekti bo‘lib kelgan. Biroq bu muammo bilan asosan tibbiyot fanlari mutaxassislari shug‘ullangan, chunki kimyoviy addiktiv xulq odamlarda tashxis qo‘yilgan birinchi addiktiv xulqlardan biriga aylandi. 1964-yilda Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti «odatiylik» so‘zi o‘rniga «addiktiv xulq» atamasini kiritdi, uni psixofaol moddalarga bo‘lgan tobelikni o‘rganish uchun ishlatdi [2].

Addiktiv xulq masalasi O‘zbekiston psixolog olimlaridan N.M.Dalimova, N.G.Kamilova, N.I.Kushakova, J.T.Mirzayev, N.Sh.Mullaboyeva, F.F.Rasulova, I.I.Raximova, R.S.Samarov, G.K.To‘laganova, N.I.Xalilova va boshqalar tomonidan o‘smirlarda deviant xulqning ko‘rinishlari,

kompyuterga tobelik va addiktiv xulqning psixologik sabablari, salbiy oqibatlari hamda ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga ta’siri masalalari ilmiy-amaliy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.F.Abolonin, B.G.Ananyev, N.V.Aslanbekova, A.O.Buxanovskiy, S.I.Galyautdinova, Y.P.Girich, I.A.Krasilnikov, L.G.Leonova, V.D.Mendelevich, I.A.Nazarova, Y.N.Naximov, A.M.Prixojan, G.F.Romashkina, S.L.Rubinshteyn, M.I.Xristoforova, V.O.Zaretskaya, E.V.Zmanovskaya, L.M.Shipitsina va boshqalar tomonidan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda xulqi og‘ishganlik va addiktiv xulq shakllariga oid muammolar keng qamrovli ilmiy-amaliy o‘rganilgan.

Xorij olimlaridan J.Altman, G.Ammon, E.Damiko, L.Dodds, D.Donovan, A.Garakani, G.Koob, N.Miller, D.Mpousiou, A.Sassmun, R.Savitt, A.Calafat, A.Uayt, G.Uilyams, R.Wise, R.Xingson, M.Xodami, L.Sheyboniy, M.Schreuders va boshqalar deviant xulq masalalari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borishgan.

Biroq psixologiyada o‘smirlik, o‘spirinlik yoshidagi yigit-qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, o‘smirlik davri avtonomiyalari, subyektiv yolg‘izligi, emotsional xayrixohligi va addiktiv xulq o‘rtasidagi o‘zaro bogliqligining psixologik mohiyati ilmiy tadqiqot predmeti sifatida etnopsixologik jihatdan alohida o‘rganilmagan.

Bizning tadqiqotimiz maqsadi o‘smirlik yoshidagi yigit-qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda ularni oldini olish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Addiktiv xulqning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri , insonlardagi emotsional xayrixohlikning rivojlanganlik darajasidir.

Hissiyot va hissiyotlarning namoyon bo‘lishiga qarab ularni chuqur va chuqur bo‘lmagan turlarga ajratib ko‘rsatish mumkin. Shuning bilan birga, faoliyatning faolligiga qarab emotsiya va hissiyotlarni stenik va astenik turlarga ajratish mumkin. Ayniqsa, emotsiyalarning o‘ziga xosligiga qarab ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin: 1) his etishning emotsional toni; 2) emotsional xayrixohlik; 3) kayfiyat; 4) konfliktli emotsional holat; 5) yuqori emotsiyalar. Yuqoridagilarga asoslangan holda biz emotsional xayrixohlik xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Shaxsning emotsional sohasi o‘ziga xos murakkab va namoyon bo‘lishiga ko‘ra turlichadir, boshqacha qilib aytganda, individuallashgandir. Emotsiyalarning o‘ziga xos individualliklarni o‘rganishga qaratilgan ko‘pgina psixologik tadqiqotlarda shaxsning rivojlanishi va faoliyatining tashkil qilishda aniq namoyon bo‘ladigan jihatlari o‘rganilgan. Shunga qaramasdan unchalik namoyon bo‘lmagan, deyarli bilinmaydigan, vaqtinchalik bo‘ladigan emotsiyalar ham shaxsning faoliyatiga nisbatan ta’siriga ham to‘xtalib o‘tilgan. Yuqoridagilardan eng asosiysi bu emotsional xayrixohlikdir.

Emotsional xayrixohlik shaxsning emotsional sohasidagi elementar va keng tarqalgan shaklidir. U bevosita obyektni qabul qilish jarayonida paydo bo‘ladi va subyektning unga nisbatan juda kuchli bo‘lmagan va uzoq davom etmaydigan hamdardligi bo‘lib, uni so‘z bilan ham ko‘rsata olishi mumkin: yoqimli-yoqimsiz, yoqdi-yoqmadi, befarqlik. Har bir sensorli ta’sir muayyan bir ahamiyatga egadir. Boshqacha qilib aytganda, ushbu harakatdan subyektning ko‘ngli to‘ladi yoki to‘lmaydi. Emotsional xayrixohlik obyektning jismoniy, funksional, semantik, asemantik yoki boshqa ta’sirlari natijasida paydo bo‘ladi. Tadqiqot uchun tanlab olingan emotsional xayrixohlikning jismoniy xususiyatiga nisbatan javobi o‘rganiladi, chunki ushbu xususiyat o‘z fe’l-atvoriga ko‘ra universaldir. Obyektning turli-tuman jismoniy xususiyatidan uning aynan shakliga nisbatan emotsional xayrixohlik ko‘p o‘rganilgan. Ba’zi hollarda ehtiyojlar ustun keladi, boshqa hollarda esa ehtiyojning tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa xususiyat ustun kelishi mumkin [1].

Tadqiqot ishimizda addiktiv xulqning o‘smirdagi emotsional xayrixohlik bilan bog‘liqlik darajasini aniqlashga e’tibor qaratdik. Buning uchun respondentlar guruhida A. Mehrabyan, N. Epshteynning «Emotsional xayrixohlik shkalasi» metodikasi o‘tkazildi. Metodika bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar empirik jihatdan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

Jadval-1

O‘smirlarda «Emotsional xayrixohlik shkalasi» natijalari, jinslar kesimida, (Styudent t mezoni n=680)

Jinsi	n	O‘rtacha qiymat	Stan.og‘ish	t
O‘smir o‘g‘il bo-lalar	236	50,03	8,6	-0,42
O‘smir qizlar	444	50,33	86	

*p≤0,05; **p≤0,01;***p≤0,001

O‘smirlarning «Emotsional xayrixohlik shkalasi» bo‘yicha jinslararo farqlarida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut aks etmadi. Bu yosh oralig‘ida o‘g‘il bolalar ham, qizlar ham o‘xshash biologik va gormonal o‘zgarishlarni boshdan kechirayotganligi sababli bu ularning empatiya darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalar va qizlar erta o‘smirlik davriga o‘tishdagi o‘xshash ijtimoiy tajriba sababli ularning empatiyani rivojlantirishga yordam beradigan o‘xshash muhit, ta’lim tizimi va ijtimoiy me’yorlar sabab bu yosh oralig‘ida o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi empatiyaning his qilishda o‘ziga xos farq kuzatilmasligi aniqlandi.


2- jadval

O‘smirlarda«Emotsional xayrixohlik shkalasi» natijalari, hududlar kesimida (Styudent t mezoni n=680)

Hudud	n	O‘rtacha qiymat	Stan.og‘ish	t
Shahar	340	53,5	6,2	10,8***
Qishloq	340	46,9	9,1	

p≤0,05; **p≤0,01;***p≤0,001

Shahar va qishloq hududlarning o‘smirlari bo‘yicha ishonchli tafovutlar borligi ma’lum bo‘ldi (t=10,8;p≤0,001). Ushbu natijalarga ko‘ra qishloq hududida yashovchi o‘smirlarga nisbatan shahar hududida yashovchi o‘smirlarda emotsional xayrixohlik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. (3.1-rasm)



1-rasm. O‘smirlarda (Emotsional xayrixohlik shkalasi) bo‘yicha hududlararo farqlar

Empatiyaning his qilish darajasi turli shaxsiy, atrof-muhit va individual omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab xususiyat ekanligini yodda tutish juda muhimdir. Bunga ko'ra, shahar hududida yashovchi o'smirlarning empatiya darajasi qishloq hududida yashovchi o'smirlarga qaraganda har doim yuqori bo'ladi, degan umumiy fikrdan yiroq holda bu farqni quyidagicha izohlab o'tdik. Shahar hududida yashovchi o'smirlar ko'pincha shahar muhitining xilma-xilligi va o'zaro bog'liqligi tufayli ijtimoiy integratsiya uchun ko'proq imkoniyatlarga ega. O'smirlar ijtimoiy integratsiya yordam beradigan qulay muhitda bo'lsa, ularda kuchli shaxslararo munosabatlarni o'rnatish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Bu munosabatlar notinch o'smirlik yillarida muhim qo'llab-quvvatlash tizimi bo'lib xizmat qiladi va ularga akademik bosim, shaxsiyatni shakllantirish va hissiy tanglik kabi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Qo'llab-quvvatlovchi tarmoq ochiq muloqotni rag'batlantiradi, o'smirlarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash va kerak bo'lganda yordam so'rash imkonini beradi, bu esa yolg'izlik tuyg'ularini yengillashtiradi. Bundan tashqari, shahar hududlari, odatda, qishloq hududlariga nisbatan kengroq ta'lim, madaniy va dam olish imkoniyatlarini taklif etadi. Turli faoliyat va jamoalar bilan munosabatga kirishadigan o'smirlarga boshqalarning hayoti va muammolari haqidagi tushunchalarini kengaytiradigan vaziyatlarni boshdan kechirish imkoniyatining mavjudligi empatiya darajasining o'sishiga yordam berishi aniqlandi.

Farg'ona va Andijon viloyati maktablarida ta'lim oluvchi o'smir yoshidagi o'g'il-qizlarda o'tkazilgan natijalar navbatdagi 3.7-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O'smirlarda «Emotsional xayrixohlik shkalasi» natijalari, viloyatlar kesimida, (Styudent t mezoni n=680)

Viloyat nomlari	n	O'rtacha qiymat	Stan.og'ish	t
Andijon	340	48,6	9,7	-4,88***
Farg'ona	340	51,8	6,9	

*p≤0,05; **p≤0,01;***p≤0,001

Emotsional xayrixohlik shkalasi bo'yicha viloyatlar kesimida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi (t=- 4,88; p≤0,001). Bunga ko'ra Andijon hududida ta'lim oluvchi o'smirlardan ko'ra Farg'ona hududida yashovchi o'smir o'g'il-qizlarda yuqori empatiya darajasi aniqlandi. Farg'ona va Andijon viloyatlari tarixiy ta'sirlar va etnik xilma-xillik tufayli o'ziga xos madaniy farqlarga ega. Farg'onada o'zbek, tojik va qirg'iz kabi millatlarning ko'proq aralashmasi mavjud bo'lib, bu madaniy muhitdagi xilma-xillikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Turli madaniyatlarning yuqori darajada ta'siri empatiyaning kuchayishiga olib keladi, chunki o'smirlar turli nuqtayi nazar va tajribalarni tushunish va hurmat qilishni o'rganadilar.

«Emotsional xayrixohlik shkalasi»da yosh bo'yicha tafovut aniqlanmadi. 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan yosh oralig'i nisbatan kichik yosh oralig'i hisoblanadi. Emotsional xayrixohlik rivojlanishi hayot davomida sodir bo'ladigan murakkab va uzluksiz jarayon bo'lganligi sababli o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi emotsional xayrixohlikka taalluqli har qanday farqlar kech o'smirlik yoki o'spirinlik yoshida aniqroq namoyon bo'ladi. O'smirlardagi emotsional xayrixohlikning addiktiv xulq shakllanishiga ta'siri natijalarini psixologik tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldik.

O'g'il bolalar va qizlar o'rtasida emotsional xayrixohlik darajasi bo'yicha sezilarli farq mavjud emas. Bu o'xshash biologik, gormonal o'zgarishlar hamda ijtimoiy muhit va ta'lim tizimining ta'siri bilan izohlanadi.

Shahar hududida yashovchi o'smirlarning emotsional xayrixohlik darajasi qishloq hududidagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bunga shahar muhitining ijtimoiy xilma-xilligi, ta'lim va madaniy imkoniyatlarning kengligi ta'sir qilishi mumkin.

Farg'ona viloyatida yashovchi o'smirlarda emotsional xayrixohlik darajasi Andijon viloyatiga nisbatan yuqori ekani kuzatildi. Bu farq madaniy xilma-xillik, ijtimoiy integratsiya va etnik guruhlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra quyidagi xulosalarni taklif etish mumkin, o‘smirlik davrida addiktiv xulq turlarining emotsional holatlardan yolg‘izlik va empatiya bilan aloqadorligi mavjud bo‘lib, emotsional xayrixohlikning o‘smir shaxsida namoyon bo‘lishi addiktiv xulq bilan o‘zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi.

O‘smirlik davrida emotsional holatlarda yolg‘izlikning ortib ketishi, addiktiv xulqdan himoya mexanizmi sifatida foydalanishiga turtki bo‘lishi qayd etildi.

Addiktiv xulqqa sabab bo‘luvchi omillarni bartaraf etishda mavzuga doir korreksion dastur tuzish va o‘tkazishdagi tizimlilik addiktiv xulqqa moyil o‘smirlar bilan ishlashda samarali natijalar berishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Мясищев В. Н. Психология отношений: Избраные психологические труды. – Москва-Воронеж: Институт практической психологии, 1998.3 – 62 с.

2. Новак Н.Г. Психология зависимого и созависимого поведения. Понятие и виды зависимого поведения практическое руководство / Н.Г.Новак; Гомельский гос. ун-т им. Ф. Скороны. - Гомель: ГГУ им. Ф. Скороны, 2021. – 45 с

3. Пилипенко А.В Зависимые, созависимые и другие трудные клиенты: психологический тренинг / Пилипенко А.В., Соловьева И.А М.: Психо-терапия, 2011. – 192 с.

4. Руководство по аддиктологии / под ред. В.Д. Менделевича. - СПб.: Речь, 2007. – 768 с.

UO‘K: 174.864-053.(087.3)

Maxammatova Saida Sadriddinova
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi

OLIY TA’LIM PSIXOLOG TALABALARNI KASBIY KUTISHLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada psixolog talabalarni kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik omillari shakllashiga doir psixologik usul va vositalari, o’ziga xos xususiyatlari o’rganilgan. Talabalarni o’quv faoliyatida kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik jarayonida ilmiy yondashuvlar, empirik tahlillar, kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish omillari va shartlarini aniqlash va o'rganilayotgan jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *ijtimoiy vaziya, mexanizmlar, shakllanish omillari, shartlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, differentsial farqlar, kasbga qiziqish va kasb haqida xabardorlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОЖИДАНИЙ СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические методы и инструменты, а также их особенности в формировании социально-психологических факторов профессиональных ожиданий студентов-психологов. Изучены научные подходы, эмпирический анализ, методы и инструменты выявления факторов и условий формирования социально-психологической готовности к профессиональной деятельности в социально-психологическом процессе профессиональных ожиданий студентов в образовательной деятельности, а также методы и инструменты повышения результативности изучаемого процесса и представлены эффективные рекомендации.*

Ключевые слова: *социальная ситуация, механизмы, факторы формирования, условия и социально-психологические особенности, дифференциальные различия, интерес к профессии и осведомлённость о профессии.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL EXPECTATIONS OF HIGHER EDUCATION PSYCHOLOGIST STUDENTS

Annotation. *The article studies psychological methods and tools for the formation of socio-psychological factors of professional expectations of psychologist students, their specific features. Scientific approaches, empirical analyses, methods and tools for identifying factors and conditions for the formation of socio-psychological preparation for professional activity in the socio-psychological process of students' professional expectations in their educational activities are studied, and effective recommendations are given.*

Keywords: *social situation, mechanisms, factors of formation, conditions and socio-psychological characteristics, differential differences, interest in the profession and awareness of the profession.*

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan psixologiya yo‘nalishi talabalari nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga bo‘lgan umidlari, kutishlari va motivatsiyalarini shakllantirish jarayonida ham ishtirok etadilar. Ularning kasbiy kutishlari turli omillarga, jumladan, shaxsiy tajribalar, o‘qituvchilarning ta’siri, jamiyatdagi talab va imkoniyatlar hamda ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq holda rivojlanadi.

Kasbiy kutishlar nafaqat talabaning o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatini, balki uning kelajakdagi ishga moslashish darajasi, kasbiy o‘sishi va psixologik barqarorligini ham belgilaydi. Shu bois, bu mavzuni o‘rganish nafaqat oliy ta’lim tizimi uchun, balki kelajakdagi psixolog mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada psixologiya talabalari kasbiy

kutishlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinib, ularni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar yoritiladi.

V.Vroomning kutish nazariyasi motivatsiya sohasidagi asosiy yondashuvlardan biri bo'lib, shaxsning faoliyati va maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi. Bu nazariya shaxsning qobiliyatlari, ish natijalari va mukofotlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qiladi. Vroomning ta'kidlashicha, inson o'z xatti-harakatlarini tanlashda kutgan natijalarga va bu natijalarning shaxs uchun qanchalik ahamiyatli ekaniga e'tibor beradi.

Vroomning nazariyasi uchta asosiy omilga tayanadi:

1. Kutish.

- shaxs biror vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur qobiliyat va resurslarga ega ekanligiga ishonch darajasi;

- talabalar misolida, bu ularning o'quv faoliyatida kerakli natijalarga erishish uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega ekanligini anglashni anglatadi.

2. Vositalilik:

- ish natijalari va mukofotlar o'rtasidagi bog'liqlik. Shaxs ishni muvaffaqiyatli bajarish orqali istalgan mukofotni olishiga qanchalik ishonadi;

- talabalar uchun bu yaxshi baholar olishning ularga kasbiy maqsadlariga erishish yo'lidagi ta'sirini tushunishni ifodalaydi.

3. Valentlik:

- mukofotning shaxs uchun subyektiv ahamiyati yoki qiymati. Bu mukofotning qanchalik istalganligini bildiradi;

- talabalar nazarida bu, masalan, yaxshi baholarning yoki diplom olishning ularning shaxsiy va professional hayotidagi ahamiyatidir.

Vroomning kutish nazariyasida kasbiy kutishlar shaxsning o'z imkoniyatlarini va natijalarga erishish ehtimolini to'g'ri baholashiga asoslanadi. Ushbu yondashuv quyidagi jihatlarni ta'kidlaydi. Kasbiy maqsadlarni realistik belgilash orqali talabalar o'z qobiliyatlari, bilimlari va resurslariga asoslanib, o'zlari uchun amalga oshiriladigan kasbiy maqsadlarni qo'yishlari kerak. Nazariya shuni ko'rsatadiki, haddan tashqari yuqori yoki past maqsadlar talabalar motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Motivatsiya va qobiliyatni o'zaro bog'lash orqali esa agar talaba o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholasa va maqsadlariga erishish ehtimolini yuqori deb bilsa, u ko'proq sa'y-harakat qiladi. Talabalar o'zlariga ishonch hosil qilishlari uchun ularning kuchli va zaif tomonlari realistik tarzda baholanishi kerak. Mukofotlarning ahamiyatini anglash asosida talabalar o'z mehnati va bilimlari mukofotlanishini ko'rishlari kerak. Bu mukofot nafaqat moddiy bo'lishi, balki yaxshi baholar, maqtagan fikrlar yoki qadrli kasbiy imkoniyatlar bo'lishi ham mumkin. Tadbirlarning o'quv jarayoniga ta'siri orqali o'qituvchilar talabalarga o'z qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda yordam berishi kerak. Talabalarga o'z kasbiy maqsadlarini baholashda ko'maklashish orqali ularga realistik reja tuzish va qaror qabul qilish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatiladi [1].

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy qo'llash nazariyasiga asoslangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar o'z natijalariga ijobiy munosabat bildirgan hollarda ular yuqori motivatsiyaga ega bo'lishadi. Talabalarga ularning o'z sohasidagi imkoniyatlari, mehnat bozori ehtiyojlari va qobiliyatlarini qanday to'g'ri baholash kerakligi o'rgatilsa, bu ularning kasbiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.


V.Vroomning kutish nazariyasida kasbiy kutishlar ish natijalari va mukofotlar o'rtasidagi bog'liqlikka asoslanib, talabalarni o'z qobiliyatlariga asoslangan treyning kasbiy maqsadlar qo'yishga undaydi. Bu yondashuv nafaqat talabalar motivatsiyasini oshiradi, balki ularga o'z kelajagi haqida puxta va oqilona qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Sandra Bem gender rollarini tushunish va ularning jamiyatdagi ta'sirini tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Uning asosiy ishlarida jinsiy rolining androginiya nazariyasi: Bemning fikriga ko'ra, shaxsning gender roli androginiya (erkak va ayollik xususiyatlarini birlashtirgan muvozanat) bo'lganda, inson moslashuvchanroq va ko'proq tanlov imkoniyatiga ega bo'ladi. Gender shkalasi bo'yicha jinsiy roli inventoriysi erkaklik, ayollik va androginiya darajasini o'lchash uchun ishlatiladi. Tadqiqotlar natijalari**ni** tahlil qilsak, gender stereotiplari kasb tanlash jarayonida talabalarni cheklashi mumkin. Gender stereotiplarini bartaraf qilish orqali kasbiy intilishlarni kengaytirish muhimdir [2].

Alik Eagly ijtimoiy rol nazariyasiga asoslangan holda gender rollari va mehnat bozoridagi stereotiplar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan. Ijtimoiy rol nazariyasida gender rollari va mehnatdagi 107eying jamiyatdagi ijtimoiy kutishlarga asoslanadi. Talabalar kasb tanlashda ko‘pincha ushbu ijtimoiy kutishlardan kelib chiqib harakat qilishadi[3]. Kasbiy intilishlar va moslik bo’yicha esa ayollarning parvarishlash va yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq sohalarga, erkaklarning esa texnik va rahbarlik sohalariga intilishini tahlil qilgan. Mehnat bozori stereotiplari orqali esa gender stereotiplariga asoslangan kasbiy kutishlar talabalarning o‘z imkoniyatlarini cheklashiga olib keladi. Tadqiqotlarning ahamiyati gender stereotiplarini bartaraf qilish orqali talabalarni o‘z qiziqishlariga mos sohalarga jalb qilish mumkin. Bem va Eagly tadqiqotlari ta’lim tizimida gender tenglikka erishish va talabalarni kasbiy tanlovda qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Daniel Kanemanning talabalarning kasbiy qaror qabul qilishdagi noto‘g‘ri qarorlari va og‘ishlari haqida tadqiqotlar olib borgan. U Nobel mukofoti sovrindori va psixologiya sohasidagi yetakchi tadqiqotchi, inson qaror qabul qilish jarayonlaridagi og‘ishlarni va noto‘g‘ri xulq-atvorni chuqur o‘rgangan. Uning ishlari, xususan, talabalarning kasbiy qarorlar qabul qilishdagi noto‘g‘ri yo‘nalishlarini tushunishda ahamiyatga ega. Og‘ishlarning turlari bo’yicha talabalarning kasbiy qarorlarida uchraydigan asosiy og‘ishlardan iborat. Bu og’ishlar tasdiqlash og‘ishi bo’lib talabalar o‘zlari qabul qilgan dastlabki qarorlarini tasdiqlovchi ma‘lumotlarni izlashga moyil bo‘lishadi. Bu, ayniqsa, ularning biror kasb yoki sohani tanlash haqidagi fikrlari noto‘g‘ri bo‘lsa ham davom etishlariga olib keladi. Cheklangan xotirada esa talabalar qaror qabul qilishda ko‘pincha oson esga tushadigan yoki yaqin vaqt ichida eshitgan ma‘lumotlarga tayanadilar. Bu holat, masalan, mehnat bozorining aniq ma‘lumotlarini emas, balki o‘z do‘stlari yoki oila a‘zolarining tajribalarini tanlashda aks etishi mumkin. Kelajakka nisbatan optimism tushunchasi bo’yicha esa talabalar o‘z kelajagi haqida haddan tashqari qarashga ega bo‘lib, bozor talablari va shaxsiy imkoniyatlarini yetarli darajada baholay olmaydilar. Anchoring ya’ni ilk taassurotlar og‘ishi bo’yicha esa talabalar biror kasb yoki sohani baholashda dastlabki ma‘lumotlarga haddan tashqari ko‘p tayanadilar, bu esa qarorlarini cheklaydi [4].

Tadqiqotimizning dastlabki qismida tanlab olingan metodikalarning maqsad va vazifalari va ulardan kutilayotgan natijalar bo‘yicha ishlar tashkil etildi. psixolog talabalarni kasbiy kutishlariga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omillar (oila, ta’lim muassasalari, mentorlik tizimi)ni kompleks baholash uchun innovatsion diagnostik metodika ishlab chiqildi. Bu metodika yordamida talabalarning kasbiy rivojlanishida asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash imkoniyati kengayishini tadqiq etish maqsadidda mualliflik asosida tuzilgan «A.AReanning “Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qòrqish so’rovnomasi» nomli so‘rovnoma o‘tkazildi va quyidagi natijalarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlash bo’yicha A.AReanning “Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qòrqish so’rovnomasi natijalari

Ishtirokchi-respondentlar ijtimoiy-psixologik so‘rovnomamizda bergan javoblaridan shu ma’lum bo‘ldiki aksariyat, ya’ni 100 foizlik ko‘rsatkichda Muvaffaqiyat motivatsiyasi sinaluvchilarning 60,0

foizida yuqori bo‘lib, bu ularning maqsad sari intilishi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchi balandligini bildiradi. Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasi esa sinaluvchilarning 40,0 foizida kuzatilgan bo‘lib, bu ularning qiyinchiliklardan cho‘chishi va qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik ko‘rsatishlarini anglatadi. Bu tadqiqotdan kelib chiqib, aksariyat insonlarda muvaffaqiyatga intilish hissi ustun ekanini kuzatishimiz mumkin.

Jadval-1


Psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlash bo’yicha gender bo‘yicha natijalar ko’rsatkichlari n-150

Jinslar	Muvaffaqiyat motivatsiyasi yuqori (n 75, %)	Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish (n 75, %)
Erkaklar	49 (65%)	26 (35%)
Ayollar	41 (55%)	34 (45%)

Tadqiqotimizda erkaklarda muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish tahlili bo’yicha muvaffaqiyat motivatsiyasi yuqori bo‘lgan erkaklar 65 % bo’lib, bu ko‘rsatkich erkaklarda o‘z maqsadlariga erishishga bo‘lgan qat’iyat va intilishni aniqlandi. Erkaklar odatda ijtimoiy stereotiplar tufayli o‘zlarini muvaffaqiyatga erishuvchi sifatida ko‘rsatishga majbur bo‘lishadi. Bu ular o‘rtasida o‘ziga bo‘lgan ishonchning yuqori ekanligini bildiradi. Erkaklar muvaffaqiyatga erishishni o‘zlarini jamiyatda o‘zini tasdiqlash vositasi sifatida qabul qilishi mumkin. Bu jarayonda ular murakkab vaziyatlarda ko‘proq bardoshlilik va tez qaror qabul qilish qobiliyatlarini namoyon etishlari namoyon bo’ldi.

35 % erkaklarda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish darajasi nisbatan past ekanligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich ular xatolarni vaqtinchalik to‘siq sifatida ko‘rishlari va qo‘rquvni yengib, oldinga intilishlarini bildiradi. Ya’ni qo‘rquvning pastligi erkaklarning o‘ziga xos mas’uliyat hissi va qiyinchiliklarni hal qilishga bo‘lgan ishonchi bilan bog‘liq. Lekin ba’zi erkaklar qo‘rquvini ichki hissiyot sifatida yashirib, o‘z stresslarini oshirishi mumkin.

Ayollarning 55 foizida muvaffaqiyat motivatsiyasi nisbatan baland bo‘lsada, erkaklarnikiga qaraganda pastroq ekanligi aniqlandi. Ayollar muvaffaqiyatga intilishda ko‘proq ijtimoiy va oilaviy mas’uliyatlarni hisobga oladilar ya’ni ayollar muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan intilishlarida ko‘proq ichki hissiyotlar va ijtimoiy qadriyatlarga tayanishadi. Bu esa ularning motivatsiyasi ichki muvozanat bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ayollarning 45 foizida esa muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yuqori ekanligi namoyon bo’ldi. Bu ko‘rsatkich ularning ijtimoiy bosim, javobgarlik va oilaviy hayot bilan bog‘liq stress omillari ta’sirida shakllanishini bildiradi. Ko’pincha ayollar muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishda ko‘proq ijtimoiy va oila-kasb ziddiyatlariga duch keladilar. Ular muvaffaqiyatsizlikni nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, balki o‘z yaqinlari oldidagi yomon natija sifatida qabul qilishini kuzatishimiz mumkin.



2-rasm. Psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlashda yosh xususiyatlari bo’yicha A.AReanning “Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qòrqish so’rovnomasi natijalari

Tadqiqotimizda psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlashda yosh xususiyatlari bo'yicha 8–22 yosh oralig'idagi respondentlarda muvaffaqiyat motivatsiyasi 70 foiz bilan eng yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu yoshda energiya va umid hamda motivatsiya baland bo'lishi tabiiydir. 23–26 yoshli guruhida muvaffaqiyat motivatsiyasi 60 foizga tushgan bo'lsada, hali ham ustunlik qilishini ko'rsatdi. Bu bosqichda insonlar qiyinchiliklarga moslashish va real hayotga kirib borishni boshlaydi. 27–30 yosh oralig'ida muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish ko'rsatkichlari 50 foizdan tenglashgan. Bu yoshda insonlar hayotdagi barqarorlikka intilib, xatolardan ko'proq ehtiyot bo'ladilar.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida tadbirkorlik va boshqaruvning umumiy ulushi **43,3 foiz** bo'lib, respondentlarning deyarli yarmi ushbu yo'nalishlarga qiziqishini ko'rsatdi. Ilmiy va ijtimoiy yo'nalishlarning ulushi birgalikda 30,0 foizni tashkil etdi, bu intellektual va jamiyatga xizmat qilish sohalariga e'tibor hali ham yuqoriligini ko'rsatdi. Texnik, san'at va boshqa yo'nalishlarning umumiy ulushi **26,7 foiz**ni tashkil etdi, bu esa ushbu sohalarning nisbatan tor doiradagi auditoriyaga qiziq ekanini ko'rsatadi.

Jadval-2

E.G. Sheyna tomonidan ishlab chiqilgan "Kariera yo'nalishlari" so'rovnomasi ko'rsatkichlari n-150

Kariera yo'nalishi	Sinaluvchilar soni	Foiz (%)
Tadbirkorlik	35	23,3
Ilmiy faoliyat	25	16,7
Boshqaruv	30	20,0
Ijtimoiy soha	20	13,3
Texnik yo'nalish	18	12,0
San'at va ijod	12	8,1
Boshqa yo'nalishlar	10	6,7

Eng ommabop yo'nalishlar tadbirkorlik yo'nalishi bo'yicha 23,3 foiz 35 nafar respondentlar tomonidan tanlangan bo'lib bu barcha yo'nalishlar orasida eng yuqori ko'rsatkichdir. Bu natija bugungi kunda tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishning yuqoriligini ko'rsatadi. Tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar, masalan, tashabbuskorlik va innovatsion fikrlash, ehtimol respondentlar orasida kuchli namoyon bo'lgan. 20,0 foiz boshqaruv yo'nalishi bo'yicha 30 nafar respondentlar tomonidan tanlangan. Bu yo'nalish ham yuqori darajada talabgor hisoblanadi. Bu boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lishga intilayotgan yoshlarning ko'pligini anglatadi. Odatda, liderlik, mas'uliyatni bo'yniga olish va yaxshi muloqot qilish kabi kompetensiyalar boshqaruv yo'nalishida muhim hisoblanadi. O'rtacha ommabop yo'nalishlar bo'yicha 25 nafar respondentlar 16.7 foizi tomonidan tanladi. Bu natija ilm-fanga bo'lgan qiziqishning hali ham dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, yo'nalishni tanlovchilar, odatda, analitik fikrlash, chuqur o'rganish va ijodiy yondashuvga ega bo'lishdi**.** Ijtimoiy soha yo'nalishlari bo'yicha 20 nafar respondentlar 13.3 foizini tashkil etdi. Ijtimoiy yo'nalishlarni tanlaganlar odatda jamiyatga xizmat qilishni, insonlarga yordam berishni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilishni afzal ko'rishi aniqlandi. 12,0 foiz respondentlardan 18 nafari esa texnik yo'nalishlarni tanlandi. Texnik yo'nalishlar bugungi kunda yuqori talabga ega bo'lsa-da, u ko'pchilik uchun qiyin yoki texnologiyaga aloqador bo'lmagan sabablar tufayli kamroq tanlanishi mumkin. 8,1 foiz respondentlarning 12 nafari san'at va ijod yo'nalishini tanladilar**.** Bu yo'nalishni tanlovchilar ijodkorlik va san'at sohasida ishlashni afzal ko'rgan bo'lishi mumkin, lekin bunday kasblar bo'yicha raqobat kuchli va barqaror daromad kafolatlanmagani sababli u nisbatan kamroq talabga ega. Boshqa yo'nalishlarni esa 10 nafar sinaluvchining 6,7 foizini tashkil etdi. Bu turli xil, umumiy tasnifga kirmaydigan kasblarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, ekologiya, qishloq xo'jaligi, sport va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish joizki talaba yoshlarning kasbiy kutishlari muammosini ilmiy o'rganishning psixologik masalalari yuzasidan talaba yoshlarning kasbiy kutishlari muammosini o'rganish bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar, ilmiy konsepsiyalar va ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinib, tadqiqot natijasida quyidagi muhim jihatlarini keltirdik.

Kasbiy kutishlarning mohiyati va ahamiyati bo'yicha talaba yoshlarning kasbiy kutishlari ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini tanlash jarayoniga ta'sir qiluvchi markaziy psixologik omil ekanligi aniqlandi. Ushbu kutishlar nafaqat shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, balki uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga ham bog'liqdir. Shuning uchun kasbiy kutishlarni o'rganish nafaqat individual, balki ijtimoiy omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ta'siri yuzasidan bobda talabalarning kasbiy kutishlariga ta'sir qiluvchi omillar shartli ravishda ikki asosiy guruhga bo'lingan:

- Shaxsiy omillar: o'zini anglash, shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar va motivatsiya darajasi kabi individual xususiyatlar.
- Ijtimoiy omillar: ota-onalar, do'stlar, o'qituvchilar va guruhdoshlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikri ta'siri.

Kasbiy kutishlarning shakllanishi bo'yicha esa, kasbiy kutishlar neytral, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligi va bu holatlarning talabalarning psixologik xulq-atvori va kelajakdagi kasbiy yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy muhit omillarining birgalikdagi ta'siri orqali talabaning kasbiy kelajakka bo'lgan qarashi shakllanadi.

Kasbiy kutishlarni o'rganishning dolzarbligi aniqlab, mazkur mavzuni o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritildi. Talabalar orasida kasbiy kutishlarni to'g'ri shakllantirish ijtimoiy va psixologik jihatdan moslashuvchan mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu jarayonni chuqurroq o'rganish uchun individual va ijtimoiy ta'sirchanlikni o'rganish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Professor *Victor Vroom* (1932-) is acknowledged as a leading authority on the psychological analysis of behaviour in organisations.

2. Sandra Bem (1944-2014) developed the gender schema theory and the Bem Sex Role Inventory (BSRI), which tests traits of masculinity, femininity, and androgyny.

3. Г.В.Осипов. Российская социологическая энциклопедия. Москва: Норма-Инфра, 1998 — 568-bet.

4. Kahneman, D. (2011) Thinking, Fast and Slow, Farrar, Straus and Giroux, ISBN 978-0374275631. (Reviewed by Freeman Dyson in New York Review of Books, 22 December 2011, pp. 40–44.

Muqimova Dilafro'z Sherboyevna
Qarshi davlat universitet o'qituvchisi

TALABALAR O'QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalar o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Shuningdek, maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv jarayonini tashkil etishning mazmun-mohiyati, uni samarali yo'lga qo'yishning o'ziga xos usullari haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy o'quv yurti, shaxs, o'spirin, talaba, ta'lim, o'quv-bilish faoliyati, motivatsiya, kompetensiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье исследованы психологические особенности развития учебно-познавательной деятельности учащихся. В нем говорилось о теоретических и практических аспектах данной проблемы, научно-исследовательских работах, проведенных отечественными и зарубежными учеными. Также в статье подробно изложена сущность организации учебного процесса студентов высшего учебного заведения, конкретные методы его эффективного построения.*

Ключевые слова: *высшее учебное заведение, личность, подросток, студент, образование, учебно-познавательная деятельность, мотивация, компетентность.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL AND COGNITIVE ACTIVITY OF STUDENTS

Annotation. *The article examines the psychological features of the development of educational and cognitive activity of students. It discussed the theoretical and practical aspects of this problem, as well as the research work carried out by domestic and foreign scientists. The article also describes in detail the essence of the organization of the educational process of students of a higher educational institution, specific methods of its effective construction.*

Key words: *higher education institution, personality, teenager, student, education, educational and cognitive activity, motivation, competence.*

Kirish. Keyingi yillarda O'zbekistonda jahon amaliyotidan kelib chiqib, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Mamlakatimizda sohaga oid amalga oshirilayotgan keng islohatlar zamirida asosiy urg'u oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jahon andozalariga mos sifatli bilim olishlarini ta'minlash, professor-o'qituvchilarning salohiyatini oshirish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, oliy ta'limning ilg'or standartlari va innovatsion o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy fikrlaydigan Yangi O'zbekistonning yangi kadrlarini shakllantirish, muxtasar qilib aytganda, ta'lim sifatini keskin oshirishga qaratilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" deb ta'kidlagani chuqur strategik ahamiyatga ega.

Ma'lumki, oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim jarayonini sifat jihatdan mukammallashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilib, u tizimli va samarali

amalga oshirilayotganligi ayni haqiqatdir. Biz ta'lim sifati haqida gapirar ekanmiz, u avvalambor, ta'limning asosiy maqsadi bo'lmish oliygohlardagi talabalarning bilimliligi, professor-o'qituvchilarning professionalliligi va ta'lim berish jarayonlarining yuqori darajada tashkil qilinishi bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etish o'rinli hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim jarayoni sifatini ta'lim berish dasturlari, ta'lim jarayoniga jalb qilingan professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, ta'lim oluvchilar salohiyati, ta'lim berish jarayoni vositalari, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonini boshqarishning sifat darajasi kabi omillar ham belgilab berishi muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabalik davri inson hayotining muhim pallaridan bo'lib, o'zining cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligi, ulkan maqsadlar sari olib boruvchi dadil xatti-harakatlari, mantiqiy mulohazalarga boy dunyoqarashi, zavq-u shavqqa to'lgan hayot yo'li bilan ajralib turuvchi alohida davr sifatida qaraladi. Mazkur davrning o'ziga xos xususiyatlari psixologiya fanida ham alohida o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda B.G. Ananev, N.V. Kuzmina, N.F. Talizina, V.Y. Lyaudis, I.S. Kon, V.T. Lisovskiy, A.A. Bodalev, A.V. Petrovskiy, M.G. Davletshin, I.I. Ilyasov, A.V. Dmitriyeva, F. Yesareva, A.A. Verbitskiy, V.A. Tokareva, E.R. G'oziyev, M.G. Davletshin va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ancha mashhurdir. Olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'spirinlar (talabalar)ning bilish jarayonlari, ularning shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati va salohiyatining rivojlanish dinamikasi, qiziqishlari, dunyoqarashi, e'tiqodi, odob-axloqi, jinsiy tafovutlari va boshqalar atroflicha o'rganilgan.

Atoqli o'zbek psixologi E.G'.G'oziyev o'spirinlik (talabalik) davrining muhim xususiyatlarini o'rgangan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, u 17-22 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan tavsiflanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan, kattalarning har xil ko'rinishdagi rollarini tez sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. E.G'.G'oziyevning e'tirof etishi, yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda kuchlari, qobiliyatlari, aql-zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch tug'diradi, ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonli hayot va faoliyatini uyushtirishga umid his-tuyg'usini vujudga keltiradi [5;257].

O'spirinlik davri va uning muhim xususiyatlari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar ichida B.G.Ananev va uning shogirdlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga ega. Mualliflarning fikricha, shaxsda 18-20 yosh pallasida fiziologik imkoniyatlar yuksak darajada rivojlanadi, bular organizmning tashqi ta'sirga javobining o'zgarishi, qon bosimining optimal darajada ortishi, qonning kislorod bilan to'yinish darajasining yaxshilanishi va boshqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur davrda shaxsda uquvlilikning qulay imkoniyatlari vujudga kelib, bular insonning axborotlarni qabul qilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Keyinchalik insonda psixik funksiyalarning dinamikasi, uquvlilik imkoniyatlari sira pasaymaydi. B.G.Ananev odamning yetuklik davri boshqa yosh davrlaridan quyidagi muhim qonuniyatlar bilan farqlanishini ta'kidlaydi: 1) turli funksiyalarning rivojlanishi bir tekis va bir vaqtda amalga oshmaydi, bir bosqichda xotira, boshqa bir bosqichda esa tafakkur jadal sur'at bilan o'sadi; 2) yoshga qarab turli funksiyalar o'zaro bog'liq, muvofiqlashgan xususiyat kasb eta boshlaydi; 3) yetuk inson aqlining funksional o'sish darajasi yosh evolyutsiyasining har xil bosqichida yetarli darajada yuqori bo'ladi; 4) mazkur funksiyalar dinamikasida hech qanday keskin pasayish bo'lmaydi; 5) yetuklik davrida uquvlilik kamaymaydi [5;260].

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, talabalar o'quv-bilish faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, noqulaylik (diskomfort) tuyg'usini bartaraf qilish, mikro muhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olish, har tomonlama qulay va samarali ta'lim olish jarayonini yaratishdan iboratdir. Bunda talabalarning bilish faolligini jadallashtirish asosida ularning sohaga oid kasbiy ijodkorligini rivojlantirish, o'quv-bilish faoliyatini izlanishli tadqiqotchilik kompetensiyasi bilan uyg'unligini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

Zamonaviy jamiyatda u yoki bu mamlakatlarning rivojlanish darajasini nafaqat uning texnik holati, balki oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislar kasbiy kompetentligi ham belgilab berishini inobatga olsak, bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari har doimdagidan ham muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning samarali ta'lim olishi, ularning sohaga oid bilish faoliyatini tashkil etishda motivatsiyaning ahamiyati muhim hisoblanadi. Motiv inson harakatlari va amallarining rag'batlantiruvchi kuch hisoblanadi hamda uni biz insonning faoliyatini keltirib chiqaradigan va ushbu faoliyat yo'nalishini belgilaydigan ongli ehtiyoj sifatida tushunamiz. Shunga ko'ra, motivatsiyaga ta'rif berganimizda uni ma'lum bir xatti-harakatlarni amalga oshirishga turtki bo'lgan aqliy hodisalar, shuningdek shaxsning faoliyatini va uning rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilganligini belgilaydigan harakatlardan iborat ekanligini ta'kidlash o'rinli hisoblanadi. O'z mohiyatiga ko'ra, motivlar nafaqat muvofiq ehtiyojlarni aniqlaydi, balki talabalarni ehtiyojlari qondiriladigan o'rganish obyektlari sari dadil yo'naltiradi. Mazkur jarayonda motivlarning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, talabalar faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, zaif motivatsiyaga ega bo'lgan talabaning o'qishi natijalari haqida gapirmasa ham bo'ladi, u auditoriyada faol ishlay olmaydi. Ya'ni, ehtiyojlar va motivlar shaxsning manfaatlari, e'tiqodlari va ideallari bilan chambarchas bog'liq.

Mutaxassislarning fikricha, yoshlarni talaba bo'lishga undagan sabab va omillar ularning o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir etmay qolmaydi. Biz bo'lg'usi pedagog-talabalarning oliy ta'lim muassasalarida muvaffaqqiyatli o'qib ketish sabablarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi ustuvor omillarni aniqlash maqsadida ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) o'tkazganimizda, bir qator muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritdik. IPSdagi "Tanlagan sohangizga munosabatingiz" savoliga tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlar tomonidan berilgan javob variantlarini o'rganganimizda, ularda ushbu sohani tanlashlarida "jamiyatda bugungi kunda mazkur sohada ishlash imkoniyatining yuqoriligi sabab tanlaganman", "ota-onam va do'stlarim maslahati bilan tanlaganman", "oilaviy an'analarga ko'ra tanlaganman", "odamlarga foyda keltirish istagi sababchi bo'lgan", "moddiy manfaatdorlikka ko'ra tanlaganman", "o'z-o'zimni anglash va namoyon qilish istagim tufayli" va boshqa shu kabi javob variantlari ko'proq uchraganligi aniqlandi.

Jadval-1

IPS dagi "Tanlagan sohangizga munosabatingiz" savoliga talaba respondentlar tomonidan tanlangan javob variantlarining ulushi (%)
(n=250)

№	Omillar	Talabalar soni	% hisobida
1.	Jamiyatda bugungi kunda mazkur sohada ishlash imkoniyatining yuqoriligi sabab tanlaganman	82	32.8
2.	Ota-onam va do'stlarim maslahati bilan tanlaganman	54	21.6
3.	Oilaviy an'analarga ko'ra tanlaganman	46	18.4
4.	Odamlarga foyda keltirish istagi sababchi bo'lgan	24	9.6
5.	Moddiy manfaatdorlikka ko'ra tanlaganman	20	8.0
6.	O'z-o'zimni anglash va namoyon qilish istagim tufayli	14	5.6
7.	Tasodifan tanlaganman	10	4.0

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning katta qismi "jamiyatda bugungi kunda mazkur sohada ishlash imkoniyatining yuqoriligi" (32.8%), "ota-onasi va yaqin do'stlarining maslahati" (21.6%), "oilaviy an'anani davom ettirish" maqsadida (18.4%) mazkur sohani tanlashganini qayd etib o'tishgan. Bundan tashqari 9.6% talabalar pedagoglik kasbini tanlashida o'zida "odamlarga foyda keltirish istagining mavjudligi", 8.0%i esa "moddiy manfaatdorlik istagida", 5.6% talabalar "o'z-o'zini anglash va namoyon qilish istagida", 4.0% talabalar esa tasodifan shu sohani tanlaganliklarini bildirib o'tganlar. Odatda, abituriyentni oliy ta'lim muassasasiga qabul qilishda uning avvalgi bosqichda egallagan bilimlari hisobga olinib, shaxs sifatidagi o'ziga xosliklari, qiziqishlari, kasb tanlash motivlariga kam ahamiyat beriladi. O'quv-tarbiya jarayonida mazkur ma'lumotlarni hisobga olmaslik esa talabaning kasbiy moslashuvini muvaffaqiyatli amalga oshirishga salbiy ta'sir etishi

mumkin. Talabaning muvaffaqiyatli ta'lim olishi bir tomondan uning mavjud sharoitga moslashuv darajasida aks etsa, ikkinchi tomondan moslashuvning o'zi samarali ta'lim olish va talaba shaxsi keyingi rivojining muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, o'rganish, bilishga oid motivatsiyasi doimiy ravishda o'zgarib turadi va biri o'rnini ikkinchisi egallaydigan bir qator motivlardan iborat bo'lishi bilan ajralib turadi. Mutaxassislar oliy o'quv yurtlarida motivatsiyani sohani samarali va ancha tez o'rganishning yetakchi omillaridan biri ekanligini isbotladilar, ammo uning xususiyatlari va samaradorligi talaba o'tadigan o'quv jarayonining turli bosqichlarida farq qilishi, birinchi kursdan to oxirgi kursgacha ta'lim va kasbiy faoliyatning o'zi va uning motivatsiyasi o'zgarib turishini ta'kidlab o'tdilar. Endi oliy ta'lim ostonasiga qadam qo'ygan talaba, birinchi navbatda, yangi didaktik vaziyatga moslashish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolarga duch keladi, bu maktab ta'limidan tubdan farq qiladigan o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullaridir. Ushbu yondashuv va u bilan bog'liq qiyinchiliklar o'ziga xos didaktik to'siqni yaratadi, uni yengib o'tish kerak bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, ijobiy motivlar va asosli maqsadlarni shakllantirish bo'lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki motivlar va maqsadlar faoliyatning muhim belgilovchilari hisoblanadi. Shuning uchun, mutaxassislarning fikriga ko'ra, motivatsiyani to'g'ri tushunish talabalarning samarali ishlashlari uchun zaruriy shart hisoblanib, ular ta'limning innovatsion usullari va yondashuvlaridan foydalangan holda o'zida kognitiv qiziqishni faollashtiradi, oldiga qo'ygan maqsadlarini yanada rivojlantiradi.

Talabalarning bilish faoliyatlarini yanada faollashtirishda bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan bo'lgan qiziqishlar alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ma'lumki, qiziqishlar insonning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarining hissiy namoyon bo'lishi bo'lib, ular shaxsni faoliyatga undovchi haqiqiy sabab (motiv) hisoblanadi hamda inson tomonidan alohida muhimlik, ahamiyatlilik sifatida idrok etiladi. Turmush tajribamizdan kelib chiqadigan bo'lsak, inson har doim o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni xotirada tezroq saqlab qoladi va ularni uzoq muddat davomida esida saqlab qoladi. Shu o'rinda bilimga bo'lgan qiziqish alohida ahamiyat kasb etib, u intellektual va ijodiy xarakterda bo'lishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Talabalarning bilishga bo'lgan barqaror qiziqishi quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) intellektual faollik (faoliyatga o'z tashabbusi bilan kirishishga intilish, savol-javob, bahs-munozaralarda qatnashish, mustaqil fikrlash va boshq.); b) o'zlashtirish natijalariga erishish (tushunchalar bilimni hosil qiladi, bilimlar ko'nikmalarga, ko'nikmalar malakalarga aylanadi, bilishga bo'lgan qiziqish o'zining eng yuqori rivojlanish darajasiga ko'tariladi); v) hissiyotni namoyon qilish (intellektual his-tuyg'ular: quvonish, ajablanish, hayratlanish, qiziqish, shubhalanish va boshq.); g) irodani namoyon qilish (ixtiyoriy diqqat qilish, kuchsiz chalg'ish, qat'iyatlilik, chidamlilik, o'quv vazifalarini o'z vaqtida bajarish va oxiriga yetkazishga intilish); d) o'z xatti-harakatlarini erkin tanlash (o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda u yoki bu mashg'ulotlarni erkin tanlay olish).

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning samarali ta'lim olishi ularning kreativlik sifatlari, ko'nikma va qobiliyatlariga ham bog'liqdir. Bizga ma'lumki, kreativlik muhim xususiyat sifatida shaxsning yangilikka intilishi, undagi yaratuvchanlik va ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Odatda, kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik, refleksiya va shunga o'xshash bir qator muhim xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, xayoli xususiyatlarida, odamlar bilan bo'ladigan muloqotida, kechiradigan his-tuyg'ularida, u shug'ullanadigan muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Mazkur qobiliyatning mavjudligi tabiiy (biologik) hamda ijtimoiy-psixologik omillarga bog'liq bo'lib, obyektiv va subyektiv negiz ustiga quriladi. Shaxsda kreativ qobiliyatning rivojlanishi uning har jihatdan yetuk inson sifatida shakllanishiga muhim negiz hozirlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kreativ qobiliyat ko'p omillikka asoslangan bo'lib, muammo yechimini nostandart usullar bilan bajarish, shakl va mazmunni talqin qilishda o'ziga xos ravishda yondashishni taqozo etadi, yangi model va modifikatsiyalarning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi.

Talabalarning kreativ qobiliyatida tafakkurning mustaqilligi muhim o'rin tutadi. Tafakkurining mustaqilligi deganda, uning shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya

bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi farazlar qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz, o‘zining aqliy izlanishlari tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyati tushuniladi. Demak, talabalarda muayyan darajada namoyon bo‘ladigan mustaqillik uning aqliy faoliyatida namoyon bo‘lib, ma’lum ma’noda iroda bilan bog‘liq bo‘ladi. Talaba shaxsida mustaqillik bo‘lsa, unda o‘ziga ishonch ham bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida o‘zidagi subyektiv talablar yuqori bo‘lishiga olib keladi. Ma’lumki, talaba tafakkurining mustaqilligi aqlining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidni qabul qila olishida namoyon bo‘ladi. Talabalar shaxsida kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, o‘quv jarayonida talaba shaxsida kreativ qobiliyatni tarkib toptirish uchun quyidagilarga amal qilish lozim bo‘ladi: avvalo, talabalarda kreativ qobiliyatga ega bo‘lish mayllarini qaror toptirish; ularda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj, tafakkurining mustaqilligi va aqlining tashabbuskorligiga erishish; talaba shaxsida ijodiylikka keng yo‘l ochish, ular tomonidan bildirilgan fikrlar, g‘oya va loyihalarni o‘rganish, qo‘llab-quvvatlash; har bir talabada mustaqillikni rivojlantirish, ularning ijodiy fikrlashiga keng yo‘l ochish, o‘ziga ishonch hissini qaror toptirish; talabalarning ijodiy faolliklarini qo‘llab-quvvatlash va muntazam ravishda rag‘batlantirib borish; o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish; har bir talaba bilan individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish; talabalarni ijodiy ishlarga jalb qilish, ularning ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish choralarini ko‘rish; talabalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularga mavjud muammolarni hal qilishda nostandart usullardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatish; talabalar bilan ishlashda kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol usullardan foydalanish va hokazo.

Talabalarda o‘quv-bilish faoliyatining shakllanishida, ularning o‘qitiladigan fanlarni puxta o‘zlashtirishlarida o‘qituvchilar, ota-onalar va talabalarning o‘zlarini munosabatlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va murabbiylar tomonidan shaxslararo munosabatlarda ijobiy munosabat o‘rnatish va jamoada yoqimli muhit yaratish, hamkorlik munosabatlari, o‘zaro tushunish va hurmat qilish muhitining yaratilishi talabalarning bilishga oid, gnostik, ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi. Ta’kidlash lozimki, talabalarning bilish faoliyatini shakllantirishning samaradorligi tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Bilish faoliyati shakllanishining tashqi omillari – bu pedagogik muhit va jarayonning, ya’ni ta’lim muassasalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar xususiyatlari bo‘lsa, ichki omillarga esa talabalar, o‘qituvchilar va ota-onalarning individual psixologik xususiyatlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar misol bo‘ladi. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, ota-onalar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatda maqsadlar birligi, do‘stona tushunish va qo‘llab-quvvatlash bo‘lsa, talabalarning sifatli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlaydi, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim oluvchilarning salohiyati yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Xulosa (Conclusion). Shunday qilib, ta’lim jarayonida talabalar o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, ularga nafaqat o‘zi tanlagan sohasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni berish, balki ularni amalda qo‘llash qobiliyatiga qaratilgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida muammoli o‘qitish, vaziyatlarni loyihalash, tadqiqotlarni amalga oshirish, baxs-munozara va boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirib, ularning auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Samarali ta’lim texnologiyalari har bir talabaning o‘quv-bilish faoliyatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning faollik ko‘rsatishi, o‘quv mehnati natijalari uchun mas’uliyatni his qilishi, egallagan bilimlarning shaxs mavqeini oshirishga xizmat qilishini anglab yetishini ta’minlaydi. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida qo‘lga kiritilgan natijalar zamonaviy sharoitda oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilish faoliyatini shakllantirishga innovatsion yondashuvning roli va ahamiyatini birmuncha chuqurroq anglash imkonini beradi, bu esa, o‘z navbatida, qator masalalar, ya’ni talabalarning bilim olish motivatsiyasini yo‘naltirish, kasbiy-

pedagogik yo‘nalganlik, shaxsning kasbiy-ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy buyurtmani bajarish va boshqa masalalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Аберган, В.П. Социальная адаптация студенческой молодежи к профессиональной деятельности / В.П. Аберган, В.П. Беланович // Психологическое сопровождение образовательного процесса: сб. науч. ст. - Минск: РИПО, 2014.-С. 3-11.
2. Гапонова С.А. Особенности адаптации студентов вузов в процессе обучения // Психологический журнал.- 1994. – Т. 15. - №3. – С. 131-135.
3. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. / Е. П. Ильин. – СПб.: Питер, 2011. – 512 с
4. Лагерев В.В. Адаптация студентов к условиям обучения в техническом вузе и особенности организации учебно-воспитательного процесса с первокурсниками.- М.: НИИВО, 1991.
5. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologyasi. -T.: Noshir, 2010, -360 b.

Murathodjayeva Ziyoda Baxtiyorovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti
Ortiqboyeva Zumradxon Hasanboy qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi magistranti
Email: zumradortiqboyeva93@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TOMONLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik-psixologik tomonlari ochib beriladi. Hamda ushbu yo‘nalishdagi yutuq va kamchiliklar haqida so‘z yuritiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish deganda, ta’lim jarayoni subyektlararo munosabatlarda muloqotli maqsadlarga erishish uchun kasbiy masalalarni hal etish.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik- psixologik tomonlari ochib beriladi, boshlang‘ich sinflar, ta’lim jarayoni, o‘quv-tarbiya, ijodiy fikrlash, rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, boshqarish, ta’lim faoliyati, ta’lim texnologiyalari hamda vositalar.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье раскрыты педагогические и психологические аспекты социализации учащихся младших классов. Также говорится о достижениях и недостатках в этом направлении. Управление учебным процессом в начальных классах на основе творческого подхода означает решение профессиональных задач для достижения коммуникативных целей в межпредметных отношениях учебного процесса.*

Ключевые слова: *Раскрыты педагогические и психологические аспекты социализации учащихся младших классов, начальные классы, учебный процесс, воспитание, творческое мышление, развитие, цифровые технологии, менеджмент, образовательная деятельность, образовательные технологии и средства.*

PEDAGOGICAL- PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF SOCIALIZATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract. *Pedagogical and psychological aspects of socialization of elementary school students are disclosed in this article. It also talks about achievements and shortcomings in this direction. Management of the educational process in primary classes based on a creative approach means solving professional issues in order to achieve communicative goals in intersubjective relations of the educational process.*

Key words: *Pedagogical and psychological aspects of socialization of elementary school students are disclosed, elementary classes, educational process, education, creative thinking, development, digital technologies, management, educational activities, educational technologies and tools.*

Kirish. Bilamizki, bugungi kunga kelib yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan o‘sib kelayotgan yosh avlodga e’tibor sezilarli darajada ortdi. Bugungi kun yoshlari har tomonlama ham aqliy, ham ijtimoiy jihatdan anchagina ilg‘ordir. Buning zamirida esa davlatimiz hamda

davlatboshimizning respublikadagi har bir bolaning ta’lim olishi hamda ijtimoiy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun bor imkoniyatlarni ishga solayotgani turibdi.

Ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 9691 ta umumta’lim maktablari (jumladan, ayrim fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan 350 ta davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari) mavjud. Umumta’lim maktablaridagi umumiy o‘quvchilar soni 5.8 millionni tashkil qiladi. Shuningdek, jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13437 nafar bolalar uyda ta’lim olmoqdalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning pedagogik-psixologik tomonlari – bu o‘quvchilarning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish va ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish jarayonini o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik va psixologik jarayonlardir. Bu jarayonlar boshlang‘ich ta'limda ayniqsa muhim, chunki bolalar bu davrda o‘zligini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va jamiyatga moslashishning asosiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Natija va muhokama. Ijtimoiylashtirishning pedagogik-psixologik tomonlariga quyidagilar kiradi:

1. O‘zlikni anglash (identifikatsiya): Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his eta boshlaydilar. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

2. Empatiya va boshqalarni tushunish: Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqalar bilan bo‘lishish va ularni tushunishga o‘rganadilar. Empatiya, bir-birining holatiga hurmat va tushunishning rivojlanishi ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning asosi hisoblanadi.

3. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: O‘quvchilar ijtimoiy rollarni o‘rganadilar, guruhda ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu, o‘z navbatida, ularning muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

4. Jamoada ishlash: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zaro hamkorlik va jamoada ishlashni o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun guruhli ishlanmalar, o‘yinlar, muammolarni birgalikda hal qilish kabi faoliyatlar muhimdir.

5. O‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik: O‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ota-onalar o‘z farzandlarini o‘qish va o‘rganish jarayonida qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam berishlari kerak.

6. Emotsional barqarorlik: Bolalar ijtimoiy muhitda qanday hissiyotlarni boshqarishni va muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, ularning psixologik barqarorligini ta'minlaydi.

7. Qonun va qoidalar bilan tanishish: O‘quvchilar jamiyatdagi ijtimoiy qoidalar, qonunlar va me'yorlarni o‘rganadilar. Bu ijtimoiy tizimda qanday o‘rin tutishlari kerakligini tushunishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishda o‘qituvchining roli katta, chunki ular bolalarni ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish, psixologik yordam berish va o‘zaro hurmatni shakllantirishda yo‘naltiruvchi bo‘lishlari kerak. Bu jarayon ijtimoiy adaptatsiya uchun muhim asos yaratadi va o‘quvchilarning jamiyatga moslashishini ta'minlaydi[1].

Maqsad. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz kerak, jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda ota-onadan bolaga yanada mas’uliyatliroq yondashish talab etiladi. Agar ota- onalar bunday bolalarga jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qarashsa, ikkilamchi sotsializatsiyada ham iloji boricha qiyinchilikka duch kelinmaydi. Nogiron bolalarni ijtimoiylashtirish, o‘z tengdoshlari kabi jamiyatning bir bo‘lagi ekanligiga ishontirishimizga ba’zi narsalar to‘sqin bo‘lib kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, nogiron bolalarga e’tibor va ular bilan muloqotning yetishmasligi yoki ularni imkoniyatlari bilan qiziqilmasligi shular jumlasidandir. Buning uchun esa biz pedagoglardan har bir o‘quvchiga ehtiyojlari hamda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yondashishimiz zarurligi talab etiladi. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham yuqoridagi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan[2]. Ushbu konsepsiyada alohida belgilab qo‘yilganki, o‘qituvchilar eng avvalo motivator bo‘lishi zarur deb. Shuningdek, hozirgi kunda har bir bolaga, ayniqsa nogironligi bo‘lgan yoki ota-onasi yo‘q bolalarga

alohida yondashish, ularga imkoniyatlarini ochib berishda ko‘maklashish eng katta maqsad ham vazifamiz ekanligi ta’kidab o‘tilgan.

Yuqoridagi masalalardan kelib chiqadiki, bola shaxsini rivojlantirishga, uning jamiyatdagi o‘rnini muhim belgilab berishimizga nafaqat o‘qituvchi balki, maktabning yuqori amaldorlari hamda ota-onaning ham o‘rni beqiyosligini ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayoni nafaqat maktabda balki oilada ham alohida e’tiborga muhtoj masala hisoblanadi.

Jamiyatdagi har bir yuksak marralarga erishayotgan shaxsning ortida ham bir kuyunchak, fidoyi ustozning hamda farzandi taqdiriga befarq bo‘lmagan ota-ona turadi, va afsuski aksincha holatda ham, har bir ijtimoiylashmagan shaxsning ortida ham uning jamiyatdagi ilk ustozi hamda ota-onasi turadi. Shularni e’tiborimizdan chetda qoldirmagan holda biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari deyarli har bir darsimizda bola ijtimoiylashuviga ajratilgan alohida daqiqalarni tashkil qilishimiz zarur. Ijtimoiylashishning eng kichik ko‘rinishi bu salomlashish odobi ekanligini bilganimiz holda o‘quvchilarga avvalo salomlashishni o‘rgatamiz. Lekin shunday o‘quvchilar borki, ular faqatgina o‘zi tanigan yoki qo‘rqqan o‘qituvchisiga salom beradi bu holat ayniqsa kichik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘p uchraydi. Bundan ko‘rinadiki, mana shu bola kelajak hayotida ham faqatgina o‘ziga tanish bo‘lgan jamoa bilan muvaffaqiyatli ish olib borishi mumkin. Agar shu va shu kabi kichik lekin ahamiyatli bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tmasak, bolaning ijtimoiylashuvida kemtiklar bo‘lishi muqarrar. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har bir darsida 3-4 daqiqani ijtimoiylashtirish daqiqasi deb o‘zimiz uchun belgilab olishimiz zarur.

Bola ijtimoiylashuvida yana bir muhim ahamiyat kasb etadigan jihatlar borki, bular sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonidir. Bunda bolalarni turli xil ekspeditsiyalarga olib borish orqali ularni yangi muhitga olib chiqamiz va shu orqali notanish narsalarga va shaxslarga moslashtirishimiz mumkin bo‘ladi. Ekspeditsiyalarni masalan, muzeylarga, xiyobonlarga yoki parklarga uyishtirishimiz mumkin. Bundan maqsadimiz esa ham fan doirasidagi topshiriqlar bajariladi, ham bolaga ijtimoiy tarbiya vositalari uqtiriladi. Chunki yuqorida sanalgan maskanlarning deyarli barchasi odamlar ko‘p bo‘ladigan gavjum joylardir. Buning natijasida esa bolada tashqi muhitga moslashish va begona insonlar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, shaxs borki ijtimoiylashishga muhtojdir. Ijtimoiylashishning asosiy bo‘g‘ini biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qo‘lida ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishga ham pedagogik, ham psixologik yondashish muhim ahamiyatga ega. Bilamizki, har bir o‘quvchi o‘zgacha psixologiyaga ega va shu jihatdan har bir o‘quvchiga turlicha yondashish talab etiladi. Buning uchun esa pedagoglardan kreativlik va yuksak mahorat talab etiladi. Mahoratli o‘qituvchi esa o‘z oldiga qo‘ygan yuksak maqsadi ya’ni har bir o‘quvchisi kelajakda yetuk shaxs bo‘lib yetishishi yo‘lida barcha imkoniyatlarini ishga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 - yil 23 - sentabrdagi, 637-sonli.
2. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. Sh.M.Mirziyoyev. “Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq- farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. 2018 - yil.
4. M.S.Salayeva. O‘quv qo‘llanma “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish”, 2022-yil, 25-bet.
5. Z.B.Muratxodjayeva. “ Umumiy psixologiya”. Toshkent-2021.
6. S.M.Yuldasheva. “Yosh davrlari psixologiyasi” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua. Toshkent-2016.

Omonov Sherali
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ETNOMADANIY QADRIYATLARNING ISTE’MOLCHILARNING XARID QARORLARIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqola etnomadaniy qadriyatlarning iste'molchilarning xarid qarorlariga psixologik ta’sirini o‘rganadi. Madaniyat va etnik qadriyatlar odamlarning xarid qilish xatti-harakatlariga, ularning qanday mahsulotlarni tanlashi, qanday brendlarni afzal ko‘rishi va reklamalarga qanday javob berishlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning asosiy maqsadi, etnomadaniy qadriyatlar va psixologik omillarning xarid qilish jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdir. Bu maqsadga erishish uchun anketalar, intervyular orqali ma’lumotlar yig‘ilgan va keyinchalik statistika yordamida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Etnomadaniy qadriyatlar, iste'molchi xatti-harakati, marketing psixologiyasi, an'analar, kollektivizm, mahalliy brendlar, ijtimoiy ta'sir, sotuvchilar.*

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF ETHNOCULTURAL VALUES ON CONSUMER PURCHASE DECISIONS

Abstract. *This article examines the psychological impact of ethno-cultural values on consumers' purchasing decisions. Culture and ethnic values play a significant role in shaping consumer behavior, influencing product choices, brand preferences, and responses to advertising. The primary objective of the study is to determine how ethno-cultural values and psychological factors affect the purchasing process. To achieve this goal, data was collected through surveys and interviews, followed by statistical analysis.*

Keywords: *Ethno-cultural values, consumer behavior, marketing psychology, traditions, collectivism, local brands, social influence, sellers.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА РЕШЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ О ПОКУПКАХ

Аннотация. *Данная статья исследует психологическое влияние этнокультурных ценностей на потребительские решения. Культура и этнические ценности играют важную роль в формировании покупательского поведения, определяя выбор товаров, предпочтения брендов и реакцию на рекламу. Основная цель исследования – выявить, как этнокультурные ценности и психологические факторы воздействуют на процесс совершения покупок. Для достижения этой цели были собраны данные через анкетирование и интервью, после чего проведен статистический анализ.*

Ключевые слова: *Этнокультурные ценности, потребительское поведение, психология маркетинга, традиции, коллективизм, локальные бренды, социальное влияние, продавцы.*

Xarid qarorlari har bir iste'molchi uchun o'ziga xos va bir nechta psixologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu qarorlar ko'pincha faqat individual xohish-istaklarga asoslanib qolmaydi, balki etnik va madaniy qadriyatlar, o‘tmish tajribalari, jamiyatdagi o‘rni va boshqa psixologik faktorlar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, yangi tendensiyalar va reklamalar ham xarid qilish xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.

Etnomadaniy qadriyatlarning iste'molchilarning xarid qarorlariga psixologik ta’sirini o‘rganish orqali biz iste'molchi xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratamiz. Madaniy qadriyatlarning xarid qarorlariga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish, marketing strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Maqolada etnik guruhlarning xarid qilish qarorlari va ular o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, ularning jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy vaziyatlariga qanday bog‘liq ekanligini o‘rganishga harakat qilinadi.

Etnomadaniy qadriyatlar odamlarning jamiyatdagi o‘z o‘rniga, an’analariga va turmush tarziga asoslanadi. Bular o‘z navbatida ularning xarid qilish qarorlarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Har bir etnik guruhda o‘ziga xos psixologik omillar va qadriyatlar mavjud bo‘lib, bu omillar xarid qilish xatti-harakatlariga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, konservativ va an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolishga intilgan guruhlar premium va sifatli mahsulotlarga yuqori talab qo‘yishi mumkin, ammo boshqa guruhlar ko'proq narxga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olishi mumkin.

Madaniy qadriyatlar iste'molchilarning brendlar, mahsulotlar va sotuvchilarga bo'lgan munosabatini ham shakllantiradi. Reklamalar va marketing strategiyalari har bir madaniyatga moslashgan bo‘lishi zarur, chunki noto‘g‘ri moslashtirilgan reklama kompaniyalari iste'molchilarni jalb qila olmaydi.

Xarid qarorlarida psixologik ta’sirlar katta rol o‘ynaydi. Iste'molchilarning psixologik holati, ularning ehtiyojlarini qondirish istagi va motivatsiyalari xarid qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Iste'molchi qarorlarini qabul qilishda ijtimoiy ta'sirlar ham muhimdir; shuningdek, individning ichki qoniqish va xavotirlarini kamaytirishga intilishning psixologik asosi ham mavjud.

Bu maqolada etnomadaniy qadriyatlarning iste'molchilarning xarid qarorlariga psixologik ta’sirini aniqlash uchun ikkita asosiy metoddan foydalaniladi: anketa-so‘rovnoma metodi va intervyu metodi.

• Anketa-so‘rovnoma metodi: Anketalar orqali ma'lumotlar yig‘iladi. Iste'molchilarning etnik va madaniy kelib chiqishi, xarid qarorlaridagi farqlar, shuningdek, psixologik omillar bo‘yicha savollar beriladi. Yig‘ilgan ma'lumotlar statistik tahlilga kiritiladi.

• Intervyu metodi: Intervyular yordamida iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonlari haqida chuqurroq tushunchalar olish uchun tahlil o‘tkaziladi.

Statistik tahlilda t-testlar, regressiya tahlili va natijaning variativ usullari qo‘llaniladi. Bular ma'lumotlarning taqsimotini aniqlash, turli guruhlar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval

O‘zgaruvchi	O‘rtacha (Mean)	Standart Xato	t-qiymat	P-qiymat
Etnik guruhlar	4.5	0.8	2.34	0.021
Madaniy qadriyatlar	3.8	0.7	1.89	0.043
Psixologik ta'sir	4.1	0.9	2.02	0.039

Ushbu jadvalda etnik guruhlar, madaniy qadriyatlar va psixologik ta’sir o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rsatuvchi 121eclama121c natijalar keltirilgan. Keling, har bir ustun va qiymatni batafsil tushuntiramiz:

Jadvalda quyidagi asosiy o‘zgaruvchilar qiyoslangan:

- Etnik guruhlar – turli millat vakillarining iste’molchi xulq-atvori.
- Madaniy qadriyatlar – Milliy an’analar, din, oilaviy qadriyatlar kabi omillar.
- Psixologik ta’sir – Reklama, brendga ishonch kabi psixologik omillarning ta’siri.

Har bir o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymati (1–5 shkala bo‘yicha):

➢ Etnik guruhlar: 4.5 – Etnik jihatdan noyob brendlar yoki mahsulotlarga yuqori moyillik.
➢ Madaniy qadriyatlar: 3.8 – Madaniyat iste’molchilarning qarorlariga o‘rtacha ta’sir ko‘rsatadi.
➢ Psixologik ta’sir: 4.1 – Psixologik omillar (masalan, “mahalliy brend” degan yorlig‘i) kuchli ta’sirga ega.

O‘rtacha qiymatning ishonchlilik darajasi:

❖ Etnik guruhlar: 0.8 – natijalar 68% ishonch oralig‘ida ±0.8 ga o‘zgarishi mumkin.
❖ Madaniy qadriyatlar: 0.7 – Aniqlik biroz yuqori.
❖ Psixologik ta’sir: 0.9 – Katta tarqalish (masalan, turli yosh guruhlarida farq).

Umumiy xulosa qilinganida iste’molchilarning xarid qarorlariga etnik guruhlarning ya’ni millatning hamda psixologik ta’sirning ahamiyati juda baland. Shuning uchun kuchli brendlar har doim yangi

bozorga kirishdan avval o’sha jamiyatning etnik qadriyatlari bilan hisoblashadi. Bu esa o’z navbatida ularning savdo hajmiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir ko’rsatadi.

Etnomadaniy qadriyatlar iste’molchilarning tanlovlarini shakllantiradi. Ularning o‘zgarmas qadriyatlari, ijtimoiy roli, urf-odatlar va o‘ziga xos madaniy xususiyatlari ular qanday mahsulotlarni sotib olishlarini belgilaydi. Masalan, musulmonlar orasida halol mahsulotlar, hindular orasida vegetarian taomlar, yoki yaponlar orasida yuqori sifatli va an’anaviy uslubdagi mahsulotlar ko‘proq 122ecla ko‘riladi.

Marketing va sotuv strategiyalarini ishlab chiqishda, 122eclama materiallari va brendning obrazini tayyorlashda etnik guruhlarning madaniy va diniy qadriyatlari inobatga olinishi lozim. Shuningdek, reklamada an’anaviy qadriyatlar va urf-odatlarga e’tibor qaratish iste’molchilarni o‘ziga tortishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Abduqodirov, O. (2018). Etnomadaniy qadriyatlar va ular psixologiyasidagi o‘zgarishlar. Toshkent: Ilm Ziyo.

2.Xusanov, N. (2021). Iste'molchilarning xarid qarorlari va psixologik omillar. Tashkent: Ma'naviyat.

3.Rakhimov, A. (2020). Madaniyat va etnik qadriyatlarning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

Parmonov Bobir Erkinovich
Andijon davlat universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti

YOSHLARDA PSIXOLOGIK BUZILISHLAR PSIXOSOTSIYAL HODISA SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar orasida uchraydigan psixologik buzilishlar psixosotsial hodisa sifatida tahlil qilinadi. Yoshlarning ruhiy salomatligiga ta'sir etuvchi omillar – ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, ta'lim tizimi va zamonaviy axborot oqimlarining roli chuqur o'rganiladi. Shuningdek, maqolada stress, depressiya, tashvish buzilishlari kabi ruhiy muammolarning yoshlar hayotiga salbiy ta'siri va ularni kamaytirish bo'yicha psixologik hamda sotsiologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari psixologik profilaktika va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, psixologik buzilishlar, psixosotsial omillar, stress, depressiya, profilaktika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ РАССТРОЙСТВА У МОЛОДЕЖИ КАК ПСИХОСОЦИАЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН

Аннотация. *В статье анализируются психологические расстройства среди молодежи как психосоциальное явление. Будут подробно изучены факторы, влияющие на психическое здоровье молодых людей: социальная среда, семейные отношения, система образования, роль современных информационных потоков. В статье также анализируется негативное влияние проблем психического здоровья, таких как стресс, депрессия и тревожные расстройства, на жизнь молодых людей, а также психологические и социологические подходы к их снижению. Результаты исследования включают рекомендации, направленные на совершенствование системы психологической профилактики и социальной поддержки.*

Ключевые слова: *молодежь, психологические расстройства, психосоциальные факторы, стресс, депрессия, профилактика.*

PSYCHOLOGICAL DISORDERS IN YOUTH AS A PSYCHOSOCIAL PHENOMENON

Annotation. *This article analyzes psychological disorders among young people as a psychosocial phenomenon. The factors affecting the mental health of young people - the social environment, family relationships, the education system and the role of modern information flows - are studied in depth. The article also analyzes the negative impact of mental problems such as stress, depression, anxiety disorders on the lives of young people and psychological and sociological approaches to reducing them. The results of the study include recommendations aimed at improving the psychological prevention and social support system.*

Keywords: *young people, psychological disorders, psychosocial factors, stress, depression, prevention.*

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yoshlar hayot tarzida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, yoshlarning bilim saviyasi va dunyoqarashini kengaytirayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, turli psixologik bosimlar, stress holatlari, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, ta'lim muhitidagi ziddiyatlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalarining noto'g'ri ishlatilishi natijasida psixologik buzilishlar ko'rinishida namoyon bo'lmoqda.

Psixologik buzilishlar, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlod orasida, individual omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy va madaniy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat ularni faqat shaxsiy muammo emas, balki kengroq — psixosotsial hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada yoshlar orasida uchrayotgan psixologik buzilishlarning zamirida yotgan psixologik va ijtimoiy omillar, ularning o'zaro ta'siri, shuningdek, bu holatlarning ijtimoiy muhitga

ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, yoshlar salomatligini asrashda psixoprofilaktika va psixokorreksiya choralari, oilaning, ta’lim muassasalarining va jamiyatning tutgan o‘rni masalalariga e’tibor qaratadi.

Psixologik buzilishlar (yoki ruhiy buzilishlar) deganda shaxsning emotsional, kognitiv, fiziologik va xulq-atvoridagi buzilishlar majmuasi tushuniladi. Bu holatlar insonning o‘z-o‘zini anglash, atrof-muhit bilan muloqot qilish, ijtimoiy rol va vazifalarni bajarishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasining ta’rifiga ko‘ra, psixologik buzilish – bu aqliy faoliyat, emotsiyalar va xatti-harakatlarda sezilarli buzilish bilan kechuvchi holat bo‘lib, u shaxsning hayot sifatini pasaytiradi va og‘riqli, azobli kechinmalarga olib keladi[1].

Xalqaro kasalliklar tasnifi (ICD-11) va DSM-5 tizimlarida turli ruhiy buzilishlar alohida sindromlar sifatida tasniflangan: depressiya, tashvish buzilishlari, shaxsiyat buzilishlari, stressga bog‘liq holatlar va boshqalar[2].

Psixologik buzilishlarni tushuntirishda bir nechta asosiy nazariy psixoanalitik yondashuv mavjud bo’lib, Freyd psixikani uch tarkibga bo‘lgan: id, ego, va superego. Mazkur qismlar orasidagi ziddiyatlar (ayniqsa bolalikdagi travmalar) psixologik buzilishlarga olib keladi. Erikson esa shaxsiy rivojlanishning 8 bosqichini belgilab, ayniqsa “identitetga erishish yoki rol chalkashuvi” bosqichi (o‘smerlik-yoshlik davri)da psixologik muvozanatga erishmaslik xavfini ta’kidlaydi[6].

Bu nazariya bo‘yicha, psixologik buzilishlar noto‘g‘ri shartlangan o‘rganilgan xatti-harakatlar natijasidir. Masalan, doimiy salbiy mustahkamlovchi omillar (jazolash, tahdidlar) natijasida tashvish buzilishlari rivojlanadi. Aaron Beck depressiya va tashvish buzilishlarini noaniq, salbiy tafakkur andozalari bilan bog‘laydi. Shaxsning “Men hech narsaga yaramayman”, “Hamma meni yomon ko‘radi” kabi fikrlari — ruhiy buzilishlarning asosiy sababi sifatida ko‘riladi. Ruhiy holatlar shunchaki individual emas, balki jamiyatdagi o‘zgarishlar, qadriyatlar inqirozi, ijtimoiy tengsizlik, migratsiya, zo‘ravonlik va tashqi bosimlar ta’sirida ham shakllanadi.

Yoshlar orasida psixologik buzilishlarning oshishi ko‘p hollarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov yo‘qligi, tazyiqlar, oilaviy buzilishlar, internetda raqamli bosim bilan bog‘liq. Yoshlar o‘smirlik va erta katta yoshga o‘tish bosqichida ruhiy jihatdan eng nozik davrni boshdan kechiradilar. Bu davrda identiklik inqirozi:

- kim ekanini anglay olmaslik;
- o‘zini qabul qilmaslik va ijtimoiy qiyoslashlar;
- ota-ona bilan ziddiyatlar, mustaqil qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar;
- do‘stlar va tengdoshlar tomonidan rad etilish, yolg‘izlik;
- karyera, o‘qish, shaxsiy hayot kabi bosimlar mavjud bo‘ladi.

Yoshlar ruhiy holatining shakllanishi ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, unga individual psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy va psixosotsial omillar ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixosotsial omillar deganda, insonning jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari, oilaviy muhit, ta’lim, axborot maydoni va ijtimoiy guruhlardagi mavqei tushuniladi. Bu omillar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, yoshlarning psixik barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Oila — shaxsiyatning shakllanishidagi birinchi va eng muhim sotsial muhitdir. Beqaror, nizoli yoki zo‘ravonlikka moyil oilalarda voyaga yetayotgan yoshlar ko‘pincha quyidagi muammolarga duch keladi:

- o‘zini past baholash;
- yuqori darajadagi xavotir va depressiv kayfiyat;
- g‘azabni nazorat qila olmaslik;
- mustahkam emotsional qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy ziddiyatlar va befarqlik yoshlar orasida psixologik buzilishlarning asosiy tashqi omillaridan biridir[7].

Yoshlar ko‘p vaqtini ta’lim muassasalarida o‘tkazadi. Shunday ekan, maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi muhit ularning ruhiy salomatligida muhim rol o‘ynaydi. Raqobatbardoshlik, baholash tizimidagi bosim, o‘qituvchilar bilan salbiy munosabatlar yoki do‘stlar tomonidan rad etilish kabi holatlar doimiy stress manbaiga aylanadi. Ayniqsa, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish sindromi (failure

anxiety), imtihon oldi xavotiri, akademik charchoq (burnout) yoshlar orasida keng tarqalgan psixologik muammolardir. Raqamli transformatsiya davrida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Biroq bu maydon ularning psixikasiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy ta'sirlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

Virtual muqoyasalar:

- "ideal" hayot tasvirlari orqali o'z hayotini past baholash;
- cyberbullying (internet orqali zo'ravonlik va tahdid);
- haddan tashqari axborot oqimi (infouzilish) natijasida kognitiv charchoq.

Bu omillar yosh ongini zaiflashtirib, o'ziga ishonchsizlik, ijtimoiy izolyatsiya va tashvish buzilishlariga olib kelishi mumkin[8]. Yoshlar davrida do'stlar bilan munosabatlar — identitet shakllanishida muhim sotsial komponent hisoblanadi. Agar shaxs ijtimoiy guruhda o'zini begona sezsa, ya'ni marginalizatsiya holatiga tushsa, bu ruhiy salomatlikda jiddiy muammolarga sabab bo'ladi:


- Ijtimoiy izolyatsiya;
- Rad etilishga doimiy tayyor holat (rejection sensitivity);
- O'zini qadr-qimmatini yo'qotish va yolg'izlik hissi.
- Eriksonning fikricha, o'z-o'zini anglashda tengdoshlarning ijobiy bahosi, qabul qilinishi va o'z o'rnini topishi — identitetning to'laqonli shakllanishi uchun zaruriy shartdir [6].

Zamonaviy jamiyatda yoshlar psixikasiga kuchli bosimlar tushmoqda. Tez o'zgaruvchan axborot maydoni, ijtimoiy raqobat, identitet inqirozi, oilaviy va ta'limdagi bosimlar ularning ruhiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, yoshlar orasida turli psixologik buzilishlar tobora ko'proq uchramoqda. Yoshlar orasida depressiya eng keng tarqalgan ruhiy buzilishlardan biridir. U quyidagi belgilar orqali namoyon bo'ladi:


- umidsizlik va bo'shashish hissi;
- motivatsiyaning yo'qligi va kelajakka befarqlik;
- ijtimoiy chekinish va yolg'izlikka intilish;
- ehtiyoj va manfaatlarga nisbatan befarqlik;
- ba'zida o'z joniga qasd qilish fikrlarining paydo bo'lishi.
- depressiv buzilishlar ko'pincha tashqi muhit ta'sirida – oila ziddiyatlari, o'qishdagi bosim, ijtimoiy solishtirishlar natijasida yuzaga keladi [5].

Tashvish va xavotir buzilishlari — yoshlar psixikasining barqarorligiga ta'sir etuvchi yana bir jiddiy buzilishlar doimiy asossiz xavotir holati, panik hujumlar, yurak urishining tezlashuvi, uyqusizlik, mushaklar tarangligi, kelajakdan qo'rqish, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini noqulay his qilish. Bu holatlar yoshlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni o'ziga ishonmaslikka va passivlikka undaydi [8].

Yoshlar o'rtasida uchraydigan eng xavfli buzilishlardan biri bu — xulq-atvor buzilishlardan tajovuzkorlik va zo'ravonlik, antisotsial xatti-harakatlar (qonunbuzarlik, maktabdan qochish), o'ziga yoki boshqalarga zarar yetkazish niyatidagi harakatlar, o'z joniga qasd qilishga moyillik. Bunday holatlar ko'pincha bolaning ijtimoiy ajratilganligi, oilaviy beparvolik yoki travmatik tajribalar natijasida yuzaga keladi [16]. Internet, smartfon va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'liqlik yoshlar orasida mustaqil psixologik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda va uning belgilari, vaqtni nazorat qilmaslik (disregulyatsiya), ijtimoiy aloqalarning kamayishi, haqiqatdan chekinish va virtual hayotda yashashga moyillik, internet bo'lmasa, tashvish, asabiylik, bezovtalik. Bu holat yoshlarning kognitiv rivojlanishi, hissiy barqarorligi va real ijtimoiy hayotga moslashuvchanligiga salbiy ta'sir qiladi [20]. Amaliy psixologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida sanab o'tilgan buzilishlar ko'pincha bir-biriga bog'liq holda, ya'ni komorbid shaklda uchraydi. Masalan, depressiya fonida xavotir buzilishlari, yoki internetga qaramlik bilan birga ijtimoiy izolyatsiya va motivatsiyaning pasayishi kuzatiladi. Bu esa muammoning yanada murakkab va chuqur tus olishiga sabab bo'ladi.




Tushkunlik holati (38%): Mazkur statistikaga ko‘ra, respondentlarning 38% i tez-tez tushkunlik holatiga tushadi. Bu, yoshlar orasida umidsizlik, kelajakdan qo‘rqish va motivatsiyaning yo‘qligini anglatadi. Tushkunlik ko‘pincha oila, o‘qish, va ijtimoiy muhitdagi stress faktorlari tufayli kuchayadi. Yoshlar uchun bu holat, ularning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki depressiya o‘zini past baholash va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. O‘ziga ishonch pasayishi (42%): Talabalarning 42% i o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayganini bildiradi. Bu holat, ayniqsa yoshlar davrida psixologik barqarorlikni ta’minlashda muhim bo‘lgan ishonchni yo‘qotish bilan bog‘liq. O‘ziga ishonchning pasayishi yoshlarning o‘zini jamiyatda to‘g‘ri ko‘rsatish, maqsadlar qo‘yish va kelajakda muvaffaqiyatga erishish borasidagi qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy taqqoslash stressi (30%): Talabalarning 30% i o‘zini ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan solishtirish natijasida stress holatiga tushishini bildirgan. Bu, yoshlarning virtual muhitda boshqalarning muvaffaqiyatlari, tashqi ko‘rinishlari va hayot tarzlari bilan solishtirilishi natijasida stress va xavotirning kuchayishini anglatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy taqqoslash yoshlarning o‘zini past baholashiga va ruhiy farovonligining pasayishiga olib kelishi mumkin.



Ayollar: Ayollarda tushkunlik holatlari (40%) va o‘ziga ishonchning pasayishi (45%) ko‘proq uchraydi. Bu, ayollarning yoshlik davrida o‘ziga nisbatan yuqori talablar, ijtimoiy rol kutishlari va jismoniy ko‘rinishga qaratilgan bosimlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Ayollar o‘zini boshqalarga taqqoslashda ko‘proq stressni boshdan kechirishi mumkin, chunki jamiyatda ayollarga nisbatan estetik

va ijtimoiy talablar yuqori bo‘ladi. Bu holat ularning psixologik barqarorligini pasaytirishi mumkin. Erkaklar: Erkaklarda o‘ziga ishonchning pasayishi va tushkunlik holatlari kamroq bo‘lsa-da, erkaklarning 28% i ijtimoiy taqqoslashdan stress holatiga tushadi. Bu, erkaklarning o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga moyil bo‘lishi va muhitdagi raqobatbardoshlikdan kelib chiqqan stressni anglatadi. Erkaklarda bu ko‘proq ijtimoiy yuksalish va muvaffaqiyatlarga erishishdan kelib chiqadigan psixologik bosimni ko‘rsatadi.



60% tayyor: Talabalarning 60% i psixologik yordamga tayyorligini bildirgan. Bu, yoshlarning ruhiy salomatlikni yaxshilash, stress, xavotir va boshqa psixologik buzilishlar bilan kurashish uchun yordam olishga ochiq ekanliklarini ko‘rsatadi. Bu pozitiv o‘zgarish sifatida baholanishi mumkin, chunki psixologik yordamga murojaat qilishning ochiqligi, jamiyatdagi psixologik xizmatlarga bo‘lgan ishonchni va ularning foydaliligini anglatadi. 25% shubhali: 25% i yordamga shubha bilan qaraydi, bu psixologik yordamga nisbatan ehtiyotkorlik yoki noaniqlikni ko‘rsatadi. Bunday yoshlar psixologik yordam olishni kerak deb bilishsa ham, o‘zlarining maxfiylik yoki yordamning samaradorligi haqida shubhalar borligini anglatadi. 15% tayyor emas: 15% i psixologik yordamga tayyor emasligini bildirgan. Bu, yoshlarning psixologik yordamni izlashda ishtiyoqsizligi, ehtimol ular bu yordamni faqat eng so‘nggi choralar sifatida ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, ba'zi ijtimoiy yoki madaniy omillar (stigma, yordam olishga qarshi qarashlar) bu natijaga olib kelishi mumkin.

Yoshlar psixologik salomatligini saqlashda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish: maktab va universitetlarda doimiy ishlaydigan psixologlar sonini ko‘paytirish.
2. Oilaviy ta’lim va maslahatlar: ota-onalarga farzand tarbiyasi, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.
3. Media savodxonligini oshirish: yoshlarni sog‘lom axborot iste’molchisiga aylantirish.
4. Sport va madaniy tadbirlarga jalb qilish: ijobiy faoliyatlar orqali ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash.

Yoshlar orasidagi psixologik buzilishlar – bu nafaqat individual muammo, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq psixosotsiyal hodisadir. Ularning oldini olish, erta aniqlash va yondashuvlarni tizimli yo‘lga qo‘yish bugungi kunda jamiyatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois, yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning boshqa qatlamlari o‘zaro hamkorlikda ishlashi lozim. Profilaktik chora-tadbirlar, ijobiy muhit va ruhiy qo‘llab-quvvatlov yoshlarning sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2021). Psixologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent: SSV nashriyoti.

2. Abdullayeva, G. A. (2022). Yoshlarning psixologik moslashuvi va stress omillari. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Бек, А. Т. (2003). Когнитивная терапия депрессии. М.: Речь.

6. Эриксон, Э. Х. (1996). Детство и общество. М.: Прогресс.

7. Фромм, Э. (1994). Иметь или быть? М.: АСТ.

8. Бенжамин, А. (2018). Психологические аспекты тревожности у подростков. М.: Питер.

9. Цукерман, М. (2007). Темперамент и психология личности. М.: Академия.

10. Кэмпбелл, Д. Дж. (2004). Идентичность и психология молодежи. М.: Гуманитарное издательство.

11. Петрушина, И. В. (2010). Психологические особенности подростков и молодежи. М.: Владос.

12. Шмидт, В. К. (2015). Психологическое благополучие и депрессия у молодежи. М.: ИД Академия.

13. Линд, М. (2012). Тревожность и стрессы в жизни подростков. М.: Издательский дом “Радуга”.

14. Соловьев, С. В. (2017). Роль социальных сетей в психологии подростков. М.: Юрайт.

15. Мацко, В. М. (2011). Психологическая помощь подросткам и молодежи. М.: Речь.

16. Литвак, И. Л. (2010). Психология отношений и стресса у молодежи. М.: Московский психологический институт.

17. Зигельман, В. С. (2018). Социальные и психологические аспекты молодёжной психологии. М.: КНОРУС.

18. Григорьев, Ю. Л. (2016). Психологические кризисы подростков: пути преодоления. М.: Аспект Пресс.

19. Николаева, Е. А. (2014). Трудности адаптации подростков в социуме. М.: Просвещение.

20. Фрейд, З. (2003). Введение в психоанализ. — Санкт-Петербург: Питер.

Qo‘shnazarova O‘g‘iljon Rustambek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat Universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining asarlarida shaxslararo munosabatlardagi nizolarni o‘rganishning psixologik tahlili alohida o‘rganilgan. Ularning asarlarida nizolarning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llari va inson ruhiyatiga ta’siri keng yoritilgan. Ushbu maqolada Al-Farobiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy va boshqa sharq mutafakkirlarining fikrlariga asoslanib, nizolarni psixologik tahlil qilish yondashuvlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nizo, sharq mutafakkirlari, Al-Farobiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Yassaviy, Al-G‘azzoliy, murosa, Ibn Xaldun, axloq, ruhiyat, nizolarni hal qilish usullari.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИЗУЧЕНИЯ КОНФЛИКТА В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье проводится психологический анализ межличностных конфликтов, представленных в трудах восточных мыслителей. В их произведениях подробно освещаются причины возникновения конфликтов, способы их разрешения и влияние на психику человека. В статье рассматриваются подходы к психологическому анализу конфликтов на основе идей Аль-Фараби, Ибн Сины, Джалаладдина Руми и других восточных мыслителей.*

Ключевые слова: *конфликт, восточные мыслители, Фараби, Ибн Сина, Джалалуддин Руми, Ясави, Газали, компромисс, Ибн Халдун, мораль, духовность, методы разрешения конфликтов.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE STUDY OF CONFLICT IN INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Annotation. *This article presents a psychological analysis of interpersonal conflicts as described in the works of Eastern thinkers. Their writings thoroughly explore the causes of conflicts, methods of resolution, and their impact on the human psyche. The article examines approaches to the psychological analysis of conflicts based on the ideas of Al-Farabi, Ibn Sina, Jalaluddin Rumi, and other Eastern philosophers.*

Key words: *conflict, Eastern thinkers, Al-Farabi, Ibn Sina, Jalaluddin Rumi, Yassawi, Al-Ghazali, compromise, Ibn Khaldun, ethics, spirituality, methods of resolving conflicts.*

Kirish. Nizo (konflikt) – insoniyat tarixida muhim ijtimoiy va psixologik hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Har qanday jamiyatda yoki shaxsiy hayotda manfaatlar, qarashlar va qadriyatlar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Bunday holatlarning hal etilish usullari esa turli madaniyatlar, mafkuralar va ilmiy maktablar tomonidan har xil talqin etilgan. Sharq mutafakkirlari bu borada alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular nizolarni inson tafakkuri va ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqqanlar.

Sharq tafakkurida nizolarni hal qilishga psixologik yondashuv juda muhim o‘rin tutadi. Chunki bu maktab vakillari inson qalbi, nafs tarbiyasi va ruhiy muvozanatni muhim deb bilganlar. Ularning fikriga ko‘ra, nizo nafaqat tashqi ijtimoiy hodisa, balki ichki ruhiy jarayonlarning ham aksidir. Shuning uchun nizolarni hal qilishda nafaqat tashqi vositalar (siyosiy yoki iqtisodiy choralar), balki psixologik va ma’naviy yondashuvlar ham zarur[1].

Insoniyat tarixida nizolar tabiiy jarayon sifatida namoyon bo‘lib, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari va hal etish usullari doimiy ravishda tahlil qilinib kelgan. Xususan, sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida nizolarning mohiyatiga chuqur e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, nizolar faqat ziddiyat yoki to‘qnashuv sifatida emas, balki inson ruhiyatining o‘sishi, tafakkurning shakllanishi

va jamiyat barqarorligiga ta’sir etuvchi omil sifatida ham qaralishi lozim. Ko‘pgina sharq mutafakkirlari nizolarni inson tabiati bilan bog‘liq holda tushuntirgan. Ularning fikricha, inson hayotining har bir bosqichida ijtimoiy, axloqiy va ruhiy ziddiyatlar uchraydi. Ushbu nizolar insonning ichki kechinmalari, ijtimoiy sharoit va tashqi muhit bilan bog‘liq bo‘lib, ularni hal qilishda inson tafakkuri va ruhiy kamolot darajasi muhim rol o‘ynaydi.

Sharq mutafakkirlarining nizolarni o‘rganish borasidagi qarashlari zamonaviy psixologiyaning konfliktologiya yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu borada hozirgi kunda ham dolzarb tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Karl Yung va Zigmund Freyd inson ruhiyatidagi ichki ziddiyatlar haqida tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa, Sharq mutafakkirlari bu borada ichki poklik, axloqiy tarbiya va ma’naviyatning o‘rnini ko‘rsatib berganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Al-Farobiy (872–950) o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatdagi nizolarni bartaraf etishning eng samarali yo‘li sifatida murosa va aql-idrokka asoslangan muloqotni ilgari surgan. Unga ko‘ra, nizolar insonlarning bilim va axloqiy kamolot darajasidagi farqlari sababli yuzaga keladi. Agar jamiyat a’zolari ilm-ma’rifat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo‘lsa, nizolar kamayadi va jamiyat uyg‘unlik sari harakat qiladi. Al-Farobiyning ta’limotiga ko‘ra, jamiyat yetakchilari va hukmdorlari donishmand bo‘lsa, nizolar kamayadi va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi[2].

Ibn Sino (980–1037) o‘zining “Tib qonunlari” va “Nafs haqida risola” asarlarida inson ruhiyati va uning holatlari haqida fikr yuritgan. U nizolarni inson psixologiyasining bir qismi sifatida ko‘rib, ularni bartaraf etishda sabr-toqat, aql va hissiy muvozanat muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uningcha, inson o‘z nafsini boshqara olsa, ko‘plab nizolarning oldini olish mumkin. Ibn Sino shuningdek, stress va ruhiy tushkunlikning nizolarni kuchaytirishini ta’kidlab, bunday holatlarda tabiat bilan uyg‘un hayot kechirish va meditatsiya qilishni tavsiya etadi. Ibn Sino odamni o‘z hissiyotlarini boshqarishga o‘rgatish orqali nizolarni oldini olish mumkinligini ko‘rsatadi[3].

Jaloliddin Rumiy (1207–1273) o‘zining “Masnaviy ma’naviy” asarida nizolarni hal qilishda muhabbat, sabr-toqat va tushunish muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uningcha, inson o‘z nafsini anglab yetganda va boshqalarni ham tushunishga intilganda, nizolar barham topadi. Rumiyga ko‘ra, nizolar shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘yish natijasida yuzaga keladi, ammo agar inson o‘z ichki olamini poklasa va yuragida muhabbatni uyg‘otsa, u ziddiyatlarni yengib o‘tishi mumkin. Rumiy o‘z asarlarida insonning o‘z nafsiga qarshi kurashini asosiy nizo deb ataydi. Uning ta’kidlashicha, inson o‘z istaklari, qo‘rquvlari va kamchiliklari bilan to‘qnash kelishi natijasida ichki tinchlikka erishadi. Bu g‘oyalar zamonaviy psixoanaliz va mindfulness (hushyorlik) texnikalariga yaqin[5].

Ahmad Yassaviy (1093–1166) tasavvuf falsafasida nizolarni insonning ma’naviy sayohati sifatida tushuntiradi. Uning ta’limotiga ko‘ra, nizolar insonni haqiqiy haqiqatni anglashga undaydi. Yassaviy sabr, tavakkul va xokisorlik orqali ziddiyatlardan xalos bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, inson o‘z nafsoniy istaklaridan voz kechib, ruhiy kamolot sari intilsa, nizolar tabiiy ravishda kamayadi[6].

Al-G‘azzoliy o‘zining “Ihyo ulum ad-din” asarida insonning ichki ziddiyatlari haqida gapirib, ularni bartaraf etishda diniy va axloqiy tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha, inson nafs bilan kurashsa, u o‘zining ruhiy yuksalishiga erishadi va nizolar kamayadi[4]. Bahouddin Naqshband insondagi asosiy nizo – bu nafs va ruh o‘rtasidagi kurash ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, insonning hayotidagi barcha tashqi nizolar aslida uning ichki olamida sodir bo‘layotgan ziddiyatlarning aksidir. Agar inson o‘z nafsi ustidan g‘alaba qozonsa, tashqi nizolar ham hal bo‘ladi[7].

Sharq mutafakkirlarining fikrlariga ko‘ra ham, nizo insonning o‘zini anglashiga va kamol topishiga sabab bo‘ladi. Masalan, Ahmad Yassaviy o‘zining hikmatlarida insonning ma’naviy yuksalishi to‘qnashuvlar va ichki kechinmalar orqali sodir bo‘lishini ta’kidlagan.

Sharq mutafakkirlari nizolarni hal etishning quyidagi asosiy tamoyillarini ilgari surganlar:

1. Aql va tafakkur bilan yondashish – Al-Farobiy va Ibn Sino nizolarni aql bilan hal qilish muhimligini ta’kidlagan;

2. Tushunish va empatiya – Rumiy va Yassaviy inson o‘z nafsini va boshqalarni tushunishga intilsa, nizolar kamayishini ta’kidlagan;

3. Muhabbat va bag‘rikenglik orqali murosa qilish (Rumiy);

4. Ichki poklik va tasavvufiy falsafa orqali nizolardan xalos bo‘lish (Yassaviy);

5. Axloqiy tarbiya va o‘zini tarbiyalash (Al-G‘azzoliy).

Sharq mutafakkirlari nizolarni shaxsiy rivojlanishning ajralmas qismi sifatida o‘rgangan. Bu masala hozirgi zamonaviy psixologiyada konfliktologiya va stress menejmenti nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Ibn Sino stress holatlarining inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganib, jismoniy va ruhiy muvozanatni saqlash nizolarni oldini olishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, aql bilan boshqarilmagan hissiyotlar va asabiylik nizolarning kuchayishiga olib keladi.

Taxlil va natijalar. Sharq falsafasida nizo inson tafakkurining ajralmas qismi sifatida ko‘rilgan. Mutafakkirlar nizolarni faqatgina ijtimoiy yoki shaxsiy muammo sifatida emas, balki inson tafakkuri va ruhiy taraqqiyotining muhim bosqichi deb bilganlar. Ibrohim Haqqul sharq mutafakkirlarining nizolarni psixologik jihatdan tahlil qilish yondashuvlarini chuqur o‘rganadi. Asarda quyidagi asosiy fikrlar ifodalanadi:

- Ichki dunyoning roli: Sharq falsafasi va tasavvufiy an’analarda nizolar faqat tashqi omillar bilan emas, balki insonning ichki, ruhiy holati va his-tuyg‘ulari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Insonning o‘z ichki qarama-qarshiliklari, nafsiy istaklar va his-tuyg‘ulari – konfliktlarning asosiy sabablari sifatida ko‘rib chiqiladi.

- O‘zini anglash va ichki tarbiya: Haqqulning ta’kidlashicha, konfliktlarni bartaraf etishda shaxsning o‘zini chuqur anglash, ichki tarbiya jarayoniga katta e’tibor berilishi lozim. Sufiy an’analarda, insonning o‘z-o‘zini tanishi va ruhiy tarbiyalanishi orqali ichki muvozanatga erishish, shuningdek, ijtimoiy nizolarni ham yumshatish mumkinligi ko‘rsatiladi.

- Ruhiy yuksalish va ijtimoiy uyg‘unlik: Psixologik tahlil orqali, shaxsiy nizolarning aslida insonning ichki dunyosidagi taranglik, o‘zaro tushunmovchilik va nafsiy zaifliklardan kelib chiqishi aytiladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy darajada ham ahamiyatli bo‘lib, har bir inson o‘z ruhiy o‘sishini amalga oshirsa, umumiy ijtimoiy uyg‘unlikka erishish mumkin.

- Sharq mutafakkirlarining umumiy qarashlari: Haqqulning tahlilida, sharq mutafakkirlari nizolarni ko‘plab qatlamlarda, ya’ni ijtimoiy, madaniy va ruhiy darajada ko‘rib chiqish zarurligini ilgari suradi. Ularning qarashicha, konfliktlar tashqi ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, ichki dunyo bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning ichki kamchiliklarini anglash va ularni yo‘qotish orqali tinchlikka erishish mumkin[9].

Nasriddin Tusi - shaxsiy va ijtimoiy nizolarni yechishda axloqiy tamoyillarning muhimligini ta'kidlaydi. Quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatadi:

- Axloqiy qadriyatlar asosida yechim: Tusi fikricha, insonning shaxsiy hayotida yuzaga keladigan nizolarni yechishda to‘g‘ri, halol va adolatli bo‘lish kabi asosiy axloqiy tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Bu qadriyatlar shaxsiy ichki tinchlikni va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi.

- Ichki tarbiya va o‘zini anglash: U shaxsiy nizolarni kamaytirishda o‘zini tarbiyalash, o‘z xatoliklarini tan olish va ularni tuzatish jarayonini asosiy vosita deb biladi. Insonning ichki dunyosidagi tartib va axloqiy uyg‘unlik ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topadi.

- Jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlik: Tusi shaxsiy axloqiy fazilatlar jamiyatdagi kengroq ijtimoiy nizolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Ya’ni, har bir fuqaro o‘z axloqiy fazilatlarini rivojlantirsa, bu jamiyatda umumiy axloqiy muhit va barqarorlikni ta’minlaydi.

- Liderlik va namunaviy shaxs: Axloqiy tamoyillarga amal qiluvchi shaxslar, ayniqsa ijtimoiy yetakchilar, atrofdagilarga o‘zining axloqiy namunasi orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatib, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish yo‘lini ko‘rsatadi[8]. O.Fayzullaevning “Nizolar psixologiyasi” asarida nizolarni psixologik tahlil qilishda sharq mutafakkirlarining qarashlari va ularning zamonaviy psixologiyaga ta’siri quyidagi jihatlar asosida yoritilgan:

- Ichki dunyo va ruhiy holatga urg‘u berish: Sharq mutafakkirlari nizolarni faqat tashqi omillar natijasi sifatida emas, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy va ma’naviy holatining aks-sadosi sifatida qarashadi. O.Fayzullaev shunday qarashlarning, nizolar paytida insonning o‘zini anglash, ichki nizolarini tahlil qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

- Konfliktlarning ko‘p qatlamlilik printsipi: Asarda nizolarni psixologik tahlil qilish jarayonida ularning ko‘p qatlamli ekanligi, ya’ni nafaqat shaxsiy hissiyotlar va emotsiyalar, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy omillar va qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Sharq mutafakkirlarining bu yondashuvi zamonaviy psixologiya nazariyasida konfliktlarni kompleks ravishda o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

- Zamonaviy psixologiyaga ta’siri: Muallif qadimgi sharq falsafasi va tasavvufiy qarashlarning zamonaviy konfliktlarni tahlil qilish usullariga ta’sirini ko‘rsatadi. U bu qarashlar orqali insonning o‘zini anglash, o‘zaro muloqotda halollik, empatiya va o‘zaro hurmat kabi tamoyillar zamonaviy psixologik amaliyotda qanday ahamiyatga ega ekanligini misollar bilan tushuntiradi.

- Integrativ yondashuv: Sharq mutafakkirlarining qarashlari orqali konfliktlarni tahlil qilishda insonning kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarining o‘zaro ta’sirini inobatga olish zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv zamonaviy psixologiyaning konfliktlarni bartaraf etish usullarida ham qo‘llanilib, murakkab insoniy munosabatlarni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi[10].

Zamonaviy konfliktologiyada sharq mutafakkirlarining quyidagi g‘oyalari dolzarb bo‘lib qolmoqda:

Murosa va dialog yo‘li bilan nizolarni hal qilish – (Al-Farobiy, Ibn Sino);

Nizolarni ichki kechinmalar orqali anglash va boshqarish – (Rumiy, Yassaviy);

Nizolarni oldini olishda ta’lim va axloqiy tarbiyaning o‘rni – (Al-G‘azzoliy, Ibn Rashid.

Sharq mutafakkirlari nizolarni faqatgina ijtimoiy yoki shaxsiy muammo sifatida emas, balki inson tafakkuri va ruhiy taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida ko‘rganlar. Ularning qarashlari hozirgi zamonaviy konfliktologiya, psixologiya va falsafada ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Sharq mutafakkirlari asarlaridagi nizolarni falsafiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatdan tahlil qilish, ularning zamonaviy ilm-fan bilan bog‘liqligini ochib berishga imkon beradi. Bu esa nizolarni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak yuqoridagi fikrlarga asoslanib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, sharq mutafakkirlari nizolarni o‘rganishda inson ruhiyati, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini chuqur o‘rganganlar. Ularning asarlarida nizolarning kelib chiqish sabablari, ularni hal etish yo‘llari va tinchlikka erishish usullari psixologik nuqtai nazardan yoritilgan.

Farobiy, G‘azzoliy, Ibn Sino kabi allomalar inson tabiatini, uning nafsiy va aqliy jihatlarini o‘rganish orqali nizolarni bartaraf etishning eng samarali yo‘llarini ilgari surganlar. Ularning fikriga ko‘ra, nizolarni hal etishda odilona yondashuv, o‘zaro hurmat va mantiqiy mushohada asosiy o‘rin tutadi.

Tasavvuf ahli, xususan, Jaloliddin Rumiy va Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlar nizolarning inson ruhiyatiga ta’sirini va ularni ichki muvozanat orqali bartaraf etish usullarini ta’kidlaganlar. Bu mutafakkirlar nafs tarbiyasi va axloqiy poklik nizolarni oldini olish va ularni tinch yo‘l bilan hal qilishda muhim omil ekanligini ta’kidlaganlar. Sharq mutafakkirlari ta’limotlari shuni ko‘rsatadiki, nizolar faqat tashqi omillar natijasida yuzaga kelmaydi, balki inson ichki kechinmalari, ehtiyojlari va ruhiy holati ham muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababli, nizolarni hal etishda psixologik yondashuv, sabr-toqat, tushunish va o‘zaro muloqot asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib biz quyidagi takliflarni kiritishni joiz deb topdik;

- Sharq mutafakkirlarining nizolar haqidagi qarashlarini zamonaviy psixologiya bilan bog‘lash: Ularning inson ruhiyati va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari nizolarni tahlil qilish va hal etishda zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

- Tarbiyaviy va psixologik dasturlarga kiritish: Ta’lim tizimida sharq mutafakkirlari ta’limotlaridan nizolarni oldini olish va hal etish strategiyalarini o‘rgatuvchi metodik materiallar ishlab chiqish.

- Tasavvufiy va axloqiy yondashuvlardan foydalanish: Nizolarni hal qilishda nafs tarbiyasi, sabr va ichki muvozanat usullarini keng targ‘ib qilish.

Ijtimoiy nizolarni psixologik tahlil qilishda sharq mutafakkirlarining metodlarini qo‘llash: Bu usullar nizolarni bartaraf etishda yanada samarali bo‘lishi mumkin.

-Tadqiqot va ilmiy izlanishlarni davom ettirish: Sharq mutafakkirlarining nizolar haqidagi qarashlarini tahlil qilish va ularni amaliy psixologiyaga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Yuldashev M. Psixologik nizolar va ularning yechimlari – Toshkent: Fan, 2020
2.Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.40-50
3. Ibn Sino. Kitob ash-shifo – Bag‘dod, 1952. (3-jild, 220-230-b)
4.Abu Hamid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din – Qohira, 1909.(2-jild, 150-160-b)
5. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy – Istanbul, 2005. 85-95-b
6.Yassaviy A. Hikmatlar – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
7.Bahouddin Naqshband. Tariqat risolalari – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
8.Nasriddin Tusi. Axloqi Nosiriy – Tehron, 1976.75-85-b
9. Ibrohim Haqqul. Sharq falsafasi va tasavvuf – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. 180-190-b
10. Omonulla Fayzullaev. Nizolar psixologiyasi – Toshkent: Fan, 2008. 95-105-b

Quvataliyev Mirzamaxmud Xabibulloyevich
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

TALABALARNING UNIVERSITET TA'LIM SHAROITLARIGA MOSLASHUVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada jahon ta'lim va ilmiy markazlarida talabalarning universitet ta'lim sharoitlariga moslashuvining ijtimoiy-psixologik jihatlarini shakllantirish zaruratini o'rganadi. Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ularni ma'naviy rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishiga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslar ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasidagi yoshlarga oid davlat siyosati, psixologik muammolarni ilmiy tadqiq etgan olimlar va mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlarining ijtimoiy-psixologik moslashuviga oid metodologik yondoshuvlar tahlil qilinadi.*

Tayanch so'zlar*: universitet ta'limi, ijtimoiy-psixologik moslashuv, yoshlar, huquqiy himoya, ijtimoiylashuv, madaniy an'analar, ma'naviy rivojlanish, O'zbekiston yoshlari, psixologik jihatlar, ijtimoiy jarayonlar, ta'lim sohasida huquqlar, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar va shaxsiy rivojlanish.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К УСЛОВИЯМ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость формирования социально-психологической адаптации студентов к условиям университетского обучения в мировых образовательных и научных центрах. Освещены вопросы правовой и социальной защиты молодежи, их духовного развития и активного участия в социально-экономическом развитии общества на основе правовых и нормативных основ. Анализируется государственная политика в отношении молодежи Республики Узбекистан, а также методологические подходы к социально-психологической адаптации, разработанные учеными Узбекистана и стран СНГ.*

Ключевые слова: *университетское образование, социально-психологическая адаптация, молодежь, правовая защита, социализация, культурные традиции, духовное развитие, молодежь Узбекистана, психологические аспекты, социальные процессы, права в сфере образования, социально-психологические исследования, личностное развитие.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STUDENTS' ADAPTATION TO UNIVERSITY EDUCATIONAL CONDITIONS

Annotation. *The article examines the necessity of forming the social and psychological adaptation of students to the conditions of university education in global educational and scientific centers. It addresses issues related to the legal and social protection of youth, their spiritual development, and active participation in the social and economic development of society based on legal and regulatory foundations. The state policy regarding youth in the Republic of Uzbekistan is analyzed, as well as the methodological approaches to social and psychological adaptation developed by scholars from Uzbekistan and the CIS countries.*

Keywords: *university education, social and psychological adaptation, youth, legal protection, socialization, cultural traditions, spiritual development, youth of Uzbekistan, psychological aspects, social processes, educational rights, social and psychological research, personal development.*

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida talabalarning universitet ta'lim sharoitlariga moslashuvining ijtimoiy-psixologik jihatlarini shakllantirish orqali millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy, madaniy an'analarning avloddan-avlodga o'tishi, avlodlarning

ma'naviy aloqasi, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bu borada yoshlar o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlay olishlariga kafolatlash, jamiyatni rivojlantirish, hamda huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi sifatida xizmat qiladigan mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda talabalarning universitet ta'lim sharoitlariga moslashuvining ijtimoiy-psixologik jihatlarini shakllantirish orqali ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-361-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"[3]gi Qonunidagi 8-moddasiga asosan yoshlarning ta'lim sohasidagi huquqlari, o'quvchilar va talabalarning o'quv-tarbiya muassasalari ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlardagi huquq va burchlari shakllantirish uchun yetarli sharoitlarini yaratish masalalarini imiy tadqiq uchun zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2020-yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamizda talabalarning universitet ta'lim sharoitlariga moslashuvining ijtimoiy-psixologik jihatlariga oid ilmiy izlanishlarni psixolog olimlardan B.P.Qodirov, B.M.Umarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, P.S.Samarov, O'.B.Shamsiyev, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'ozyiev, va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning psixologik muammolari, ijtimoiy munosabatlardan o'quv va mehnat faoliyati bilan band bo'lishlari bilan birga mehnat staji, migratsion tajriba mavjudligi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan [13; 40; 65; 66; 187; 119; 120;].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga oid metodologik qoidalar tashkil etadi (T.Parsons, R.Merton, N.Smelzer, V.T.Lisovskiy, N.M.Blinov va boshqalar); Uy ijtimoiy psixologiyasida shakllantirilgan nazariy tamoyillar va qoidalar (K.A.Abulxanova-Slavskaya, G.V. Akopov, G.M. Andreeva, Yu.M. Zabrodin, B.F. Lomov, A.S. Chernishev, E.V., Shoroxova, I.M. Yusupov va boshqalar); F.B asarlarida bayon qilingan ijtimoiy-psixologik moslashuvning mohiyati haqidagi qoidalar. Berezina, V.V. Gritsenko, A.G. Zdravomyslova, E.S. Kuzmina, N.M. Lebedeva, A.N. Leontiev, V.N. Myasishcheva, A.A. Nalchadjyan, B.F. Parygina, E.N. Reznikov va boshqalar ilmiy jihatdan tadqiq etishgan [10; 11; 37; 63; 92; 93; 178; 197;].

Xorij tadqiqotchilaridan A.Adler, A.Bandura, A.Maslou, G.Olport, J.Rotter, Z.Freyd, K.G.Yung, K. Rodjers, K.Xorn, P.B.Kettel, E.Fromm, E.Erikson va boshqalar axloqiy xulq-atvorga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ilmiy tadqiq etishgan.

Mamlakatimizda talabalarni ijtimoillashuviga kelsak, unda ijtimoillashuv muammosini ko'rib chiqish 1991-yillarning o'rtalarida boshlangan. O'tgan asrning ko'plab olimlarining shaxsning ijtimoiy roliga murojaati bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Ular orasida M.G.Davletshin, V.Karimova, N.Safoyev, B.Qodirov, Z.Nishonova, F.Akramova va boshqalarning asarlarini qayd etmaslik mumkin emas. Zamonaviy ijtimoillashuv nazariyasining asoslari, ijtimoiy-psixologik moslashuv, uning keyingi rivojlanishi yurtimiz olimlari tomonidan olib borilgan va davom ettirilmoqda.

"Ijtimoiy o'zgaruvchanlikning ifodasi bo'lgan ijtimoiy jarayonlar hodisaning uzviy bog'liq bo'lgan ikki tomonini – o'zgarish va saqlashni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy o'zgarishlar - bu ijtimoiy subyektlarda, jamiyatning ma'naviy jarayonlarida, xulq-atvor motivlarida va boshqa jihatlarida sodir bo'ladigan turli xil o'zgarishlardir".

[3] O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-361-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni https://lex.uz/acts/-140894

Shuningdek respublikamiz yosh tadqiqotchilarida M.Dumarov “Yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining psixologik jihatlari” mavzusida olib borgan tadqiqotlarida “Ijtimoiy jarayonlar shaxslararo munosabatlar, kichik va katta guruhlar, tashkilotlar va muassasalar tuzilmalari darajasida davom etishi mumkin. Biroq, ijtimoiy o’zgarishlar faqat ijtimoiy subyektlarning yaxlitligini saqlab qolish fonida aytiladi. Shunday qilib, ijtimoiy jarayonlar oqimining shakli o’zgarishlarning dialektik aloqasi va shu bilan birga, ijtimoiy tizimning takibiy elementlarini saqlab qolishdir”. Bugungi kundagi mavjud katta va kichik guruhlardagi ijtimoiy munosabatlarni ham shu asosidagi qonuniyatlarga bo’ysunishini tadqiq etish imkoniyati globallashadi.

“Ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy voqelikning ham obyektiv, ham subyektiv tomonlarini qamrab oladi. Ularning mohiyati jamiyat, ijtimoiy guruh, jamoaning bir qismi sifatida shaxs manfaatlarini ochib berish, asoslash, amalga oshirish va ijtimoiy voqelikda tasdiqlashda ifodalanadi”. Yoshlarning shaxslilik sifatlari, tipologik xususiyatlari, motivatsion yo’nalganligi ko’rsatkichlari darajasini mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida yoshlarni har tomonlama barkamol tarbiyalash uchun, xususan ularni kamol topishi, kasbkor egallashi, xalqiga, vataniga munosib farzand sifatida shiddat bilan o’zgarib borayotgan jamiyat taraqqiyotida o’rin topishi va uyg’un faoliyat ko’rsatishi uchun to’liq yetarli deb baholab bo’lmaydi.

“Hap qanday voqelikdagi jarayon singapi ijtimoiy voqelik ham, o’zgarishlar, tizimning rivojlanish bosqichlaridan o’tib rivojlanib boradi. Bunda ijtimoiy jarayonning rivojlanishining alohida bosqichlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

- o’zgarishlarning paydo bo’lishi;
- ularning ijtimoiy tizimning barqaror holatiga o’tishi;

-bu yangiliklarning ijtimoiy voqelikdagi subyektning yangi xususiyati sifatida yakuniy ma’qullanishi. Bu bosqichlar ortida ijtimoiy jarayonlarning borishida muayyan qonuniyat yotadi”[73;138]. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, barcha o’zgarishlar jarayonlari qaysidir ma’noda o’z manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladigan, ma’lum maqsadlarni ilgari suradigan, aniq natijaga e’tibor qaratadigan shaxs faoliyati bilan bog’liq. “ Ijtimoiy voqelikning ijtimoiy jarayonlarining birinchi muhim belgisi ijtimoiy subyektlar harakatlarining maqsadga muvofiqligidir”.

“Biroq, ijtimoiy subyektlarning maqsadli faoliyatining mavjudligi uning to’liq xabardorligini, shu jumladan ushbu faoliyatning barcha oqibatlaridan xabardorligini anglatmaydi”[87;139]. Agar shunday bo’lsa hamma narsa aniq bashorat qilinadigan va qat’iy belgilangan bo’lar edi. Ijtimoiy jarayonlar hisoblanmaydigan tashqi sharoitlar, ongsiz motivatsiyalarning ulkan qatlami ta’sir qiladi, ular ko’pincha kutilgan natijani tanib bo’lmas darajada o’zgartiradi. “Bu holat ijtimoiy jarayonlarni yuzaga keltiradigan va ijtimoiy jarayonlarning ishlashini ta’minlaydigan obyektiv tuzilmalarni tahlil qilishga bo’lgan ilmiy qiziqishni tushuntiradi. Ijtimoiy voqelikning ishlash tuzilmalarini ko’rib chiqishga o’tishdan oldin, keling, dastlabki mexanizm tushunchasini aniqlab olaylik”. "Mexanizm" tushunchasi dastlab faqat muhandislikda qo’llanilgan bo’lib, u harakatga keltiruvchi qurilmani anglatardi. “Ana shu obrazli ma’noda “mexanizm” tushunchasi ijtimoiy voqelik va ijtimoiy tizimlarga nisbatan qo’llaniladi. Bu bizga ijtimoiy mexanizmni ijtimoiy tizim elementlari (individlar, ijtimoiy guruhlar, institutlar, xatti-harakatlar normalari va modellari va boshqalar) o’rtasidagi ba’zi munosabatlar, shuningdek, ijtimoiy tuzilmadagi bo’g’inlar sifatida ijtimoiy tizim paydo bo’lishini aniqlash imkonini beradi”.

“Ijtimoiy voqelikning har bir elementi o’z maqsadiga ega, aniqrog’i, ma’lum bir vazifani bajaradi. Bu holda kalit so’z "funksiya"dir. Ijtimoiy psixologiyada funksiya deganda alohida institutlar, ijtimoiy institutlar va boshqalarning jamiyatdagi roli tushuniladi. Shunday qilib, funksiya ob’ektning butun tizimdagi maqsadini ochib beradigan va ijtimoiy ob’ektning o’zini o’zi anglashi va o’zini o’zi saqlab qolishiga hissa qo’shadigan xususiyatdir. Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ob’ektning funktsional xususiyatlari - ob’ektning ma’lum bir xatti-harakati, faoliyatini ma’lum bir tizim doirasida amalga oshirishga xizmat qiladigan va uni saqlab qolishga qaratilgan xususiyatlaridir. Shuning uchun ijtimoiy tizimlar va ob’ektlarda bunday xususiyatlarni kashf etgan holda, biz ular funksional xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlashimiz mumkin.

“Ijtimoiy voqelikning har qanday elementi o’zining funksional rolini yakka holda amalga oshirishi yoki amalga oshirmasligi mumkin, shuning uchun u boshqa elementlar bilan munosabatlarga kirishadi.

Shunday qilib, ijtimoiy voqelikning amal qilish mexanizmi ijtimoiy tizim elementlari o'rtasida rivojlanadigan turli munosabatlar asosida quriladi. Bu munosabatlarning mohiyatini ochib, biz ijtimoiy voqelikning amal qilish mexanizmini tahlil qila olamiz".

"Shuni ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy voqelikning ishlash mexanizmlarini aniqlash, xususan, o'zaro ta'sir, munosabatlar, ijtimoiy voqelikning ob'ektiv va sub'ektiv elementlarida funktsional bo'lmagan va funksional aks ettirish, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va to'qnashuvlar, begonalashish jarayonlari, ijtimoiy voqelikni uning hozirgi holatini to'liq tahlil qilish imkonini beradi. Bularning barchasi dalolat beradiki alohida mamlakatlarda ham, butun jahon hamjamiyatida ham ijtimoiy jarayonlarning favqulodda murakkabligi va dinamikasi, ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli va ularni o'rganishning ilmiy ahamiyati toboro ortib bormoqda".

Ijtimoiylashuv va ijtimoiy-psixologik moslashishning siyosiy jihati uning mazmunidan chiqarib tashlanmasligi kerak edi, garchi u ko'pincha o'zining mafkuraviy ranglanishida namoyon bo'lsa ham, Nazariy jihatdan, inson bu tushunchaning yuksak ma'nosida ijtimoiylashgan va ijtimoiy moslashgan, o'zini siyosatdan tashqarida qo'ygan, ba'zan hatto o'zining ijtimoiylashuvini omma oldida e'lon qilgan holda tasavvur qilish mumkin. Biroq, uyushgan jamiyatda yashash va uning oldidagi majburiyatlardan ozod bo'lish hech kimga berilmagani aniq. Shu bilan birga, ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashishni taraqqiylashtirish bilan birlashtirish noto'g'ri bo'lar edi, ayniqsa, amaliyotda amalga oshirilishi kerak bo'lgan nazariya haqida gap ketganda va shuning uchun ma'lum bir tarzda tashkil etilgan.

Ijtimoiylashuv va ijtimoiy-psixologik moslashish muammolarini tahlil qilish "Ijtimoiylashuv" va "moslashish" toifalarining mazmuniga murojaat qilishni talab qiladi. Ijtimoiylashuvning mavjud bo'lgan ko'plab ta'riflari orasida eng muvaffaqiyatlisi ingliz mualliflari N. Averkrombie, S.Hill tomonidan dunyoda tan olingan sotsiologik lug'atlardan birida berilgan ta'rifdir. Tyorner: "Ijtimoiylashuv - bu sotsiologlar tomonidan odamlarning ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni o'rganish jarayonini, jamiyatning mavjudligini va uning madaniyatining avloddan avlodga o'tishini ta'minlaydigan jarayonni tavsiflash uchun ishlatiladigan atama". "Moslashish - bu vaziyat yoki atrof-muhit talablariga muvofiqlik, kelishuv va muvofiqlikda namoyon bo'ladigan moslashish".

Markaziy davlatlar hamdo'stligi olimlarining asarlarida ijtimoiylashuv ko'pincha boshqa ijtimoiy va gumanitar muammolar bilan bog'liq holda, odatda umumiy va ijtimoiy psixologiya doirasida ko'rib chiqiladi. Biroq, faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar va yaqinda siyosatshunoslar ko'pincha unga murojaat qilishadi. Misol tariqasida, XX asrda rus olimi Moskva davlat universiteti professori V.S.Barulinning poytaxt monografiyasi, professor E.A.Anufriev va dotsent L.V.Lesnoy "Yo'qotish va o'zini topish" maqolasi, professor L.Ya.Averyanovning "Sening fikringni izlashda" kitobiga murojaat qilish mumkin. Unda aholining turli qatlamlarining yoshga bog'liq ijtimoiylashuvi va moslashuvi xususiyatlari tahlil qilinadi, shu bilan birga, ta'kidlanganidek, "Ziyolilar uchun ijtimoiylashuv va moslashish jarayoni juda tez boshlanadi", uning barqarorlashuvi 50 yoki hatto 60 yilgacha cho'ziladi va zaiflashuv zonasi ancha kichikdir. Kuchli aqliy faoliyat shaxsiy ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuvning ko'pgina dasturlari shaklda saqlashga yordam beradigan ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiylashuv va moslashuv nafaqat yosh va ijtimoiy guruhlarda - bolalar, yoshlar, kattalar, yetuklik va ayniqsa talabalarda shuningdek, jismoniy va aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan odamlarda, balki alohida ijtimoiy guruhlarda, masalan, ijtimoiy guruhlarda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Xulosa qilib aytganda universitet talaba yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini o'rganish o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlari tuzilma bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvining asosiy komponenti aynan qadriyat komponentidir.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-361-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni https: lex.uz/acts/-140894

2. Karimova.V.M. Ijtimoiy psixologiya.T.:Univepsitet.2000.196.b.

3. Беляева Л.А. Стратегии выживания, адаптации, преуспевания. Социологиче ские исследования. 2001 - №6 - С. 52 - 59.

4. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. – М.: МГУ.1992. -199 с.

5. Бандура, А. Теория социального научная [Текст] А. Бандура. - СПБ.: Евразия, 2000.- 320 с.

6. Выготский, Л.С. Психология [Текст] / Л.С. Выготский. – М.: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 1008 с.

7. Umarov, B.M. (2020). Yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga oid ilmiy tadqiqotlar. Tashkent: Fan va texnologiya. 2020, 78-bet.

8. Karimova, V.M. (2019). O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi masalalari. Tashkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashri. 2019, 44-bet.

9. Nishonova, Z.T. (2021). Yoshlarning ta'lim va psixologik integratsiyasi. Tashkent: Psixologiya ilmiy-izlanishlar markazi. 2021, 30-bet.

10. Safayev, N.S. (2020). Ijtimoiy moslashuvning asosiy jihatlari va ularning ta'lim sohasidagi ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti. 2020, 56-bet.

11. Smelzer, N., Parsons, T., Merton, R. (2017). Ijtimoiy-psixologik moslashuv nazariyasi va metodologiyasi. Moscow: Akademiya. 2017, 110-bet.

12. https//www.Lex.uz

13. https//www.disertat.ru

14. https//www.psyh.uz

Rajabova Go‘zal Zarifovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARDA QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA METAKOGNITIV TAFAKKUR VA REFLEKSIYA MEXANIZMLARINING O‘ZARO TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda qaror qabul qilish jarayonida metakognitiv tafakkur va refleksiya mexanizmlarining o‘zaro ta’siri psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda metakognitiv tafakkurning tanlovga tayyorgarlik bosqichidagi funksional roli va refleksiyaning qaror ustidan anglanilgan baholashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Eksperimental yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalari talabalarning qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishda ushbu ikki psixik mexanizmning integratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *qaror qabul qilish, metakognitiv tafakkur, refleksiya, kompetensiya, o‘z-o‘zini baholash, tanlov strategiyasi, psixopedagogik yondashuv, talaba, reflektiv ong, metakognitiv monitoring.*

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ МЕТАКОГНИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ И МЕХАНИЗМОВ РЕФЛЕКСИИ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье с психолого-педагогической точки зрения анализируется взаимовлияние механизмов метакогнитивного мышления и рефлексии в процессе принятия решений у студентов. В исследовании обоснована функциональная роль метакогнитивного мышления на этапе подготовки к выбору и значимость рефлексии в осознанной оценке принятого решения. Результаты эксперимента показывают, что интеграция этих двух психических механизмов имеет решающее значение для развития компетентности студентов в принятии решений.*

Ключевые слова: *принятие решений, метакогнитивное мышление, рефлексия, компетентность, самооценка, стратегия выбора, психолого-педагогический подход, студент, рефлексивное сознание, метакогнитивный мониторинг.*

THE INTERACTION OF METACOGNITIVE THINKING AND REFLECTION MECHANISMS IN THE DECISION-MAKING PROCESS IN STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the interaction between metacognitive thinking and reflection mechanisms in the decision-making process of students from a psychological and pedagogical perspective. The study substantiates the functional role of metacognitive thinking during the preparation stage of making a choice and highlights the importance of reflection in the conscious evaluation of decisions. The results of the experimental research demonstrate that the integration of these two mental mechanisms plays a crucial role in developing students’ decision-making competence.*

Keywords: *decision-making, metacognitive thinking, reflection, competence, self-evaluation, choice strategy, psychopedagogical approach, student, reflective awareness, metacognitive monitoring.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayoni shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ijtimoiy hayot, raqamli muhit va mehnat bozori sharoitida shaxsning mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishni muhim vazifa sifatida ilgari surmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun turli muammoli vaziyatlarda ongli tanlov qilish, strategik fikrlash va tanlov natijalarini oldindan baholay olish kabi ko‘nikmalarning rivoji nafaqat kasbiy, balki shaxsiy kamolotning ham mezonidir. Shu nuqtai nazardan qaror qabul qilish jarayonida shaxsning metakognitiv tafakkuri va refleksiv tahlilga moyilligi markaziy o‘ringa chiqmoqda.

Metakognitiv tafakkur - bu insonning o‘z fikrlash faoliyatini kuzatish, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyati bo‘lib, qaror qabul qilishda axborotni qayta ishlash, muqobil variantlarni baholash va optimal tanlovni aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Boshqa tomondan, refleksiya esa - shaxsning o‘z

qarorlari, xatti-harakatlari va natijalari ustidan anglanilgan tarzda fikr yuritishi, ularni baholashi va tahlil qilishi jarayonidir. Bu ikki mexanizmning o‘zaro uyg‘unligi talabaning ongli, mas’uliyatli va puxta asoslangan qarorlar qabul qilishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar (Schraw & Dennison, 1994; Zimmerman, 2002; Flavell, 1979) qaror qabul qilish jarayonida metakognitiv nazorat va reflektiv tahlil o‘rtasida yuqori darajadagi funksional bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Biroq, ularning aynan talabalar kontekstida qanday tarzda o‘zaro ta’sirlashuvi, ayniqsa, akademik va hayotiy tanlovlar jarayonida qanday psixologik dinamikani vujudga keltirishi hali to‘liq ochib berilmagan.

Mazkur tadqiqot talabalarda qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etishda metakognitiv tafakkur va refleksiya mexanizmlarining o‘zaro ta’sirini aniqlash, bu mexanizmlarning diagnostik vositalar bilan baholanishi, shuningdek, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixopedagogik shart-sharoitlarni belgilashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shaxsning ichki intellektual resurslarini safarbar etuvchi psixologik mexanizmlarni chuqurroq tushunishga hamda qaror qabul qilish kompetensiyasini sifatli rivojlantirishga xizmat qilishi kutiladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Talabalarda qaror qabul qilish jarayoni, ayniqsa uning metakognitiv va reflektiv jihatlari, so‘nggi o‘n yillikda kognitiv psixologiya, ta’lim psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish nazariyasi doirasida ilmiy izlanishlar markaziga aylangan. Ushbu muammoning nazariy asoslari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan bo‘lib, ularning ishlari mazkur mavzuni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avvalo, J. Flavell (1979) tomonidan ilgari surilgan metakognitsiya tushunchasi zamonaviy qaror qabul qilish nazariyalarining kognitiv negizini tashkil etadi. U metakognitiv tafakkurni - shaxsning o‘z fikrlash faoliyatini anglash va nazorat qilish qobiliyati sifatida ta’riflab, bu tushuncha asosida keyinchalik ko‘plab diagnostik vositalar va modellar ishlab chiqilgan. Schraw va Dennison (1994) tomonidan ishlab chiqilgan Metacognitive Awareness Inventory (MAI) test metodikasi talabalarda metakognitiv ko‘nikmalarni baholashda keng qo‘llaniladi.

Zimmerman (2002) o‘zining o‘quvchini o‘zini-o‘zi boshqarish nazariyasida metakognitiv monitoring va o‘z-o‘zini baholash orqali samarali qaror qabul qilishning psixologik asoslarini yoritgan. Shuningdek, A. Bandura (1997) tomonidan ilgari surilgan self-efficacy nazariyasi qaror qabul qilishdagi shaxsiy ishonchning metakognitiv tafakkur bilan bog‘liqligini ochib bergan.

Refleksiya masalasi esa J. Dewey (1933) tomonidan pedagogik faoliyatda tanqidiy fikrlash va tajribani tahlil qilish vositasi sifatida tushuntirilgan. D.A. Kolb (1984) o‘zining tajribaga asoslangan o‘rganish modelida refleksiyani o‘qituvchining ham, talabaning ham bilim va qarorlarini shakllantiruvchi asosiy bosqich deb hisoblaydi. Shuningdek, V.V. Stolin va S.R. Pantileev (1991) refleksiyaning shaxsiy va ijtimoiy shakllarini baholovchi psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqishgan, bu esa mavzuni empirik tadqiq qilishga yo‘l ochadi.

O‘zbek olimlari orasida bu yo‘nalishda V.M. Karimova (2000), R.I. Sunnatova (2004), T.S. Jo‘rayev (2011) kabi psixologlar shaxsiy refleksiya, o‘z-o‘zini anglash, va qaror qabul qilishdagi psixologik tayyorgarlik muammolarini yoritgan. Ularning izlanishlarida qaror qabul qilishda mustaqil fikrlash va reflektiv yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi, biroq aynan metakognitiv tafakkur va refleksiya mexanizmlarining o‘zaro ta’siri to‘liq kompleksda o‘rganilmagan.

Shu sababli, mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati metakognitsiya va refleksiyani alohida jarayon sifatida talqin qiladi. Biroq ularning qaror qabul qilish jarayonida o‘zaro ta’siri va integrallashgan mexanizmi hali to‘liq empirik asosda o‘rganilmagan. Bu esa ushbu mavzuni mustaqil va dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida tanlash zarurligini asoslaydi.

Muhokama. Talabalarda qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonni chuqurroq anglash va sifatli shakllantirish uchun metakognitiv tafakkur va refleksiya mexanizmlari o‘zaro bir butun tizimda qaralishi zarur. Chunki qaror qabul qilish bu faqatgina tanlov qilish emas, balki tanlov ustida chuqur fikrlash, uning ehtimoliy oqibatlarini baholash, ongli natijani ko‘zda tutish va o‘z pozitsiyasini mustahkamlash demakdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, metakognitiv tafakkur - ya’ni shaxsning o‘z fikrlash jarayonini kuzatish va boshqarish qobiliyati - qaror qabul qilishning dastlabki bosqichlarida faol namoyon bo‘ladi.


Ayniqsa, talaba muammoli vaziyatda to‘g‘ri ma’lumot yig‘ish, muqobil variantlarni solishtirish, strategiyalar ishlab chiqish bosqichlarida metakognitiv nazoratni ishga soladi. Schraw va Dennison (1994), Flavell (1979), hamda Zimmerman (2002) asarlarida bu jarayonlar tafsilotlari bilan tasvirlangan bo‘lib, ularning fikricha metakognitiv anglash - bu qaror sifatini belgilovchi markaziy omildir.

Biroq, qaror qabul qilish faqat tanlov bilan tugamaydi. Tanlangan qarorning mohiyati, u bilan bog‘liq hissiy holatlar, axloqiy va ijtimoiy oqibatlar ustida fikr yuritish - bu esa refleksiya orqali amalga oshadi. Talaba qabul qilgan qarorini tanqidiy tahlil qilish, o‘zining qarorlar asosida o‘rganish va rivojlanish imkoniyatlarini ko‘ra olish qobiliyati refleksiv ong faoliyatiga asoslanadi. Refleksiya qaror ustidan «fikr yuritish» vositasi sifatida faqat kechikkan tahlil emas, balki keyingi qarorlar uchun asos bo‘ladigan fikr yuritish modelidir.

Muhokamali jihat shundaki, ko‘pgina ilmiy manbalarda metakognitiv tafakkur va refleksiya alohida qaraladi, ularning psixologik funksiyalari izchil tavsiflanadi, biroq bu ikki mexanizmning qaror qabul qilishdagi interaktiv, dinamik va ketma-ket bog‘liqligi yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Metakognitiv tafakkur ko‘proq tanlovni shakllantiruvchi bosqichga, refleksiya esa tanlovning natijasi va shaxsiy tahliliga xizmat qiladi. Ularning uyg‘un faoliyati esa talabada tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash va mustaqil mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Empirik tadqiqotlar natijasida metakognitiv tafakkur darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda refleksiya darajasi ham nisbatan baland ekani aniqlangan. Bu bog‘liqlik ($r \approx 0.40–0.45$) ikki mexanizm o‘rtasida funksional uyg‘unlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa shuni anglatadiki, qaror qabul qilish kompetensiyasi alohida bir ko‘nikma emas, balki metakognitiv ong va reflektiv tafakkurning o‘zaro ta’sirli integratsiyasi orqali shakllanadigan kompleks sifatdir.

Shu asosda aytish mumkinki, talabalarda samarali qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ularning metakognitiv tafakkur darajasini oshirish, refleksiv madaniyatini shakllantirish va bu ikki jihatni uzviy tarzda o‘rgatish zarur. Psixopedagogik treninglar, muammoli vaziyat asosidagi o‘qitish, tanlov tahliliga asoslangan mashg‘ulotlar orqali bu jarayonni sifatli va barqaror amalga oshirish mumkin.



Yuqoridagi ustunli diagrammada uchta asosiy psixologik ko‘rsatkich bo‘yicha nazorat guruhi va tajriba guruhi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligi yaqqol ko‘rinadi. Ushbu farqlar tadqiqotda qo‘llanilgan psixopedagogik trening dasturi samaradorligini ko‘rsatadi. Keling, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha batafsil tahlil qilamiz:

1. Metakognitiv tafakkur darajasi

- Nazorat guruhi: 2.8 ball
- Tajriba guruhi: 3.9 ball.

Tahlil: Metakognitiv tafakkur darajasi — bu shaxsning o‘z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish layoqatini ifodalaydi. Tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 1.1 ballga yuqori bo‘lib, bu trening natijasida talabalar o‘z fikrlashini kuzatish, ma’lumotlarni saralash va strategik qarorlar chiqarishga

ko‘proq e’tibor bera boshlaganligini anglatadi. Bu esa ongli va puxta qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi.

2. Refleksiya darajasi

- Nazorat guruhi: 2.9 ball
- Tajriba guruhi: 4.1 ball.

Tahlil: Refleksiya — bu shaxsning o‘z harakati va qarorlariga tanqidiy yondashuvi, o‘z-o‘zini anglash va baholash jarayoni. Ushbu farq shuni ko‘rsatadiki, psixopedagogik treninglar talabalar ongida reflektiv faoliyatni kuchaytirgan, ya’ni ular qabul qilgan qarorlarini nafaqat amalga oshirish, balki ularni tahlil qilishga ham o‘rgangan. Bu esa tanqidiy fikrlash va shaxsiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichidir.

3. Qaror qabul qilish sifati

- Nazorat guruhi: 3.0 ball
- Tajriba guruhi: 4.2 ball.

Tahlil: Ushbu ko‘rsatkich qaror qabul qilishda aniqlik, oqibatlarni oldindan baholash, mustaqillik va ijtimoiy javobgarlik darajasini bildiradi. 1.2 ball farq tajriba guruhida qarorlar sifat darajasi ancha oshganini anglatadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv tafakkur va refleksiya komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi natijasida qaror qabul qilish kompetensiyasi ancha mustahkamlangan.

Umumiy xulosa. Diagramma tahlilidan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, metakognitiv tafakkur va refleksiya mexanizmlarining rivoji qaror qabul qilish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tajriba guruhi natijalari psixopedagogik trening dasturi orqali ushbu ikki mexanizmni uyg‘unlashtirish qaror qabul qilish kompetensiyasini sezilarli darajada yaxshilaganini ko‘rsatmoqda. Bu esa talabalarning nafaqat akademik muvaffaqiyati, balki ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlash qobiliyati va shaxsiy o‘sish trayektoriyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-nazariy va eksperimental tahlillar talabalarda qaror qabul qilish kompetensiyasining shakllanishi ko‘p omilli va integrallashgan jarayon ekanligini isbotladi. Ushbu jarayonda metakognitiv tafakkur va refleksiya mexanizmlarining o‘zaro ta’siri markaziy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv tafakkur talabalarning qaror oldidan axborotni qayta ishlash, muqobil variantlarni tahlil qilish, strategik yondashuvlar ishlab chiqish faoliyatini tartibga soladi. Boshqa tomondan, refleksiya esa tanlangan qaror ustidan anglanilgan nazorat, baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Eksperimental tahlillar orqali nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasidagi metakognitiv tafakkur, refleksiya va qaror qabul qilish sifati bo‘yicha farqlar ishonchli statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu farqlar psixopedagogik trening dasturining samaradorligini ko‘rsatib, talabalarning fikrlash jarayonini boshqarish, tanqidiy mulohaza yuritish va shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlash darajalarini oshirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, qaror qabul qilish kompetensiyasi - bu alohida psixologik fazilat emas, balki metakognitiv tafakkur va reflektiv ongning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi kompleks psixologik struktura bo‘lib, uni rivojlantirish shaxsning mustaqilligi, javobgarligi va hayotiy pozitsiyasini faollashtiradi.

Tavsiyalar.

1. Talabalarda metakognitiv tafakkur va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zarur. Bunda muammoli vaziyatlar asosida tanlov topshiriqlari, o‘z fikrini kuzatish jurnallari va reflektiv tahlil mashqlari keng qo‘llanilishi lozim.
2. Akademik fanlar doirasida qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan faol metodlardan - loyiha asosidagi ta’lim, gamifikatsiya, interaktiv muhokamalar - foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 23-sentabr 2020-yil, № ЗРУ–637. – Xalq ta’limi tizimini modernizatsiya qilish va ta’lim sifatini oshirishga oid me’yoriy hujjat.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2909-son Qarori. (2017). “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida. – Rasmiy hujjatlar to‘plami.

3. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906–911.

4. Schraw, G., & Dennison, R.S. (1994). Assessing Metacognitive Awareness. Contemporary Educational Psychology, 19(4), 460–475.

5. Zimmerman, B.J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70.

6. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: W.H. Freeman. – 604 b.

7. Dewey, J. (1933). How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. Boston: D.C. Heath and Co. – 336 b.

Sadatova Nodira Musurmonovna
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

JINOIY XULQ-ATVOR FENOMENINING MAZMUN-MOHIYATI VA PSIXOLOGIK GENEZESI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq-atvor fenomeni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar ochib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada jinoiy xulq-atvorning voyaga yetmaganlarda qay tarzda kelib chiqishi va tajovuzkorlik bilan aloqadorligi batafsil yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmagan o'smir, jinoiy xulq, psixologik xususiyat, fenomen, genezis, psixologik ta'sir.*

СОДЕРЖАНИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ГЕНЕЗ ФЕНОМЕНА ПРЕСТУПНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье раскрыты психологические факторы, влияющие на проявление феномена преступного поведения у несовершеннолетних. В этой статье также подробно описывается, как преступное поведение возникает у несовершеннолетних и как оно связано с агрессией.*

Ключевые слова: *несовершеннолетний подросток, преступное поведение, психологическая характеристика, явление, Генезис, психологическое воздействие.*

CONTENT AND PSYCHOLOGICAL GENESIS OF THE PHENOMENON OF CRIMINAL BEHAVIOR

Annotation. *This article reveals the psychological factors that influence the manifestation of the phenomenon of criminal behavior in minors. Also, this article provides detailed coverage of the origin of criminal behavior in minors and its involvement in aggression.*

Keywords: *juvenile adolescent, criminal behavior, psychological trait, phenomenon, Genesis, psychological impact.*

Bugungi globallashuv davrida doimo huquqiy muammo bo'lib kelgan huquqbuzarliklar nafaqat ijtimoiy muammo, balki psixologik muammo hamdir. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarga oid qonunlar uzoq vaqtdan beri shakllangan bo'lsa-da, ular ham vaqti-vaqti bilan o'zgartirilib boriladi. Hozirgi kunda dunyoning barcha ilg'or va svilizatsiyalashgan davlatlarida voyaga yetmaganlar jinoyati to'g'risidagi qonunlar o'zgartirildi. Bundan tashqari, bugungi kunda huquqbuzarlik jinoyatdan ko'ra noto'g'ri xatti-harakatlar, ijtimoiy noqulaylik sifatida qaralmoqda.

Voyaga yetmaganlarning jinoyati deganda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlar tushuniladi. Ya'ni 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar shular jumlasiga kiradi. Turli mamlakatlarda maksimal yosh chegarasi va huquqbuzarlikning ma'nosi farq qiladi. Ammo har doim 18 yoshdan kichik bo'ladi, bu huquqbuzarlik uchun qonuniy yosh hisoblanadi.

Huquqbuzarlik sabablari haqida gap ketganda odamning jinoiy moyilligi ota-onalarning avvalgi hayotidagi yomon ishlarining natijasi sifatida qaraladi. Bu, shubhasiz, noto'g'ri tushuncha va noto'g'ri fikrdir. Boshqa tomondan, bolada huquqbuzarlik paydo bo'lganda, ko'pchilik buni ota-onasining bolalik davridagi xatti-harakatlari, harakatsizligi va topshiriqlari bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Voyaga yetmagan o'smirlarning huquqbuzarlikka yo'l qo'yishiga asosiy sabablardan biri-hissiy muammo. Bolaga noto'g'ri munosabatda bo'lish va noto'g'ri tarbiyalash bolada bir nechta hissiy muammolarni keltirib chiqaradi. Turli kuzatuvlar, holatlar tarixi va intervyular shuni ko'rsatdiki, huquqbuzarlarning ancha yuqori foizi hissiy buzilishlarni namoyon qilgan. Ishonchsizlik tuyg'usi, ota-onalar va oilaning boshqa a'zolarini rad etish huquqbuzarlik xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan keyingi muhim omillardir.

Bu ma'lumotlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, huquqbuzar bolalar orasida ishonchsizlik, hasad, e'tiborsizlik va tushkunlik kabi turli xil hissiy muammolar juda keng tarqalgan. Shu sababli, bunday yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish uchun ko‘proq ruhiy ta’sir, ularda kelgusi hayotga nisbatan ishonch va rag‘bat uyg‘otish muhim hisoblanadi.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va profilaktik choralarni amalga oshirish hamda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid qator maqsadli chora-tadbirlar: voyaga yetmaganlar va yoshlar o`rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish, ularning huquqlarini himoya qilishga oid keng ko`lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ustuvor yo’nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug`lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” bo`yicha Taraqqiyot strategiyasidagi vazifalarni bajarish maqsadida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o`rganish va uning oldini olishning tadqiq etilishi kerakligi ushbu mavzuni o`rganish zarurati mavjudligidan dalolat beradi. Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta`minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga qaramasdan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sezilarli darajada kamaymasdan qolmoqda. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sodir etilishiga olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni o`rganmasdan turib jinoyatchilik muammosini atroflicha tahlil qilib bo`lmaydi. Chunki ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlar davlat va jamiyat hayotida o`rin tutib kelayotganmavjud muammolar bilan bevosita aloqador bo`ladi.

Jinoyatchilikning sharoit va sabablari tushunchalari aniq tushunchalar hisoblanadi. “Sharoit” va “sabab” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog`lanib ketganligi sababli ularning mazmunini yetarli darajada aniqlamasdan turib, ajratish qiyin bo`ladi. Xususan, jinoyatchilikning sabablari, jamiyatda jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida muayyan jinoyatni sodir etilishi uchun sharoit yaratuvchi ijtimoiy hodisalar va jarayonlar yig`indisidir. Masalan, voyaga yetmaganlar bezoriligining sababi ichkilikbozlik va nazoratsizlik deb hisoblansada, yuzaki qaraganda o`smirning alohida bir jinoyat sodir etishining sababi bo`lishi mumkin, lekin ular jinoyatning sababi bo`la olmaydi, balki sharoit yaratadi, xolos.

Yoshlar tarbiyasi, ularning barkamol inson sifatida shakllanishi muammosiga har bir mamlakatda o’z davrining asosiy masalalaridan biri sifatida qaralgan. Jumladan, XIV asr ilmfanning yorqin namoyondasi hisoblangan Jaloliddin Devoniyning “Bolalar tarbiyasi haqida” va “Axloqi Jaloliddin” asarlaridagi odob- axloq va yoshlar tarbiyasiga bag’ishlangan chuqur falsafiy g’oyalari bugungi kunda ham yoshlarni to’g’ri yo’lga boshlashda, insoniyat va jamiyatga nisbatan turli xil qabihliklarni amalga oshirmaslikka undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,olaylik ijtimoiy muhit nosog’lomligi voyaga yetmaganlar shaxsiga xos bo’lgan xususiyatlar ta’siri ostida g’ayriqonuniy xulq- atvor motiviga aylanishi va voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin.

Bizningcha, voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi va namoyon bo’lishi quyidagi bosqichlar orqali amalga oshadi:

- G’ayriqonuniy xulq- atvor motivining paydo bo’lish bosqichi;

Bu bosqichda o’smirda muayyan narsaga nisbatan bo’lgan ehtiyoj vujudga keladi va uning natijasida ehtiyojni qondirishga bo’lgan intilish paydo bo’ladi. Ushbu ehtiyojni qondirishning qonuniy yo’li mavjud bo’lmagan holata obyektiv va subyektiv asoslarga ko’ra, g’ayriqonuniy xulqni amalga oshirish yo’li tanlanadi.

- Ehtiyojning g’ayriqonuniy xulq- atvor motiviga o’tish bosqichi;

Ehtiyojning jinoyatchilik xulqi motiviga aylanishida shaxsning g’ayriqonuniy ustanovkalari bilan bir qatorda muayyan hayotiy vaziyatlar ham ishtirok etadi.

- Qabul qilingan qarorni amalga oshirish bosqichi;

Bunda shaxs muayyan vaziyatlarda o’z ehtiyojini qondirish maqsadida o’zining ruhiy, ma’naviy dunyoqarashidan kelib chiqib, ma’lum qaror qabul qiladi. Ushbu qaror jinoiy xatti-harakatni amalga oshirish bo’yicha qaror bo’lishi ham mumkin.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Yaponiya kabi davlatlar tomonidan ham voyaga yetmagan yoshlar masalasiga

chuqur e`tibor qaratilib, ularning haq-huquqlari birinchi ustuvor vazifasi belgilanmoqda. Jumladan, AQShdagi ko`plab bolalar jamg`armalari va tashkilotlari o`z faoliyatlarini voyaga yetmagan huquqbuzarliklarni kamaytirish va yo`q qilishga bag`ishlab, ushbu tashkilotlarning aksariyati voyaga yetmagan huquqbuzarlikning sabablari uchun vaqtini va pullarini mazkur turdagi ishlarni nazorat qilish uchun sarflaydi.

Yaponiya tajribasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga nisbatan chora-tadbirlar tizimini urushdan keyingi va hozirgi kungacha bo`lgan davrni 4 bosqichga bo`lib amalga oshirgan. Natijada har bir bosqichdan keyin voyaga yetmaganlar jinoyatlar soni yildan-yilga kamayib borib, so`ngi 10 yillikda dunyo bo`yicha aholi soni nisbatidan kelib chiqib Yaponiya voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etishning eng past ko`rsatkichi bo`yicha birinchilikni qo`lga kiritgan. Respublikamizda voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma`naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to`la-to`kis ro`yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

Avvalo voyaga yetmagan shaxs tuchunchasi va asosiy mazmuniga to`xtalib o`tsak, “Voyaga yetmagan” tuchunchasi bo`yicha, 1989-yil BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Bolalar huquqlari to`g`risida”gi Konvensiyada o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslar voyaga yetmagan deb e`tirof etilgan. Shu o`rinda voyaga yetmaganlarni ikki toifaga 13 yoshdan 16 yoshgacha va 16 yoshdan 18 yoshgacha bo`lganlarga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiqdir.

M.D.Lisov, V.S.Volkov va B.V.Sidirov kabi olimlar olib brogan izlanishlarga ko`ra, voyaga yetmaganlar o`rtasida sodir qilinayotgan jinoyatchilikning asosiy qismini 16 yoshdan 18 yoshgacha bo`lganlar, ozchilik qismini esa 14 yoshdan 16 yoshgacha bo`lgan yoshlar sodir qilishar ekan.

1-jadval

Tajovuzkor xulq-atvor va shaxs xususiyatlari metodikalari natijalarining o‘zaro aloqasi (K.Pirson korrelyatsiya mezoniga ko’ra)

shkalalar	Jismoniy tajovuz	Verbal tajovuz	Bilvosita tajovuz	Negativizm	Tajanglik	Shubhalanuvchanlik	Xafagarchilik	Aybdorlik
asabiylashganlik	0,440*			0,531**	-0,470*		0,465*	
o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan jinoiy xulq-atvor	0,478*	0,485*	0,624**	-0,425*	0,429*		0,654**	
ruhiy siqilish			0,436*	0,580**		0,462*	0,598**	0,427*
jizzakilik	-0,435*	0,456*		0,557**	-0,468*		-0,440*	
o‘ta tajovuzkor xulq-atvor	0,578**	-0,460*	0,521**			0,417*	0,464*	0,549**
tortinchoqlik		0,561**		0,564**	0,566**		0,428*	0,478*
ochiqlik-oshkoralik			-0,446*	0,264	-0,467*	0,532**		
ta’sirchanlik-o‘zgaruvchanlik		0,471*		0,548**	0,438*	0,590**		-0,465*

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

O’smirlar o’rtasida kelib chiqadigan zo’ravonlik xususiyatlariga asosan, nisbatan zo’ravonlik namoyon bo’lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatidagi o’smirlarda ya’ni o’smir yoshlarning tajovuzkor xulq-atvor hissi va shaxs xususiyatlari so‘rovnomalari quyidagi birliklarni asabiylashganlik shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan jinoiy xulq-atvor

shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, ruhiy siqilish shkalasi bilan, bilvosita tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalasi, jizzakilik shkalasi bilan jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik va xafagarchilik shkalalari, o‘ta jinoiy xulq-atvor shkalasi bilan, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz, bilvosita tajovuz, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari, tortinchoqlik shkalasi bilan, verbal tajovuz, negativizm, tajanglik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari, ochiqlik-oshkoralik shkalasi bilan, bilvosita tajovuz, tajanglik va shubhalanuvchanlik shkalalari, ta’sirchanlik shkalasi bilan verbal tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik shkalalari o’rtacha musbat aloqaga kirishganligi namoyon bo’ldi.

O’smirlar o’rtasida zo’ravonlik paydo bo‘lishida ko‘pgina omillar ishtirok etadi, shu bilan birga individual va yosh xususiyatlari, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar. Masalan, agressivlikni quyidagi sharoitlar ta’minlashi mumkin: shovqin, jazirama issiq, tiqislik, ekologik muammolar, ob-havo sharoitlari va h. Ushbu muammoning ko‘pgina tadqiqotchilarining fikricha, shaxsning agressiv xulq-atvorining shakllanishida asosiy rolni bevosita uning atrofidagi ijtimoiy muhit o‘ynaydi.

Psixologlar oiladagi tajovuzkorlikka olib keluvchi omillarni quyidagicha ajratadilar:

1. Stress va ruhiy zo‘riqish: Ish, moddiy qiyinchiliklar, shaxsiy muammolar va boshqa tashqi omillar tufayli odamda tajovuzkorlik hissi kuchayishi mumkin.
2. Bolalik travmalari va shaxsiy tajriba: O‘z bolalik yillarida zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan yoki shunday tajribalarni boshdan kechirgan odamlar ko‘pincha o‘z oilalarida ham shunday xatti-harakatlarni takrorlaydi.
3. Nazorat istagi: O‘zini boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilish orqali kuchliroq his qiladigan shaxslar oiladagi boshqalarni nazorat qilishga intilib, turli shakldagi tajovuzkorlikni qo‘llashi mumkin.
4. Emotsional yetishmovchilik va impulsivlik: Hissiy jihatdan o‘zini nazorat qila olmaslik, qattiq g‘azab yoki boshqa salbiy hissiyotlarni bosib turish qobiliyatining yetishmasligi ham tajovuzkorlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish uchun huquqiy asoslar, mexanizmlar hamda maxsus tizimlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Hozirda olib borilayotgan davlat siyosati hamda islohotlari orqali ko‘rishimiz mumkinki, yurtimizda voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq bo‘lgan Jinoyat kodeksining moddalariga, xususan, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish, ularni rivojlangan davlatlar tajribasini qo‘llagan holda takomillashtirish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazolarni qo‘llash, ularni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish instituti va qonunchilikni rivojlantrishga e’tibor berilmoqda.

Foydanilgan Adabiyotlar ro’yxati.

1. Sattorova M. VoyagaYetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish. - T.: TDYI. 2006. -B.7.
2. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq–atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. “Psixologiya” ilmiy jurnal1, 2022. 27-29.
3. Rustambayev M. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). -T.: TDYI. 2005. -B.84.
4. Berdiyeva D.Sh., Elov Z.S. Psychological Reasons For Suicide Motivation In Adolescents With Deviant Behavior. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Issue 2 February 2022. 1003-1009

UDK: 159.9(316):075

Saipova Malohat
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
E-mail: malohat_saipova@mail.ru

MEHNAT MIGRANTLARI BO'LGAN VA BO'LMAGAN OILALARDA OILAVIY XAVOTIRLIKNI METODOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya *Mazkur maqolada ota-onasi mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan o'smirlarning oilaviy hayotdan xavotirlanish masalalari tadqiqot natijalari asosida ochib berilgan. Shuningdek, muallifning shaxsiy xulosasi va tavsiyalari keltirilgan. Xususan, hozirda mehnat migratsiyasi dahl qilmagan – xoh u yirik, rivojlanayotgan, xoh kichik, rivojlanish bo'sag'asida turgan bo'lsin – biror mamlakat qolmagan, u jamiyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlami va guruhi, ijtimoiy turmush faoliyatining turli sohalari jalb qilingan keng qamrovga ega jarayon hisoblanadi. XX va XXI asrda migratsiya jamoatchilik hayotining yanada xarakterli va ahamiyatli ko'rinishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugun butun dunyo xalqlari migratsiyani odatiy hodisa sifatida qabul qilmoqdalar. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, migratsiya sabablari nihoyatda turli-tuman bo'lib, har bir oilaning bu borada o'z tarixi, ta'sir omillari mavjud.*

Kalit so'zlar: *aholi, mehnat, migratsiya, hodisa, jarayon, bosqich, sabablar, oilaviy, aybdorlik, xavotir, asabiy, tazhanglik, metodika, qiymat, farqlar, ahamiyat, vaziyat, stress, dastur.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЕМЕЙНОЙ ТРЕВОЖНОСТИ В СЕМЬЯХ С ТРУДОВЫМИ МИГРАНТАМИ И БЕЗ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ

Аннотация. *В настоящее время нет ни одной страны, которую не затронула бы трудовая миграция – будь то большая, развивающаяся или маленькая страна, находящаяся на пороге развития – она имеет широкий размах, охватывая практически все социальные слои и группы общества, различные сферы общественной жизни. В XX и XXI веках миграция стала одним из наиболее характерных и важных проявлений общественной жизни. Сегодня люди во всем мире воспринимают миграцию как нормальное явление. Следует также отметить, что причины миграции чрезвычайно разнообразны, и каждая семья имеет свою историю и факторы, влияющие на этот счет.*

В данной статье на основе результатов исследования раскрываются проблемы подростков, чьи родители находятся в трудовой миграции. Особое внимание уделяется обеспокоенности несовершеннолетних вопросами, связанными с семейной жизнью.Также представлены личный выводы и рекомендации автора.

Ключевые слова: *население, работа, миграция, событие, процесс, этап, причины, семья, вина, тревога, нервозность, кризис, методология, значение, различия, значимость, ситуация, стресс, программа.*

METHODOLOGICAL ANALYSIS OF FAMILY ANXIETY IN FAMILIES WITH AND WITHOUT LABOR MIGRANTS

Abstract. Currently, there is not a single country that is not affected by labor migration - be it a *large, developing or a small country on the threshold of development - it has a wide scope, covering almost all social strata and groups of society, various spheres of public life. In the 20th and 21st centuries, migration has become one of the most characteristic and important manifestations of public life. Today, people all over the world perceive migration as a normal phenomenon. It should also be noted that the reasons for migration are extremely diverse, and each family has its own history and factors influencing this.*

This article, based on the results of the study, reveals the problems of teenagers whose parents are in labor migration. Particular attention is paid to the concerns of minors about issues related to family life. The author's personal conclusions and recommendations are also presented.

Key words: *population, work, migration, event, process, stage, reasons, family, guilt, anxiety, nervousness, crisis, methodology, meaning, differences, significance, situation, stress, program.*

Kirish. Ma'lumki, davlatlarning ijtimoiy taraqqiyotiga, aholisining turmush tarziga, kapitallar harakatlanishiga, hududlar rivojlanishiga, jamiyatning huquqiy, siyosiy madaniyatini shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatayotgan mehnat migratsiyasi jarayonining o'zi ham siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa o'zgarishlarga uchraydi. Bu shunday jarayonki, hech bir davlat, mamlakat, millat yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan uni boshqarish imkoniyati yo'q. Migratsiya jarayonlari u yoki bu darajada Yevropani ham qamrab olmoqda. Birlashgan Millatlarning Yevropa Iqtisodiyoti Komissiyasi (BMIK) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa ittifoqi (EI)ga kiruvchi to'rtta davlat Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya har yili eng ko'p migrantlarni qabul qiluvchi o'nta mamlakatlar qatoriga kiradi. Migratsiya bo'yicha 2022-yildagi xalqaro IOM un Migratsion tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, «... butun dunyoda 2020-yilda xalqaro migrantlar soni 281 millionni tashkil etga bo'lib, butun yer yuzidagi aholining 3,8%ga to'g'ri keladi. Umuman olganda oxirigi 50 yilda xalqaro migrantlar soni sezilarli oshgan bo'lib, jumladan, 2020-yildagi ko'rsatkich 1990-yilga nisbatan 128 milion, 1970-yilga qaraganda uch barobar ko'payganligini ko'rsatadi». Mehnat migratsiyasining mohiyatini tushunish uchun "aholi harakati", "aholining harakatchanligi", "ichki va tashqi migratsiya" tushunchalari qanchalik qo'llanilishini aniqlash kerak. Migratsiyani turli ilmiy yondashuvlar orqali o'rganish, turli atamalarni qo'llashga olib keladi. Aksariyat hollarda migratsiya harakatchanlik (lotin tilidagi "mobilis" so'zidan olingan) yoki boshqa ekvivalentda – harakatchanlik, harakat, siljish, ko'chib o'tish, qayta taqsimlash kabi ta'riflaydilar orqali tushuntirishga harakat qilinadi. Zero, yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoni kengroq va chuqurroq yoritish bo'yicha aniq empirik natijalar doirasida bayon etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Mehnat mirgantlari oilalarida tarbiyalanayotgan bolalarda qadriyatlar transformatsiyasi, ota-onasiz uzoq muddat yashash, migrant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy tomonlari mamalakatimiz olimlari qator olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida kompleks o'rganilgan.

Rus olimasi V.G.Alekseevaning fikriga ko'ra, "aholi migratsiyasi – bu fuqarolarning doimiy yashash yoki o'qish yoxud mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun hududda vaqtincha bo'lish joyini o'zgartirish maqsadida ham ichki, ham tashqi chegarani har qanday kesib o'tishi bilan bog'liq ham qanday ma'muriy-hududiy harakatidir [1].

Amerikalik tadqiqotchilar Jon F.Xellivel, Shun Vang, Xyu Shiplett xalqaro migratsiyani psixologik farovonlik va baxtga erishish nuqtai nazardan o'rganadilar [7].

L.A.Geydenrix [3] tadqiqotida migrant va migrant bo'lmagan oilalar farzandlari muloqotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maqomli-rolli parametrlari (o'qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlar) bilan farq qiluvchi o'zaro ta'sir holatlariga qarab o'zgarishi aniqlandi. Muloqotning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari migrant oilalar farzandlarida yuqori darajada muloqot vaziyatiga bog'liq ravishda o'zgarishi aniqlandi. Migrant oilalar farzandlarida muloqotning migrant bo'lmagan oilalar farzandlaridan ajratib turadigan eng yuqori ifodalangan xususiyati ularning o'qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlari bilan muloqotning yetishmasligi, muloqot jarayonida yetarli darajada ishtirok etmasligi bilan uyg'unlashgan holda ular bilan munosabatlaridan qoniqishining yuqori darajasi ekanligi ko'rsatilgan.

"Mehnat migratsiyasi migrantlarining o'zlariga bo'lganiday ularning Vatanida qolgan oilalariga ham muayyan ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Xususan:

1. Bolalar mehnat migratsiyasida bo'lgan otasi yoki onasini doimiy ravishda qo'msab yashaydi.
2. Ba'zida buvi-buvalar yoki qarindoshlar, hatto begonalar qaramog'ida qolgancha bolalar hayot tarzining nazorati susayadi.
3. Ota-ona mehridan mahrum bo'lib yashayotgan bolalarning xulq-atvorida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu esa ularning kelgusi hayotiga ta'sir ko'rsatadi" [6].

Adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilari, ya'ni o'smirlar boshqa yoshdagilarga solishtirganda eng yuqori darajadagi xavotir tuyg'usiga egalar, ular ko'pincha aybdorlik tuyg'usini his

qiladilar, shu bilan bog‘liq ravishda ularda frustratsiya kabi emotsional holat yuzaga keladi, biroq bunda ular salbiy emotsiyalardan ko‘ra ko‘proq quvonchni namoyon etishga moyildirlar [4].


O‘smirlarning emotsional holati qator xususiyatlar bilan tavsilanadi emotsional zo‘riqish va psixologik stressning oson yuzaga kelishi, kayfiyatning doimiy tarzda o‘zgarib turishi, affektiv holatning tez-tz paydo bo‘lishi, ular kuchli his-tuyg‘ularga kuchli tarzda beriladilar, o‘smir o‘zini kechinmalarning tuganmas doirasiga qamab qo‘yadigan shaxsiy emotsiyalariga yopishib oladi [5].

Chunki “klassik adabiyotlarda o‘smirlik yoshi bolalik va ulg’ayish o‘rtasidagi o‘tish davri, inson bolalar olamidan kattalar olamiga o‘tishi zarur bo‘lgan o‘ziga xos “ko‘prik” sifatida ko‘rib chiqilarkan” [2], bu paytda o‘smirning rivojlanishida oilaning o‘rni, shubhasiz, yuqori. Shu nuqtai nazardan ham biz olib borgan tadqiqot dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Migratsion oqimning jadallashuvini tadqiq etuvchi olimlarning aksariyati bu ijtimoiy fenomenni qandaydir ijtimoiy oqim sifatida ko‘rib chiqadilar va davlatning muayyan ta’sir ko‘rsatishi uchun uning miqdorini baholashni afzal ko‘radilar. Bu migratsiyani qiyofasiz odamlar ommasi, ya’ni go‘yoki tasodifiy shaxslarning matematik miqdori sifatida aks ettiradi. Migratsiyaning falsafiy va psixologik jihatlarini tadqiq etgancha S.K.Bondireva migratsiyani jismoniy bo‘lganiday virtual borliqda ham amalga oshiriladigan va “insonning harakatlanishi sharofati bilan mumkin bo‘lgan, ehtiyojli xarakter kasb etgan ko‘p motivli ijtimoiy hodisa”, deb ta’riflaydi. Keyinchalik u o‘z ishida demografiyadan o‘zlashtirilgan terminologiyaga murojaat qiladi: migratsiya – bu “shaxsning yangi hududlarning resurslarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan va yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan borliqqa oid faolligi (harakatlanishi) dir” [3].

Psixologik yondashuv doirasida, albatta, bitta «xulq-atvor» yo‘nalishini ajratib bo‘lmaydi, ammo ularning barchasi (inson xulq-atvorining stratifikatsion nazariyasi, umumiy motivatsiya tushunchalari, moslashuvchan xulq-atvor va boshqalar) migrantlarni migratsiya jarayonining barcha bosqichlarida boshqaradigan va tadqiq etish tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan xilma-xil migratsiya motivlariga yuqori yoki past darajada daxl qiladi. Shunday qilib, migratsiyani shaxs yoki guruhlarning muayyan ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida, asosiy o‘rin qaror qabul qilish mexanizmiga ajratiladigan xulq-atvorga oid akt sifatida ko‘rib chiqish yanada rivojlanmoqda. Migratsiya bo‘yicha ijobiy qaror, xususan, “joyning foydaliligi” g‘oyasi bilan bog‘liq.

Tahlil va natijalar. Mavzu E.Eydemiller, V.Yustitskislarning «Oilaviy xavotirlik tahlili», K.Izardning «Differensial emotsiyalar shkalasi» metodikalaridan olingan natijalar asosidagi mulohazalar oqrali empirik jihatdan tahlil etilib, xulosa va takliflar bo‘yicha fikr yuritiladi.



1-rasm. Oilaviy xavotir tahlilining migrantlikka mansublik bo‘yicha farqlanishi


Oilaviy hayotdagi asabiylikni doim ota yoki onadan ko‘p narsa talab qilish, ularni o‘zidagi muvaffaqiyatsizliklarning aybdori sifatida qarash hamda doim norozilikni yig‘i, achchiqlanish hamda agressiya ko‘rinishida aks ettirish bilan tushuntirish mumkin. Oilaviy hayotda aybdorlik hissi ham migrant oila farzandlarida baland bo‘lib, ular ota-onasining migratsiya motivi sifatida o‘zining shaxs sifatidagi mavjudligi, oilaviy beqarorlik motivatsiyasi o‘smir ekanligi kabi g‘oyalar og‘ushida o‘zida aybdorlik hissini tuyishi bilan izohlash mumkin.

Natijalarimizga ko‘ra, “Oilaviy xavotir tahlili” metodikasining oila ko‘rinishlaridagi tafovutlari tahlil qilinganda oilaviy hayotdan aybdorlik migrant oila farzandlarida ustuvorlik kasb etib, bunda o‘zlarining mavjudligi ortida og‘ir yuk bo‘lish, ota-ona sargardonligining asosiy sababi sifatida ulardagi ehtiyojlarni qondirish zarurati bo‘lgani kabi g‘oyalar bolalar ongiga bevosita singib qolgani sababidan ham ifodalanishiga imkoniyat beradi (U=40824; p<0,01).

Oilaviy hayotda xavotir hissi ko‘proq ota-onasidaning ahvolidan, shuningdek, o‘zining ertangi kunidan, oiladagi vaziyatni qanday tus olishidan xavotirlanish ko‘rinishida yuzaga chiqadi. Shu bois, migrant oila farzandlarida ota-onasi bilan aloqa mavjud bo‘lmaganda har xil negativ xayollarga berilish, g‘azab otiga minish, shuningdek, tashqi tarafdan «alamini olish» holatlari ham qayd etilishi mumkin (U=42538,5; p<0,01). Tajanglik – arzimas narsa ta’sirida salbiy hissiyotlarni namoyish etishga tayyorlik sifatida ta’riflanib, oilaviy hayotda mazur xususiyatning namoyon bo‘lishi migrant oila farzandlarida ichki behalovatlik, qoniqmaslik, emotsional qo‘nimsizlik kabilarni takomillashtirishiga undaydi (U=40482; p<0,01). Oilaviy munosabatlarda haddan ortiq tajanglikni yuzaga kelishi bola xulq-atvorida o‘zboshimchalik, erkatoylik, nomustaqillik kabi salbiy sifatlarni shakllantirish bilan birga, boshqalarga nisbatan agressiv munosabatlar paydo bo‘lishiga ham olib kelishi mumkin [7].

Ko‘pgina tadqiqotchilar va olimlar migratsiyani stress darajasi bo‘yicha ushbu miqyosning maksimal darajasiga, yaqinlarini yo‘qotish darajasiga tenglashtiradilar. Hatto «migratsion nevroz» degan tushuncha ham bor. Tabiiyki, shuni ta’kidlash kerakki, har bir inson individualdir va ko‘p narsa uning hissiy xususiyatlariga bog‘liq. Bundan tashqari, migrantning tayyorgarlik darajasi ham rol o‘ynaydi. Oldindan moslashish uning davomida inson kelajakdagi yashash mamlakatining xususiyatlarini, urf-odatlarini, madaniyatini, kundalik hayotini va boshqa jihatlarini o‘rganadi. Ko‘pgina hollarda, bu bosqich ma’lum bir mamlakatni tark etish borasida yakdil qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Ko‘p odamlar uchun migratsiyani tashkil qilish juda orzu qilingan va qiyin jarayondir, shuning uchun vizalar va tayyorgarlik sinovlarini ortda qoldirib, odam yangi joydan kelganida yengillik va eyforiyani boshdan kechirishi mumkin. Ikkinchi holda, moslashuv qobiliyati past bo‘lgan, yuqori umidlar yoki oddiygina psixologik tayyorgarliksiz odam o‘z muhitidan tashqarida bo‘lishdan shok holatiga tushishi mumkin. Migrant sifatida ketgan shaxslarning oila a’zolarida ham mazkur holatlar kuzatilishi tabiiy. Chunki o‘rganib qolgan yaqin insonidan birdaniga ayrilish shaxslarda emotsional shok holatini vujudga keltirishi mumkin. Bu ayniqsa migrant oila farzandlarining psixik rivojlanish dinamikasida yaqqol ko‘zga tashlanishi bilan xarakterlidir.



2-rasm. Agressiyani qabul qilish darajasining jins tafovuti

Agressiyani qabul qilish darajasi bo‘yicha qizlar hamda o‘g‘il bolalarning natijalari o‘rtasida ahamiyatli farqlar qayd etilib (U=65700; r<0,05), qizlarda o‘g‘il bolalarga nisbatan agressiyaga munosabat bildirish, lov etib yonib, puf etib o‘chish holatlari ko‘proq namoyon bo‘lar ekan. Qizlarning tabiatiga xos bo‘lgan ta’sirchanlik, tez emotsiyalarga berish ularda har bitta voqea-hodisaga nisbatan javob reaksiyasini ustamonlik bilan berish, ehtiroslar og‘usiga chalingan holda o‘ksinish holatlari bo‘lishi bilan ham tushuntiriladi.

Agressiyani qabul qilish shkalasi bo‘yicha natijalarni hududlar kesimidagi natijalariga ko‘ra, Navoiy viloyatidagi migrant oila farzandlari (413,70), Samarqand viloyatidagi migrant oila farzandlari

(453,52) hamda Farg‘ona viloyatidagi migrant oila farzandlari (308,20) ning natijalari o‘rtasida ishonchli tafovutlar kuzatildi. Samarqand viloyatidagi migrant oila farzandlarida lov etib yonish bilan birga agrresiv munosabatlarni qabul qilish ko‘rsatkichi ham balandroq bo‘lib, boshqalar tarafidan bildirilayotgan stimullar ularda agressiv reaksiyalar hamda emotsional tonning oritishiga yo‘l ochar ekan (H=73,105; p<0,01) [7].

Jahon psixologiyasida agressivlikning biologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik determinantlari va agressiv xulq-atvor reprezentatsiyasiga xos xususiyatlari o’rganilgan. Bunda agressiv xulqni bartaraf etishning turli usullari va yuzaga kelish shart-sharoitlarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarini aniqlash, joriy etish xususan, xulqidagi og‘ishlar, emotsional beqarorlik, hissiyotlarni boshqara bilmaslik kabi holatlar dolzarbligini saqlab qoladi. Bizningcha bu borada, o‘smirlarda agressivlikning shakllanishiga qator shaxs xususiyatlari ta‘sir qiladi: tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o‘z-o‘ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste’mol qilish, kompyuter o‘yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o‘z o‘zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi xulqiy omillar: o‘z vaqtini maqsadsiz o‘tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o‘zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo; ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta‘siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o’zgarishi (o‘gay ota, o‘gay ona va hokazo); o‘smirning xulqiy og‘ishlar shakllangan do‘stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishi (taqlid fenomeni) ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o‘smirning o‘zlashtirishiga ota-ona tomonidan o‘smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo‘yilishi.

Agar o‘smir haddan ziyod charchagan bo‘lsa, psixik agressiya psixik resurs imkoniyatlari cheklanganligi oqibatida shakllanadi. O‘z-o‘zini negativ idrok etish. «Men yomon odamman. Shuning uchun o‘zimni shunday tutaman». Tobora yomonlik hissi o‘smir uchun chuqur, ma’lum bir xatti-harakatni bajarishga psixofiziologik tayyorlik xolati – ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o‘smirlarda arzimagan, yumshoq tanqid ham psixik og‘riqning shakllanishiga olib keladi. Agar o‘smir insonlar bilan munosabatlarda salbiy tajribaga ega bo‘lsa, u ertaroq himoyalanishga intiladi. Ko‘p hollarda uning hayotiy tajribasida shunga o‘xshash holatlar uchragan, o’zi uchun xavfli deb hisoblagan vaziyatdan himoyalanishga harakat qiladi. O‘smirda ijtimoiy muhitdagi insonlar bilan yaqin emotsional munosabatlar o‘rnatilmaganligi, o‘zini himoyasiz hisoblashi xavotirlanish darajasining ortishiga olib keladi.

Xulqiy agressiv holatlar o‘smirlarda yaqin emotsional munosabatlarga nisbatan ehtiyojlari frustratsiyasi oqibatda kelib chiqadi. Bu vaziyatda agressiya atrofdagilar unga bo‘ysunishi, uning istaklarini so‘zsiz bajarishi, ya’ni o‘zi istagan e’tibor va hokimiyatga erishishning nisbatan oson usuli bo‘lib ko‘rinadi. Shu o‘rinda ta’kidlashimiz kerakki, barcha o‘zini-o‘zi namoyon qila olmagan va frustratsiya holatida bo‘lgan o‘smirlarda zo‘riqqan harakatlarni amalga oshiravermasligi ham kuzatiladi.

E.G.Eydemiller va V.Yustitskisning “Oilaviy xavotirni tahlil qilish” va K.Izardning «Differensial emotsiyalar shkalasi» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsiya o‘rganilganda ga‘mning ortishi bilan oilada aybdorlik hissi (r=0,218; p<0,01), oilaviy hayotda xavotir hissi (r=0,244; p<0,01) va oilaviy hayotda asabiy tajanglik (r=0,242; p<0,01) ham ortib borar ekan. Bu esa shaxsda frustratsion bo‘shliq effektini yuzaga kelishiga imkon beradi. Jahlning ortishi bilan oilada aybdorlik hissi (r=0,175; p<0,01), oilaviy hayotda xavotir hissi (r=0,165; p<0,01) va oilaviy hayotda asabiy tajanglik (r=0,201; p<0,01) ham ortib borar ekan. Bu esa shaxsda jahldorlik, asabiy taranglik hamda effetkivlikni yuzaga kelishiga imkon berishi kuzatildi.

Shuningdek, shubhalanishning ortishi bilan oilada aybdorlik hissi (r=0,163; p<0,01), oilaviy hayotda xavotir hissi (r=0,216; p<0,01) va oilaviy hayotda asabiy tajanglik (r=0,261; p<0,01) ham ortib borar ekan. Bu esa shaxsda oiladagi normal holatlardan ham yomonlik izlash, barcha oila a’zolariga nisbatan nafratli bo‘lish hamda oilaviy hayotdan qoniqmaslikni shakllantirishga yordam berishi mumkinligi bilan izohlanishi mumkinligi aniqlandi [7].

Xulosa va takliflar. Yuqorida yuritilgan mulohazalardan kelib chiqib quyidagicha xulosalarni berishimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan, migrant oilalardagi o‘smirlarda boshqa migrant bo‘lmagan oiladagi o‘smirlarga nisbatan yuqori darajadagi impulsivlik bilan ajralib turishi, migrant o‘smirlar ko‘pincha o‘z harakatlari haqida chuqur o‘ylay olmaydilar va ma'lum bir vaziyatga tezroq va to‘g‘ridan-

to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlari kuzatiladi. Migrant oila farzandlarida guruhlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishga doim ham moyil bo‘lmaslik, jamoada ishlashni doim ham yaxshi ko‘rmaslik, mustaqil ishlashni afzal ko‘rish, muloqotda bo‘lmaslik, tanishish va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishda cheklanishlarga intilish istagi yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, migratsiya hodisasi o‘smir bolaning ongida obyektiv tashqi ijtimoiy reallik bilan bog‘liq ravishda kechinmalar ko‘rinishida aks etadi hamda faoliyat jarayonlarining determinatsiyasida ishtirok etuvchi intilishlar, istaklar va xohishlar sifatida tushuniladi. Migrant oiladagi o‘smir kechinmalari sodir bo‘layotgan hodisalarning shaxsiy mazmunini anglash vositasi bo‘lib, ichki signallar sifatida yuzaga chiqishi kuzatilar ekan. Mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan oilalarning farzandlari, garchi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o‘z ota-onalari, yaqinlari bilan muloqot qilishlariga qaramay, ularni mehriga muhtoj bo‘lishlari, ba’zi hollarda hatto o‘zlarini yashab turgan manzillarida keraksizday his qilishlari bilan namoyon bo‘lishi kuchliroq kuzatilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Алексеева В.Г. Ценностные ориентации как фактор жизнедеятельности и развития личности. // Ж.: Психологический журнал, 1984. Т. 5. № 5. С. 63-70.

2. Бочавер А.А., Жилинская А.В., Хломов К.Д. Перспективы современных подростков в контексте жизненной траектории. // Электронный журнал «Современная зарубежная психология», 2016. Том 5. № 2. С. 31-38.

3. Бондырева С.К. Миграция (сущност и явление). – М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: Изд-во НПО МОДЕК, 2004. 3-б.

4. Гейденрих Л.А. Социально-психологические особенности общения детей из семей мигрантов и немигрантов с учителями, одноклассниками, родителями. // Автореф. дисс. канд. психол. наук. – Ростов-на-Дону, 2009.

5. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. // Серия «Мастера психологии»). – СПб: Питер, 2001. 752 с.

6. Казанская В.Г. Подросток. Трудности взросления. – СПб.: Питер, 2006.

7. Madjidova D., Yaxnyaeva M. Mehnat migrantlari oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari // Jurnal: “Bola va zamon”, 2021 yil 1-son. 44-46-b.

8. Saipova M.L. “Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari” psixol.f.d (DSc) dissert. 140-146 betlar.

9. Helliwell J.F., Huang H., Wang Sh., Shiplett H. International Migration and World Happiness. // Eds J.F.Helliwell, R.Layard, J.D. Sachs. World Happiness Report. Chapter 2. United Nations SDSN, P. 12-43. // (murojaat sanasi: 28.10.2023).

Salomov Shamsiddin Saboxiddin o‘g‘li.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: shamsiddin.tspu@gmail.com

RAQAMLI MULOQOTNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TRANSFORMATSIYASI: VIRTUAL MUHITDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING OQIBATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli muloqotning ijtimoiy-psixologik transformatsiyasi va virtual muhitda shaxslararo munosabatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda ijtimoiy ishtirok nazariyasi, giperpersonal model, deindividuatsiya nazariyasi va ijtimoiy identifikatsiya modeli asosida raqamli kommunikatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Nazariy tadqiqot natijalari raqamli muloqotning inson psixologiyasiga va jamiyatga ta’sirini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli muloqot, ijtimoiy tarmoqlar, yuzma-yuz muloqot, psixologik ta’sir, ijtimoiy izolyatsiya, anonimlik, shaxsiyat, identifikatsiya, giperpersonal model, deindividuatsiya, ijtimoiy ishtirok.*

ЦИФРОВАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ: МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ВИРТУАЛЬНОЙ СРЕДЕ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется социально-психологическая трансформация цифровой коммуникации и ее влияние на межличностные отношения в виртуальной среде. Также в исследовании рассматриваются положительные и отрицательные аспекты цифровой коммуникации на основе теории социального участия, гиперперсональной модели, теории деиндивидуации и модели социальной идентификации. Результаты теоретического исследования способствуют более глубокому пониманию влияния цифровой коммуникации на психологию человека и общество.*

Ключевые слова: *цифровое общение, социальные сети, общение лицом к лицу, психологическое влияние, социальная изоляция, фильтруемый пузырь, анонимность, личность, идентификация, гиперпсихологическая модель, деиндивидуализация, социальное участие.*

THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL TRANSFORMATION OF DIGITAL COMMUNICATION: INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE VIRTUAL ENVIRONMENT AND THEIR CONSEQUENCES.

Abstract. *This article analyzes the socio-psychological transformation of digital communication and its impact on interpersonal relationships in the virtual environment. The study also examines the positive and negative aspects of digital communication based on the theory of social participation, the hyperpersonal model, the deindividuation theory, and the social identification model. The results of the theoretical research contribute to a deeper understanding of the impact of digital communication on human psychology and society.*

Key words: *Digital communication, social networks, face-to-face communication, psychological impact, social isolation, anonymity, personality, identification, hyperpersonal model, deindividuation, social participation.*

Kirish. Raqamli dunyoning jadal rivojlanishi muloqot uslublarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shaxslararo aloqalarni va muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirib, yangicha imkoniyatlar yaratdi. Facebook, Twitter, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar an’anaviy muloqot vositalarini zamonaviy shaklga moslashtirib, global va real vaqt rejimida aloqa o‘rnatish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ushbu tarmoqlar foydalanuvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, shaxsiy tajribalarini baham ko‘rish va virtual muloqot muhitida faol ishtirok etish imkonini beradi. Biroq, bunday o‘zgarishlar maxfiylik va shaxsiy ma’lumotlarning himoyasiga turli xavflarni paydo qilish bilan bir qatorda muloqotning samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ijtimoiy aloqalar dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu platformalar insonlarga geografik chegaralardan qat'i nazar bog'lanish va virtual hamjamiyatlar yaratish imkonini bermoqda. Biroq, "filtrlangan pufakcha" yoki "kontent manipulyatsiyasi" fenomeni tufayli foydalanuvchilar asosan o'z qarashlariga mos axborot muhiti bilan cheklanib, dunyoqarash torayishi xavfi tug'ilmoqda.

Raqamli kommunikatsiya an'anaviy muloqotning o'rnini tezkor va interaktiv muloqot shakllari bilan almashtirdi. Endilikda muloqot nafaqat axborot almashish, balki shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, anonimlik, tezkor axborot tarqalishi va algoritmik filtrlash muloqot jarayonini yanada murakkablashtirmoqda.

Natijada, an'anaviy muloqotdan raqamli muloqotga o'tish nafaqat texnologik jarayon, balki chuqur ijtimoiy-psixologik o'zgarishlarga ham sabab bo'ldi. Ushbu o'zgarishlarning inson munosabatlari va jamiyatga ta'sirini chuqur o'rganish barqaror va sog'lom kommunikatsiya muhiti yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Raqamli davr — bu jamiyat hayotining turli sohalarida, xususan, ijtimoiy va psixologik jabhalarda tub o'zgarishlarga olib kelayotgan bosqich bo'lib, u axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida shakllangan. Ushbu davrda sanoat iqtisodiyotidan axborot iqtisodiyotiga o'tish jarayoni jadallashib, kompyuterlar, mobil qurilmalar va internet insonlararo muloqot va axborot almashishning asosiy vositalariga aylangan.

Psixologik nuqtai nazardan, raqamli davr odamlarning o'zaro aloqalarini global va real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini berib, bu ularning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiyati shakllanishida yangi omillarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy texnologiyalar orqali insonlar o'zlarining virtual shaxsiyatini yaratish imkoniga ega bo'lib, bu real hayotdagi o'zlikni anglash jarayoniga ham ta'sir qiladi.

Lau (2003) ta'rifiga ko'ra, raqamli davr — bu axborotning keng ommaga elektron shaklda tez va oson yetib borishini ta'minlaydigan davrdir. Bugungi kunda har qanday ma'lumotni qidirish, tarqatish va undan foydalanish internet va boshqa raqamli texnologiyalar yordamida juda osonlashgan. Shu sababli, raqamli davrning eng muhim xususiyatlaridan biri bu axborotning global, ochiq va tezkor tarqalishidir [6].

Raqamli muloqot — bu insonlarning texnologik vositalar, masalan, kompyuter, smartfon va boshqa raqamli qurilmalar yordamida o'zaro axborot almashish jarayonidir. Ushbu muloqot shakli zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan bo'lib, u odamlarning o'zlikni anglash, shaxsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarini yangi formatlarda rivojlantirishga sabab bo'lmoqda.

Raqamli muloqot real hayotdagi yuzma-yuz muloqotdan sezilarli darajada farq qiladi. Onlayn platformalarda insonlar o'zlarini turli obrazlarda namoyon eta oladilar, bu esa ba'zan shaxsiyatning ideallashgan variantini yaratishga olib keladi. Natijada, odamlar o'zlarini virtual olamda boshqacha qabul qila boshlashadi va real hayotda o'z shaxsiyati bilan muvozanat topish qiyinchiliklarini his qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, raqamli muloqotning tezkor va qisqa muddatli bo'lishi ko'pincha samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, u chuqur va ma'noli muloqotga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin. Bunday sharoitda odamlarning e'tiborini uzoq vaqt jamlash qiyinlashadi, sabr-toqat darajasi pasayadi va hissiyotlarni to'g'ri tushunish murakkablashadi. Chunki an'anaviy yuzma-yuz muloqotda tana tili, mimika va ovoz ohangi kabi noverbal belgilar katta ahamiyatga ega bo'lsa, raqamli aloqa vositalarida bu imkoniyatlar sezilarli darajada cheklangan. Bu esa ko'pincha noto'g'ri tushunishlar va turli muloqot muammolarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, raqamli davr insonlararo muloqotning tubdan o'zgarishiga olib kelayotgan bo'lsada, uning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini chuqur o'rganish va muvozanatli yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli muloqot sohasida turli nazariyalar mavjud bo'lib, ular elektron vositalar orqali odamlar o'rtasidagi muloqotni va uning psixologik ta'sirini tushuntirishga harakat qiladi. Ushbu nazariyalar raqamli muloqotning turli jihatlarini yoritib, uning shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy aloqalar ustidagi ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi. Quyida raqamli muloqotga oid ba'zi muhim nazariyalarga to'xtalib o'tamiz:

Ijtimoiy ishtirok nazariyasi (Social Presence Theory). Jon Short, Ederin Uilliyams va Bryus Kristi tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariya, kommunikatsiya vositalarining ijtimoiy ishtirok darajasini o‘lchashga qaratilgan. Nazariyaga ko‘ra, yuzma-yuz muloqot eng yuqori ijtimoiy ishtirokni ta’minlaydi, chunki u insonlarning tana tili, mimika, ovoz ohangi kabi noverbal belgilarni o‘z ichiga oladi. Elektron vositalar orqali muloqotda esa, bu noverbal aloqalar mavjud emas, va shu sababli, ijtimoiy ishtirok darajasi pasayadi. Ushbu nazariya telekommunikatsiya vositalarining samaradorligini baholashda, ayniqsa onlayn muloqotning cheklovlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Biroq, ijtimoiy ishtirokning kamayishi, har doim ham salbiy oqibatlarga olib kelmaydi, chunki ba’zi holatlarda elektron vositalar odamlarni o‘zlarini erkinroq ifodalashga undashi mumkin [2].

Giperpersonal model (Hyperpersonal Model). Josef Volter tomonidan 1996-yilda ilgari surilgan giperpersonal model, raqamli muloqotning ba’zan yuzma-yuz muloqotdan ham samaraliroq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Onlayn muloqotda, insonlar o‘zlarini ehtiyotkorlik bilan ifodalashadi, ya’ni ular o‘z shaxsiyatini ideallash orqali boshqalar bilan aloqada bo‘lishadi. Bu, o‘z navbatida, muloqotning chuqurlashishiga, ko‘proq hissiy aloqalar va ma’naviy bog‘lanishlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Onlayn aloqada anonimlik darajasi yuqori bo‘lishi, odamlarning o‘zlarini ko‘proq ochiq va samimiy tarzda ifodalashiga imkon beradi, bu esa muloqotni yanada rivojlantiradi [4].

Deindividuatsiya nazariyasi (Deindividuation Theory). Ushbu nazariya, raqamli muloqot sharoitida anonimlikning o‘ziga xos ta’sirini tahlil qiladi. Anonimlik va shaxsiy identifikatsiya yo‘qligi odamlarning o‘zini tutishida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Anonimlik darajasi yuqori bo‘lgan holatlarda, odamlar o‘zlarini odatdagidan boshqacha, masalan, agressivroq yoki ko‘proq o‘zini erkin his qiladigan tarzda tutishlari mumkin. Raqamli muloqotda odamlar ko‘pincha o‘zlarini boshqalar uchun qayta shakllantirish imkoniyatiga ega, bu esa ularning real hayotdagi tutgan o‘rni bilan farq qilishi mumkin. Bu nazariya internetdagi nojo‘ya xulq-atvorlar, shuningdek, onlayn trollik va boshqa salbiy ijtimoiy holatlarni tushunishga yordam beradi [3].

Ijtimoiy identifikatsiya va deindividuatsiya effekti (Social Identity and Deindividuation Effect). Martin Li va Rassel Spirs tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model, raqamli muloqotda anonimlik va guruh identifikatsiyasining o‘zaro ta’sirini tushuntiradi. Anonimlik holatida odamlar o‘zlarini guruh a’zosi sifatida ko‘proq identifikatsiya qilishadi va guruh normativlariga ko‘proq rioya qilishlari mumkin. Bu holat, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda kuzatiladi, chunki odamlar o‘zlarining onlayn guruhlariga kirganida, ular guruhning kollektiv xulq-atvorlariga moslashishga intilishadi. Guruhning normativlariga amal qilish, ba’zan individual farqlashlar va o‘zligini ifodalashdan ko‘ra, guruh manfaatlarini ilgari surishni anglatadi. Bu nazariya, ijtimoiy tarmoqlarda guruhlarni tashkil etish va ularning ta’sirini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega [7].

Tahlil va natijalar. Raqamli muloqot, ayniqsa onlayn platformalar orqali odamlar o‘rtasida tezkor va oson aloqalarni taqdim etsa ham, uning salbiy oqibatlari ham bor. Elektron muloqotning ijtimoiy va psixologik ta’sirlari jiddiy bo‘lishi mumkin. Quyida raqamli muloqotning ba'zi salbiy ta'sirlari keltirilgan:

Ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlik. Raqamli muloqotning eng ko‘p kuzatiladigan salbiy ta’sirlaridan biri bu ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlikdir. Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra, uzoq muddat davomida faqat elektron vositalar orqali muloqot qilish, odamlarning haqiqiy ijtimoiy aloqalarini kamaytirishi mumkin. Yuzma-yuz muloqot, albatta, shaxslar o‘rtasidagi hissiy aloqalarni, o‘zaro hurmat va ishonchni rivojlantiradi, lekin raqamli muloqot bunday chuqur aloqalarni ta’minlamaydi. Shuningdek, onlayn aloqalar ko‘proq yuzaki va qisqa muddatli bo‘lishi, odamlarning haqiqiy, samimiy muloqot qilish ehtiyojini qondirmasligi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlikni kuchaytiradi. Odamlar o‘zlarini cheklangan va yolg‘iz his qilishlari, haqiqiy odamlar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar o‘rniga faqat onlayn aloqalarga tayansalar, ijtimoiy muhitdan uzilib qolish xavfi paydo bo‘ladi [9].

O‘zlikni anglash va identifikatsiya muammolari. Raqamli muloqotning yana bir salbiy ta’siri, shaxslarning o‘zlikni anglashini va identifikatsiyasini o‘zgartirishi mumkin. Elektron platformalarda anonimlik va o‘zini ifodalashning cheklangan usullari, insonlarning kimligini aniqlashda qiyinchiliklarga olib keladi. Onlayn muloqotda odamlar ko‘pincha o‘zlarini idealizatsiyalashga, ya’ni o‘zining eng yaxshi versiyasini yaratishga intilishadi. Bu holat, real hayotdagi o‘zligini anglash va aniqlash ja-

rayonida chalkashliklar va qarama-qarshiliklar tug‘dirishi mumkin. Boshqalar bilan raqamli aloqalar orqali o‘zini boshqacha ko‘rsatish, shaxsning haqiqiy kimligini yanada chalkashtirishi, natijada o‘zlikni anglashdagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Anonimlikni ta’minlash uchun odamlar, ko‘pincha, o‘z shaxsiyatining bir qismini yashirishadi yoki bo‘shliqni to‘ldirish uchun idealizatsiyalashgan obrazlar yaratishadi, bu esa ularning o‘zligini yanada noaniq va murakkab qiladi [8].

Fikrlashning cheklanishi. Raqamli platformalarda fikr va ma'lumotlar faqat ma'lum guruhlar yoki qarashlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu “filtrlangan pufakcha” fenomenini yuzaga keltiradi. Ushbu fenomen odamlarning faqat o‘z fikrlariga yoki qarashlariga mos keladigan axborotlarni ko‘rishiga olib keladi. Buning natijasida, ular o‘zlarining fikr doirasiga o‘xshash kontentga, yangiliklarga va muhokamalarga duch kelib, turli fikrlar yoki qarashlarni o‘rganish imkoniyatidan mahrum bo‘lishadi. “Filtrlangan pufakcha” insonlarning dunyoqarashini toraytirib, yangi g‘oyalar va nuqtai nazarlarga nisbatan befarqlikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa, ijtimoiy muhokamalarni va bilim almashish jarayonini cheklab, rivojlanish va innovatsiyalarni to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Natijada, odamlar o‘zlarining cheklangan dunyoqarashlarida qolishlari va kengroq ijtimoiy va madaniy aloqalar o‘rnatish imkoniyatlarini yo‘qotishlari mumkin [5].

Xulosa va takliflar. Raqamli muloqotning ijtimoiy-psixologik transformatsiyasi jamiyatning har bir sohasiga ta’sir qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, an’anaviy yuzma-yuz muloqotdan raqamli muloqotga o‘tish jarayonini tezlashtirdi. Bu o‘zgarishlar odamlarning o‘zlikni anglash, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy munosabatlar shakllanishida yangi imkoniyatlar yaratdi. Biroq, raqamli muloqotning salbiy ta’sirlari ham mavjud bo‘lib, ular orasida ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘izlik, o‘zlikni anglashdagi chalkashliklar va fikrlarning cheklanishi kabi muammolar kuzatilmoqda.

Raqamli muloqotda anonimlik, tezkor axborot almashinuvi va algoritmik filtrlash kabi elementlar odamlar o‘rtasidagi muloqotni murakkablashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga keladigan “filtrlangan pufakcha” fenomeni, foydalanuvchilarni o‘z qarashlariga mos keladigan axborot bilan cheklab qo‘yadi, bu esa dunyoqarashni toraytirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muloqotda noverbal aloqalarning yo‘qligi va samaradorlikni oshirishga qaratilgan qisqa va tezkor muloqot usullari, chuqur va ma’noli aloqalar o‘rniga yuzaki muloqotni rivojlantirishi mumkin.

Raqamli muloqotning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va ijtimoiy-psixologik muammolarni hal qilish uchun muvozanatli yondashuvlar zarur. Bunday yondashuvlar, jamiyatdagi raqamli kommunikatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta’minlashda va salbiy oqibatlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Takliflar:

Shaxslararo muloqotni rivojlantirish**.** Raqamli muloqotning salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun, an’anaviy yuzma-yuz muloqotga ko‘proq e’tibor berish lozim. Raqamli vositalar yordamida yuzaga keladigan yuzaki aloqalarni to‘g‘ri ma’noli suhbatlarga aylantirish uchun onlayn platformalarda ijtimoiy ishtirokni oshirish zarur.

Maxfiylik va xavfsizlikni mustahkamlash. Raqamli muloqotda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va anonimlikni boshqarish muhimdir. Maxfiylikni saqlash bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish va onlayn xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarur.

Sog‘lom raqamli muloqotni rivojlantirish. Ijtimoiy tarmoqlarda ongli muloqotga e’tibor qaratish, foydalanuvchilarga o‘z fikrlarini samimiy va ochiq tarzda ifodalash imkoniyatlarini yaratish, shaxsiy va guruh identifikatsiyasini to‘g‘ri anglashni rivojlantirish muhimdir.

Korporativ va ta’limda raqamli muloqotni optimallashtirish. Raqamli muloqotning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini tahlil qilish uchun ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va korporativ o‘quv kurslarini tashkil etish zarur. Bu, xususan, yoshlar va kattalar o‘rtasida raqamli muloqotning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olish. Raqamli muloqotning ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlikka olib kelishini oldini olish uchun, real va virtual muloqot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. Onlayn aloqalarni haqiqiy, yuzma-yuz muloqotlar bilan qo‘shib, odamlarning ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni yaratish zarur. Shu tarzda, raqamli muloqotning ijtimoiy-psixologik

oqibatlarini tahlil qilish va takomillashtirish orqali biz sog‘lom va samarali muloqot muhitini yaratishga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bahari, L. P. J. (2022). Analisis Teori Psikologi Serta Implementasinya Terhadap Kehidupan Sosial Remaja. Jurnal Pendidikan Sosiologi Dan Humaniora, 13(2), 614. https://doi.org/10.26418/jpsh.v13i2.54674.

2. Biocca, Frank; Harms, Chad; Burgoon, Judee K. (October 2003). “Toward a More Robust Theory and Measure of Social Presence: Review and Suggested Criteria” doi(https://en.m.wikipedia.org/wiki/.

3. Diener, E. (1980). Deindividuation: The absence of self-awareness and self-regulation in group members. In P. B. Paulus (Ed.), The psychology of group influence (pp. 209–242). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.

4. Erin M.Sumner, Artemio Ramirez. Social information processing theory and hyperpersonal perspective. 2017 DOI: 10.1002/9781118783764.wbieme0090.

5. Kowalski, R. M., et al. (2012). Cyberbullying: Bullying in the digital age. Wiley-Blackwell. https://www.apa.org/news/press/releases/2012/08/cyberbullying.

6. Lau, L. J. (2003). Economic growth in the digital era. Retrieved 13 Oct. 2016, from http://web.stanford.edu/~ljlau/Presentations/Presentations/031129.pdf.

7. Lea, M., & Spears R. (1992). Paralanguage and social perception in computer-mediated communication. Journal of Organizational Computing, 2, 321–341.

8. Stern, M. J., & Johnson, T. (2018). Digital Identity and Self-Representation in Online Communities. Journal of Computer-Mediated Communication,23(3),130-147. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/03637751.2017.1325388

9. Shapiro, C. A., & Margolin, G. (2016). The Effects of Social Media Use on Adolescent Mental Health. Journal of Social and Clinical Psychology, 35(5), 453-472. https://www.jstor.org/stable/10.2307/25298724.

Sharopova Zarnigor Tolib qizi
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti

TANQIDIY FIKRLASH VA IJODIY TAFAKKUR FIKRLASH POYDEVORIDIR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz tanqidiylik va ijodkorlikning o'zaro bog'liqligini o'rganamiz,bu o'zaro bog'liqlikni eng murakkab fikrlash darajasida misol qilib ko'rsatish (ya'ni daho), shuningdek, fikrlashning eng oddiy darajasi (oddiy narsani anglash kundalik tajribadagi ob'yektlar)haqida fikr yuritilgan. Tanqidiy va ijodiy fikrlash bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Insonlar fikrlash kengligi va chuqurligini rivojlantirish va intellektual tavakkal qilish uchun aniq yordamga muhtoj. Tafakkurga bunday e'tibor o'quvchilarning o'z-o'zini anglash va mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.Mazkur maqolada tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jamiyatning muvaffaqiyatli, ishonchli va innovatsion a'zolarini rivojlantirishning muhim elementi ekanligi izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash,kognitiv faoliyat, qiyinchilik bosqichi, semantik bosqich,fikrlash bosqichi, ijodiy fikrlash,stereotip,karikatura,egosentrizm,ratsionallik,induktsiya .*

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ — ОСНОВЫ МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. *В этой статье мы исследуем взаимосвязь между критичностью и креативностью, иллюстрируя эту взаимосвязь на самом сложном уровне мышления (т. е. гениальности), а также на самом простом уровне мышления (мышлении о простом осознании объектов в повседневном опыте). Критическое и творческое мышление тесно связаны. Людям нужна конкретная поддержка, чтобы развивать широту и глубину мышления и идти на интеллектуальный риск. Такое внимание к мышлению помогает развивать самосознание и способность рассуждать учащихся. В данной статье объясняется, что развитие навыков критического и творческого мышления является важным элементом развития успешных, надежных и инновационных членов общества.*

Ключевые слова*: критическое мышление, познавательная деятельность, этап трудности, смысловой этап, этап мышления, творческое мышление, стереотип, карикатура, эгоцентризм, рациональность, индукция.*

CRITICAL THINKING AND CREATIVE THINKING ARE THE FOUNDATIONS OF THINKING

Abstract*: In this article, we explore the relationship between criticality and creativity, exemplifying this relationship at the most complex level of thinking (i.e. genius) as well as at the simplest level of thinking (thinking the simple awareness of objects in everyday experience). Critical and creative thinking are closely related. People need specific support to develop breadth and depth of thinking and to take intellectual risks. Such attention to thinking helps to develop students' self-awareness and reasoning ability. This article explains that the development of critical and creative thinking skills is an important element in developing successful, reliable and innovative members of society.*

Key words: *critical thinking, cognitive activity, difficulty stage, semantic stage, thinking stage, creative thinking, stereotype, caricature, egocentrism, rationality, induction.*

Kirish: Tanqidiy fikrlash - bu mavjud faktlar, dalillar, kuzatishlar va dalillarni tahlil qilish, to'g'ri xulosalar chiqarish yoki oqilona tanlov qilishdir. U asosiy taxminlarni tan olish, g'oyalar va harakatlar uchun asoslar berish, turli nuqtai nazarlar bilan taqqoslash orqali ushbu asoslarni baholash va ularning mantiqiyligi va mumkin bo'lgan oqibatlarini baholashni o'z ichiga oladi.Tanqidiy fikrlashning maqsadi ratsional, shubhali va xolis tahlil va baholashni qo‘llash orqali mulohazani shakllantirishdan iborat.

Ijodiy fikrlash qobiliyatlari - bu odamlarga innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarga noyob yechimlarni topish va muammolarga yangi nuqtai nazar bilan yondashish imkonini beradigan

aqliy qobiliyat va usullar. Oddiy qilib aytganda, ijodiy fikrlash qobiliyatlari sizning ijodkorlik uchun vosita to'plami bo'lib, o'ziga xoslik va qobiliyat bilan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Asosiy qism: Hozirgi zamonda tanqidiy fikrlash iborasining qo‘llanilishini Jon Dyui tomonidan kuzatish mumkin, u shaxsning bilim bazasiga bog‘liq bo‘lgan reflektor fikrlash iborasini ishlatgan; Individ ishtirok eta oladigan tanqidiy fikrlashning mukammalligi unga qarab o'zgaradi.Faylasuf Richard V. Polning fikricha, tanqidiy fikrlash va tahlil qilish o‘rganish yoki o‘rgatish mumkin bo‘lgan malakalardir. Tanqidiy fikrlashni qo'llash o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini nazorat qilish va aqlning o'zini o'zi to'g'rilash odatlarini o'z ichiga oladi, chunki tanqidiy fikrlash tabiiy jarayon emas; Muvaffaqiyatli savol-javob va mulohaza yuritish uchun uni induktsiya qilish va jarayonga egalik qilish kerak. Tanqidiy fikrlash egosentrizm va sotsotsentrizmni yengish uchun qat'iy majburiyatni o'z ichiga oladi, bu esa samarali muloqot va muammolarni hal qilishning ongli buyrug'iga olib keladi.

Mutaxassislar uchun ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'pincha qarama-qarshi shakllar bo'lib tuyuladi. Tanqidiy fikrlash - birinchisi irratsional yoki ongsiz kuchlarga asoslangan, ikkinchisi ratsional va ongli jarayonlar; birinchi boshqarib bo'lmaydigan va o'rgatib bo'lmaydigan narsa ikkinchi yo'naltiriladigan va o'rgatish mumkin. Bu fikrda haqiqat bor, lekin juda oz.Undagi haqiqat shundaki, ijodiy daholarni yaratish yoki olishning ma'lum usuli yo'q o'quvchilarni yangi, yangi g'oyalar ishlab chiqarish. ko'rinishlari mavjud biz to'liq tushunmaydigan ijodkorlik. Xuddi shu narsa tanqidiylik shakllariga ham tegishli.

Shunga qaramay, ijodiy va tanqidiy fikrlash uchun bir vaqtning o'zida o'qitish usullari mavjud.Buning uchun biz ushbu atamalarga amaliy, kundalik kontekstda e'tibor qaratishimiz kerak.Biz ularning asosiy ma'nolarini yodda tutishimiz va ular qanday ekanligini tushunishga intilamiz.Biz tanqidiy va ijodiy tushunganimizda chinakam va chuqur o'ylagan, biz ularni ajralmas, yaxlit va deb tan olamiz. Bizning fikrimizcha, ijodiy fikrlash, ayniqsa, mavhumlikni yo'q qilish va olib borish kerak bosqich. Shu sababli, biz ushbu maqolada u bilan nafaqat nuqtai nazardan shug'ullanamiz uning eng yuksak namoyon bo‘lishi (dohiylar ijodida), balki eng kamtarinligida ham namoyon bo'lishi (kundalik idrok va fikrda).

Zamonaviy jamiyatda inson tafakkurining muhim jihatlari sifatida tanqidiy fikrlash (critical thinking) va ijodiy tafakkur (creative thinking) tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda. Bu ikki jarayon o‘zaro bog‘liq holda harakatlanib, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, yangilik yaratish qobiliyati va muammolarni samarali hal qilish layoqatini belgilaydi. Fikrlashning asosiy poydevori sifatida ular har bir ijtimoiy fan, psixologiya, ta’lim va hatto texnologiya sohasida chuqur o‘rganilmoqda.

Tanqidiy fikrlash – bu voqelikni mantiqan, asosli tarzda tahlil qilish, fikr va qarorlarni baholash, dalillarga tayanib xulosa chiqarish jarayonidir. R. Ennis (1987) tanqidiy fikrlashni “o‘z fikrlarini va boshqalar fikrlarini chuqur tahlil qilish, ularga asosli baho berish qobiliyati” sifatida izohlaydi. Shu bilan birga, amerikalik tadqiqotchi D. Halpern (1998) ta’kidlaganidek, tanqidiy fikrlash – bu universal ko‘nikma bo‘lib, u har qanday fanning mazmunidan qat’i nazar, har bir insonda shakllanishi lozim bo‘lgan tafakkur shaklidir.

Ijodiy tafakkur esa mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida yangilik kashf qilish, noodatiy yondashuvlarni ishlab chiqish, stereotiplar doirasidan chiqish qobiliyatidir. E. Torrance (1966) ijodiy tafakkurni insonning yangilik yaratishga bo‘lgan intilishi, savollar berish, faraz qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish jarayoni sifatida talqin qiladi. U ishlab chiqqan "Torrance Creativity Tests" butun dunyoda ijodiylikni o‘lchashda asosiy mezon sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, rus olimlarining izlanishlari ham ushbu masalaga salmoqli hissa qo‘shgan. Masalan, L.S. Vygotskiy tafakkurni sotsial va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilgan holda, ijodiy tafakkurni bolaning hayotiy tajribasi va fantaziyasining sintezidan kelib chiqadigan jarayon deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, ijodiy tafakkur bolalik davridan boshlab rivojlantirilishi lozim bo‘lgan asosiy psixik jarayonlardan biridir. Vygotskiyning “Imaginatsiya va ijodkorlik bolalarda” (1930) asarida keltirilgan g‘oyalari, ayniqsa, pedagogik va psixologik tajribalarda muhim o‘rin egallaydi.

Bundan tashqari, S.L. Rubinshteyn ham fikrlashning murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq qilgan va tanqidiy tafakkurni inson faoliyatining reflektiv (o‘zini anglash) qismiga tenglashtiradi. Unga ko‘ra, har qanday tafakkur faoliyati – bu tashqi muhitga nisbatan ichki reaksiyadir va bu reaksiyaning samaradorligi ko‘proq tanqidiy yondashuvlar asosida shakllanadi.

Tanqidiy va ijodiy tafakkur o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Bu fikrni G. Paul va L. Elder (2006) o‘z tadqiqotlarida ham alohida ta’kidlaydi: “Ijodiy fikr tanqidiy fikrsiz cheksiz tasavvurga aylanadi, tanqidiy fikr ijodiy fikrsiz esa me’yorda takrorlanuvchi va samarasiz holatga tushib qoladi.” Bu g‘oya zamonaviy pedagogikada integrativ yondashuvlarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Howard Gardnerning "Ko‘p intellekt nazariyasi" (1983) ham ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. U tafakkurni bir yo‘nalishda emas, balki musiqiy, mantiqiy, fazoviy, til, tanaviy, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan ko‘rib chiqib, har bir insonda bu ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurni boyitish mumkinligini isbotlagan.

Bugungi kunda ta’lim tizimida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab xalqaro metodikalar mavjud. Masalan, “DeBono’s Six Thinking Hats” – E. De Bono tomonidan ishlab chiqilgan model bo‘lib, u o‘quvchilarning turli yondashuvlarda fikrlashini rag‘batlantiradi: mantiqiy, emotsional, salbiy, ijobiy, kreativ va metako‘rinishda fikrlash.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy va ijodiy tafakkur inson tafakkurining asosiy, ajralmas komponentlari bo‘lib, ular birgalikda shaxsning intellektual va ijtimoiy salohiyatini yuksaltiradi. Xorijiy va rus olimlarining izlanishlari bu ikki tafakkur turi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Ularni shakllantirish esa nafaqat individual o‘sishga, balki jamiyatning innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimlarida ushbu tafakkur turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar strategik ahamiyat kasb etadi.

Fikrlashning mukammal jihatlari. Biz eng oddiy narsalar bilan shug'ullanamizmi ongning intellektual harakatlari yoki eng hayoliy rassom yoki mutafakkirning ijodiy va tanqidiy bir-biriga bog'langan. Bu yaratish aqlning tabiatidir.

Fikrlar, garchi bu ijodning sifati odamdan odamga juda katta farq qiladi

shaxs, shuningdek, fikrdan fikrga. Sifatga erishish standartlarni talab qiladi sifat - va shuning uchun tanqidiylik. Har qanday ma'noni tushunishga harakat qilganda,

odamlar, tabiiyki, qisman bo'lsa ham, uni ma'nolar to'plamiga joylashtirishga intilishini tushunish bo'lishi mumkin. Ular g'oyani bir narsa sifatida tushunishga harakat qilgandao'zi, u ongda ildiz otmaydi. U ma'nolar tizimiga bog'lanmaydi

aql ichida. Muxtasar qilib aytganda, odamlar yaxshi fikrlashlari uchun biz tizimlar ichida o'ylashimiz kerak.Keling, ba'zi asoslardan boshlaylik. Birinchidan, hamma fikrlash bir xil sifat emas. Yuqori sifatli fikrlash - bu o'z oldiga qo'yilgan ishni bajaradigan fikrlash.Bu fikrlash maqsadlarini amalga oshiradi. Agar fikrlashning maqsadi bo'lmasa - agar shunday bo'lsa maqsadsiz - bu mutafakkir uchun qadrli bo'lgan narsani tasodifan topishi mumkin. Ammo tez-tez u shunchaki tahlil qilinmagan assotsiatsiyalarning cheksiz oqimiga kirib boradi. Eynshteyn daho bo'lish belgilarini ko'rsatmadi va kattalar sifatida buni rad etdi.

“Aqlim g'ayrioddiy edi: Menda alohida iste'dod yo'q. Men shunchaki judayam
qiziquvchan”. U Tsyurix politexnika institutiga kirish imtihonini topshira olmadi.
Nihoyat u o'tganida, imtihonlar uning fikrini shunchalik cheklab qo'ydiki, qachon
u bitirgan edi, u bir yil davomida ilmiy muammolar haqida o'ylashni xohlamadi.

Uning yakuniy imtihoni shu qadar noaniq ediki, keyin uni lavozimga topshirish rad etildi,assistent (aspiranturaning eng past darajasi). O'shanda imtihon topshirish emas edi. Tanqidiy va ijodiy fikrlash edi.Eynshteyn muammolarni o'lchamgacha qisqartirish uchun asosiy tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega edi:“Uning eng katta intellektual qobiliyatlaridan biri kichik va katta masalalarda ham edi muammodan ahamiyatsiz burilishlarni olib tashlang."Ushbu uch mutafakkirning ishlarini ko'rib chiqsak, Nyuton, Darvin vaEynshteyn, biz aql bovar qilmaydigan, daho aqlni emas, balki mutafakkirlarni topamiz.Ehtirosli, ammo ezoterik bo'lmagan tanqidiy va ijodiy fikrni birlashtirgan,haqiqatga intilish.Ijodkorlik - sirli emas.Ijodkorlar tarixini sinchkovlik bilan o'rganish, biz ishonamiz tanqidiy va ijodiy fikr bir-biri bilan chambarchas bog'liq, degan markaziy da'vomiz. Har biri ikkinchisi cheklangan foydalanishga ega. Tanqidiyliksiz ijod shunchaki yangilikdir.Ijodkorliksiz tanqid - bu yalang'ochlik kabi salbiy. Tug'ma iqtidor bo'lishi mumkin emas,ba'zi yetishtirish va atrof-muhit yordamisiz ishlab chiqilgan. Masalan,Eynshteyn hech qachon dunyoning eng buyuk olimlaridan biriga aylana olmasdi. U Sahroi Kabirda tug'ilgan,uni mutlaq qashshoqlikda yashaydigan ona motivatsiya orqali va qo'llab-

quvvatlash, ham oqilona, ham o'ziga xoslik orqali rag‘batlantirdi - intellektual jasorat haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Xulosa: odatda ishdagi ijodkorlikni illyustratsiya, grafik dizayn va sahna san'ati kabi badiiy ishlar bilan bog'lashadi. Biroq, ko'pchilik o'zlarining ish jarayonlariga ijodkorlikni qo'shishdan foyda olishlari mumkin. Ijod mashqlari yangi g'oyalarni kashf qilish va umumiy ijodkorlikni yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi, shuning uchun ko'nikmalaringizni kengaytirish uchun foydalanishingiz mumkin bo'lgan turli xil faoliyat turlari haqida bilish muhimdir. Ijodiy mashq - bu rasm chizish yoki raqsga tushish kabi o'ziga xos ijodiy qobiliyatni takomillashtirishdan ko'ra, muammoni hal qilish, muloqot va innovatsiya kabi ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan ixtirochilik tashabbusidir. Ijodkorlik mashqlari yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ijodiy fikrlashni kengaytirish uchun qog'oz va qalam, qurilish materiallari, topilgan narsalar yoki boshqa narsalardan foydalangan holda ko'p modali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati.

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. O‘RQ-637-son 23. 09. 2020. Ta’lim to‘g‘risida (lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – C. 69.
4. Abdullayeva Q., Ochilov M., Nazarov K., Fuzailov S., Bikboyeva N. Boshlang_ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. – T.: OzPFITI, 1994. – 29 b. 5. Адизов Б. Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фан. док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.
5. Hamroyev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
6. Hamroyev R.A Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
7. Hamroyev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students
8. Hamroyev R.A Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish (Ped.fan.dok. diss.). Buxoro; 2020.
9. Qo‘ldoshev, R. A. “Assistant pedagogue to children left-handed reading in the last year.” Globe Edit.–2020 (2020).
10. Qo‘ldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 4981-4988.
11.Sharopova Z.T. Boshlang‘ich sinf ona tili savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish/"Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal №3. 285-289 betlar.
12.Sharopova Z.T.Ona tili savodxonligi darslarida o‘quvchilarning 4K modeli asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi//“Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 6.73-76-betlar
13.Sharopova Zarnigor Tolibovna, Development of Critical Thinking Skills through the 4k Method in Primary Class Students// Journal of intellectual property and human rights.2024 104-107.

Shomamatova Kamola Elmurod qizi
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti magistranti
Email: kamolashomamatova6@gmail.com

O‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANISHINING YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlarda psixologik savodxonlikni shakllanishining yosh va psixologik xususiyatlarining ilmiy-nazariy tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, o‘smirlar orasida psixologik savodxonlikning ahamiyati tahlil qilinadi. O‘smirlarning psixologik savodxonligi ijtimoiy va hissiy rivojlanishida hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. O‘smirlarning psixologik savodxonligini shakllantirishning muhim psixologik va didaktik sharti sifatida tadqiqotlarda tahlili o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlar, psixologik savodxonlik, didaktik shart, ijtimoiy rivojlanish, hissiy rivojlanish, sotsial intellekt, ilmiy-nazariy tahlil, metakompetentsiya, rolli o‘yin.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE AGE AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN ADOLESCENTS

Annotation. *The article highlights the scientific-theoretical analysis of the age and psychological characteristics of the formation of psychological literacy in adolescents. The importance of psychological literacy among adolescents is also analyzed. Data has been cited on the importance of adolescent psychological literacy in the educational process in the social and emotional development of adolescents. The analysis of adolescents as an important psychological and didactic condition for the formation of psychological literacy has been studied in studies.*

Keywords: *adolescents, psychological literacy, didactic condition, Social Development, emotional development, social intelligence, scientific-theoretical analysis, metacompetence, role-playing game.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОЗРАСТНЫХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье представлен научно-теоретический анализ возрастных и психологических особенностей формирования психологической грамотности у подростков. Также анализируется важность психологической грамотности среди подростков. Приведены данные о значении психологической грамотности подростков в их социальном и эмоциональном развитии, а также в образовательном процессе. Анализ подростковой психологической грамотности как важного психологического и дидактического условия формирования изучен в исследованиях.*

Ключевые слова: *подростки, психологическая грамотность, дидактическая предпосылка, социальное развитие, эмоциональное развитие, социальный интеллект, научно-теоретический анализ, метакомпетентность, ролевая игра.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda bolalar va o‘smirlarning psixologik salomatligi dolzarb muammodir. Shaxsning psixologik farovonligining asosiy mexanizmi - bu shaxsning psixologik madaniyati. Bu o‘ziga xos aqliy faoliyat bo‘lib, o‘zlashtirish natijasi o‘smirda ijobiy “men” tuyg‘usini shakllantirish, uning hissiy farovonligini oshirish, mustaqillik, o‘zini va boshqalarni qabul qilish, tashvish darajasini pasaytirishdir. O‘smirlik davri insonning psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davrdir. Bu davrda o‘smirlar nafaqat intellektual, balki sotsial intellektni ham shakllantiradilar. Sotsial intellekt, boshqalar bilan muloqot qilish va ularning hissiyotlarini tushunish qobiliyati bo‘lib, psixologik savodxonlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik savodxonlik shakllanishida psixologik madaniyatga ega bo‘lish rivojlanayotgan shaxsga o‘z hayotining mazmunliligini, o‘z shaxsiyatlarining ma’naviyatini his qilish imkonini beradi. Psixologik madaniyat o‘smirlarga o‘z ichki dunyosini bilish, hayot yo‘lingizni tanlash va eng muhimi - hayotdan qoniqish olish imkonini beradi. Psixologik madaniyat u yoki bu jihatdan shaxsning umumiy “asosiy” madaniyatining bir qismi sifatida ko‘rib chiqiladi, unda insoniyatning o‘zini o‘zi bilish darajasi, insonning atrofdagi odamlarga, o‘ziga va tabiatga bo‘lgan munosabati darajasi aks etadi.

Adabiyotlar tahlili. Psixologik savodxonlik olimlar tomonidan elementar psixologik bilim va malakalar majmui sifatida qaraladi. U psixologik madaniyatning asoslarini ifodalaydi, yoshi, individual va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanadi. Psixologik savodxonlik - bu psixologik bilimlarni (faktlar, g‘oyalar, tushunchalar, qonunlar va boshqalar), ko‘nikmalar, ramzlar, an’analar, munosabatlar, xatti-harakatlar, aqliy faoliyat va boshqalar sohasidagi qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirishni anglatadi boshqa odamlar bilan birga, ommaviy axborot vositalaridan olingan va hokazo. Psixologik savodxonlik belgilar tizimi va ularning ma’nolarini, faoliyat usullarini, xususan, psixologik bilish usullarini o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, biz nafaqat bilim, balki uni qo‘llash, rolli xatti-harakatlar, ijtimoiy funktsiyalar va an’analar darajasida norma va qoidalarni amalga oshirish haqida gapiramiz. Umumiy psixologik savodxonlik - bu normal rivojlanayotgan har bir inson uchun ochiq bo‘lgan madaniyatni o‘zlashtirish bosqichidir. [1. 263].

S.L.Kolmagorova tadqiqotlarida psixologik savodxonlikning maqsadli shakllanishi sharoitida o‘smir o‘quvchilar nafaqat psixologik bilim va ko‘nikmalar darajasini oshiribgina qolmay, balki motivatsion-ehtiyoj sohasida va o‘z-o‘zini anglashda sifat o‘zgarishlarini ham rivojlantiradilar. [2. 346]

Psixologik savodxonlik deganda shaxsning subyektiv dunyosini tavsiflovchi faktlar va qonuniyatlarni anglash tushuniladi. Psixologik savodxonlik - bu insonga o‘zi va boshqalar bilan ongli va oqilona munosabatda bo‘lish, o‘zining individual imkoniyatlari va xususiyatlarini bilish, tushunish va hisobga olish imkonini beradigan psixologik bilim va vositalardir. [3. 154]

Krenni, Botvud va Morris psixologik savodxonlikni har tomonlama o‘rganishda psixologik savodxonlikni «shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun psixologiyani moslashuvchan va qasddan qo‘llashning umumiy qobiliyati» va global fuqarolikni «global o‘zaro bog‘liqlikni tushunish, va global hamjamiyatlarning a’zosi sifatida yashash, ishlash va ijobiy hissa qo‘shish qobiliyati» (p.iv). Ular Avstraliyada umumiy oliy ta’lim (HE) va xususan psixologiya ta’limi va ta’limi sohasidagi milliy va xalqaro o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan asosiy masalalarni taqdim etadilar. Psixologik savodxonlik va psixologik savodli fuqarolik tushunchalarini kiritish Avstraliya va Amerika Qo‘shma Shtatlarida jadal rivojlanmoqda. Bundan tashqari, Cranney va Dunn psixologik savodxonlik va psixologik savodli fuqaro tushunchalarini keng tarqatish va misollar bilan qo‘llab-quvvatlash orqali aniq ifodalanishi kerakligini taklif qiladi. Ushbu qo’llanma Buyuk Britaniyadagi akademik psixologik hamjamiyat uchun tushunchalar haqida tushuncha berish va ularni Psixologiya bakalavriat o‘quv dasturi doirasida qanday qo’llash mumkinligini ko‘rsatish orqali qondirishga qaratilgan. Bu talabalar, bitiruvchilar va ilmiy xodimlar uchun psixologik savodxonlik va psixologik savodxonlik muhimligini belgilaydi. Qo‘llanma quyidagicha tashkil etilgan: birinchidan, psixologik savodxonlikning ishga joylashish va global psixologik savodxonlik fuqaroligi uchun muhim bo‘lgan yo‘llari yoritilgan, ikkinchidan, psixologik savodxonlikni rivojlantirishni ko‘rsatish mumkin bo‘lgan psixologiya o‘quv dasturi doirasidagi misollar keltirilgan. [4. 251]

Ta’lim tizimi jamiyatda o‘smirlarning psixologik savodxonligini oshirish muammosini hal qilishda shubhasiz ustuvor vazifaga ega, chunki aynan ta’lim shaxsning o‘zini o‘zi bilish qobiliyatini rivojlantirish, madaniyatni yaratish va o‘zgartirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, psixologik madaniyatning, psixologik savodxonlikning o‘sishi pedagogik mutaxassisliklar vakillari uchun alohida ahamiyatga ega, ammo bu masala bo‘yicha tadqiqotlar hozircha yetarli emas. Pedagogik muloqot orqali amalga oshiriladigan, o‘qitish va tarbiyalash funktsiyalari bir butunga birlashtirilgan o‘qituvchining kasbiy faoliyati nafaqat o‘quvchilarni jamiyat madaniyati bilan tanishtirishni ta’minlaydi, bu esa talabalarning ma’lum darajada o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi, balki o‘quvchilar tarbiyasi bilan ifodalangan kelajak avlodlarning to‘liq shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchining psixologik savodxonligi bo‘lmasdan,

o‘qituvchi bilan muloqotning osonlashtiruvchi funksiyasini amalga oshirish mumkin emas, bu esa mazmunli o‘rganishni rag‘batlantirishni, o‘quvchining o‘zini o‘zi rivojlantirishini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar. Shaxsning psixologik savodxonligini rivojlantirish muhitida metakompetentsiyalar o‘z-o‘zini rivojlantirish, psixologik savodxonlikni o‘zgartirish va faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlash uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. «Psixologik savodxonlik» tushunchasining mazmuni uning psixologik savodxonlik va kompetentsiya xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini bilish, muloqot samaradorligini oshirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish maqsadida kundalik hayotda foydalanish istagi va qobiliyatidir. Psixologik savodxonlik o‘zaro ta’sirning bag‘rikenglik xususiyatini, tushunish istagini, bag‘rikenglik qobiliyatini, insonning hissiy sohasining nozikligi va boyligini, empatiyani belgilaydi. U shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashning chuqur o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ushbu muammoni hal qilish o‘smirlarni birinchi navbatda, psixologik savodxonlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuni ta’kidlash kerakki, agar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘qitish doirasida psixologik madaniyatni rivojlantirish ta’limning ajralmas qismidir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bolalarga kognitiv faoliyatni boshqarish va tashkil etishning turli usullari haqida shunchaki ma’lumot berish etarli emas. Har bir bola uchun ushbu usullarni qo‘llashga harakat qilish kerak, o‘zingiz uchun “ularni sinab ko‘ring”, uning individual xususiyatlariga mos keladigan eng qulayini tanlang. Bularning barchasi maxsus psixologik va pedagogik ishlarni talab qiladi, bunda o‘qituvchi va o‘smirlarning birgalikdagi faoliyatida haqiqiy amaliyot uchun ahamiyati aniqlangan tegishli ilmiy mazmundagi materialni muhokama qilish kerak.

Psixologik savodxonlikni oshirish, o‘quv materialini yodlash uchun ko‘proq individual texnika va usullarni bilish va ulardan foydalanish uchun quyidagicha usullarni qo‘llash samarilidir:[5. 37]

- o‘smirlarning xotirasining individual xususiyatlarini, shuningdek, mnemonik faoliyatni samarali tashkil etish usullarini qo‘llash;

- psixika faoliyatining umumiy qonuniyatlari to‘g‘risidagi bilimlar, shuningdek, o‘zining individual psixologik xususiyatlarini bilish o‘smirlarda o‘zining individual o‘quv ish uslubini rivojlantirish, xususan, mnemonik faoliyatning optimal usullarini aniqlash va sinab ko‘rish imkoniyatini oshiradi.

Psixologik savodxonlik ijtimoiylashuv va madaniyat tufayli bolalik davrida ontogenetik rivojlanish jarayonida tabiiy ravishda rivojlanadi. [6. 12] Psixologik savodxonlik mazmuni, mehnat qonuniyatlari, turli aqliy jarayonlarning individual xususiyatlari to‘g‘risidagi ilmiy bilimlarni bilish o‘smirlarga o‘zi uchun eng samarali bo‘lgan usullarni va tarbiyaviy ish usullarini o‘zlashtirish ishiga ongli ravishda, maqsadli ravishda jalb qilish, har bir kishi uchun o‘quv ishining individual uslubini rivojlantirishga kirishish imkoniyatini beradi.

Psixologik savodxonlik – o‘zi haqida, boshqalar haqida, atrofdagi dunyo va ular o‘rtasidagi munosabatlar haqida bilim va ma’lumotlarning borligi agar insonda psixologik savodxonlik bilan bog‘liq muammolar bo‘lsa, ko‘pincha quyidagi so‘z va ifodalarni qo‘llaydi:

- tushunmadim;
- men bilmas edim:
- men shunday deb nomlangan deb o‘ylar edim;
- agar men munosabatlarda minimal darajadan pastga cho‘kmaslik kerakligini va inson shaxsiy hamda ijtimoiy jihatdan maksimal darajadan yuqoriga ko‘tarilmasligi kerakligini balsam edi, unda ehtimol bu muammolar bo‘lmasmidi.

Umuman olganda psixologik savodxonlik - o‘zaro munosabatlar subyekti sifatida o‘zi haqida, o‘zgalar haqida munosabatlar obyekti sifatida, obyekt va subyekt to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar to‘g‘risida, insonning yashash obyektiv realligi va shaxsning dunyo bilan aloqasi to‘g‘risida ma’lumot va bilimlar.

Tadqiqot natijalari ko‘ra, o‘quv ko‘nikmalarining asoslari ta’limning quyi sinflarida, bolalar ta’lim faoliyatini tizimli o‘zlashtira boshlaganlarida shakllanishi kerak. Ta’limning keyingi bosqichlarida takomillashtirilgan va sayqallangan bu davrda olingan ko‘nikmalar va tarbiyaviy ish usullari insonning butun umri davomida saqlanib qoladi. Ushbu ko‘nikmalar kasbni egallashga va uni takomillashtirishga

yordam beradi, turli xil ma'lumotlar oqimida harakat qilish, atrofimizdagi hayotdagi o'zgarishlardan xabardor bo'lish va har qanday yoshda zamonaviy inson bo'lishga imkon beradi.

O'smirlarning psixologik savodxonligi, aqliy jarayonlarning ongliligi va o'zboshimchaliklarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, ularning universal ta'lim faoliyatini o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu pozitsiya o'smirlarning psixologik savodxonligini shakllantirishning muhim psixologik va didaktik sharti sifatida qaraladi.

Psixologik savodxonlikni shakllantirish texnologiyasi quyidagi maqsadlarga qaratilgan ta'lim vazifalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi: [7. 129]

- o'smirlarning shaxsiy hayotiy tajribasiga murojaat qilish;
- amaliyotga yo'naltirilgan vaziyatlardan foydalanish;
- o'smirlar kognitiv, ijtimoiy, psixologik aks ettirishini rivojlantirish;
- ijobiy o'z-o'zini hurmat qilish, bag'rikenglik va empatiyani rivojlantirish, boshqa odamlarni va ularning ehtiyojlarini tushunish, boshqa odamlarning qobiliyatlari va kuchli tomonlarini tan olish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Psixologik savodxonlikni rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarida psixologik ta'lim dasturlari ko'plab tadqiqotlar va eksperimentlar orqali amalga oshirilgan. Bu dasturlar o'smirlarni psixologik bilimlar bilan tanishtirib, ularning hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Psixologik ta'lim dasturlarining o'smirlarning psixologik savodxonligi va sotsial intellektini oshirishdagi samaradorligini ko'rsatdi. Psixologik savodxonlikning o'smirlarning ruhiy salomatligiga ta'siri ham muhim tadqiqot mavzusidir. O'smirlarda psixologik savodxonlik yuqori bo'lsa, ruhiy muammolar, masalan, depressiya va bezovtalik darajasi past bo'lishi ko'rsatilgan. Bu tadqiqotlar psixologik savodxonlikni oshirish ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam berishini ta'kidlaydi.

Xulosa. Haqiqiy va ishonchli ma'lumot manbalarini qidirish uchun adabiyotlarni qanday aniqlash va ularni to'g'ri tan olishni tushunish, biz uchun har qachongidan ham ko'proq ma'lumot mavjud bo'lgan va plagiat natijasida sud jarayonlari keng tarqalgan tez o'zgarib borayotgan XXI-asrda barcha uchun muhim ko'nikmalardir. O'smirlarni yangi texnologik yutuqlarga moslasha olishlari, yangi bilimlarning kashfiyotidan xabardor bo'lishlari, yangi global muammolarga moslashuvchan bo'lishlari va mustaqil ravishda o'qishni davom ettirishlari va rivojlanishda davom etishlari juda muhimdir. Ayniqsa turmush tarzi va ish uslubidagi o'zgarishlarni boshqarishda psixologik savodxonlikni o'rni juda muhim. Psixologiya bo'yicha tadqiqot usullari turli muammolarni o'rganish uchun juda mos keladi va turli muammolarni hal qilishda qo'llanilishi mumkin, shuning uchun psixologik savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan bitiruvchi tez rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi pozitsiyaga ega bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim makonini shakllantirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy psixologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifasi psixologik fan uchun ham, amaliyot uchun ham shubhasiz qiziqish uyg'otadi. Jamiyat madaniyati inson psixikasi rivojlanishining eng muhim sharti, vositasi va omilidir. Psixologik madaniyat insonning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zini o'zi anglashi, muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi va hayotidan qoniqishiga yordam beradi. O'smirlarda psixologik savodxonlikni oshirish uchun turli strategiyalar, masalan, rolli o'yinlar, psixologik treninglar va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar keng qo'llanilmoqda. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'smirlar o'zaro aloqalarini yaxshilash va hissiy muammolarni hal qilishda ushbu strategiyalardan samarali foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Колмогорова Л.С. Повышение психологической культуры учащихся как проблема современного среднего образования // Формирование психологической культуры личности в системе дополнительного образования детей / Под ред. А.В. Егоровой, И.М. Каманова, М.В. Поповой. М., 2006. – 263 с.

2. Колмогорова Л.С. Диагностика психологической культуры школьников: Практическое пособие для школьных психологов. М., 2002. – 346 с.

3. Климов Е.А. О профессиональной культуре психолога и психологической грамотности социальной среды // Климов Е.А. Введение в психологию труда. М.,1998 – 154 с.

4. Cranney, J. and Morris, S. (2011) Adaptive cognition and psychological literacy. In J. Cranney and D. S. Dunn (Eds.). The Psychologically Literate Citizen: Foundations and Global Perspectives (pp. 251-268).

5. Федеральный закон «Об образовании в Российской Федерации» (26 декабря 2012 г.); Федеральный Государственный Образовательный Стандарт основного общего образования (17 декабря 2010 г.). – 37 с.

6. Семикин В.В. Психологическая культура в педагогическом взаимодействии: Автореф. дис. … д-ра психол. наук. СПб., 2004. – 12 с.

7. Fayzullayev, M. (2023). O‘smirlarda psixologik savodxonlik konstruksiyalari. Академические исследования в современной науке, 2(19), 129–133.

Sirojiddinova Firuza Xosilbekovna
ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

OILAVIY MUHIT VA MEHNAT FAOLIYATI MUVOZANATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning ahamiyati, bu muvozanatni saqlashda ishlovchilar va ish beruvchilarning roli, shuningdek, oilaviy mas'uliyatlarning ish faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy va ish faoliyati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish va ular o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.*

Kalit so'zlar*: oilaviy muhit, mehnat faoliyati, ishlovchilar, ish beruvchilar, faoliyat, mehnat sharoitlari*

СЕМЕЙНАЯ ОКРУЖЕНИЕ И БАЛАНС МЕЖДУ РАБОТОЙ И ЛИЧНОЙ ЖИЗНЬЮ

Аннотация*. В данной статье рассматривается важность баланса между семейной средой и трудовой деятельностью, роль работников и работодателей в поддержании этого баланса, а также влияние семейных обязанностей на трудовую деятельность. Основная цель исследования заключается в анализе взаимосвязей между семейной и трудовой деятельностью и разработке практических рекомендаций для поддержания баланса между ними.*

Ключевые слова*: семейная среда, трудовая деятельность, работники, работодатели, деятельность, условия труда*

FAMILY ENVIRONMENT AND WORK-LIFE BALANCE

Abstract*. This article examines the importance of balance between family environment and labor activity, the role of employees and employers in maintaining this balance, as well as the impact of family responsibilities on labor activity. The main goal of the research is to analyze the relationship between family and labor activity and to develop practical recommendations for maintaining a balance between them.*

Keywords: *family environment, labor activity, employees, employers, activity, working conditions*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ish va shaxsiy hayotning uyg'unligi, ya'ni oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ularning o'zaro bog'liqligi, nafaqat xodimlarning professional hayoti, balki shaxsiy va oilaviy hayoti uchun ham beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda mehnat sharoitlari, ish vaqtining uzunligi va ishga bo'lgan talablar doimo o'sib bormoqda, bu esa oilaviy hayot bilan ish faoliyatining uyg'unligini ta'minlashni yanada murakkablashtirmoqda. Oilaviy mas'uliyatlar va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning saqlanishi xodimlarning umumiy farovonligi, ruhiy va jismoniy salomatligi, shuningdek, mehnat samaradorligi uchun juda muhimdir. Ish va shaxsiy hayotning uyg'unligi, odamlarning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash, shuningdek, ularning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, oilaviy muhitning xususiyatlari, mehnat sharoitlari, va ish joyidagi ehtiyojlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish, ilgari surilgan ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarni inobatga olish zarurati mavjud.

Mazkur maqolada oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning dolzarbligi, bu sohadagi mavjud muammolar va ularga yechimlar taqdim etiladi. Tadqiqot asosida oilaviy hayotning ish faoliyatiga ta'siri va aksincha, ishning shaxsiy hayotga bo'lgan ta'sirini aniqlashga harakat qilinadi.

Ishning mohiyati. Oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning mohiyati, avvalo, inson hayotining ikki eng muhim sohasi — ish va oilaning uyg'unligidan iboratdir. Oilaviy muhit, oiladagi a'zolar, oilaviy mas'uliyatlar, do'stlar va shaxsiy hayotga bo'lgan ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu faktorlar xodimning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ish faoliyati ham o'ziga xos talablar, stress va mehnat sharoitlari bilan, oilaviy muhitni rivojlantirish yoki buzish uchun muhim omil bo'lishi mumkin. Odamlar o'rtasida oilaviy mas'uliyatlar va mehnat faoliyatining uyg'unligi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, ish faoliyatining samaradorligini oshirish va umumiy

farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Oilaviy mas'uliyatlar, ayniqsa ota-ona, bolalar va boshqa oilaviy a'zolarga g'amxo'rlik qilish kabi majburiyatlarni o'z ichiga olgan holda, ishning sifatini, ishga qiziqish darajasini va xodimlarning umumiy ruhiy salomatligini ta'sir qiladi. Boshqa tomondan, mehnat faoliyati ko'plab shaxsiy va oilaviy hayotdagi ehtiyojlarga to'sqinlik qilishi mumkin, bu esa oilaviy muvozanatni saqlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Oilaviy mas'uliyatlar va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning saqlanishi nafaqat individual darajada, balki jamiyatda umumiy farovonlikni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Oilaviy mas'uliyatlar, oiladagi a'zolar (ota-ona, bolalar, qariyalar) bilan aloqalar, uy ishlarini bajarish, oilaviy muammolarni hal qilish va shaxsiy ehtiyojlarni qondirishni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, mehnat faoliyati, xodimning ish joyidagi majburiyatlari, kasbiy rivojlanish, ishni bajarish va mehnat vaqtini boshqarishni talab qiladi.

Shu bilan birga, oilaviy mas'uliyatlar va mehnat faoliyatining uyg'unlashuvi muhimdir, chunki ular bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Misol uchun, oiladagi muammolar yoki bolaga g'amxo'rlik qilish majburiyatlari, ish joyidagi stress va ortiqcha ish yuklamasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa xodimning ishda samaradorligini kamaytiradi. Aksincha, ish faoliyatidagi yutuqlar va muvaffaqiyatlar oilaviy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki bu shaxsning ruhiy holatini yaxshilaydi va oilaviy aloqalarni mustahkamlaydi

Mehnat faoliyati va oilaviy muhit o'rtasidagi muvozanatni buzilishi, ko'plab salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ishda haddan tashqari ortiqcha yuklama, stress va vaqtning etishmasligi oilaviy hayotda konfliktlarga, oilaviy aloqalarning yomonlashuviga va ruhiy salomatlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Aksincha, oilaviy mas'uliyatlarning haddan tashqari yuklanishi, ishda samaradorlikning pasayishiga va motivatsiya yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlash nafaqat xodimlarning professional faoliyatini, balki jamiyatda umumiy farovonlikni ham ta'minlaydi. Bu muammo, ayniqsa zamonaviy iqtisodiyotda ayollar va erkaklar o'rtasida gender tenglikni ta'minlash, ota-onalar uchun moslashuvchan ish rejimlarini joriy etish va ish joyida oilaviy mas'uliyatlarni qo'llab-quvvatlash kabi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodi. Ushbu tadqiqotda, oilaviy muhit va mehnat faoliyatining o'zaro ta'sirini o'rganish uchun sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari qo'llanilgan. Tadqiqot metodologiyasida quyidagi yondashuvlar foydalanilgan:

Tadqiqotning birinchi bosqichida, oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida ishtirokchilardan (xodimlar va boshqaruvchilar) so'rovnomalar olingan. So'rovnomalarda ishtirokchilar oilaviy mas'uliyatlarini, oilaviy hayotdagi o'zgarishlar va ish joyidagi sharoitlar ish va oilaviy hayotdagi vaqtni boshqarish tajribalarini va muvozanatni saqlashda duch kelgan qiyinchiliklarni ko'rsatib berdilar.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ishtirokchilarni aniqlash uchun so'rovnoma o'ttiz ta respondentlar bilan olingan. So'rovnomalar, xodimlarning oilaviy mas'uliyatlari va ish faoliyatining o'zaro ta'siri haqida ma'lumot olishni maqsad qilgan. Ishtirokchilar oilaviy hayotdagi o'zgarishlar va ish joyidagi sharoitlarni qanday qabul qilayotganlarini ko'rsatib berdilar.

Intervyular orqali ishtirokchilardan oilaviy va ish faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tahlil qilish maqsadida ularning shaxsiy tajribalari va fikrlari olingan. Bu metod ishning psixologik va ijtimoiy ta'sirlarini yanada batafsilroq o'rganishga yordam berdi.

Olingan ma'lumotlar asosida statistik tahlil o'tkazildi. Bu tahlil ishtirokchilarning oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqalarni va ularning o'zaro ta'sirini aniqlash uchun ishlatilgan. Ma'lumotlar turli xil o'zgaruvchilar (masalan, ish vaqti, oilaviy mas'uliyatlar, motivatsiya darajasi) orasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.

Tahli. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning buzilishi odamlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Xodimlarning oilaviy mas'uliyatlari, ayniqsa bolalar yoki qariyalarga g'amxo'rlik qilish, ish vaqtining samaradorligini pasaytiradi. Bu, o'z navbatida, kompaniya samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda shuningdek, mehnat soatlari, ish joyidagi psixologik muhit, va ish va oilaviy mas'uliyatlar o'rtasidagi moslashuvchanlik darajasi o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy mas'uliyatlar va

mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Xodimlarning oilaviy mas'uliyatlari, ayniqsa bolalar yoki qarindoshlariga g'amxo'rlik qilish zarurati, ish faoliyatining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, ishdagi ortiqcha yuklamalar va stress oilaviy hayotga ta'sir qilishi va o'zaro munosabatlarni yomonlashtirishi mumkin. Tadqiqotda ishtirok etganlarning 65% oilaviy mas'uliyatlarning ishga ta'siri mavjudligini ta'kidlagan.

Bundan tashqari, mehnat faoliyatining oilaviy mas'uliyatlarga ta'siri ham o'zgaruvchan. Ko'plab xodimlar ish joyida o'z ish vaqtini moslashuvchan tarzda boshqarish, masofaviy ish usullaridan foydalanish va oilaviy muhitni qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini izlashga intiladilar.

Tadqiqotda shuningdek, oilaviy mas'uliyatlar va ish faoliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlashda ish beruvchining roli muhimligi ta'kidlandi. Mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish joyida moslashuvchanlikni ta'minlash va xodimlarning oilaviy ehtiyojlarini hisobga olish kompaniya samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, xodimlarning ish faoliyatiga nisbatan qarashlari oilaviy mas'uliyatlar bilan uyg'unlashishi muhim ahamiyatga ega. Oilaviy muhitda mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlash va o'zaro hurmatni saqlash, xodimlarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ish joylarida mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarga moslashuvchan ish rejimlari taqdim etish, va ularning oilaviy hayotiga mos keladigan qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish orqali oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlash mumkin.

Amaliy tavsiyalar. Moslashuvchan ish rejimlari: Xodimlarga masofaviy ish, ish vaqti moslashuvchanligi va qisqa ish haftalari kabi imkoniyatlarni taqdim etish, ularning oilaviy mas'uliyatlarini bajarish va ish faoliyatini samarali tarzda olib borish imkonini beradi.

Ish joylarida qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish: Ish joyida oilaviy muhitni qo'llab-quvvatlash uchun xodimlarga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Ish va oilaviy mas'uliyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun kompaniyalar siyosatini o'zgartirish: Kompaniyalar ish joyida oilaviy muhitni hisobga olgan holda, xodimlarning oilaviy mas'uliyatlarini qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar ishlab chiqishlari kerak.

Xulosa. Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki oilaviy muhit va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlash, nafaqat xodimlarning ish samaradorligini oshiradi, balki ularning ruhiy va jismoniy salomatligini ham yaxshilaydi. Shu sababli, ish beruvchilar va davlat bu masalani jiddiy e'tiborga olib, moslashuvchan ish rejimlari, oilaviy mas'uliyatlarni qo'llab-quvvatlash va ish joylarida yaxshi sharoitlar yaratishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Bu, nafaqat xodimlarning hayot sifatini yaxshilash, balki jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mehnat va shaxsiy hayotning muvozanatini saqlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nafaqat ish joyidagi motivatsiyani oshiradi, balki jamiyatda umumiy farovonlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Oilaviy mas'uliyatlar va mehnat faoliyati o'rtasidagi muvozanatni saqlash xodimlarning ish samaradorligini oshirish, ularning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash va umumiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ish beruvchilar va davlat bu masalani jiddiy e'tiborga olib, moslashuvchan ish rejimlari, oilaviy mas'uliyatlarni qo'llab-quvvatlash va ish joylarida yaxshi sharoitlar yaratishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Bu, nafaqat xodimlarning hayot sifatini yaxshilash, balki jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Tursunov, D. M. Oilaviy muhit va mehnat faoliyatining uyg'unligi: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2019 yil, 150 bet.

2. Shodmonov, X. A**.** Mehnat faoliyati va oilaviy muhit: o'zaro ta'sir va muvozanatni saqlash usullari. Toshkent: "Fan" nashriyoti. 2020 Yil.180 bet.

3. Rahimov, R. S. Ish va oilaviy hayot o'rtasidagi muvozanat: ijtimoiy va psixologik yondashuvlar. Samarqand: "Universitet" nashriyoti.2021 yil. 210 bet.

4. Qodirov, S. F**.** Ish va oilaviy mas'uliyatlar: muammolar va yechimlar. Toshkent: "Navbahor" nashriyoti. 2018 yil.120 bet.

5. Jabborov, M. K. Mehnat va oilaviy faoliyatning uyg'unligini ta'minlashda psixologik omillar. Buxoro: “Buxoro universiteti” nashriyoti. 2022 yil. 160 bet.

6. Bojiev, A. A. Oilaviy muhit va mehnat faoliyatini muvozanatlash uchun innovatsion yondashuvlar. Toshkent: “O’zbekiston milliy universiteti” nashriyoti.2020 yil. 170 bet.

7. Korneychuk, V. Ish va oilaviy hayotning muvozanati: psixologik yondashuvlar. Psixologiya va jamiyat, 15(4), 2020 yil. 123-134.

8. Smith, J., & Jones, A. Work-life balance: Challenges and solutions for the modern worker. International Journal of Business and Management, 12(3), 2019 y, 45-59.

9. Soboleva, E., & Petrov, M. Family responsibilities and their impact on professional productivity. Journal of Social Psychology, 28(2), 2021 y. 89-102.

Soliyev Farxodjon Sodikovich
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi
Psixolgiya fanlari bo'yicha PhD

O'ZBEK MENTALITETIGA XOS BO'LGAN QADRIYATLAR TIZIMIDA ANALOG SIGNALLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlarda analog signallar yordamida amalga oshiriladigan axloqiy qadriyatlar tahlil etilgan. "Muloqotning milliy vizual matni"ning o'zgaruvchan, jismoniy, tashqi ko'rinishning ijtimoiy bezash komponentlari o'rganilgan. O'zbeklarga xos bo'lgan proksemik xulqning fazoviy maydoni zonalariga oid ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy diagnostika, noverbal xulq, axloqiy qadriyatlar, "tashqi ko'rinish ifodalari"ning vizual belgilari, tana xaritasi, proksemika*

ЗНАЧЕНИЕ АНАЛОГОВЫХ СИГНАЛОВ В СИСТЕМЕ ЦЕННОСТЕЙ, ХАРАКТЕРНОЙ ДЛЯ УЗБЕКСКОГО МЕНТАЛИТЕТА

Аннотация. *В статье анализируются моральные ценности, реализующиеся с помощью аналоговых сигналов в межличностных отношениях, характерные для узбекского менталитета. Исследуются изменяющиеся, физические, социальные компоненты «национального визуального текста коммуникации». Приведены сведения о зонах пространственной области проксемического поведения, характерных для узбеков.*

Ключевые слова*: социальная диагностика, невербальное поведение, моральные ценности, визуальные признаки «выражений внешности», карта тела, проксемика*

THE IMPORTANCE OF ANALOG SIGNALS IN THE SYSTEM OF VALUES CHARACTERISTIC FOR THE UZBEK MENTALITY

Annotation. *The article analyzes moral values realized with the help of analog signals in interpersonal relationships, characteristic of the Uzbek mentality. The changing, physical, social components of the "national visual communication text" are explored. Information is provided about the spatial zones of proxemic behavior characteristic of Uzbeks.*

Key words: *social diagnostics, nonverbal behavior, moral values, visual signs of "expressions of appearance", body map, proxemics*

Zamonaviy gumanitar fanlarda shaxs madaniyatini vizual o'rganish bilan bog'liq muammoga qiziqish ijtimoiy psixologiya yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsata boshladi. Ijtimoiy psixologiyadagi tarixiy- madaniy ilmiy izlanishlar natijasida verbal nutqni o'rganish vizual ma'lumotlarni talqin qilish bilan birga tadqiq etila boshladi. Postmodern davri madaniyatining vizual transformatsiyasini davom etishi ijtimoiy psixologiyada vizual tadqiqotlarning olib borilishiga asosiy turtki bo'lib kelmoqda.

Ijtimoiy-psixologik diagnostikaning mohiyati jamiyatdagi odamlarning yashash sharoitlari bilan yuzaga keladigan sabab-oqibat munosabatlarini aniq belgilashdan iboratdir [2]. Chunki, ijtimoiy diagnostika zarur bilimlarni beruvchi metodologik vosita bo'lib, ular asosida turli ijtimoiy prognozlar va loyihalar ishlab chiqiladi, jamoatchilik fikri va jamiyatdagi ma'naviy-psixologik iqlim o'rganiladi, shu jumladan milliy qadriyatlar tizimini o'rganishda qo'l keladi. Bizning yoritmoqchi bo'lgan tadqiqotimizda shaxslararo munosabatlarda vizual diagnostika mezon hamda ko'rsatkichlari samaradorligini aniqlash uchun izlanishlar olib borilgan.

Odamlarning turli xil xulq-atvor reaksiyalarini kuzatish va talqin qilishning turli usullari va uslublari mavjud, ularning asosida ma'lum darajada ishonch bilan shaxsning tipologik xususyatlarini, psixopatik xarakter xususiyatlarining ba'zi belgilarini, insonning intellektual sohasining xususiyatlarini, hissiy qo'zg'aluvchanlik darajasini va qadriyatlar tizimini baholash mumkin.

Noverbal xulq va noverbal kommunikatsiya psixologiyasi tarixida ularni kodlashtirish masalasida aniq bir to'xtamga kelinmagan, chunki muvaffaqiyatsiz urinishlar shaxsning ekspressiv xulqining ma'lum bir jihatlariga taalluqlidir.

L.I.Antsiferova ushbu bog'liqliklar haqida to'xtalib, faollik inson tanasi ustanovkasiga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi, muloqot mobaynida inson holatining o'zgarishi dinamikasida uning psixodinamik xarakteristikasi va shaxsiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Insonning postural-tonik ustanovkalari — bir vaqtning o'zida, chegaralangan siqilgan shaklda, bo'lajak harakatlarining kinematika (kinematics – harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan harakat va kuchni o'rganuvchi fan)sini o'z ichiga oladi. Psixotonik faollik shaxsning voqea-hodisalarga emotsional-affektiv munosabatida ko'rinadi [1]. Muallif shaxs munosabatining emotsional-affektiv kodini ikkita patern (inglizcha pattern "naqsh, namuna, shablon; shakl, model; sxema, rasm" – takrorlanadigan shablon yoki namuna) misolida tushuntirib beradi. Birinchi patern ijtimoiy vaziyatlarda zo'riqishni his qiladigan insonga xos bo'lsa, ikkinchi paternda ijtimoiy muhitga ishonch bilan munosabatdagi inson xatti-harakatlari yotadi. Birinchi paternga kiruvchi asosiy harakatlar majmuasiga yuzni qo'l bilan berkitish, qo'llarni orqaga berkitish, oyoqlarni stol tagiga berkitish va h.z.lar kiradi. Ikkinchi paternga xos maxsus harakatlar suhbatdoshga yo'naltirilgan harakatlar, erkin xolat, ochiq kaftlar va h.z. hisoblanadi.

Biz so'z yordamida tushunchani, gap orqali aniq ma'lumotlarni yetkazamiz, imo-ishoralar yordamida esa, his-tuyg'ularni ifodalaymiz, shuning uchun ham uzatilayotgan yangi ma'lumotlarni to'liq ma'nosini anglab yetishi uchun noverbal vositalardan foydalanishimiz zarur.

Shunday asosda odamlar o'rtasidagi muloqotning bir vaqtda amalga oshadigan ikki darajasi farqlanadi:

1. Mazmun darajasi, u so'zlarda ifodalangan raqamli (verbal) axborotni, ya'ni gapiruvchi aytishni istagan narsani uzatadi;

2. Munosabatlar darajasi, u analog (noverbal) axborotni uzatadi va unda so'zlovchining o'zi aytayotgan so'zlarga yoki eshituvchiga munosabati ifodalanadi [3].

Analog signallar insonning asosiy hayotiy tamoyillarining ifodasi, uning manfaatlari, harakatlari, niyatlari va shaxslararo munosabatlarni qurish usullarining g'oyaviy va axloqiy qadriyatlar yo'nalishini belgilab beradi.

Muammoni o'rganish davomida turli kasb egalari o'rtasida shaxs psixotipini vizual aniqlashga hamda kasb faoliyatining tashqi semantik belgilar asosida tahlil qila olish qobiliyatiga ta'sirini o'rganish maqsadida odamlar va odamlar guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladigan va asosan vizual analizatorlar yordamida idrok etiladigan "tashqi ko'rinish ifodalari"ning vizual belgilarini aniqlash orqali milliy analog belgilarni qadriyat sifatida qo'llanilishi tadqiq etildi.

Dastlab respondentlarning yashash hududiga ko'ra anketa savollari tahlil etildi.

Anketaning birinchi savoli bo'lgan "Siz muloqotda bo'ladigan insonlarni bir qarashda aniqlay olasizmi?" degan savoliga berilgan javoblar 1-jadvalda berilgan.

Jadval 1

"Siz muloqotda bo'ladigan insonlarni bir qarashda aniqlay olasizmi?" degan savolga berilgan javoblar foiz hisobida

Yashash hududi	**Umumiy respondentlar**			**Erkak respondentlar**			**Ayol respondentlar**		
	Ha	Yo'q	Ba'zan	Ha	Yo'q	Ba'zan	Ha	Yo'q	Ba'zan
Shahar	45,7	11,4	42,9	44,4	22,2	33,3	46,2	7,7	46,1
Qishloq	43,6	10,9	45,4	32,1	10,7	57,1	55,5	11,1	33,3
Umumiy	**44,4**	**11,1**	**44,4**	**35,1**	**13,5**	**51,4**	**50,9**	**9,4**	**39,6**

Erkak respondentlar ayol respondentlarga nisbatan muloqotda bo'ladigan insonlarni bir qarashda aniqlashga qiynalishlarini ma'lum qilganlar, ya'ni ayol respondentlardan 11,8 % dan ko'proq

ikkilanganligi ma'lum bo'ldi. Ammo shaharda istiqomat qiluvchi erkaklar qishloqda istiqomat qiluvchi erkaklarga nisbatan suhbatdoshni bir qarashda aniqlash mumkinligiga ishonch bildirib, qishloq erkaklariga nisbatan bunday ishonch shahar erkaklarida 12,3%ga ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ayol respondentlarda esa, shaharda istiqomat qiluvchi ayollarga nisbatan 9,3 % ko'proq qishloq ayollari muloqot mobaynida suhbatdoshni bir qarashda aniqlash mumkinligini belgilab, ular shaharlik ayollarga nisbatan insonlarni bir qarashda aniqlash mumkinligiga ishonch bildirdilar.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yashash hududi bo'yicha jinsiy differentsiyaga oid shahar erkaklari suhbatdoshni qishloq erkaklariga nisbatan ko'proq bir qarashda aniqlay olishi va aksincha shahar ayollari qishloq ayollariga nisbatan kamroq bir ko'rishda suhbatdoshni aniqlay oladilar.

"Insonni bilish uchun uning qaysi qirralari yoki jihatlariga e'tibor berish zarur?" degan savolga respondentlar bergan javoblariga ko'ra ekspressiv xulqini qayd etish va kodlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan komponentlarni ranjirovka qilindi. Unga ko'ra 2-jadval tuzildi.

Jadval 2

Ekspressiv xulqini qayd etish va kodlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan komponentlar ranjirovkasi

Ranglar	Komponentlar	Shahar respondentlarining komponentlar tanlash ranglari	Qishloq respondentlarining komponentlar tanlash ranglari	Respondentlar bergan javoblari % hisobida
1	Nutq	1	1	90
2	Ko'z	2	2	73,3
3	Yuz	3,5	3	63,3
4	Imo-ishora	3,5	5	53,3
5	Kiyinish	7	4	48,8
6	Mimika	5,5	7	46,6
7	Suhbatdoshga nisbatan egallangan xolat	8	6	45,5
8	Tana tuzilishi	5,5	8	41,1
9	Soch turmagi	9	8	20
10	Aksessuar	10	10	16,7

Jadvalga muvofiq respondentlar suhbatdoshni bilish va anglash uchun avvalom bor uning nutqiga, ya'ni muloqotning mazmun darajasiga e'tibor qaratar ekan. Biroq nutqni idrok qilish va to'liq o'zlashtirish nutqni idrok qilishning 3 chi bosqichida amalga oshiriladi. Ungacha bo'lgan bosqichlar analog signallarni idrok qilishga oid bo'ladi. Demak, respondentlarning 90 %i anketa savoliga kuzatuvchanlikdan farqli ravishda nazariy bilimlariga tayangan holda javob bergan.

"Muloqotning milliy vizual matni"ga birinchi navbatda shaxsning o'zgaruvchan komponentlari bo'lgan shaxsning ekspressiv xulq-atvori (ko'z, yuz, mimika, imo-ishora, suhbatdoshga nisbatan egallangan holat), ikkinchi navbatda shaxsning vizual diagnostika asoslari bo'lgan jismoniy (konstitutsion, individual xarakter) tomonlari, uchinchi navbatda tashqi ko'rinishni ijtimoiy bezash (kiyinish, soch turmagi, aksessuarlar) kirishi ma'lum bo'ldi..

"Sizningcha qaysi tana a'zosi ko'proq ifodali ma'lumotlar beradi? " degan savol orqali "tana xaritasi"ni baholash tizimi o'rganildi. Natijalar 3-jadvlda berildi.

Jadval 3

"Tana xaritasi"ni baholash tizimi bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar

Javoblar	Jinsi		
	Erkaklar (n=37)	Ayollar (n=53)	**Umumiy** (n=90)

	Son	Foiz	Son	Foiz	Son	Foiz
Ko'zlari	16	43,2	36	67,9	**52**	**57,7**
Yuzi	12	32,4	7	13,2	**19**	**21,1**
Kaft va qo'llari	4	10,8	7	13,2	**11**	**12,2**
Oyoqlari	0	0	3	5,7	**3**	**3,3**
Yelkalari	5	13,5	0	0	**5**	**5,6**

Respondentlarning bergan umumiy javoblariga ko'ra ijtimoiy munosabatlarda inson tana a'zolari vertikal pasayish tarzida baholanar ekan. Erkaklarda dastlab ko'z, keyin esa, yuz, yelka, kaft va qo'llar baholanib, oyoqlar chetda baholanmay qolar ekan. Ayollarda to'liq tana a'zolari balandligiga muvofiq pastga qarab baholanishi ma'lum bo'ldi.

Ijtimoiy muloqotda proksemik holatlarni aniqlash maqsadida respondentlarga "Notanish inson bilan suhbatlashganda qancha masofada turib gaplashasiz?" degan savol bilan murojaat qilindi.

Insonning psixologik zonasi haqidagi tadqiqot sohasi hisoblanadi. "Proksemika" tushunchasini amerikalik antropolog Edvard Tvicher Xoll tomonidan fanga olib kirilgan. Insoning fazoviy maydoni 4 zonaga bo'lingan: intim, shaxsiy, ijtimoiy va ommaviy. Bu toifa tadqiqot metodikalarining o'ziga xosligini subyektlarni notanish yoki boshqa guruhdagi kishilar bilan munosabati sharoitida o'zini tutishi va boshqarishi hisobga olinib baholashga tayaniladi. Bunda ularning munosabati, masofasi inobatga olinadi.

Proksemik holatlar asosida muloqot darajalari belgilanadi. Muloqot darajalari uchga bo'linadi: 1-daraja makro daraja hisoblanib, ushbu darajaga asosan aloqaga kirishuvchi ijtimoiy munosabatlar va shart-sharoitdan kelib chiqqan insonlar doirasi kiradi. Bu darajada shaxsning muloqot qoidalari va an'analari joy egallagan bo'ladi. Muloqotning makro darajasi shaxsning ijtimoiy va ommaviy hududini egallangan holatida amalga oshiriladi. 2 –daraja meza daraja hisoblanib, ma'lum bir mavzu yoki faoliyatga doir muloqot sanaladi. Ushbu darajada bir guruh yoki ma'lum bir shaxs bilan muloqot amalga oshiriladi. Meza darajada shaxsiy hududni egallagan xolda muloqot tashkillanadi. 3–daraja mikro daraja bo'lib, bu muloqotning elementar qismi xisoblanadi. Bunday muloqotda savol-javob, qo'l ushlashish (takesika) amalga oshiriladi. Muloqotning mikro darajasi intim hudud bilan bog'liq bo'lib, asosan yaqin insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishda qo'llaniladi.

Jadval 4

Shaxsning ijtimoiy munosabatlarda egallashi mumkin bo'lgan proksemikasi

Javoblar	**Yashash hududi**				**Umumiy** (n=90)	
	Shahar (n=35)		Qishloq (n=55)			
	Son	Foiz	Son	Foiz	Son	Foiz
Yarim qadam (30 sm)	4	11,4	3	5,5	7	7,8
Bir qadam (60 sm)	10	28,6	18	32,7	28	31,1
Bir metr	12	34,3	23	41,8	35	38,9
Hech e'tibor bermaganman	9	25,7	11	20	20	22,2

Milliy mentalitet va ma'naviy ustanovkalar ta'siriga ko'ra O'zbekiston hududida yashovchilar notanish shaxslar bilan muloqot qilayotganda shaxsiy va ijtimoiy hududda turgan holda muloqot qilishi dalillandi. Ular muloqotning meza darajasi, ya'ni ma'lum bir umumiy mavzu yoki faoliyatga doir muloqot qilishda shaxsiy hududda turib muloqot qilishlari ma'lum bo'ldi. Muloqotning makro darajasi sanalgan ijtimoiy hududda bir metr oralig'ida muloqot olib boriladi.

Shuningdek, olingan natijalarga ko'ra muloqot mobaynida shahar aholisi qishloq axolisiga nisbatan torroq hududni egallashi qayd etildi. Buning asosiy sababi individning tarbiyalanayotgan

hududidagi aholining joylashuvi bilan bog'liq bo'lishidir. Zich joylashgan hududda ijtimoiy munosabatlarda torroq va keng joylashgan hududda uzoqroq masofa tanlanishi tana tili psixologiyasida ham isbotlangan.

Jadval 5

"Eng ko'p ma'lumot beruvchi yuz qismi qaysi deb hisoblaysiz?" degan savolga berilgan javoblar

Javob variantlari	Kasbi						Jami		
	Psixologlar		Milliy gvardiya		Xotin-qizlar faoli				
	Ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	Erkak	**Jami**
Peshona	-	-	-	-	8,1	-	5,7	-	**3,3**
Qoshlar	-	12,5	-	3,4	5,4	-	3,8	5,4	**4,4**
Ko'zlar	100	87,5	-	89,7	78,3	-	84,6	89,2	**86,7**
Lab	-	-	-	6,8	8,1	-	5,7	5,4	**5,6**

Suhbat davomida inson yuzi eng ko'p analog signallar yuboruvchi qismi hisoblandi. Inson yuz qismini shartli ravishda uch qismga bo'lib tahlil qilinadi. Yuzning birinchi qismiga peshona va qoshlar kiradi. Ijtimoiy munosabatlarda peshona va qoshning o'ziga nigohni qaratish avtoritar yoki rasmiy nigoh deb yuritiladi. Ikki qosh o'rtasiga nigohni yo'naltirish demokratik qarashning norasmiy usuli hisoblanadi. Yuzning ikkinchi qismi bo'lgan ko'zlarga nigohni yo'naltirish demokratik yoki do'stona nigoh deb yuritiladi. Yuzning uchinchi qismi bo'lgan lablarga qarash liberal yoki intim nigoh deb yuritiladi.

Jadval tahliliga ko'ra, IPSda qatnashgan har uchala kasb egalari yuzning ikkinchi qismiga nigohini yo'naltirishi bilan umumiy tarzda respondentlarning 86,7%i suhbat davomida demokratik nigoh usulidan foydalanishlari ma'lum bo'ldi. Demak, respondentlarning aksariyati suhbat davomida do'stona pozitsiyani egallashlari ma'lum bo'ldi. Yuzning ikkinchi qismiga nigohni yuborishda jinsiy tafovut deyarli qayd etilmadi. Faqat erkak sinaluchilar ayol respondentlarga nisbatan 4,6 %ga ko'proq nigohlarini suhbatdoshning ko'ziga yo'naltirishi ma'lum bo'ldi.

Respondentlar orasida faqat ayol respondentlar avtoritar yoki rasmiy nigohdan foydalanishlarini qayd etdilar. Ular xotin-qizlar faollari o'rtasida namoyon bo'ldi. Xotin-qizlar faollarining 8,1%i rasmiy nigohdan foydalanishar ekan. Umumiy holda respondentlarning 3,3 %i yuzning peshona qismini eng ko'p ma'lumot beruvchi qismi deb hisoblaydilar. Yuzning qosh qismi ko'p ma'lumot beradi degan respondentlar har ikkala jins vakillarida ham qayd etildi. Bunday javoblar erkak psixologlarda, milliy gvardiya xodimlarida va xotin- qizlar faollarida kuzatilib, umumiy hisobda 4,4 %ni tashkil etdi.

Liberal nigoh yordamida suhbatdosh haqida ko'proq ma'lumotlar olish mumkin deb hisoblaydigan respondentlar 5,6 %ni tashkil etdi. Bunday javoblar milliy gvardiya xodimlarining 6,8 %ida va xotin-qizlar faollarining 8,1 %ida qayd etildi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joyizki, o'zbek mentalitetida suhbatdoshga demokratik qarash stereotiplari shakllangan ya'ni shaxsiy tajribaga asoslanmagan, ammo tashqaridan qabul qilingan ijtimoiy guruh yoki hodisalarning barqaror soddalashtirilgan obraziga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi.

Qo'lga kiritilgan natijalarga muvofiq inson tana a'zolari orasida ko'zlar eng ko'p ifodani berishi ma'lum bo'ldi. Nigoh suhbatning qanday kechishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida ijobiy aloqa yoki salbiy munosabatlar shakllanadi. O'zbeklarda oyoqqa qarash axloqsizlik belgisi sifatida qadriyatlar tizimidan joy olgan.

Milliy mentalitet va ma'naviy ustanovkalar ta'siriga ko'ra O'zbekiston hududida yashovchilar notanish shaxslar bilan muloqot qilayotganda shaxsiy va ijtimoiy hududda egallagan holda muloqot qilishi dalillandi. Shuningdek, olingan natijalarga ko'ra muloqot mobaynida shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan torroq hududni egallashi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Анциферова Л.И. Проблемы психотонической активности и научное наследие Анри Валлона // Психологический журнал 1981. Т.2.№ 1. –155 с. 9

2. Зотова Л.Э., Краева М.Ю. Социально-психологическая диагностика окружающей среды: учебное пособие длуа высших учебных заведений / Л.Э. Зотова, М.Ю.Краева. – М.: Издательский дом Академии Естествознания, 2016. – 6 с . 28

3. Soliyev F. Iqtisodiy sohadagi munosabatlarda psixologik aykido metodidan foydalanish. "Актуальные начно-гуманитарные проблемы юго-заподного региона Кыргызстана» O'sh, 2005. — 81-82 b.

4. Soliyev F. Originality Definition of Visual Diagnostic Methods of Accentuating the Character of a Person. The Journal of Intellectual Property and Human Rights. ISSN: 2720-6882. Volume: 2 Issue: 2 | February, 2023. – 17-19 p.

5. Soliyev F. Shaxslararo munosabatlarda vizual diagnostika mezon hamda ko'rsatkichlari samaradorligini aniqlashning psixologik asoslari. Монография, Фергана 2023 150 b.

UDK: 159.9:316.6

Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
E-mail:nargizasotvoldiyeva01@gmail.com

PSIXOLOGIK BARQARORLIK MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada psixologik barqarorlik muammosining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan Shuningdek, shaxsda yuzaga keladigan hissiy barqarorlik, axloqiy barqarorlik, xulq-atvor shakllarining barqarorligi, keskin sharoitlarda va kosmik parvozlarga tayyorgarlik sharoitlarida barqarorlik muammolarining nazariy asoslari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, motiv, faoliyat, turg‘unlik, o‘zgaruvchanlik, shaxs, indvid, muvozanat.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Аннотация. *В статье освещены научно-теоретические основы проблемы психологической устойчивости. Также представлены теоретические основы проблем эмоциональной устойчивости, нравственной устойчивости, устойчивости форм поведения, возникающих у личности, а также устойчивости в экстремальных условиях и в условиях подготовки к космическим полётам.*

Ключевые слова: *устойчивость, мотив, деятельность, стабильность, изменчивость, личность, индивид, равновесие.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL STABILITY

Abstract.*The article elucidates the scientific and theoretical foundations of the problem of psychological stability. Additionally, it presents the theoretical bases for issues of emotional stability, moral stability, stability of behavioral patterns, and stability in extreme conditions and during preparation for space flights.*

Keywords: *stability, motive, activity, constancy, variability, personality, individual, equilibrium.*

Psixologiya fani va amaliyotida barqarorlik muammosini o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikning ortishi, insonning qaror qabul qilish samaradorligiga bo‘lgan talabchanlikning kuchayishi sababli alohida dolzarblik kasb etib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, psixologik barqarorlik muammosi, ayniqsa zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida, jamiyatimizda sodir bo‘layotgan jarayonlarga nisbatan yetarli darajada o‘rganilmagan. Shaxsning psixologik barqarorligi muammosini ilmiy fenomen sifatida nazariy jihatdan tushunishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Tarixan psixologik barqarorlik muammosi 1966-yilda L.I.Bojovich tomonidan XVIII Psixologik kongresidagi ma’ruzada ko‘tarilgan edi. Keyinchalik psixologik barqarorlik shaxs barqarorligi muammosining turli jihatdan ko‘rib chiquvchi tadqiqotlarda rivojlantirildi. Quyida barqarorlik muammosi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar va barqarorlik muammolari keltirilgan:

- Hissiy barqarorlik (P.B.Zilberman, V.A.Marishchuk, L.V.Mitina);
- Axloqiy barqarorlik (V.E.Chudnovskiy);
- Xulq-atvor shakllarining barqarorligi (L.I.Bojovich);
- Keskin sharoitlarda va kosmik parvozlarga tayyorgarlik sharoitlarida barqarorlik (K.M.Gurevich, A.A.Leonov, V.I.Lebedev, G.T.Beregovaya).

Yetuklik davridagi shaxsiy konstruktlarning psixologik barqarorlik muammosiga V.P.Krupnik va Ye.N.Lebedevaning tadqiqotlari bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda u yoki bu tarzda shaxsning psixologik barqarorligi tavsifi bilan bog‘liqdir. Psixologik barqarorlik shaxsning asosiy xususiyati hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi u yoki bu vaziyat bilan bog‘liq motivlar qanday qilib barqaror narsaga

aylanishiga bog‘liq bo‘lib, shaxsni tavsiflovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. Quyida shaxsning psixologik barqarorligi asosi bo‘lgan motivatsion sohaning uchta asosiy parametrini keltirib o‘tamiz:

1. Insonning makon va zamondagi dunyo bilan aloqasi.
2. Motivning namoyon bo‘lish darajasi.
3. Dinamik motivatsion sohaning ko‘p qirraliligi.

Shaxsning psixologik barqarorligining bu asoslari o‘zaro bog‘liqlikda unga o‘z-o‘zini anglash va uni rivojlantirish omili sifatida tushunish imkoniyatini beradi. Ularning kamulyativ ta’siriga asoslanib, A.N.Leontev quyidagi xulosani shakllantiradi: “Turli xil faoliyatlar bir-biri bilan kesishadi va o‘zaro obyektiv, tabiatan ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lanib, tugunlar hosil qiladi. Bu iyerarxik tugunlar biz men deb ataydigan o‘sha sirli shaxs markazini shakllantiradi. Boshqacha aytganda , bu markaz shaxsning ichida emas, balki uning mavjudligida yotadi”. Shundan kelib chiqib, psixologik barqarorlik “Men”ning egosentrik pozitsiyasi bilan emas, balki shaxsiy “Men”ning jamoada, jamiyatda, sotsiumda insonlarning umumiy o‘zaro aloqasi tizimiga qo‘shilishi bilan ta’minlanadi. Ye. P. Krupnik va Ye.n.Lebedevalarning shaxsiy psixologik barqarorligi kategoriyasini o‘rganishning murakkabligi shundaki, u asosan “barqarorlik-o‘zgaruvchanlik” paradigmal muqobillik doirasida ishlab chiqiladi, deb hisoblaydilar. Bunday yondashuv mantig‘ida “barqarorlik” tushunchasi “turg‘unlik” tushunchasi bilan almashtiriladi yoki bu tushunchalar sinonim sifatida qaraladi. Masalaning bunday qo‘yilishi psixologik barqarorlik kategoriyasini o‘ziga xos mazmundan mahrum etadi va shaxsning barcha ruhiy ko‘rinishlarining bu fundamental xususiyatini o‘rganishda noto‘g‘ri istiqbolni yaratadi.

Shaxsning barqarorligi quyidagicha ko‘rib chiqiladi:

- Uning psixikasining saqlanganligi;
- Indvid xulq-atvorining xarakterini belgilovchi ma’lum doimiylik;
- Barqarorlashtiruvchi omil;
- Subyektdan xulq-atvor uslubida moslashuvchanlikni talab qiladigan vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan qat’iylik.

O‘zgaruvchanlik barqarorlik kabi shaxs dinamikasini belgilab, uning takomillashuviga yordam berishi mumkin, ammo uni parchalanishga mavjudlik usulining tartibsizligiga olib kelishi ham mumkin. Shaxsning psixologik barqarorligi quyidagicha ko‘rib chiqiladi: “Muvozanatni buzuvchi tashqi va ichki omillarga qarshi ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan saqlanadigan harakatchan muvozanat holati, shuningdek, shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan vazifalarga muvofiq ravishda ushbu muvozanatning maqsadli buzilishi. Ushbu vazifalar nuqtai nazaridan shaxs tashqi vaziyatning ichki modelini shakllantiradi va bu uning xulq-atvorini belgilaydi”. Yetuklik davridagi shaxsiy konstruktorlar tizimining psixologik barqarorligini o‘rganish natijalari shunday xulosalar chiqarish imkonini berdiki, insonning hayotga bo‘lgan yakuniy munosabatini, uning har qanday vaziyatdagi xatti-harakatlarini va bu vaziyatga qanchalik bog‘liq yoki undan qanchalik ozod ekanligini shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizm bu-qadriyat mazmunli refleksiyadir. Turli vaziyatlarda insonning hayot konseptsiyasini, dunyoqarashi va dunyoni his qilishini yatarish zarurati paydi bo‘ladi. Psixologik barqarorlik hodisasini tushunish uchun subyektiv ravishda anglanmaydigan psixik hodisalar haqida nazariy konseptsiyalar (A.Adler, Z.Freyd, G.Yung, E.From) muhim ahamiyatga ega. D.N.Uznadze ilmiy maktabining tadqiqotlarida psixologik barqarorlik ma’lum semantik ustanovkalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Bu ustanovkalar shaxsning voqelikka nisbatan yetakchi munosabatini o‘zida mujassam etadi, bu esa shaxs xulq-atvorining nisbiy barqarorligini oldindan belgilaydi. Chunki, ushbu ustanovkalarda kelajakdagi harakatlar modeli mavjud. Ustanovka nazariyasi doirasida iyerarxiyalashtirilgan ko‘p bosqichli ustanovka tuzilmasi mavjudligi haqida xulosa chiqariladi, bu esa psixologik faoliyatni barqarorlashtirish mexanizmini ta’minlaydi. V.E.Chudnovskiyning tadqiqotlarida barqarorlik axloqiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi. U shaxsning axloqiy barqarorligini insonning turli sharoitlarda shaxsiy pozitsiyalarini saqlab qolish va amalga oshirish, shaxsiy qarashlari, e’tiqodlari va ustanovkalariga zid ta’sirlarga nisbatan ma’lum immunitetga ega bo‘lgan qobiliyati sifatida belgilaydi. “Shaxsning axloqiy barqarorligi” va “shaxs barqarorligi” tushunchalarining bunday talqinida ular mohiyatan mos keladi, chunki shaxsiy pozitsiyaning asosini uning axloqiy negizi, ustun axloqiy tamoyillar va ustanovkalar tashkil etadi.

Barqarorlik faol hayot faoliyati va o‘z-o‘zini tashkil etishning natijasidir. Shaxs barqarorligini tushunishda o‘zaro bog‘liq ikki jihat ajratib ko‘rsatiladi:

1. Shaxsning barqarorligi insonning o‘z shaxsiy pozitsiyalarini saqlab qolish va uning shaxsiy ustanovkalariga zid bo‘lgan ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyati sifatida ya’ni, shaxsning barqarorligi uning yetakchi motivlari va ustanovkalarining buzilish darajasi bilan aniqlanadi.

2. Shaxsning barqarorligi insonning o‘z shaxsiy pozitsiyalarini amalga oshirish, vaziyatni va o‘z xulq-atvorini o‘zgartirish qobiliyati sifatida.

Unutmaslik kerakki, shaxsning o‘z pozitsiyalarini saqlab qolishi subyektning ularni amalga oshirish bo‘yicha faol faoliyati bilan muhim darajada bog‘liqdir. Shaxsning o‘z mavqeyini saqlab qolishi subyektning ularni amalga oshirish bo‘yicha faol harakatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, psixologik barqarorlikni mavjud bo‘lishi, shaxsning hayotida muhim sanaladi. Barqarorlik shaxsning boshqa xarakter xususiyatlari bilan chambarchas bog‘li holda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Асмолов, А. Г. Деятельность и установка-М.: МГУ, 1978 - 152 с.
2. Баландин, М. М. Условия формирования психологической устойчивости у старшеклассников. Автореф.дис.. ..канд.психол.наук. - М.,2003.22 с.
3. Божович, Л. И. Избранные психологические труды. — М.: МПА, 1955. 212 с.
4. Клочко, В. Е. Самоорганизация в психологических системах: проблемы становления ментального пространства личности (введение в трансспективный анализ). - Томск: ТГУ, 2005. - 174 с.
5. Клочко, В. Е. Смыслы и смыслообразование в инновационной образова тельной практике: трансспективный анализ // Переход к Открытому образова тельному пространству. - Часть 1. Феноменология образовательных технологий:
6. Колл. монография / Под ред. Г. Н. Прозументовой . - Томск: Изд-во Том.ун-та, 2005.-С . 437-450.

Sultonbekova O'g'iloy Ilyosjon qizi
Farg'ona davlat universitet magistranti
E-mail: oygulxonsultonbekova@gmail.com

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllanishi ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Ushbu maqolada bolalarning fikrlash qobiliyatiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy determinantlar – oilaviy muhit, ta'lim jarayoni va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarning sabab-oqibat aloqalarini tushunishi, muammolarni hal qilish qobiliyati hamda abstrakt fikrlash darajasi ushbu omillar bilan qanday bog'liq ekani empirik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining rivojlanishida ijtimoiy muhitning ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *mantiqiy tafakkur, kichik maktab yoshi, ijtimoiy determinantlar, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, tengdoshlar ta'siri, abstrakt fikrlash, sabab-oqibat aloqalari.*

THE SOCIAL DETERMINANTS OF LOGICAL THINKING FORMATION IN YOUNG SCHOOL-AGE CHILDREN

Annotation. *The development of logical thinking in young school-age children is a process closely related to social factors. This study analyzes the key social determinants influencing children's cognitive abilities—family environment, educational process, and peer interactions. Additionally, the study examines how these factors are associated with children's understanding of cause-and-effect relationships, problem-solving skills, and levels of abstract thinking based on empirical data. The research findings provide a deeper understanding of the significance of the social environment in the cognitive development of young school-age children.*

Keywords: *logical thinking, young school age, social determinants, family environment, education system, peer influence, abstract thinking, cause-and-effect relationships.*

СОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *Формирование логического мышления у детей младшего школьного возраста — это процесс, тесно связанный с социальными факторами. В данном исследовании анализируются ключевые социальные детерминанты, влияющие на когнитивные способности детей: семейная среда, образовательный процесс и взаимодействие со сверстниками. Кроме того, на основе эмпирических данных изучается, как эти факторы связаны с пониманием причинно-следственных связей, способностью решать проблемы и уровнем абстрактного мышления у детей. Результаты исследования позволяют глубже понять значение социальной среды в когнитивном развитии детей младшего школьного возраста.*

Ключевые слова: *логическое мышление, младший школьный возраст, социальные детерминанты, семейная среда, система образования, влияние сверстников, абстрактное мышление, причинно-следственные связи.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda tanqidiy va mantiqiy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Xususan, kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkur shakllanishi ularning aqliy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu jarayon ko'plab ijtimoiy determinantlar ta'sirida kechadi. Mantiqiy tafakkur – insonning tahliliy yondashuvga asoslangan, sabab-oqibat bog'liqliklarini anglay oladigan, dalillar asosida xulosa chiqara oladigan aqliy qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat kichik maktab yoshidagi bolalar uchun juda muhim bo'lib, aynan shu davrda mantiqiy tafakkurning asosiy mexanizmlari shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining rivojlanishida

biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liq holda ishtirok etadi. Vygotskiy va Piaget kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari shuni ko‘rsatadiki, bola tafakkurining rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy determinantlar, jumladan, oilaviy muhit, ta’lim tizimi, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar hamda axborot texnologiyalarining ta’siri bolalarda mantiqiy tafakkur shakllanishining asosiy omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaviy muhit bolalarning kognitiv rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ota-onalarning muloqot uslubi, bolalar bilan olib boriladigan intellektual faoliyatlar va o‘quv materiallariga bo‘lgan yondashuv bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini avvalo o‘z oilasida shakllantiradi va mustahkamlaydi. Ta’lim tizimi ham mantiqiy tafakkurni shakllantirishda yetakchi omillardan biridir. O‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Muammoli ta’lim, reflektiv fikrlash usullari va o‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiladigan strategiyalar mantiqiy tafakkurning chuqurroq shakllanishiga yordam beradi.Shuningdek, bolalarning ijtimoiy hayotidagi tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalarining ta’siri ham katta ahamiyatga ega. Tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida bolalar muammolarni tahlil qilish, muhokama yuritish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bolalarning internet va raqamli muhitdagi faoliyati ham ularning tafakkur shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli axborot oqimining ortishi bolalarning axborotni tahlil qilish, saralash va tizimlashtirish qobiliyatiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi.

Mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga ijtimoiy determinantlar keng ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, oilaviy muhit, ta’lim tizimi, do‘stlik munosabatlari va ommaviy axborot vositalari bolaning fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Oilaviy muhit. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ota-onalarning ta’lim darajasi va tarbiya uslublari bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onasi intellektual jihatdan faol oilalarda tarbiya topgan bolalar analitik tafakkurga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Ta’lim tizimi. Maktab ta’limining metodologik yondashuvlari bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Konstruktivistik ta’lim usullari, interfaol dars mashg‘ulotlari va muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish bolalarning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Do‘stlik va ijtimoiy muhit. Bolalar o‘z tengdoshlari bilan o‘zaro muloqot qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar va fikrlash jarayonlarini shakllantiradilar. O‘zaro munozaralar, bahs-munozaralar va jamoaviy faoliyat ularning sabab-oqibat aloqalarini tushunishiga yordam beradi.

Ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bolalarning mantiqiy tafakkuriga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Intelektual o‘yinlar, bilim beruvchi platformalar va interaktiv dasturlar bolalarning tahliliy tafakkurini oshirsa, ortiqcha axborot bosimi esa diqqatni jamlash va tahliliy fikrlash qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Kognitiv rivojlanish nazariyalari doirasida mantiqiy tafakkur Mantiqiy tafakkurning shakllanishini tushuntirishda kognitiv rivojlanish nazariyalari muhim ahamiyat kasb etadi. J. Piagetning intellektual rivojlanish bosqichlari konsepsiyasiga ko‘ra, 7-10 yosh oralig‘ida bolalar konkret operatsion bosqichga o‘tadi, bu esa mantiqiy fikrlashning rivojlanishi bilan bog‘liq (Piaget, 1952). Ushbu bosqichda bolalar obyektlar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga va reversiv tafakkurni qo‘llashga qodir bo‘ladilar.

Vigotskiy (1934) tomonidan ilgari surilgan madaniy-tarixiy nazariya esa, bolaning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit va madaniy vositalar ta’sirida sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, mantiqiy tafakkur ijtimoiy kontekstda, ya’ni nutq, o‘zaro muloqot va ta’lim jarayonida rivojlanadi.

Ijtimoiy determinantlarning roli Maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy determinantlar quyidagi asosiy omillar bilan bog‘liq:

Oilaviy muhit va tarbiya usullari Oilaviy tarbiya usullari bolalarning fikrlash jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Baumrind (1971) tomonidan taqdim etilgan tarbiya uslublari doirasida avtoritativ tarbiya bolalarda mustaqil fikrlash va mantiqiy muhokama qilish ko‘nikmalarining rivojlanishini

qo‘llab-quvvatlaydi. O‘z navbatida, avtoritar yoki beparvo tarbiya mantiqiy tafakkurning rivojlanishini cheklashi mumkin (Dornbusch et al., 1987).

Maktab va ta’lim jarayoni Maktab – mantiqiy tafakkurning rivojlanishida eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol dars usullari va muammoli o‘qitish metodikasi bolalarning mantiqiy tafakkurini faollashtirishga yordam beradi (Bruner, 1966). Xususan, STEAM yondashuvi doirasidagi faoliyatlar (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi) bolalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi (Honey et al., 2014).

Ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy omillar Bolalar o‘rtasidagi muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta’sir ham ularning mantiqiy tafakkurining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. T. Parsonsning (1951) ijtimoiylashtirish nazariyasiga ko‘ra, bola o‘z jamiyatidagi norma va qadriyatlarni o‘zlashtirar ekan, tafakkur shakllanishida ham bu jarayonlar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, jamiyatdagi axborot muhiti va texnologiyalar bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida qaralmoqda (Greenfield, 2009).

Axborot texnologiyalari va mantiqiy tafakkur Bugungi kunda axborot texnologiyalarining ta’siri bolalarning tafakkurini shakllantirishda tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar va media vositalari bolalarning mantiqiy tafakkuriga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intellektual o‘yinlar va ta’limiy dasturlar bolalarning muammoli tafakkurini rivojlantirsa (Gee, 2003), ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ta’siri esa tafakkurning yuzaki shakllanishiga olib kelishi mumkin (Carr, 2010).

Kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkur shakllanishining ijtimoiy determinantlarini o’rganish uchun Farg’ona viloyatining O’zbekirton tumanida joylashgan 66-sonli umum-ta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’quvchilarida 15 ta savoldan iborat so’rovnoma asosida tadqiqot amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkur shakllanishiga ijtimoiy determinantlar ta’sirini qanday darajada ekanini aniqlash. Quyida ushbu so’rovnomaning natijalarini taxlili xaqida ma’lumot keltirilgan:

Jadval-1

Sinaluvchilar jinsi	Soni	Foizi
O’g’il bolalar	30	60
Qiz bolalar	20	40
Jami	50	100

Tadqiqotda jami 50 nafar sinaluvchi ishtirok etib, ulardan 30 nafari o’g’il bolalar hamda 20 nafari qiz bolalar, o’g’il bolalar 60% ni qiz bolalar esa 40% ni tashkil etgan.

Jadval-2

Sinaluvchilarning yoshi	Soni	Foizi
9 yosh	4	8
10 yosh	46	92
Jami	50	100

Tadqiqotimizda ishtirok etgan jami sinaluvchilarning 4 nafari 9 yosh, 46 nafari 10 yosh, 9 yoshli sinaluvchilar 8% ni, 10 yoshli sinaluvchilar 92% ni tashkil etmoqda.

Jadval-3

Sinaluvchilar sinfi	Soni	Foizi
3-sinf	24	48
4-sinf	26	52
Jami	50	100

Tadqiqotimizda ishtirok etgan jami sinaluvchilarning 24 nafari 3-sinf, 26 nafari 4-sinf, 3-sinf sinaluvchilar 48% ni, 4-sinf sinaluvchilar 52% ni tashkil etmoqda.

Ushbu tadqiqot natijalarini tahlil qilishda olingan natijalarni quydagicha tahlil qilamiz.

Oilaviy muhit: ota-onalar va uy sharoiti mantiqiy tafakkurga qanday ta’sir qilmoqda.


Maktab muhitining roli: ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar qanchalik samarali.

Ijtimoiy muloqot: tengdoshlar va oila a’zolari bilan fikr almashish qanchalik rivojlangan.

Raqamli texnologiyalarning ta’siri: internet, televizor va gadjetlarning bolalar tafakkuriga ijobiy yoki salbiy ta’siri.

Jadval-4

№	Ijtimoiy Determinant	Foiz (%)
1	Oilaviy muhit	52.67%
2	Maktab muhiti	16.18%
3	Ijtimoiy muloqot	15.16%
4	Raqamli texnologiyalar	15.99%



Izoh: Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mantiqiy tafakkurning rivojlanishida eng katta ta’sirga ega bo‘lgan determinant oilaviy muhit bo‘lib, u umumiy ta’sirning 52.67% qismini tashkil etadi. Bu esa oilaning bolalar tafakkurini shakllantirishdagi asosiy rolini tasdiqlaydi. Oilaviy muhitning yuqori foizda aks etishi, ayniqsa, ota-onaning ta’lim darajasi, farzand bilan muloqot sifati, oiladagi psixologik iqlim kabi omillarning bevosita ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ikkinchi o‘rinda maktab muhiti joy olgan bo‘lib, uning ta’siri **16.18%**ni tashkil qiladi. Maktabda ta’lim sifati, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati hamda sinfdoshlar bilan o‘zaro aloqalar bolaning tafakkur darajasiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, oilaviy muhitga nisbatan maktabning ta’sir darajasi ancha past ekani kuzatiladi. Ijtimoiy muloqot omili esa 15.16% bilan uchinchi o‘rinda turadi. Bu esa bolaning tengdoshlari, do‘stlari va jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarining tafakkur shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy muloqot jarayonida bolaning fikrlash qobiliyati rivojlanishi va turli muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati shakllanishi ehtimoli ortadi. Eng past ta’sir ko‘rsatuvchi determinant raqamli texnologiyalar bo‘lib, u **15.99%**ni tashkil etadi. Bu natija raqamli texnologiyalar bolalar tafakkuriga nisbatan cheklangan ta’sir ko‘rsatishini anglatishi mumkin. Biroq, bu


texnologiyalar qanday foydalanilishiga qarab farqlanishi ehtimoli mavjud: masalan, ta'limiy kontentlardan foydalanish ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, aksincha, faqat o'yin va ko'ngilochar maqsadlarda foydalanish tafakkur rivojiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Umuman olganda, natijalardan ko'rinib turibdiki, bolaning mantiqiy tafakkuri asosan oilaviy muhitga bog'liq bo'lib, maktab, ijtimoiy muloqot va raqamli texnologiyalar ta'siri esa nisbatan kamroq ekani kuzatiladi. Ushbu natijalar psixologik va pedagogik amaliyotda bolalar tafakkurini rivojlantirish uchun oiladagi ta'limiy muhitni kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi.

O'g'il va qiz bolalarning mantiqiy tafakkur shakllanishida ijtimoiy determinantlarning ta'sirini baholash natijalari:

Jadval-5

Ijtimoiy Determinant	O'g'il bolalar (β)	Qiz bolalar (β)	Farq (β)
oilaviy_muhit	0.526	0.526	0.000
maktab_muhiti	0.158	0.158	-0.000
ijtimoiy_muloqot	0.158	0.158	0.000
raqamli_texnologiyalar	0.158	0.158	-0.000



Izoh: 5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'g'il va qiz bolalar mantiqiy tafakkurining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy determinantlar (oila muhiti, maktab muhiti, ijtimoiy muloqot, raqamli texnologiyalar)ning β (standartlashtirilgan regresiya koeffitsiyenti) qiymatlari taqqoslab tahlil qilingan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha determinantlar bo'yicha o'g'il va qiz bolalarda β qiymatlarining mosligi kuzatilmoqda. Xususan, "oilaviy muhit" determinantining o'g'il va qiz bolalarga ta'siri yuqoriligi (β=0.526) bilan ajralib turibdi, bu esa ushbu omilning mantiqiy tafakkur shakllanishida dominant rol o'ynashini anglatadi. Bu holatdan kelib chiqib, oilaviy tarbiya, kommunikatsion muhit, hamda ota-ona modeli bolalarning kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelish mumkin. Boshqa determinantlar – "maktab muhiti", "ijtimoiy muloqot", va "raqamli texnologiyalar" uchun esa β qiymatlari 0.158 ga teng bo'lib, bu omillarning ta'siri nisbatan bir xil va o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ushbu omillar individual ravishda emas, balki kombinatsiyalashgan holatda sezilarli natija berishi mumkinligini anglatadi. Shuningdek, "Farq (β)" ustuni orqali ko'rilgandek, barcha determinantlar bo'yicha o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi farqlar deyarli yo'q (Δβ = 0.000

yoki 0.006), bu esa jinsiy tafovutlarning mantiqiy tafakkur shakllanishida statistik jihatdan ahamiyatsizligini ko‘rsatadi. Bunday holat regresion modelda jins omilining moderator sifatida zaif rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Muhokama. Umuman olganda, ushbu tadqiqot ma’lumotlari asosida aytish mumkinki, bolalarning mantiqiy tafakkur shakllanishida ijtimoiy determinantlar ichida eng yuqori ta’sir kuchiga ega omil — oilaviy muhit bo‘lib, qolgan omillar esa teng ta’sir ko‘rsatmoqda va jinslar kesimida sezilarli tafovut aniqlanmagan. Bu natijalar ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda deterministik model asosida tafakkur rivojlanishini o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy tafakkurning shakllanishi ko‘p omilli va interaktiv jarayon bo‘lib, u biologik, kognitiv va ijtimoiy determinantlarning o‘zaro ta’sirida amalga oshadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy tafakkurning rivojlanishida oilaviy muhit, ta’lim tizimi, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va zamonaviy axborot texnologiyalari hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Kognitiv rivojlanish nazariyalariga asoslanib, bolalar tafakkurining evolyutsion bosqichma-bosqich shakllanishi ta’kidlanadi, bunda konkret operatsion fikrlashdan abstrakt va refleksiv tafakkur sari harakat kuzatiladi. Mantiqiy tafakkurning rivojlanishini rag‘batlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, muammoli va tadqiqotga asoslangan o‘qitish metodlarini rivojlantirish hamda interfaol muloqot muhitini shakllantirish zarur. Xususan, STEAM yondashuvi, metakognitiv strategiyalar va muammoli vaziyatlar orqali bolalarda analitik tafakkurni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va ta’limiy platformalar orqali kognitiv jarayonlarni faollashtirish, bolaning muammoli vaziyatlarga ilmiy-nazariy yondashish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Kelajak tadqiqotlarida mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga ta’sir etuvchi determinantlarni eksperimental-empirik usullar bilan o‘rganish, neyropsixologik va kognitiv fanlar bilan integrativ yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta’lim jarayonining strukturaviy va funksional jihatlarini optimallashtirish, bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida tafakkurning rolini keng qamrovda tadqiq qilish istiqboldagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. New York: Norton.
2. Vygotsky, L. S. (1934). Thought and language. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Baumrind, D. (1971). Current patterns of parental authority. Developmental Psychology, 4(1), 1-103.
4. Dornbusch, S. M., Ritter, P. L., Leiderman, P. H., Roberts, D. F., & Fraleigh, M. J. (1987). The relation of parenting style to adolescent school performance. Child Development, 58(5), 1244-1257.
5. Bruner, J. (1966). Toward a theory of instruction. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Honey, M., Pearson, G., & Schweingruber, H. (2014). STEM integration in K-12 education: Status, prospects, and an agenda for research. Washington, DC: National Academies Press.
7. Parsons, T. (1951). The social system. Glencoe, IL: Free Press.
8. Greenfield, P. M. (2009). Technology and informal education: What is taught, what is learned. Science, 323(5910), 69-71.
9. Gee, J. P. (2003). What video games have to teach us about learning and literacy. New York: Palgrave Macmillan.
10. Carr, N. (2010). The shallows: What the internet is doing to our brains. New York: W. W. Norton & Company.

Tadjibayev Baxram Ruziyevich
I.Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti,
Oliy matematika kafedrasi, fiz.-mat.fan.nomzodi, dotsent,
El.pochta: baxromtadjibaev58@gmail.com

INTELLEKTUAL MEHNATGA LAYOQATLILIK DARAJASI

Annotatsiya. *Ba'zi kasblar aqliy harakatlar ustuvorligi, analitik qobiliyatlar, kreativlik va murakkab masalalarni yechishga moyilligi bilan tavsiflanadi. Intellektual mehnatning murakkabligi uning ko'pjihatligi va xodimlar oldiga qo'yilgan o'ziga xos talablardan iboratdir, ya'ni yuksak kognitiv talablar, ruhiy bosim, muntazam bilim o'rganish va yuksalish, kommunikativ ko'nikmalar rivoji, kreativlik va innovatsiyaviylik, ahloqiy fikr mulohazalarining muhimligi bilan uzviy bog'liqdir. Intelelktual mehnat xodimlari faoliyati bilan bog'liq motivatsiya va uning turlarini o'rganish ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *intellektual mehnat, analitik qobiliyatlar, kreativlik, kognitiv talablar, ruhiy bosim, kommunikativ ko'nikmalar, innovatsiyaviylik.*

УРОВЕНЬ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЛЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация. *Некоторые профессии характеризуются умственными усилиями, аналитическими способностями, креативностью и способностью решать сложные задачи. Сложность интеллектуального труда заключается в многоаспектности и специфических требованиях, предъявляемых к работнику, т.е. высокий уровень когнитивных требований, психологическая нагрузка, постоянное обучение и развитие, развитие коммуникативных навыков, креативности и инновационности, а также этических соображений.*

Актуальность данного исследования связана с мотивацией работников для занятия интеллектуальным трудом и изучением методов мотивации.

Ключевые слова и понятия: *интеллектуальный труд, аналитические способности, креативность, когнитивные требования, психологическая нагрузка, коммуникативные навыки, инновационность.*

LEVEL OF COMPETENCY FOR INTELLECTUAL WORK

Annotation. *Some professions characterized mental effort, analytical skills, creativity and ability to solve complex problems. The difficulty of intellectual work lies in multidimensionality and specific requirements presented to the employee, namely high level of cognitive demands, psychological stress, continuous learning and communication skills development, creativity and innovation and also ethical considerations. The relevance of this study is related with employee motivation for intellectual work and investigation of methods of motivation.*

Key words and concepts: *intellectual work, analytical skills, creativity, cognitive demands, psychological stress, communication skills, innovation.*

Kirish. Intellektual mehnat doirasidagi kasblarning muayyan qat'iy ro'yxati mavjud emas albatta. Ko'p hollarda, jismoniy va intellektual mehnat orasidagi chegaralar xiralashgan bo'lib, bir qator kasblar esa o'z ichiga ikkala turdagi mehnatni oladi [1]. Ammo, ba'zi kasblarda aqliy harakatlar ustuvorligi yaqqol ko'rinib turadi. O'z navbatida, bunday harakatlar, yuqori darajali ma'lumot, analitik qobiliyatlar, kreativlik va murakkab masalalarni yechishga moyillik bilan bog'liqdir.

Intellektual mehnatning murakkabligi uning ko'pjihatligi va xodimlar oldiga qo'yilgan o'ziga xos talablardan iboratdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, intellektual mehnatning murakkabligi yuksak kognitiv talablar, ruhiy bosim, muntazam bilim o'rganish va yuksalish, kommunikativ ko'nikmalar rivoji, kreativlik va innovatsiyaviylik, axloqiy fikr mulohazalarining muhimligi bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu soha mutaxassislaridan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishlikda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki mas'uliyatlilik, maqsad sari intilish, zo'riqish (stress) hollariga chidamlilik va o'z ustida ishlashga muntazam hozir bo'lishlik kabilar ham talab etiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Intellektual mehnat iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari rivojida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlari yuksaltirib borilgan sari intellektual mehnatning ahamiyati ham faqat ortib boradi [2]. Raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida ta’lim, fan hamda yangi texnologiyalar yaratish sohalariga sarmoyalar kiritish zarur bo‘lib va shuning bilan intellektual mehnat potensialining amalga oshishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi [3, 4].

Mazkur mavzuning dolzarbligi axolining qaysi qismi intellektual mehnat jarayoniga jalb qilinganligi va bunda ishtirok etish darajasini o‘rganishlik zaruriyatidan kelib chiqadi.

Asosiy vazifalar. Tadqiqot maqsadiga erishish quyidagilardan iborat:

mazkur mavzuga doir mahsus adabiyotlarni o‘rganish;

jamiyatni intellektual mehnatga jalb qilishlikni kuchaytirish yondashuvini o‘rganish;

intellektual mehnatni rivojlantirishning samarali usullarini belgilash va qo‘llashlik.

Tadqiqot usullari. Yuqorida belgilangan maqsadlarga erishish uchun ilmiy adabiyot tahlili, umumlashtirish va sintez usullari qo‘llangan. Buning uchun davriy nashrlarda, ilmiy-amaliy anjuman materiallarda chop etilgan maqolalar o‘rganib chiqilgan. Ushbu nashrlarda keltirilgan nazariy materiallar bir butunlikda jamlanishi mumkin. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha turli natijalar asosida kerakli xulosa va izohlar berilgan.

Tadqiqot maqsadi. Jamoa a’zolarining intellektual potensialini rivojlantirish orqali aholini intellektual mehnatga jalb qilishlikka doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishlik ko‘zda tutiladi.

Asosiy natijalar. Intellektual mehnat sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, fan va biznes sohalarida samaradorlik va raqobatbardoshlik hamda innovatsiyalar ortishining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘riladi [5, 6, 7, 8].

Sanoat sohasining rivojlanishida:

Innovatsion texnologiyalar:

Intellektual mehnat yangi texnologiyalar yaratilishi va joriy etilishi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aqlli zavodlar barpo etish va samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi. masalan: yangi materiallar ishlab chiqish, avtomatlashgan boshqaruv tizimlar, robototexnika, 3D – pechat.

Jarayonlarni optimallashtirish:

Intellektual mehnat logistika, zaxiralarni boshqarish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, sarflarni kamaytirib resurslar bilan foydalanishning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Mahsulot sifati:

Intellektual mehnat nazorat qilish tizimi orqali mahsulot sifatini oshirishga, kamchiliklarni aniqlash va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan analitik ma’lumotlarni qo‘llanishiga imkon beradi.

Yangi mahsulot va xizmatlar:

Intellektual mehnat marketing izlanishlar, ma’lumotlar tahlili va kreativ fikrlash orqali ishlab chiqilgan hamda bozor talablariga javob beradigan yangi mahsulot va xizmatlar olishga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishida:

Aniq dehqonchilik:

Intellektual mehnat datchik, dron, kosmik yo‘ldoshlar va ma’lumotlar tahliliga asoslangan hamda sug‘orishni optimallashtirish, o‘g‘it solish, o‘simliklarni himoya qilish va hosildorlikni oshirishga qaratilgan aniq dehqonchilik texnologiyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Qishloq xo‘jalikni avtomatlashtirish:

Intellektual mehnat sarflarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan qishloq xo‘jalik ishlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Misollar: avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari, robotlashgan hosil terimi, aqlli issiqxona.

Chorvachilikda:

Intellektual mehnat chorvachilik jarayonlarini optimallashtirish, chorva salomatligini nazorat qilib olishlik, chorva mollarini boqish, chorvachilik mahsuldorligini oshirishga imkon beradi. Misollar: chorva salomatligini aniqlash uchun monitoring tizimlarini yaratish, oziqlantiruvchilarni avtomatlashtirish.

Resurslar boshqaruvida:

Intellektual mehnat yer, suv va boshqa resurslarni samarali boshqarishni, atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga imkon beradi.

Ta'lim sohasi rivojlanishida:

Shaxsiyalashtirilgan o'qitish:

Intellektual mehnat har bir talabaning individual ehtiyojlariga javob beradigan va o'quv dasturiga moslashgan shaxsiyalashtirilgan o'qitish tizimlarini yaratishga imkon beradi.

Bilimga kirish:

Intellektual mehnat masofaviy ta'lim, onlayn-kurslar va ta'lim resurslarni qo'llanilishiga imkon beradi hamda bilim va ta'limga kirish yo'llarini kengaytiradi.

Interaktiv o'qitish:

Intellektual mehnat multimedia materiallar, simulyatsiya, o'yinlar va boshqa interaktiv asboblar yordamida ta'lim sohasini interaktiv hamda qiziqarli bo'lishlik darajasini ko'tarishga sharoit yaratib beradi.

Pedagoglar malakasini oshirishda:

Intellektual mehnat pedagoglarga o'zlarining malakasini oshirishga va ular tomondan o'qitishning yangi usullarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ilm-fanni rivojlantirishda:

Yangi kashfiyot va rivojlanish:

Intellektual mehnat ilmiy tadqiqotlar, ma'lumotlar tahlili, murakkab jarayonlarni modellashtirish va yangi kashfiyotlar yaratishga imkon beradi [9].

Ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish:

Intellektual mehnat muntazam masalalarni avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va superkompyuterlar yordamida ilmiy izlanishlarni jadallashtirishga imkon beradi.

Fanlararo izlanishlar:

Intellektual mehnat turli bilim sohalar olimlarini birlashtirish yo'li bilan fanlararo izlanishlar rivojiga imkon beradi.

Ilmiy axborotga kirish:

Intellektual mehnat ilmiy axborotga, nashrlar va ma'lumot bazalariga kirish, bilimlar almashuvi va olimlar orasida hamkorlikni ta'minlaydi.

Biznesni rivojlantirish:

Innovatsion biznes – modellar:

Intellektual mehnat elektron tijorat, bulut servislari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovasi kabi raqamli texnologiyalarga tayangan yangi biznes-modellarni yaratilishiga imkon beradi [10, 11].

Biznes-jarayonlar optimallashtirilishi:

Intellektual mehnat biznes-jarayonlarni optimallashtirish, sarflarni kamaytirish, samaradorlikni oshirishga va mijozlarga yaxshi xizmat ko'rsatishga imkon beradi.

Ma'lumotlar tahlili va qaror qabul qilish:

Intellektual mehnat ma'lumotlarni tahlil qilish, to'g'ri asoslangan qarorlar qabul qilish, trendlarni namoyon etish va bozordagi o'zgarishlarni bashorat qilishga imkon beradi.

Marketing va savdo-sotish:

Intellektual mehnat raqamli kanallar, reklama va ma'lumotlar analitikasi yordamida mahsulot va hizmatlarni samarali tashviqot qilishga imkon beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, intellektual mehnatning murakkabligi uning ko'pjihatliligi bilan bog'liq bo'lib, bunda xodimlarga qo'yiladigan xos talablar ham ta'sir darajasiga egadir [12, 13].

Quyidagi muhim omillar murakkablikni keltirib chiqaradi:

Kognitiv yuklamani yuqori darajasi:

Katta hajmdagi axborotni qayta ishlash:

Ko'p hollarda intelelktual mehnat katta hajmdagi axborotni qayta ishlash, uni tahlil, tartibga solish va sintez qilish bilan bog'liqdir.

Murakkab va notuzilmali masalalarni yechish:

Intellektual sohaga doir va ko'p hollarda aniq yechilish algoritmga ega bo'lmagan, tanqidiy fikrlash va kreativ yondoshuvni talab qiluvchi hamda nostandart yo'llar bilan yechiladigan masalalar.

Abstrakt fikrlash:

Intellektual mehnat abstrakt tushunchalar bilan ishlashni va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga tayangan holda modellar va bashoratlarni yaratilishini talab qiladi.

Noaniqlik sharoitida qaror qilishlik:

Ko‘p hollarda ma’lumotlar yetarli bo‘lmagan sharoitda, qator omillar va mavjud potensial xavflarni hisobga olib qaror qabul qilish to‘g‘ri keladi.

Muntazam o‘qish va rivojlanish zaruriyati:

Bilimlar tez eskirishi:

Hozirgi kunda bilimlar tez eskirishi sababli intellektual mehnat xodimlari muntazam ravishda o‘qishlari va rivojlanishlari, yangi texnologiyalar va yondoshuvlarni o‘zlashtirishlari zarur.

Yuqori raqobat: Intellektual mehnat sohasida yuqori raqobat mavjudligi sababli muntazam malakani oshirish va kerakli mutaxassis bo‘lib qolishlik zarurdir.

Mustaqil ta’lim: Rasmiy ta’lim rivojlanayotgan texnologiyalarga javob bera olmayotgani sababli ko‘p hollarda intellektual mehnat xodimlari mustaqil ravishda o‘zlari yangi bilim topib va ularni o‘zlashtirishga majburdirlar.

Psixologik stress:

Yuqori darajadagi mas’uliyat:

Intellektual mehnat jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan muhim qarorlar qabul qilinishligi bilan bog‘liqdir.

Meyorga zid ish kuni: Ko‘p hollarda belgilangan vazifalarni bajarish uchun meyordan ko‘proq ishlashga to‘g‘ri keladi.

Stress va hissiy charchash: Yuqori kognitiv bosim, mas’uliyat va muntazam tartibdagi o‘qish stress va hissiy charchashga olib kelishi mumkin.

Diqqat-e’tiborni jamlash zarurligi: Ko‘p masalalar diqqat-e’tiborni jamlashlikni talab qiladi va charchoqni keltirib chiqaradi.

Kommunikativ ko‘nikmalar: Ko‘p hollarda intellektual mehnat jamoa bilan ishlashni ko‘zda tutadi va bu o‘z navbatida samarali muloqot, hamkorlik va o‘zaro bilimlar almashuvini talab qiladi.

Natijalar taqdimoti: O‘z ishining natijasini aniq va ravshan tasavvur qila olishlik, o‘z fikrini asoslab berishlik va o‘zgalarni ishontirib olishlik.

Muzokaralar olib borish qobiliyatlari: Ko‘p hollarda muzokaralar jarayonida o‘z manfaatlarini ximoya qilishlik va murosaga kelishlik.

Kreativ va innovatsionlik:

Yangi g‘oyalar hosil qilishlik zarurligi: Ko‘p hollarda intellektual mehnat yangi mahsulot, xizmatlar va qarorlar yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib va o‘z navbatida kreativ fikrlashni va innovatsion yondashuvni talab qiladi [14].

Nostandart fikrlash qobiliyati: Muammolarni nostandart usullar, yangi yondashuv orqali yechishlik zarurati.

Tavakkal qilishga tayyorlik: Ko‘p hollarda innovatsiyalar xavf bilan bog‘liq bo‘lgani sababli muvaffaqiyatsizliklarga tayyor bo‘lish kerak va xatolardan saboq olish zarur.

Etika va axloqiy meyorlar:

Ish faoliyati oqibatlari uchun mas’uldorlik: Intellektual mehnat xodimlari qabul qilgan qarorlarining oqibatlari uchun mas’uldirlar.

Kasbiy etikaga amal qilishlik: Kasbiy meyorlar va qoidalarga amal qilishlik, manfaatlar ziddiyatidan qochish va jamoat manfaatlari yo‘lida harakatlanish zarurligi.

Axloqiy meyorlarga rioya qilish: Ko‘p hollarda axloqiy meyorlar to‘g‘ri, chuqur va puxta o‘ylangan fikr-mulohazalar asosida belgilanadi.

Intellektual mehnatga rag‘batlantirish o‘ziga xos yondoshuvni talab qiladi va bunday mehnatning rag‘batlantirilishi murakkab va ko‘pqirrali omillar bilan bog‘liqdir.

Quyida rag‘batlantirishning samarali usullarini keltirib o‘tamiz:

Ichki rag‘batlantirish (asosiy): Ichki rag‘batlantirish eng barqaror va samarali bo‘lib insonning o‘zidan kelib chiqadi.

Ehtiros va qiziqish: Xodimning qiziqishlari va moyilliklariga mos keluvchi masalani tanlab olishlik imkoniyati.

Qiziqishni uyg‘otish: Savollar berishlikni, yangi bilimlar va turli sohalarni o‘rganishlikni imkon beruvchi sharoitlarni yaratish.

Muhimlik hissi va maqsadlilik:

Aniq maqsad: Xodim o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va masalalarni aniq anglashi.

Qo‘shilgan hissani anglash: Muayyan insonning faoliyati tashkilot va jamiyatning umumiy maqsadlariga ta’sirini tushunish.

Murakkab va qiziqarli masalalar: Intellektual o‘sishni rag‘batlantiruvchi va say-harakatlar talab qiluvchi masalalarni qo‘yilishi.

Yutuqlarni tan olish va rag‘batlantirish: Yutuqlarning jamoatchilik e’tirofi, maqtov, rag‘batlantirish va yangi imkoniyatlarni qo‘lga kiritish.

Tashqi rag‘batlantirish: Bunday rag‘batlantirish tashqaridan bo‘lib ichki rag‘batlantirish bilan birga o‘z samarasini namoish qiladi.

Moddiy rag‘batlantirish:

Raqobatbardosh ish haqi: Xodimning malakasi va tajribasiga muvofiq uning munosib ish haqi bilan ta’minlanishi.

Mukofot va bonuslar: Belgilangan maqsadlar va yuksak natijalarni qo‘lga kiritilganligi uchun mukofotlar va bonuslar.

Opsionlar va daromadni taqsimlash: Kompaniya daromadlarini taqsimlanishida ishtirok etish imkoni.

Ijtimoiy omillar:

Ijobiy mikroiqlim: Kollektivda qulay va do‘stona muhitni yaratish.

Hamkasblar tomonidan tan olinishi: Hamkasblar orasida o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash va yutuqlarni tan olish.

Tajriba almashish imkoni: Xodimlar orasida bilim va tajriba almashish uchun sharoitlar yaratilishi.

Mehnat sharoitlari: Qulay ish joyi: Qulay mehnat sharoitlar, uskunalar va dasturiy ta’minotni yaratish.

Mehnatning moslashuvchan jadvali: Xodimning shaxsiy manfaatlari va uning mehnat faoliyatiga zid kelmasligining ish jadvalini tashkil qilish imkoni.

Masofaviy mehnat qilish imkoniyati: Uydan yoki boshqa qulay joydan masofaviy mehnat qilishga imkonlarni yaratishlik.

Lavozimga ko‘tarilish:

Lavozimga ko‘tarilishning muayyan imkoniyatlarini mavjudligi.

Yetakchilikni rivojlantirish dasturlari: Bo‘lajak rahbarlar tayyorlashga mo‘ljallangan yetakchilikni rivojlantirish dasturlarini yaratish va joriy qilish.

Amaliy usullar:

SMART – maqsadlar: SMART – tamoyillariga asoslangan maqsadlarni belgilash (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time – bound).

Masalalar bo‘linishi: Katta va murakkab muammolarni kichik va boshqarish mumkin bo‘lgan masalalarga bo‘linishi.

Masalalar o‘rnini belgilashda ustivorlikning ahamiyati: Masalalar ichida eng muhim va shoshilinchlarini belgilash.

Pomodoro texnikasi: Mahsuldorlik va konsentratsiyani oshirish maqsadida Pomodoro texnikasini qo‘llanishi nazarda tutiladi (ish jarayoni 25 daqiqa, tanaffus 5 daqiqa).

Mahsuldorlikni oshirish asboblarini qo‘llanishi: Vaqt, masalalar va loyihalarni boshqarish uchun maxsus dastur va ilovalarni qo‘llanilishi nazarda tutiladi.

Taraqqiyotning muntazam tahlili: Maqsadlarga erishishdagi taraqqiyotning muntazam baholanishidir.

O‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya: O‘z faoliyatini kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, yaxshilash imkoniyatlarini oshirish va o‘z-o‘zini tahlil qilishlik nazarda tutiladi.

Asosiy xulosalar:

Rag‘batlantirish individual jarayon bo‘lgani sababli, bunda har bir xodimning o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinishi muhimdir.

Doimiy monitoring: Xodimlarni rag‘batlantirish darajasini doim monitoring qilish zarurdir.

Ta’lim madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish: Tashkilot ichida bilim olish, rivojlanish va o‘z-o‘zini yuksaltirishga qaratilgan madaniyatni yaratish muhimdir.

Tashqi va ichki rag‘batlantirish orasidagi muvozanat: Yuksak natijalarga tashqi va ichki rag‘batlantirishning o‘zaro uyg‘unligi asosida erishiladi.

Ushbu usullar qo‘llanilishi natijasida intellektual mehnat xodimlari muvaffaqiyatli rag‘batlantirilishiga erishiladi va ular faoliyati sermahsul va samarali kechadi.

Xulosa va takliflar. Intellektual mehnatda aql, bilimlar, tajriba hamda tahlil, sintez qilish, kreativlik va tanqidiy fikrlash qobiliyat kabilar asosiy asbob deb hisoblanadi. Kognitiv kuchlanishning yuqori darajasi muntazam ravishda ko‘proq e’tiborni jamlash, axborotni qayta ishlash va yechim topishlikni talab qiladi. Intellektual mehnat ko‘p hollarda ijodiy yondoshuv, yangi g‘oyalar kashfiyoti va innovatsion natijalar bilan bog‘liq. Shuning bilan birga xodimlar zimmasiga ularning faoliyati va qabul qilingan qarorlarning oqibatlari uchun ma’suliyat yuklatiladi, muammolar samarali bajarilishi maqsadida o‘z-o‘zlarini nazorat qilishlik va intizomli bo‘lishlik nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Лебединцева Л.А. Понятие и сущность интеллектуального труда в современных экономико-социологических исследованиях [электронный ресурс]// Общество. Среда. Развитие (Terra Humana). – Электрон.дан. – 2012. - №1 – С.108-111. – URL:http://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-suschnost-intellektualnogo-truda-v-sovremennyh-ekonomiko-sotsiologicheskih-issledovaniyah

2. Мотаев А. Почему нужно увеличивать производительность интеллектуального труда: [Электронный ресурс]/ А.Мотаев. – URL:http://potokzadach.ru

3. Перевалов К.В. Моделирование инвестирования в инновационные технологии в условиях конкуренции// Пространство экономики. 2010. №2-2. URL:https//cyber-leninka.ru/article/n/modelirovanie-investirovaniya-v-innovatsionnye-tehnologii-v-usloviyah-konku-rentsii

4. Грачёв В.В., Трунев Е.С. Инвестиции в инновационные технологии//Проблемы развитие территории. 2003. №20. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-v-innovatsionnye-tehnologii

5. Воронин Б.А., Воронина Я.В. перспективные технологии интеллектуального сельского хозяйства// Сельское хозяйство 2021. №2. URL:https//cyberleninka.ru/article/n/perspektivnye-tehnologii-intellektualnogo-selskogo-hozyaystva

6. Чулюков В.А., Дубов В.М. Искусственный интеллект и будущее образования // Современное педагогическое образование. 2020. №3. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-i-buduschee-obrazovaniya.

7. Ущеко А.В. Искусственный интеллект в образовании. Применение искусственного интеллекта для обеспечения адаптивности образования. // Вестник науки. 2023. №6(63).

8. Девятьярова А.Д. Особенности организации интеллектуального труда в информационном обществе. Актуальные вопросы управления. Вестник СПбГУЭФ. 2016. №5. С. 181-185.

9. Лебединцева Л.А. К вопросу об оценке результатов интеллектуального труда в науке // Проблемы совр.экономики. 2019. С.25-29.

10. Юдина С. Управление интеллектуальным трудом в корпорации. Формирование основ системного подхода. LAP Lambert Academic Publishing/2012. С.4-5.

11. Жилинская О.Н. Возрождение инновационного подхода к сущности предпринимательства в странах Единого экономического пространства. ЭКО. – 2021. - №2. С.25-29.

12. Гимаева Э.Х. К вопросу о содержании интеллектуального труда // Европейский журнал социальных наук. 2014. - №2(41) Т. 2, М. с.490-493.

13. Мазитова Р.К. Интеллектуальный труд: сущность, особенности, содержание и проблемы его измерения. Казань: Изд-во Казан. Гос.техн. ун-та, 2012. С.9-10.

14. Гимаева Э.Х. Роль интеллектуального труда в трансформации общества // Вестник НИБ. 2021. №44.

Ummatova Sitora Shavkatulloyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi dosenti Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:ummatovasitora@samdu.uz

RASHK - OILADAGI ER-XOTIN NIZOLARNING SABABI SIFATIDA

Annotasiya. *Maqolada rashk muammosining emotsional va shaxslararo munosabatlardagi ta’sirining psixologik mohiyati yoritib berilgan. Rashkning ilmiy-falsafiy qarashlarda keltirilgan turlari, belgilari va shaxsga psixologik ta’siri bayon etilgan. Shaxslararo munosabatlarda oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar orasida rashkning o’rni masalasi o’tkazilgan tadqiqot natijalarida taxlil etilgan.*

Tayanch so’zlar:*psixologiya, rashk, rashk turlari, ijobiy, salbiy, emosiya, ishonchsizlik, emosional munosabatlar, shaxslararo munosabatlar, oiladagi nizolar, rashk psixologiyasi, rashkning ta’siri, rashkning asosi.*

РЕВНОСТЬ — ПРИЧИНА СПОРОВ МЕЖДУ МУЖЬЯМИ И ЖЕНАМИ В СЕМЬЕ

Абстрактный. *В статье освещается психологическая природа влияния проблемы ревности на эмоциональные и межличностные отношения. С научной и философской точки зрения описываются виды, симптомы и психологическое воздействие ревности на человека. В результатах исследования проанализирована роль ревности среди важных причин семейных конфликтов в межличностных отношениях.*

Ключевые слова: *психология, ревность, виды ревности, положительная, отрицательная, эмоция, недоверие, эмоциональные отношения, межличностные отношения, семейные конфликты, психология ревности, последствия ревности, основа ревности.*

THE PROBLEM OF REALITY - AS ONE OF THE IMPORTANT REASONS OF MARRIAGE CONFLICTS IN THE FAMILY

Annotation. *The article reveals the psychological essence of jealousy and its impact on emotional and interpersonal relationships. The psychological characteristics of the influence of jealousy on the person are described, the scientific and philosophical views of scientists on the types and signs of jealousy are given. The results of a study conducted among married couples are analyzed, with the help of which the issues of the influence of jealousy as one of the important reasons for the occurrence of married conflicts in interpersonal relationships are revealed.*

Keywords: *psychology, jealousy, types of jealousy, positive, negative, emotion, distrust, emotional relations, interpersonal relationships, family conflicts, psychology of jealousy, the influence of jealousy, the basis of jealousy.*

Rashk psixologik muammo sifatida insonlar hayotida doimo mavjud bo’lganligi tufayli antik davrdan boshlab fikr, g’oyalar sifatida shakllangan. Suqrot rashkda murakkab va ziddiyatli hissiy tuyg’uni, “iztirob va zavq aralashmasini” ko’rsa, Aflotun, Arastu kabi faylasuflar rashkning noaniqligi, uning yovuzlik va yaxshilik bilan genetik bog’liqligini ta’kidlab, rashkni shafqatsiz, tezda qo’zg’aluvchi impulslar deb hisobladilar.

Ko’pgina kuzatuvlar insonning emosional munosabatlarini tug’ma sifatida deb qaraydi, lekin emosiyalar insoniy jamiyat madaniyati va psixologiyasining darajasini ham bildiradi. Munosabatlardagi muhabbat, rashk hislarining o’ziga xos xususiyatlarini bilmaslik jamiyatda shaxsning o’zini baxtsiz his etishiga, nizolarning avj olishiga, oilalarning muhitining nosog’lom bo’lishiga, ajrashishlarga va hatto o’z joniga qasd qilish kabi noxush holatlarning namoyon bo’lishiga olib keladi.

Psixologlar rashkni zolimona rashk va “izzat-nafsi paymol qilinganlikdan” bo’ladigan rashklarga farqlaydilar. Zolimona rashkni odatda xudbin (egoist), qaysar, zolim, hissiy sovuq va begonalashib ketgan, yotsiraydigan, yetarlicha avtoritar odamlar yuzaga keltiradilar. Bunday odamlar odatda turmush o’rtoqlariga faqat bir buyumdek, o’z manfaati, farog’atini qondirish obyekti, o’z mulkidek qaraydilar.

Ularda boshqa odamning shaxsiy xususiyatlarini sezish, hurmat qilish qobiliyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Izzat-nafsi, sha'ni kamsitilganlikdan bo'ladigan rashk-bu odatda hayajonlanadigan, har narsadan gumonsirayveradigan, o'ziga ishonmaydigan, xavf-xatar va noxushliklarni bo'rttirishga moyil, nuqsonlar kompleksidan jabrlanuvchi odamlarga xosdir. Ularning rashki unchalik g'azabli, qahrli bo'lmasligi, biroz yumshoqroq namoyon bo'lishi mumkin. Biroq uning ham o'z mohiyatiga ko'ra oilaviy baxt uchun zahri, zarari kam emas.

Lov etib yongan rashk turmush o'rtog'ining eng arzimagan, beozor hatti-harakatlari, qiliqlarini o'zining yovuz, zolim, tuban ko'rinish, ranglari bilan talqin qilib, arzimagan narsalarni shubhaga olib, ulardan o'zining namoyon bo'lishi uchun qo'shimcha quvvat manbai sifatida foydalanadi. Ishdan ozgina kechikib qolish, do'stlar davrasidagi beozor imo-ishora yoki so'z allaqachon unutib yuborilgan bolalik ishtiyoqlari va shu kabi hayot ikir-chikirlarining hammasi turmush o'rtoqlarning birini ikkinchisiga qarshi bo'lishiga olib keladi.

Rashk o'zaro munosabatlarda dominant va ambivalent hodisa, ya'ni ustun va ikki xil: yaxshi va yomon; ijobiy va salbiy oqibatli ekanligini O'rta asrlarda va Uyg'onish davrida Tomas Aquinas, Bruno, Rotterdam Erasmus, M. Montaigne va boshqalar isbotlab berishga harakat qildilar. Rashkning muhabbat hissi bilan yaqinligi, uni birinchi navbatda keng ma'noda tushunish, unga ko'p ham ahamiyat bermaslikni tavsiya etganlar.

G'arb mutafakkirlarining zamonaviy vakillari: F.De.Laroshfuko, B. Paskal, R. Dekart, B. Spinoza, Monteskye, I. Kant, D.Didro va boshqalar rashkni tahlil qilish va uning namoyon bo'lish shakllari va tadqiqot imkoniyatlarini o'rganib, "rashk" tushunchasi o'ziga xos xususiyatlardan: asosial, irrasional ta'sir va aql yordamida cheklash yoki bostirish chaqiruvi sifatida talqin qilishdan iborat ekanligini qayd etganlar.

XIX-XX asr G'arbiy YYevropa irrasionalizm vakillaridan A.Shopengauer rashkni manfaatdorlik belgisi sifatida qaragan bo'lsa, 3.Freyd, K.Yung, E.Fromm, V.Frankl, A.Maslou va boshqalar bu tuyg'uning asosiy xususiyatlarini murakkab ijtimoiy-psixologik munosabatlarda namoyon bo'lgan belgilari orqali talqin etganlar.

Bizning tadqiqot ishimizni rashk hissining er-xotin munosabatlaridagi o'z ta'siri va o'rnini aniqlashga qaratdik. Tadqiqotimizning mohiyatidan kelib chiqqan holda**,** dastlabki bosqichda oila mustahkamligi uchun er-xotinlarning shaxslararo munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarning kelib chiqish sabablarini empirik tadqiq qilishni maqsad qilib oldik.

Biz ushbu jihatlarni o'rganish uchun "Ijtimoiy psixologik so'rovnoma" ishlab chiqdik. Ijtimoiy so'rovnomani mavzuga daxldor punktlaridagi xususiyatlarni ajratib olish uchun 20 ta sababiy ijobiy va salbiy omillarni kiritdik, bu omillar orasida munosabatlarga ta'sir etadigan birlamchi va asosiylari deb saralanganlarini ekspert baholash (Samarqand Davlat universiteti professor-o'qituvchilari) yordamida saralab oldik. Tadqiqot metodikasini tanlash qanchalik ahamiyatli bo'lsa, obyektni tanlash ham shunchalik muhimdir. Dissertasiyamizning obyekti sifatida 150 oila (Samarqand shahri va Samarqand viloyatining Samarqand, Toyloq, Pastdarg'om tumanlari hududlari oilalari) ni oldik.

Mazkur maqolada shu so'rovnomadan olingan natijalarning bir jihatini yoritamiz. "Oilangizdagi shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni baholang" savoliga munosabatni keltiramiz.

Er-xotinlarning real oilaviy hayotlariga oid tasavvurlariga asoslangan holda oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarga baho berishlari, o'rinni belgilashlari taklif etildi.

Jadval-1

Shaxslararo munosabatlarda oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarning o'rni (n=300)

№	Sabablar	Rango'rni	Foiz
1.	Fe'l-atvorning mos kelmasligi	1,20	96%
2.	Bolalar tarbiyasiga munosabati	2,3, 5	73%
3.	Iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar	1,8	84%
4.	Oila byudjetini rasional boshqaraolmaslik	1,5	90%
5.	Uy ishlarining taqsimoti	3,5	59%
6.	Ota-onalarninga ralashuvi	2, 20	80%
7.	Boshqa birovlarning aralashuvi tufayli	3,10	58%

8.	**Rashk va ishonchsizlik**	**1,8**	**84%**
9.	**Sevgi va mehr-muhabbatning etarli emasligi**	**1,4, 5**	**91%**
10.	Uy ishlarining saranjom-sarishtagar orasta emasligi	1,7	86%
11.	Ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabat	2,5	70%
12.	Farzandsizlik	1,3	94%
13.	Yashash sharoitining noqulayligi	2,5	69%
14.	Dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi	2,	80%
15.	Gapolmaslik, kelishmovchilik	2,6,	68%
16.	Oila manfaatiga mos yumushda ishlamasliklari	3,5	59%
17.	Ichish, chekish va boshqa qusurlar	2,8	64%
18.	Jinsiy munosabatlarda zarur Qoidalarga rioya qilmaslik	2, 10	80%
19.	Muvaqqat noxush kayfiyatlar	4,3	34%
20.	Boshqa arzimagan sabablar	4,6	28%

Shaxslararo munosabatlarda oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlari o'rni ko'rsatib berilgan natijalarga ko'ra, er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi (o'rinlar yig'indisi 1,20; 96%), oilada farzandsizlik (1,30; 94%), **er va xotin o'rtasida sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi** (1,45; 91%), oila byudjetini rasional boshqara olmaslik (1,50; 90%) kabi omillar oilaviy nizolar kelib chiqishining birinchi o'rindagi asosiy sabab ekanligi qayd etildi.

Er-xotinlar o'rtasida oilaviy nizolar kelib chiqishida **rashk va ishonchsizlik** (1,80; 84%), holatlari muhim o'rin tutishini va bu o'z navbatida tez-tez oilaviy nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi respondentlar tomonidan e'tirof etildi.

Tadqiqotlarimiz natijalarig ako'ra, oilada er-xotin o'rtasida yuzaga keladigan nizolarda emotsional munosabatlarning bu tarzda belgilanishi oila a'zolarining o'z his-tuyg'ularini boshqara olmasliklari, o'z his-tuyg'ulariga oid tushunchalarining kamligi, bu borada ularning adekvat tasavvurlari sayozligi bilan baholanadi. Natijalardan ko'rinadiki, oilaviy munosabatda rashk va ishonchsizlikdan ko'ra, o'zaro yordam, tushunish, qo'llab-quvvatlash, muloqotmandlikning zarurligi (erkak va ayollar natijalariga ko'ra) tasdiqlansa-da, ammobu borada juftlarning shaxslararo munosabatlarda yon beruvchanlik maqsadga muvofiq emas deb hisoblashlari; ko'proq rashk, ishonchsizlikka berilishlari ustuvor ekanligi kuzatildi. Er-xotinlarning fikricha, oilaviy munosabatlar uchun o'ziga ishonch, rahmdillik, beg'arazlik, ishonuvchanlik, itoatkorlik kabi shaxs sifatlari zarur hamda bu sifatlar ular orasida nizolarni yuzaga keltirmaydi.

Demak, mazkur tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, er-xotinlar oiladagi shaxslararo munosabatlar mohiyatini o'rganishi, o'z juftlariga nisbatan munosabatlari va tuyg'ularini to'g'ri baholashni bilishlari, juftlariga inson sifatida hurmat hissi bilan munosabat olib borishlari uchun o'z imkoniyatlarini aniqlay olishlari muhim ekan. Bu esa o'z navbatida oilaviy shaxslararo munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'ladigan nizolarni boshqara olish, juftiga nisbatan ijobiy qarash psixologiyasini yaratish istiqbollarini belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri masalalari. Monografiya – T.: OOO "NORI" MChJ, 2019. – 130 b.
2. Алёшина Ю.Е., Гозман Л.Я., Дубовская Е.М. Сосиально-психологические методы исследования супружеских отношений. - М.: изд-во МГУ,1987.- 120с.
3. Андреева, Т.В. Семейная психология Текст. / Т.В. Андреева. — СПб.: Реч, 2004.-244с.
4. Гозман Л.Я, Ю.Е.Алешина Сосиально-психологические исследования семи: проблемы и перспективы// Психологический журнал. - 1991. - № 4. - С. 64.
5. Дружинина В.Н. Психология семи. – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2006. 176 с.
6. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консултирования. - М.: Гардарики, 2008. - 320 с.

7. Психология семейных отношений: конспект лексий //Сост. С.А.Великова. – М.: АСТ; - СПб.: Сова, 2005. – 127 с.

8. Психология: эмосий, чувств, воли. – М.: Творческий сентр Сфера, 2003. – 95 с.

9. Сермягина, О.С. Эмосионалные отношения в семе Текст. / О.С. Сермягина. — Кишинев: Штиинса, 1991. — 85с.

10. Сысенко В.А. Супружеские конфликты. - М., 1993. - 346 с.

11. Fayziyeva M.X. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (er-xotin misolida). Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent: 2005. - 185 b.

12. 13.Харчев А.Г. Современная семя и ее проблемы / А.Г. Харчев, М.С. Масковский. -М.: Сфера, 2008. - 246 с.

13. 14. Ummatova S.Sh. Rashk fenomenining oila munosabatlaridagi gender va yosh farqlari. Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent: 2022.

15. Ummatova S.Sh. Oila Psixologiyasi. O’quv qo’llanma.-Samarqand: 2024. -240 b.

Xasanova Bog'dagul Turg'unbayevna
Payariq tumani "Inson "ijtimoiy xizmatlar markazi
Ijtimoiy himoya milliy agentligining Samarqand viloyati boshqarmasi
Mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish sho'basi bosh mutaxassis psixologi.

TAZYIQQA UCHRAGAN XOTIN QIZLARNI MULOQOTCHANLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni muloqotchanlik ko'nikmalarini shallantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijobiy samara beruvchi muloqatning ayollar ruhiy salomatligiga ta'siri, uni shakllantirish va salbiy vaziyatni yengib o'tish jarayonida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, psixologik rezilientlik, ijtimoiy aloqalar va emotsional yordam jarayonida samarali muloqotning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida tazyiqqa uchragan ayollarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash strategiyalari tavsiya qilinadi.*

Kalit so'zlar: *samarali muloqotchanlik ko'nikmalari,tazyiq, xotin-qizlar, psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rezilientlik, emotsional barqarorlik samarali muloqot.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ЖЕНЩИН, ИСПЫТЫВАЮЩИХ ДАВЛЕНИЕ

Абстрактный. *В статье анализируются социально-психологические особенности развития коммуникативных навыков у женщин, подвергшихся насилию. Подчеркивается влияние позитивного общения на психическое здоровье женщин, важность социальной поддержки в его формировании и преодолении негативных ситуаций. Психологическая устойчивость, социальные связи и эмоциональная поддержка также считаются ключевыми факторами эффективного общения. На основе исследований зарубежных и отечественных ученых рекомендуются стратегии психологической поддержки женщин, подвергшихся насилию.*

Ключевые слова: *эффективные коммуникативные навыки, травля, женщины, психологическая поддержка, социальная поддержка, устойчивость, эмоциональная стабильность, эффективная коммуникация.*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING COMMUNICATION SKILLS IN WOMEN EXPERIENCED BY PRESSURE

Abstract. *This article analyzes the socio-psychological characteristics of scaling communication skills in women who have been subjected to oppression. The impact of positive effective communication on women's mental health, the importance of social support in its formation and overcoming a negative situation are highlighted. Psychological resilience, social connections and emotional support are also considered as key factors in effective communication. Based on the research of foreign and domestic scientists, strategies for psychological support for women who have been subjected to oppression are recommended.*

Keywords: *effective communication skills, oppression, women, psychological support, social support, resilience, emotional stability, effective communication.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ayollar turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida turli bosim va tazyiqlarga duch kelishi mumkin. Ushbu tazyiqlar ko'pincha ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, samarali muloqotni yo'qligi baxs va munozaralarni cho'zilishi oqibatida yuzaga kelishiga olib keladi. Samarali muloqot esa inson salomatligi, psixologik farovonligi va ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin egallab,muammoni o'z vaqtida bartaraf etish shaxsiy va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tazyiqqa uchragan xotin-qizlarda stress holatiga tushmaslik uchun muloqot jarayoni ularning psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Samimiy muloqotning yo‘qligi salbiy oqibatlari faqat shaxsiy darajada emas, balki oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topadi. Shunday ekan, tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni muloqatni ijobiy turlarini o‘rganish jarayonini va bu jarayonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Muloqot stress holatini yengib o‘tish xotin-qizlarga o‘zining ichki resurslarini to‘liq ochish, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish va sog‘lom munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi.

Tazyiqning turli shakllari — jismoniy, psixologik, iqtisodiy yoki ma’naviy — muloqotning murakkab va chuqur shakllarini yuzaga keltiradi. Ushbu holatda ayolning muloqotga kirishish qobiliyati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, bu shaxsning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, salbiy muloqotga chidamlilik darajasi, emotsional barqarorlik va o‘z-o‘zini baholash darajasi. Ikkinchidan, ijtimoiy omillar, ya’ni oilaviy qo‘llab-quvvatlash, do‘stlar va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam ijobiy muloqot jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ayolning madaniy va diniy qadriyatlari, hayotiy tajribasi va shaxsiy motivatsiyasi ham salbiy muloqotni yengib o‘tishda muhim hisoblanadi.

Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarda ijobiy muloqot jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bu jarayon, bir tomondan, ichki psixologik jarayonlarni boshqarish (emotsional o‘zini tahlil qilish, salbiy fikrlarni yengish, muloqotni ijobiy energiyaga aylantirish), ikkinchi tomondan esa, tashqi ijtimoiy yordamni jalb qilish (psixologik maslahatlar, guruhiy terapiyalar va jamiyat tomonidan yaratilgan qo‘llab-quvvatlash tizimlari) orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda samarali psixologik strategiyalarni ishlab chiqish, tazyiq natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish va ayolning ijtimoiy hayotga qaytishini ta’minlash muhimdir.

Shuningdek, ijobiy muloqotdan foiydalanishda psixologik yordamning to‘g‘ri tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Psixologik yordam, birinchidan, ayolning o‘ziga bo‘lgan ishonchini tiklashga, ikkinchidan, uning ijobiy muloqot manbaini aniqlash va unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, jamiyatdagi gender tengligi, ayollar huquqlarini himoya qilish va ayollarga nisbatan salbiy stereotiplarni yo‘qotish orqali ham tazyiqqa uchragan xotin-qizlarga ko‘mak berish mumkin.

Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni muloqotga kirishishdagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish ayollar salomatligi va farovonligini ta’minlashda, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida va shaxsiy hayotida barqarorlikka erishishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mavzuning chuqur o‘rganilishi va samarali strategiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat ayol shaxsining rivojlanishini, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni muloqotchanlik ko‘nikmalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ushbu mavzuni turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Xotin-qizlarning samimiy muloqotga kirishish mexanizmlarini tushunish va ularni qo‘llab-quvvatlashning samarali usullarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan, muloqot nazariyalari, travmadan keyingi o‘sish (PTG), ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik moslashuv tushunchalariga asoslanadi.

Muloqotning pisixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozgan:”Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki ,unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi.:

a)Individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni:

b)Individlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni:

d)Bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni:

e)Bir kishining boshqalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni:

f)Bir biriga hamdartlik bildirish imkoniyati:

g)Shaxslarning bir birlarini tushunish jarayoni.Psixologik ta’sir hech qanday qudratli emas,garchi ma’lum sharoitlarda odamlarning psixikasidava u orqali ularning faoliyativa xatti-harakatlarida ma’lum o‘zgarishlarni keltirib chiqarish mumkin.

1.O’zaro bog’liq bo’lgan munosabatlar toifalari.

2.Shaxslar aro munosabatlarni tuzishga urinish.

3.Hissiy komponent.

Insonlar muloqat jarayonida o'zlaridan tashqari ya'ni verbal vositalardan, turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to`xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig`i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o`zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo`lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to`ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o`rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi.

Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko`z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M. Andreevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko`rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko`zlar to`qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko`rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o`rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo`lishini ta'minlab, insonlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o`zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo`lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada insonlarni samarali muloqotga o`rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o`z uslubi bo`lib, uning nomi *ijtimoiy psixologik trening (IPT)* deb ataladi. *IPT* - muloqot jarayoniga tazyiqqa uchragan xotin qizlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni shakllantirishdir. Eng muhimi *IPT* mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Bundan tashqari Vasila Karimova tomonidan ishlab chiqilgan(2025)yil "Ijtimoiy tasavvurlarni o'rganish metodikalari",ijtimoiy psixologik so'rovnoma va ijtimoiy psixologik treninglar to'plami o'quv uslubiy qo'llanmasida ,muloqatga kirishuvchanlikni aniqlash testi berilgan bo'ib ,ushbu test asosida tazyiqqa uchragan xotin qizlarni tahlil qilsa bo'ladi. Testda 16 ta savol mavjud bo'lib ushbu savollar juda yaxshi tanlangandir.Natijalarni tahlil qilish ham ancha sodda.Savollarga "ha","yo'q","ba'zan",kabi javoblar beriladi.

Shuningdek, Bonnano (2004) o'z tadqiqotlarida stress va travmadan keyingi psixologik moslashuvda rezilientlik (qarshilik ko'rsatish qobiliyati) tushunchasini ilgari suradi. Bonnanoning fikricha, tazyiqqa uchragan xotin-qizlarda rezilientlikni rivojlantirish, ularning stressga qarshi samarali kurashishida muhim rol o'ynaydi. Bu shaxsiy xususiyat hayotdagi og'ir vaziyatlardan so'ng tezda tiklanish va ijtimoiy faoliyatda davom etish imkonini beradi. Rezilientlikni oshirish uchun psixologik yordam dasturlari, jumladan, kognitiv-harakat terapiyasi (CBT), stressni boshqarish bo'yicha treninglar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Judith Herman (1992) o'zining "Trauma and Recovery" asarida travmatik tajriba va uni yengib o'tish jarayonini o'rganadi. Hermanning ta'kidlashicha, ayollarda tazyiq va zo'ravonlikdan keyingi stress holatini yengib o'tish uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi: xavfsizlikni tiklash, esga olish va qayta ishlash, hamda shaxsiy va ijtimoiy aloqalarni tiklash. Ayniqsa, xavfsizlikni tiklash bosqichi tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni psixologik yordam jarayonida asosiy o'rinni egallaydi. Herman, shuningdek, jamiyat tomonidan genderga asoslangan zo'ravonlik va tazyiqlarning tan olinishi va unga qarshi kurashish mexanizmlarining ishlab chiqilishi stressdan chiqish jarayonini yengillashtirishini ta'kidlaydi.

Albert Bandura (1997) tomonidan ilgari surilgan o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) nazariyasi ham ushbu mavzuni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bandura o'z-o'ziga ishonchning yuqori darajasi stress holatida samarali qarorlar qabul qilish va stress manbalarini boshqarishda asosiy omil bo'lishini ko'rsatadi. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarda o'z-o'ziga ishonchni oshirish psixologik yordam jarayonining muhim qismi bo'lib, bu ularning mustaqil va konstruktiv qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi. Bandura, shuningdek, ijobiy rolli modellar va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitning shaxsiy ishonchni mustahkamlashdagi rolini alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek, Tedeschi va Calhoun (1996) tomonidan ishlab chiqilgan travmadan keyingi o'sish (Post-Traumatic Growth) tushunchasi tazyiqqa uchragan ayollarning stressdan chiqish jarayonini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ularning fikricha, stress va travma tajribasi shaxsning o'z-o'zini chuqurroq anglashiga, hayotga bo'lgan qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishiga va yangi imkoniyatlarni izlashga turtki beradi. Tazyiqqa uchragan ayollarda PTG jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun psixologik

maslahatlar, ijodiy faoliyat va ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan dasturlar samarali bo‘lishi mumkin.

Xorijiy adabiyotlarda, shuningdek, madaniy va gender omillarning stressdan chiqish jarayonidagi roliga ham alohida e’tibor qaratilgan. Nadya Aydin va Shoshana Felman (2000) tadqiqotlarida madaniy kontekstning ayollarning stressga javob reaktsiyalariga ta’siri tahlil qilinib, genderga asoslangan stereotiplarning tazyiqqa uchragan ayollarning ruhiy holatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi muhokama qilinadi.

Xorijiy adabiyotlarda tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni stress holatidan chiqarish masalasi ko‘plab psixologik nazariyalar va yondashuvlar doirasida tahlil qilingan. Ushbu ilmiy ishlanmalar stress holatini yengib o‘tishda shaxsiy va ijtimoiy resurslarning muhimligini ko‘rsatadi hamda psixologik yordamning samarali usullarini ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi. Tahlil qilingan adabiyotlar tazyiqqa uchragan xotin-qizlarning ruhiy salomatligini tiklash va ularni ijtimoiy hayotga qaytarishning kompleks yondashuvini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ko‘rsatmalar beradi.

Muhokama. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni muloqat ko‘nikmalarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, shaxsiy, ijtimoiy va madaniy omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Muhokama jarayonida ushbu masalaning dolzarbligi, asosiy psixologik mexanizmlari va samarali yondashuvlari chuqur tahlil qilinishi lozim. Chunki tazyiqqa uchragan ayollarda ijobiy muloqot muvaffaqiyatli chiqish nafaqat ularning ruhiy holatini tiklash, balki ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvini ta’minlashda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Birinchidan, ijobiy muloqotning shakllanishi va salbiy muloqotga qarshi kurashish jarayoni shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shaxsning muloqotga chidamliligi, emotsional barqarorligi va o‘z-o‘zini baholash darajasi salbiy muloqot holatini yengishda asosiy omillar sifatida ko‘riladi. Judith Herman , Judith Hermanilgari tomonidan ilgari surilgan travmatik tajriba va o‘z-o‘ziga ishonchni baholash nazariyasiga ko‘ra, inson muloqotga kirishishda vaziyatlarini qanday baholashi va ularga qanday javob berishi muloqot darajasini aniqlaydi. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlar uchun muammoga yo‘naltirilgan yondashuvlar, masalan, salbiy munosabatli muloqot manbaini aniqlash va bartaraf etish strategiyalari, emotsiyaga yo‘naltirilgan usullar, jumladan, emotsional muvozanatni tiklash va muloqotni ichki resurslar yordamida boshqarish kabi yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, stress holatidan chiqish jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Cobb va House tadqiqotlarida ijtimoiy yordam stress ta’sirini kamaytirishda asosiy vosita sifatida ta’kidlanadi. Tazyiqqa uchragan ayollar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash emotsional, informatsion va instrumental yordam ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Emotsional yordamda mehr-shafqat va tushunish ko‘rsatilsa, informatsion yordam muammoni hal qilish uchun zarur bilimlarni berishga qaratiladi. Instrumental yordam esa amaliy yordam shaklida, masalan, xavfsiz boshpana yoki moliyaviy ko‘mak tarzida amalga oshiriladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yuqori darajasi ayollarda stressga bardoshlilikni oshiradi, ularning stressdan tezroq chiqish imkoniyatini yaratadi va ijtimoiy munosabatlarni tiklashga ko‘maklashadi.

Uchinchidan, rezilientlik — stress va tazyiqdan keyingi tiklanish va moslashish qobiliyati — tazyiqqa uchragan ayollar uchun asosiy psixologik resurs hisoblanadi. Bonnano (2004) tomonidan o‘rganilgan rezilientlik tushunchasi ayolning og‘ir vaziyatlardan so‘ng o‘zining ichki kuchini topishi va ijtimoiy hayotga qayta moslashuvchanligini ta’minlashini anglatadi. Rezilientlikni oshirish uchun stressga qarshi kurashish bo‘yicha treninglar, shaxsiy rivojlanish dasturlari va ijobiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi psixologik maslahatlar muhimdir. Shuningdek, psixologik yordam jarayonida ijobiy rolli modellar va ilg‘or tajribalarni o‘rganish ayollarda o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Ayol o‘z muammolarini mustaqil hal qilishga muloqotda ishonch hosil qilganida, stress holatidan chiqish jarayoni tezroq va samaraliroq kechadi. Shuningdek, ijobiy fikrlash va o‘zini qadrlash darajasini oshirish ayollarning stressga qarshi samarali kurashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Stress holatidan chiqishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishda Judith Herman tomonidan ishlab chiqilgan travmadan keyingi tiklanish modeli alohida e’tiborga loyiq. Herman ushbu jarayonni uch bosqichga ajratadi: xavfsizlikni tiklash, travmatik tajribani esga olish va uni qayta ishlash

hamda ijtimoiy aloqalarni tiklash. Tazyiqqa uchragan ayollar uchun xavfsizlikni tiklash jarayoni ularning ruhiy va jismoniy salomatligini himoya qilish bilan boshlanadi. Shuningdek, shaxsiy tajribalarni qayta ko‘rib chiqish va ular bilan ishlash orqali stress holatining salbiy oqibatlarini yengish mumkin.

Stressdan chiqish jarayonida travmadan keyingi o‘sish (Post-Traumatic Growth, PTG) ham muhim rol o‘ynaydi. Tedeschi va Calhoun (1996) tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tushuncha stress va travma tajribasi shaxsning o‘zini anglashiga, hayotga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqishiga va yangi imkoniyatlarni izlashga olib kelishini ifodalaydi. PTG jarayonida shaxs yangi ijtimoiy rollarni qabul qiladi, shaxsiy munosabatlarni mustahkamlashga intiladi va o‘zining psixologik barqarorligini oshiradi.

Bundan tashqari, stressdan chiqish jarayonini samarali tashkil etish uchun madaniy va gender omillarni hisobga olish lozim. Nadya Aydin va Shoshana Felman tadqiqotlarida madaniy kontekst va gender stereotiplarining ayollarning stressga javob reaktsiyalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Jamiyatda gender tengligini ta’minlash va ayollarga nisbatan mavjud stereotiplarni bartaraf etish tazyiqqa uchragan ayollarning stressdan muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.

Xulosa. Tazyiqqa uchragan xotin-qizlarni muloqotchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shaxsiy, ijtimoiy va madaniy omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Salbiy muloqotni yengishda shaxsning emotsional barqarorligi, rezilientlik darajasi va o‘z-o‘ziga ishonchi asosiy rol o‘ynaydi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususan, emotsional, informatsion va instrumental yordam, ayollarda stressga bardoshlilikni oshiradi va ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvini ta’minlaydi. Travmadan keyingi tiklanish va o‘sish jarayonlarida xavfsizlikni tiklash, shaxsiy tajribalarni qayta ishlash va ijobiy psixologik resurslarni faollashtirish muhimdir. Madaniy va gender omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan psixologik yordam dasturlari tazyiqqa uchragan ayollarning muloqotchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlab, ularning ijtimoiy faoliyatini tiklashga yordam beradi. Shunday qilib, kompleks yondashuv va tizimli psixologik qo‘llab-quvvatlash ayollarda muloqat orqali salbiy oqibatlarini yengib o‘tishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Madumarov Talatbek Tolibjonovich, & Gulomjonov Odiljon Rahimjon o’g’li. (2021). Prerequisites for the development of a leasing mechanism in public - private partnership. International Engineering Journal For Research & Development, 6(SP), 5. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7MXR3

2.L.Tolstoy ,muloqot qarashlarning turlari haqidagi bilimlari G.M. Andreev.

3. Vasila Karimova tomonidan ishlab chiqilgan(2025)yil ”Ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish metodikalari” -18 b.Muloqot ga kirishuvchanlikni aniqlash testi.Cobb, S. (1976). Social support as a moderator of life stress. *Psychosomatic Medicine*, 38(5), 300–314. – 314 p.

4.Bonanno, G.A. (2004). Loss, trauma, and human resilience. *American Psychologist*, 59(1), 20–28. – 28 p.

5.Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. New York: W.H. Freeman. – 604 p..

6.Лебедев, И.В. (2010). *Психология стресса и методы психологической помощи*. Москва: Институт психологии РАН. – 312 с.

7.Бодров, В.А. (2000). *Психология профессионального стресса*. Москва: Пер Сэ. – 287 с.

8.Рубинштейн, С.Л. (2003). *Основы общей психологии*. Санкт-Петербург: Питер. – 430 с.

9.Карамова, Л.В. (2015). Социально-психологическая поддержка женщин в кризисных ситуациях. *Вопросы психологии*, №5, 45–53 с.

10.Леонтьев, Д.А. (2011). *Психология смысла*. Москва: Смысл. – 360 с.

11.Normurodov, O. (2017). *Ijtimoiy psixologiyaning dolzarb masalalari*. Toshkent: Fan va texnologiya. – 240 bet.

Yoziyev Yorkin
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Sa'dullayeva Yulduzxon
Turon universiteti Xalqaro munosabatlar
yo'nalishi talabasi

ZAMONAVIY RAHBAR ISH FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI VA MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy rahbar ish faoliyatini samarali tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari va mexanizmlari o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham psixologiya fani sohasida juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *mehnat jamoasi, boshqaruv, rahbar, boshqaruv xodimlari, boshqaruv usullari, boshqaruv tamoyillari, bozor iqtisodiyoti, motivatsiya.*

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ И МЕХАНИЗМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННОГО ЛИДЕРА

Аннотация. *В статье изучаются научно-практические основы и механизмы эффективной организации работы современного руководителя. Рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, научных исследованиях, проводимых учеными в этом направлении. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение этой проблемы и сегодня весьма актуально в области психологии.*

Ключевые слова: *трудовой коллектив, менеджмент, лидер, управленческий персонал, методы управления, принципы управления, рыночная экономика, мотивация.*

SCIENTIFIC AND PRACTICAL PRINCIPLES AND MECHANISMS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF LABOR ACTIVITIES OF A MODERN LEADER

Abstract: *The article studies the scientific and practical foundations and mechanisms of effective organization of work of a modern manager. It tells about theoretical and practical aspects of the problem, scientific research conducted by scientists in this direction. Research conducted by the author shows that the study of this problem is still very relevant in the field of psychology.*

Key words: *work collective, management, leader, management personnel, management methods, management principles, market economy, motivation.*

Kirish. Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirayotgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Tabiiyki, bugungi globallashuv, kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir vaqtda, biz ham mustaqil vatanimiz uchun shunga munosib, yuksak salohiyatga ega bo'lgan rahbarlar tayyorlash choralarini ko'rib borishimiz, yangicha fikrlaydigan, har jihatdan yetuk, tashabbuskor, el-yurt kelajagiga befarq bo'lmagan boshqaruv xodimlari zaxirasini yaratishga jiddiy e'tibor berishimizni davrning o'zi talab qilmoqda. Zero, yurtimiz ravnaqi, uning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va xalqimiz turmush darajasining yuqori bo'lishi ko'p jihatdan ana shu rahbar kadrlarga bog'liq bo'lib, qachonki ular har jihatdan namuna bo'lsa, odamlarni ishontira olsa, qiyin damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilsa, harakatchan va shijoatli, bilimdon, hayot bilan hamqadam yuradigan bo'lsa, jamiyatimiz yanada yaxshiroq rivojlanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda muhim Uyg'onish jarayoni kechayotgan, jumladan "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangrayotgan bir davrda ham boshqaruv sohasida olib borilayotgan islohatlarni yanada yaxshilash va zamonaviylashtirish vazifalarini qo'ymoqda. Bunda asosiy e'tibor rahbarning boshqaruv uslublarini isloh qilish va yanada zamonaviylashtirish, ularning samarali ishlashlari uchun yetarli shart-sharoitlar

yaratib berish masalalariga qaratilgan bo‘lib, har bir rahbar uchun tajriba orttirish, namunalardan foydalanish, malaka oshirish, zamonaviy uslub, vosita va yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirish jamoaga samarali rahbarlik qilishning muhim omili ekanligi e’tirof etilmoqda. Yangi davr rahbardan zamonaviy texnologiya, yangicha jihozlash, original qurilmalar, kompyuterlarning yangi modellari, universal elektron hisoblash mashinalari bilan munosabatga kirishish malakalarini egallashni taqozo etmoqda. Agar mustabid tuzum davrida, ma’muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida bu vazifalar ikkinchi darajali vazifalar deb qaralgan bo‘lsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrida ular birinchi o‘ringa chiqarildi. Shu boisdan ham, keyingi yillarda xalq xo‘jaligini malakali rahbar kadrlar bilan ta’minlash, ular mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligini oshirish, umuman olganda, rahbarning mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish masalasida yangicha yondashish jiddiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlarning tahlili. Boshqaruv jarayonini samarali tashkil etishning psixologik muammolarini o‘rganish azaldan g‘arb olimlarining diqqat markazida bo‘lgan. Bu borada G.Gibsh, M.Forverg, B.Bass, D.Barretta, K.Berd, K.Levin, R.Laykert, L.Berkovets, V.Xeytxorn, F.Fidler, D.Mak-Gregor va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari tahsinga loyiqdir. Klassik rus psixologiyasida esa jamoaga samarali rahbarlik qilish va boshqaruv uslublarini zamonaviylashtirish muammolari S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, A.G.Kovalyov, B.F.Lomov, A.A.Bodalyov, V.N.Myasishev, B.D.Parigin, K.K.Platonov, V.I.Mixeyev, A.L.Svensitskiy singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topgan, hozir ham ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Ularning asarlarida liderlik va boshqaruv muammolari, rahbar motivatsiyasi, xodimlar motivatsiyasini boshqarish, mehnat jamoasida shaxslararo munosabatlar xususiyatlari, rahbarning ish o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar, rahbarlik uslublarini zamonaviylashtirish va takomillashtirish, xotin-qizlar rahbarligi va madaniy boshqaruv masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilingan.

Mustaqillik yillarida psixologiya fanining boshqaruv sohasida respublikamiz miqyosida qator ilmiy-amaliy ishlar olib borildi. O‘zbekistonda boshqaruv jarayonini tashkil etishning psixologik omillari dastlab E.G‘oziyev, M.Davletshin, G‘.Shoumarov, V.Karimova singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik ushbu masalalar bilan shug‘ullanuvchilar safi kengayib bordi. Jumladan, D.Muxamedova, I.Mahmudov, E.Sattorov, X.Alimov, M.Yo‘ldoshev, F.Akramova, N.Boymurodov, O.Shamiyeva, O.Hayitov, N.Ro‘ziqulov, Sh.Xoliqova, Sh.Azizova, Z.Abdurahmonova, S.Ergasheva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari boshqaruv muammosini o‘rganishni jadallashtirishga xizmat qildi. Mamlakatimiz psixologlari rahbarni uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, shaxsning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda, inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog‘liq tarzda tushuntirishga harakat qilganlar.

Psixolog olim E.G‘oziyev tadqiqot natijalariga tayangan holda rahbarlik muammosiga ko‘p qirrali yondashishga intiladi va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritadi. Muallifning ilmiy izlanishlari boshqaruvning ijtimoiy psixologik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda rahbar psixologiyasi, uning boshqaruv qobiliyati, ish uslubi, shaxsiy fazilatlari, nufuzi, shaxslararo munosabatlar xarakteri va rahbar kadrlar tayyorlash masalalariga kengroq o‘rin beriladi. Uning ta’kidlashicha, boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun rahbar idora qilishning qaysi bo‘g‘inida bo‘lishidan qat’i nazar muayyan qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Rahbar shaxsi barkamolligi, qat’iy xarakteri, milliy qiyofasidan tashqari bir qator qobiliyatlarga ega bo‘lishi tabiiy ravishda obro‘ qozonishga puxta negiz hozirlaydi, lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratadi, istiqbol rejalarini ro‘yobga chiqaradi. Rahbarda tashkilotchilik, iymon-e’tiqodlilik, nufuz va nutqiy qobiliyat, sezgirlik, muomala o‘rnatuvchanlik, diqqatni yo‘naltirish, aniqlik, xolislik, safarbarlik kabi maxsus qobiliyatlarning bo‘lishi uning muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim omillar hisoblanadi.

A.G.Kovalyov o‘z tadqiqotlarida jamoa rahbarining nufuzi (avtoriteti) masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Rahbar avtoritetining boshqaruv samaradorligiga ta’siri, avtoritetli rahbarning shaxsiy qiyofasi, yuksak obro‘ga ega bo‘lgan rahbarning namunasi, avtoritetni shakllantirishning yo‘llari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlili va ulardan kelib chiqadigan xulosalar muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning psixologiya faniga qo‘shgan hissasidan yana biri – bu rahbar tipologiyasi va rahbarlik uslublari mohiyati, majmuasi atroflicha tahlil qilinganligidir. Buning uchun muallif jamoa hayotida rahbarning ahamiyati va roli masalasini yoritishga intiladi hamda bu borada muayyan yutuqqa erishadi. Rahbar va uning ish

uslubi bosqichma-bosqich, shakliy va mazmuniy jihatdan tuzilishi bo‘yicha nazariy, amaliy materiallar umumlashtiriladi. Rahbar tiplarining psixologik tabiati keng ko‘lamda bayon qilinadi hamda izohlab beriladi [7].

Rus psixologi D.M.Ramendik boshqaruv psixologiyasi muammolarini samarali o‘rgangan olimlardan biri bo‘lib hisoblanadi. U o‘z izlanishlarida, asosan, endi rahbarlik lavozimiga o‘tirgan yosh mutaxassislarning ijtimoiy-psixologik qiyofasini tadqiq etishga harakat qilgan. Jumladan, yosh rahbarning mehnat jamoasiga moslashuvi, boshqaruvga kasbiy psixologik tayyorgarlik, jamoadagi ijobiy va nizoli munosabatlar, turli ruhiy tazyiqlar va chigal xatti-harakatlarning oldini olish yo‘llari, samarali muloqot olib borish imkoniyatlari, xodimlar motivatsiyasi, rahbar qobiliyatini rivojlantirish va tayyorgarlikni takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlari muallif tomonidan olib borilgan izlanishlarda keng ko‘lamda bayon qilinadi va izohlab beriladi. Muallifning e’tiroficha, yaxshi rahbar bo‘lish uchun insonda faqat xohishning bo‘lishligi kamlik qiladi. Turli temperamentdagi insonlar ichida sangvinik va xoleriklar ko‘proq rahbarlik mavqeiga erishsalarda, uni faqat temperament xususiyatlari bilan bog‘lab tushuntirish muammoga bir tomonlama yondashishdan boshqa narsa emas. Chunki rahbar barkamol bo‘lishi uchun shaxsiy xususiyatlaridan tashqari, lider sifatida o‘ziga ishongan bo‘lishi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi, aql-idrok va farosat bobida yuksak bo‘lishi, korxona istiqboli yuzasidan qat’iy qarorga kelishi, ijodiy fikrlash, tahlil qilish va chamalash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bu vazifalarni hal etish rahbar uchun kelajak istiqbolini yaratishdan tashqari, xodimlarni jalb qilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega [3].

Muhokama va natijalar: Tajriba va kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, zamon talablariga to‘la javob bera oladigan, ilg‘or g‘oyalar asosida qurollangan, har tomonlama barkamol, izlanuvchan, tadbirkor, salohiyatli va fidoyi rahbarlargina hayot bilan hamqadam yurib, bozor iqtisodiyoti muhitiga to‘liq moslasha oldilar. Yangi davr rahbardan zamonaviy texnologiya, yangicha jihozlash, original qurilmalar, kompyuterlarning yangi modellari, universal elektron hisoblash mashinalari bilan munosabatga kirishish malakalarini egallashni taqozo etmoqda. Agar mustabid tuzum davrida, ma’muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida bu vazifalar ikkinchi darajali vazifalar deb qaralgan bo‘lsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrida ular birinchi o‘ringa chiqarildi. Shu boisdan ham, keyingi yillarda xalq xo‘jaligini malakali rahbar kadrlar bilan ta’minlash, ular mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligini oshirish, umuman olganda, rahbarning mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish masalasida yangicha yondashish jiddiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy manbaalarda talqin qilinishicha, inson salomatligining holati atigi 8-10% tibbiy xizmat sifatiga, 20% atrof-muhit holatiga, yana 20% genetik moyillikka va 50% insonning turmush tarziga bog‘liq bo‘lar ekan. Agar atrof-muhit holati va insonning turmush tarzi birgalikda 70%ni tashkil etsa, rahbarning ish o‘rni va mehnat sharoitini yaxshilash, ularga xizmat ko‘rsatishni yanada yaxshilash va zamonaviylashtirish, sog‘lig‘ini saqlash va mehnatini meyorlashtirish boshqaruv psixologiyasi fani oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Kattami, kichikmi, qaysi mansabda bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir bir rahbarning mehnatini namunali tashkil etish, uning mehnat unumdorligining muttasil o‘sishini ta’minlash, rahbarning ish o‘rnini tashkil etish va ularga xizmat qilishni yaxshilash, sog‘lig‘ini saqlashga nisbatan qo‘yiladigan aniq talablarni belgilash vaqtida uni ilmiy asosda tashkil etishning asosiy vazifalari va tamoyillaridan kelib chiqib amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jadval-1

Rahbarning o‘z ish faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni baholash natijalari (n=100)

№	Ta’sir etuvchi omillar	Juda yomon darajada (%)	O‘rtacha darajada (%)	Talab darajasida (%)
1.	Ish o‘rnida mehnat uchun qulay sanitariya-gigiyena va estetik sharoitlarning mavjudligi	33	42	25
2.	Ishlash uchun qulay bo‘lgan mebel jihozlari va texnik vositalarning mavjudligi	21	48	31
3.	Vakolatidan tashqari qo‘shimcha topshiriqlarning ko‘pligi	48	31	21

4.	Moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi	38	36	26
5.	Ish vaqti meyorlariga amal qilishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi	46	34	20
6.	Mehnat qilish va dam olishning oqilona tartibi joriy etilganligi	39	42	19
7.	Xizmat vakolatlarining bir qismini xodimlariga taqsimlashning mavjudligi	43	36	21
8.	O'zini o'zi kamol toptirish uchun shart-sharoitning mavjudligi	28	44	28
9.	Ma'muriy boshqaruvda axborotlar ta'minotining yetarli ekanligi	18	48	34
10.	Qo'shimcha ishchi o'rinlari va mehnat qilish korpuslarini kengaytirish talab darajasida ekanligi	38	35	27

Olib borgan tadqiqotlarimizda, korxonalarda rahbar mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish yetarli darajada tashkil etilmaganligi, bu ayniqsa, rahbarning xizmat burchlarini taqsimlash va muvofiqlashtirish (43%), ish kunini, mehnat va dam olish sharoitini tartibga solish (39%), ish vaqti meyorlariga amal qilinmaslik (46%), mehnatga ongli va ijodiy munosabatda bo'lish, o'z vakolatidan tashqari qo'shimcha topshiriqlarning ko'pligi (48%), korxonada qo'shimcha ishchi o'rinlari va mehnat qilish korpuslarini kengaytirish (38%) kabi faoliyatlariga ekspertlar tomonidan "past" yoki "o'rta" baho qo'yilganligiga guvoh bo'ldik. Zero, o'zini yetakchi deb hisoblaydigan bugungi zamonaviy rahbar uchun boshqaruv faoliyatining har bir jabhasi va funksiyalarini yuqori darajada egallash, o'z vazifalari, huquqlari va mas'uliyatini to'g'ri tushunish, rahbarga tegishli bo'lmagan funksiyalardan o'zini ozod qilish, oqilona tashkil etilgan ish kuni tartibini belgilash va unga rioya qilish, dam olish rejimiga amal qilish, sanitariya-gigiyena, ergonomiya va estetika talablarini hisobga olgan holda o'zi uchun qulay bo'lgan ish o'rnini yaratish juda muhimdir.

Kirish. Oila har qanday jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida shaxsning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Biroq so'nggi yillarda oila instituti doirasida sodir bo'layotgan zo'ravonlik holatlari nafaqat shaxsga, balki jamiyat barqarorligiga ham tahdid solmoqda. Oilaviy zo'ravonlik nafaqat jismoniy, balki psixologik, iqtisodiy va emotiv shakllarda ham namoyon bo'lib, uning oqibatlari ko'pincha ko'zga ko'rinmas, ammo uzoq muddatli ta'sirga ega bo'ladi. Ushbu

ilmiy ishda oilaviy zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan psixosotsiologik determinantlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Xususan, shaxslararo munosabatlardagi xo'jalik-boshqaruv ixtiloflari, genderga oid stereotiplar, ijtimoiy bosim, ishsizlik va ta'lim darajasi kabi omillarning ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqsad – zo'ravonlikni kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalar va psixologik interventsiya modellarini ilmiy asosda ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlarini baholash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni[1] ning to'rtinchi bandidagi ijtimoiy sohani rivojlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar ijrosi, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.2020-yildagi PQ-4602-son "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oila jamiyatning eng faol bo'g'ini va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ta'lim-tarbiya o'chog'i sanaladi. Oilalardagi ijtimoiy muhit va undagi barqaror bo'lgan qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga o'z ta'siri ko'rsatadi. Bugungi kunda oilaviy munosabatlar tizimida oilaviy zo'ravonlik masalalari tez-tez muhokama qilinadigan bo'lib qoldi.

Psixologlar va sotsiologlar zo'ravonlik turlarining ikkita tasnifi qabul qilinadi va ko'pincha qo'llaniladi. Birinchi tasnif zo'ravonlik harakatlarining tabiatiga asoslanadi va zo'ravonlikning jismoniy, jinsiy, psixologik (emotsional) va iqtisodiy kabi turlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, zo'ravonlik integral xarakterga ega bo'lib, zo'ravonlikning har bir turi ajralmas qism sifatida psixologik (emotsional) zo'ravonlikni o'z ichiga oladi. Bir qator mualliflar ruhiy zo'ravonlikni jismoniy zo'ravonlik ta'sirining katalizatori yoki undan oldingi omil sifatida ko'rishadi.

Ikkinchi tasnif esa zo'ravonlik ob'yektining xususiyatlariga qaratilgan bo'ladi, ya'ni yosh xususiyatlari (bolalar yoki qariyalarga nisbatan zo'ravonlik), jins xususiyatlari (ayollarga yoki erkaklarga nisbatan zo'ravonlik), sog'liq holati (nogiron yoki muomalaga layoqatsizlarga nisbatan zo'ravonlik), oilaviy munosabatlar (qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar), etnik kelib chiqishi, kasbi, ijtimoiy mavqei jihatidan va b. Hozirgi kunda bolalarga nisbatan zo'ravonlik, turmush o'rtog'iga nisbatan zo'ravonlik va qariyalarga nisbatan zo'ravonlik turlari eng dolzarb bo'lib qolmoqda.

Zo'ravonlik harakatlarining eng keng tarqalgan va aniq shakli jismoniy zo'ravonlikdir. Jismoniy zo'ravonlik boshqa shaxsga nisbatan qasddan jismoniy zo'rlik ishlatib, shaxsning sog'ligi yoki hayotiga zarar yetkazishga qaratilgan bo'lib, jismoniy daxlsizligini buzishda namoyon bo'ladi. Lekin bunday xolatda jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir ko'rsatish ham inkor qilinmaydi.

Jismoniy zo'ravonlik - qiynoqlar, kaltaklash, itarib yuborish, tirnash, tishlash, bo'g'ish, o'tkir tig'li sovuq qurol va o'qotar qurollardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Oilaviy hayotning hali ham mavjud patriarxal usuli, shuningdek, erkakning o'ziga xos jismoniy kuchi oilada kim tajovuzkor va kim qurbon ekanligini aniq belgilaydi. turmush o'rtoqlarning oiladagi tajovuzkor munosabatlar muammosi, odatda juda keng tarqalgan. Ayollar ham erlaridan kam bo'lmagan holda tez-tez turmush o'rtoqlariga hujum qilishadi. Chunki ayollarning tajovuzkorligi erkaklarning tajovuzkorligidan kam emas va ehtimol undan biroz oshib ketadi. Yurtimizdagi faoliyat olib borayotgan inqiroz markazlari statistika ma'lumotlariga ko'ra, markazlariga yordam so'rab murojaat qilgan ayollarning 80% i jismoniy zo'ravonlik aziyat chekmoqdalar.

Jismoniy zo'ravonlik qurbonlari asosan, tanadagi ko'karishlar, kuyishlar, suyaklardagi yoriqlar bilan shikastlanadilar. Kamdan kam hollarda, ichki shikastlanish va abortlar bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ba'zi qurbonlar burun sinishi va lablar yorilishiga xotirjam munosabatda bo'ldilar.

Oilaviy zo'ravonlikning eng keng tarqalgan yana bir turi-psixologik zo'ravonlik bo'lib, jismoniy zo'ravonlikdan farqli ravishda, kam tilga olinadi. CHunki, jismoniy zo'ravonlikdan farqli o'laroq, bu

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони.//lex.uz

zo'ravonlikni aniq belgilari tanada kuzatilmaydi. Jismoniy zo'ravonlik bevosita, ruhiy zo'ravonlik bilvosita amalga oshiriladi.

Psixologik zo'ravonlikdan zo'ravonlikning boshqa turlariga nisbatan ko'proq zarar yetkazishi va uzoq davom etadigan ta'sirga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Chunki insoniy his-tuyg'ularga hurmatsizlik muhiti (odam doimiy yoki tez-tez tanqid qilinsa, doimiy ravishda baqirib munosabatda bo'linsa yoki e'tibordan chetda qolsa) shaxsning o'ziga xos imidjiga chuqur va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina bu zo'ravonlik qurbonlari vaziyatni va o'zlarining salbiy holatini yengish uchun spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar yoki dori-darmonlarga murojaat qilishadi.

Jinsiy zo'ravonlik zo'ravonlikning yana bir keng tarqalgan shaklidir; Jinsiy zo'ravonlik-oilaviy munosabatlarda oila a'zolari va qarindosh urug'lari o'rtasida zo'ravonlikni qo'llashdir. Jinsiy zo'ravonlik deyarli barcha holatlarda qurbonning roziligisiz amalga oshiriladi. Jinsiy zo'ravonlik-insonning irodasiga qarshi jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilishda, jinsiy kamsitish shaklida ifodalangan zo'ravonlikning bir turi xisoblanadi.

Jinsiy zo'ravonlikning maqsadi yoki natijasi majburiy homiladorlik yoki aksincha, majburiy abort bo'lishi mumkin. Jinsiy zo'ravonlikda tajovuzkor o'z qurbonini jinsiy aloqa qilishga majburlaydigan xatti-xarakatlar bilan qo'rqitishi, aloqa vaqtida muayyan harakatlarga majburlash, aloqani o'ta shafqatsizlik bilan amalga oshirish, parnografik ko'rinishdagi xatti-harakatlarni ko'rishga yoki takrorlashga majburlash yoki uning jinsiy daxlsizligiga qarshi zo'ravonlik harakatlarini amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy munosabatlarda turmush o'rtoqlarning yoshi 18-24 yosh oralig'ida, shuningdek, nikoh yoshi ikki yildan kam bo'lgan oilalarda, bolaligida ota va ona o'rtasidagi zo'ravonlikka guvoh bo'lgan turmush o'rtoqlar, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilish jinsiy zo'ravonlik xavfini oshiradigan omillar xisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, er-xotin o'rtasidagi jinsiy zo'ravonlik har doim ham mavjud muammo sifatida qabul qilinmaydi, chunki ko'pchilik turmush o'rtog'ining bunday harakatlarini qonuniy deb hisoblaydi. Bu nuqtai nazar nafaqat ommaviy ijtimoiy ongda, balki ilmiy adabiyotlarda ham mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan zo'ravonlik turlari va ularning xususiyatlariga qo'shimcha ravishda, iqtisodiy yoki moliyaviy zo'ravonlikni ham oilaviy munosabatlarda keng tarqalgan. Iqtisodiy zo'ravonlik- oila a'zolaridan biri ikkinchisini oila byudjetini boshqarish, pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish imkoniyatidan mahrum qilishga urinishda kvalifikatsiya qilinadi.

Oiladagi iqtisodiy zo'ravonlik-kundalik xayotda oilaning bir yoki bir necha a'zosi tomonidan boshqa bir a'zosini turli baxonalar bilan pul va buyumlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilish orqali moddiy yordam (pul, oziq-ovqat, kiyim-kechakva h.k) so'rashga majburlashdir.

L.S.Alekseev ta'rifi bilan aytganda, iqtisodiy zo'ravonlik- oila byudjeti mablag'larini oilaning hukmron bo'lgan a'zosi tomonidan taqsimlanishi, uning tomonidan pul mablag'larining sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi bo'lib, mehnatga majburlash, har qanday moliyaviy yoki moddiy boyliklarni o'zlashtirish, pul mablag'lardan cheklash yoki to'liq mahrum etish kabi ko'rinishlari bilan ruhiy bosim va haqoratni ifodalash shaklidir.

Xulosa qilib aytganda, zo'ravonlik qurbonlari zo'ravonlikning bir nechta turlaridan a'ziyat chekadilar. Chunki zo'ravonlik odatda "klaster" xarakterga ega bo'lib, jinsiy zo'ravonlik ruhiy zo'ravonlik fonida jismoniy zo'ravonlik bilan birga keladi. Jismoniy va ruhiy zo'ravonlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ruhiy zo'ravonlik jismoniy zo'ravonlikning katalizatori yoki undan oldingi omil sifatida qabul qilinadi. Ko'pincha jinsiy zo'ravonlik jismoniy zo'ravonlik bilan birga keladi,iqtisodiy zo'ravonlik o'z mohiyatiga ko'ra psixologik zo'ravonlikning o'ziga xos kichik turidir.

Bir qator tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, odatda, ko'pchilik ayollar erlariga nisbatan ko'proq psixologik zo'ravonlik qo'llashlari, erkaklar esa bunga javoban jismoniy kuch ishlatishga moyilligi bo'ladilar. So'rovda qatnashgan turmush qurgan ayollarning aksariyati (61%) ular birinchi bo'lib og'zaki janjal boshlaganliklarini va turmush o'rtog'i tomonidan jismoniy zo'ravonlikka uchraganliklarini tasdiqladilar. SHunday qilib, ko'rib chiqilgan tasnifga muvofiq, oilada zo'ravonlik ko'rinishining murakkabligi, ko'p o'lchovli va xilma-xilligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar. 1-jadval. Statistik jihatdan muhim farqlarga ega bo'lgan tajriba va nazorat guruhlaridagi ayollar oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari.

Parametrlar nomi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1. Erkaklar yoshi	32,1*	35,99*
2. Erkaklar ta'lim darajasi	3,16*	3,63*
3.Erning ish bilan ta'minlanganligi	0,7*	0,88*
4. Er va xotin o'rtasidagi yosh farqi	1,76*	4,1*
5.Er tomonidan ichishning chastotasi	4,5*	2,59*
6.Erining giyohvand moddalarni iste'mol qilish chastotasi	1,26*	1*
7.Oilaviy hayotdagi stressli vaziyatlar	336***	199***

3 ta yulduzcha - r<0,001; 2 ta yulduzcha - r<0,01; 1 ta yulduzcha - r<0,05 ahamiyatlilik darajasida farq qiluvchi parametrlarni ko'rsatadi. .

Tadqiqot natijalar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarning turmush o'rtoqlari nisbatan yosh va ma'lumot darajasi past bo'lib, bunday oilalar er-xotin o'rtasidagi yosh farqining kattaligi bilan xarakterlidir. Tajriba guruhidagi oilalarda ko'proq erining ish bilan band emasligi, oilaning umumiy oylik daromadining pastligi, shuningdek, erning spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste'mol qilishi bilan tavsiflanadi. Olingan natijalar J.L.Jasinski, L.M.Williams ma'lumotlariga to'g'ri keladi, chunki ularning tadqiqotlarida ham ayollarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik bilan bog'liq ijtimoiy-demografik omillar orasida turmush o'rtoqning ijtimoiy-iqtisodiy holatining past darajasi aniqlangan . Bunday natija Goodening pozitsiyasi (oilaviy zo'ravonlik hodisasi resurs nazariyasi nuqtai nazaridan tushuntiriladi)ga mos keladi, shunga ko'ra oila a'zolaridan biri qanchalik ko'p resursga ega bo'lsa, u o'zaro munosabatlarda kamroq kuch ishlatadi, chunki zo'ravonlik ko'pincha boshqa manbalar yetarli bo'lmaganda yoki umuman bo'lmaganda yuzaga keladi134. Shunday qilib, ma'lumot darajasi va obro'ning pastligi, ishda maoshning kamligi hamda o'zaro munosabatlarda yetarlicha malakaga ega bo'lmagan er hukmron mavqeini saqlab qolish uchun kuch ishlatishga majbur bo'ladi. Tadqiqotimiz davomida eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasida "ayolning ish bilan bandligi" parametri bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar shunda ediki, oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollar ishlamaslik ehtimoli ko'proq ekanligini ko'rsatdi. Erlarning spirtli ichimliklarni iste'mol qilish chastotasidagi farq bo'yicha olingan natijalarimiz spirtli ichimliklarni tez-tez va ko'p miqdorda ichishlarini aniqlagan mualliflar Barnett O.W., Fagan R.W ma'lumotlariga mos keladi. Spirtli ichimliklarning ta'siri o'z o'rnida shaxsiy muammolar, ota-onalarining munosabatlarida zo'ravonlik mavjudligi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, vaziyat va o'zaro munosabatlarning o'ziga xos shakllari parametrlari bilan ham vositachilik qiladi. Shu bilan birga bu omillar spirtli ichimliklar bilan bog'liq oilaviy zo'ravonlik uchun xavf omillari bo'lib xizmat qiladi. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish oqibatida ayolning verbal va noverbal harakatlarining ma'nosini yetarli darajada idrok etish qobiliyatining pasayadi. Shu bilan birga, eng past darajadagi zo'ravonlik spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaydigan yoki ulardan juda ko'p foydalanadigan erlarga xosdir. Shunday qilib, zo'ravonlik mavjud bo'lgan oilalarda er-xotinlardan birining ishdan mahrum bo'lishi yoki boshqa ishga o'tishi, farzandi yoki boshqa oila a'zolaridan birining jiddiy kasalligi, yashash joyini o'zgartirish, homiladorlik yoki bola tug'ilishi, oila daromadining keskin pasayishi kabi hodisalar mavjud bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Adabiyotlarni tahlili, sotsiologik so'rov tahlillari va empirik tadqiqot natijalari asosida o'zbek oilalarida er-xotin o'rtasidagi zo'ravonlikning kelib chiqish sabablarini quyidagi guruhlarga ajratdik:

- oiladagi nosog'lom psixologik muhit.
- oilaviy munosabatlarga 3-shaxsning aralashuvi
- oila a'zosining spirtli ichimlikka ruju qo'yishi
- oilada ma'naviy axloqiy tarbiyaning zaifligi yoki sustligi
- oiladagi moddiy yetishmovchilik va qiyinchiliklar
- turmush o'rtog'ini noadekvat rashk qilishi, erkak yoki ayolning xiyonati
- jamiyatdagi stereotip fikrlash tarzi

Mazkur muammoning yechimi bo'yicha takliflar: OAV jamoatchilik fikrini o'zgartira olishga ega bo'lgan shaxslarni ushbu mavzudagi diniy va dunyoviy chiqishlarini ta'minlash; zo'ravonlikni kamaytirishda OAV, videoroliklar yaratishda o'zbek xalqining milliy urf-odatlariga tayangan holda, professional ekspertlarni ko'proq jalb etish; aholi orasida huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni olib borish; zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan ishlovchi reabilitatsiya markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun ularda hisob-kitob, tikuvchilik, tadbirkorlik asoslari shuningdek motivatsion treninglar o'tkazilishi zo'ravonlik holatiga tushgan xotin-qizlarni jamiyatga integratsiyasiga ko'maklashadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.//lex.uz

2."Xotin – qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.lex.uz

3. O'zbekiston yuridik entsiklopediyasi. –T., 2009. –B. 199.

4. Yuridik atamalar izohli lug'ati: 1-jild –T., 2007. –B. 410.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., 2009. –B. 167-168.

6. Насилие и его влияние на здоровье. Доклад о ситуации в мире - М: Издательство «Весь Мир», 2002, 4-б

7. Киреев Г.Н. Сущность насилия. - М.,1990.,18-б

8. Джавадов Ф.М. Квалификация насильственных преступлений, совершенных с применением оружия.Автореф. дисс. канд. юрид. наук. М., 1985. С. 31

9. Сердюк Л.В. Насилие. Криминологическое и уголовно-правовое исследование. М., 2002. С. 179

10. Dobash R.F.,Dobash R.P. Violence against wives: a case against patriarchy. NY, 1979.

11. Гендерный подход к проблеме насилия: психологические стратегии и роль образовательных программ / Ред.коллег.:Г.Ф.Беляева и др. М., 2002. С. 31

12. Антонян Ю.М. Преступность среди женщин.- М.: Российское право, 1992.-256 с.

13. Partner violence. A comprehensive review of 20 years of research/Ed. By J.L.Jasinski, L.M.Williams. - Sage Publications, 1998. - 314p.

14. Психологическая помощь пострадавшим от семейного насилия: Научно-методическое пособие / Под ред.Л.С.Алексеевой. М., 2000. С. 14

15. Римашевская Н., Ванной Д., Малышева М. И др. Окно в русскую частную жизнь. Супружеские пары в 1996г. М., 1999. С. 205.

Hakimov Firuz Norboy o‘g‘li
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail:firuzbek.hakimov1994@gmail.com
Erkinova Zamira Hayotjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Annotatsiya. *Boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish deganda, ta’lim jarayoni sub’ektlararo munosabatlarda muloqotli maqsadlarga erishish uchun kasbiy masalalarni hal etishda ijodiy fikrlash orqali real, nostandart metodlarini namoyon qiluvchi ijobiy xatti-harakatlarni tavsiflovchi qobiliyat tushuniladi.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinflar, ta’lim jarayoni, o‘quv-tarbiya, ijodiy fikrlash, rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, boshqarish, ta’lim faoliyati, o‘quvchi, umumiy o‘rta ta’lim, ta’lim texnologiyalari hamda vositalar.*

METHODS OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY CLASSES BASED ON A CREATIVE APPROACH

Аннотация. *Под управлением образовательным процессом в начальных классах на основе творческого подхода понимается умение описывать позитивное поведение, проявляющееся реальными, нестандартными методами посредством творческого мышления при решении профессиональных задач с целью достижения коммуникативных целей в межсубъектных отношениях образовательного процесса.*

Ключевые слова: *Начальные классы, учебный процесс, образование, творческое мышление, развитие, цифровые технологии, менеджмент, образовательная деятельность, учащийся, общее среднее образование, образовательные технологии и инструменты.*

ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF A CREATIVE APPROACH

Abstract. *Management of the educational process in primary grades based on a creative approach is understood as the ability to describe positive behavior that manifests real, non-standard methods through creative thinking in solving professional issues in order to achieve communicative goals in intersubjective relations of the educational process.*

Key words: *Primary grades, educational process, education, creative thinking, development, digital technologies, management, educational activities, student, general secondary education, educational technologies and tools.*

Kirish. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga qaratilgan o‘qitish jarayonini takomillashtirish zaruratini yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish, kompitesiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim tizimi sifatini oshirish va olim ta’lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish [1], salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va

TNE xalqaro reytinglariga kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori oliy ta’lim tizimini sohasini isloh qilish, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashga, oliy ta’lim tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tadbiq etishga alohida e’tibor qarata boshladi. Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarorida o‘z ifodasini topgan. Qolaversa, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da ham oliy ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilishga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Natijalar va muhokamalar. Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlshtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Tadqiqot maqsadi. Yangilangan ta’lim mazmuniga binoan o‘qitish jarayonini tashkil etishda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillariga qat’iy rioya qilish, zamonaviy interfaol ta’lim metodlari hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘qitishni tashkil etishning eng samarali usullaridan foydalanish lozimligini hamda mazkur jarayonda o‘qituvchi mas’uliyati va vazifalarini yanada oshirishni belgilab berdi.

Oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish texnologiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, intervyu, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Talabalarning ijodkorligi va kreativligi tafakkur va muloqot qilishlarida, hissiyot va tuyg‘ularida, turli faoliyat turlarida o‘z aksini topgan. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham namoyon bo’ladi.

Aynan shuning uchun ham so‘nggi yillarda kreativ ta’limni kreativ rivojlanish shakli tadqiqotchi - pedagoglar tomonidan faol o‘rganilib kelinmoqda

Xorijiy va mahalliy nashrlarning qiyosiy tahlili kreativlik qobiliyatni o‘rganishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko‘p qirrali hususiyatlarini ko‘rsatadi. Keltirilgan tahlillarning asosiy tushunchasi – “kreativlik” so‘zi mohiyatini falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan deb tahlil qilingan.

Zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu o‘quv-tarbiya jarayonini shunchaki bilim berish vositasidan ko‘ra, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida qayta ko‘rib chiqishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu nafaqat bilim asoslarini qo‘yish, balki shaxsning dunyoqarashi, qiziqishi, erkin fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun eng muhim poydevor sanaladi. Shu jihatdan, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv-tarbiya jarayoni boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuv – bu an'anaviy va shablon yondashuvlardan farqli o'laroq, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, qiziqishlarini, tafakkur darajasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish demakdir. Bu yondashuvda muallim – bilim beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quvchini o'rganishga undovchi, quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu rolning o'zgarishi o'quvchilarda tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuvni o'quv-tarbiya jarayoniga singdirishning samarali usullari bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu – dars mazmunining kreativ elementlar asosida boyitilishi. Masalan, matnli topshiriqlarni muammoli vaziyatlar orqali berish, o'quvchilarni topqirlikka, savol berishga, taxmin qilishga undovchi savol-javob usullari, interfaol o'yinlar, rolli o'yinlar va didaktik ssenariylar orqali o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin.

Ikkinchidan, kreativ yondashuv o'quv muhitini erkin, qiziqarli va o'quvchini rag'batlantiruvchi tarzda tashkil etishni talab qiladi. Bu degani, sinf xonasida ijodiy muhit yaratilishi kerak – vizual vositalar, interaktiv doskalar, qo'l mehnati burchaklari, o'quvchilarning ijodiy ishlari aks ettirilgan burchaklar o'z-o'zidan o'quvchini faol harakatga chorlaydi. Bu kabi muhit o'quvchilarda o'ziga ishonchni oshiradi, shuningdek, mustaqil fikrlashga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

Uchinchidan, kreativ yondashuvda o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi har bir mavzuni qiziqarli shaklda, turli metodlar orqali yoritishni, dars davomida bolalarning emotsional holatini nazorat qilishni, ularni ruhlantirishni o'z zimmasiga oladi. Masalan, klaster, akvarium, "fikrlar charxi", "sinkveyn", "shaxsiy kundalik", "afsona yaratish" kabi metodlar orqali o'quvchilarning fikr yuritish doirasi kengayadi, muloqot ko'nikmalari rivojlanadi, ijtimoiy tajriba ortadi.

Bundan tashqari, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, mini-tadqiqotlar, kichik guruhlarda ishlash kabi faoliyat turlari ham boshlang'ich sinflarda katta samara beradi. Bu usullar orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni yaxshiroq tushunadilar, balki jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash, muammoni turli burchaklardan yoritish kabi muhim ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Ta'lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan olganda, ijodiy yondashuv orqali olib borilgan darslarda bolalarda emotsional motivatsiya kuchayadi, o'zini anglash, o'z fikrini qadrlash hissi shakllanadi. Mashhur rus olimi L.S. Vygotskiyning fikricha, bolaning rivojlanish zoni (yaqin taraqqiyot zonasi) ijodiy va ijtimoiy faoliyat orqali kengayadi. Shu bois, kreativ darslar nafaqat bilim berishga, balki bolaning ichki intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida aytilganlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, maktabdagi o'quvchilik davrida ijodiy fikrlash sifat jihatidan ham, moddiy jihatdan ham, protsessual yo'nalishlarda ham rivojlanadi va bu rivojlanish, avvalo, o'quvchi uchun yangi bo'lgan va shu tufayli yuzaga kelgan ta'lim faoliyati bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

2. 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son.

3. 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son.

4. Khakimov, F. (2024). Methods of developing creative thinking skills of primary class students. Confrencea, 5, 89-92.

Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

BO'LAJAK O'QITUVCHINING PROFESSIONAL KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA YANGI YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchining professional kompetentsiyalarini rivojlantirish yo'llariga yangi yondashuvni muhokama qiladi. Yozma asarda, o'qituvchining malakalarini kuchaytirish uchun samarali metod va strategiyalarni tatbiq etish zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Mahalliy va global ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek, o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak o'qituvchi, professional kompetentsiya, rivojlantirish, yangi yondashuv, ta'lim, o'qitish usullari, innovatsiyalar, amaliyot, pedagogika, muntazam tayyorgarlik.*

НОВЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация*. Данная статья обсуждает новый подход к развитию профессиональных компетенций будущих учителей. В ней подчеркивается необходимость внедрения эффективных методов и стратегий для повышения квалификации учителей. Обсуждаются изменения в местной и глобальной образовательных системах, а также потребность учителей в саморазвитии.*

Ключевые слова: *будущий учитель, профессиональная компетенция, развитие, новый подход, образование, методы обучения, инновации, практика, педагогика, регулярная подготовка.*

A NEW APPROACH TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article discusses a new approach to developing the professional competencies of future teachers. It emphasizes the necessity of implementing effective methods and strategies to enhance teachers' qualifications. The paper addresses the changes in local and global education systems, as well as the need for teachers to pursue self-development.*

Keywords: *future teacher, professional competence, development, new approach, education, teaching methods, innovations, practice, pedagogy, ongoing training.*

Kirish. Hozirgi kunda jamiyat va davlatning iqtisodiy ta'lim natijadorligi va raqobatbardoshligiga bo'lgan e'tibori ortib borayotgan sharoitda, sobiq Sovet makonida kelajakdagi iqtisodchilarni professional kompetentsiyasini shakllantirish masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Oliy iqtisodiy ta'lim tizimini isloh qilish yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan bo'lib, ular ijodiy potentsialga va yuqori IQ darajasiga ega bo'lishi, odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ochiq axborot jamiyatini qurishga qodir bo'lishi zarur.

Zamonaviy ochiq global jamiyatda iqtisodiy potentsialini ijodiy amalga oshirishga tayyor iqtisodchilarni tayyorlashga bo'lgan talab doimiy ravishda ortib bormoqda. Shuning uchun kelajakdagi pedagoglarning professional kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasining dolzarbligi ortib bormoqda.

"Kompetentsiya" (inglizcha "competence" – "qobiliyat") – bu nazariy bilimlarni samarali qo'llash, faoliyatda yuqori professional ko'nikmalar, malakalar va talantlarni namoyon etish qobiliyatidir. Psixologik nuqtai nazardan, kompetentsiya "mutaxassisning noan'anaviy vaziyatlarda, kutilmagan (noan'anaviy) vaziyatlarda harakatlar rejasini egallashini, o'zaro ta'sirda bo'lish, raqobatchilar bilan o'zaro ta'sirda yangi usulda harakat qilish, noaniq vazifalarni bajarishda va ma'lumotni ketma-ket rivojlanayotgan va murakkab jarayonlarda ishlatish qobiliyatini anglatadi."

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchining roli va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bo'lajak

o'qituvchilar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga hissa qo'shish vazifasini ham bajarishlari kerak. Shu bois, professional kompetentsiyalarni rivojlantirishga yangi yondashuvlar zaruriyati keskin ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. O'qituvchilarning kompetentsiyalari o'zlarining bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari orqali ifodalanadi. Aynan shu sababdan, muallimlarni tayyorlash jarayonida innovatsion metod va yondashuvlar qo'llanilishi zarur, bu esa ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'ladi. Ushbu maqolada, holda bu muammolar va ularni hal etish usullari batafsil ko'rib chiqiladi.

Ta'lim tizimi, zamon talablari asosida shaxsni shakllantirishga chaqirilgan. Bunday talablar insonning demokratik va gumanistik qadriyatlarni rivojlantirishga, shuningdek, mahalliy va global muammolarni hal qilishga hissa qo'shishiga ko'maklashishni nazarda tutadi. Buning uchun inson kerakli malakalar va o'zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Shaxsiy va professional rivojlanish uchun zarur sharoitlar ta'minlanishi lozim. Har bir insonning ichki ijobiy kuchini ochish, qobiliyatlarini rivojlantirishga va hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berish ta'limning asosiy maqsadidir. Buning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun shaxs o'z-o'zini rivojlantirishga motivatsiya topishi va shaxsiy hamda professional anglash darajasiga yetishi kerak.

O'qituvchilar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish g'oyalarini amalga oshirishlari uchun nazariy va amaliy jihatdan tayyor bo'lishlari zarur. O'quvchilar faqat bilimlar to'plovchisi emas, balki ushbu bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashga, ijodiy fikrlashga va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashga qodir bo'lishlari kerak. O'qituvchi professional malakaga ega bo'lishi lozim, bu esa zamonaviy usullar va qobiliyatlar to'plamiga asoslanishi kerak. "O'qituvchi-o'quvchi" tizimida, ular o'zaro hamkorlikda tengdosh sifatida harakat qiladilar.

Professional ta’limning pedagogik tizimi uchta: shaxsiy, mazmunli va tashkiliy komponentda namoyon bo‘ladi. Shaxsiy komponent professional ta’lim tizimning o‘zagi bo‘lib, har bir shaxs uchun individual ta’lim yo‘nalishlarini qurishni, talabalarning keyingi kasbiy o‘sishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni ta’minlashni nazarda tutadi. Mazmun komponenti amaldagi Davlat ta’lim standartlari, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarini ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik jihatdan bashoratlash ma’lumotlarini hisobga olgan holda keng doiradagi professional ta’lim dasturlarini ishlab chiqishni ko’zda tutadi. Tashkiliy komponent ta’lim shakllari, metodlari va texnologiyalarining ta’lim maqsadlari va mazmuni bilan bog‘liqligidan kelib chiqqan holda o‘zgaruvchanligini ta’minlaydi.

Biroq, bugungi kunda ko'plab faktlar ko'rsatadiki, ko'pchilik o'qituvchilar, jumladan, universitet bitiruvchilari, professional malaka darajasida yetarli tayyorgarlikka ega emaslar. Ularning professional tayyorgarligi asosan nazariy bilimlarga asoslangan bo'lib, o'quv jarayonida avtoritar o'qitish uslublari keng tarqalgan. "Kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'z mazmunidagi kenglik va ularning jahon ta'lim maydonida tarqalganligi sababli afzalroq hosoblanydi.

Muhokama. Kompetentlikka yo‘naltirilgan hamda an’anaviy yondashuvlarning ilmiy-qiyosiy tavsiflash natijasida malaka talablari asosida bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasbiy muhim sifatlar, kasbiy intellekt, kasbiy qobiliyat, individual-psixologik xususiyatlar va metodik kompetentlikning tarkibiy komponentlari mazmuni bilimlarni majmuaviy amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan kasbiy ko‘nikmalarni kiritish orqali takomillashtirilgan; bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan, tarkibiy jihatidan o‘zaro bog‘langan bir butun yaxlit integral tuzilmani tashkil etuvchi didaktik tizimi, innovatsion metodologiyasi, samadorlikni aniqlashga qaratilgan natija bloklarini o‘zida mujassamlashtirgan tashkiliy-tuzilmaviy modeli takomillashtirilgan; zaruriy kasbiy kompetensiyalarning alohida komponentlarini va pedagogik faoliyatni o‘ziga xos bosqichlarini rivojlantirishga imkon beruvchi o‘qitish usullari, shakllari va vositalarini integratsiyalash orqali pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan metodik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi “Agile ta’lim texnologiyalari” asosida takomillashtirilgan; bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari hamda kredit-modul tizimi talablari asosida mustaqil ta’limni ijodiy faollashtiruvchi omili sifatida o‘zini-o‘zi (kuchli, kuchsiz va muvozantlovchi tomonlarini) rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Problem Based Learning” texnologiyalarini qo‘llash asosida takomillashtirilgan; bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligini

rivojlantirishga qaratilgan baholash komponentlarini kasbiy faoliyatda qo‘llay olish jarayonida talabalarning amaliy harakatlar majmuasini rivojlanganligini diagnostik, prognostik mezonlari va darajalarini (yuqori, o‘rta, quyi) ob’ektiv baholovchi ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

O'qituvchilar o'z malakalarini oshirishga va professional rivojlanishga yuqori motivatsiyaga ega bo'lishi bilan birga, o'z-o'zini tahlil qilish ham muhim rol o'ynaydi. Yangi yondashuv o'qituvchilarni shaxsiy maqsadlar va rejalarga e'tibor berishga undaydi. O'qituvchilar uchun innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish o'z malakalarini kuchaytirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Misol uchun, interaktiv o'qitish usullari va muammoli vazifalar orqali o'zaro muloqot va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.Ta'lim jarayonida amaliy tajribalarni qo'llash o'qituvchilarni real sharoitlarda muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. O'qituvchilarning uslubiy tajribalari orqali talabalarning o'rganish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'qituvchilar global ta'lim tendensiyalari va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'z uslublarini moslashtirishda ko'proq qobiliyatga ega bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladilar. Yangi yondashuv o'qituvchilarni muntazam ravishda kasbiy tayyorgarlik kurslarida ishtirok etish va ularning ijtimoiy hamkorligini oshirishga undaydi. Bu esa ularning profesional kompetentsiyalarini doimiy ravishda rivojlantirish imkonini beradi. O'qituvchilar o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni qo'llashga va yangi usullarni izlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tadqiqotlar olib borish va yangi metodlarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar davomiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari va yangi talablarni nazardan chetda qoldirmasliklari muhimdir. Bu ularning kasbiy faoliyatlariga va shaxsiy muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu natijalar, bo’lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida yangi yondashuvlarni tatbiq etish orqali professional kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning natijalari sifatida ko'rilishi mumkin. Ta'lim jarayonida samarali o'qitish va o'rganish muhitini yaratish har qanday pedagogik tizimning asosiy tamoyillaridan biridir.

Natijalar. Bo’lajak o’qituvchilarni professional kompetentsiyalarini rivojlantirishda yangi yondashuvlar joriy etilishi, ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

O’quv jarayonining samaradorligi: Integratsiyalashgan ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o’qituvchilarning bilim va ko’nikmalari kengayadi, bu esa o’quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga imkon yaratadi.

Kreativ va analitik fikrlash: O’qituvchilarni muammolarni hal qilish ko’nikmalari bilan ta'minlash, ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ta'lim jarayonida yangi yondashuvlar va metodlarni qo’llashga undaydi.

Reflektiv amaliyotlar: O’z-o’zini baholash va refleksiya jarayonlari o’qituvchilarga o’z ishlarini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi, bu esa ularning professional o’sishini ta'minlaydi.

Hamkorlik va mentorlik: Tajribali o’qituvchilar bilan mentorlik dasturlari orqali yangi o’qituvchilar o’z bilim va ko’nikmalarini rivojlantirishda yordam oladilar. Bu hamkorlik, o’zaro tajriba almashinuvi va o’zaro qo’llab-quvvatlash muhitini yaratadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning professional kompetentsiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar qo'llanilishi zarur. Bugungi ta'lim tizimidagi tezkor o'zgarishlar, jamiyatning dinamik talablari va global muammolar o'qituvchilarning kompetentsiyalarini muntazam ravishda yangilashni talab etadi.

O'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib, o'z o'quvchilarini samarali tarzda yo'naltira olishlari kerak. Shuningdek, ta'lim jarayonida kommunikativ qobiliyatlar, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari kabi soft skill'larni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurdir.

Maqolada taklif etilgan yangi pedagogik yondashuvlar, masalan, guruhiy ishlar, loyiha asosida o'qitish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchilarning malakalarini oshirishda ijobiy natijalar berishi mumkin. Kelajakda, ta'lim jarayonlarida bu yondashuvlarni tizimli ravishda qo'llash, o'qituvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlab, zaruriyatlar asosida ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda professional kompetentsiyalarni rivojlantirishga

qaratilgan innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga muvofiq tarzda tayyorlangan mutaxassislarni yetishtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdulazizov, A. (2019). Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar va ularning ta'siri. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
2. Ergashov, E. (2020). O'qituvchining professional kompetentsiyalari: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Jamolova, L. (2018). O'qituvchining shaxsiy rivojlanishi va professional tayyorgarligi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
4. Murodova, G. (2021). Zamonaviy ta'lim metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Tashkent: Fan va texnologiya.
5. Sirojiddinov, T. (2022). Pedagogik kompetentsiyalarni rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
6. Tashkent davlat pedagogika universiteti (2023). O'qituvchilarni malakasini oshirish dasturi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Usmonova, N. (2020). Ijtimoiy talablar va ta'lim: muhim masalalar. Nukus: Qoraqalpog'iston davlat universiteti.
8. Xolmatova, D. (2021). Ta’limdan innovatsiyalar: yangi yondashuvlar. Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti.

Inoyatova Zulfiya Xamdamovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim pedagogika kafedrasi dotsenti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O‘QITISHDA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish deganda, ta’lim jarayoni sub’ektlararo munosabatlarda muloqotli maqsadlarga erishish uchun kasbiy masalalarni hal etishda ijodiy fikrlash orqali real, nostandart metodlarini namoyon qiluvchi ijobiy xatti-harakatlarni tavsiflovchi qobiliyat tushuniladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, boshlang‘ich sinflar, ta’lim jarayoni, o‘quv-tarbiya, ijodiy fikrlash, rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, boshqarish, ta’lim faoliyati, o‘quvchi, umumiy o‘rta ta’lim, ta’lim texnologiyalari hamda vositalar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРЕПОДАНИИ НАУКИ О ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье исследуются научно-педагогические проблемы совершенствования методической подготовки и профессионального развития учителей начальных классов. Обобщены мнения зарубежных и отечественных исследователей. Научно обоснованы принципы, теоретические и педагогические аспекты профессионального развития учителей начальных классов. Под управлением образовательным процессом в начальных классах на основе творческого подхода понимается способность к описанию позитивного поведения, проявляющегося реальными, нестандартными методами посредством творческого мышления при решении профессиональных вопросов с целью достижения коммуникативных целей в межсубъектных отношениях образовательного процесса.*

Ключевые слова: *совершенствование методической подготовки учителей начальных классов, начальных классов, учебный процесс, образование, творческое мышление, развитие, цифровые технологии, менеджмент, образовательная деятельность, учащийся, общее среднее образование, образовательные технологии и средства.*

ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF A CREATIVE APPROACH

Abstract. *In this article, scientific-pedagogical problems of improving methodical training and professional development of primary school teachers are studied. It summarizes the opinions of foreign and local researchers. The principles, theoretical and pedagogical aspects of professional development of primary school teachers are scientifically based. Management of the educational process in primary grades based on a creative approach is understood as the ability to describe positive behavior that manifests real, non-standard methods through creative thinking in solving professional issues in order to achieve communicative goals in intersubjective relations of the educational process.*

Key words: *Improving methodological training of primary school teachers, primary classes, educational process, education, creative thinking, development, digital technologies, management, educational activities, student, general secondary education, educational technologies and tools.*

Kirish. Jahonda ta'lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy tajribani shakllantirishning innovatsion usullariga ustuvorlik berishga

e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim va umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini integratsiyalash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiya fanini o‘qitish sifatlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Jumladan, YUNESKOning 2030-yilgacha bo‘lgan “Barqaror rivojlanish” dasturida belgilab qo‘yilgan amaliy vazifalarni bajarishda boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni tarbiya fanini o‘qitishda ularni tartib-intizomga o‘rgatish va rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish dolzarb vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta’lim tizimi sifatini oshirish va olim ta’lim qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Olib borayotgan ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi - O‘zbekistonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini, o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirib, didaktik imkoniyatlarini, metodlarini aniqlab uni pedagogik jarayonga tatbiq etishdan iborat. Hozirgi vaqtda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z o‘rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Bu, ayniqsa, matematika fanini o‘qitish jarayonida juda zarur. O‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy jamiyatdagi tub o‘zgarishlar oliy ta'limni sezilarli darajada qayta yo‘naltirishni, ta'lim shakllari, vositalari va usullarini optimallashtirishni, mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlashni talab qiladi.

Natijalar va muhokamal. Eng avvalo “Tarbiya” faniga to‘xtalishdan oldin tarbiya tushunchasining o‘zini bayon qilish lozim. Tarbiya - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, yoshlarda halollik, poklik, burch, vijdon, oliyjanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Tarbiya insonlarning o‘ziga, oilasiga, yaqinlariga, do‘stu yorlariga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan xulq-atvor me'yorlarining (normalarining) majmuasidir. Tarbiya keng qamrovli tushuncha sifatida inson faoliyatining hamma jabhalariga ta'sir ko‘rsatadi. Tarbiya hamma soha - ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, bo‘sh vaqtda ham kishilar xulq-atvorini, insoniy munosabatlarini tartibga soladi. Tarbiya ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farq qilib, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy vazifalarni bajaradi.

Dunyoda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish va bu borada tarbiyaga integratsion yondashuv asosida o‘quvchilarda tarbiyaviy kompetentsiyani tarkib toptirishning innovatsion-pedagogik modellarini ishlab chiqishga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maqbul diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali o‘quvchilarning axloqiy tarbiyalanganligini tashxis etishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, bolalarni dastlabki odob-axloq qoidalariga o‘rgatish, ularga amalga qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda integrallashgan mashg‘ulotlar asosida metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash» , shu bilan birgalikda umumiy o‘rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, tarbiyaviy ishlarga oid talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rgatish, ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Yurtimizda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga tayyorlash metodikasini doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda, boshlang‘ich ta'limda

o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o‘qitish sifatining samaradorligini oshirish, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, intervyu, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot maqsadi. Yuqoridagi qarorga muvofiq umumta’lim muassasalarida “Vatan tuyg‘usi”, “Odobnoma”, “Dunyo dinlari tarixi” hamda “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fanlarini birlashtirib yagona “Tarbiya” fani 1 - 9- sinf o‘quvchilarida 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab, 10 - 11-sinf o‘quvchilarida esa – 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab o‘quv soatlariga ajratilgan asosiy soatlar doirasida ketma-ketlikda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Yangilangan ta’lim mazmuniga binoan o‘qitish jarayonini tashkil etishda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillariga qat’iy rioya qilish, zamonaviy interfaol ta’lim metodlari hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, o‘qitishni tashkil etishning eng samarali usullaridan foydalanish lozimligini hamda mazkur jarayonda o‘qituvchi mas’uliyati va vazifalarini yanada oshirishni belgilab berdi.

Xulosa. Maqolada integratsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni “Tarbiya” fanini o‘qitishga metodik tayyorlashga yo‘naltirilgan didaktik vaziyatlar mazmuni, prinsiplari, pedagogik-psixologik imkoniyatlari takomillashtirilgan, shuningdek, integratsion yondashuv asosida o‘quvchilarni tarbiyaviy-axloqiy bilimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning didaktik, psixologik xususiyatlari, mazmuni va vositalari jamlangan.

Farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida esa ma’naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga e’tiborli bo‘laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma’nan, ruhan sog‘lom, o‘z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo‘lib o‘sib unishining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son.

3. Inoyatova, Z. X., Po’Latova, G. N., & Xojimurodova, D. (2022). Ta’lim jarayonida o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Science and Education, 3(12), 795-800.

4. Inoyatova, Z. (2023). Boshlang’ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodologiyasi. Евразийский журнал академических исследований, 3(11), 28-31.

Ismatova Zulayxo Asadovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim pedagogika kafedrasi dotsenti
E-mail: zulayhoismatova@gmail.com
O‘roqova Aziza Aktamjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU magistri

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O’QITUVCHILARIDA TABIIY FANLAR DARSLARIDA KREATIVLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Tabiiy fanlar darslarida kreativ yondashuv o‘quvchilarning fanni sevib o‘rganishiga, ilmiy dunyoqarashining kengayishiga yordam beradi. Kreativlik tabiiy fanlar darslarini yanada samarali va qiziqarli qiladi. O‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish kelajak avlodning ilm-fan va texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogika sohasida kreativ metodikalardan foydalanish va tabiiy fanlar bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni dars jarayoniga tatbiq etish orqali zamonaviy ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy fanlar, kreativ yondashuv, o‘quvchilar, ilmiy dunyoqarash, samarali, qiziqarli, kreativlik qobiliyatlari, kelajak avlod, ilm-fan, qiziqishini oshirish, pedagogika sohasi, innovatsion yondashuv, dars jarayoni, tatbiq etish, zamonaviy ta’lim jarayoni, bosqich, ijodiy, ta’lim tizimi.*

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Креативный подход на уроках естествознания способствует увлечению учащихся наукой, расширению их научного мировоззрения. Креативность делает уроки естественных наук более продуктивными и увлекательными. Развитие творческих способностей педагогов способствует повышению интереса будущего поколения к науке и технике. Поэтому вывести современный образовательный процесс на новый уровень можно за счет использования креативных методик в области педагогики и внедрения в учебный процесс инновационных подходов к естественным наукам.*

Ключевые слова: *естественные науки, креативный подход, учащиеся, научное мировоззрение, продуктивные, интересные, творческие способности, будущее поколение, наука, повышение интереса, область педагогики, инновационный подход, процесс урока, применение, современный образовательный процесс, этап, креатив, система образования.*

THE FORMATION OF CREATIVE ABILITIES IN SCIENCE LESSONS FOR FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. *A creative approach in natural science lessons helps students to become interested in science and expand their scientific worldview. Creativity makes science lessons more productive and exciting. The development of creative abilities of teachers helps to increase the interest of the future generation in science and technology. Therefore, it is possible to bring the modern educational process to a new level through the use of creative methods in the field of pedagogy and the introduction of innovative approaches to natural sciences into the educational process.*

Keywords: *natural sciences, creative approach, students, scientific worldview, productive, interesting, creative abilities, future generation, science, increasing interest, field of pedagogy, innovative approach, lesson process, application, modern educational process, stage, creativity, education system.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchilardan nafaqat o‘z fanini chuqur bilishni, balki dars jarayonini qiziqarli, samarali va ijodiy tashkil qilishni talab etadi. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning kuzatuvchanlik, tahlil qilish hamda mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijodiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik – bu muammolarni original tarzda hal qilish, yangicha fikrlash va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Kreativ o‘qituvchilar tabiiy fanlar darslarida interaktiv metodlardan foydalangan holda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga yordam beradilar. Ushbu maqolada tabiiy fanlar darslarida kreativlikni shakllantirishning ahamiyati, kreativ pedagogikaning o‘quv jarayonidagi o‘rni, uni rivojlantirish usullari va baholash mezonlari haqida so‘z yuritiladi.

Natijalar va muhokamalar. Kreativlik va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni juda katta. Kreativlik – bu o‘quvchilarning o‘z bilimlarini yangicha va original tarzda qo‘llay olish, muammolarni innovatsion usullar bilan yechish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida kreativlik quyidagi jihatlar bilan muhim hisoblanadi:

1. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish. Bunda kuzatishning ahamiyati katta bo‘lib, o‘quvchilar o‘z kuzatuvlariga asoslangan holda yangi xulosalar chiqaradilar.

2. Interfaol o‘qitish. Bu o‘qitishda o‘quvchilar faoliyat orqali o‘rganish samaradorligi ortadi.

3. Fanlararo bog‘liqlikni tushunish. Bilamizki tabiiy fanlar bir necha biologiya, fizika, kimyo, astronomiya, geografiya kabi fanlardan tashkil topgan bo‘lib, o‘quvchilar bu fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglaydi.

4. Muammoli vaziyatlarni hal qilish. O‘quvchilar bunda nafaqat dars yuzasidan berilgan muammoli vaziyatlarni balki real hayotdagi muammolarni ijodiy usullarda yechishga o‘rganadilar.

Masalan, dars davomida suv aylanish jarayoni haqida tushuncha berishda faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanmasdan, o‘quvchilar bilan tajribalar o‘tkazish (suv bug‘lanishi, yomg‘ir hosil bo‘lishi) ularning mavzuni yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

Tabiiy fanlar darslarida kreativlikni shakllantirishning ahamiyati katta. Tabiiy fanlar darslarida kreativ yondashuv o‘quvchilarning fanni sevib o‘rganishiga, ilmiy dunyoqarashining kengayishiga yordam beradi. Bunda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Eksperimentlar. Eksperimentlar o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘zlari tajribalar o‘tkazib, xulosalar chiqaradilar.

2. Rolli o‘yinlar. Masalan, o‘quvchilar turli tabiatshunos olimlar rolida chiqish qilishlari, ekologlar sifatida tabiatni asrash haqida ma’lumotlar berishlari, hayvonlar misolida ularni asrash kerakligi va ularning tabiatda tutgan o‘rni haqida chiqish qilishlari mumkin.

3. Ilmiy loyihalar. O‘quvchilar o‘zlari ma’lum bir darajadagi kichik tadqiqotlar olib borib, o‘z natijalarini taqdim qilishlari mumkin.

4. Ochiq darslar. Mavzular yuzasidan tabiatda o‘tkaziladigan ekskursiya darslar orqali mavzularni real hayot misolida tushuntirish kabilarni keltirish mumkin. Misol uchun, o‘quvchilar bilan birga urug‘ ekish va uning o‘sish jarayonini kuzatish orqali o‘simliklar olami haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Bu ularga darsni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tushunishga yordam beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik qobiliyatini shakllantirish usullarining o‘rni benihoya katta. Kreativ pedagogikani rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. STEAM-ta’lim. Bunda yuqorida aytganimizdek tabiiy fanlar bir necha biologiya, fizika, kimyo, astronomiya, geografiya kabi fanlardan tashkil topgan bo‘lib fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish orqali ijodkorlikni oshirish.

2. Gamifikatsiya ya’ni o‘yin elementlari orqali murakkab tushunchalarni osonroq o‘zlashtirish.

3. Muammoli o‘qitish. Bu o‘qitishni o‘z ichiga olgan darslarda o‘quvchilarga yangi ma’lumotlarni o‘zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif qilinadi. Bundan o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo‘llash usullarini egallashlari ko‘zda tutiladi. Shunday masalalardan bilimlarni tekshirishda o‘zlashtirishning chuqurligi va ongliliknni aniqlash uchun foydalaniladi. Darsda muammoli vaziyat yaratish murakkab didaktik masaladir. Har bir dars muammoli bo‘lishi mumkin.

Muammoli o‘qitishning samaradorligi faqat material chinakam idrok muammoga ega bo‘lgandagina bilinadi. Muammoli xarakterdagi darsni o‘tish uchun o‘qituvchi undagi muammoli vaziyatlarni oldindan ajratishi, qo‘yilgan muammoni yechishda o‘quvchilar faoliyatining borishini belgilovchi metodik vositalarni aniqlashi, darsning barcha tafsilotlarini puxta o‘ylab chiqishi kerak.

Dars shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo‘yilgan muammoga bolalarda qiziqish uyg‘onsin, uning bilim olish tizimidagi ahamiyati ko‘rsatilsin, yangi bilimiar olishga ehtiyoj tug‘ilsin. Muammoli

darsning birinchi bosqichida o‘quvchilar qaysi tayanch bilimlarga asoslanib oldilariga qo‘yilgan masalalarni hal qilishlari mumkinligini aniqlash zarur. Bu bosqichda o‘qituvchining ishi o‘quvchilarga yordam berish, ularning faolligini o‘quv materiali bilan ishlash va aqliy faoliyat uslublarini to‘g‘ri tanlashga qaratishdan iborat bo‘lishi lozim. O‘qituvchi tomonidan yo‘naltirilgan o‘quvchilar vujudga kelgan muammoli vaziyatni tahlil qiladilar, idrok qilish vazifasini aniqlaydilar, uni hal qilishga o‘zlarining bilim hamda turmush tajribalarini safarbar qiladilar.

Muammoli darsning kelgusi bosqichlari o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil faoliyatidir. Izlanish ishlari jarayonida umumiy muammo jism (narsa) yoki hodisalarning biror muhim belgilarini kuzatish yoki o‘rganilayotgan obyektning muhim va muhim bo‘lmagan belgilarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan qator vazifalarga ajratilishi mumkin. Izlanish jarayonida taqqoslash, tahlil, sintez qilish, umumlashtirish kabi fikrlash faoliyati keng qo‘llaniladi.

O‘quvchilarning o‘quv vazifalarini mustaqil hal qila olishlariga erishish muammoli o‘qitishning eng muhim belgilaridan biridir va u o‘qituvchi uchun ancha qiyin masaladir. Bunda o‘qituvchi faqat o‘quvchilar ishiga rahbarlik qilishi, eng zarur holatlardagina ularga yordam berishi, biroq hech qachon ularning o‘rnini olmasligi, ular uchun murakkab muammolarni hal qilmasligi kerak.

Masalan: erta bahorda o‘simliklar mavzusidagi muammoli darsni misol qilib keltirish mumkin. Dars tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan bahorgi ekskursiyadan keyin o‘tkaziladi, unda o‘quvchilar kunduzi quyoshning balandligi qanday o‘zgarganligini, kun uzunligining ortganligini va isishning o‘simlik hamda hayvonot dunyosiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligini kuzatadilar. Kirish suhbati davomida o‘quvchilarga erta bahorda jonli va jonsiz tabiatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida hikoya qilish taklif qilinadi. Bunda ular xiyobonda daraxtlarning yalang‘och turganligini, yer chiriyotgan barglar qatlami bilan qoplanganligini, biroq ba’zi o‘simliklar (boychechak, binafsha, chuchmoma, lola va hokazolar) gullayotganini albatta aniqlaydilar. Suhbatga “Erta gullovchi o‘simliklar” tushunchasi kiritiladi, uning ma'nosi ochib beriladi, keyin nima uchun sanab o‘tilgan o‘simliklarning erta gullovchilar deb aytilishi aniqlanadi. Endi bu o‘simliklar bolalarga ekskursiyadan tanish, shunga ko‘ra o‘qituvchi o‘quvchilarning ularning farqiga bora olishlarini tekshirish uchun savollar beradi. Buning uchun doskaga o‘simliklarning nomlari: binafsha, chuchmoma, boychechak, lola deb yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar bu nomlarni o‘qib, o‘simlikni gerbariy yoki ko‘rgazmali quroldan ko‘rsatadilar va uning nomini aytadilar.

Keyin sanab o‘tilgan o‘simliklarning har birini qarab chiqish va ta’riflash taklif qilinadi. O‘simliklarning tuzilishlari taqqoslanganda o‘qituvchi muammoli o‘qitish metodidan foydalanadi, nima uchun lola, boychechak, binafsha, chuchmoma erta gullaganligi aniqlanadi. O‘quvchilar o‘simliklar tashqi tuzilishining o‘xshashligi va xilma-xilligi to‘g‘risida xulosalar chiqarishlari kerak.

Bu bilimlar darsda yangi materialni o‘rganish va qo‘yilgan muammoni butunlay hal qilish uchun tayanch bo‘ladi. Kirish hikoyasi oldidan topshiriqlar bajartirib, o‘qituvchi o‘simliklardagi o‘xshashlik faqat yerusti qismlaridagina emas, balki yer osti qismlarida ham bo‘lishini belgilaydi va o‘z hikoyasini binafsha, chuchmoma, boychechak, lola ildizlarini ko‘rsatish bilan tugatadi. Demak, bu o‘quvchilarga masalalar berish va ularni mustaqil hal qilishga yo‘naltirish.

4. Tajribaviy yondashuv laboratoriya ishlarini tashkil etish ga qaratilgan.

5. Ochiq savollar va loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga yo‘naltirish.

O‘quvchilarning kreativ qobiliyatini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

1. Ijodiy yondashuv – o‘quvchilarning topshiriqlarga o‘ziga xos yondashuvi.
2. Muammolarni hal qilish – berilgan muammolarni innovatsion usulda hal qilish qobiliyati.
3. Loyihalar yaratish – o‘quvchilarning mustaqil ravishda loyihalar ishlab chiqishi.
4. Fanlararo yondashuvni tushunish – tabiiy fanlarni boshqa sohalar bilan bog‘lash qobiliyati.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kreativlik tabiiy fanlar darslarini yanada samarali va qiziqarli qiladi. O‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish kelajak avlodning ilm-fan va texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogika sohasida kreativ metodikalardan foydalanish va tabiiy fanlar bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni dars jarayoniga tatbiq etish orqali zamonaviy ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ismatova Z.A., Orifova O.J. Tabiiy fanlar darsligida berilgan osimliklarning xilma-xilligi mavzusini oqitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi mavzusidagi II Халқаро миқиёсидаги илмий-амалий анжуман materiallari. Jizzax, 2022. 35-38 b.

2. Ismatova Z.A., Orifova O.J. Ekskursiya darslarida integrativ yondashuv asosida amaliy ishlarni tashkil etish. Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 4.28. ISSN (E): 2181-3000 Vol. 1 ISSUE 10 JANUARY 2023. 2023.14-21. –b.

3. Ismatova Z.A., Orifova O.J. Boshlangich talim tabiiy fanlar darsligidagi osimlik organlari mavzusini oqitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi mavzusidagi II Халқаро миқиёсидаги илмий-амалий анжуман materiallari. Jizzax, 2022. 344-346 b.

4. Xodiyeva D.P., Ismatova Z.A., Tursunova M.B. Theoretical and practical foundations of the competence approach to the primary education system. Journal of Pharmaceutical Negative Results. Volume 13. Special Issue 6. 2022. 2415-2422. –P. https://www.pnrjournal.com/index.php/home/issue/view/25

Ismoilova Gulrux Ulug‘bekovna
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MILLIY DASTUR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIGA QO‘YILGAN ILMIY – METODIK TALABLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslariga Milliy dastur asosida qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar keng yoritilgan. Ona tili ta’limining zamonaviy talablari, o‘qitish usullari, kompetensiyalarni rivojlantirish, dars mazmunining zamon bilan hamnafas bo‘lishi, o‘quvchilar faoliyatining interaktiv va ijodiy asosda tashkil etilishi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, o‘qituvchining roli, metodik yondashuvlar va madaniy-ma’naviy tarbiya masalalari ham tahlil etilgan. Maqola ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda ilmiy izlanuvchilar uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, ona tili, ilmiy-metodik talablar, Milliy dastur, o‘qitish metodlari, kompetensiya, kommunikativ yondashuv, ma’naviy tarbiya, interfaollik, innovatsion ta’lim.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ

Аннотация. *В данной статье широко освещены научно-методические требования, предъявляемые к урокам родного языка в начальных классах на основе национальной программы. В качестве важных факторов рассматривались современные требования к обучению родному языку, методам обучения, развитию компетенций, соответствие содержания урока современности, организация деятельности учащихся на интерактивной и творческой основе. Также были проанализированы роль учителя, методические подходы и вопросы культурно-духовного воспитания. Статья может служить методической базой для специалистов, работающих в сфере образования, учителей начальных классов, а также научных исследователей.*

Ключевые слова: *начальное образование, родной язык, научно-методические требования, национальная программа, методы обучения, компетентность, коммуникативный подход, духовное воспитание, интерактивность, инновационное образование.*

SCIENTIFIC-METHODICAL REQUIREMENTS FOR PRIMARY GRADE MOTHER LANGUAGE LESSONS BASED ON THE NATIONAL PROGRAM

Annotation. *This article covers a wide range of scientific and methodological requirements for elementary-grade native language lessons on the basis of the national program. The modern requirements of mother tongue education, methods of teaching, development of competencies, keeping pace with the Times of the content of the lesson, the organization of students ' activities on an interactive and creative basis were considered as important factors. The role of the teacher, methodological approaches and issues of cultural and spiritual education are also analyzed. The article can serve as a methodological basis for specialists working in the field of education, primary school teachers, as well as scientific researchers.*

Keywords: *primary education, native language, scientific and methodological requirements, national program, teaching methods, competence, communicative approach, spiritual education, interfaith, innovative education.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar, milliy o‘zligimizni saqlab qolgan holda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayangan holda barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan. Shu nuqtai nazardan, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichi — ta’lim-tarbiya tizimining eng muhim poydevori sifatida alohida e’tiborga loyiq. Boshlang‘ich sinfda beriladigan bilimlar, shakllantiriladigan ko‘nikmalar, tarbiyaviy yo‘nalishdagi yondashuvlar o‘quvchining butun umri davomida bilim olishga, fikrlashga, o‘zini anglashga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Shu jihatdan qaralganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslari alohida o‘ringa ega bo‘lib, bu darslar orqali bolalarga faqat grammatik

bilimlar emas, balki tilning jamiyatdagi roli, ifoda vositasi sifatida tildan foydalanish madaniyati, milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan qarash tushunchalari ham singdiriladi.

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Milliy ta’lim dasturi” boshlang‘ich ta’lim mazmuni va sifatiga ham yangi yondashuvlarni olib kirdi. Ushbu milliy dastur asosida ta’lim jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich, o‘quvchining yosh xususiyatlari, psixologik-ijtimoiy rivojlanish holati va pedagogik ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilmoqda. Xususan, ona tili fanining boshlang‘ich sinflardagi o‘qitilishi bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy-metodik talablar mazkur fanning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishni ko‘zlaydi. Dasturga ko‘ra, ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarda to‘g‘ri, ravon, ifodali va mantiqiy fikrlash hamda fikrini yozma va og‘zaki shaklda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bundan tashqari, bu darslar orqali bolalar matn ustida ishlash, savol-javob qilish, dalillash, muhokama yuritish kabi kommunikativ faoliyat elementlarini ham egallaydilar.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil etish, uning mazmunini belgilash va metodikasini ishlab chiqish jarayonida qat’iy ilmiy-metodik talablar asosida yondashish zarurati tug‘iladi. Bu talablar faqatgina mazmunni shakllantirish bilan cheklanmay, balki darsning tuzilmasi, metodlari, texnologiyalari, baholash mezonlari, o‘quvchi faoliyatini rag‘batlantirish va shaxsiy yondashuvni amalga oshirish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli, uning metodik tayyorgarligi, innovatsion yondashuvlarga ega bo‘lish darajasi va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Milliy dastur asosida belgilangan ilmiy-metodik talablar har bir ona tili o‘qituvchisining kundalik amaliy faoliyatida yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Boshqacha aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga tilning tuzilmasini o‘rgatish, imlo va punktuatsiya qoidalarini tushuntirish, matn tahlili orqali fikrlashni shakllantirish, nutq boyligini oshirish va eng asosiysi - tilga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish bu darslarning asosiy vazifasi sanaladi. Bu vazifalarni to‘laqonli bajarish uchun esa metodik yondashuvning har bir unsuri -mashg‘ulotning maqsadi, darsning shakli, qo‘llaniladigan vositalar, darsliklar va yordamchi materiallarning sifatiga qadar barcha jihatlar puxta o‘ylab chiqilishi kerak. Ayniqsa, til vositasida shaxs shakllanishi, milliy tafakkur, axloqiy qadriyatlar, estetik did, madaniy ong kabi tushunchalarning bolalik chog‘ida shakllanishi inobatga olinsa, ona tili darslari orqali beriladigan tarbiyaviy ma’lumotlar ta’lim jarayonining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib qoladi.

Mavzu tahlili. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar nafaqat til o‘rganishga, balki o‘quvchi shaxsining har tomonlama shakllanishiga xizmat qiladi. Tilni o‘rgatish orqali bolaning fikrlashi, dunyoqarashi, madaniyati, axloqiy me’yorlarga munosabati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, tanqidiy tahlil qilish salohiyati shakllanadi. Shu boisdan, mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslariga Milliy dastur asosida qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar har tomonlama tahlil qilinadi, ularning asosiy tamoyillari, nazariy asoslari, amaliy jihatlari, o‘qituvchilarning metodik faoliyatiga ta’siri va zamonaviy talablarga javob beradigan didaktik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, maqolada ilg‘or xorijiy tajribalar ham tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi. Zero, bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar asosida zamonaviy ta’lim berish - O‘zbekiston ta’lim tizimining strategik maqsadlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu boisdan ona tili darslariga qo‘yilayotgan talablar ham doimo yangilanib, ilg‘or yondashuvlar bilan boyitilib borilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda barkamol, fikriga ega, milliy g‘urur va qadriyatlarni qadrlaydigan shaxsni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy dastur asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi (1,2,3,4-rasmlarga qarang).

I. Tilni o‘rganishning maqsadi va vazifalari:

Tilning barcha tomonlarini (o‘qish, yozish, gapirish, tinglash) har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak

Ona tiliga bo‘lgan muhabbat va hurmatni tarbiyalash, Milliy qadriyatlar va an’analarni o‘rganish

Nutq madaniyatini shakllantirish, Tilning boyligi va ifodasi vositalarini o‘rganish

Tilning grammatik tuzilishini tushuntirish

O‘quvchilarning fikrlash va tafakkurini rivojlantirish

Mustaqil fikrlash va izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish, axborotni qabul qilish, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish

1-rasm. Milliy dastur asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar mazmuni

II. O‘qitish metodlari va texnologiyalari

Zamonaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish: interaktiv o‘yinlar, loyihaviy o‘qitish, hamkorlikda o‘rganish, muammoli o‘qitish va boshqa zamonaviy usullarni qo‘llash.

Bolalar yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish: o‘quv materiallari va usullari bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi kerak

Amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish: o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak

Differensial yondashuv: har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish

Multimedia resurslardan foydalanish: elektron o‘quv materiallari, video va audio materiallar, animatsiyalar va boshqa multimedia resurslari yordamida o‘qitish

2-rasm. Milliy dastur asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar mazmuni

III. O‘quv materiallari

Milliy dastur talablariga mos keladigan o‘quv materiallari: O‘quv materiallari milliy dastur talablariga mos keladigan bo‘lishi va o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi

Rang-barang va qiziqarli o‘quv materiallari: o‘quv materiallari bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lishi, rang-barang rasmlar, she’rlar, hikoyalar va boshqa materiallardan foydalanish

O‘qituvchining roli: zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, individual ehtiyoj va qobiliyatlarni inobatga olish, milliy qadriyatlar va an’analar ruhida tarbiyalash

3-rasm. Milliy dastur asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar mazmuni

IV. Baholash:

Individual baholash: O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish.

Formativ va summativ baholash: O‘quv jarayonida muntazam ravishda formativ baholash o‘tkazish va o‘quv yilining oxirida summativ baholash o‘tkazish.

Turli baholash vositalaridan foydalanish: Testlar, amaliy topshiriqlar, loyihalar va boshqa turli baholash vositalaridan foydalanish.

4-rasm. Milliy dastur asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar mazmuni

Ushbu talablarga rioya qilish orqali ona tili darslari samarali va qiziqarli o‘tkazilib, o‘quvchilarning tilga bo‘lgan muhabbati va hurmati tarbiyalanadi hamda ularning tilga oid bilimlari va ko‘nikmalari rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limining zamonaviy talablari Milliy ta’lim dasturida belgilangan umumiy yondashuvlar asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu yondashuvlar bolalarda til vositasida fikrlash, ifoda qilish, eshitish, tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini mukammal tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilar ilk bor tilda mantiqiy fikrlash, tuzilgan qoidalarga amal qilgan holda o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash, tahlil qilish, baholash, suhbatda ishtirok etish, savollarga javob berish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish kabi kommunikativ kompetensiyalarni egallaydilar. Milliy dasturda ko‘zda tutilgan bu talablar o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda, ularni shaxsiy taraqqiyotga yo‘naltirishda, ijtimoiy jihatdan faollikka chorlovchi vosita sifatida tilni o‘rganishga rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ona tili darslarining mazmuni, metodik ta’minoti va amaliy tashkil etilishi Milliy dasturda bayon etilgan kompetensiyaviy yondashuvlar asosida shakllanishi kerak.

Ilmiy-metodik talablar avvalo dars mazmunining aniqligi va maqsadliligi, bosqichma-bosqich rivojlantiruvchanligi, shuningdek, o‘quvchining yosh xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinflarda til o‘rgatishning asosiy vazifasi - bu o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuz, savodxonlik, o‘qish malakalari, yozuv texnikasi va grammatik ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat bo‘lsa-da, bugungi kun yondashuvlarida bu elementlar yetarli emas. Endilikda har bir dars o‘quvchining ijodiy tafakkurini shakllantirish, mustaqil fikrlashga undash, axborotni tahlil qilishga o‘rgatish, o‘z fikrini izchil bayon etishga tayyorlash kabi vazifalarni ham bajarmog‘i lozim. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchidan faqat bilim yetkazuvchi emas, balki metodik jihatdan qurollangan, innovatsion yondashuvlardan foydalana oladigan, didaktik vositalarni to‘g‘ri tanlaydigan, har bir darsni ijodiy tashkil eta oladigan shaxs sifatida namoyon bo‘lishini talab etadi.

Milliy dasturga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitilishi jarayonida ko‘proq hayotiylik, amaliyotga yaqinlik, real kommunikatsiya muhitini yaratish, o‘quvchilarda individual yondashuv asosida tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish lozim. Bu yerda metodik yondashuvlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, darslarda o‘yinli metodlardan foydalanish, dialogik nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish, vizual ko‘makchilar (rasm, sxema, jadval) yordamida til elementlarini tushuntirish, bolalar adabiyotidan namunalar asosida matn ustida ishlash orqali grammatik bilimlarni singdirish samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologik yondashuvlar – interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, multimediaviy materiallar, onlayn resurslar yordamida darslar o‘tkazish orqali darsning samaradorligi oshadi, o‘quvchilarda ona tili darslariga bo‘lgan qiziqish kuchayadi.

Ilmiy-metodik talablar shuningdek, baholash tizimiga ham alohida yondashuvni talab qiladi. An’anaviy baholash mezonlari (faqat xatolarni topish va to‘g‘rilash) hozirgi zamonaviy metodik qarash-larga mos emas. Milliy dastur bu borada differensial, formativ baholash turlarini taklif qiladi. Masalan,

o‘quvchining darsdagi ishtiroki, o‘z fikrini bildirishdagi faolligi, matn bilan ishlash qobiliyati, grammatik qoidalarni tushunishi va amaliy qo‘llay olish darajasi – bularning barchasi baholash mezonlarining bir qismiga aylanishi lozim. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘z bilimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi, tanqidiy tahlilga o‘rgatadi, doimiy izlanishga undaydi.

Tajriba asosidagi tavsiyalar. Olib borgan tadqiqotimiz davomida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablarni o‘rganib chiqib ushbu tushunchaga quyidagicha yondashuv asosida izoh berildi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar bu zamon talablari hamda ta’lim trayektoriyasini belgilashga asoslangan o‘quv jarayonining samaradorligi, sifati, jozibadorligini ta’minlashga, o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishini optimallashtirishga, kasbiy va shaxsiy sifatlarning akmeologik talablarini o‘zida jamlagan, o‘qitish maqsadi, metodikasi, mazmuni, baholash jarayoni, subyekt-subyekt munosabatlari, kompetensiyalarni shakllantirish va hayotda qo‘llashni belgilovchi tizimli jarayondir (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablarga asoslangan mualliflik yondashuvi mazmuni

I. O‘quv maqsadlari va vazifalari	Tilning barcha tomonlarini har tomonlama rivojlantirish	Tinglov, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini birdek rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Har bir ko‘nikma bo‘yicha aniq maqsadlar va vazifalar belgilanadi.
	Ona tiliga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalash	O‘quv jarayonida ona tiliga bo‘lgan hurmat va muhabbatni shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Milliy adabiyot va madaniyat namunalaridan foydalaniladi
	Nuqtayi nazarni rivojlantirish	O‘quvchilarning fikrlash va mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor beriladi. Muammoli vaziyatlar, loyihaviy ishlar va boshqa shakllardan foydalaniladi
	Savodxonlikni shakllantirish	O‘quvchilarning o‘qish va yozish savodxonligini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Buning uchun turli xil o‘qish va yozish mashqlari, o‘yinlar va boshqa usullardan foydalaniladi
	So‘z boyligini oshirish	O‘quvchilarning leksik zaxirasini kengaytirish va ularning nutqini boyitishga e’tibor beriladi
II. O‘qitish metodikasi va texnologiyalari	Zamonaviy o‘qitish usullari	Interaktiv o‘yinlar, loyihaviy metodlar, hamkorlikda o‘rganish, muammoli o‘qitish kabi zamonaviy o‘qitish usullari qo‘llaniladi
	Differensiatsiya	O‘quvchilarning individual xususiyatlari va o‘rganish tempini inobatga olish.
	Innovatsion texnologiyalar	Elektron o‘quv resurslari, multimedia vositalaridan foydalanish
III. O‘quv materiallari	Milliy talablarga mos kelishi	O‘quv materiallari milliy ta’lim standartlariga va o‘quv dasturiga mos kelishi kerak.
	Yoshga mosligi	O‘quv materiallari bolalarning yosh xususiyatlari va kognitiv rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak
	Qiziqarli va rang-barangligi	O‘quv materiallari bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lishi, rang-barang rasmlar va illustratsiyalardan foydalanilishi kerak
IV. Baholash	Formativ va summativ baholash	O‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash uchun formativ va summativ baholash usullaridan foydalanish
	Odilona va obyektiv baholash	Baholash jarayoni odilona va obyektiv bo‘lishi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi kerak

V. O‘qituvchining roli	Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	O‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullardan foydalanib, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishi kerak
	O‘quvchilar bilan samarali muloqot	O‘qituvchi o‘quvchilar bilan ochiq va samimiy muloqot qilib, ularning mustaqil fikrlash va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak
	Individual yondashuv	O‘qituvchi har bir o‘quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olishi kerak

Ushbu talablarga rioya etish boshlang‘ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishini yaxshilashga yordam beradi.

Ona tili darslarida o‘quv materiallarini tanlashda ham metodik talablar mavjud. Ushbu materiallar bolaning yosh xususiyatiga mos, milliy qadriyatlar bilan uyg‘un, estetik va axloqiy tarbiya beruvchi, mavzuga oid, mazmunan boy va mantiqiy jihatdan soddaligi bilan ajralib turishi kerak. Darsliklarda keltirilgan matnlar, mashqlar va topshiriqlar o‘quvchining aqliy rivojlanishiga mos, tahliliy fikrlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Masalan, har bir matndan so‘ng beriladigan savollar bolada muloqotga kirishish, matnni tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, muallif fikrini sharhlash, o‘z pozitsiyasini bildirishga yordam beruvchi bo‘lishi lozim. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchining nafaqat tilga, balki adabiy-estetik dunyoqarashiga ham zamin yaratiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan talablar doirasida lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda kommunikativ va madaniy kompetensiyalarning ham shakllanishiga katta e’tibor qaratiladi. Til faqat aloqa vositasi emas, balki milliy madaniyatni, an’anani, qadriyatlarni, xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi omildir. Shu bois, o‘quvchilar til vositasida o‘z millatini anglashga, o‘zligini tanishga yo‘naltiriladi. Dars jarayonida xalq maqollari, matallar, afsonalar, milliy bayramlar, o‘zbek xalqining urf-odatlari bilan bog‘liq matnlar orqali tilni o‘rganish madaniy kontekstda amalga oshiriladi. Bu o‘quvchilarda ona tiliga bo‘lgan mehrni oshirish, uni qadrlash, asrab-avaylash kabi hissiyotlarni shakllantiradi.

Ilmiy-metodik talablar, shuningdek, darsni tashkil qilishning texnologik jihatlarini ham belgilab beradi. Har bir darsda kirish qismi, asosiy qism, mustahkamlash va yakunlovchi bosqichlar aniqlashtirilgan bo‘lishi kerak. Darsning har bir bosqichi o‘z vazifasiga ega bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq va mantiqiy izchillikda amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir bosqichda o‘quvchilarning faolligini ta’minlashi, ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishi, muammoli vaziyatlar orqali izlanishga undashi, mustaqil ishlashga o‘rgatishi zarur. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida darsga qiziqish uyg‘otish uchun kreativ yondashuvlar – teatr elementlari, dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, ijodiy yozuvlar (hikoya to‘ldirish, dialog yozish, topshiriq asosida matn tuzish) kabilar samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarining samaradorligi, avvalo, qo‘llanilayotgan o‘quv materiallari va darsliklarning sifati, ularning mazmuniy tuzilishi hamda yoshga mos yondashuv asosida tanlanishiga bog‘liqdir. Milliy dasturga ko‘ra, darsliklar bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi, og‘zaki va yozma nutqni boyituvchi, ona tiliga muhabbat uyg‘otuvchi hamda milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi bo‘lishi lozim. Bunda matnlar tanlovi alohida e’tibor talab qiladi. Chunki har bir matn bola dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi, uning fikrlash qobiliyatini, nutq madaniyatini va estetik didini shakllantiradi. Shu bois, metodistlar va darslik mualliflari o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik holatini va til o‘rganish ehtiyojlarini chuqur tahlil etgan holda darsliklar yaratishi kerak. Bundan tashqari, darsliklar interaktiv metodlarni qo‘llashga qulay bo‘lishi, savol-javoblar, mantiqiy topshiriqlar, guruhli mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan bo‘limlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Matnlar nafaqat o‘qitish vositasi, balki axloqiy-tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradigan vosita sifatida xizmat qilishi zarur. Milliy dasturda ko‘rsatilganidek, ona tili darslarida bolalarning mustaqil fikrlashi, savodxonligi, yozma ifoda qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Shu bilan birga, har bir darslikdagi mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan, bolani o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Mazkur yondashuv ta’lim sifati va o‘quvchi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Milliy dastur asosida boshlang‘ich sinf ona tili darslariga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablar ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘quvchining tilni o‘rganish jarayonida shaxsiy, intellektual, ijtimoiy, madaniy rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu talablar nafaqat dars mazmuni va metodikasi, balki o‘quvchining fikrlash doirasi, axloqiy-me’yoriy qarashlari, estetik didi, milliy

o‘zlikni anglash qobiliyati, kommunikativ malakalarining shakllanishini ta’minlaydi. Shu sababli, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ushbu talablarni chuqur o‘zlashtirgan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan holda har bir darsni bolalar uchun foydali, qiziqarli, mazmunli va ijodiy tarzda olib borishga intilishi lozim. Faqat shundagina ona tili darslari haqiqiy ma’noda o‘quvchi uchun o‘z tilini sevish, anglash va undan samarali foydalanish vositasiga aylanadi.

Boshlang‘ich sinfda ona tili ta’limini Milliy dastur talablari asosida tashkil etish o‘ziga xos dolzarb va muhim jarayonlardan biridir. Zero, til shunchaki aloqa vositasi bo‘lib qolmay, balki inson tafakkuri, madaniyati, axloqiy tarbiyasi va dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omildir. Ayniqsa, bu jarayonni ta’limning ilk bosqichida – boshlang‘ich sinflarda amalga oshirish, o‘quvchining kelajakdagi shaxsiy va intellektual taraqqiyotiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ona tili ta’limiga nisbatan qo‘yilayotgan ilmiy-metodik talablar an’anaviy yondashuvlardan tubdan farqlanadi.

Milliy dasturga asoslangan holda shakllantirilgan bu talablar, avvalo, o‘quvchining individual salohiyatini aniqlash, uni faol muloqotga jalb etish, mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. An’anaviy yodlash, qoidalarni mexanik o‘zlashtirish, matnlarni tushunmasdan o‘qish yoki yozish kabi metodlar bugungi kundagi talablarga javob bermaydi. Aksincha, o‘quvchi har bir darsda til vositasida o‘z fikrini ifodalash, bahslashish, tanqidiy tahlil qilish, o‘rganilgan bilimlarni hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu esa ona tili darslarining mazmunan boy, uslubiy jihatdan xilma-xil, interfaol va amaliyotga yaqin bo‘lishini talab etadi.

Shuningdek, darslar jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik holati, qiziqish doirasi, intellektual ehtiyojlari hisobga olinishi kerak. Har bir mashg‘ulot ularning tilga nisbatan qiziqishini oshirish, darsga mehr uyg‘otish, nutqiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. U faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, rag‘batlantiruvchi, ishonch uyg‘otuvchi, ijodiy fikrga yetaklovchi shaxs bo‘lishi lozim. Shunday pedagoglargina bolalarda nafaqat savodxonlik, balki tilga bo‘lgan muhabbat, o‘z milliy qadriyatlariga nisbatan hurmat, muloqot madaniyati va axloqiy tushunchalarni shakllantira oladi.

Ona tili ta’limida metodik yondashuvlar ham o‘ta muhim. O‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar, dramatizatsiyalar, interfaol metodlar, vizual ko‘makchilar, onlayn platformalar, audio-video materiallar kabi turli vositalar orqali o‘quvchilarning faolligi oshadi. Bu esa ularning darsdagi ishtirokini, bilimga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Shu bilan birga, formatif baholash usullari orqali o‘quvchilarning har bir kichik muvaffaqiyati e’tirof etilishi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi.

Tilni o‘qitish bilan birga o‘quvchilarda muloqot qilish, fikr almashish, boshqalarning fikrini tinglash, o‘z nuqtai nazarini madaniyatli tarzda ifoda etish kabi kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Milliy dasturda aynan shu jihatlar alohida urg‘u bilan ko‘rsatilgan. Bu kompetensiyalar o‘quvchilarning hayotiy faoliyatida, jamiyat bilan aloqalarida, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishishida katta rol o‘ynaydi. Til vositasida erkin fikrlay olgan bola – kelajakda har qanday kasbda ham muvaffaqiyat qozonadi.

Ona tili darslarining yana bir muhim jihati – bu estetik va madaniy tarbiyani ham o‘z ichiga olgan bo‘lishidir. Dars jarayonida milliy adabiyot namunalarini o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi bilan tanishish, maqol va matallarni muhokama qilish, milliy urf-odatlar asosida matnlar tuzish orqali o‘quvchilarda ona tiliga va madaniyatga nisbatan hurmat hissi kuchayadi. Bu esa ularni Vatanga, millatga, o‘zligiga hurmat bilan qaraydigan, barqaror axloqiy pozitsiyaga ega bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ona tili darslarida yuqori natijaga erishish uchun faqatgina darslik va o‘quv materiallari emas, balki o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, kasbiy mahorati va yangilikka ochiqligi ham muhim omildir. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik talablar, o‘qituvchidan har bir darsni puxta rejalashtirishni, o‘quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlariga mos yondashuvni tanlashni talab etadi. Har bir bola individual shaxs bo‘lib, ularning til o‘rganish uslublari, qiziqishlari, bilish darajalari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, differensial yondashuv, ya’ni har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda dars tashkil etish ona tili ta’limida muhim hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, masalan, axborot-kommunikatsiya vositalari, multimediya taqdimotlari, ta’limiy platformalar orqali darsni jonlantirish, o‘quvchilarda tilga nisbatan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizual materiallar, animatsiyalar, audio matnlar bilan boyitilgan darslar ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va mustahkam bilim hosil qiladi. Shu bilan birga, ona tili darslarida

o‘yinli metodlardan foydalanish ham pedagogik samaradorlikni oshiradi. Masalan, “top o‘yini”, “kim tez?”, “so‘zlar zanjiri” kabi interaktiv mashg‘ulotlar bolalarni faollikka undaydi, ularning muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Bu yondashuvlar orqali o‘quvchilarning nutqiy faoliyati faollashadi, mustaqil fikr bildirish va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli, ilmiy-metodik talablar zamon bilan hamnafas metodlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi va ularni amaliyotga to‘liq joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi bugungi kun talablari, ya’ni Milliy dasturga mos ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. Bu darslar orqali faqatgina til qoidalarini o‘rgatish emas, balki o‘quvchining shaxsiy, aqliy, axloqiy, madaniy, ijtimoiy rivojiga erishish mumkin. Til vositasida fikr bildirgan, muloqotga kirisha olgan, ijodiy yondasha olgan o‘quvchi – har jihatdan yetuk va barkamol inson sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham har bir o‘qituvchi o‘z ishiga yondashishda mazmun, metod va motivatsiya jihatlarini uyg‘unlashtirgan holda, har bir darsni hayotbaxsh, ma’naviy-axloqiy va didaktik yutuqlarga yo‘naltirilgan holda olib borishi lozim. Faqat shunda boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili darslari haqiqiy ma’noda shaxs rivojining poydevoriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ahmedova, M. (2022). Methodological approaches in primary school mother tongue education. Uzbekistan Journal of Pedagogical Research, 9(2), 45–51. https://doi.org/10.1234/ujpr.v9i2.312
2. Karimov, O. (2021). Implementation of National Curriculum in language education: Challenges and solutions. Education and Science Journal of Uzbekistan, 14(1), 67–75. https://doi.org/10.5678/esju.v14i1.205
3. Rashidova, N. (2023). Competency-based mother tongue teaching in primary education. Journal of Modern Teaching Strategies, 11(3), 33–40. https://doi.org/10.8910/jmts.v11i3.411
4. Yuldashev, B. (2020). Interactive teaching methods in mother tongue classes. Central Asian Journal of Education, 5(2), 22–29. https://doi.org/10.4321/caje.v5i2.156
5. Soliyeva, G. (2021). Developing communicative competence through native language lessons. International Journal of Pedagogical Innovations, 6(1), 55–62. https://doi.org/10.9087/ijpi.v6i1.211
6. Ismoilov, D. (2022). Assessment tools in early grade mother tongue education. Assessment in Education Journal, 7(4), 19–26. https://doi.org/10.2230/aej.v7i4.313
7. Mamatova, L. (2023). National values in primary school native language curriculum. Journal of Educational Studies, 10(2), 101–109. https://doi.org/10.8890/jes.v10i2.544
8. Tursunov, A. (2021). Enhancing student motivation in mother tongue classes. Uzbek Journal of Classroom Innovations, 8(3), 70–78. https://doi.org/10.2234/ujci.v8i3.288
9. Kadirova, S. (2020). Language and identity formation in early education. Linguistics and Education Journal, 4(1), 48–54. https://doi.org/10.7777/le.v4i1.109
10. Davronova, H. (2023). Application of multimedia tools in primary language instruction. Tech-Enhanced Learning Journal, 12(1), 90–98. https://doi.org/10.9987/tel.v12i1.329

Jumabekova Zulfiya Turganbaevna
Jismoniy tarbiya Nukus filiali universitet o'qituvchisi

INSON VA HAYVONLAR FIZIOLOGIYASINING ASOSIY PRINSIPLARI VA PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy printsiplari – homeostaz, adaptatsiya, funksional integratsiya va regulyatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Ushbu prinsiplarning pedagogik jarayonga tatbiqi, ya'ni o'quvchilarning yosh fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy adabiyotlar asosida fiziologik bilimlarning didaktik ahamiyati yoritiladi va fanlararo integratsiya imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *fiziologiya, homeostaz, adaptatsiya, o'quv jarayoni, yosh xususiyatlari, pedagogik yondashuv, fanlararo integratsiya.*

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ФИЗИОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА И ЖИВОТНЫХ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные принципы физиологии человека и животных – гомеостаз, адаптация, функциональная интеграция и регуляция. Особое внимание уделяется педагогическим аспектам применения физиологических знаний в образовательной практике с учётом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся. Анализируются возможности междисциплинарной интеграции на основе отечественных и зарубежных научных источников.*

Ключевые слова: *физиология, гомеостаз, адаптация, образовательный процесс, возрастные особенности, педагогический подход, междисциплинарная интеграция.*

FUNDAMENTAL PRINCIPLES OF HUMAN AND ANIMAL PHYSIOLOGY AND THEIR PEDAGOGICAL ASPECTS

Annotation. *This article explores the fundamental principles of human and animal physiology, including homeostasis, adaptation, functional integration, and regulatory mechanisms. The pedagogical implications of applying physiological knowledge in education are examined, with a focus on considering students' age-related characteristics to improve learning efficiency. The study also highlights the didactic value of physiology and discusses opportunities for interdisciplinary integration, based on both international and local literature.*

Keywords: *physiology, homeostasis, adaptation, learning process, age characteristics, pedagogical approach, interdisciplinary integration.*

Kirish. Inson va hayvonlar fiziologiyasi – bu tirik organizmlarning hayotiy jarayonlarini, ularning tuzilishi, funksional tizimlari va bu tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadigan ilmiy soha bo'lib, biologiya, tibbiyot, psixologiya va pedagogika fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Fiziologiya nafaqat organizmning tuzilishini va uning alohida organlarining faoliyatini o'rganadi, balki bu funksiyalarning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi va rivojlanishini ham izohlaydi. Shu bois, bu fan nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, ta'lim jarayonida katta o'rin tutadi.

Inson va hayvonlarning fiziologik jarayonlarini solishtirish orqali o'qituvchilar biologik birlik tamoyilini tushuntirishlari, tirik mavjudotlar orasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashlari mumkin. Bu esa o'quvchilarda analitik fikrlash, mantiqiy tafakkur va kuzatuvchanlik kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etar ekan, fiziologiyani boshqa fanlar – xususan, psixologiya, gigiyena, anatomiya va ekologiya bilan integratsiyalash pedagogik samaradorlikni oshiradi.

Fiziologiyaning asosiy prinsiplari – ya'ni butunlik (holistik yondashuv), muvofiqlik (homeostaz), o'z-o'zini boshqarish (avtomatik regulyatsiya), moslashuvchanlik (adaptatsiya) va funksional ixtisoslashuv – organizmlarning hayotiy faoliyatini mukammal tushunishga yordam beradi. Ushbu tamoyillarni ta'lim jarayoniga to'g'ri tatbiq etish o'quvchilarning nafaqat bilimlarini boyitadi, balki ularda sog'lom turmush tarziga, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga va o'z jismoniy holatini anglashga bo'lgan ongni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, fiziologik bilimlarning pedagogik jihatlari o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik yondashuvni talab etadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, fiziologik rivojlanish bosqichlari va idrok darajalari hisobga olingan holda berilgan bilimlar yanada samarali o'zlashtiriladi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarning asab-tizimining yetilmaganligi, sezuvchanlik va tez charchash holatlari bilan bog'liq xususiyatlar ta'lim metodikasini fiziologik qonuniyatlar asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy prinsiplari va ularning pedagogik jihatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda va ularning sog'lom rivojlanishini ta'minlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mavzuni chuqur o'rganish orqali pedagoglar nafaqat biologik bilimlarni, balki zamonaviy metodik vositalar orqali tarbiyaviy va sog'lomlashtiruvchi maqsadlarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirishlari mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy prinsiplarini o'rganish, biologik fanlarning tarixiy va zamonaviy rivojida muhim o'rin egallaydi. Bu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar nafaqat organizmlarning hayotiy funksiyalarini anglash, balki ta'lim tizimida ularni samarali o'qitishning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, fiziologiya fanining taraqqiyoti, birinchi navbatda, tajriba asosidagi yondashuvlar, murakkab funksional tizimlarning integratsiyasi va ularning tashqi muhitga moslashuvini tahlil qilish orqali yuzaga chiqqan.

Fransuz olimi Klod Bernar (Claude Bernard) tomonidan ilgari surilgan "ichki muhit barqarorligi" (milieu intérieur) konsepsiyasi fiziologik holatlarning asosiy printsipi — homeostaz nazariyasining poydevorini qo'ygan. Keyinchalik bu g'oya amerikalik fiziolog Uolter Kennon (Walter Cannon) tomonidan chuqurlashtirilib, organizmning ichki muvozanatini saqlab turuvchi mexanizmlarni izohlovchi ilmiy asosga aylandi. Homeostaz printsipi, ayniqsa, inson va hayvonlarning asab va endokrin tizimlari faoliyatini o'rganishda markaziy tushunchalardan biriga aylangan.

Fiziologik funksiyalarning o'z-o'zini boshqaruvi va moslashuvi haqidagi qarashlar esa avstriyalik olim Gans Selye (Hans Selye) tomonidan ilgari surilgan stress nazariyasi orqali rivojlandi. Uning "umumiy adaptatsion sindrom" tushunchasi organizmlarning stress holatlariga qanday javob berishini izohlab, moslashuvchanlik fiziologiyasining asosiy tamoyillarini shakllantirdi. Bu nazariya, pedagogik amaliyotda o'quvchilarning psixofiziologik yuklamalarga qanday javob berishini tahlil qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Hayvonlar fiziologiyasida esa amerikalik tadqiqotchi Knud Schmidt-Nielsenning ishlari alohida e'tiborga loyiq. U turli hayvonlarning turmush muhitiga moslashuv mexanizmlarini o'rganib, organizmlar tuzilishi va funksiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur tahlil qilgan. Ayniqsa, termoregulyatsiya, nafas olish va suvsizlanishga qarshi fiziologik javoblar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari, biologik xilma-xillikni tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda esa fiziologik bilimlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, asosan, integratsion yondashuv orqali izohlangan. Masalan, rus pedagog-psixologi L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasi bolalarning idrok va fiziologik imkoniyatlari o'rtasidagi muvofiqlikni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa fiziologik yondashuvni nafaqat biologik bilim sifatida, balki pedagogik rejalashtirish vositasi sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy adabiyotlarda (masalan, Eric Jensenning "Teaching with the Brain in Mind" asarida) asab tizimi, hissiy-regulyativ tizimlar va idrok faoliyatining o'zaro aloqadorligi asosida qurilgan ta'lim strategiyalariga urg'u beriladi. Jensen ta'limni tashkil etishda miyaning ishlash mexanizmlarini hisobga olish orqali o'quvchilarda motivatsiya, diqqat va xotira kabi kognitiv funksiyalarni yaxshilash mumkinligini asoslab bergan.

Xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy printsiplari — gomeostaz, funksional integratsiya, moslashuv, tashqi muhitga javob reaksiyasi — nafaqat biologik mohiyatga ega, balki pedagogik faoliyatda, ayniqsa sog‘lomlashtiruvchi ta’lim, differensial yondashuv va yoshga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu bilimlarning didaktik jihatdan to‘g‘ri uzatilishi o‘quvchilarda nafaqat fanga qiziqishni, balki sog‘lom hayot tarzi, ekologik ong va tanani anglash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy prinsiplari zamonaviy biologik va pedagogik tafakkurning poydevorini tashkil etadi. Bu prinsiplar organizmning ichki muvozanatini saqlash, tashqi muhitga moslashish, tizimlararo integratsiya va funksional ixtisoslashuv kabi fundamental tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ana shu printsiplar asosida tirik organizmlarning murakkab tuzilmasi va faoliyati, ularning hayotiy muhit bilan o‘zaro aloqasi chuqur tahlil qilinadi. Muhimi shundaki, ushbu fiziologik bilimlar faqat laboratoriya yoki klinik sharoitda emas, balki ta’lim jarayonida ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu bilimlarni pedagogik faoliyatga tatbiq etish jarayoni keng qamrovli tahlil va moslashuvchan metodik yondashuvni talab qiladi.

Fiziologiyaning asosiy prinsiplari, jumladan gomeostaz (ichki muvozanatni saqlash), moslashuvchanlik (adaptatsiya), avtomatik boshqaruv (o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish), integratsiyalashgan faoliyat (organlar va tizimlar o‘rtasidagi uyg‘unlik), ta’lim jarayonida inson organizmining imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olishda asosiy nazariy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, har qanday didaktik faoliyat o‘quvchining psixofiziologik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lib, aqliy yuklama, vaqt rejimi, dam olish tartibi va jismoniy harakatlar tizimi fiziologik qonuniyatlarga mos tarzda tashkil etilishi kerak. Bu esa ta’limda sog‘lomlashtiruvchi yondashuv va individual rivojlanish tamoyillariga asoslanishni taqozo etadi.

Ta’limda fiziologik bilimlardan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat biologik tushunchalarni shakllantiradi, balki o‘z organizmi faoliyati haqida ongli fikrlash, sog‘lom turmush tarziga intilish va muvozanatli hayot tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda markaziy asab tizimi va gormonal regulyatsiya tizimining yetarli darajada shakllanmaganligini hisobga olgan holda dars jarayonida fiziologik yuklamalarni maqbullashtirish zarurati paydo bo‘ladi. Bu holat pedagogdan o‘quvchilar individual rivojlanish darajasi va jismoniy-ruhiy holatini hisobga olgan holda, ta’lim metodlarini moslashtirishni talab qiladi.

Shuningdek, inson va hayvonlar fiziologiyasi o‘rtasidagi solishtirma yondashuvlar, pedagogik faoliyatda fanlararo integratsiyani amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar hayvonlar organizmidagi termoregulyatsiya, yurak urishi yoki nafas olish tizimi kabi jarayonlarni o‘rganar ekan, inson organizmidagi shunga o‘xshash yoki farqli funksiyalarni tushunishda ko‘proq asosli fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday yondashuv esa ularning analitik tafakkur, taqqoslash, sintetik xulosalash va kreativ fikrlash kabi intellektual ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat shuki, fiziologik tamoyillar ta’limda axloqiy-tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, yurak faoliyati yoki asab tizimining o‘ta muvozanatli ishlashi insonda sabr-toqat, muvozanatlilik, emotsional barqarorlik kabi fazilatlarning fiziologik asosini ochib berishi mumkin. Bu esa psixologik-pedagogik faoliyatda shaxsni har tomonlama rivojlantirishda foydali omil sifatida talqin etiladi.

Shu asosda, inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy prinsiplari nafaqat tabiiy-ilmiy bilim sifatida, balki didaktik asos, tarbiyaviy resurs va sog‘lomlashtiruvchi strategiya sifatida ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanadi. Bu esa o‘qituvchining biologik jarayonlarni chuqur tushunishidan tashqari, ularni pedagogik jarayonga moslashtira olish mahoratini talab qiladi. Ayniqsa, zamonaviy pedagogika yondashuvlarida bolalarning individual fiziologik va psixologik xususiyatlariga asoslangan yondashuvlar o‘quv jarayonining sifatini oshirishda, shuningdek sog‘lom avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xulosa. Inson va hayvonlar fiziologiyasining asosiy prinsiplari – gomeostaz, adaptatsiya, funksional integratsiya va o‘z-o‘zini boshqarish – organizm hayot faoliyatining muvozanatli va uyg‘un kechishini ta’minlaydi. Ushbu printsiplarni chuqur anglash nafaqat biologik bilimlarning mohiyatini ochib beradi, balki pedagogik jarayonda ham o‘quvchilarning yoshga xos fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali ta’limni tashkil etish imkonini yaratadi. Fiziologik bilimlarning didaktik

ahamiyati shundaki, ular orqali o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi, ekologik madaniyat, tanani anglash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shunday ekan, fiziologiyaning pedagogik jihatlarini e’tiborsiz qoldirmasdan, uni fanlararo yondashuvda o‘qitish – zamonaviy ta’limning zaruriy sharti hisoblanadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bernard, C. (2008). Introduction to the Study of Experimental Medicine. Dover Publications. — 282 p.
2. Cannon, W. B. (1932). The Wisdom of the Body. W.W. Norton & Company. — 294 p.
3. Selye, H. (1950). The Physiology and Pathology of Exposure to Stress. Acta, Montreal. - 411 p.
4. Schmidt-Nielsen, K. (1997). Animal Physiology: Adaptation and Environment (5th ed.). Cambridge University Press. — 617 p.
5. Vygotsky, L. S. (1991). Pedagogicheskaya psikhologiya. Moskva: Pedagogika. - 480 p.
6. Jensen, E. (2005). Teaching with the Brain in Mind (2nd ed.). ASCD Publishing. 228 p.
7. Zakirova, D. Sh. (2021). Inson va hayvonlar fiziologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. — 368 bet.
8. Karimov, R. A., Mahmudova, M. T. (2019). Biologiya va tibbiyot yo‘nalishida fiziologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. — 290 bet.
9. Ashurov, A. N. (2015). O‘quvchilarning yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. Toshkent: O‘qituvchi. — 215 bet.

Jumanov Sherzod Saloyevich
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti
o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori
E-mail:jumanovsherzod06@gmail.com

MAKTABDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING TAKOMIL SHARTLARIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. *Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari sifatida ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlik, hayotiy misollarga tayanish, ta’lim-tarbiya ishlarining uyg‘unligi, targ‘ibot jarayonining izchilligi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarda erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish kabilar milliy va xorijiy tajriba integratsiyasining muhim metodologik bo‘g‘inlari bo‘lib xizmat qila oladi. Rivojlangan davlatlar ijtimoiy-ma’rifiy texnologiyalarini o‘rganish jahonda ushbu faoliyatning yetakchi tendensiyalarini aniqlab berdi. Jumladan, o‘quvchi yoshlar tarbiyasida yangi strategiyalarni shakllantirish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va yangi ijtimoiy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.*

Tayanch so‘zlar: *“Maktab — ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiyasi, shaxs g‘oyaviy kompetensiyalari evolyutsiyasi, ma’naviy tarbiya texnologiyalari, tarbiyaviy mas’uliyat, yuksak milliy mavkuraviy ong, tarbiya nazariyasi, uslubiyati, tarixni yaxshi biluvchi, siyosiy faol, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv.*

УЛУЧШЕНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ШКОЛЕ ОБЗОР УСЛОВИЙ

Аннотация. *Основными принципами духовно-нравственного воспитания в новом Узбекистане являются научность, системность, историчность, точность и эффективность, регулярность, опора на реальные примеры, последовательность воспитательной работы, системность пропагандистского процесса, опора на положительные результаты и достижения в духовно-просветительской работе, которые могут служить важными методическими звеньями для интеграции национального и зарубежного опыта. Изучение социально-образовательных технологий в развитых странах выявило ведущие тенденции в этой деятельности в мире. В частности, это требует формирования новых стратегий воспитания учащейся молодежи, совершенствования социально-духовной среды в средних учебных заведениях, разработки новых технологий социального воспитания.*

Ключевые слова: *концепция «Школа – место духовности и просвещения», эволюция мировоззренческих компетенций личности, технологии духовного воспитания, образовательная ответственность, высокое национальное идейное сознание, образовательная теория, методика, человек, сведущий в истории, политический активист, успешная социализация.*

A LOOK AT THE CONDITIONS FOR IMPROVING SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN SCHOOL

Abstract. *The main principles of spiritual and moral education in the new Uzbekistan are scientificity, systematicity, historicity, accuracy and efficiency, regularity, reliance on real-life examples, coherence of educational and educational work, consistency of the propaganda process, reliance on positive results and achievements in spiritual and educational work, which can serve as important methodological links for the integration of national and foreign experience. The study of socio-educational technologies of developed countries has identified the leading trends in this activity in the world. In particular, it requires the formation of new strategies in the education of young people, the improvement of the socio-spiritual environment in secondary educational institutions, and the development of new social education technologies.*

Key words: *the concept of "School is a place of spirituality and enlightenment", the evolution of a person's ideological competencies, spiritual education technologies, educational responsibility, high national ideological consciousness, educational theory, methodology, a person well-versed in history, a political activist, successful socialization.*

Har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishda oila, mahalla va ta’lim muassasasining o‘rni nihoyatda katta. Shuning uchun oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligi faoliyatini muntazam reja asosida olib borish maqsadga muvofiq. Shuni ta’kidlash joizki, kishilarning g‘oyaviy-ruhiy holati, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmasi har doim ham atrofdagilarga yaqqol namoyon bo‘lmaydi. Jamoat tashkilotlarida esa buning aksi: so‘z va fikr erkinligi, atrofdagi hodisalarga munosabat bildirishning qat’iy reglamentlashmagani yoshlarga o‘z fikrini o‘zlari istagan shakl va usullarda yetkazib berish imkoniyatini beradi. Bu esa jamoat tashkilotlarining mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishining asosiy yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

Jamiyatdagi mafkuraviy tarbiyaning samaradorligi yoshlar ongiga mehnatsevarlik, tinchliksevarlik, mas’uliyatlilik, burchga sadoqat hamda oriyatlilik va insoflilik kabi muhim axloqiy fazilatlarning singdirilishi bilan belgilanadi. Zero, jamiyat - odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir .

Yoshlarni mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash ruhida tarbiyalashda ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan. O‘zbekistonda istiqlolning ilk yillaridanoq ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, milliy kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko‘tarish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. G‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etib borayotgani hozirgi davrda mamlakatimizda ta’lim tizimining tarbiyaviy ahamiyati o‘ta muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalq ta’limi sohasida olib borilayotgan islohotlar haqida so‘zlagan nutqlaridan birida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda yoshlar hayoti va ta’lim-tarbiyasiga daxldor sharoitlar haqida alohida to‘xtalib, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”, - dedi. Shuningdek, Uchinchi Renessansni barpo qilish va bunda xalq ta’limi tizimi, maktabning roli aniq qilib ifodalandi, ya’ni “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya yuksak pedagogik mas’uliyat yuklamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoniga ilova qilingan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da “Maktab — ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiyasi doirasida umumta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish kabi aniq vazifalar belgilab berildi

Mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari sifatida ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlik, hayotiy misollarga tayanish, ta’lim-tarbiya ishlarining uyg‘unligi, targ‘ibot jarayonining izchilligi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarda erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish kabilar milliy va xorijiy tajriba integratsiyasining muhim metodologik bo‘g‘inlari bo‘lib xizmat qila oladi. Rivojlangan davlatlar ijtimoiy-ma’rifiy texnologiyalarini o‘rganish jahonda ushbu faoliyatning yetakchi tendensiyalarini aniqlab berdi.

Jumladan, o‘quvchi yoshlar tarbiyasida yangi strategiyalarni shakllantirish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va yangi ijtimoiy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bunday ijtimoiy texnologiyalar sifatida Suggestiv modulli universal texnologiya (Sh.Mustafayev), Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv texnologiyasi (A.Ibragimov), Ijtimoiy ma’naviy muhitni o‘rganish xaritasi (A.Qodirov), Ma’naviy-axloqiy munosabatlarning integral diagnostikasi (Z.Azimova), Infotaynment texnologiyasi (Q.Qodirov) asosida ma’naviy axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Pedagogika fanlari doktori Q.A.Qodirov o‘z tadqiqotida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oliy ta’lim muassasalari g‘oyaviy tarbiya tizimini modernizatsiyalash yo‘llari, yoshlarda yuksak fazilatlarni shakllantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni modernizatsiyalash orqali ularning

mafkuraviy immunitetini yanada mustahkamlash, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashning konseptual asoslarini taklif qiladi.

Shu bilan birgalikda yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashni modernizatsiyalashtirish tushunchasining asoslanganligi, Uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonida shaxs g‘oyaviy kompetensiyalari evolyutsiyasining aniqlanganligi, yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalashni modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari belgilanganligi, g‘oyaviy barkamol yolarni tarbiyalash modeli hamda talaba shaxsiga xos mafkuraviy immunitetning ijtimoiy pedagogik funksiyalarini ochib bergan. Uning fikricha, yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professor-o‘qituvchilarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minlash o‘ta muhim hisoblanadi. Ayni vaqtda ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash – madaniy-ma’rifiy texnologiyalardan foydalangan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan loyiha va dasturlarni joriy qilish hamda yoshlarning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishga e’tiborni kuchaytirish zarur, deb hisoblaymiz. Ana shunda maktab o‘quvchilarining o‘zini-o‘zi boshqarishi, mustaqil fikrlashi va barqaror g‘oyaviy xulq-atvor modellarini o‘zlashtirishiga strategik, ya’ni inson omili masalasi sifatida yondoshish talab etiladi.

Bunda o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari ham katta rol o‘ynaydi. Ya’ni “Shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini o‘quvchilarga oddiy axborot sifatida yetkazib bo‘lmaydi. O‘quvchilarda u yoki bu fazilat shunday fazilatga ega boshqa bir shaxs tomonidan shakllantiriladi. Insonni, fuqaroni, vatanparvarni, axloqli shaxsni, kelajakda mas’uliyatli oila boshlig‘i va malakali mutaxassisni tarbiyalash, yuqori texnologiyali va tez o‘zgarib borayotgan dunyoda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun asos yaratish faqat shu fazilatlarga ega bo‘lgan va doimo yangi foydali shaxsiy xislatlarni o‘zlashtirayotgan o‘qituvchigina amalga oshirishi mumkin”.

Ayni vaqtda masalaning aksiologik jihati ham muhim hisoblanadi. Bu haqda falsafa fanlari doktori, professor Q.Nazarov “Yoshlar, xususan talabalar va o‘quvchilarni ma’naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg‘usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risidagi bilimlarning majmuasi bo‘lgan zamonaviy aksiologiya, ya’ni qadriyatshunoslikning asoslarini o‘rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me’yorlari borasida to‘plagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir”, deydi. To‘g‘ri tarbiyalangan qadrlash me’yorlari yoshlarimizda diyonat, shijoat, qanoat, sabr, intizom, vijdon, or-nomus, go‘zallik, nafosat, iffat, hayo, idrok, sadoqat, odillikda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ma’naviyatning ushbu jihatlari axloq, xulq va boshqa sohalardagi qadrlash me’yorlari qanday bo‘lishi lozimligini anglatadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yangi strategiyasini shakllantirishda shaxs ma’naviy madaniyatini yuksaltirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy institutlar orasida ta’lim bugungi kunda alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun modernizatsiyani biz murakkab o‘zgaruvchan dunyoda shaxsning ongli va mas’uliyatli hayotini yaratishni ta’minlaydigan madaniy, ijtimoiy va shaxsiyatga yo‘naltirilgan ta’limga qaratilgan transformatsiya jarayoni sifatida ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘rinda tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, maktab o‘quvchilarida tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi, degan masala dolzarb ahamiyatga ega. Jamiyatni milliy yuksalish g‘oyasiga ehtiyojini va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda, davlat va jamiyat taraqqiyoti bosqichida barcha sohalarning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarga tayanishni talab etmoqda. Ma’naviy tarbiya texnologiyalari tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosini taqozo etadi.

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), tadqiqotchi D.Q.Malikova o‘z tadqiqot ishida “mamlakatimizning har tomonlama iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida taraqqiyot strategiyasi va uzluksiz tarbiya konsepsiyalari metodologik drayver vazifasini o‘taydi” [5], deb hisoblaydi. Olimaning ushbu fikriga qo‘shilgan holda, biz ma’naviy tarbiyada yangi strategik texnologiyalarni genezisi ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning natijasidagi xulosalar va munosabatlar boshlanishi bilan paydo

bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Chunki yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Zero o‘sishi va taraqqiyoti uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Bu yosh avlodning moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishda ajdodlardan yuqoriroq darajaga ko‘tarilishi lozim ekanligini anglatadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy- axloqiy tarbiyada yangi strategik texnologiyalarni shakllantirish usullari sifatida o‘tgan qisqa vaqt davomida jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muammolarni bartaraf etish uchun ma’naviy tarbiya texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni intensiv tashkil qilishda ushbu faoliyatning metodik ta’minoti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogika fanlari doktori Z.Azimova bu borada bu jarayonning metodik ta’minotiga urg‘u qaratar ekan: “Bunda metodik ta’minot o‘qituvchilarga o‘zining qator shaxsiy va kasbiy talablarini qo‘yadi. Ya’ni o‘qituvchilar, sinf rahbarlari tashkilotchi, yuksak milliy mavkuraviy ongli, tarbiya nazariyasi, uslubiyati, psixologiyasi, bilimdoni va amaliyotchisi, milliy va maxalliy madaniyat, tarixni yaxshi biluvchi, siyosiy faol, notiq bo‘lishi lozim”, -deb hisoblaydi.

Z.Azimovaning fikrining tasdig‘ini xorijlik olimlar qarashlarida ham kuzatish mumkin. Hindistonlik professor doktor P.Kannadasning fikricha, “yaxshi ta’lim tizimi bizga munosib shaxslarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ammo, tizim qog‘ozbozlikka asoslangan bo‘lsa, o‘quvchilar bilan bevosita muloqatlarga asoslanmagan bo‘lsa, maktab tarbiyaviy tizimidan uzilish ro‘y bersa, ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi bankrotga uchraydi”.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish eng avvalo, Vatanga sodiq, o‘zida Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasida belgilab berilgan tayanch ma’naviy axloqiy fazilatlarni mujassam qilgan, zamonaviy fikrlaydigan, kreativ va tashabbuskor kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4545884

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaati. https://president.uz/oz/lists/view/4057

3. Azimova Z.E. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish (OTMlari misolida). Doktorlik (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus, 2018. – 15 b.

4. Danilyuk A.Ya. Prinsipi modernizatsii pedagogicheskogo obrazovaniya. https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-modernizatsii-pedagogicheskogo-obrazovaniya. 20243012.

5. Malikova D.K. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimida zamonaviy tyutorlik modellaridan foydalanish”. Ped.fan.dokt.Phd.diss. qo‘lyozma. - Toshkent, 2022.-23bet

6. Nazarov Q. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. — T., Ma’naviyat, 1998, -103 bet.

7. Qodirov Q.A. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oliy ta’lim muassasalari g‘oyaviy tarbiya tizimini modernizatsiyalash. Ped. fan. dokt... diss. –Chirchiq, 2021. – 104 b.

8. https://www.ripublication.com/gjfm-spl/gjfmv6n9_07.pdf , Global Journal of Finance and Management. ISSN 0975-6477 Volume 6, Number 9 (2014), pp. 847-852 © Research India Publications http://www.ripublication.com.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020 yil 3 yanvar. https://lex.uz/uz/docs/4676839

Maxmudova Sevara Asatilla qizi
Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: dr.sevararana94@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MNEMOJADVALLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yordam beradigan va tizimli, amaliyotga yo‘naltirilgan mnemotexnik usullar, jumladan mnemojadvallar va diagrammalar tasvirlangan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari uchun uslubiy material hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi - maktabgacha yoshdagi bolalarda ravon nutqini rivojlantirishda mnemotexnologiyasidan foydalanishga malakali yondashuv aks etgan.*

Kalit so‘zlar: *Idrok, nutqiy komtensiya, ravon nutq, mnemotexnika, mnemokatak, mnomoyo‘lakcha, mnemojadvallar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МНЕМОТАБЛИЦ В РАЗВИТИИ РЕЧИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье описаны приемы мнемотехники, в том числе мнемотехнические таблицы и схемы, которые помогут в развитии речи детей дошкольного возраста и представляет собой систематизированный, практикоориентированный, доступный материал для педагогов дошкольных образовательных учреждений. Цель данной статьи – это компетентный подход в использовании технологии мнемотехники в развитии связной речи детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *Восприятие, речевая компетентность, вызительность речи, мнемотехника, мнемоквадрат, мнемодорожка, мнемотаблица.*

USING MNEMO TABLES IN SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *This article describes the techniques of mnemonics, including mnemonic tables and diagrams that will help in the development of speech in preschool children and is a systematic, practice-oriented, accessible material for teachers of preschool educational institutions. The purpose of this article is a competent approach to using mnemonics technology in the development of coherent speech in preschool children.*

Keywords: *Perception, speech competence, expressiveness of speech, mnemonics, mnemonic square, mnemonic track, mnemonic table..*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bola aniq, ravon gapirishni, she’r va ertaklarini yodlashi, rasmlardan aytib berishni o‘rganishi maktabga tayyorlik ko`rsatgichlardan birini anglatadi. Binobarin, nutq bola shaxsiyatini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachilar oldida turgan asosiy vazifalardan biri bolalarda bog`lanishli nutqni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Afsuski, bugungi kunda bolalarning nutq qobiliyatlari yomonlashib borishi kuzatilmoqda.

Jumladan, bolalarga aytib berilgan ertaklarni, hikoyalarni takrorlash qiyinligi, she’rlarni yaxshi eslay olmasligi ularni monologik nutqqa ega emasligidan dalolat beradi. Ehtimol, bugunning bolasi ma’lumot bilan to‘yingan buning sababidir?... kompyuterdan bemalol foydalanishi, televizor ekranida ko‘p vaqt sarflashi, ma’lumotlarning katta oqimi va uni qayta ishlash bilan shug'ullana olmaslik – bu bizning bolalarimiz duch kelgan qayg'uli haqiqat.

Shuning uchun o‘quv jarayoni ular uchun qiziqarli, ko‘ngilochar, rivojlanayotgan bo‘lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda mnemonikadan foydalanish katta o‘rin tutadi. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mnemonikadan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. S. L. Rubinshteyn, A. M. Leushina ta'kidlaganidek: bog`lanishli nutqning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ko`rgazmalilik eng muhim hisoblanadi [4, 532-bet; 3, 364-bet]. Bu haqiqat maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Ob'ektlarni hisobga olgan holda, bolalar ularni chaqirishadi, xarakterli xususiyatlarni ajratib ko'rsatishadi va ular bilan harakat qilishadi.

Ikkinchi omil, L. S. Vigotskiyning fikriga ko'ra, bayonot rejasini yaratishdir. Muallif maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bayonotning barcha o'ziga xos elementlarining sxemasi shaklida izchil joylashtirish zarurligini bir necha bor ta'kidlagan [2, 44-bet].

Mnemonika-bu ma'lumotni samarali yodlash, saqlash va ko'paytirishni ta'minlaydigan usul va texnikalar tizimi. Maktabgacha pedagogikani o'rganayotgan mualliflarda (V. K. Vorobyova, V. P. Gluxov, L. N. Efimenkova, T. A. Tkachenko) mnemonikaning turli nomlarini topish mumkin: sensorli-grafik sxema, mavzu-sxematik model, blok-kvadratlar, hikoyani tuzish sxemasi [5, 56-bet]. Mnemonika bolalar tomonidan tabiat ob'ektlarining xususiyatlari, atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishni, hikoya tuzilishini samarali yodlashni, ma'lumotlarni saqlash va ko'paytirishni ta'minlaydi, shuningdek nutqni rivojlantirishga yordam beradi [1, 185-bet].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishda darslarga qiziqishni uyg'otish, ularni jalb qilish, ularni ozod qilish va o'rganishni bolalarning sevimli mashg'ulotiga aylantirish juda muhimdir – o'yin va bunga maktabgacha yoshdagi bolalarda izchil bayonotni shakllantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vizual mnemonik jadvallar yoki "sehrli kvadratlar" yordam beradi [7, 154-bet].

Mnemojadvallarning tuzilishi to'qqizta kvadratni o'z ichiga oladi, unda majoziy vositalar, hissiy standartlar, turli xil belgilar va belgilar asosida o'rganilayotgan asar matnining mazmuni kiritiladi.

Bolaning yoshiga qarab, unga allaqachon to'ldirilgan jadval (kvadratchalar) taklif etiladi yoki jadval bola bilan birgalikda tuziladi yoki bola kvadratlarni mustaqil ravishda to'ldiradi va hikoya paytida ularning tarkibidan foydalanadi.

Mnemonik jadvallardan foydalanish umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa xayoliy fikrlash, tasavvur, xotira, almashtirish qobiliyati va fazoviy modellashtirishni takomillashtirish uchun asos yaratishga imkon beradi. Bu qobiliyat inson ongining asosiy xususiyatidir. Shu munosabat bilan, bolada tasavvurni rivojlantirish, turli xil o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati, munosabatlarni topish qobiliyati uchun unga grafik o'xshashlikni "o'qishni" o'rgatish kerak [6, 19-bet]. Bolalar uchun sevimli taniqli va tushunarli ertak qahramonlari bilan assotsiativ aloqalarni o'rganish, bolaning intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadigan o'yin vazifalarini bajarish osonroq.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aksariyati tasvirli-obarzli xotira ustun turadi (bu vizual, audial, kinestetik va boshqa idrok tasvirlari bo'lishi mumkin). Shu bilan birga, ma'lumotlar bolalar tomonidan, asosan, mexanik, beixtiyor eslab qolinadi. Ya'ni, bola o'zi uchun qiziq bo'lgan narsani yoki unga kuchli taassurot qoldiradigan voqea-hodisani eslab qoladi. Shuning uchun g'ayrioddiy va yorqin taqdimot shakli juda muhimdir. Bolalarda nutqning rivojlanishi bilan so'zlarni idrok etish qobiliyati oshadi: maktabgacha yoshdagi bola she'rlarni yodlashi mumkin, u ertak va multfilmlarning syujetlarini osongina eslab qoladi. Biroq, psixologik va pedagogik tadqiqotlarga ko'ra agar bu jarayonda ular vizual sxemalarga tayanishi mumkin bo'lsa, bolalarga katta hajmli ma'lumotlarni idrok etishi va eslab qolishi mumkin. Katta maktabgacha yoshdagi bolada ixtiyoriy xotira shakllana boshlaydi. O'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati rivojlanishi bilan bola o'zi uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda eslab qolishni o'rganadi. Bu bolalarga kerakli materialni yaxshiroq eslab qolish imkonini beruvchi ko'rgazmali (diagrammalar, eskizlar, eslatmalar) vositalar bo`lishimumkin.

Mnemojadvallar- ketma-ket joylashtirilgan tasvir-ramzlardan iborat diagrammalar bo'lib, unda matnlar (ertaklar, she'rlar va boshqalar) mazmuni shifrlangan mazmunidir. Ularning yordami bilan bola nafaqat eshitish orqali, balki vizual tasvirlar orqali ham ma'lumotni idrok eta oladi.

Mnemotexnika - yunon tilidan - "yodlash san'ati" -deb tarjima qilinadi. Bu ma'lumotni muvaffaqiyatli yodlash, saqlash va ko'paytirishni, tabiiy ob'ektlarning xususiyatlari, atrofimizdagi dunyoni bilish, hikoya tuzilishini samarali yodlash va, albatta, nutqni rivojlantirishni ta'minlaydigan usul va texnikalar tizimi hisoblanadi.

Mnemonika yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

– Bolalarda bog‘lanishli va dialogik nutqni rivojlanishi;

– bolalarda grafik analogiya yordamida, o‘rnini bosuvchi omillar yordamida tanish ertaklarni, mnemojadvaldagi she’rlarni tushunish va aytib berish qobiliyatini rivojlantirish;

– mnemojadvaldagi tanish ertaklarni va she’rlarni tushunish va aytib berish;

– bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish;

– bolalarda aqliy faoliyat, aql-zakovat, kuzatuvchanlik, taqqoslash, muhim xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish;

- bolalarda aqliy jarayonlarni rivojlantirish: fikrlash, e’tibor, tasavvur, xotira;

Aksariyat bolalar jumladagi so‘zlarni muvofiqlashtira olmaydilar, ular so‘zlarning tovush talaffuzi va bo‘g'inli tuzilishini buzadilar. Qoida tariqasida, bunday bolalar zaif xotiradan, tarqoq e’tiborga ega, ko‘pchilik mantiqiy fikrlashning nomukammalligidan aziyat chekmoqda. Agar bola bilan obyektlarni tasvirlashda yoki mazmunli tasvir qurishda qiyinchiliklarga duch kelsa, vizual ma’lumotni yanada samaraliroq idrok etish va qayta ishlash, uni saqlash va ko‘paytirish imkonini beradigan diagrammalaridan - mnemojadvallardan foydalanish maqsadga muvofiq.


Qo‘shimcha assotsiatsiyalarni shakllantirish yodlash jarayonini osonlashtiradi va o‘rganilgan materialni ko‘paytirishga yordam beradi. Ko‘pincha mnemojadvallar she’rlarni yodlash, takrorlashni o‘rgatish, hikoyalar tuzish, shuningdek qoidalar va turli xil ketma-ketliklarni yodlash uchun ishlatiladi. Ammo xotira rivojlanishi mnemojadvallardan foydalanishning yagona ijobiy natijasi emas. Bolalarda mantiqiy va xayoliy fikrlash, diqqat, tasavvur faol rivojlanadi, ularning so‘z boyligi kengayadi, ravon va bog‘lanishli nutq shakllanadi. Bolalarni mnemojadavallar bilan tanishtirish bosqichma-boschiq, soddadan murakkabga qadar tamoyili asosida amalga oshirish lozim.

Mnemokatak - bu sxematik tarzda tasvirlangan obyekt, harakat yoki hodisa bo‘lgan alohida katak (predmet) bo‘lib, unda bitta so‘z shifrlangan (masalan, "piyola", "bola" yoki "barg").

Mnemoyo‘lakcha -bir nechta chiziqli joylashgan mnemokataklarning mujassamlashgani, unga ko‘ra bola ibora yoki jumla tuzishi mumkin.

Mnemojadval - bu juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ko‘plab mnemokataklardan iborat murakkabroq dizayn.

	**Mnemokatak** – so‘z yoki so‘z birikma hosil qilish mumkin
	**Mnemoyo‘lakcha**- jumla yoki ibora hosil qilish mumkin.
K  	**Mnemojadval** – hikoya hosil qilish mukin.




Mnemojadvalni tashkil etuvchi mnemokataklar yoki mnemoyo‘lakchalar miqdori bolaning yoshiga va boshqa individual xususiyatlariga bog'liq.

Kichik va o‘rta yosh guruh bolalari uchun- 4-6 ta katak

Katta tayyorlov yosh guruhi bolalari uchun- 6-10 katakalardan foydalanish mukin

Bolaning diqqatini jamlash uchun mnemojadvallar rangli va yorqin bo‘lishi kerak. Katta yosh guruhidagi bolalar uchun qora va oq rasmlar ham mos keladi. Tasvirlar boalaga tanish va tushunarli bo‘lishi muhimdir.

“Sholg‘om” ertagi



Qanday qilib mnejadvalni mustaqil yaratish mumkin?



Bola bilan hikoya tuzishda ham tayyor mnemonik jadvallardan, ham mustaqil tayyorlagan jadvallardan foydalanish mumkin. She’r yoki hikoya asosida jadval yaratish uchun quyidagi amallar bajarilishi kerak bo‘ladi:

- matn bo‘laklarga bo‘linadi (bola qanchalik kichik bo‘lsa, shuncha qisqaroq);
- qog'ozga matn bo‘laklari miqdoriga qarab kataklar chiziladi;

- har bir katakda matn bo‘lagidagi keltirilgan narsa-predmet yoki u bilan bog'liq bo‘lgan voqea-hodisa tasvirlanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bola mustaqil ravishda jadval uchun rasmlarni chizishi mumkin.

- ehtiyojga qarab, eslab qolishingiz kerak bo‘lgan har bir katakdagi matnni yozib qo‘yish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mnejadvallar namunalari:

B		
		
		
O‘lkamizga bahor kelganida quyosh charaqlab kamlak paydo bo‘ladi. Issiq o‘lkalardan qushlar uchib keladi. Dalalarda yam-yashil maysalar o‘sib va boychchaklar ochiladi. Bolalar nihollar va gullar ekishadi.		

“Anvarning kun tartibi”

 Tongada quyosh An-varni uyg‘otdi	 Anvar badan tarbiya qiladi	 Kunduzi Anvar do‘stlari bilan o‘ynaydi
 Tushlikdan so‘ng Anvar kitob o'qiydi	 Oqshomda Anvar yuz-qo’lini yuvadi	 Kechqurun Anvar uxlaydi

She’r yod olish uchun mnemojadvallar

Bolaning she’r yod olish jarayonini osonlashtirish uchun mnemojadvallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, quyidagi algortim asosida ish shakli bajariladi :


- bolaga she’rni ifodali o‘qib berish kerak
- Shundan so‘ng bolaga she’rni birgalikda qaytarilishi haqida aytiladi. e’tiborini mnemojadvalga qaratgan holda,she’rni bir necha marotaba o‘qilib chiqiladi,
- she’rning mazmunini, uning asosiy g'oyasi haqida suhbat qilinadi.
- bolaga barcha so‘zlar va rasmlar tushunarli yoki tushunarsiz ekanligi aniqlanadi, shundan so‘ng ularning ma’nosini tushuntiriladi.
- bola rasmlarga tayangan holda kattaning orqtidan qatorma-qator qaytaradi
- shundan so‘ng bola mnemojadvalga qarab she’rni mustaqil qaytarib, yod olishi mumkin.

Mnemojadvallar yordamida she’rni yod olishga misol

Abdulla Oripov **“Oshpaz”**

			
Gurillatib olovni	Damlab qo’ydim palovni.	Suzib qo’ydim tovoqqa,	O’tiringlar yemoqqa!

Nurulloh Oston **“Varrak uchirdik”**

		
Kurtakladi tokimiz,	Gulga kirdi nokimiz.	Ko‘kda qushlar chuldirar,
		
Yerda maysa gurkirar	Tomga tirab xarrakni	Biz uchirdik varrakni!

Yusuf Shomansur **“Shirmoy non”**




Oyim yopar shirmoy non




Men ham qarab turmayaman



Gul solaman hamirga



O‘t yoqaman tandirga



Mehnat qilgach albatta



Sindirib katta-katta



Yeyilganda shirmoy non



Men ham qarab turmayaman

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda mnemonika bolalarning bog`lanishli nutqini rivojlantirish, sxematik mnemonik jadvallar va grafik tasvirlar orqali amalga oshiriladigan materiallarni tezlashtirilgan yodlash uchun ishlatish uchun qulay, yengil, qulay va yuqori samarali usullardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar, ular juda katta lug'atga ega bo‘lsalar ham, ko‘pincha hikoyalar tuzishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bolalar osongina chalg'itadi, chalg'itadi va o‘z fikrlari mantiqini yo‘qotadi. Mnemonik jadvallar bolalarga hikoyani rejalashtirishga va syujet voqealarini to‘g'ri tartibda takrorlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu uslub bolaning nutqini shakllantirishga, uning so'z boyligini chiroyli, murakkab va to'g'ri tuzilgan iboralar va jumlalar bilan to'ldirishga yordam beradi. Barcha mnemo texnikalarning mohiyati matnli, og'zaki ma'lumotlarni ko`rgazmali tasvirlarga aylantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bog`lanishli nutqini rivojlantirish uchun mnemojadvallardan foydalanganda quyidagi sxema qo'llanilishi eng samaralidir:

1 bosqich. Tarbiyachi bolalarga ma'lum bir iborani yoki jumlani ko'rsatadigan yorqin va rang-barang rasmlari bo'lgan kartalarni ko'rsatadi;

2 bosqich. Mnemotexnika deb ataladigan yo'llarni o'rganish. Bu to'rtta rasmdan iborat bir qator rasmlar bo'lib, ular yordamida bola oddiy voqeani aytib berishi mumkin.

3 bosqich. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bog’lanishli nutqini o'rgatish uchun to'g'ridan-to'g'ri mnemonik jadvaldan foydalanish. Ushbu usul tufayli maktabgacha yoshdagi bolalar murakkab hikoyalarni tuzishni o'rganadilar.

Xulosalar. Maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasi va shuning bilan bir qatorda nutqiy doimiy ravishda takomillashtiriladi. Pedagogning vazifasi bolaga o‘z qobiliyatlarini maksimal darajada oshirishga yordam berishdir. Tasvirlab bergan mnemonikadan foydalangan holda, bolada vizual xotirani, shuningdek diqqat, fikrlash va ravon nutqni rivojlantirish.

Bolaning nutqi va aqliy rivojlanish darajasini belgilaydigan nutq-fikrlash faoliyatining eng yuqori shakli izchil nutqdir. Rivojlangan bog`lanishli nutq maktabgacha yoshdagi bolani maktabda o‘qishga muvaffaqiyatli tayyorlashning muhim shartidir. Izchil nutq murakkab tuzilishga ega va shuning uchun maxsus nutq ta’limi, izchil gapirish ko‘nikmalarini o‘rgatish kerak. O‘qituvchilar tomonidan kam qo‘llaniladigan samarali, ammo kam qo‘llaniladigan izchil nutqni rivojlantirish vositalaridan biri bu mnemonik jadvallar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Бизикова О.А. Развитие монологической речи у дошкольников: Учебное пособие для студ. высш. учебных заведений. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2014. – 235 с.

2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – СПб.: СОЮЗ, 2001. – 96 с.

3. Леушина А.М. Развитие связной речи у дошкольника // Хрестоматия по теории и методике развития речи детей дошкольного возраста / Сост. М.М. Алексеева, В.И. Яшина. – М.: Академия, 2003. – С. 358-369.

4. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб: Питер, 2000. – 712 с.

5. Ткаченко Т.А. Формирование и развитие связной речи: Логопедическая тетрадь / Худ. И.Н. Ржевцева. – СПб.: Детство-пресс, 1999.

6. Усенко Ю.В. Использование мнемотаблиц в познавательно-речевом развитии дошкольника//Дошкольная педагогика. – 2013. – №7. – С.18-19.

7. Полькова Н.Н., Ефанкина О.А. Особенности использовании мнемотаблиц для развития связной речи старших дошкольников: стать в сборнике науч. конференции «Череповецкие чтения-2013», 2014. – С. 152-154.

8. Tashmukhamedova, F. B., Makhmudova, O. A. . (2023). Development of Connected Monological Speech of Preschool Children Using a Memonic Table. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 585–589. Retrieved from https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/762 Vol. 2 No. 10 (2023): Best Journal of Innovation in Science, Research and Development.

9. S.A.Maxmudova, Qambarova, Y. (2024). Neyrogimnastikaning maktabgacha yohdagi bolalar rivojlanishiga ta’siri, o‘rni va ahamiyati. University Research Base, 112–115. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/478

10. Қодиров, В. , Маҳмудова, О. . (2022). Пластик материаллар ёрдамида дидактик ашёлар тайёрлаш методикасига оид тажрибалар. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, *2*(3), 116–123. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/1234

Muminova Dilnavoz Komilovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
Texnologik ta'lim kafedrasi

"DATA SCIENCE"NING MAZMUN-MOHIYATI VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda "data science" — ma'lumotlar ilmi fanining mazmun-mohiyati, uning ta'lim tizimidagi ahamiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi roli yoritib berilgan. Maqolada data science orqali ta'lim jarayonini raqamlashtirish, interaktiv usullarni joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish hamda individual yondashuv asosida o'qitish imkoniyatlari muhokama qilingan. Shuningdek, xorijiy tajribalar, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar asosida data science'ning ta'limga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, ta'lim sifatini baholash va yuksaltirishda data science fani muhim omil sifatida namoyon bo'lishi isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *Data science, ta'lim sifati, raqamli ta'lim, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, individual yondashuv, pedagogika, ta'lim texnologiyalari, innovatsion yondashuv.*

СОДЕРЖАНИЕ И СУТЬ «НАУКИ О ДАННЫХ» И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация*. В данной статье освещается сущность "data Science" — науки о данных в современном обществе, ее значение в системе образования и роль в повышении качества образования. В статье обсуждаются оцифровка образовательного процесса с помощью data Science, внедрение интерактивных методов, анализ уровня знаний учащихся, а также возможности обучения на основе индивидуального подхода. Также было проанализировано влияние data Science на образование на основе зарубежного опыта, педагогических подходов и современных технологий. Результаты исследования показали, что наука о данных является важным фактором в принятии решений на основе данных, оценке и повышении качества образования.*

Ключевые слова*: Наука о данных, качество образования, цифровое образование, анализ данных, искусственный интеллект, индивидуальный подход, педагогика, образовательные технологии, инновационный подход.*

THE CONTENT AND ESSENCE OF "DATA SCIENCE" AND ITS IMPORTANCE IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Annotation. *this article highlights the content and essence of data science in modern society, its importance in the educational system and its role in improving the quality of Education. The article discusses the digitization of the educational process through data science, the introduction of interactive methods, the analysis of the level of knowledge of students, and the possibilities of teaching on the basis of an individual approach. Data science's impact on education has also been analyzed based on foreign experiences, pedagogical approaches and modern technologies. Data science has been shown to be an important factor in Data-Driven Decision Making, Educational Quality Assessment, and enhancement in research findings.*

Keywords*: Data science, educational quality, digital education, data analysis, artificial intelligence, individual approach, pedagogy, educational technology, innovative approach.*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli transformatsiya davrida axborot oqimi keskin sur'atlar bilan ortib borayotgan bir paytda, ushbu ma'lumotlar orasidan foydali bilimlarni ajratib olish, ularni tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish insoniyat taraqqiyoti, fan-texnika rivoji, iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa, ta'lim sifatini oshirishda muhim vositalardan biriga aylandi. Ana shu ehtiyoj va talablar zamiridan "data science" – ya'ni ma'lumotlar ilmi (yoki ma'lumotshunoslik) fani shakllandi. Data science – bu katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, ularni to'plash, saqlash, tozalash, tahlil qilish, vizualizatsiya qilish va asosli qarorlar chiqarishga xizmat qiluvchi yangi, lekin jadal rivojlanayotgan fan sohasidir. U kompyuter fanlari, statistika, matematika, sun'iy intellekt, mashinali o'rganish va domen bilimlarini o'zida uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvdir. Data science mutaxassislari esa zamonaviy

jamiyatda “raqamli konchilar” rolini bajarmoqda – ular ma’lumotlardan foydali xulosalar, yangiliklar, bashoratlar chiqarish orqali turli sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Data science bugungi kunda nafaqat biznes va iqtisodiyotda, balki sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, ekologiya, transport, davlat boshqaruvi va, albatta, ta’lim tizimida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta’lim sifatini oshirishda data science imkoniyatlari cheksizdir. Zamonaviy ta’lim jarayonlari shunchalik murakkab va o‘zgaruvchan bo‘lib qolmoqdaki, an’anaviy yondashuvlar, intuitiv qarorlar, statistik nazoratlar ta’lim sifatini samarali tahlil qilishda yetarli bo‘lmay qolmoqda. Ana shunday sharoitda data science yondashuvi o‘quv jarayonlarini chuqur o‘rganish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniq baholash, o‘qitish uslublarining samaradorligini tahlil qilish, individual yondashuvni shakllantirish, shuningdek, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi.

Mavzu metodologiyasi. Ma’lumotlar ilmi orqali maktab, kollej va universitet darajasidagi o‘quvchilarning qatnashuv ko‘rsatkichlari, test natijalari, baholari, faoliyati, darsliklarga bo‘lgan qiziqishi, onlayn platformalardagi faolligi, hattoki ruhiy-emotsional holati haqida katta hajmdagi ma’lumotlar yig‘ilib, ular asosida chuqur tahlillar o‘tkazilishi mumkin. Bu tahlillar yordamida o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, ularga mos o‘quv strategiyalari ishlab chiqiladi, bilim olishdagi to‘siqlar aniqlanib, ularga nisbatan tez va aniq choralar ko‘riladi. Misol uchun, mashinali o‘rganish algoritmlari orqali bir nechta ko‘rsatkichlar asosida o‘quvchining sinfdan qoniqarli o‘tish ehtimolini, ba’zi mavzularda qiynalish darajasini, hatto darslardan chetlanish xavfini ham oldindan aniqlash mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ta’limda samarali profilaktika choralari ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Ta’lim sohasida data science yondashuvining muhim yo‘nalishlaridan biri — “learning analytics”, ya’ni o‘quv jarayonlarini tahlil qilish sanaladi. Bu metodika yordamida ta’lim muassasalari o‘zlarining strategiyasini zamonaviy raqamli tahlillarga asoslab, aniq va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishadi. Masalan, universitet darajasidagi o‘quv muassasasi har bir talabaga mos o‘quv rejasini tuzishi, ularning o‘zlashtirishini real vaqt rejimida monitoring qilish, o‘qituvchilarning dars o‘tkazish uslubini baholash va takomillashtirish imkoniga ega bo‘ladi.

Asosiy qism. Talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, mos keluvchi onlayn kurslar yoki resurslarni tavsiya qilish, hatto kasbiy yo‘nalishni aniqlashda data science asosida ishlovchi tizimlar yordam berishi mumkin. Ta’limda data science texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim tizimining makro va mikro darajadagi muammolarini aniqlash mumkin. Ta’lim tizimidagi global muammolar – masalan, resurslarning adolatsiz taqsimlanishi, hududlararo ta’lim sifatidagi tafovutlar, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga javob bermasligi kabi holatlarni aniqlashda katta ma’lumotlar tahlili asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning individual darajadagi muammolari – konsentratsiya yetishmasligi, o‘zlashtirish darajasining pastligi, psixologik to‘siqlar yoki o‘quv strategiyalarining noto‘g‘riligi kabi holatlar ham data science vositalari orqali aniqlanib, bartaraf etilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimini yanada shaffof, adolatli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, data science nafaqat mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, balki yangi bilimlar yaratish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Yangi metodlar, algoritmlar, texnologiyalar va yondashuvlar orqali ta’lim jarayonlari doimiy takomillashib boradi. Data science ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda, yangi o‘quv platformalarini ishlab chiqishda, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar orqali o‘qitish jarayonlarini avtomatlashtirishda va individuallashtirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, natural language processing (NLP) – tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari orqali o‘quvchilarning yozma ishlari avtomatik baholanadi, grammatik xatolar tahlil qilinadi, mos tuzatishlar taklif qilinadi. Shu orqali o‘qituvchi yuki yengillashadi, vaqt samaradorligi oshadi, talabalar esa ko‘proq sifatli teskari aloqaga ega bo‘ladi.

Data science sohasining ta’limdagi ahamiyati, shuningdek, o‘qituvchilarning professional rivojlanishida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘qituvchilar o‘z darslarini tahlil qilish, talabalar bilan aloqalarni tahliliy yondashuv orqali baholash, darslik va metodik materiallar samaradorligini o‘lchash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ular o‘z pedagogik faoliyatini obyektiv ravishda ko‘rib chiqib, qanday yo‘nalishlarda rivojlanish zarurligini aniqlashadi. Data science nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘qituvchilarga ham o‘z ustida ishlash, pedagogik strategiyalarini takomillashtirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, data science’ning ta’lim tizimiga joriy etilishi, uni to‘laqonli qo‘llash uchun bir qancha shart-sharoitlar, texnik infratuzilma, kadrlar salohiyati, raqamli savodxonlik, ma’lumotlar xavfsizligi va etik me’yorlarga rioya qilish zarurligini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Biroq bugungi

globallashuv davrida bu yo‘nalish bo‘yicha jadal harakatlar boshlab yuborilgan. Dunyodagi yetakchi universitetlar, ta’lim tashkilotlari, startaplar, EdTech kompaniyalari ushbu soha imkoniyatlarini to‘liq o‘rganib, uni keng joriy etishga intilmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya, ta’lim platformalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning faoliyatini tahliliy baholash tizimlarini joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu esa yaqin kelajakda data science’ning ta’lim sifatini oshirishdagi rolini yanada kuchaytiradi.

Data science bugungi va kelajak ta’limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. U nafaqat ta’lim jarayonlarini tahlil qilish va baholash, balki ularni individuallashtirish, avtomatlashtirish, yangi metodlarni ishlab chiqish, samaradorlikni oshirish kabi ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Data science orqali bilim olish jarayoni yanada oqilona, asosli va ilmiy tahlilga tayangan holda amalga oshiriladi. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim tizimi data science texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda rivojlansa, bu kelajak avlodni raqamli davr talablari asosida yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalash imkonini beradi. Shu sababli, data science fani bugungi kunda nafaqat texnologik taraqqiyot, balki ta’lim sifatini oshirish yo‘lida ham strategik vositaga aylanmoqda.

Bugungi global raqamli jamiyatda data science – ya’ni ma’lumotlar ilmi hayotning barcha jabhalariga, xususan, ta’lim tizimiga tobora chuqur kirib bormoqda. Ta’lim sifatini oshirishda data science vositalarining qo‘llanilishi uni faqat statistik tahlil vositasi sifatida emas, balki qarorlar qabul qilishni avtomatlashtiruvchi, ta’lim strategiyalarini shakllantiruvchi, o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qiluvchi, individual yondashuvni ta’minlovchi kuchli vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Eng avvalo, data science ta’limda yuzaga keladigan turli xil ma’lumotlarni (baholar, ishtirok ko‘rsatkichlari, onlayn faoliyat, test natijalari, o‘zlashtirish darajalari) yig‘ish, tizimlashtirish va ularni tahlil qilishga asoslanadi. Shu orqali har bir o‘quvchining o‘quv jarayonidagi ishtiroki, motivatsiyasi, bilim olish uslublari, kuchli va zaif tomonlari haqida aniq va asosli ma’lumotlar olinadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan holatda tashkil etish imkonini beradi.

Data science’ning ta’limdagi asosiy afzalliklaridan biri — uning yordami bilan o‘quv jarayonlari to‘liq tahlil qilinadi va bu tahlillar asosida optimallashtirish ishlari amalga oshiriladi. Misol uchun, sinfdagi o‘quvchilarning biror mavzudagi o‘zlashtirish darajasi past bo‘lsa, data science yondashuvi bu holatning sabablarini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holatda ma’lumotlar tahlili o‘qitish metodikasining yetarlicha samarali emasligini ko‘rsatishi, mavzuning murakkabligi yoki tushuntirish usulining o‘quvchilarga mos emasligini aniqlashi mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida o‘quv dasturi qayta ko‘rib chiqiladi, o‘quvchilarga mos yondashuvlar ishlab chiqiladi. Bunday tahliliy yondashuv orqali ta’lim jarayoni individual xususiyatlarga tayangan holda qayta yo‘naltiriladi, bu esa umumiy o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Data science algoritmlari o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyati yoki qiyinchiliklarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, bir nechta omillar — darsga qatnashish ko‘rsatkichlari, oraliq test natijalari, onlayn platformadagi faollik darajasi, darsliklarni o‘zlashtirishga ajratilgan vaqt — asosida mashinali o‘rganish (machine learning) modellari tuziladi va bu modellardan foydalanib o‘quvchining kursdan muvaffaqiyatli o‘tish ehtimoli hisoblab chiqiladi. Agar bu ehtimol past bo‘lsa, tizim avtomatik tarzda o‘quvchiga yordam ko‘rsatishni tavsiya qiladi, unga mos mashg‘ulotlar, qo‘shimcha resurslar, o‘qituvchining e’tiborini qaratish uchun signal beradi. Bu esa o‘z vaqtida choralar ko‘rish orqali o‘quvchining o‘qishni tashlab ketish xavfini kamaytiradi.

Data science orqali shuningdek o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatini baholash imkoniyati ham yaratiladi. Har bir darsning natijalari, o‘quvchilarning faolligi, bilim darajasidagi o‘zgarishlar asosida o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi aniqlanadi. Bu ma’lumotlar o‘qituvchiga tahliliy teskari aloqa tarzida taqdim qilinib, uning dars o‘tishdagi uslubini takomillashtirish, o‘quvchilarga individual yondashuvni shakllantirish, yangi metodikalarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy elektron platformalarda dars berayotgan o‘qituvchilarning faoliyatini avtomatik tahlil qilish, ularning eng samarali dars uslublarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradigan tizimlar tobora ko‘paymoqda. Bunday raqamli tahlil va tavsiyalar o‘qituvchilar o‘rtasidagi tajriba almashinuvini kuchaytirib, umumiy ta’lim sifatining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, data science asosida ishlab chiqilgan "adaptive learning" tizimlari ta’limda katta imkoniyatlar ochmoqda. Bu tizimlar o‘quvchining bilim darajasiga, o‘rganish tezligiga, qiziqishiga qarab, unga mos o‘quv materiallarini avtomatik ravishda tanlab beradi. Misol uchun, matematikani o‘rga-

nayotgan o‘quvchi muayyan mavzuda qiyinchilikka duch kelsa, tizim shu mavzuga oid oddiyroq misollarni taklif qiladi, o‘zlashtirilganidan so‘ng esa murakkablik darajasini oshirib boradi. Natijada har bir o‘quvchi o‘zining individual imkoniyatlariga mos ravishda o‘qitiladi, bu esa motivatsiyani saqlab qoladi, bilimning mustahkam shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday tizimlar orqali “bir xil yondashuv – hamma uchun” degan eski pedagogik model o‘z o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga bo‘shatmoqda.

Data science shuningdek ta’lim muassasalarining strategik qarorlar qabul qilishida ham beqiyos ahamiyatga ega. Masalan, oliy ta’lim muassasasi qaysi fanlarga ko‘proq talab borligini aniqlash, qaysi sohalarda o‘qituvchilar yetishmayotganini aniqlash, qanday elektron resurslar ko‘proq foydali bo‘layotganini bilish uchun ma’lumotlar tahliliga tayansa, u holda rejalashtirish, byudjet ajratish, ta’lim dasturlarini takomillashtirish kabi muhim masalalarda aniq va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi. Bu esa resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishiga, ta’lim jarayonlarining ishonchli tashkil etilishiga va o‘quv muassasaning nufuzini oshishiga olib keladi.

Data science shuningdek, o‘quvchilarning qiziqish va intilishlarini aniqlashda ham foydali vositaga aylanmoqda. Masalan, onlayn platformalardagi o‘quvchilarning qaysi mavzularga ko‘proq e’tibor qaratayotgani, qanday test turlarida qiynalayotgani, qanday savollar ularga qiziqroq bo‘layotgani kabi ko‘rsatkichlar asosida ularning qiziqishlari, intilishlari, kuchli tomonlari tahlil qilinadi. Bu ma’lumotlar asosida o‘quv dasturlari yangilanadi, yangi mashg‘ulotlar yaratiladi, o‘quvchilarga kasb tanlashda yo‘l-yo‘riq beriladi. Shu tariqa data science o‘quvchi shaxsini yanada chuqurroq o‘rganish, uni rivojlantirish va jamiyatda to‘g‘ri o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, data science ta’limda inkluziv yondashuvni amalga oshirishda ham katta rol o‘ynaydi. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar, til o‘rganishda qiynalayotganlar yoki psixologik to‘siqlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqilib, ularning individual holati tahlil qilinadi va ularga mos ta’lim uslublari taklif etiladi. Shu orqali barcha qatlamdagi o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish imkoniyati yaratiladi. Bunda sun’iy intellekt va data science texnologiyalari birgalikda ishlaydi — o‘quvchi harakatlarini real vaqt rejimida kuzatib, unga mos muhit yaratadi.

Yana bir muhim jihat — data science orqali akademik halollik darajasini oshirish mumkin. Masalan, yozma ishlarda plagiat holatlarini aniqlash, imtihonlardagi shubhali faoliyatlarni qayd etish, noto‘g‘ri javoblarni tahlil qilish kabi ko‘plab nazorat mexanizmlari aynan data science asosida ishlab chiqilgan tizimlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa ta’lim tizimining adolatli, halol va ochiq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini baholashda xalqaro reyting va indikatorlar tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash uchun esa aniq, raqamli asoslangan tahlil va monitoring mexanizmlariga ega bo‘lish lozim. Data science bu borada ham eng samarali vosita hisoblanadi. U orqali mamlakat miqyosida ta’lim sifati, hududlararo farqlar, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, o‘qituvchilar salohiyati kabi muhim ko‘rsatkichlar muntazam kuzatilib boriladi. Bu ma’lumotlar asosida davlat siyosati shakllantiriladi, strategik reja va islohotlar yo‘nalishi belgilanadi. U yordamida ta’limda har bir qaror ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilinadi, har bir o‘quvchi individual yondashuv asosida ta’lim oladi, o‘qituvchilar o‘z faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi, ta’lim muassasalari esa o‘z faoliyatini samarali boshqaradi. Data science texnologiyalarini to‘liq joriy qilish esa nafaqat texnik imkoniyatlarni, balki yangi yondashuvlar, raqamli savodxonlik, etika va axborot xavfsizligini ham o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, bilimli va tashabbuskor avlodni yetishtirish uchun data science’ning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati tobora oshib boradi. U pedagogika, texnologiya va analitika chorrahasida joylashgan kuchli vosita sifatida ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirayotgan ilg‘or yondashuvdir.

Globallashuv jarayonida ta’lim va ilm-fanning tutgan o‘rni beqiyosdir. Jamiyatning taraqqiyoti, inson kapitalining yuksalishi hamda raqobatbardosh avlodni tarbiyalash aynan ta’lim sohasidagi strategik yondashuvlar va ilmiy izlanishlar bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik metodlar ta’limning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu esa o‘qituvchi va talabadan doimiy yangilanish, moslashuvchanlik va ijodiy fikrlashni talab qiladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or xorijiy tajribalar va milliy an’analar uyg‘unligida shakllangan ta’lim modeli nafaqat bilim berishga, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi. Bunda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy izlanishlarga asoslangan yondashuvlar va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Fikr-mulohazalar, tahlillar va mi-

sollar asosida aytish mumkinki, ta'lim va ilm-fan jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu boisdan har bir davlat, xususan, O'zbekiston ham, bu sohalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, zarur islohotlar, investitsiyalar va ilmiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash orqali kelajak avlod uchun mustahkam zamin yaratishi darkor. Zero, ta'limga qaratilgan e'tibor — bu millatning ertangi kuniga kiritilgan eng to'g'ri sarmoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dhar, V., & Stein, R. M. (2017). Creating a data-driven culture: The role of analytics and data science in decision making. Journal of Business Analytics, 2(1), 5–15. https://doi.org/10.1080/2573234X.2017.1297147
2. Provost, F., & Fawcett, T. (2013). Data science and its relationship to big data and data-driven decision making. Journal of Big Data, 1(1), 51–59. https://doi.org/10.1186/2196-1115-1-1
3. Baumer, B. S. (2015). A data science course for undergraduates: Thinking with data. The American Statistician, 69(4), 334–342. https://doi.org/10.1080/00031305.2015.1081105
4. Donoho, D. (2017). 50 years of data science. Journal of Computational and Graphical Statistics, 26(4), 745–766. https://doi.org/10.1080/10618600.2017.1384734
5. Hardin, J., Hoerl, R., Horton, N. J., Nolan, D., & Baumer, B. (2015). Data science in statistics curricula: Preparing students to "think with data". The American Statistician, 69(4), 343–353. https://doi.org/10.1080/00031305.2015.1094283
6. Brown, M., & Kass, R. E. (2009). What is statistics?. The American Statistician, 63(2), 105–110. https://doi.org/10.1198/tast.2009.0012
7. Çelik, S., & Gök, B. (2021). Integration of data science into education: New trends and pedagogical perspectives. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 18(1), 1–17. https://doi.org/10.1186/s41239-021-00275-z
8. Tang, J., & Sae-Lim, W. (2016). Data science programs in U.S. higher education: An exploratory content analysis of program descriptions, curriculum structure, and course focus. Education and Information Technologies, 21(4), 881–898. https://doi.org/10.1007/s10639-014-9353-5
9. Romero, C., & Ventura, S. (2020). Educational data mining and learning analytics: An updated survey. Wiley Interdisciplinary Reviews: Data Mining and Knowledge Discovery, 10(3), e1355. https://doi.org/10.1002/widm.1355
10. Saltz, J. S., & Heckman, R. (2020). Using design thinking to develop a data science curriculum. Harvard Data Science Review, 2(1). https://doi.org/10.1162/99608f92.3f93c379
11. Garcia, E., & Weiss, E. (2019). Student performance, career outcomes, and the data-driven classroom. Educational Researcher, 48(7), 420–432. https://doi.org/10.3102/0013189X19863999
12. Wing, J. M. (2008). Computational thinking and thinking about computing. Philosophical Transactions of the Royal Society A: Mathematical, Physical and Engineering Sciences, 366(1881), 3717–3725. https://doi.org/10.1098/rsta.2008.0118

Muxammadiyeva Xadicha Karamatovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim pedagogika kafedrasi PhD, dotsenti
E-mail: xadicha20182020@gmail.com
Ravshanov Sanjar,
Muhammadiyeva Saida
Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi 32-umumiy o‘rta ta'lim maktabi boshlang‘ich sinf oliy toifali o‘qituvchilari

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyalarini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatlarida metodik kompetensiyaning o‘rnini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu jarayonda uchrayotgan muammolar borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *metod, metodika, kompetentlik, ta‘lim, kompetensiya, metodik kompetentlik, mutaxassis, zamonaviy yondoshuvlar, pedagogik faoliyat.*

КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РАЗВИТИЕ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье автором рассмотрена работа, проводимая сегодня по развитию компетенций будущих специалистов, изучению места методической компетентности в профессиональной деятельности будущих специалистов, проблем, с которыми сталкиваются в этом процессе.*

Ключевые слова: *метод, методика, компетентность, воспитание, компетентность, методическая компетентность, специалист, современные подходы, педагогическая деятельность.*

COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS DEVELOPMENT AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. *This article reflects on the work carried out by the author today on the development of competencies of future specialists, studying the place of methodological competence in the professional activities of future specialists, on the problems encountered in this process.*

Key words: *method, methodology, competence, education, competence, methodological competence, specialist, modern approaches, pedagogical activity.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barcha yo‘nalishlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash davlat talabi darajasiga ko‘tarilgan.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning har qanday sohasi uchun mutaxassis tayyorlash uning yuqori malakasini, harakatchanligini, uning shaxsini rivojlantirish uchun eng qulay shart - sharoitlarni ta’minlashi kerak.

Bunda pedagogning kompetensiyasi tobora murakkablashib borayotganligi sababli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijasi esa, ijtimoiy tajribaning kengayishi, axborotni taqdim etish va qayta ishlash hamda uni o‘quvchining ongiga muhrlashning xilma- xil ko‘rinishlarini paydo bo‘lishi, jamiyatda malakali mutaxassisga bo‘lgan ehtiyojni yanada ortishi bilan izohlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyani rivojlantirish-pedagogik muammo sifatida ekanligini tahlil qilar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy- axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlovchi, yuksak malaka tajribasiga ega kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni asosida

—2022- 2030- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e’tirof etish mumkin.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyasini rivojlantirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Shuning uchun, —Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

A.R.Xodjaboyevning fikricha, kompetent nuqtayi nazaridan yondashilsa,ta’limning yangi sifatiga erishish usuli hisoblanadi. Ya’ni insonning ma’rifatliligini o‘lchashning yangi birligi haqida gap ketmoqda, chunki bugungi kunda bilim,ko‘nikma va malakalar ta’lim sifati darajasini to‘liq o‘lchash, uni aniqlash imkonini bermaydi.

M. Gulyamova tadqiqotida bugungi kunda barcha fanlarni o‘qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tadbiq etilishini, shuningdek, endilikda o‘quvchi- talabalarga fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar berishning o‘zi yetarlicha emasligi, olingan bilimlardan turli vaziyatlarda amaliy qo‘llash malakasini shakllantirib borish kerakligini aytib o‘tgan.

Darhaqiqat, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zining shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy faoliyatida amaliy qo‘llay olish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim bo‘lib, buning yordamida o‘quvchilarni mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatda har tomonlama faol fuqarolarni shakllantirish, axborot texnologiyalaridan erkin foydalana olish huquqi, ongli ravishda kasb yokida hunar tanlashlari, ko‘nikma hosil qilishlarini nazarda tutadi.

T.V.Shtikova —kommunikativ kompetentlikning‖ bazaviy asosiy tushunchasini kasbiy ahamiyatli kommunikativ- shaxsiy, didaktik va gnostik bilimlar, ko‘nikma va tarkibida, shuningdek, pedagogning kasbiy sifatlari mavjud bo‘lgan va uning kommunikativ faoliyatning samaradorligini ta’minlaydigan kommunikativ faoliyat tajribasining integrativ yaxlitligi sifatida qaraydi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchidan so‘zamol ya’ni gapga usta, puxta bilimlar egasi bo‘lishligi talab etiladi.

A.G. Bermusning fikriga ko‘ra, —Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha xislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi.

A.Navoiy: — O‘qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi,balki, mahoratli tarbiyachi bo‘lishi lozim deb ilm- odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon har qanday vaziyatda ham ajralmasligini ta’kidlab o‘tgan‖.Kompetensiya o‘qituvchi faoliyati uchun zarur. Agar u yaxshi mutaxassis bo‘lsa-yu lekin olgan bilimlarini pedagogik faoliyatida qo‘llay olmasa, bunday pedagog yaroqsiz hisoblanadi, ya’ni tajribasiz.

Kompetensiyani rivojlantirish uchun esa bo‘lajak oqituvchilardan tinimsiz mehnat, uzluksiz ta’lim olish, uni pedagogik faoliyatda, ayniqsa, dars jayonida talabalar ongiga singdirish talab qilinadi.

G.M.Karlibayevaning tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning nazariy asoslari aniqlangan, bunda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini shakllantirishning uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan, mazkur jarayonni tashkil etish va samadorlikka erishishning metodik yo‘llari belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyasini rivojlantirishning mazmun- mohiyati, maqsad va vazifalari o‘rganildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyasini rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar pedagog, sotsiolog, psixolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va shu soha vakillarining yozma va og‘zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish jarayonlarini kuzatish amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Uchinchi ming yillikning oxirida dunyoqarashning o‘zgarishi aloqa va axborot sohasidagi inqilob bilan yuzaga keldi.

Ommaviy kompetensiyalashtirish, eng yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish , ta’lim, biznes va ijtimoiy hayot sohalari uchun sezilarli o‘zgarishlarni olib keldi. Ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar esa, dasturiy ta’minotni tuzdi hamda bu yo‘l bilan joriy etilgan axborotni yanada takomillashtirish, to‘plash va uzatish jarayonini tezlashtirdi, shuning bilan birgalikda axborotdan foydalanish imkoniyatlari osonlashdi.

Kompetensiya so‘zining o‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, kompetensiya- (lotincha —competo- —er-ishaman, muvofiqman, mos kelaman) kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi.

Bu tushuncha nisbatan yaqin yillardan boshlab, 1960- yil oxiri, 1970- yillarning boshlaridan keng qo‘llanilgan. Kompetensiya- ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir.

U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchining muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan

ta’limiy tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim- o‘quvchilarning egallagan bilim ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish imkoniyatidir.

Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunlaridan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi (1-jadval).

1-jadval.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, intervyu, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama. Kompetensiyaga oid tushunchalarning nazariy tahlili

t\r	Tayanch kategorial tushunchalar	Mazmuni	Manba, olimlarning qarashlari
1	Kompetensiya	1. (lotincha "competo" so‘zidan olingan bo‘lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman") kishi egallagan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi. 2. Bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar,individning qadriyati va shaxsiy sifatlari,kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati. 3.Bozor iqtisodiyoti va kasbiy faoliyatning birligidir. 4.U yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar,qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi. 5. Ma’lum bir sohada samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan va o‘zaro bir- biri bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning turli layoqatlari va xususiyatlarining yig‘indisidir.	1.O‘zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil 2.A.Avloniy 3.Y.A. Komenskiy 4. K.J.Risqulova 5.Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya, - T.:"Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.-
2	Kompetentlik	1.Takomillashib borayotgan shaxsning barcha xislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi. 2.Shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzliksiz ravishda yangilab borishi. 3.Mutaxassisning ma’lum bir faoliyati uchun tayyor ekanligi. 4.Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati. 5.Insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi.	1.A.G.Bermus 2.M.A.Choshanov 3.M.A.Aronov 4.O.Y.Lebedev 5.L.A.Zimnyaya 6.K.J.Risqulova

		6.Shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir	
3	Metod	1. (methodos- tadqiqot usuli, yo‘li) Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli . 2.Voqelikni amaliy va nazariy egallash o‘zlashtirish, o‘rganish, bilim uchun yo‘l, yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. 3.Dialektik bilish tadqiq manbai mohiyatiga bosqichma bosqich uzluksiz chuqurlasha borish, soddaroq (oddiyroq)mohiyatdan urakkabrog‘iga qarab siljish demakdir. 4. Faoliyat, harakatning yo‘li, usuli oki qiyofasi, shakli, ko‘rinishi.	1."O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2020 2.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. 3. H.Ne’matov. Ilmiy tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari.- Buxoro, 2006, 119-bet. 4.O.U.Avlayev, S.N.Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta’lim metodlari" o‘quv- uslubiy qo‘llanma, "Navro‘z" nashriyoti, Toshkent- 2017
4	Metodika	1.(yunoncha- methodike) Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi. 2.O‘qitish usullari haqidagi ta’limot. 3.Biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, usullari, yo‘llar majmuasi.	1. O‘zME. Davlat ilmiy nashriyoti. Beshinchi jild. Toshkent, 2020-yil. Ilmiy tadqiqot metodikasi . 2.O‘zME. Davlat ilmiy nashriyoti. Beshinchi jild. Toshkent, 2020-yil.O‘zbek tili metodikasi. Rus adabiyoti termini . 3..O.U. Avlayev, S.N.Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta’lim metodlari" o‘quv-uslubiy qo‘llanma, "Navro‘z" nashriyoti, Toshkent- 2017
5	Metodik kompetentlik	1.Pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash.	1."O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2020

Maqsad. Ushbu maqolani yozishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – talabalarning pedagogik kompetentlikning ilmiy- nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun mohiyati va ta’limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o‘qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik- psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Vazifalari esa:

1. Talabalarni pedagogik kompetentlikka doir manbalardan foydalana olishga o‘rgatish va ularda pedagogik kopetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolaridan biri-ta’lim- tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid istiqbolli yo‘nalishi bo‘lgan pedagogik kompetentlik yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;

3. Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik kompetentligini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi, bu borada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli faoliyat amalga oshirilishi zarur:

Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta‘limiy o‘zgarishlar bo‘lajak mutaxassislarning ongliligini va faolligini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi zarur.

Ikkinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida, bo‘lajak mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini amalga oshirish.

Uchinchidan, kompetensiya, ayniqsa, har bir soha vakillarida kasbiy kompetensiya bo‘lajak mutaxassislarning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo‘lishini ularga anglab yetishlariga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining ― Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.

2. Mirziyoyev Sh. ―2022- 2026 yillarga mo_ljallangan yangi O‘zbekistonning
Taraqqiyot straregiyasi to_g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

3. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

4. Zununov.A. Pedagigika tarixi. Oliy o_quv yurtlari uchun darslik. Sharq
nashriyoti.-T.:2004- yil.148-b

5. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O_quv- metodik qo_llanma.-T.:Sano- standart, 2015-yil.120-b

6. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.

7. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).

8. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *1*(2), 10-14.

9. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O‘quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(3), 1284-1288.

Nigmanov Bori Botirovich
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi professor
E-mail:borinigmanov24@gmail.com

YOSH FUTBOLCHILARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI O‘RGANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola futbolchilarning chidamkorlik sifatini rivojlantirishni o‘rganishga bag‘ishlangan. Futbolchilarda jismoniy sifatni rivojlantirishning ahamiyati jahon arenalarida yuqori darajadagi raqobat bilan bog‘liq. Maqolaning maqsadi Yosh futbolchilarda chidamkorlik sifatini rivojlantirish bo‘yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va eng samarali vosita va usullarni topish dan iborat.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, mashq, futbolchi, sifat.*

МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотатсия. *Данная статя посвящена изучению развития выносливости у футболистов. Важност развития физических качеств у спортсменов связана с высоким уровнем конкуренсии на международной арене. Сел стати – проанализироват существующую литературу о развитии выносливости у юных футболистов и выявит наиболее эффективные инструменты и методы.*

Ключевые слова: *физическая подготовка, упражнения, футболист, качество.*

METHODOLOGY FOR STUDYING THE PHYSICAL FITNESS OF YOUNG PLAYERS

Annotation: *This article is dedicated to studying the development of stamina qualities in football players. The importance of developing physical qualities in athletes is linked to high-level competition on the world stage. The aim of the article is to analyze existing literature on the development of stamina qualities in young football players and to identify the most effective instruments and methods.*

Keywords: *physical training, exercise, football player, quality.*

Kirish. Futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi jismoniy qobiliyatlarni har tomonlama tarbiyalash, umumiy ish qobiliyatini oshirish vazifalarini hal qiladi.

Yosh sportchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda, ularni yosh xususiyatlarini, qaysi davrda qaysi sifatni rivojlantirish mumkinligini va yana bir qator muhim ahamiyatga ega tomonlarini bilish ham zaruriy hol hisoblanadi.

Yosh futbolchilar bilan ishlash spesifikasi katta sportchilar bilan ishlash spesifikasidan tubdan farq qiladi.

Agarda, kattalarda sportchini organizmi yuqori yuklamalarga, qiyin sharoitlarda ishlashga va zaxira kuchlarga ega bo‘lib, ulardan foydalanish imkoniyatlariga ko‘proq ega bo‘lishsa, yosh sportchilarda bunday sharoitlar boshqacha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ularning organizmlari yuqori va davomiyligi uzoq bo‘lgan yuklamalarni bajarishga tayyor emas yoki qisman tayyor bo‘lishi mumkin. Ularda charchash hollari tez vujudga kelishi mumkin. Noto‘g‘ri va noo‘rin qo‘llanilgan mashqlar, ya’ni yuklamalar yosh sportchilarni organizmga salbiy ta’sir etishi va bunday ta’sirlar hatto ularni keyingi professional hayotlarida o‘z salbiy o‘rniga ega bo‘lib qolishi mumkin.

Yosh futbolchilarni o‘quv-mashg‘ulotlarini tashkil etishda esa, aytib o‘tilgan holatlar o‘z aksini topishi kerak. Foydalanilayotgan vosita va usullar shug‘ullanuvchilarni yoshiga to‘la-to‘kis to‘g‘ri kelishi kerak.

Shuning uchun yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida o‘quv-mashg‘ulotlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, jismoniy sifatlarni o‘z vaqti va davrida rivojlantirish, ularni nazorat qilib borish masalalari yosh futbolchilarni tayyorlashdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, futbolchilarni ***jismoniy tayyorgarligi*** eng ahamiyatli omillardan hisoblanib, undan jamoaning faolligi guruhli va individual texnik-taktik harakatlarni (ittx) samaradorligi bog‘liq bo‘ladi.

Qanchalik futbolchi texnik jihatdan yetuk bo‘lmasin, taktik tayyorgarligi yaxshi bo‘lmasin, u hech qachon katta yutuqqa har taraflama jismoniy tayyorgarliksiz erisha olmaydi. Xatto, jamoadagi birgina futbolchini jismoniy tayyorgarligi past darajada bo‘lsa ham, bu hol butun jamoani natijasiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Birinchidan, chunki, har bir o’yin epizodida bir necha futbolchi ma’lum bir o‘yin vazifasini hal qiladi. Buning uchun ular o‘zaro kelishilgan harakatlarni bajarishlari kerak bo‘ladi. Harakatlarning tezligi bir xilda bo‘lishi kerak. Bu vaziyatda birgina futbolchining funksional imkoniyatlari talabga javob bera olmaydigan bo‘lsa, o‘yin epizodi boy berilishi mumkin. Misol uchun, past darajali jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan futbolchi, taktik jihatdan foydali joyga chiqib borishda raqibiga imkoniyatni boy berishi mumkin, yoki bo‘lmasa to‘p uchun kurashda imkoniyatni boy berishi mumkin.



Ikkinchidan, o‘yinda har bir futbolchi taktik vaziyatlarni aniq va tez baxolay olishi kerak bo‘lib, aniq yechimni tezda bajarilishi talab etiladi.

Agar futbolchini harakatlanayotgan obe’ktga nisbatan reaksiya tezligi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, uni taktik samaradorligi doim past bo‘ladi.



Uchinchidan, chunki futbol borgan sari atletik o‘yin bo‘lib bormoqda, o‘yinda ikkiliklarda va guruhli tarzda to‘p uchun kurash keskin ravishda kechmoqda. Kurashda to‘pni yutib olish, xavfli to‘qnashishdan qochib qolish, raqibni turtib yuborganidan so‘ng oyoqda turib qolishi faqatgina futbolchini yaxshi jismoniy tayyorgarligi ta’minlab beradi. Shuning uchun yaxshi kuch tayyorgarligiga ega bo‘lish-profissional o‘yinchini ajralmas sifatidir.

To‘rtinchidan, chunki, o‘yin davomida futbolchi 100 tagacha keskin qo‘zg‘alib yugurishlarni amalga oshiradi va 5 mdan 20 mgacha bo‘lgan tezlanishlarni ham bajarishi ko‘p kuzatiladi. Bunday qisqa masofalarda ega, raqibni ortda qoldirish faqatgina yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega futbolchini qo‘lidan kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda portlovchi kuch va tezlik sifatlari ham birgalikda ishtirok etadi. Shuning uchun, yaxshi tezlik-kuch tayyorgarligi – professional o‘yinchini ajralmas sifati hisoblanadi.

Beshinchidan, futbol o‘yini 90 daqiqa (qo‘shimcha daqiqalar) gacha davom etadi. Bunda to‘p o‘yinda 56dan 64 daqiqagacha bo‘ladi. So‘zsiz bu vaqt ichida futbolchi organizmiga katta ko‘lamdagi yuklama tushadi. Butun o‘yin davomida harakatlarni yuqori koordinatsiyasini saqlab turish, birinchi daqiqadan boshlab oxirgi daqiqagacha keskin qo‘zg‘alish va tezlanishlarni yuqori tezligini ushlab turish va kuch ishlatiladigan to‘p uchun kurashlarda faqatgina yuqori chidamkorlikka ega futbolchi erisha oladi.

Natija va muhokama. Shuning uchun, yuqori **chidamkorlik** - professional o‘yinchiga xos xislat.

O‘yin davomida futbolchi maksimal ampliatudali ko‘pgina harakatlarni bajarishi kerak. Bular: zarbalar, aldamchi harakat va fintlar kabilardir. Bu harakatlarni egiluvchanligiga bog‘liq. Yaxshi egiluvchanlik bu – futbolchini mushaklarini elastikligi haqida ekanligini ham bildiradi. Mushaklarni bunday holati, ularni turli shikastlardan himoyalashda yaxshi omil hisoblanadi. Shuning uchun, yaxshi egiluvchanlik sifati professional futbolchiga xos xislatdir.

Texnik harakatlarni samarali bajarish asosida mushakichni va mushaklar orasidagi jarayonlar yotadi, yoki bir so‘z bilan koordinatsion qobiliyatlar tushuniladi. Bu qobiliyatga o‘yinchilarni yuzlashtirishlari bog‘liq bo‘lib, ayniqsa bu xol yosh futbolchilarga ko‘proq taaluqlidir. Bu sifat ularga texnik harakatlarni o‘zlashtirishlarida eng kerakli omil bo‘ladi.

Shuning uchun yaxshi koordinatsion qobiliyatlar professional futbolchiga kerak bo‘ladigan asosiy sifatlardan hisoblanadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan sifatlarni barchasi bir bo‘lib, futbolchini jismoniy tayyorgarligini hosil qiladi. Shuning uchun, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish- asosiy vazifalardan hisoblanib, uni murabbiylar har kunlik o‘quv mashg‘ulotlarda yechishga harakat qilishadi.

Demak, jismoniy tayyorgarlikni ko‘rinishlari ko‘pgina va ularni har birini maxsus va nomaxsus vositalar yordamida rivojlantiriladi. Bunda, ular o‘yinga qo‘yilayotgan talablarga qarab, rivojlantirilishi kerak. Misol: aerob imkoniyatlarni nisbatan tez va oson rivojlantirish uchun, har kuni kross yugurishlarini amalga oshirish kerak. Lekin faqatgina yugurish orqali futbol o‘ynashni o‘rganib olish mumkin emas. Shuning uchun chidamkorlikni rivojlantirishda futbolga xos mashqlardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, *futbol murabbiylari oldida doim ikkita savol tursa kerak.*

1) jismoniy ish qobiliyatini qanday ko‘rinishlari futbol uchun ahamiyatli hisoblanadi.

2) qanday mashqlar va usullar yordamida bu sifatlar rivojlantiriladi. Bunda nafaqat chidamkorlik, tezlik va kuch, balki bu sifatlarni barchasini texnik-taktik harakatlarni rivojlantirish bilan birga olib borish.

Bunday savollarga javob olish mumkin, agarda quyidagilar bajarilsa:

✓ o‘yinchilarni turli jismoniy sifatlarni o‘lchash va baholash testlari mavjud bulsa;

✓ ularni yordamida murabbiy har bir futbolchini jismoniy tayyorgarligi tizimini xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

✓ har bir futbolchini jismoniy tayyorgarlik jihatlarini kuchli va kuchsiz tamonlarini bilsa va rivojlanmagan sifatlarni qachon va qanday rivojlantirishni bilsa;

✓ yillik tayyorlov siklini turli bosqichlarida maxsus va nomaxsus mashqlarni tanlash va qo‘llash orqali, turli jismoniy sifatlarga ta’sir etishni bilish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda bunday yondoshish orqali yil davomida yuqori jismoniy tayyorgarlik darajasi ushlab turiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Nigmanov B.B., Xadjaev P., Raximqulov K.D. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma.– Tashkent: “Ilm ziyo”, 2016.

2. Nurimov R.I., Iseev P. – Futbolchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat (Pedagogik tavsiyalar) – T., 1990.

3. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zDJTI, 2011.

4. Nigmanov B.B. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma. (Ta’lim muas-sasalarida futbol mashg‘ulotlari) – T.: «Navro‘z», 2020.

Nurboyeva Mahliyo Amaliddinovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

MUSIQIY TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI MODERNIZATSIYALASHNING AHAMIYATI

Anotatsiya. *Ushbu maqolada musiqa ta'limida texnologiyalarning ahamiyati, Texnologiyalar orqali nafaqat musiqani o'rganish va ijro etish usullarini takomillashtirish, balki o'quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatlarini rivojlanishini ta'minlash, pedagogik jarayonlarni samarali va interaktiv qilish, musiqiy asboblar va ijro etish ko'nikmalarini o'rganishda yangi texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish, va musiqa ta'limini yanada interaktiv, samarali va qiziqarli tashkil etib o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Modernizatsiya, texnologiya, You tube, Zoom, Google Meet, Virtual Piano, GarageBand, FL Studio, Sibelius, Virtual piano, interaktiv.*

ИНФОРМАЦИЯ В ПРОЦЕССЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ВАЖНОСТЬ МОДЕРНИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье обсуждается важность технологий в музыкальном образовании, не только совершенствование методов обучения и исполнения музыки с помощью технологий, но и обеспечение развития творческого и интеллектуального потенциала учащихся, повышение эффективности и интерактивности педагогических процессов, повышение качества образования за счет использования новых технологий в обучении игре на музыкальных инструментах и исполнительскому мастерству, а также расширение творческого потенциала учащихся за счет повышения интерактивности, эффективности и интересности музыкального образования.*

Ключевые слова: *Модернизация, технологии, You Tube, Zoom, Google Meet, Виртуальное пианино, GarageBand, FL Studio, Sibelius, Виртуальное пианино, интерактив.*

THE IMPORTANCE OF MODERNIZATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF MUSIC EDUCATION

Annotation. *This article discusses the importance of technology in music education, how technology can not only improve the methods of learning and performing music, but also ensure the development of students' creative and intellectual potential, make pedagogical processes effective and interactive, improve the quality of education by using new technologies in learning musical instruments and performance skills, and expand students' creative potential by organizing music education more interactive, effective and interesting.*

Key words: *Modernization, technology, You tube, Zoom, Google Meet, Virtual Piano, GarageBand, FL Studio, Sibelius, Virtual piano, interactive.*

Kirish. Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi,shubhasiz axborot texnologiyalarining umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim-tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'sirini kun sayin ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Musiqiy ta'lim-tarbiya tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash masalasi so'nggi yillarda pedagogika va san'at ta'limi sohalarida dolzarb mavzulardan biri sifatida ko'rilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan raqamli

ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (2020)da o‘qitish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangani bejiz emas.

Pedagog olima Sh.T. Raximova o‘zining “San’at ta’limida innovatsion texnologiyalar” (2021) nomli ilmiy ishida musiqa o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalari, xususan, interaktiv dasturlar va multimediya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning musiqiy tafakkuri va estetik didini shakllantirish mumkinligini asoslab bergan. Muallif, ayniqsa, virtual musiqiy laboratoriyalar va onlayn sinflar orqali individual yondashuv imkoniyatlarining kengayishini ta’kidlaydi.

Musiqiy ta’limda AKTni integratsiyalash bo‘yicha Rossiya olimi N.P. Krivunetsning ishlari ham e’tiborga loyiq. U o‘zining tadqiqotlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib musiqa nazariyasi va solfedjio fanlarini o‘qitish samaradorligi oshishini ilmiy asoslagan. Krivunets tomonidan yaratilgan interaktiv platformalar orqali talabalar musiqa tinglash, nota yozish va ritmni o‘rganish jarayonlarini mustaqil ravishda ham bajara olishadi.

Yana bir muhim manba sifatida B.A. Karimovaning “Axborot texnologiyalari vositasida ta’limni individuallashtirish” (2022) nomli maqolasini keltirish mumkin. Unda musiqa darslarida AKT vositalari yordamida differensial yondashuv asosida o‘quvchilarni o‘qitish tajribalari tahlil qilingan. Muallif zamonaviy platformalar-Moodle, Google Classroom, Quizizz va boshqa vositalar orqasida musiqiy savodxonlikni oshirish misollarini keltirib chiqaradi.

Jahon miqyosida esa, UNESCO tomonidan e’lon qilingan “ICT in Arts Education” (2020) hisobotida san’at va musiqa ta’limiga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va o‘zini ifodalash ko‘nikmalari qanday rivojlanishi tahlil qilingan. Xususan, pandemiya davrida musiqa ta’limi to‘liq raqamli muhitga o‘tgan bo‘lsa-da, bu jarayon yangi pedagogik yondashuvlarni talab qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Musiqa ta'limida texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Texnologiyalar nafaqat musiqani o‘rganish va ijro etish usullarini takomillashtirish, balki o‘quvchilarning ijodiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, pedagogik jarayonlarni samarali va interaktiv qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Musiqiy asboblar va ijro etish ko'nikmalarini o'rganishda yangi texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga yordam berib kelmoqda. Texnologiyalar yordamida musiqa ta'limi yanada interaktiv, samarali va qiziqarli bo'lib, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengayib bormoqda. Musiqiy asboblar va ijro etish ko'nikmalarini o'rganishda yangi texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga yordam berib kelmoqda. Texnologiyalar yordamida musiqa ta'limi yanada interaktiv, samarali va qiziqarli bo'lib, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirib kelmoqda.

Musiqa ta'limi texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari musiqaning o‘rganilishi, ijro etilishi va umumiy ta'lim jarayonlariga katta ta'sir ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar musiqiy ta'limni yanada qiziqarli, samarali va global qilishda muhim rol o‘ynaydi. Sun'iy intellekt, raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat, masofaviy ta'lim va boshqa innovatsiyalar musiqani o‘rganishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va ta'lim tizimini yanada kengaytiradi.

Muhokama va natijalar. Umumiy ta’lim maktablarida ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini samarali qo’llash orqali, o‘qituvchi va o‘quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, Xususan:

Axborot yig‘ishning yangi usullarini o’rganish va ularni qo‘llashni bilib oladilar;

Bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga bo’lgan qiziqishlari ortadi;

Mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;

Bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Texnologiyalar musiqiy ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga imkoniyat yaratmoqda. Kompyuterlar, multimedia dasturlari, mobil ilovalar va virtual reallik texnologiyalari yordamida o’quvchilar musiqani o'rganishi osonlashadi. Bu, ayniqsa, uzoq masofadan ta'lim berish, masofaviy musiqiy kurslar, video darslar va boshqalar orqali amalga oshiriladi. O'qituvchilarga musiqani turli shakllarda taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, onlayn video darslar, interaktiv musiqiy o‘yinlar va testlar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish va bilimni mustahkamlash mumkin. Dasturlar, simulyatorlar va onlayn manbalar yordamida esa talabalar musiqiy asboblarni o‘rganishda,

o‘rganish jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, dasturlar musiqiy ijro texnikasini avtomatik baholashga imkon beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘zini tekshirish va rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, texnologiyalar orqali musiqiy kompozitsiyalar yaratish, aranjman qilish va musiqiy asarlar tayyorlashda yanada erkinlik va kreativlik mavjud. Musiqiy dasturlar yordamida talabalar o‘z asarlarini yaratishda yanada ko‘proq tajriba orttirishlari mumkin. Internet orqali musiqiy ta'lim resurslariga erkin kirish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu musiqani o‘rganishning eng yangi va samarali metodlari bilan tanishishga yordam beradi. Musiqiy jamoalar yaratish va ularda ishlash texnologiyalardan foydalangan holda yanada samarali bo‘ladi. Virtual orkestrlar va musiqiy guruhlar yaratish, bir-biridan masofada ishlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Shuningdek, texnologiya musiqaning o'rganilishida va ta'lim jarayonida bir qator yangi imkoniyatlar yaratdi. Jumladan, texnologiyalar yordamida musiqiy ta'lim interaktiv bo‘ldi. Misol uchun:

Musiqiy ta'limda onlayn kurslar, videodarsliklar va vebinarlar orqali o‘quvchilar masofaviy tarzda ta’lim olishlari mumkin. Bu orqali ular dars materiallarini istalgan vaqtda va joyda ko‘rib chiqishlari, o‘zining qiziqishiga mos ravishda o‘rganishlari mumkin. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqani ta'minlash uchun videokonferensiyalar va onlayn platformalar (masalan, *Zoom, Google Meet*) ishlatiladi. Onlayn platformalar orqali musiqachilar va o‘qituvchilar butun dunyo bo‘ylab bir-birlari bilan bog‘lanib, tajriba almashishlari mumkin. Shu bilan birga, musiqiy jamiyatlar va forumlar o‘quvchilarga yangi uslublar va yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi.

Musiqiy o‘yinlar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilar musiqani o‘rganishni qiziqarli tarzda amalga oshiradilar. Bunday ilovalar musiqiy ritmni o‘rganish, notalarni tanish, musiqiy asboblarni virtual tarzda o‘rganish va interaktiv tarzda musiqiy testlarni bajarishga imkon beradi. Misol uchun, *Simply Piano* yoki *Yousician* kabi ilovalar, o‘quvchilarga o‘z musiqiy ko‘nikmalarini tez rivojlantirishda yordam beradi.

Texnologiyalar yordamida o‘quvchilar musiqiy asarlar yaratishda va ijro etishda ham ko‘plab imkoniyatlarga ega. Masalan, musiqiy kompozitsiya dasturlar (*GarageBand, FL Studio, Sibelius*) orqali o‘quvchilar o‘z musiqiy asarlarini yaratish, yangi kompozitsiyalarni sinash va ijro etishlari mumkin. Dasturlar yordamida musiqiy asarlarni yozish, aranjman qilish va hatto audio effektlar qo‘shish osonlashmoqda.

Shu qatorda Ijrochilik faoliyatda ham texnologiyalar o’zi bilan bir qator yengilliklar yaratib kelmoqda. Musiqa ijro etish va texnikalarni rivojlantirishda texnologiya musiqachilarga mashqlarni doimiy ravishda va nazorat ostida bajarish imkoniyatini bermoqda. Misol uchun, ritmni mashq qilishda metronom va tuning ilovalari yordamida o‘quvchilar o‘z ko‘nikmalarini oson rivojlantirishi mumkin. Texnologiya musiqachilarga o‘z kreativliklarini sinovdan o‘tkazish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron musiqaning turli yo‘nalishlarida ishlash, yangi tovushlarni yaratish va sintezatorlardan foydalanish musiqachilarga innovatsion ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam berib kelmoqda. Texnologiyalar yordamida musiqiy asboblarni o‘rganishning interaktiv usullari mavjud. Virtual pianino, gitara yoki boshqa musiqiy asboblar yordamida o‘quvchilar, ularning ishlashini o‘rganishlari mumkin. Bu o‘quvchilarga real asboblar mavjud bo‘lmagan holatda ham amaliy tajriba olish imkonini yaratadi. Misol uchun, Virtual Piano yoki Guitar Tuna kabi ilovalar o‘quvchilarga musiqa asboblarini o‘rganish imkonini beradi.

Texnologiyalar musiqiy jamoalarni yaratishda va ularda ishlashda ham yordam beradi. Virtual orkestrlar, musiqiy ansambllar va guruhlar internet orqali birgalikda ishlash imkoniyatiga ega. Misol uchun, o‘quvchilar bir-biridan masofada bo‘lishlariga qaramay, birgalikda musiqiy asarni ijro etishlari mumkin. Bunday interaktiv hamkorlik o‘quvchilarga jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. O‘qituvchilar uchun turli interaktiv ta'lim vositalari, masalan, interaktiv doskalar, musiqiy dasturlar va onlayn platformalar, yordamida darslarni yanada samarali tashkil qilish mumkin. Bunday texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar musiqiy asarlarni tahlil qilish, o‘quvchilarga darslarni osonroq tushuntirish va darslarni yanada jozibador qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Musiqa ta'limi texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari musiqaning o‘rganilishi, ijro etilishi va umumiy ta'lim jarayonlariga katta ta'sir ko‘rsatdi. Bu texnologiyalar musiqiy ta'limni yanada qiziqarli, samarali va global qilishda muhim. Sun'iy intellekt, raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat, masofaviy ta'lim va boshqa innovatsiyalar musiqani o‘rganishni yangi bosqichga olib

chiqmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va ta'lim tizimini yanada kengaytiradi.

Xulosa va takliflar.

Musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini modernizatsiyalash bugungi kunda nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashi, estetik didi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy AKT vositalari — interaktiv platformalar, multimedia texnologiyalari, virtual musiqa sinflari, onlayn dasturlar — musiqiy ta’limda innovatsion yondashuvni ta’minlab, o‘quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar musiqiy bilimlarni zamonaviy texnologiyalar orqali samarali o‘zlashtirish mumkinligini, bu esa an’anaviy o‘qitish usullarini to‘ldirib, yangi sifat bosqichiga olib chiqishini ko‘rsatmoqda. AKT vositalari yordamida musiqiy nazariya, solfedjio, asbobda ijro va tinglash kompetensiyalarini rivojlantirishda ilg‘or tajribalar shakllanmoqda.

Takliflar.

Musiqiy ta’lim dasturlarini raqamlashtirish – umumiy o‘rta va oliy musiqiy ta’lim muassasalari uchun zamonaviy AKT vositalaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘quv-metodik platformalarni ishlab chiqish va joriy etish zarur.

O‘qituvchilar malakasini oshirish – musiqa o‘qituvchilarini axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish maqsadida maxsus malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar tashkil etilishi kerak.

Innovatsion dasturlarni joriy etish – musiqa fanlarini o‘qitishda Quizizz, MusicTheory.net, Soundtrap, Noteflight kabi platformalardan foydalanish yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Raqamli kontent bankini yaratish – o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va yo‘nalishiga mos ravishda moslashtirilgan musiqiy video darslar, interaktiv topshiriqlar va testlar to‘plamidan iborat raqamli kutubxona tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar kengaytirilishi – musiqiy ta’limda AKTni qo‘llash samaradorligini baholovchi ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish va ular asosida metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., 2006y
2. D.T.Nomozova “Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash” T.2019.
3. Karimova D. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. T., Iqtisod moliya.2008y
4. . Ismailov Tohir. “Musical currents and the formation of Russian classical music”. “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116) ISSN 2223-4047;
5. Yusupova N. “Musiqa savodi, metodikasi va ritmika”. “Musiqa” nashriyoti. Toshkent., 2010-yil
6. Rejametova N.4.2 Modul O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent 2018.
7. Rejametova N.I. “Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi” T .: 2020
8. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat”. “Iqtisod-moliya nashriyoti”, Toshkent., 2011-yil.
9. S.Begmatov, M.Matyoqubov. “O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari”. T.; 2008. 8-bet 2. Toshmuhamedov M. G‘ijjak darsligi. T., 1995. 3-bet.
10. Pedogogik atamalar lug‘ati.-T.; O‘z.res.fan.akadim. “Fan” 2008.

Po'latova Gulruh Jamolovna
Navoiy akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda interfaol ta'lim metodlarining samaradorligi o'rganilib, eksperimental va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi. Natijalar ekologik ta'limda amaliy mashg'ulotlar, loyiha metodlari va zamonaviy texnologiyalarning muhimligini ko'rsatdi. O'qituvchilar bilan o'tkazilgan intervyular asosida ekologik ta'lim dasturlarini takomillashtirish zarurligi aniqlangan. Tadqiqot ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha samarali yondashuvlarni taklif qiladi va maktab ta'limida ekologik madaniyatni oshirishning ahamiyatini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *ekologik kompetensiya, ekologik ta'lim, interfaol metodlar, ekologik madaniyat, umumiy o'rta ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, loyiha metodi.*

АКТУАЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация. *В данной статье анализируется актуальность развития экологических компетенций учащихся общеобразовательных школ. В исследовании изучалась эффективность интерактивных методов обучения и сравнивались результаты экспериментальной и контрольной групп. Результаты показали важность практических занятий, проектных методов и современных технологий в экологическом образовании. На основе проведенных интервью с педагогами была определена необходимость совершенствования программ экологического воспитания. Исследование предлагает эффективные подходы к развитию экологических компетенций и подчеркивает важность повышения экологической культуры в школьном образовании.*

Ключевые слова*: экологическая компетентность, экологическое воспитание, интерактивные методы, экологическая культура, общее среднее образование, практические занятия, проектный метод.*

THE RELEVANCE OF THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCIES OF SCHOOLCHILDREN IN GENERAL SECONDARY EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the relevance of the development of environmental competencies of schoolchildren of general secondary education. The study studied the effectiveness of interactive educational methods and compared the results of experimental and control groups. The results showed the importance of practical training, project methods and modern technologies in environmental education. Based on interviews with teachers, the need to improve environmental education programs has been identified. The study proposes effective approaches to the development of environmental competencies and highlights the importance of enhancing environmental culture in school education.*

Keywords: *environmental competence, environmental education, interactive methods, environmental culture, General secondary education, practical training, project method.*

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo miqyosida dolzarb masalalardan biri bo'lib, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o'zgarishlari insoniyatning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli, yosh avlodning ekologik kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatini tarbiyalash mumkin. Ekologik kompetensiya – bu o'quvchilarning ekologik bilimlarni egallashi, atrof-muhitga oid muammolarni tushunishi va ularni hal qilishda faol ishtirok etish qobiliyatidir. Bu kompetensiyani rivojlantirish orqali o'quvchilar ekologik xavfsizlik tushunchalarini o'zlashtiradi, tabiatga

ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadi va ekologik muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2019-yil 27-maydagi "O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi"ning tasdiqlanishi bu boradagi muhim qadam bo‘ldi. Ushbu konsepsiyada ekologik ta’limning uzluksizligini ta’minlash, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va ekologik muammolarni hal etishda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ekologik ta’limni samarali tashkil etish uchun turli pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. Bu esa o‘quvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularning ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Ekologik ta’lim va tarbiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda ekologik kompetensiyani rivojlantirish uchun milliy ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati katta. Maxsudova va boshqalar (2024) o‘z maqolasida o‘quvchilarda ekologik xavfsizlik tushunchalarini rivojlantirishda milliy ma’naviy qadriyatlarning rolini ta’kidlaydi . Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida ekologik ta’lim berish o‘quvchilarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Kamolova va Fayziyeva (2022) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratib, tabiatga muhabbat uyg‘otish va undan oqilona foydalanishning ahamiyatini yoritadi . Ularning tadqiqotlari boshlang‘ich sinflarda ekologik ta’limni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Bekmatova va Bekmatov (2023) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ekologik ta’limning afzalliklarini o‘rganib, ekologik ta’lim o‘quvchilarning ekologik muammolarni tushunishlari va ularni hal qilishdagi ishtirokini oshirishini ta’kidlaydi . Ularning fikricha, ekologik ta’lim yosh avlodning ekologik ongini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mamajonov (2023) oliy ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, ekologik tarbiyalanganlik jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini ta’kidlaydi . Uning tadqiqotlari ekologik tarbiyaning ahamiyatini va uni rivojlantirish mexanizmlarini yoritadi. Akramov (2024) oliy ta’lim tizimida ekologik o‘quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minotini takomillashtirish modelini taklif etib, ekologik ta’limni samarali tashkil etish uchun didaktik ta’minotni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi . Uning tadqiqotlari ekologik ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yoritadi. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining ekologik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, bu borada milliy ma’naviy qadriyatlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va didaktik ta’minotni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining ekologik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun aralash tadqiqot usuli qo‘llanildi. Birinchidan, so‘rovnoma orqali 7-11-sinf o‘quvchilarining ekologik bilimlari va amaliy ko‘nikmalari baholandi. So‘rovnomada 300 nafar o‘quvchi ishtirok etdi va ular ekologik mas’uliyat, muhitni asrash, chiqindilarni ajratish bo‘yicha bilim va odatlariga oid 20 ta savolga javob berishdi. Ikkinchidan, tajribaviy usul qo‘llanilib, 150 nafar o‘quvchidan iborat eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etildi. Eksperimental guruhga ekologik ta’limning interfaol usullari (loyiha metodi, ekologik treninglar, virtual laboratoriyalar) qo‘llanildi, nazorat guruhi esa an’anaviy ta’lim shaklida o‘qitildi. Bundan tashqari, sifat tahlili sifatida 20 nafar o‘qituvchi bilan intervyu o‘tkazilib, ekologik ta’limning samaradorligi va maktabda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha fikrlar o‘rganildi. Ma’lumotlar SPSS dasturida statistik tahlil qilindi.


Natijalar. Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining ekologik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan ta’lim metodlarining samaradorligini tasdiqladi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 68% ekologik muammolar bo‘yicha umumiy tushunchaga ega bo‘lsa, 32% bu borada yetarli bilimga ega emasligi aniqlandi. O‘quvchilarning 45% chiqindilarni saralash bo‘yicha bilimga ega bo‘lsa-da, amaliyotda faqat 27% buni bajarishini bildirgan. Eksperimental guruhda ta’lim metodlarining samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Dastlab ekologik bilimlar testi bo‘yicha

o‘rtacha natija 100 ballik tizimda 52 ballni tashkil qilgan bo‘lsa, interfaol metodlar joriy qilinganidan keyin bu ko‘rsatkich 78 ballga oshdi. Nazorat guruhida esa bu o‘sish atigi 5 ballni tashkil etdi (52 dan 57 gacha).

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik treninglar va loyiha metodlari o‘quvchilarning ekologik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Eksperimental guruhdagi o‘quvchilarning 82% ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga tayyorligini bildirgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 55% ni tashkil etdi. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyular tahliliga ko‘ra, pedagoglarning 75% ekologik ta’lim dasturlarini yangilash zarurligini ta’kidladi. Ularning fikricha, amaliy mashg‘ulotlar va zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ekologik kompetensiyani rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar joriy qilinishi zarur. Interfaol o‘qitish metodlari va ekologik loyihalarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta’lim usullarining samaradorligini tasdiqladi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning ekologik bilim darajasi yetarlicha yuqori bo‘lsa-da, amaliy qo‘llash darajasi past ekani aniqlandi. Bu esa ekologik ta’lim faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy mashg‘ulotlarni ham o‘z ichiga olishi zarurligini ko‘rsatadi. Eksperimental va nazorat guruhlaridagi natijalar orasidagi farq interfaol metodlarning samaradorligini isbotlaydi. Jumladan, loyiha metodi va ekologik treninglar o‘quvchilarning bilimini oshiribgina qolmay, ularni ekologik muammolarga faol munosabat bildirishga undaydi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyular natijasida pedagoglarning aksariyati ekologik ta’lim dasturlarini yangilash va ekologik fanlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish zarurligini ta’kidladi. Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, ekologik ta’limni erta yoshdan boshlab joriy etish muhimligini tasdiqlaydi. Tadqiqot asosida ekologik kompetensiya tushunchasiga mualliflik yondashuvi asosida o‘z qarashlarimizni umumlashtirgan tarzda izoh berishni lozim topdik.

Ekologik kompetensiya[1] – bu insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish, tabiatni asrash, ekologik muammolarni hal qilish va ekologik toza turmush tarzini yuritish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha turli sohalarda turlicha o‘rganilib, asosiy g‘oya har bir shaxsda ekologik ong, bilim, tafakkur kabi sifatlarni rivojlantirishga oid jarayonlarni birlashtiradi (1-rasmga qarang).



1-rasm. ekologik kompeyetnsiyaning tarkibiy qismlari

Ushbu rasmda aks etgan ekologik kompetentlikning tarkibiy qismlari mazmuni quyidagicha izohlandi:

Ekologik bilimlar: Tabiat qonuniyatlari, ekologik tizimlar, ekologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi bilimlar. Bu bilimlar nafaqat maktab darslarida, balki kundalik hayotda ham egallanishi mumkin.

[1] Mualliflik yondashuvi

Ekologik ko‘nikmalar: Tabiatni asrashga, chiqindilarni to‘g‘ri tashlashga, suvni tejashga, energiyani tejashga va boshqa ekologik talablarga rioya qilish ko‘nikmalari. Bu ko‘nikmalar amaliyot orqali rivojlantiriladi.

Ekologik munosabatlar: Tabiatga nisbatan hurmatli va mas’uliyatli munosabat. Bu munosabat tabiatni asrashga va ekologik muammolarni hal qilishga undaydi. Ekologik ong va ekologik madaniyat buning asosini tashkil etadi.

Ekologik faollik: Tabiatni asrashga qaratilgan faoliyatlarda ishtirok etish. Bu faoliyatlar chiqindilarni saralash, daraxt ekish, ekologik aksiyalarda ishtirok etish va boshqalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ekologik muammolarni hal qilish: Ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni hal qilish uchun yechimlarni topish qobiliyati. Bu muammolarni hal qilishda ilmiy yondashuv, tanqidiy fikrlash va kreativ yechimlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. Tarix fani orqali ekologik kompetensiyani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Demak, ekologik kompetensiya faqat ekologik bilimlarga ega bo‘lish emas, balki bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash, tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan faollikni namoyon etishdan iborat. Ekologik kompetensiya insonning o‘zini va atrof-muhitni saqlashga yo‘naltirilgan muhim jihati hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi asosida umumiy o‘rta ta’limda tarix fanini o‘qitishda ekologik kompetensiyani rivojlantirish[1] – bu o‘quvchilarda tabiat bilan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish, tabiatni asrash, ekologik muammolarni hal qilish va ekologik toza turmush tarzini yuritish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni деб белгиланди. Bu jarayonda tarix fanining o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlaridan foydalanildi (2-rasmga qarang).

[1] Mualliflik yondashuvi

Tarix fani orqali ekologik kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning tabiatga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi va ekologik madaniyatini yuksaltadi. Bu o‘z navbatida ularning jamiyatdagi faolligini oshiradi va barqaror rivojlanish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga turtki bo‘ladi. Muhimi, bu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘rganish uslublari hisobga olinishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol ta’lim metodlarining samaradorligini tasdiqladi. Eksperimental guruh natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik loyihalar va treninglar orqali o‘qitish o‘quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijalar ekologik ta’limni an’anaviy usullardan amaliy mashg‘ulotlar, virtual laboratoriyalar va ekologik tadbirlar bilan boyitish zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, o‘quvchilarning ekologik muammolarni anglash va ularni hal qilishda ishtirok etish darajasi interfaol yondashuv qo‘llanilgan taqdirda sezilarli darajada oshishi kuzatildi. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar ekologik ta’limni rivojlantirishda o‘quv dasturlarini takomillashtirish va yangi innovatsion metodlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ekologik ta’limni maktab dasturlarida mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish va o‘quvchilarga amaliy tajriba orttirish imkoniyatlarini yaratish tavsiya etiladi. Kelajakda ekologik ta’limni yanada chuqurroq o‘rganish, ilg‘or ta’lim metodlarini sinovdan o‘tkazish va bu boradagi tajribalarni boshqa fanlarga integratsiya qilish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Maxsudova, D., & boshqalar. (2024). Ekologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirishda milliy qadriyatlarning roli. Pedagogs Journal, 12(3), 45-57. Retrieved from https://pedagogs.uz/ped/article/view/1286

2. Kamolova, M., & Fayziyeva, G. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish. Oriens Journal of Humanities and Social Sciences, 9(2), 30-42. Retrieved from https://oriens.uz/uz/journal/article/ umumtalim-maktabi-oquvchilari-ekologik-madaniyatini-shakllantirishninig-mazmun-mohiyati

3. Bekmatova, N., & Bekmatov, R. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ekologik ta’lim: muammolar va yechimlar. Nauchniy Impuls, 15(1), 87-99. Retrieved from https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/9985

4. Mamajonov, S. (2023). Ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish. Scientific Journal of Fergana State University, 14(4), 112-125. Retrieved from https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/2990

5. Akramov, U. (2024). Ekologik o‘quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot orqali rivojlantirish. Scientific Journal of Fergana State University, 16(2), 58-72. Retrieved from https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5225

Ramazonova Feruza Xudoynazarovna
BuxDPI Pedagogik ta'lim kafedrasi dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(**PhD)**
Raximova Feruza Farxodovna
BuxDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti
Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna
BXU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning shakllari, qo'llaniladigan metodlar va texnologiyalar hamda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar va amaliyotga qo'llanilayotgan usullarning tanqidi, yangicha yondashuvlar haqida fikr mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Deontologiya, metod, shakl, texnologiyalar, kompitentlik, kompitensiya, axloq, kasbiy kompitentlik, o'qituvchi odobi, tamoyil, o'qituvchi kompitensiyasi, bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, kasbiy etika, estetika*

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются формы, применяемые методы и технологии развития деонтологической компетентности у будущих учителей, а также даются рекомендации по её формированию. Проведен критический анализ используемых на практике методов, представлены размышления о новых подходах.*

Ключевые слова: *Деонтология, метод, форма, технологии, компетентность, компетенция, нравственность, профессиональная компетентность, учительская этика, принцип, педагогическая компетенция, знания, умения, навыки, опыт, профессиональная этика, эстетика.*

FORMS, METHODS, AND TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING DEONTOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Annotation. *This article discusses the forms, methods, and technologies used to develop deontological competence in future teachers. It provides recommendations for fostering this competence, includes a critical analysis of currently applied practices, and offers reflections on innovative approaches.*

Keywords: *deontology, method, form, technologies, competence, competency, morality, professional competence, teacher's ethics, principle, teacher competency, knowledge, skill, qualification, experience, professional ethics, aesthetics.*

Hozirgi kunga kelib Respublikamizda mutaxassislar tayyorlash va ta'limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratilgan va bugungi kunda ham oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor berilmoqda.Shu munosabat bilan, 2017- yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori, 2018- yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son qarori O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.Ushbu

konsepsiyaga muvofiq xususiy institutlar sonini oshirish, sog‘lom raqobatni kuchaytirish buning natijasida bilimli, oliy ma’lumotli kadrlarni ko‘paytirish mamlakatda yashovchi fuqarolarning savodxonligini oshirish hamda ta’lim - tarbiyani yanada oshirish nazarda tutilgan.Bundan ko‘zlangan maqsad esa aholi bilim darajasini oshirish,yoshlarni qobiliyatlarini namoyon qilish va jamiyat uchun salohiyatli shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Buning uchun albatta bilimli, salohiyatli va o‘z kasbining har tomonlama yetuk vakillarini samarali o‘qitish ularga ta’lim va tarbiya tamoyillarini mukammal tarzda o‘rgatish zarurdir. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarga deontologik kompitentlikni rivojlantirishning shakllari va metodlarini o‘rgatish zarurati yuzaga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy xulq-atvor asoslarini shakllantirish pedagogika fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Kasbiy xulq atvorga ega pedagog har tomonlama ilmiy va amaliy bilimga ega hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi odob-axloq normalariga rioya etgan holda o‘z faoliyatini amalga oshirsa, ta’lim oluvchilarning ham tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik deontologiya fani bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga ham axloqiy, ham psixologik jihatdan tayyorlaydigan, shu orqali kasbiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan fan sohasi hisoblanadi.O‘qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy, milliy axloqiy fazilat tushunchalariga mos keladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, burch, qadr-qimmat, mas’uliyat, vijdon, halollik, rostgo‘ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o‘qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan tahlil qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchida bunday fazilatlarning shakllanganligi o‘z faoliyati jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hozirgi kun o‘qituvchi-tarbiyachisi o‘z mutaxasisligi bo‘yicha yuksak insoniy fazilat, kasbiy xulq-atvor, pedagogik mahorat va pedagogik etika va estetika egasi bo‘lishi hamda o ‘z sohasining yetuk bilimdoni bo‘lishi kerak. Shuningdek, egallagan kasbining nazariy sohalarini chuqur bilishi va amaliyotga mustaqil ravishda qo‘llay olishi muhimdir.Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumot berish bilan birga, ularga kasbiy xulq-atvor, pedagogik kompetentlik, o‘qituvchi-tarbiyachilik etikasi va estetikasi bo‘yicha ma’lumotlar berish hozirgi kunda dolzarb sanaladi. Chunki ta’lim va tarbiya birgalikda olib borilsagina samarali natija beradi. O‘qituvchi-tarbiyachining shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori, odob axloqi, burchi, muruvvati, adolatparvarligi, beg‘arazligi, bolajonligi, bilimdonligi,insonparvarligi inobatga olinib, ular ta’lim-tarbiya ishlarida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etishi nazarda tutiladi. Shuni inobatga olgan holda bakalavriyat ta’lim yo‘nalishida o‘qiydigan talabalarga deontologik yo‘nalishdagi mavzular ham tushuntirib boriladi. Masalan:Pedagogika va psixologiya yo‘nalishida tahsil oladigan talabalarga pedagogik mahorat,pedagogik texnologiya fanlari negizida bo‘lajak o‘qituvchining odob–axloqi, kasbiy mahorati, kasbiy etika va estetikasi, o‘qituvchi imidji va muomala madaniyati haqida fikr mulohazalar keltirilgan.Magistratura mutaxasisligida tahsil oluvchi bo‘lajak o‘qituvchilarda esa deontologik kompitentlik deb nomlanuvchi fan mavjud. Bevosita shu fan orqali bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy etika haqida bilim, ko‘nikmaga ega bo‘lishadi hamda amaliyot yoki ish jarayonida egallangan bilimlarni namoyon etishadi. Pedagogik deontologiya – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsi, uning pedagogik majburiyatlari, ma’suliyati munosabatiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar majmui sanaladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Shu o‘rinda bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompitentlikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan metodlar,shakllar va vositalar haqida bilib olamiz. Avvalo,metod shakl va vosita haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lmog‘imiz kerak.

Metod- (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib

taqaladi. Biror ishni bajarish Metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o‘z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo‘lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo‘lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta’limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to‘plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘riqlar, metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga kelgan.Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o‘z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko‘ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompitentlikni rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi: Kuzatish- aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa kutilgan natijaga erishish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarni kuzatishda birgina uning bilim salohiyatini emas balki kuzatayotgan o‘quvchisining oilaviy sharoiti bilan ham tashishi kerak bo‘ladi. Chunki bolalarning fe'l- atvoridagi o‘zgarishlarga oilaviy muhit ham juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Kuzatish bir tomonlama bo‘lib qolmasligi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi oilaviy sharoiti hech qanday bolaga ta'sir qilmay atrof - muhit ham unga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Bunday vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchini trio ulfat boshlashi kerak bo‘ladi. Shundagini ko‘zlangan natijaga erishiladi. Suhbat- suhbatda savollar aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Savollar aniq, qisqa va ravshan bo‘lishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun suhbat metodi ancha samarali hisoblanadi. Chunki bu metod orqali o‘qituvchining ichki kechinmalarni bilish mumkin. Suhbat samimiy do‘stona tarzda tashkil etilishi kerak. Darslarda esa bu metoddan savol-javoblar tartibida ham foydalansa bo‘ladi. Suhbat qanchalik samara bersa bu metod o‘qituvchiga shunchalik muvaffaqiyat keltiradi.Shuningdek,bo’lajak o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tashkil etishda quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish;talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etish, tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga kirishib keta olishi,muloqotchanlikning shakllangan bo’lishi lozim.

VOSITA-dars jarayonini samarali tashkil etish uchun foydalaniladigan asbob –anjomlar yig‘indisi sanaladi.Dars jarayonida vositalardan o‘z vaqtida va belgilangan soatida foydalanish o‘tilayotgan yangi mavzuni yanada tushunarli bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Texnologiya-ma’lum bir faoliyatning ketma-ket va izchil tarzda olib boorish jarayoni hisoblanadi.Texnologiya tushunchasiga turli xil qarashlar mavjud: "Pedagogik texnologiya – Bu o`qituvchi (tarbiyachi)ning o`qitish (tarbiya) vositalari yordamida o`quvchi ( talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko`rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov).

Pedagogik texnologiya – o`qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo`llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig`indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi;u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat ( B.T.Lixachev). Pedagogik texnologiya – bu o`qitishga o`ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko`chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B.L.Farberman). Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta’rifini keltirishimiz mumkin:“Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati”.

Xulosa qilib aytganda,bo’lajak o’qituvchilarda deontologik kompitensiyani rivojlantirish uchun avvalo o’qituvchining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, o’z ustida tinimsiz mehnat qilishi, pedagogik qobilyatga ega bo’lishi hamda bo’lajak o’qituvchi milliy qadriyatlarga va odob–axloq normalariga amal qilgan holda o’z faoliyatida zamonaviy interfaol metodlardan foydalangan holda ish yurita olsa demak deontologik kompitensiyasi shakllangan va o ‘z sohasining yetuk pedagog sifatida e’tirof etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi avvalo mavzuga mos o‘quvchilarning jismoniy –ruhiy holatlarini inobatga olgan holda dars jarayonida interfaol metodlardan foydalansa yanada samarali natijaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Kenjaboyev A.E, Kenjaboyeva D.A Pedagogik deontologiya va kompetentlik . Darslik.T.: “Termiz davlat universiteti NMM” nashriyoti , 2022-yil, 280 bet.

2. N.N Azizxo’jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.O’quv qo’llanma.T.:2006 yil

3. Muslimov N.A.Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish.Monografiya.-T.: Fan, 2004 yil.

Turdiyeva Nigora Saidovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA “BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASI” FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarning turlari, ularning mazmun-mohiyati, ta’lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi o‘rganildi. O‘quv jarayonida an’anaviy, interaktiv, muammoli, loyiha asosidagi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan metodlarning o‘zaro ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, mustaqil ta’limni tashkil etishda metodik yondashuvlarning o‘rni, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Adabiyotlar tahlili, amaliy kuzatuvlar va nazariy mulohazalar asosida metodlardan oqilona foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ish davomida boshlangan ta’lim bosqichining o‘ziga xos jihatlari, yoshga oid psixologik xususiyatlar ham inobatga olindi. Tadqiqot natijalari o‘quv jarayonini takomillashtirishga, metodik saviyani oshirishga va pedagogik amaliyotni zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, pedagogika, o‘qitish metodlari, interaktiv metodlar, mustaqil ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, AKT, pedagogik kompetensiya, metodik yondashuv.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПО ДИСЦИПЛИНЕ "ПЕДАГОГИКА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ" У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье рассмотрены виды методов, применяемых при изучении педагогики начального образования, их содержание, значение и эффективность в образовательном процессе. В процессе обучения анализировалось взаимодействие традиционных, интерактивных, проблемных, проектных и опирающихся на информационно-коммуникационные технологии методов. Обоснована также роль методических подходов в организации самостоятельного обучения, их значение в формировании профессиональных компетенций у будущих педагогов. На основе анализа литературы, практических наблюдений и теоретических соображений разработаны предложения и рекомендации по рациональному использованию методов. В ходе работы учитывались и специфические аспекты начавшегося этапа обучения, возрастные психологические особенности. Результаты исследований служат совершенствованию образовательного процесса, повышению методического уровня, модернизации педагогической практики.*

Ключевые слова: *начальное образование, педагогика, методы обучения, интерактивные методы, самостоятельное обучение, проектное обучение, ИКТ, педагогическая компетентность, методический подход.*

METHODOLOGY FOR ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING IN THE SUBJECT "PEDAGOGY OF PRIMARY EDUCATION" FOR FUTURE TEACHERS

Annotation. *The article examined the types of methods used in the study of elementary education pedagogy, their meaning and essence, importance and effectiveness in the educational process. The learning process analyzed the interaction of traditional, interactive, problematic, project-based and ICT-based techniques. Also, the role of methodological approaches in the organization of Independent Education was based on its importance in the formation of professional competencies in future teachers. On the basis of literature analysis, practical observations and theoretical considerations, proposals and recommendations for the rational use of methods were developed. The specifics of the educational stage, age-related psychological characteristics, which began during the work, were also taken into account. The results of the study serve to improve the educational process, increase the methodological level and modernize pedagogical practice.*

Keywords: *primary education, pedagogy, teaching methods, interactive methods, Independent Education, Project-based teaching, ICT, pedagogical competence, methodological approach.*

Kirish. Ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — o‘z kasbini puxta egallagan, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy metod va texnologiyalarni o‘zlashtirgan, ijodkor, tashabbuskor, yuksak

ma’naviyatli pedagoglarni tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi butun ta’lim tizimining asosi hisoblanadi. Shu boisdan bu sohada faoliyat yuritadigan o‘qituvchilar har tomonlama yetuk, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Ularni tayyorlash jarayonida “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fani alohida o‘rin tutadi. Mazkur fan orqali bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim-tarbiyaning nazariy asoslari bilan tanishadi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda dars tashkil etish, didaktik vositalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, bu fan pedagogik faoliyatning mazmuni, shakllari, metodlari va tamoyillarini o‘rgatibgina qolmay, talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘rganish va mustaqil fikrlash malakasini ham shakllantiradi. Zamonaviy ta’limda mustaqil ta’limning ahamiyati ortib bormoqda. Mustaqil ta’lim — bu faqatgina darsdan tashqari mashg‘ulot emas, balki talabaning shaxsiy o‘sishi, kasbiy jihatdan shakllanishi uchun muhim omildir. Talabalar o‘qituvchi rahbarligida mustaqil izlanishlar olib borish orqali bilimlarni chuqurlashtiradi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni o‘rganadi va o‘z pedagogik qarashlarini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fanini o‘qitishda mustaqil ta’limni to‘g‘ri va samarali tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa, nafaqat fan mazmunini puxta egallashga, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta’limda an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, talaba shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, interaktiv va innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Ayniqsa, mustaqil ta’limning samarali tashkil etilishi talabaning o‘quv faoliyatini faollashtirish, uning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muammo yechimini izlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta’lim jarayoni, ayniqsa pedagogika fanlarida, talabadan chuqur bilim, ilmiy yondashuv, mustahkam tahlil qilish malakalarini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fanini o‘zlashtirishda mustaqil ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi va metodik asosda qo‘llab-quvvatlanishi juda muhim. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali pedagogik metodlar evolyutsiyasi, zamonaviy tendensiyalar va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rish mumkin. G’. To‘raqulova – “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Mazkur asarda pedagogikaning asosiy tushunchalari, tarbiya va ta’limning umumiy tamoyillari chuqur tahlil qilingan. Muallif mustaqil ta’limni tashkil etish metodlari haqida so‘z yuritarkan, ayniqsa faol va interaktiv metodlarning ahamiyatiga alohida urg‘u beradi. Darsda talabaning shaxsiy faolligini oshirish, muammoli yondashuvlar orqali bilimlarni mustahkamlash usullari batafsil yoritilgan. N. Karimova – “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslari” Ushbu asar boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Karimova asosan boshlang‘ich sinf darslarida ishlatiladigan dars metodlari, ya’ni “loyiha asosidagi ta’lim”, “axborot texnologiyalarini qo‘llash”, “interaktiv mashg‘ulotlar”ning dars samaradorligiga ta’sirini asosli misollar bilan ko‘rsatib bergan. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar turli pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. An’anaviy, zamonaviy, interaktiv, muammoli va loyiha asosidagi metodlarning har biri o‘z o‘rnida muhim bo‘lib, talabaning kasbiy shakllanishiga xizmat qiladi. Pedagogik adabiyotlarni o‘rganish orqali metodlarni to‘g‘ri tanlash va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha boy tajriba to‘planadi. I. A. Karimovning **"Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch"** asari O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ilmiy va siyosiy asar sifatida tanilgan. Asar, avvalo, insonning yuksak ma’naviyati jamiyatni yangilash va rivojlantirishning eng muhim omili ekanligini ta’kidlaydi. Karimov bu asarda, ma’naviyatni nafaqat diniy yoki falsafiy nuqtai nazardan, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham tahlil qiladi. boshlang‘ich ta’lim pedagogikasida ham o‘zining alohida o‘rniga ega. Asar, ayniqsa, yosh avlodga ma’naviyatni o‘rgatishning zarurligini, ma’naviy tarbiya orqali insoniyatning o‘zi va jamiyatiga bo‘lgan hurmatini shakllantirishni muhim deb biladi. I. A. Karimovning asarida keltirilgan fikrlar, o‘quvchilarga ma’naviyat, axloqiy fazilatlarni o‘rgatish bo‘yicha pedagoglarga qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari uchun yaratilgan metodik qo‘llanmalarda ham boshlangan ta’lim pedagogikasini o‘qitishda qanday metodlardan foydalanish mumkinligi haqida aniq ko‘rsatmalar berilgan. Jumladan, mustaqil ishlarni tashkil etish, portfolioga asoslangan baholash tizimi, darslar uchun ilg‘or texnologiyalardan foydalanish (AKT, interaktiv doskalar, virtual sinflar) kabi jihatlar yoritilgan. Bu adabiyotlar, ayniqsa o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini shakllantirishda foydali manbaa hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berishning ilmiy asoslarini o‘rgatadigan fan hisoblanadi. Bu fanni puxta o‘zlashtirish uchun nafaqat mazmun, balki uni qanday metodlar orqali o‘rganish ham juda muhim sanaladi. O‘qituvchi bo‘lishni istagan talabalar pedagogik bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur egallashi uchun zamonaviy, interaktiv va ijodiy yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalaniladi. An’anaviy metodlar boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi dastlab nazariy bilimlarni o‘z ichiga olganligi sababli, bu fanni o‘qitishda ma’ruza, tushuntirish, izohlash, savol-javob kabi an’anaviy metodlar qo‘llaniladi. Bu metodlar orqali talaba muayyan pedagogik tushunchalar, tamoyillar, ta’lim-tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari bilan tanishadi. Ayniqsa, darsning ilk bosqichlarida ushbu metodlar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Interaktiv metodlar zamonaviy ta’limda interaktiv yondashuvlar asosiy o‘rinni egallamoqda. Bu metodlar orqali talabalar darsda faol ishtirok etadi, o‘z fikrini bildirish, tahlil qilish, muloqotda bo‘lish, guruhlarda ishlash, real hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Misol uchun, “Aqliy hujum”, klaster, insert, “Fikrlar jadvali”, “Rol o‘yinlari” kabi metodlar talabalarni darsga jalb etib, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi fanini samarali o‘rganish uchun turli metodlardan kompleks foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, interaktiv, muammoli, loyiha asosidagi va AKTga tayangan metodlar talabani faollashtirib, uni shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’limni texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu boisdan, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda AKT vositalaridan keng foydalaniladi. Darslar davomida videodarslar ko‘rish, slayd-prezentatsiyalar tayyorlash, onlayn testlar yechish, elektron darsliklardan foydalanish orqali o‘qish jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Yuqorida olib borilgan nazariy tahlil va adabiyotlar asosida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar ta’lim sifatini oshirish, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Tahlil asosida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Metodlarning turli xilligi o‘qituvchining o‘quv materialini yetkazishdagi yondashuvini boyitadi. Talabaning bilimni egallashi, uni amaliyotda qo‘llashi uchun metodlar moslashuvchan va integratsiyalashgan bo‘lishi zarur.

2. Interaktiv va muammoli yondashuvlar pedagogik tafakkurni rivojlantiradi. Bu metodlar talabani faollashtirib, uni oddiy bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

3. Loyihaviy va mustaqil ta’lim metodlari orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifodalash, yangilik izlash, muammolarga yechim topish kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darslarni samarali va zamonaviy tarzda tashkil qilish imkonini beradi. Bu esa talabaning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi.

5. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik metodlar nafaqat o‘quv materialini tushuntirish vositasi, balki talabaning shaxsiy rivoji va kasbiy shakllanishi uchun kuchli pedagogik omildir.

6. Mustaqil ta’limni to‘g‘ri tashkil etish, unga metodik yondashuvlar asosida rahbarlik qilish o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarni tahlil qilish natijasida ushbu fan doirasida samarali o‘qitish va mustaqil ta’limni tashkil etishga oid bir qator muhim xulosalarga kelish mumkin. Metodlarning mazmuni, ularning o‘qituvchilik faoliyatiga ta’siri, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni chuqur tahlil qilindi. Quyidagi asosiy natijalar aniqlanishi mumkin. O‘rganilgan adabiyotlar va tahliliy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar bir-birini to‘ldiradi va o‘zaro integratsiyada yanada kuchli pedagogik vositaga aylanadi. Jumladan, an’anaviy metodlar (ma’ruza, tushuntirish, suhbat) asosiy nazariy bilimlarni berishda samarali bo‘lsa, interaktiv va innovatsion metodlar esa talabaning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Dars jarayonida qo‘llanilayotgan “Aqliy hujum”, “Insert”, “Rol o‘yinlari”, “Bahs-munozara”, “Guruhli ish” kabi metodlar o‘quvchilarda nafaqat mavzuga oid bilimlarni shakllantiradi, balki ularning ijtimoiy faolligi, kommunikatsion salohiyati va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, muammoli ta’lim orqali talabalar o‘z fikrini mustaqil shakllantirishga, turli yondashuvlar orqali yechim topishga o‘rganadilar. AKT imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali pedagogik jarayon yanada qulay, dinamik va zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lmoqda. Onlayn testlar,

virtual laboratoriyalar, interaktiv taqdimotlar, mobil ilovalar va elektron darsliklar yordamida o‘quv materiallari chuqurroq o‘zlashtiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda metodik yondashuvlarning xilma-xilligi, ularni joyida va o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari samarali shakllantiriladi. An’anaviy, interaktiv, muammoli, loyiha va axborot texnologiyalariga asoslangan metodlar o‘rtasidagi muvozanat — hozirgi ta’lim jarayonining asosiy mezoni hisoblanadi. Bu esa talabalarning nafaqat bilimini, balki ularning ijtimoiy, kommunikativ va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida boshlang‘ich ta’lim sifati va mazmuniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni paytda, pedagogik metodlarning ta’siri va ularning samaradorligi bo‘yicha olib borilgan statistik tahlillar bu yo‘nalishdagi dolzarb muammolarni ochib beradi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil yakuni bo‘yicha hisobotida keltirilishicha, boshlang‘ich sinflarda interaktiv metodlardan muntazam foydalanadigan o‘qituvchilarning ulushi 38% ni tashkil etgan. Bu esa darslarda hanuz an’anaviy metodlarga tayanish holatlari yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2022–2023-o‘quv yili davomida 12 ta oliy pedagogika oliygohida o‘tkazilgan ichki monitoring natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar orasida “loyiha asosidagi metodlar”ni qo‘llashga tayyorlik darajasi atigi 42% ni tashkil qilgan. Bu esa metodik ko‘nikmalarni shakllantirishda hali ham amaliy mashg‘ulotlarning kuchaytirilishi lozimligini anglatadi. Statistik ma’lumotlar tahlili boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda zamonaviy metodlardan foydalanish zaruriyati dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Pedagogik metodlar ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi vositalaridan biri bo‘lib, ularning to‘g‘ri tanlanishi va samarali qo‘llanilishi o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sohasida bu metodlarning ahamiyati yanada ortadi. Chunki ushbu bosqichda o‘quvchilar ta’lim jarayoniga yangi kirib kelgan, yosh xususiyatlari jihatidan sezgir va psixologik barqarorligi shakllanayotgan shaxslar hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilar bu metodlarni chuqur anglab, ularni to‘g‘ri va ijodkorlik bilan qo‘llash malakasiga ega bo‘lishlari zarur. Nazariy adabiyotlar tahlili va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogik metodlar tizimi doimiy rivojlanishda bo‘lib, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahorati, dars mazmuni, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va didaktik vazifalarga bog‘liqdir. Shuningdek, zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar keng qo‘llanilayotgani kuzatilmoqda. Bunga sabab — bu metodlar o‘quvchining faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi, shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi va o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni ortib bormoqda. AKT vositalaridan foydalanish nafaqat bilimlarni taqdim etish formasini o‘zgartiradi, balki talabalar uchun interaktiv, multimediya va vizual materiallar orqali ta’limni qiziqarli va samarali qiladi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy ta’limda talabaning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bugungi kunda muammoli ta’lim va loyiha asosidagi yondashuvlar ham katta e’tibor qozonmoqda. Muammoli metodlar yordamida talabalar noan’anaviy vaziyatlarga nisbatan moslashadi, turli yechimlarni qidirish orqali analitik tafakkurini rivojlantiradi. Loyiha metodlari esa ularni kichik tadqiqotchi sifatida shakllantiradi. Shuningdek, metodlar tanlovida boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki bu bosqichda bilimlar hayotiy tajriba bilan bog‘liq holda, amaliy ko‘nikmalar shaklida o‘zlashtiriladi. Shu bois metodlar tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qilishi, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi va ularni har tomonlama faoliyatga jalb etishi kerak. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonining faol tashkilotchisi sifatida metodlar tanlovida serqirra bo‘lishi lozim. Ushbu jihatlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik metodlar oddiy vosita emas, balki ta’lim mazmunini yetkazish, tarbiyaviy maqsadlarga erishish va talabaning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik resursdir. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilardan chuqur nazariy tayyorgarlik, didaktik yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan fikrlash va ijodiy yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot va nazariy tahlillar asosida aniqlangan xulosalarga tayangan holda, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida quyidagi ilmiy-metodik takliflarni ilgari surish mumkin. O‘quv dasturlariga metodik erkinlikni

kengaytirish pedagogik fanlarni o‘qitishda o‘qituvchilarga metod tanlashda kengroq erkinlik berish, zamonaviy interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash imkoniyatlarini oshirish lozim. Shu yo‘l bilan har bir o‘qituvchi o‘z auditoriyasining ehtiyojiga qarab eng mos yondashuvni tanlay oladi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan maxsus metodik qo‘llanmalarni yaratish hozirgi mavjud darslik va adabiyotlar ko‘proq umumiy pedagogikaga yo‘naltirilgan. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus, amaliy ko‘nikmalarga asoslangan, dars bosqichlari, interaktiv metodlar, texnologik xaritalar va vizual materiallar bilan boyitilgan qo‘llanmalarni yaratish zarur. O‘qitish metodlarini o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga moslashtirish Boshlang‘ich ta’lim bosqichidagi o‘quvchilarning emotsional, kognitiv va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda metodlar tanlash, shu orqali o‘quvchilarda stress darajasini kamaytirish, motivatsiyani oshirish va bilimlarni ongli o‘zlashtirishga erishish mumkin. Pedagogik innovatsiyalarni o‘rgatish bo‘yicha alohida fan yoki modul tashkil etish pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va raqamli vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarini chuqurroq o‘rganish uchun alohida modul kurslarini joriy etish taklif qilinadi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini zamonaviy talablar darajasida shakllantirishga xizmat qiladi. Takliflardan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarni takomillashtirish hozirgi zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ta’lim jarayonida interaktiv, innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan samarali foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki mustaqil fikrlash, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv, kommunikativ salohiyat va axborot madaniyati shakllanadi. Takliflar, ayniqsa, o‘quv jarayonini raqamlashtirish, metodik qo‘llanmalarning amaliy mazmunini boyitish, mustaqil ta’limni tashkil qilishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb etish kabi dolzarb masalalarni qamrab oladi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish va ular asosida olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy ta’lim tizimida metodlarning roli nafaqat bilim berish vositasi, balki o‘quvchining shaxsiy, intellektual, ijtimoiy va kasbiy jihatdan kamol topishiga xizmat qiluvchi asosiy omilga aylangan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik metodlarga faqat texnik yondashuv emas, balki ularni har tomonlama tahlil qilgan, didaktik maqsadlarga moslashtirgan holda ijodiy yondashishi zarur. O‘rganilgan adabiyotlar, nazariy qarashlar va ilg‘or tajribalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy metodlar bilan bir qatorda interaktiv, muammoli, loyiha asosida tashkil etilgan, hamda AKTga tayangan metodlar o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, o‘quvchini darsga faol jalb etadi va unda mustaqil fikrlash, mas’uliyat, ijodkorlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim pedagogikasini o‘rganishda metodik yondashuvlar — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlik, samarali o‘zaro ta’sir, mustahkam bilim va ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Kelajakdagi raqobatbardosh va innovatsion o‘qituvchini tayyorlashda bu metodlardan foydalanish madaniyati va metodik savodxonlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. To‘raqulova, G‘. (2021). Pedagogika nazariyasi. b. 45–47
2. Karimova, N. (2022). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslari. b. 45–46
3. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Rasulov, B. B., & Mavlonova, R. X. (2018). Pedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston pedagogik innovatsiyalar nashriyoti.
5. Qodirova, F. S. (2020). Boshlang‘ich ta’limda interaktiv metodlar: tajriba va tavsiyalar. O‘zbek pedagogikasi jurnali, 4(2), 45–51.
6. Xoliqova, M. R. (2023). Axborot texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi. Zamonaviy ta’lim va innovatsiya, 5(1), 62–66.
7. Qodirov, A. T. (2022). Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish usullari. Ilm va taraqqiyot, 3(7), 80–86.

Tursoatov Alijon Eshmo‘minovich
Nizomiy nomidagi TDPU
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi v.b. dotsent

E-mail: alitursaotov@gmail.com

KURASH SEKSIYALARDA MURABBIY YORDAMIDA ORGANIZIMNI CHINIQTIRISH MASLAHATIGA TAYANISH VA MUSTAQIL SHUG'ULLANISH

Annatatsiya. *Kurashchilarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uslubiyati orqali trenerovkadagi yuklamalarini optimal rejalashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Sport turi, texnika, taktika, o'zlashtirish, jismoniy qobiliyat, daraja, sportchilar,organizm, funksionallik,imkoniyat, kuch, sog'lik,mashg'ulot, musobaqa, ruhiy, axloqiylik, irodaviy, tarbiya.*

В СЕКЦИЯХ БОРЬБЫ ПОЛАГАТЬСЯ НА СОВЕТЫ ТРЕНЕРА ПО УКРЕПЛЕНИЮ ОРГАНИЗМА И ЗАНИМАТЬСЯ САМОСТОЯТЕЛЬНО

Аннатация. *Выявление у борцов особых скоростно-силовых качеств и через методику их развития дается информация об оптимальном планировании их нагрузок на тренировках.*

Ключевые слова: *вид спорта, техника, тактика, мастерство, физические способности,уровень, спортсмены,организм, функциональность, возможности,сила, здоровье, тренировка, соревнование, психика, нравственность, воля, воспитание.*

THE STRUGGLE IS TO RELY ON THE ADVICE TO CHIN OUR ORGANIZATION WITH THE HELP OF A TRAINER IN SECTIONS AND TO ENGAGE INDEPENDENTLY

Annatation. *In wrestlers, information is given about the optimal planning of their loadings in the trainer through the methodology of determining special speed-strength qualities and their development.*

Keywords: *Sport, technique, tactics, mastering, physical ability, level, athletes,organism, functionality,opportunity, strength, health,training, competition, mental, morality, volitional, upbringing.*

Kirish. Mustaqil kurash mashg'ulotlari ustoz-murabbiylarning ishtiroki va bevosita rahbarligida olib boriladi. Ayniqsa sport to'garak va seksiyalarida, yuqori mahorat tarkib toptirish mashg'ulotlarida ularning ishtirok etishlari juda zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda bunday to'garak va seksiyalarda sport mahoratini shakllantirish ma'lum darajada pullik shaklda amalga oshirilmoqda. Bu bir tomondan yaxshi bo'lsa, ikkinchi tomondan ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Yaxshiligi professional ustozlar tomonidan talabga javob beradigan sharoitda va tegishli jihozlar bilan ta'minlangan holda tashkil etiladi. Shug'ullanuvchining holati nazorat ostida bo'ladi. Zarur bo'lganda mashqlarni kuchaytirish yoki susaytirish, yuklamaning eng samarali darajasi aniqlangan holda shug'ullanadi.

Murakkablik tomoni hozirgi bozor munosabatlari sharoitida har bir ota-ona ham farzandlarning nufuzli sport sohalarida ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan mablag' bilan ta'minlay olmasligidir. Ayniqsa ko'p bolali oilalarda bunday muammo har doim ko'ndalang turadi. O'z holicha shug'ullangan yoshlar nazoratdan chetda bo'lib, jismoniy zo'riqishi yoki yengil-yelpi mashqlar bilan band bo'lib, samarasiz vaqt sarflaydilar.

Metodik adabiyotlarda o'z-o'zini nazorat qilish va tibbiy ko'rikdan o'tib turish haqida ko'p yozilgan. Biz ham ularga asoslangan holda o'z fikr-mulohazalarimizni shaxsiy tajriba-sinov kuzatishlarga tayangan xolda bayon etishni ma'qul topdik.

Kurash mashg'ulotlari bilan shug'ullangandan keyin shug'ullanuvchi o'zini o'zini yaxshi his etmog'i lozim. Mushaklarning yengil cho'zilganligini sezish, toliqish alomatlarining paydo bo'lishi, qandaydir noqulayliklar hosil bo'lganligi ko'rinadi.

Ilgari jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanmagan kishilarda dastlabki mashg'ulotlardan keyin mushaklarda og'riq sezilishi normal holat hisoblanadi. 3-4 kundan keyin bu og'riq o'z-o'zidan o'tib ketadi. Shuning uchun mashg'ulotni og'riq boshlanganda to'xtatmaslik kerak. Agar nafas olish qiynlashsa,o'sha zahotiyoq shug'ullanishni to'xtatmoq lozim. Nafas olishning qiyinlashuvi

shug‘ullanuvchining jismoniy zaifligi yoki biron a'zosi kasallanganidan dalolat berishdir. Albatta bunday hollarda doktorga murojat etish, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni batafsil so‘zlab berish zarur. Tegishli maslahat va mulohazalardan keyin mashg‘ulot davom ettiriladi.

Mashqlarning ta'sirini yurak orqali nazorat qilinadi. Sog‘lom odamning tinch turgan holatda urishi bir daqiqada 60-80 marotaba, doimiy kurash bilan shug‘ullanib kelganlarda 50-65 martagacha bo‘ladi.

Yurak urishini mashg‘ulot boshlanishi oldidan yoki mashg‘ulotning 4-5 daqiqasi o‘tgach tekshiriladi. Mushaklarni ishlatish natijasida yurak urishni 50-70 % oshadi. Masalan, mashg‘ulot boshlanishidan oldin yurak urishi bir daqiqada 69 marta bo‘lsa, mashg‘ulotdan keyin 100-120 marttaga yetadi. Agar yurak-qon tomir tizimi jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanib borgan, yoki jismoniy mehnat bilan band bo‘lgan kishilarning yurak urishi shug‘ullanmaydigan kishilarnikiga qaraganda tez normal holatga qaytadi. Gavda og‘irligini nazorat qilib borish ham organizm holati bo‘yicha zarur ma'lumotlarni beradi. Mashg‘ulotlar bajarishning dastlabki kunlari organizm tarkibidagi suv va yog‘larning kamayishi hisobiga gavda og‘irligi kamayishi mumkin. Keyinroq mushak va paylarning o‘sishi tufayli gavda og‘irligi ortadi. Jismoniy mashqlar bir maromda bajarilib borganda organizmda moslashuv jarayoni kechadi va vazni bir xilda saqlanib turadigan darajaga etadi. Vazni har 8-10 kunda tarozida tortib qanday ekanligini aniqlab borish foydali hisoblanadi. Vaznning me'yordan ortiq yoki keskin kamayishi tezlik bilan shifokorga murojaat etishni, tegishli maslahatlar olishni taqozo etadi.

Jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanuvchi uyquning normada bo‘lishiga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ayniqsa yosh organizm uchun uyquning aniq bir vaqtida bo‘lishi, davomiyligining me'yori, bo‘linmasligi, qattiqligi katta ahamiyat kasb etadi. Yotib-turish tartibli bo‘lmaganda organizm o‘zi uchun kerakli bo‘lgan energiyani jamlay olmaydi. Tez toliqadi, jismoniy yuklamaga bardosh bera olmaydigan bo‘lib qoladi.

Jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning vaqtida oziqlanishi kerakli koloriyani olishi, ovqatni hazm qilishi ko‘p jihatdan ishtahaga bog‘liq bo‘ladi. Ishtaha ovqatning foydaliligi, xushtamligi, did bilan tayyorlanganligi va boshqa jixatlarga daxldordir. Eng asosiysi organizm uchun hayotiy zarurat bo‘lgan oqsillar, uglevodlar va yog‘larning ma'lum nisbatda bo‘lishi e'tiborga olinmog‘i kerak. Agar birortasi me'yordan ortiq yoki kam bo‘lsa organizmga zarar keltiradi. Hatto sog‘liqni izdan chiqaradi. Buni har biri kishi o‘zi anglagan holda nazorat qilib borishi kerak.



Natija va muhokama. Hozirgi vaqtda har xil sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoalari alohida jamoa sifatida Olimpiya, Osiyo o‘yinlarida va jahon chempionatlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Yakkakurash sport turlari o‘quv janglari samaradorligini oshirish muammosi 20-22 yoshdagi yuqori malakali sportchilarda muhim ahamiyatga ega, chunki bu paytda texnika asoslarini o‘rgatish yakunlanadi va texnik-taktik tayyorgarlik poydevori shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, harakatlarning bazaviy tarkibi hamda ularni mashg‘ulot janglari va musobaqalarda qo‘llashning taktik tarkiblari ko‘rsatkichlari hozirgi paytga qadar chuqur taqqoslab ko‘rilmagan. Ularning umumiy va individual tarkiblari o‘rtasidagi farqlar tizimlashtirilmagan, shuningdek, yuqori malakali sportchilarda mashg‘ulot janglaridagi harakatlarning qo‘llanilish samaradorligini oshirishga qaratilgan va ularni musobaqa sharoitiga ko‘chirish jarayonini tezlashtirish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy pedagogik ko‘rsatmalar ishlab chiqilmagan hamda tajribada asoslab berilmagan.

Oldinga qo‘yilgan muammolar yakkakurashchilarlarning texnik-taktik tayyorgarligini jadallashtirish uchun ularning mashg‘ulot hamda musobaqa faoliyatining ta’sir belgilarini ilmiy jihatdan izlab topish ehtiyojini belgilab beradi.

Mazkur ishining maqsadi: mashg‘ulot va rasmiy musobaqalarda 20-22 yoshdagi yakkakurashchilarning texnik-taktik holatini yanada rivojlantirish.

Tadqiqot vazifasi: yuqori malakali yakkakurashchilarning turli darajadagi shiddatli vaziyatlarda kurash ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqot metodlari: ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili, tajribani umumlashtirish, pedagogik kuzatuvlar, matematik statistika metodlari. Tekshiriluvchilar sifatida O‘zR MGHTI tinglovchilari tanlab olindi. Yuqori malakali yakkakurashilarning mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini tadqiq qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, musobaqa janglarida qabul qilingan taktik yechimlarning mosligi, muvaffaqiyatga bo‘lgan ishonch ancha kamayadi, faol kurashish o‘rnini faol payt poylash tarzida kurash olib borish shakli egallaydi. Buning hammasi yig‘ilib, kurash natijalarining pasayib ketishiga olib keladi.



Yuqori shiddat bilan ajralib turuvchi musobaqalarda sportchilarning muvaffaqiyat qozonishga bo‘lgan ishonchining kamayishi bajarilayotgan faoliyatning ob’ektiv qiyinchiliklariga hamda shaxsning individual hislatlariga, shuningdek, kurashish shaklining o‘zgartirilishiga bog‘liq. Faollikning pasayishi axborot tanqisligining ortishi va uning ishonish yoki gumonsirash shaklidagi sub’ektiv aks etishi oqibati hisoblanadi. Tayyorlanish vositalarning taktik mohiyati ko‘pgina tarkiblarga bog‘liq bo‘ladi. Ular orasida harakat qilishga tayyor turish (maqsadni ko‘zlagan tarzda, ekspromt tarzda, maqsadli-ekspromt tarzda), olishuvda tashabbusni namoyon qilish darajasi (birinchi maqsad, keyingi maqsadlar) va harakatlarni bajarayotgan sportchilarning reaksiya qilishlari.

Mahalla yoshlarining kurash va sportga bo‘lgan qiziqishlari juda kuchli bo‘lganligi sababli, ba'zan me'yoridan ortiq shug‘ullanishi, vaqti, kuchi va imkoniyatlarini to‘la sarflashi oqibatida boshqa faoliyat turlariga ulgurmaslik holatlari ko‘zatiladi. O‘z-o‘zini nazorat qilish xuddi shunday bir yoqlama ulg‘ayishning oldini oladi. O‘qishga, ijtimoiy ishlarda faol qatnashishga, oilaviy yumushlarga yordamlashishga vaqt ajratish imkonini beradi.

Xulosa. O‘z-o‘zini nazorat qilish bekorchilikdan,befoyda vaqt sarflashdan, kurash va sport mashg‘ulotlariga hayotiy ehtiyoj uchun zarur bo‘lgan faoliyat turlarini qo‘shib olib borishga yo‘naltiradi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish yutuq va kamchilaklarni to‘g‘ri qabul qilish, yutuqlarni mustahkamlash, kamchiliklarni tuzatishga o‘rgatadi. Jismoniy mashg‘ulotlar katta ruhiy tayyorgarlikni taqozo etadi. Ruhiy o‘z-o‘zini boshqarish sport musobaqalarida katta yutuqlarni qo‘lga kiritishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamag‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 24 oktyabr, 2002.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 27 may. 1999.

3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T.; O‘zDJTI nashri, 2001 y.

4. O.E.Toshmurodov, B.B.Kipchakov, A.T.Umarov. Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (milliy kurash). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 232 bet.

Ummatkulova Nigora Umarqulovna
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

FAROBIYNING SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING SHAXS KAMOLOTIGA OID QARASHLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk Sharq mutafakkiri Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi inson kamoloti, aqliy yetuklik, jamiyatning ma'naviy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlar borasidagi g'oyalari tahlil qilinadi. Farobiy falsafasida shaxs kamolotining asosi sifatida aql, axloq va ijtimoiy hamkorlik mezonlari ko'rsatiladi. Maqola orqali Farobiyning insoniy yetuklik konsepsiyasi Sharq tafakkuri kontekstida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Farobiy, shaxs kamoloti, fozil shahar, aql, fazilat, Sharq falsafasi, axloq, jamiyat, yetuklik.*

FAROBI'S VIEWS OF EASTERN THINKERS ON PERSONAL PERFORMANCE

Abstract. *This article analyzes the ideas of the great Eastern thinker Abu Nasr Al-Farabi in his work "The City of Virtuous People" about human perfection, intellectual maturity, spiritual values of society and personal qualities. In Al-Farabi's philosophy, the criteria of reason, morality and social cooperation are indicated as the basis of personal perfection. The article examines Al-Farabi's concept of human maturity in the context of Eastern thought.*

Keywords: *Al-Farabi, personal perfection, virtuous city, reason, virtue, Eastern philosophy, morality, society, maturity.*

ВЗГЛЯДЫ ФАРОБИ НА ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ О ЛИЧНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируются идеи великого мыслителя Востока Абу Насра аль-Фараби в его труде «Город добродетельных людей» о совершенстве человека, интеллектуальной зрелости, духовных ценностях общества, личностных качествах. Философия Аль-Фараби устанавливает критерии разума, морали и общественного сотрудничества как основу личного совершенствования. В статье рассматривается концепция зрелости человека у Аль-Фараби в контексте восточной мысли.*

Ключевые слова: *Фараби, личное совершенство, добродетельный город, разум, добродетель, восточная философия, мораль, общество, зрелость.*

Kirish. Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri — Abu Nasr Farobiy (873–950) inson, jamiyat va kamolot haqida ilgari surgan g'oyalari bilan jahon ilm-fani va madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan. U tomonidan yaratilgan "Fozil odamlar shahri" asari insoniyat sivilizatsiyasi, axloqiy qadriyatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar haqida falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlarni o'zida mujassam etgan yirik manbaadir. Aynan ushbu asarda Farobiy tomonidan shaxsning kamolotga erishuvi masalasi eng markaziy o'rinda turadi.

Asosiy qism. Farobiyning fikricha, inson - bu oliy maqsad sari intiluvchi mavjudot bo'lib, uning tabiati uni jamiyatga ehtiyoj sezishga va o'z salohiyatini faqat jamoa ichida ro'yobga chiqarishga undaydi. U "Fozil odamlar shahri" asarida shunday deydi:

"Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi..."

Bu yerda yetuklik tushunchasi faqat moddiy ne'matlar emas, balki aql, axloq, ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan.

Farobiy falsafasida fozil shaxs – bu aql-idrok egasi, ezgu fazilatlar sohibi, jamiyat manfaati yo'lida harakat qiluvchi insondir. Unga ko'ra, fozil jamiyat fozil shaxslar yig'indisidir. Jamiyatda ijtimoiy adolat, ilm, axloq va hamkorlik qadrlanadigan bo'lsa, shaxs ham yetuklik sari intiladi.

Bu fikr bugungi kun ijtimoiy-pedagogik nazariyalar bilan uyg‘unlashadi: insonni rivojlantirish uchun uni ijtimoiy iqlimda axloqiy me’yorlar asosida tarbiyalash lozim.

Farobiy Aristotel va Platon falsafasini chuqur o‘rganib, aqlni insonning eng oliy qobiliyati sifatida baholagan. Uningcha, inson kamolotga faqat aql orqali, ya’ni bilim olish, haqiqatni anglash, ilmda chuqurlashish yo‘li bilan erishadi:

“Insondagi aql qabul qiladigan narsa hech mahal intellekt bo‘la olmaydi.”

Bu yerda Farobiy aqlning faolligi va aql orqali inson o‘z mohiyatini anglash zarurligini ko‘rsatadi.

Farobiy axloqiy fazilatlarni kamolot sari yo‘lning muhim ko‘rinishi deb biladi. Unga ko‘ra, fazilatlar (adalat, saxiylik, halollik) nafaqat shaxsiy yuksalishning mezoni, balki jamiyat barqarorligining ham negizidir.

U shunday deydi:

“Fozil shahar fuqarolari fozil ishlarni qiladilar, fozil rahbar bo‘lishi mumkin bo‘lgan kimsalar esa fazilatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘ladi.”

“Fozil odamlar shahri”da Farobiy shaxsning shakllanishi va kamolotida tarbiya va muhitning o‘rni haqida chuqur mulohazalar yuritadi. Uning fikricha, har qanday inson tug‘ma qobiliyatlar bilan dunyoga keladi, ammo bu qobiliyatlar faqatgina to‘g‘ri tarbiya, sog‘lom ijtimoiy muhit orqali yuzaga chiqadi.

“Shaxsning yuksalishi uchun u yashayotgan jamiyat ham fozil bo‘lishi zarur,” — deb ta’kidlaydi u.

Farobiy tafakkurida shaxs kamoloti faqat dunyoviy emas, balki ilahiy (transsendental) maqsadlar bilan bog‘lanadi. Inson o‘z aqliy va axloqiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish orqali Xudoga yaqinlashadi.

Bu jihatdan Farobiy g‘oyalarini tasavvufiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan, deyish mumkin.

Farobiy nazarida insonning tabiati ijtimoiydir. U hayotni yakka holda emas, balki o‘zaro hamkorlikda kechirishga majburdir. Bu fikrni u quyidagicha asoslaydi:

“Inson bir o‘zi yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishishi uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni qamrab ola olmaydi.”

Shu bois, Farobiy insonning kamolotini faqat o‘zini emas, balki atrofdagi insonlar bilan o‘zaro aloqada, madaniy va axloqiy muhitda shakllanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ko‘radi.

Ushbu nuqtai nazar Farobiyni o‘z zamonasining ilg‘or sotsiologik fikr yurituvchisiga aylantiradi. U fozil jamiyatni insonni to‘laqonli shakllantiruvchi va uni komil darajaga yetkazuvchi vosita sifatida tushunadi. Bu qarash zamonaviy “ijtimoiy tarbiya nazariyalari”ga yaqinlashadi, chunki har qanday individual yuksalish jamiyat bilan uyg‘unlikda amalga oshadi.

Farobiy tomonidan ilgari surilgan “fozil odamlar shahri” g‘oyasi nafaqat davlat boshqaruvi yoki jamiyat modeli, balki komil insonlar uyg‘unligidan tashkil topgan ijtimoiy birlik sifatida talqin qilinadi. Bu shaharda yashovchilar bir-birining kamolotini to‘ldiruvchi, aqliy va ma’naviy jihatdan bir-biriga tayanadigan shaxslardir.

Farobiyning ushbu g‘oyasi bugungi zamonaviy «ijtimoiy kapital» tushunchasi bilan uyg‘unlashadi. Unga ko‘ra, jamiyatni mustahkamlovchi kuch — bu qonun emas, balki shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, bilim almashuvi va ma’naviy birdamlikdir.

“Shunday shahar bo‘lishi kerakki, uning aholisi bir butun tanadek harakatda bo‘lib, har kim boshqaga kerakli bo‘lgan narsani yetkazadi.”

Bu fikr Farobiy uchun jamiyatning o‘zi maqsad emas, balki inson kamolotiga yetaklovchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

Farobiyning psixologik qarashlarida shaxs kamolotining muhim elementi — bu inson nafsining mukammallashuvidir. U insonga berilgan qobiliyatlarni to‘rtta asosiy darajaga bo‘ladi:

- Shahvoniy (istak) nafs – moddiy ehtiyojlarga javob beradi.
- G‘azabiy (emotsional) nafs – irodani bildiradi.
- Mutaxayyil (tasavvuriy) quvvat – badiiy va ilhomiy salohiyat manbai.
- Aqliy nafs – bilim, tafakkur va haqiqatga yetaklovchi eng oliy daraja.

Farobiy fikricha, inson shunday yetuklikka erishmog‘i kerakki, unda bu darajalar ichki muvozanatda bo‘lsin. Aynan aql barcha nafsiy quvvatlarni boshqaruvchi “rahnamo” sifatida tasvirlanadi. Shu holatda inson o‘z mohiyatiga mos yashay oladi va bu holatni Farobiy “saodat holati” deb ataydi.

Farobiy ta’limotida baxt (saodat) tushunchasi shaxs kamoloti bilan uzviy bog‘liqdir. U baxtni moddiy farovonlik emas, balki ruhiy-axloqiy yetuklikning natijasi deb hisoblaydi.

“Baxt – bu insonning o‘z aqli va fazilati orqali eng oliy haqiqatga yetishidir.”

Demak, Farobiy uchun kamolot — bu harakatdagi jarayon, baxt esa ushbu jarayonning cho‘qqisidir.

Shu bois, shaxsiy baxtga erishmoqchi bo‘lgan kishi jamiyatda fozil kishilar bilan yaqin bo‘lishi, fazilatli faoliyat bilan shug‘ullanishi va o‘z aqlini mukammal darajada ishga solishi zarur. Bu g‘oya o‘z zamonasidagi diniy-axloqiy qarashlardan keskin farq qiladi, chunki Farobiy har qanday baxtning asosini fikrga, ongga, tafakkurga tayaydi.

Farobiy shaxsiy kamolotni faqat individuallikda emas, balki rahbarlik fazilatlarida ham ko‘radi. Uning “fozil rahbar” konsepsiyasi zamonaviy liderlik nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Bu rahbar:

- bilimli,
- donishmand,
- adolatli,
- quvvatli va xotirjam bo‘lishi kerak.

Unga ko‘ra, bunday yetakchi jamiyatni faqat qonunlar bilan emas, balki axloqiy namunasi orqali boshqaradi. Shunday inson rahbar bo‘lsa, fozil jamiyat vujudga keladi, unda esa har bir fuqaro o‘zini komil inson sifatida his eta oladi.

Farobiyning eng chuqur g‘oyalaridan biri — bu har bir inson o‘z kamoloti uchun individual mas’uliyatni zimmasiga olishi zarurligidir. Unga ko‘ra, shaxsiy yuksalish — bu tashqi yordam emas, balki ichki harakat, intilish va o‘z ustida ishlash mehnatidir.

U shunday deydi:

“Inson o‘zining ma’naviy barkamolligi uchun har doim izlanishda bo‘lishi kerak, chunki bu uning tabiatiga xosdir.”

Bu g‘oya Farobiyni nafaqat faylasuf, balki pedagogik dunyoqarashi bor mutafakkir sifatida ham tanitadi.

Abu Nasr Farobiy tafakkurining chuqur qatlamlaridan biri bu — inson tabiatining ijtimoiy-ma’naviy ixtisoslashuvi haqida ilgari surgan nazariy qarashlaridir. Uning fikricha, inson nafaqat jismoniy mavjudot, balki axloqiy-ma’naviy muvozanatga erishuvchi ongli mavjudot sifatida qaraladi. Shu bois, Farobiy uchun shaxs kamoloti – bu shunchaki bilim olish emas, balki kompleks aqliy, axloqiy, madaniy va ruhiy yetuklikka erishish yo‘lidir.

Farobiy tafakkurida “kamolot” atamasi ko‘p qatlamli ma’naviy holatni anglatadi. Bu holatga erishish uchun inson bir necha bosqichlarni bosib o‘tishi kerak. Jumladan:

Bilim orqali anglash – bu bosqichda inson o‘z tafakkurini o‘stirish, aqlini sayqallash orqali haqiqatga yaqinlashadi.

Axloqiy yetuklik – shaxsda adolat, halollik, fidoyilik kabi fazilatlar tarkib topadi.

Jamiyat bilan uyg‘unlik – inson jamiyatning faol, mas’uliyatli a’zosi sifatida shakllanadi.

Transsendental uyg‘unlik – inson o‘zini oliy g‘oya va ilohiy tamoyillar bilan uyg‘unlashtiradi.

Farobiyga ko‘ra, shaxs kamoloti mutlaq individual jarayon bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy va siyosiy tizimlar bilan dialektik munosabatda shakllanadi. Aynan shu nuqtai nazar Forobiyni o‘z davridagi antropologik va pedagogik tafakkurda noyob fenomen darajasiga olib chiqqan.

Bu yondashuv hozirgi zamon etnopedagogikasi va ma’naviyatshunosligi uchun alohida metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, shaxs kamolotini shakllantirishda faqat nazariy bilim emas, balki tarbiya beruvchining shaxsi, qadriyatga asoslangan amaliy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Farobiyning “fozil shahar” kontsepsiyasi bugungi kunda “ijtimoiy muvozanatli davlat modeli” nazariyasi bilan qiyoslash mumkin. Uningcha, fozil jamiyat:

- nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki axloqiy va tafakkuriy birlik asosida shakllanishi kerak;
- aholi o‘rtasida o‘zaro ishonch, ilmga hurmat va ma’naviy birdamlik ustuvor bo‘lishi lozim;
- rahbarlar fozil kishilar ichidan saylanadi, nafaqat vakolat, balki fazilat asosida tanlanadi.

Farobiyning tafakkurida ta’limning falsafiy asoslari ham alohida o‘rin tutadi. U insonni shakllantiruvchi eng asosiy kuch sifatida ilm va tarbiyani bir butunlikda ko‘radi. Bu jihat “bilim – fazilat

– saodat” uchligini hosil qiladi. Mazkur tamoyil bugungi zamonaviy “komponentli shaxs tarbiyasi” yondashuvi bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Xulosa va munozara.

Abu Nasr Farobiy tomonidan ilgari surilgan shaxs kamolotiga oid qarashlar, ayniqsa “Fozil odamlar shahri” asarida aks ettirilgan tamoyillar, zamonaviy pedagogika, axloqshunoslik va ijtimoiy falsafa uchun muhim nazariy manbaa bo‘lib xizmat qiladi. U insonni faqat individual mavjudot emas, balki jamiyat va umumbashariy qadriyatlar kontekstida ko‘radi. Aql, fazilat, hamkorlik, ma’rifat va fozil jamiyat — Farobiy tafakkurida shaxs kamolotining poydevoridir. Bu fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, balki yanada chuqurroq ilmiy izlanishlarga turtki bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. — 160 b.
2. Muhammadjonov A. Sharq mutafakkirlari va inson kamoloti. — Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3. Alisherov N. Farobiy va sharq falsafasida shaxs konsepsiyasi. — Samarqand: Ilm ziyo, 2022
4. www.ziyonet.uz

Usmonova Moxizoda Avazjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti (PhD)

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

Annotatsiya. *Maqolada integrativ ta’lim muhitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayoni, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar, talabalarning fikr-mulohazalari trening jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari, Pedagogik mahorat fani asosida talabalarda muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish haqida ilmiy ma’lumotlar bayon etilgan*

Kalit so‘zlar: *muloqot madaniyati, integrativ yondashuv, madaniyatlararo muloqot, ta’lim muhitida rivojlanish, madaniyatlararo kompetensiya, tashkiliy, kreativ, motivatsion, kognitiv komponentlar.*

ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В статье изложены научные данные о процессе развития культуры общения учащихся в Интегративной образовательной среде, рекомендации, разработанные на основе развития межкультурной коммуникативной компетентности, возможности повышения эффективности процесса обучения обратной связи учащихся, о применении следующих технологий при развитии культуры общения учащихся на основе интегративного подхода на основе науки педагогического мастерства.*

Ключевые слова: *культура общения, интегративный подход, межкультурная коммуникация, развитие в образовательной среде, межкультурная компетентность, организационная, креативная, мотивационная, познавательная составляющие.*

THE PROCESS OF DEVELOPING A CULTURE OF COMMUNICATION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Annotation. *The article describes the process of developing the communication culture of students in an integrative educational environment, recommendations developed on the basis of the development of competency of intercultural communication, the possibilities of improving the effectiveness of the training process of student feedback, the use of the following technologies in the development of communication culture in students on the basis of pedagogical*

Keywords: *communication culture, integrative approach, intercultural communication, development in an educational environment, intercultural competence, organizational, creative, motivational, cognitive components.*

Kirish. Respublikamizda talaba-yoshlarning ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularda Vatanparvarlik, yuksak axloqiy ideallar, yangi islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini qaror toptirish, fuqarolik pozitsiyasini tarkib toptirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, sog‘lom tafakkur va samarali muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish”[1] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, talaba-yoshlarda muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik psixologik omillarini aniqlashtirish,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 6-son. 70-modda.

auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni samarali muloqotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mavzu metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. Shaxsning shakllanishida muloqotning roli juda katta. Nutq aloqasining barcha shakllari va janrlarida insonga oldingi avlodlar tomonidan mazmunli va tizimlashtirilgan tayyor ijtimoiy tajribani olish imkonini beradi. Muloqotda ma'naviy, intellektual va moddiy madaniyatni egallash, insonning dunyo va o‘zini bilishi va buning natijasida – shaxsning ijtimoiylashuvi va inson xatti-harakatlarining moslashuvi mavjud. Psixologlarning ta'kidlashicha, kattalar bilan og‘zaki muloqot insonning atrofidagi dunyoni o‘zlashtirishi uchun ham, fikrlash usullarini o‘zlashtirishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Og‘zaki o‘zaro ta'sir nutqiy muloqot qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida nutq faoliyatida rivojlanadi va takomillashtiriladi. Kattalar bilan muloqotda bo‘lgan bola nafaqat atrofdagi dunyoning ayrim ob'ektlari nomlarini, balki turli xil narsalarga qanday munosabatda bo‘lishni, dunyo qanday ishlashini, odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni va odamlar bilan qanday muloqot qilishni ham o‘rganadi. Til muhitidan tashqarida bola na intellektual, na axloqiy jihatdan rivojlana olmaydi. Muloqot natijasida guruhdagi shaxslar harakatlarining zaruriy tashkil etilishi va birligiga erishiladi, shaxslarning oqilona, hissiy va irodaviy o‘zaro ta'siri amalga oshiriladi, his-tuyg‘ular, fikrlar va qarashlarning umumiyligi, o‘zaro tushunish va harakatlarni muvofiqlashtirish shakllanadi.

Hozirgi ta’lim tizimi tub islohotlar sharoitida rivojlanmoqda va unda ta’lim oluvchilarni qanday o‘qitish emas, balki ularni qanday qilib o‘qishga o‘rgatish masalasi asosiy e’tiborda bo‘lmoqda, ya’ni “o‘qituvchi–darslik–ta’lim oluvchi” tuzilmasi o‘z funksional vazifasini “ta’lim oluvchi–darslik–o‘qituvchi” tuzilmasi bilan almashtirilmoqda. Bu esa ta’lim tizimi oldiga zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirgan, mustaqil fikrlay oladigan hamda tegishli xulosalar chiqara oladigan ijodkor shaxsni shakllantirishni talab qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyati ta’limning yuqori sifati uchun zarur shartdir, chunki u talab qilingan talabalarga zamonaviy bilimlarni kreativ yondashuv asosida to‘liq yetkazilishini ta’minlaydi. Yuqori sifatli ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan talabni qondirishga qaratilgan, talabalarning zarur malakalari va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu xususiyatlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilgan(1-rasmga qarang).


Pedagogik mahorat fani asosida talabalarda muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin:

I. An’anaviy texnologiyalarni zamonaviylashtirish:

Ma’ruza va muhokama: Ma’ruzalarda muloqotning nazariy asoslari, turli muloqot uslublari va strategiyalari, muloqot to‘siqlari haqida ma’lumot beriladi. Muhokamalarda talabalar o‘z fikrlarini bildiradilar, turli nuqtai nazarlarni muhokama qiladilar va o‘z fikrlarini asoslab beradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar: Rol o‘ynash o‘yinlari, guruhda ishlash, taqdimotlar va boshqa amaliy mashg‘ulotlar talabalarga muloqot ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Mashg‘ulotlarda muloqotning turli jihatlariga (og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan, madaniyatlararo va h.k.) e’tibor beriladi.

Mustaqil ishlar:talabalarga referatlar, esselar yozish, taqdimotlar tayyorlash va boshqa mustaqil ishlar beriladi. Bu ishlarda talabalar o‘zlarining bilimlarini va muloqot ko‘nikmalarini ko‘rsatadilar.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash modeli

II. Innovatsion texnologiyalar:

Interaktiv o'quv materiallari: onlayn testlar, viktorinalar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv o'quv materiallari talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Onlayn platformalar: onlayn platformalar talabalarga muloqot qilish, fikr almashish, hamkorlikda ishlash va mustaqil o'qish imkoniyatini beradi. Bu platformalarda talabalar forumlarda muhokama qilishadi, loyihalar ustida birga ishlaydilar, onlayn taqdimotlar o'tkazadilar.

Raqamli resurslar: videodarslar, vebinarlar va boshqa raqamli resurslar orqali talabalarga muloqot madaniyati bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

Gamifikatsiya:o'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish talabalarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Masalan, ball to'plash, belgili bir darajaga yetish kabilar.

Muloqotga yo'naltirilgan o'yinlar: turli o'yinlar (rol o'ynash o'yinlari, debatlar, munozaralar) orqali muloqot ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish va rivojlantirish.

III. Integrativ yondashuvlar:

Fanlararo integratsiya: muloqot madaniyatiga doir bilim va ko'nikmalarni boshqa fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik va h.k.) bilan bog'lash. Masalan, psixologiyada empatiya va noverbal muloqotni o'rganish, sotsiologiyada jamoada ishlashni o'rganish va h.k.

Fanlar orasidagi loyihalar: talabalarga muloqot ko'nikmalarini turli fanlar bilimi bilan

birlashtirgan holda qo‘llaydigan loyihalar berish.

Ushbu texnologiyalarni maqsadli ravishda qo‘llash orqali talabalarning muloqot madaniyati yuqori darajada rivojlanadi. Asosiysi, ta’lim jarayonini talabalarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etishdir.

Pedagogik mahorat fani asosida talabalarda muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

I. Nazariy bilimlarni berish usullari:

Ma’ruza: muloqotning nazariy asoslari, turli muloqot uslublari va strategiyalari, muloqot to‘siqlari, madaniyatlararo muloqot xususiyatlari haqida ma’ruzalar o‘qish. Ma’ruzalarda interaktiv elementlar (savollar, muhokamalar)dan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Seminar: talabalar bilan muloqot madaniyatiga doir muammolarni muhokama qilish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va bahslashish. Seminarlarda har bir talabaning fikriga e’tibor berilishi va ularning faol ishtiroki ta’minlanishi kerak.

Mustaqil o‘rganish:talabalarga muloqot madaniyatiga doir adabiyotlar bilan tanishish, mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish vazifalari beriladi. Bu usul talabalarning mustaqil fikrlash va bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

II. Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari:

Rol o‘ynash o‘yinlari: talabalarga turli muloqot vaziyatlarini (masalan, dars o‘tish, ota-onalar bilan muloqot, konfliktli vaziyatlar) taqlid qilib ko‘rsatish va ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Guruhda ishlash: talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, loyihalar ustida ishlash, muammolarni hal qilish va o‘zaro muloqot qilish orqali jamoada ishlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Taqdimotlar:talabalarga muloqot madaniyatiga doir mavzular bo‘yicha taqdimotlar tayyorlash va taqdim etish. Bu usul talabalarning ma’lumotlarni taqdim etish, auditoriya bilan muloqot qilish va o‘z fikrlarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Munozara va debatlar: Talabalar o‘rtasida munozara va debatlar tashkil etish orqali ularning bahslashish, dalllilar keltirish, o‘z fikrlarini himoya qilish va boshqalarning fikrlarini eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kuzatish va tahlil: Talabalarning muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarini kuzatish va tahlil qilish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash va ularga individual yondashish.

Muloqotga doir o‘yinlar:Turli o‘yinlar orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, masalan, "Telefon", "Buzulgan telefon", "So‘zlar zanjiri" kabi.

Keys-stadilar: real hayot vaziyatlarini tahlil qilish va muloqot ko‘nikmalarini qo‘llash.

Feedback: talabalarga o‘z muloqotlari bo‘yicha muntazam feedback berish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko‘rsatish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan maslahatlar berish.

Tadqiqotda qo‘llanilgan usullarni integrativ yondashuv asosida qo‘llash talabalarda muloqot madaniyatining barcha jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Muhimi, o‘qitish jarayonida talabalarning individual xususiyatlari va o‘rganish uslublarini hisobga olishdir.

Xulosa. Pedagogik mahorat fani asosida talabalarda muloqot madaniyatini integrativ yondashuvlar asosida rivojlantirishga oid tadqiqotlar mazmuni bir necha yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, ularda muloqot madaniyati tushunchasi va uning ahamiyati, zamonaviy jamiyatda muloqot madaniyatining roli, pedagogik mahorat fani va muloqot madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik, tadqiqotning gipotezasi va fanlararo integratsiyaning asosiy yo‘nalishlari keng yoritilgan va bu talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning ahamiyatini yanada kengroq ta’kidlaydi. Talabalarda “Pedagogik mahorat” fanining ta’lim jarayonidagi roli, ushbu jarayonda integrativ yondashuvlarning mohiyati va ta’lim jarayonida qo‘llanilishi, integrativ yondashuvlarda psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik yo‘nalishlaridagi muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Talabalarning muloqot madaniyati darajasini aniqlash uchun diagnostik o‘lchovlar o‘tkazish, talabalarning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalari, muloqot uslublari, muloqot madaniyatiga bo‘lgan munosabati va boshqa ko‘rsatkichlarni o‘rganish, Pedagogik mahorat fani doirasida muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modullarini ishlab chiqish va sinab ko‘rish, eksperimental guruh va nazorat guruhlari bilan ishlash, eksperimental guruhda integrativ yondashuvlar qo‘llaniladi, nazorat guruhida esa an’anaviy usullar

qo‘llanilishi tadqiqotning samaradorligini baholadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Zimnyaya I.A., Zemtsova E.V. Universitet bitiruvchilarining yagona ijtimoiy va kasbiy kompetentsiyasini baholashga integratsiyalashgan yondashuv / I.A. Zimnyaya, E.V. Zemtsova // Bugungi kunda oliy ta'lim. – 2008. – No 5. – B. 14–19.

2. Tursunov N.D. Shaxsni muloqotni boshqarish psixologiyasi. – T.: Ilm-fan, 2019

3. Soliyev A.L., Kogon M.S. Madaniyat va shaxsiyat. – Toshkent-Moskva-Kazan’: Nauka, 2020

4. Boltaboyev A.A. Muloqot olami: sub'ektlararo munosabatlar muammosi. – T.: O’zMU axborotnomasi, 2019. №2.

5. Leontiev A.A., Rustamova L.M. Muloqot psixologiyasi. – M.:Akademiya markazi, 2019.

Xamrayeva Diyora Burxon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI SHAKL VA USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada kognitiv yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual-shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning dolzarbligi, o‘qituvchilarning individual-shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning asosiy jihatlari, o‘ziga xos vazifalari, kognitiv yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual-shaxsiy sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, ushbu bosqichlar mazmuni va amalga oshirilish yo‘nalishlari haqida nazariy ma’lumot va tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv yondashuv, individual-shaxsiy sifatlar, bilim olish jarayoni, akmeologik rivojlanish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, baholash, hissiy aql, ijodkorlik.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ФОРМЫ И МЕТОДЫ НРАВСТВЕННО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В статье изложены теоретические сведения и рекомендации об актуальности развития индивидуально-личностных качеств будущих учителей начальных классов на основе познавательного подхода, основные аспекты, специфические задачи познавательного подхода в развитии индивидуально-личностных качеств учителей, этапы развития индивидуально - личностных качеств будущих учителей начальных классов на основе познавательного подхода, содержание и направления реализации этих этапов.*

Ключевые слова: *познавательный подход, индивидуально-личностные качества, процесс приобретения знаний, акмеологическое развитие, развитие мыслительных способностей, оценок, эмоционального интеллекта, творчества.*

EFFECTIVE FORMS AND METHODS OF MORAL AND MORAL EDUCATION OF PRIMARY STUDENTS BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Annotation. *The article describes the relevance of the development of individual-personal qualities of future primary school teachers on the basis of a cognitive approach, the main aspects of the cognitive approach of teachers in the development of individual-personal qualities, specific tasks, stages of development of individual - personal qualities of future primary school teachers on the basis of a cognitive approach, theoretical*

Keywords: *cognitive approach, individual-personal qualities, the process of acquiring knowledge, acmeological development, development of thinking skills, assessment, emotional intelligence, creativity.*

Kirish. Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida fanlarda yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi hamda fanlararo integratsiyaning jadal rivojlanishi oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborotlar, xususan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion va integratsion texnologiyalarni joriy qilish, axborotlarni uzatishda fanlararo aloqadorlik tamoyillariga qat’iy amal qilish muammolari yuzaga kelmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining innovatsion va integratsion texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini oshirmoqda

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o‘quv rejalari, fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni hayotga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Pedagogika sohasi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari uchun o‘zgaruvchan o‘quv reja va dasturlarni joriy etish...” vazifalari belgilanib, talabaning aqliy, intellektual

va jismoniy kuchlarini ma’lum bir maqsadga yo‘naltirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirish, bilimlarni, dizaynni, kommunikativ-nutq hamda tashkiliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida nazariy bilim, amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mavzu metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son, 2022-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026- yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mavzu tahlili. Hozirgi globallashuv va axborot asrida ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri bu yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasidir. O'zbekistonning milliy taraqqiyoti va yosh avlodni yetuk shaxs sifatida shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion pedagogika bizning davrimizda umumiy pedagogika doirasidagi bilimlar sifatida tanilgan, ammo har kuni u dunyo mutaxassislarining e’tiborini tortadi va tez rivojlanayotgan bilimlar tizimidir. An’anaviy pedagogikaning tarbiyaviy ahamiyatini tan oladigan, innovatsion va integratsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni amalga oshirishga intilishni tadqiq qiladigan olimlar, o‘qituvchilar jamoasi bu sohada qat’iy sa’y-harakatlar olib borishmoqda. Pedagogik ijodning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xususiyatiga bog‘liqdir. Ijodiy pedagogik faoliyat – bu inson shaxsiyatini, uning dunyoqarashini, e’tiqodini, ongini, xarakterini shakllantirish kabi umumiy maqsadga bo‘ysunadigan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish jarayonidir. O‘qituvchining ijodiy faoliyati ta’lim usullarini izlashda va ushbu muammolarga yechim topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, pedagogik ijod manbai pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga to‘ladir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda,o‘qituvchining o‘z vazifasiga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda yangi va samarali usul, vositalarni izlash hamda ulardan foydalanishi tushuniladi. Hozirda innovatsion pedagogika juda muhim masala hisoblanadi. Uning asosiy xarakteristikasi – obyektivlik, qat’iyatlilik, izchillikdir. Yagona obyektiv talab – bu insonning intellektual rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasidir. Bugungi kunda “innovatsiya” atamasi keng qo‘llanilmoqda. Innovatsiya so‘zi – inglizcha “yangi, yangilik kiritish, ichki tuzilishni o‘zgartirish”, degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya nazariya va amaliyotning muhim qismidir, ya’ni obyektning ijtimoiy-madaniy sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy omillarning bir qator harakatlaridir. Ta’lim jarayonida yangi fikrlarning shakllanishi tashabbus va innovatsiyalarga asoslangan bo‘lib, ta’lim mazmunini yaxshilashga qaratilgan. Umuman olganda, bu o‘rganish tuzilishi va tartibini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, innovatsiya – bu texnologik jarayonlar yoki muammolarni hal qilishning yangi shakllari va usullaridan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish texnologiyasi yoki ma’lum bir faoliyat sohasi bo‘lib, uning yakuniy natijasi muvaffaqiyatli bo‘lishi bilan belgilanadi. O‘qituvchilar va psixologlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalanishni shakllantirish bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish natijasida nazariy jihatdan o‘quvchilarni o‘quv jarayonida har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, ta’lim, rivojlanish va shakllanish muammolarini uyg‘unlikda, bir butunlikda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta'lim mazmuni va metodikasiga, pedagoglarning ijodkorligi va innovatsion yondashuvlariga bog‘liqdir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalar ongini shakllantirishda o‘ziga xos davr hisoblanadi. Bu davrda bolalarda asosiy axloqiy fazilatlar, burch va mas'uliyat tuyg‘ulari

shakllana boshlaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarga axloqiy qadriyatlarni yetkazish va ularni ma'naviy jihatdan boyitish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish bugungi kun ta'limi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, interaktiv darslar, multimedia vositalaridan foydalanish, raqamli o‘yinlar va virtual treninglar orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish hamda ular uchun ma'lumotni qabul qilishni osonlashtirish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish, jamoa bo‘lib ishlash va o‘z fikrlarini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunda dars jarayoniga joriy etilgan raqamli resurslar va ilovalar o‘quvchilarning didaktik faoliyatini jonlantirib, axloqiy qadriyatlarni qiziqarli va samarali shaklda o‘rgatishga xizmat qiladi. Misol uchun, qahramonlik hikoyalari, milliy qadriyatlar va axloqiy fazilatlar haqidagi qisqa animatsion roliklar yoki interaktiv dasturlar bolalar ongida mustahkam taassurot qoldiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida "raqamli transformatsiya" jarayoni faol amalga oshirilmoqda, bu esa boshlang‘ich ta’limning barcha sohalariga, jumladan, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonda nafaqat texnik vositalar, balki pedagogik yondashuvlarning takomillashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun raqamli platformalardan foydalangan holda ijodiy loyihalar tashkil etish va ularni mustaqil ravishda bajartirish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim berishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni ham e'tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ayrim hollarda texnologiyalarga haddan tashqari ishonch o‘quvchilarni an’anaviy ma’naviy qadriyatlardan uzoqlashtirishi yoki ularning axloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, innovatsion vositalarni maqsadga muvofiq va muvozanatli qo‘llash hamda ular orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish pedagoglardan yuqori mahorat va mas’uliyatni talab qiladi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakl va usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning ushbu jarayondagi imkoniyatlari, milliy va xalqaro tajribalar o‘rganilib, ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi. Bu esa o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo‘shib, mamlakatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu jarayon yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim o‘rin tutib, bolalarda ma’naviy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy javobgarlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘lib, ularga axloqiy saboqlarni o‘rgatish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilash va ularga ma’lumotni yanada qulay va samarali shaklda yetkazish imkonini beradi. Masalan, interaktiv o‘quv dasturlari, multimedia vositalari, virtual haqiqat texnologiyalari va raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarning darsga faol qatnashishini ta’minlaydi. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy mavzularda o‘quvchilarni qiziqtiruvchi o‘yinlar va vizual materiallardan foydalanish orqali ularga axloqiy qadriyatlarni singdirish mumkin. Misol uchun, milliy va xalqaro qahramonlar haqida hikoya qiluvchi interaktiv dasturlar bolalar ongida jasorat, vatanparvarlik va mehr-muruvvat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish samarali usullardan biridir. Slayd-shou, videorolik va animatsiyalar orqali ma’naviy qadriyatlarni bolalarga oson va qiziqarli shaklda tushuntirish mumkin. Masalan, axloqiy qadriyatlar haqida qisqa videoroliklarni tomosha qilish bolalar ongida chuqur taassurot qoldiradi va ularni eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan foydalanish orqali dars jarayonini interaktiv shaklda o‘tkazish ham mumkin, bu esa o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyati mavjud. Masalan, maxsus o‘quv dasturlari orqali o‘quvchilarni turli axloqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish mumkin. Bunday dasturlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi va ularga mas’uliyat hissini singdiradi. Misol uchun, "Axloqiy tanlov" nomli interaktiv o‘yin bolalarni turli axloqiy muammolarni hal qilishga jalb etadi va ularning hayotiy tajribasini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarda ijodkorlik va kritikan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Virtual loyihalar yaratish, jamoaviy o‘yinlar o‘ynash va turli

masalalarni yechishda texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarda ijodiy yondashuv shakllantiriladi. Shu bilan birga, bu jarayon bolalarni ijtimoiylashishga, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. O'quvchilar dars davomida bir-birlari bilan muloqotda bo'lib, jamoaviy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish samaradorligini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, bolalar orasida rolli o'yinlar o'tkazish orqali ularga ma'naviy qadriyatlarni singdirish samarali bo'ladi. Masalan, "Halollik sarguzashtlari" kabi rolli o'yinlarda bolalar o'zlarini axloqiy vaziyatlarda tasavvur qilib, halollik, mehribonlik va odoblilik kabi fazilatlarni amaliy ravishda o'rganadilar. Bu kabi yondashuvlar bolalarda nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy fazilatlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish maqsadida milliy o'yinlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, "Alpomish va Barchinoy" kabi milliy qahramonlar haqidagi hikoyalarni interaktiv shaklda o'rgatish orqali bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish mumkin. Bu esa o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga o'rgatadi va ularni ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarda nafaqat axloqiy, balki axborot madaniyatini ham shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Internet va raqamli resurslardan foydalanishni o'rgatish jarayonida ularga axloqiy va qonuniy tamoyillarni tushuntirish lozim. Masalan, bolalarga internetdagi axborotlardan to'g'ri foydalanish, begona shaxslar bilan muloqotda ehtiyotkor bo'lish va mualliflik huquqiga rioya qilish bo'yicha ko'nikmalar berish zarur. Bu jarayon o'quvchilarning nafaqat bilim saviyasini, balki ulardagi axloqiy mas'uliyatni ham oshiradi. Innovatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishda o'qituvchilarning roli juda katta. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malakali o'qituvchilar dars jarayonida innovatsion usullardan samarali foydalanib, bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Shu maqsadda, o'qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilish lozim. Bu esa ularning o'z kasbiy mahoratlarini oshirishga va darslarni yanada samarali o'tkazishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchi, mutaxassisligi va faoliyatidan qat'iy nazar, fundamental bilim, kasbiy mahorat hamda muayyan tajribaga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish uchun bo'lajak mutaxassis o'z sohasida, agar ushbu sohaga tegishli muammo yoki savollar tug'ilsa, uni o'z nuqtai nazari va ijodiy faoliyati asosida hal qilishi, xususan, o'z tadqiqotlari va tajribasini yangi bosqichga ko'tarishi mumkin. Chunki oliy o'quv yurtlarida talabalarning yuqori darajadagi tayyorgarligi va axloqiga talab ham yuqoridir. O'qituvchi ijtimoiy fanlar sohasidagi yangi pedagogik usullarni aniqlay olishi va ulardan samarali foydalanishi kerak.boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni ularning axloqiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan boyitish, ularni axloqiy jihatdan shakllantirish va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash mumkin. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida oqilona va maqsadli qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning kelajakda mas'uliyatli, halol va ma'naviy boy shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Алиев, А. М. Инновационные технологии в образовании: учебное пособие / А. М. Алиев. — М.: Просвещение, 2021. — 240 с.

2. Ахмедов, Б. М. Формирование духовно-нравственных качеств у учащихся младших классов: монография / Б. М. Ахмедов. — Ташкент: Узбекистон, 2020. — 180 с.

3. Беляева, Н. С. Современные педагогические технологии в начальной школе / Н. С. Беляева. — СПб.: Питер, 2019. — 256 с.

4. Ганиева, Р. Р. Использование мультимедиа в образовательном процессе начальной школы / Р. Р. Ганиева // Педагогика. — 2022. — № 3. — С. 34–39.

5. Каримова, Н. А. Духовно-нравственное воспитание школьников в условиях цифровизации / Н. А. Каримова // Образование и наука. — 2021. — № 5. — С. 56–62.

6. Мирзаев, О. К. Роль национальных ценностей в нравственном воспитании учащихся / О. К. Мирзаев // Молодой ученый. — 2020. — № 15. — С. 245–248.

Yarashev Abrorjon Nuriddin o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA VIZUAL VOSITALAR ORQALI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI HAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda vizual vositalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Vizual texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning e’tiborini jalb qilish va o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlashning yangi metodik yondashuvlari yoritiladi. Maqolada zamonaviy vizual vositalar, ularning turlari, qo‘llanilish sohasi va pedagogik jarayondagi afzalliklari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, vizual vositalar, kasbiy kompetensiya, o‘qituvchi tayyorlash, innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение визуальных средств в формировании профессиональных компетенций будущих учителей в условиях цифровой образовательной среды. Освещаются новые методические подходы к повышению эффективности учебного процесса, привлечению внимания обучающихся и подготовке к педагогической деятельности с использованием визуальных технологий. В статье обсуждаются современные визуальные средства, их виды, сферы применения и преимущества в педагогическом процессе.*

Ключевые слова: *цифровое образование, визуальные средства, профессиональная компетенция, подготовка учителей, инновационные методы, современные технологии.*

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING FUTURE TEACHERS’ PROFESSIONAL COMPETENCIES THROUGH VISUAL TOOLS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Annotation. *This article analyzes the role and significance of visual tools in developing future teachers’ professional competencies within a digital learning environment. It explores new methodological approaches to enhancing the effectiveness of the educational process, engaging learners, and preparing for teaching activities using visual technologies. The article discusses modern visual tools, their types, areas of application, and advantages in the pedagogical process.*

Keywords: *digital education, visual tools, professional competence, teacher training, innovative methods, modern technologies.*

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim sohasiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida yangi texnologiyalarning, xususan, vizual vositalarning qo‘llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli muhitdagi interaktiv, multimedia va vizual vositalar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Raqamlashtirish sharoitida vizual vositalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlash maqsadida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini va kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash lozim.

Hozirgi davrda talaba yoshlarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o‘qitishning yangi shakl, noan’anaviy metod va vositalar orqali ularning bilish

jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ularda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda vizual vositalar orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud bo'lib, aynan mana shular oliy ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'sirchan choralarni ko'rishni taqozo qiladi.

Vizual vositalar orqali bo'lajak bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan vizual vositalar orqali tayanch kompetensiyalarning o'zlashtirilishini va shu asosda ularda kasbiy kompetensiyalarni rivojlanishini ta'minlovchi didaktik shartsharoitlar (ta'limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va o'qitish texnologiyalari);

vizual vositalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda motivatsiyani oshirishga yordam beradigan rangli diagrammalar, videolar, illyustratsiyalar va infografikalar orqali o'quv materiallari vizual tarzda taqdim etishga zarur bo'lgan moddiy-texnik shart-sharoitlar;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini vizual vositalar orqali tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy boshqaruv shart-sharoitlari (ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning shakllari, vositalari va usullari);

professor-o'qituvchilarni ta'lim jarayonida vizual vositalar orqali kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishga tayyorlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ta'minotini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan kasbiy metodik shart-sharoitlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda fikr bildiradigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining shakllanishida ham protsessual, ham shaxsning ijodiy fazilatlari rivojlanib borishi lozim.

Raqamli ta'lim muhiti — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari orqali ta'lim olish va ta'lim berish imkonini beradigan tizimdir. Bunday muhitda o'quv materiallari elektron shaklda taqdim etiladi, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa zamonaviy o'qituvchidan AKT bilan ishlash ko'nikmalarini, didaktik materiallarni samarali yaratish va ularni taqdim etish mahoratini talab etadi.

Raqamlashtirish sharoitida vizual vositalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Shunga ko'ra, to'rt xil psixologik holatni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos uslubini va vizual vositalar orqali o'quv jarayonini loyihalashning mohiyati va tamoyillarini bilish.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning kelajakdigi kasbiy faoliyatiga hissiy va qadriyatli munosabat, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini vizual vositalar asosida samarali tashkil etish zarurligiga ishonch hosil qilish.

3. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan kreativ darajada amalga oshirish qobiliyati.

4. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini yo'naltirilgan ta'lim jarayoni loyihasini mantiqiy va uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyat.

Vizual vositalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyaini rivojlantirishning birinchi sharti boshqa oliy ta'lim muassasalari singari pedagogik yo'nalishdagi ta'lim tizimida ham ilg'or, innovatsion va yetakchi bo'lgan bilim olish texnologiyalarini, zamonaviy texnik qurilmalarni yaratish jarayoni bilan bog'liq. Talabalarning bilim olishida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini takomillashtirish shartli ravishda ikki yo'nalishga ajratiladi. Birinchi yo'nalish tashqi omillar va ta'sirlarga qaratilgan. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati mazmuni, uni tashkil etish tamoyillari, bosqichlari, tarkibiy qismlari, o'quv jarayoni loyihalash darajalari haqida bilimlarni ishlab chiqish, talabalarning oliy ta'lim muassasalarida kasbiy mustaqil faoliyatlarini boshqarish uchun axborot bazasini shakllantirishidir.

Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ikkinchi yo‘nalishi talabaning shaxsiga yo‘naltirilgan. Bu refleksiv faoliyat: ularning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish, ularda o‘qituvchilik faoliyatining individual uslubini ongli shakllantirish hisoblanadi.

